



MAKROIQTISODIYOT

330.1(04)
M 18

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**N.M. MAXMUDOV, A.B. SHAKAROV, X.A. ULASHEV,
J.A.SHAKAROV**

MAKROIQTISODIYOT

(Darslik)

(Kredit-modul bo'yicha)

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsija etilgan**

8147

UO'K: 330(075.8)

KBK 65.012.2ya7

M 86

Makroiqtisodiyot. (Darslik) – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2022, 454 bet.

ISBN 978-9943-7395-8-1

“Makroiqtisodiyot” fanidan darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim standarti talablari va fan bo‘yicha namunaviy dastur asosida yozilgan. Darslikda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichini hisobga olgan holda makroiqtisodiy masalalarни ko‘rib chiqishga alohida e’tibor qaratilgan; Darslikda “Raqamli iqtisodiyot”, “Yashil iqtisodiyot”ning mohiyati va ularning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri yoritilgan. Darslikning har bir bobida xulosalar, mavzuni mustahkamlash uchun masalalar berilgan. Darslikning oxirida asosiy iboralari bo‘yicha glossariy va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari ilova shaklida berilgan. Ushbu darslikdan Oliy ta’limning iqtisodiyot yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan bakalavr, magistrlar va dars berayotgan o‘qituvchilar foydalaniishlari mumkin.

UO'K: 330(075.8)

KBK 65.012.2ya7

Mualliflar:

**N.M. MAXMUDOV, A.B. SHAKAROV, X.A. ULASHEV,
J.A.SHAKAROV**

Taqrizchilar:

B.Salimov – iqtisodiyot fanlari doktori, TDIU “Sanoat iqtisodiyoti” kafedrasi professori;

M.Muhammedov – iqtisodiyot fanlari doktori, SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi professori.

ISBN 978-9943-7395-8-1

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022.

KIRISH

XX asrda rivojlangan mamlakatlarning xarakterli belgilari – bu ularning iqtisodiyotiga ilmiy-texnik taraqqiyotning innovatsion yutuqlarini faol joriy etishdadir. Buning natijasida iqtisodiy o'sishda katta natijalarga erishildi, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotda yangi holat va jarayonlar payda bo'la boshladi. Bu esa o'z navbatida ularning milliy iqtisodiyot rivojlanish tendensiyalariga ta'sirini o'rghanish bo'yicha obyektiv tadqiqotlar o'tkazishni talab qila boshladi. Bu esa o'z navbatida oldingi ma'lum metod va vositalar yetarli darjada hamda samarali emasligi aniq bo'ldi.

Makroiqtisodiyot fanining o'rganayotgan talabalar uchun bu muhim zamonaviy iqtisodiy hayot va boyitilgan iqtisodiy nazariya haqida ilmiy ishonchli bilimlarga ega bo'lish real iqtisodiyotning yangi ma'lumotlari bilan yanada to'liqroq yoritib beradi. Bu esa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida bo'lib o'tayotgan jarayonlarni tadqiqot qilish bo'yicha yangi zamonaviy vosita va usullarni topishni talab qila boshladi. Buning natijasida iqtisodiy fanlar tarkibida yangi – makroiqtisodiy tadqiqotlar metodari yo'nalishi paydo bo'ldi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy fanlar tarkibida alohida fan sifatida – makroiqtisodiyot vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi turmush farovonligini yuksaltirish borasida ulkan yutuqlarga erishildi. Mustaqillikning dastlabki yillarda yuzaga kelgan murakkab muammolarning muvaffaqiyat bilan hal etilishi, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlanishi, dastlab iqtisodiy pasayishni bartaraf etilishi va so'ngra iqtisodiy o'sishga erishish davlatimiz iqtisodiy siyosati iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorlik kasb etganligi, mamlakatimizni rivojlantirish borasida keyingi yillarda qayd etilayotgan natijalar bu xulosalar qanchalik asosli ekanligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020–yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga to'xtalib. "Kelgusi yilda inflyatsiyaviy targetlash

doirasida narx-navo o'sishini 10 foizdan oshirmaslik Markaziy bank va Hukumatning asosiy vazifasi bo'ladi. Bu borada global pandemiya oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Shu boisdan ham asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida import sohasidagi boj to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlar yana bir yilga uzaytiriladi. Shuningdek, 2021-yilda iqtisodiyotni kamida 5 foizga o'sishini, byudjet defitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,4 foizdan oshmasligini ta'minlashimiz zarur. Kelgusi 2 yilda esa byudjet defitsitini 2 foizdan oshirmaslik bo'yicha Hukumat zarur chora-tadbirlarni belgilashi lozim"¹ deb ta'kidlab o'tdi.

Davlat iqtisodiy siyosatining nazariy asoslari sifatida tan olinadigan fanlar qatorida "Makroiqtisodiyot" fani alohida o'rinn tutadi.

Yalpi ishlab chiqarishining barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandliligini, infliyatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtayi nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qilish va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganish - "Makroiqtisodiyot" fanining predmetini tashkil etadi.

Bu ta'rifdan ko'rinish turibdiki, "Makroiqtisodiyot" fani milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq barcha jihatlarni, jumladan mehnat resurslari, tovarlar, pul bozorlarining amal qilishi, monetar, fiskal va tashqi savdo siyosatini amalga oshirish hamda boshqa masalalarni qamrab oladi.

Ushbu o'quv qo'llanma "Makroiqtisodiyot" fanidan namunaviy o'quv dasturga kiramagan barcha mavzularni qamrab olgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'lidan, mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidan izchil harakat qilib borar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida ulkan yutuqlarga erishdi.

¹ Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожатномаси. 2020 йил 29 декабрь.

Shu sababli ham, hozirgi zamон iqtisodchi kadrlaridan makroiqtisodiy nazariya va eng zamonaviy makroiqtisodiy konsepsiylar bilan yuxshi tanish bo'lishlari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyatini chuqur bilishlari, ularni tahlil qilish va baholash malakasiga, nazariy bilimlarni amaliyat bilan bog'lash ko'nkmalariga ega bo'lishlari talab etilindi.

Makroiqtisodiyot fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda makroiqtisodiyot nazarlyysi, makroiqtisodiy tahlil va davlatning makroiqtiodiy siyosati to'g'risida bir tizimga solingan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari – makroiqtisodiy kategoriylar, makroiqtisodiy muammolarning namoyon bo'lishi shakllari va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy modellar vositasida tahlil etish, makroiqtisodiy siyosat maqsadlari va vositalari, ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy siyosat yuritish xususiyatlari to'g'risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, makroiqtisodiy konsepsiya va modellardan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, makroiqtisodiy siyosat natijalarini prognoz qilish usullarini o'rgatishdan iborat.

"Makroiqtisodiyot" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- makroiqtisodiyot fanining predmetini, asosiy kategoriylarini va tadqiqot usullarini; makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyatini va ularni hisoblash shartlarini; asosiy makroiqtisodiy modellarni va ularda iqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosat natijalarini aks ettirishni; tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanatga erishish mehanizmining mohtyatini; pulga talab, pul taklifi va pul bozorida muvozanatga ta'sir etuvchi omillarni; byudjet-soliq va pul-kredit siyosatining maqsadlarini, vositalarini, ko'rinishlarini; iqtisodiy o'sishning mohiyatini, o'lchanishini, omillarini va modellarini, tashqi savdo siyosatining nazariy asoslarini va vositalarini;

mamlakat to‘lov balansining tuzilishini, makroiqtisodiy ahamiyatini va uni tartibga solish usullarini; valyuta kursining mohiyatini, makroiqtisodiy ahamiyatini, uni belgilovchi omillarni va barqarorligini ta‘minlash shartlarini, ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish xususiyatlarini bilishi kerak;

– makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash; asosiy makroiqtisodiy modellarning o‘zgaruvchilarini aniqlash va tenglamalarini tuzish; tovarlarlar va xizmatlar bozorida qisqa va uzoq muddatli muvozanatni ta‘minlash mexanizmini tushuntirib berish; pul bozorida muvozanat yuzaga kelishining o‘ziga xos xususiyatlarini; makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy jarayonlar va alohida ko‘rsatkichlarga ta‘sir ko‘rsatishi qonuniyatlarini aniqlash; turli makroiqtisodiy vaziyatlarda byudjet-soliq yoki pul-kredit siyosatini qo‘llash hamda o‘zaro muvofiqlashtirish shartlarini tushuntirib berish; tashqi savdo siyosati va valyuta kursini tartibga solish orqali to‘lov balansi holatiga, yalpi talab va yalpi taklif hajmlariga ta‘sir ko‘rsatish usullarini tavsiflab berish; ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning q‘ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi qanday amal qilishini izohlab berish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;

– iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda makroiqtisodiy modellarni qo‘llash; makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish; makroiqtisodiy siyosatning ijobjiy va salbiy oqibatlariga baho berish; makroiqtisodiy siyosatning natijalarini prognoz qilish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

I BOB. MAKROIQTISODIYOTGA KIRISH

1.1. “Makroiqtisodiyot” fanining shakllanish tarixi, predmeti va obyekti

Makroiqtisodiyot atamasi kundalik foydalanishga nisbatan yaqindagina kiritilgan bo‘lsa-da, makroiqtisodiy tahlil elementlari iqtisodiyot fani bilan deyarli birga paydo bo‘ldi. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini yaxlit bir jarayon sifatida tadqiq qilish, unga turli elementlarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri xos bo‘lgan tizim sifatida yondashish dastlab F. Kene asarlarida uchraydi. Fransiya qiroli Lyudovik XV saroyi shifokori F.Kene 1758-yilda, milliy mahsulot ishlab chiqarish jarayoni pul oqimlarining doiraviy aylanishi sifatida tasvirlangan “Kene jadvali” ni tuzishda ilk bor makroiqtisodiy tahlil elementlarini qo‘lladi.

Makroiqtisodiy tahlilning tamal toshlari, shuningdek, J.B.Sey, L.Valras, V.Pareto va boshqa olimlar tomonidan XIX asrdanoq qo‘yilgan edi deb ta’kidlash mumkin. Keyinchalik, K.Marks o‘zining jami ijtimoiy mahsulot(JIM)ni takror ishlab chiqarish sxemasi, V.Leontev esa o‘zining tarmoqlararo balansi bilan makroiqtisodiyotni iqtisodiy nazariyaning alohida bo‘limi sifatida ajralib chiqishi uchun mustahkam asos yaratishdi. J.M. Keyns esa o‘zining “Ish bilan bandlilik, foiz va pulning umumiylarini nazariyasi”(1936-yil) asari bilan bu jarayonni mantiqiy yakuniga yetkazdi. Shu sababli ham J.M. Keyns makroiqtisodiyot fanining asoschisi sifatida tan olinadi.

Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida iqtisodiyotning o‘zaro aloqada va ta’sirda harakat qiladigan sohalari, tarmoqlari, hududiy tuzilmalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy xo‘jalik tizimidir². Makroiqtisodiyot o‘z ichiga iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarini, bank, moliya, sug‘urta, soliq, bojxona tizimlarini o‘z ichiga oladi.

² McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 8

Makroiqtisodiy tahlilning maqsadi – takror ishlab chiqarish jarayonini obyektiv ravishda aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish asosida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida vujudga kelgan holatlarni olib berishdan iborat. Bu maqsadga erishishning muhim shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Shunday qilib, makroiqtisodiyot o'z predmeti va tadqiqot usul-lariga ko'ra, mustaqil fan sifatida XX asrning o'rtalariga kelib shakllanib bo'ldi.

Makroiqtisodiyot umumiy iqtisodiy nazariyaning bo'limi hisoblanib, unda milliy xo'jalik darajasida iqtisodiyotning fundamental muammolari tadqiq qilinadi.

Makroiqtisodiy nazariyaning ikki ko'rinishi o'zaro farq qilanadi:

- a) pozitiv makroiqtisodiyot;
- b) normativ makroiqtisodiyot.

Pozitiv makroiqtisodiyot real iqtisodiy hodisalarni va ularning aloqadorliklarini o'rganadi.

Normativ makroiqtisodiyot esa qaysi sharoitlar yoki jihatlar maqbul yoki nomaqbul ekanligini belgilaydi, harakatning aniq yo'nalishlarini taklif etadi.

Shu joyda iqtisodiy nazariyaning ikki mustaqil bo'limi sifatida makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot fanlarining predmetlarini o'zaro farqlab olishimiz zarur.

Mikroiqtisodiyot predmeti bo'lib "belgilangan" iqtisodiy shart-sharoitlarda uy xo'jaliklari va firmalar darajasida iqtisodiy qaror qabul qilish mexanizmi hisoblanadi. Mikroiqtisodiy tahlil obyekti bo'lib alohida tovarlar bozorlari, resurslar bozorlari, ulardagи talab va taklif hisoblansa makroiqtisodiyotda milliy iqtisodiyot darajasida mehnat, pul, tovarlar va xizmatlar bozorlarining munosabatlari va o'zaro ta'siri tahlil qilinadi.

Makroiqtisodiy nazariyaning tadqiqot obyektiga quyidagilar kiradi:

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (YaIM,YaMM,MD va boshqalar.);
- iqtisodiy xatti-harakatlar (iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotning davriyligi, inflyatsiya va ishsizlik darajasi);
- iqtisodiy siyosat (davlatning byudjet-soliq, pul-kredit, tashqi iqtisodiy siyosati va uning investitsion jarayonlarga hamda iqtisodiy o'sishga ta'siri);
- iqtisodiy omillar (foiz stavkasi, narx, davlat byudjetining daromadlari va xaratatlari).

makroiqtisodiy siyosatning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- milliy ishlab chiqarishning bir maromda o'sishi — aholi turmush darajasini oshishining asosi;
- baho darajasining barqarorligi, inflyatsiyani kamaytirish;
- aholining bandligini oshirish;
- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qulay tashqi-iqtisodiy sharoitlar yaratish.

Makroiqtisodiyotda “belgilangan” deb qabul qilingan, Ya’ni mikroiqtisodiy tadqiqot predmeti hisoblanmaydigan ko‘pgina ko'rsatkichlar, jumladan iste'molchilarining daromadlari, jamg‘armalari, foiz stavkasining dinamikasini va buni belgilovchi omillarni makroiti-sodiyot tadqiq qiladi.

Makroiqtisodiyot yalpi ishlab chiqarishining barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandliligini, inflyatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtayi nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qiladi va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganadi.

Keltirilgan ta'rifdan ko'rinish turibdiki, makroiqtisodiyot predmeta o'zaro bog'liq uch jihatni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular:

- 1) milliy iqtisodiyot;
- 2) davlat tomonidan iqtisodiy siyosati yuritish va iqtisodiyotni tartibga solish;

3) jahon xo'jaligi doirasida milliy iqtisodiyotni boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti bilan o'zaro munosabatlari masalasi.

1.1-jadvalda keltirilgan iqtisodiy nazariyaning ikki qismida ko'rildigani

1.1-jadval

Mikro va makroiqtisodiyotning o'zaro taqqoslanma tahlili

No	Mikroiqtisodiyot	Makroiqtisodiyot
1	Bozor munosabatlarining subyektlari Alovida ishlab chiqaruvchi Alovida iste'molchi.	Yalpi ishlab chiqaruvchilar; Yalpi iste'molchilar; Davlat (ijtimoiy institutlar); Xorij.
2	Bozor munosabatlari boshqarish subyekti Mavjud emas.	Davlat (hukumat)
3	Tahlil etiluvchi bozor	
4	Aniq tovar yoki xizmat bozori. Tahlil etiluvchi bozor holati	Barcha tovar va xizmatlar bozori.
5	Xususiy. Foydalanimuvchi ko'rsatkichlar	Umumiqtisodiy
A	-narx;	-umumiy narx darajasi;
B	-talab;	-yalpi talab;
V	-taklif;	-yalpi taklif;
G	-mahsulot;	-yalpi milliy mahsulot;
D	-daromad;	-milliy daromad;
E		-inflyatsiya;
J		-ishsizlik;
Z		-iqtisodiy o'sish va h.k.
6	O'rganiluvchi markaziy muammo Talab va taklif muvozanati.	AD=AS bo'lgan holatda ishlab chiqarish hajmi.
7	Dastlabki tarixiy iqtisodiy maktab Neoklassik maktab	Keyns maktabi

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni o'z vaqtida va joy-joyida hal qilishda ko'pgina iqtisodiy fanlar qatori mikro va makroiqtisodiyot fanlari ham bevosita shug'ullanadi. Masalan, biror-bir mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun har xil qaror va

qonunlar qabul qilishda iqtisodchilar ikki xil tahlillar orqali yondashadilar. Ya’ni mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy yondashuvlardan iborat.

Mikroiqtisodiy yondashuv yoki mikroiqtisod bu biror bir aniq iqtisodiy birlikni to‘liq tahlil qilishdan iboratdir. Masalan, biror-bir ishlab chiqarish korxonasini o‘rganish, ya’ni korxonani tashkil qilishdagi ichki (insonlar, ishlab chiqarish vositalari, kapital va ma’lumotlar bilan ta’minlanganlik darajasi) va *tashqi* (ma’muriy hamda markaziy boshqaruva tashkilotlari, iste’molchilar, ishlab chiqarish komponentlarini yetkazib beruvchilar va aholi yashash joylariga uzoq-yaqinligi) *omillar*, ishlab chiqargan mahsulotlarining xarajatlari, foydasi, tushumi, to‘lanadigan soliqlar va shuningdek, korxona faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlarini *to‘liq o‘rganishdan iboratdir*. Yoki boshqacha qilib aytganda resurslar, tovarlar va daromadlar doiraviy aylanishini alohida olingan korxona, tarmoq hudud darajasida o‘rganishdan iboratdir (1.1-jadval).

Makroiqtisodiyot esa keng ko‘lamdagagi iqtisodiyot bilan shug‘ullanadi. Makroiqtisodiyot mustaqil fan sifatida XX asrning 30-chi yillarda shakllandi. Uning asoschisi britaniyalik iqtisodchi Djon Meynard Keyns. Keyns ilmiy konsepsiyasining muhimligi va dolzarbligi shundaki, u ilk bor aralash iqtisodiyot modelini ishlab chiqdi va to‘liq asoslab berdi. Shu bilan birga u iqtisodiyotdagi siklik rivojlanish masalalarini o‘rganib makroiqtisodiy tahlillar olib borish kerakligini tavsiya etdi. Aytib o‘tish joizki, Keyns nazariyasi AQSHda 1929–1933-yillarda yuz bergen buyuk depressiya davriga to‘g‘ri keldi. Keynsning nazariyasi quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

1) aralash iqtisodiyot nazariyasi ilgari surildi va o‘z-o‘zidan klassik bozor iqtisodiyoti konsepsiysi va A.Smitning “Ko‘rinmas qo‘l” nazariyasi o‘z kuchini yo‘qota boshladи;

2) bozor iqtisodiyoti sharoitida jami talabining taklifdan ustunligi tan olindi va biri ikkinchisidan kelib chiqishi asoslab berildi;

3) milliy iqtisodiyotda “boylik samarasи” amal qilishi, ya’ni shaxsiy jamg‘armalarining ko‘payishi o‘z navbatida xalq farovonligini

oshirishda salbiy ta'sir etishi isbotlab berildi.

Uning obyekti bo'lib yalpi ishlab chiqarish, ish bilan bandlik, baho va tashqi iqtisodiy savdo, inflyatsiya hisoblanadi. Ya'ni resurslar, tovarlar va daromadlar doiraviy aylanishni xalq xo'jaligi yoki mamlakat miyosida o'rganishlardan iborat. Hozirgi jahon xo'jaligi rivojlangan, ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida barcha mamlakatlarning iqtisodiyotlari uzviy bog'liqdir. Mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va mudofaa qobiliyatları ko'p jihatdan ularning makroiqtisodiyotiga bog'liqdir. U murakkab va ko'p qirrali masalalarni o'z ichiga olganligi tufayli hozirda iqtisodchilar orasida makroiqtisodiyot munozarali fan bo'lib kelmoqda.

1.2. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari

Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullariga ilmiy mavhum-lashish, analiz va sintez, deduksiya, induksiya, statistik kuzatuv, iqtisodiy matematik modellashtirish usullari kiradi.

Juda murakkab tizim hisoblangan milliy iqtisodiyotni tadqiq qilish o'ziga xos usullardan foydalanishni talab etadi. Son-sanoqsiz faktlarni, minglab ko'rsatkichlarni alohida-alohida o'rganib chiqish va ular borasida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish o'ta qiyin vazifadir. Shu sababli ham, makroiqtisodiyot fanida **agregat kattaliklardan** foydalanishga asoslangan tadqiqit usullaridan foydalaniлади.

Agregatlash, ya'ni bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar va kategoriyalarni yagona makroiqtisodiy ko'rsatkich yoki kategoriya umumlashtirish orqali milliy iqtisodiyotdagи makroiqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish imkoniyati yuzaga keladi. Agregat ko'rsatkichlar yordamida minglab alohida bozorlarni mamlakatning yagona bozori sifatida ko'rib chiqish mumkin bo'ladi. Makroiqtisodiy tahlil jarayonida alohida tovarlar va xizmatlarning bahosi, ularga bo'lgan talab va ularni taklif etish hajmlari ko'rsatkichlari emas, balki agregat ko'rsatkichlar hisoblangan baholarning o'rtacha darajasi, yalpi talab va yalpi taklif ko'rsatkichlaridan foydalaniлади. Davlat

obligatsiyalari bo'ycha foiz stavkalari, Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklarining kreditlar uchun belgilagan foiz stavkalari kabi kapital uchun to'lov stavkalari umumlashtirilib ularning o'rtacha miqdori bozor foiz stavkasi deb yuritiladi va makroiqtisodiy tahlil jarayonida bu agregat ko'rsatkichdan foydalaniлади.

Makroiqtisodiy tahlilda asosiy tadqiqot usuli makroiqtisodiy jarayonlarni agregat ko'rsatkichlardan foydalangan holda iqtisodiy matematik modellashtirishdir.

Makroiqtisodiy modellar iqtisodiy ko'rsatkichlar va jarayonlar o'rtasidagi miqdoriy, sabab-oqibat bog'lanishlarini matematik formula, grafik va chizmalar ko'rinishida ifodalaydi.

Bunga yalpi talab-yalpi taklif (AD-AC) modelini, "Keyns xochini", Fillips egri chizig'ini, IS-LM modelini, iqtisodiy o'sishning Domar, Xarrod va Solou modellarini keltirish mumkin. Bu modellarni bir vaqtning o'zida ham grafik ko'rinishda, ham algebraik formula ko'rinishida tasvirlash mumkin. Algebraik formulalar kabi makroiqtisodiy modellar ikki, uch yoki bundan ko'п o'zgaruvchili bo'lishi mumkin.

'AD-AS modelida yalpi talab va yalpi taklif hajmlarining baholar-ning umumiylarini dinamikasi ta'sirida o'zgarishi va makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi o'rganilsa, Fillips egri chizig'i yordamida ishsizlik va inflyatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik tadqiq qilinadi.

Yuqorida sanab o'tilgan modellar barcha mamlakatlar iqtisodiyotini tahlil qilishda qo'llanaveradi. Ammo ularda keltirilgan empirik koeffitsiyentlar, turli iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi xususiyati bir mamlakatda ikkinchisidan farq qilishi mumkin. Har qanday makroiqtisodiy modelda, u qanchalik sodda yoki murakkab bo'lmasin, ma'lum darajada mavhumlikka yo'l qo'yiladi. Masalan, makroiqtisodiy tahlil davomida milliy iqtisodiyot ba'zan yopiq iqtisodiy tizim, ya'ni tashqi iqtisodiy aloqalari mavjud bo'lmagan "yopiq iqtisodiyot" deb qaraladi. Amalda esa barcha mamlakatlar

tashqi dunyo bilan iqtisodiy aloqalarga ega, ya'ni "ochiq iqtisodiyot"ga ega. Hech bir model iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi bog'liqliklarni to'la-to'kis qamrab olmaydi.


Shunga qaramasdan makroiqtisodiy modellardan foydalanish eng muhim iqtisodiy qonuniyatlarni aniqlash, qabul qilinadigan turli iqtisodiy qarorlarning olinishi mumkin bo'lgan ko'p variantli natijalarini oldindan aniqlab olish, makroiqtisodiy siyosatning turli yo'nalishlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Makroiqtisodiy modellarda tashqaridan belgilanadigan, ya'ni modelda tayyor kattalik sifatida qabul qilinadigan **ekzogen** o'zgaruvchilar hamda modelni yechish natijasida topiladigan **ichki-endogen** o'zgaruvchilar farqlanadi. Bir modelda ekzogen hisoblangan o'zgaruvchi (ko'rsatkich) ikkinchi model uchun endogen hisoblanishi mumkin.

Tarixda ma'lum bo'lgan birinchi makroiqtisodiy model mavzuning birinchi savolida qayd etilgan "Kene jadvali" hisoblanadi. Bu modelda

F.Kene milliy iqtisodiyot amal qilishint uch sinfning— 5 mlrd. frank qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi dehqonlar, jami 2 mlrd. frank turadigan buyumlar yasashadigan hunarmandlar va 2 mlrd. frank renta olishadigan yer egalarining o'zaro aloqalari sifatida tasvirlaydi. Kene modeliga ko'ra yyer egalari olgan 2 mlrd. frank yer rentasining 1 mlrd. frankini qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olishga, qolgan 1 mlrd. frankini esa hunarmandchilik buyumlarini sotib olishga sarflaydilar.

Hunarmandlar dehqonlarga 1mlrd. franklik buyumlarini sotadilar va dehqonlardan o'zları ega bo'lgan 2 mlrd. frankning 1mlrd frankiga oziq-ovqat mahsulotlari, qolgan 1 mlrd. frankiga esa ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xomashyo sotib oladilar.



1.1-chizma. F.Kenening pul oqimlarining doiraviy aylanish modeli.(Keltirilgan raqamlar o'lchami mlrd.frank).

Dehqonlar yer egalariga 1 mlrd. franklik qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotadilar va qolgan 2 mlrd. franklik mahsulotni iste'mol va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun o'zlarida qoldiradilar. Jami olingan 3 mlrd. franklik daromadning 1 mlrd. franki dehqonlar tomonidan hunarmandchilik buyumlari sotib olishga, yana 2 mlrd. franki esa yer rentasi to'lashga sarflanadi. Shunday qilib, makroiqtisodiy bozorlarning balanslashishi ro'y beradi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ekzogen va endogen o'zgaruvchilarga guruhanligina qolmasdan zaxiralarni tavsiflovchi va oqimlarni tavsiflovchi o'zgaruvchilarga ajratiladi. Birinchi guruh ko'rsatkichlar tadqiqot obyektining ma'lum sanadagi holatini tavsiflaydi. Bularga kapital bilan qurollanganlik darjasasi, ishsizlik darjasasi, davlat qarzi kabi ko'rsatkichlar misol bo'ladi. Ikkinci guruh ko'rsatkichlar ma'lum davr oralig'ida iqtisodiy jarayonlarning kechishini tavsiflaydi. Bularga yil davomida ishlab chiqilgan YAM hajmi, iste'mol va investitsiya xarajatlari miqdori, inflyatsiya sur'ati kabi ko'rsatkichlar misol bo'ladi. Oqimlar ma'lum davr mobaynida zaxiralarning o'zgarishini keltirib chiqaradi. Masalan, yil davomida qilingan investitsiyalar iqtisodiyotda to'plangan kapital hajmi, o'z navbatida esa mehnatni kapital bilan qurollanganligi darajasining ham oshishiga olib keladi.


1.3. “Resurslar– tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy oqimi modeli

Har qanday iqtisodiy tizimda tovarlar va xizmatlarni takror ishlab chiqarish umumiy jarayonini resurslar, tovar va xizmatlar, daromadlar hamda xarajatlarning **doiraviy oqimi modeli** ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin. Bu sodda model makroiqtisodiy tahlil asosini tashkil etadi. Faqat xususiy mulkka tayangan (ya’ni davlat ishtiroki mavjud bo‘lmagan) yopiq iqtisodiyotda bunday doiraviy oqimi ko‘pincha firmalar va uy xo‘jaliklari o‘rtasida amalga oshiriladi (2.2-chizma).

Uy xo‘jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha iqtisodiy resurslarni resurslar bozoriga yetkazib beradilar, korxonalar esa bu resurslarni sotib olib turli xil mahsulotlarga, xizmatlarga aylantiradilar, so‘ngra esa ularni tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoriga yetkazib beradilar. Ayni paytda “resurslar – tovarlar va xizmatlar” oqimiga qarama-qarshi yo‘nalishda “daromadlar – xarajatlar”ning ham doiraviy oqimi amalga oshiriladi. Ya’ni uy xo‘jaliklari o‘zлari yetkazib bergen iqtisodiy resurslar evaziga daromad oladi hamda ularni tovarlar va xizmatlar iste’mol qilish uchun sarflaydilar yoki aksincha korxonalar resurslar uchun sarf-xarajatlar qiladilar hamda tayyor mahsulotlarni sotish evaziga daromad oladilar.


Resurslar hamda tovarlar va xizmatlar oqimi jami taklifni, daromadlar va xarajatlar oqimi jami talabni ko‘rsatadi. Davlat ishtiroki mavjud bo‘lmagan yopiq iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklifning o‘zaro teng bo‘lishi firmalarnining yalpi sotuvi, yoki yalpi ishlab chiqarishi hajmi uy xo‘jaliklarining yalpi daromadlari, yoki yalpi daromadlariga teng bo‘lishi shaklida namoyon bo‘ladi.

Bu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tenglikning buzilishi ishlab chiqarishning pasayishi, inflyatsiya va ishsizlik darajalarining ko‘tarilib ketishiga sabab bo‘ladi. Davlat aralashuvni mavjud bo‘lgan iqtisodiyotda bu model ancha murakkab ko‘rinishga ega bo‘ladi.



2.2-chizma. Sof bozor iqtisodiyoti sharoiti “resurslar – mahsulotlar” va “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy aylanish modeli.

Bunday iqtisodiyotda resurslar – tovarlar va xizmatlar, daromadlar – xarajatlarning uzlusiz harakati ham bozor mexanizmlari orqali, ham davlat aralashuvi bilan ta'minlanadi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning harakatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorlarida qatnashish orqali ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar yaratadi. Davlat korxonalar va uy xo'jaliklarini soliqqa tortish bilan birga korxonalarga subsidiyalar berish, aholiga transfert to'lash orqali ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari va xarid talablariga ta'sir etadi. Ayni paytda davlat resurslar bozoridan hamda tovarlar va xizmatlar bozorida sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi.



1.3-chizma. Aralash bozor iqtisodiyoti sharoiti resurslar, mahsulotlar, daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishi.

Bunda:

- | | |
|--|-------------------------|
| 1,2-Yer, mehnat, kapital. | 9-Iste'mol xarajatlari. |
| 3,4-Tovar va xizmatlar. | 10-Daromad. |
| 5-Resurslar. | 11-Xarajatlar. |
| 6-Tovar va xizmatlar | 12,13-Soliqlar. |
| 7-Transferltar. | 14-Xarajatlar. |
| 8-Pul daromadlari (ish haqi, renta, foiz, foyda) | 15-Tovar va xizmatlar. |
| | 16-Subsidiyalar. |

Davlat o'z ishtiroki bilan firmalarning ishlab chiqarish hajmlari va uy xo'jaliklarining tovarlar va xizmatlar xarid qilish miqdorlari to'g'risidagi qarorlari o'zaro mos kelmaygan hollarda ro'y beradigan iqtisodiy tebranishlarni tartibga solib turadi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida doiraviy oqimlar modeli yanada murakkablashadi. Endi unda to'rtinchi makroiqtisodiy subyekt – tashqi dunyo ham paydo bo'ladi. Chet el investitsiyalarining kiritilishi va xorijga investitsiya qilish, eksport va import operatsiyalari shu jumladan moliyaviy bozor orqali jamg'ar-

malarning investitsiyalarga oqib o'tishi va moliyaviy mablag'larning qayta taqsimlanishini e'tiborga olsak ko'rib o'tilgan model mukammal emasligiga iqror bo'lamiz. Ammo shu ko'rinishda ham bu model makroiqtisodiy jarayonlarni yaxlit holda tasavvur etishga imkon beradi. Doiraviy oqimlar modelidan chiqariladigan xulosa shuki, davlat, firmalar, uy xo'jaliklari va tashqi dunyoning yalpi xarajatlari yalpi ishlab chiqarish hajmiga teng bo'lishi resurslar, tovarlar va xizmatlar oqimlari (ya'ni real oqim) bilan daromadlar va xarajatlar oqimlari (ya'ni pul oqimlari) o'zaro teng bo'lishining asosiy shartidir yalpi xarajatlar hajmining oshishi ishlab chiqarish hajmlari va ish bilan bandlilik darajasining o'sishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida yalpi daromadlarning oshishiga sabab bo'ladi. Kattaroq hajmdagi yalpi daromadlar unga mos hajmdagi yalpi xarajatlarni belgilab beradi. Sabab oqibat bog'lanishlari o'rin almashishi tufayli doiraviy oqimlar modeli doiraviy aylanish ko'rinishini oladi. Iqtisodiyot barqaror rivojlanib borishi uchun yalpi xarajatlar to'xtovsiz o'sib borishi shart. Bu vazifa byudjet-soliq siyosati vositalari bo'lgan soliqlarni hamda davlat xarajatlarini o'zgartirish va pul-kredit siyosati vositalari yordamida massasini o'zgartirish orqali bajariladi.

Qisqacha xulosalar

«Makroiqtisodiyot» fani umumiy iqtisodiy nazariyaning ikki muhim bo'limidan biri bo'lib, iqtisodiyotni bir butun holda o'rganadi va ishsizlik, inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, to'lov balansi barqarorligi, davlat byudjeti, davlat qarzi kabi hozirgi zamon iqtisodining barcha muhim muammolarini tadqiq qiladi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan makroiqtisodiy tahlil elementlari XVIII asrданоq qo'llanila boshlagan bo'lsa-da, makroiqtisodiyot fani XX asrning o'rtalariga kelib mustaqil fan sifatida shakllanib bo'ldi va uning asoschisi deb J.M. Keyns tan olinadi.

„ Makroiqtisodiy tahlilning o'ziga xos xususiyati unda agregat ko'rsatkichlardan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo makroiqtisodiyot subyektlarini tashkil etadi.

Makroiqtisodiy tahlilda matematik formula, grafik va chizmalar ko'rinishidagi makroiqtisodiy modellardan foydalilaniladi.

Iqtisodiyotdagи barcha muammolarni o'rganish imkonini beradigan yagona model mayjud emas. Shuning uchun ham makroiqtisodiy tadqiqotlarda o'zaro bir-birini to'ldiradigan ko'pgina modellardan foydalilaniladi.

Davlatning iqtisodiy tizimning barqarorligini va iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasidagi xatti-harakatlari iqtisodiy siyosat deb ataladi.

"Resurslar – tovarlar va daromadlar" hamda "daromadlar – xarajatlar"ning doiraviy oqimi sxemasi soddallashtirilgan makroiqtisodiy model bo'lib, makroiqtisodiyot subyektlarining o'zaro munosabatlarini va makroiqtisodiy jarayonlarning kechishini shartli tarzda aks ettiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Makroiqtisodiyot" fani predmetining o'ziga xos xususiyati nimada va u mikroiqtisodiyot predmetidan nimasi bilan farq qiladi?

2. Pozitiv va normativ makroiqtisodiyot tushunchalariga izoh bering.

3. Makroiqtisodiyot subyektlari orasida davlatning roli qanday?

4. Agregat ko'rsatkichlar deganda nimani tushunasiz? Makroiqtisodiy tahlilda agregat ko'rsatkichlardan foydalanish zaruriyati nima uchun yuzaga keladi?

5. Makroiqtisodiy modellarning mohiyatiga izoh bering.

6. Zaxiralarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar va oqimlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar o'rtasida qanday bog'liqliklar mavjud?

7. "Resurslar – tovarlar va xizmatlar" hamda "daromadlar – xarajatlar"ning doiraviy oqimi modelidagi qarama-qarshi omillarga izoh bering.

8. Doiraviy oqimlar modelini doiraviy aylanish tusini olishining shartlari qanday?

9. Keynsning nazariyasining mohiyati nimalardan iborat?

10. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullarini sanab bering.

II BOB. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR

2.1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilish, milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi muammolarni aniqlash hamda uni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqarish uchun bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Alovida firmalar faoliyatiga baho berishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan farqli tarzda bu ko'rsatkichlar milliy iqtisodiyotning barcha subyektlari faoliyatiga umumiy baho berish, makroiqtisodiy tahlil o'tkazish, mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligida raqobatga bardoshliligi darajasini aniqlash imkonini beradi.

Bu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- yalpi ichki mahsulot (YaIM), Sof ichki mahsulot (SIM), yalpi milliy daromad (YaMD), Sof milliy daroimad (SMD), shaxsiy daromad (SHD), Shaxsiy tasarrufidagi daromad (SHTD), Iste'mol(C), Jamg'arish (C) ko'rsatkichlarining hajmi va o'sish sur'atlari;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi;
- mamlakat eksporti va importi hajmi, tarkibi, YaIMdagi ulushi va o'sish suratlari;
- resurslardan foydalanishning samaradorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar (Mehnat unumidorligi, Fond qaytimi);
- davlat byudjeti taqchilligi, deflyator, iste'mol baholari indeksi, inflyatsiyaning o'sish sur'atlari;
- ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholining ish bilan bandlik darajasi;
- aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli hajmi, ularning jamg'armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar.
- Davlat byudjeti taqchilligi va inflyatsiya surati kabi ko'rsatkichlar umumiy makroiqtisodiy vaziyatga baho berishda qo'llanilsa, YaIM, SIM, YaMD, SMD, SHD, SHTD, S, S

ko'rsatkichlari milliy ishlab chiqarishning parametrlarini va dinamikasini tahlil etishda foydalaniladi.

Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotning barcha subyektlari faoliyatlarini natijasi sifatida aniqlanib, ularni hisoblashning asosini Milliy hisobchilik tizimi (MHT) tashkil etadi. MHT mamlakat buxgalteriyasi vazifasini o'tagani holda uning standartlaridan kelib chiqqan holda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, mamlakatlararo taqqoslovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Mamlakat iqtisodiyotining haqiqiy holatini o'rganish, unga tizimli baho berish uchun yuqorida sanab o'tilgan barcha ko'rsakichlardan foydalanish zarur, aks holda bir tomonlama yondashuvga yo'l qo'yilishi mumkin.

2.2. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari

Makroiqtisodiy statistika va tahlilda uzoq davr mobaynida yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlaridan baravar foydalanib kelindi. Har ikkala agregat ko'rsatkich ham mamlakatdagi iqtisodiy faollik darajasini xarakterlasada kapital va ishchi kuchi migratsiyasi mavjudligi sababli ular o'zaro farq qilishadi.

Milliy mahsulot – mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmidir. Yalpi milliy mahsulot – bu o'z mamlakati yoki xorijda joylashgan milliy korxonalar tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmining jami qiymatidir³.

Qo'shilgan qiymat – bu korxona yalpi mahsuloti bozor narxidan (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) joriy moddiy xarajatlar chiqarib tashlangandan qolgan qismidir.

Bugungi kunga kelib Milliy hisobchilik tizimini qo'llaydigan deyarli barcha davlatlarda yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich sifatida tan olindi.

³ McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 131

Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda YaIMga ishlab chiqarilishida qo'llanilgan resurslar qaysi davlatga tegishliligidan qat'i nazar, mamlakatning jug'rofiy hududida yaratilgan pirovard tovarlar va xizmatlarning bozor baholari yig'indisi deb ta'rif berib kelingan.

1993-yilda qabul qilingan BMT MHTning yangi talqiniga ko'ra Yalpi ichki mahsulot (YaIM) tushunchasiga aniqliklar kiritildi.

Yangicha talqiniga ko'ra:

YaIM – mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarining umumiy yig'indisidan iborat.

YaIM ning «ichki» deb atalishiga sabab uning mamlakat rezidentlari tomonidan yaratilishidir. Rezident deganda faqatgina mamlakatning yuridik va jismoniy shaxslari tushunilmaydi. Chunki mamlakat yuridik shaxsi boshqa mamlakat hududida bir yildan ortiq faoliyat yuritsa o'sha mamlakat rezidenti deb qaraladi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni hisoblashda milliy hisoblar tizimidan foydalaniladi. **Milliy hisoblar tizimi (MHT)** – bu barcha asosiy iqtisodiy jarayonlarni, takror ishlab chiqarish sharoitlari, jarayonlari va natijalarini tavsiflovchi o'zaro bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, tasniflar va guruhlar tizimi⁴.

MHT BMT tomonidan e'lon qilingan «Milliy hisoblar va yordamchi jadvallar tizimi» nomli hujjat asosida xalqaro statistikada standart tizim sifatida 1953-yildan boshlab qo'llanila boshladi. Shu davrdan (1953-yildan) buyon to bugungi kungacha MHT to'rt marta o'zgartirilib, takomillashtirildi. Lekin u hali ham takomillashtirishga muhtoj. Hozirgi davrda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda.

YaIM uch xil usul bilan hisoblanadi:

- 1) ishlab chiqarish usuli;
- 2) xarajatlar usuli;
- . 3) daromadlar usuli.

⁴ McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 134

Har uchala usul bilan hisoblangan YaIM ko'rsatkichi hajmi statistik xatolar istisno etilganda o'zaro teng bo'lishi lozim. Shu bilan birga har uchala usul bilan YaIM ko'rsatkichni hisoblashda o'ziga xos talablarga amal qilinishi talab etiladi.

YaIM ko'rsatkichi bir qator ijobjiy xususiyatlarga ega, ya'ni:

- ushbu ko'rsatkichi barcha ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning bozor qiymatini ko'rsatadi;
- u joriy ishlab chiqarishni ko'rsatadi, ya'ni joriy davrda ishlab chiqarilgan va xizmatlarni hisobga oladi;
- u ikki yoqlama hisobni chetlashtiradi, ya'ni faqat yakuniy mahsulotlarning qiymatini hisobga oladi, yakuniy mahsulotlarni ishlab chiqarishga sarflanadigan oraliq mahsulotlarni hisobga olmaydi;
- YaIM hisoblashda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan, ya'ni qimmatli qog'oz bilan operatsiyalar, davlat, xususiy transfert to'lovlar, tovarlarni qayta sotishlarni hisobga olmaydi.

Shu bilan birgalikda ushbu kompleks ko'rsatkichning bir qator kamchiliklari mavjud:

1. Bir qator jamiyat ne'matlari (tekin ta'lim, davlatning sog'liqni saqlash tizimi va boshqalar) bozor narxiga ega emas, shuning uchun ular shartli hisoblangan qiymati bo'yicha hisobga olinadi.
2. "Yashirin" iqtisodiyotning natijalarini hisobga olmaydi. Bularga davlatga soliq to'lamasdan, patent va litsenziyasiz faoliyat yuritayotgan quyidagi sohalarni kiritish mumki: — repetitorlik, xususiy shifokorlik amaliyoti, uy va kvartira ta'mirlash yoki qurish, avtomobilarni ta'mirlash va boshqalar.
3. YaIM tarkibiga uy xo'jalik sharoitlarida yaratilgan ne'matlar hisobga olmaydi: o'z kuchlari bilan uy va mulklarni ta'mirlash, qishga zaxiralalar tayyorlash.
4. YaIM bozor narxlarida hisoblangani uchun, inflyatsiya va deflyatsiya uning haqiqiy qiymatini o'zgartiradi.

Xalqaro valyuta fondining ro'yxati bo'yicha YaIM hajmi eng katta 10 mamlakatlarga 2017-yil va 2018-yillar natijalari bo'yicha quyidagi mamlakatlar kiradi.

2.1-jadval

Xalqaro valyuta fondining ro'yxati bo'yicha YaIM hajmi eng katta 10 mamlakat. (mlrd. AQSH dollarida)⁵

Nº	Mamlakatlar	2017-yil	Solishtirma vazni %	2018-yil	Solishtirma vazni %
1.	AQSH	19519	26,31	20580	27,34
2.	XXR	12062	16,26	13368	17,76
3.	Yaponiya	4860	6,55	4972	6,60
4.	Germaniya	3665	4,94	3951	5,25
5.	Buyuk Britaniya	2640	3,56	2829	3,76
6.	Fransiya	2592	3,49	2780	3,69
7.	Hindiston	2652	3,57	2719	3,61
8.	Italiya	1951	2,63	2076	2,76
9.	Braziliya	2053	2,77	1868	2,48
10.	Janubiy Koreya	1624	2,19	1720	2,28
70.	O'zbekiston	65,4	0,09	66,5	0,09
	Jami jahon bo'yicha	74197	100	75278	100

Jadvaldagagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki YaIM hajmi bo'yicha birinchi o'rinni AQSH egallab turibdi. Ushbu mamlakatda jahon bo'yicha jami ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning 2017 yilda 26.31 % to'g'ri kelgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2018-yilda yana ko'payib 27.34 % tashkil qilyapti. Ikkinchisi o'rinni egallab turgan XXR ga jahon bo'yicha jami ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot-

⁵ GNP, PPP (current international \$) [Electronic resource] // The World Bank: official website. URL: <http://databank.worldbank.org/data/reports.aspx?source=2&series=NY.GNP.MKTP.PP.CD&country=>

ning 2017-yilda 16.26 % to‘g‘ri kelgan bo‘lsa ushbu ko‘rsatkich 2018-yilda yana ko‘payib 17.76 % tashkil qilyapti. Umuman olganda, yuqoridagi o‘nta mamlakatga jahon bo‘yicha jami ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning 2017-yilda 72.26 % to‘g‘ri kelgan bo‘lsa ushbu ko‘rsatkich 2018-yilda yana ko‘payib 75.54 % ni tashkil qilyapti. Tahlil qilinayotgan yillarda O‘zbekistonning jahon bo‘yicha jami ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 0.1%ga yaqinni tashkil qilmoqda. Ushbu ro‘yxatda O‘zbekiston 70-o‘rinni egalla turibdi.

YAIM hajmi bo‘yicha ro‘yxatni Juhon banki va Birlashgan Millatlar tashkiloti ham olib boradi.

2.2-jadval

Mamlakatlar bo‘yicha YAIM hajmi bo‘yicha Juhon banki ro‘yxati. (mlrd. AQSH dollarida)⁶

Nº	Mamlakatlar	2017 yil	Solishtirma vazni %	2018 yil	Solishtirma vazni %
1.	AQSH	19391	25,52	20453	25,33
2.	XXR	11191	14,73	12238	15,16
3.	Yaponiya	4949	6,51	4872	6,03
4.	Germaniya	3478	4,58	3677	4,55
5.	Buyuk Britaniya	2651	3,49	2622	3,25
6.	Hindiston	2274	2,99	2601	3,22
7.	Fransiya	2465	3,24	2583	3,20
8.	Braziliya	1794	2,36	2056	2,55
9.	Italiya	1859	2,45	1935	2,40
10.	Rossiya	1659	2,18	1657	2,05
70.	O‘zbekiston	67,4	0,09	49,7	0,06
	Jami jahon bo‘yicha	75997	100	80737	100

⁶ GDP at market prices (current US\$) [Electronic resource] // The World Bank: official website. URL: <http://databank.worldbank.org/data/reports.aspx?source=2&series=NY.GDP.MKTP.CD&country=.2>

Jadvaldag'i ma'lumotlardan ko'riniib turibdiki, YaIM hajmi bo'yicha ham birinchi o'rinni AQSH egallab turibdi. AQSHga jahon bo'yicha jami ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning 2017-yilda 25.52 % to'g'ri kelgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2018-yilda yana kamayib 25.33 % tashkil qilyapti. Ikkinch'i o'rinni egallab turgan XXR ga jahon bo'yicha jami ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning 2017-yilda 14.73 % to'g'ri kelgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2018-yilda yana ko'payib 15.16 % tashkil etmoqda.

Jahon banki ro'yxati bo'yicha YaIM hajmi bo'yicha O'zbekiston 83 o'rinni egallab turibdi.

Jahon banki va xalqaro valyuta fondlarining ro'yxatidagi farqlarning asosiy sababi yalpi ichki mahsulotlarni hisoblashdagi metodikalar orasidagi farqlar natijasida hosil bo'lgan.

Makroiqtisodiy muhim ko'rsatkichlardan biri – jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi. Jahon bankining 2016-yildagi ma'lumotlariga ko'ra quyidagi mamlakatlar eng yuqori o'rirlarni egallab turibdi:

- 1.Qatar - 127 522 doll.,
- 2.Lyuksemburg – 105 881 doll.,
3. Makao – 104 168 doll.,
4. Singapur – 87 855 doll.,
5. Bruney – 77 440 doll.,
- 6.BAA – 72 418 doll.,
- 7.Irlandiya – 68 882 doll.,
- 8.Shveysariya – 62 881 doll.,
- 9.Norvegiya – 59 301 doll.,
- 10.Gonkong – 58 552 doll.⁷

⁷ (GDP per capita, PPP (current international \$) [Electronic resource] // The World Bank: official website. URL: http://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.PCAP.PP.CD?+order=wbapi_data_value_2016+wbapi_data_value+wbapi_data_value-last&locations!=IE&sort=desc&year_high_desc=true.

2.3. YaIMni ishlab chiqarish usulida aniqlash

Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YaIM yakuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishning turli bosqichlarida qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi. YaIMni bu usulda aniqlash statistik jihatdan qulay bo'lishi bilan birga uni hisoblashning muhim shartiga amal qilish, ya'ni bir qiymatni ikki bor hisobga olish, yoki oraliq mahsulot qiymatini YaIMga kiritib yuborishning oldini oladi.

Ishlab chiqarish hajmini to'g'ri hisoblash uchun joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati bir marta hisobga olinishi kerak. Ko'pgina mahsulotlar bozorga borguncha bir nechta ishlab chiqarish bosqichini o'taydi. Shu sababli, YaMMda ayrim mahsulotlarni ikki va undan ko'p marta hisobga olmaslik uchun, faqat pirovard mahsulotning bozor qiymati hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar esa hisobga olinmaydi.

Yakuniy tovarlar va xizmatlar deganda ularning ishlab chiqarish, yoki ichki ayirboshlash siklidan chiqqan, yakuniy iste'mol, jamg'arish yoki eksport uchun foydalaniladigan qismi tushuniladi.

Yakuniy tovarlar va xizmrtlarni ishlab chiqarishda sarflangan oraliq tovarlar va xizmatlar bahosi YaIMga qo'shilmaydi..

Qo'shilgan qiymat tovar va xizmatlarning sotish bahosi bilan ularni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan xomashyo va materiallarni sotib olishga qilingan xarajatlar o'rtaсидаги farq ko'rinishida aniqlanadi.

Ishlab chiqarish usulida aniqlangan YaIM ko'rsatkichining strukturasini va undagi siljishlarni tahlil qilish juda muhim xulosalar beradi. Alovida tarmoqlarning mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushi, bu ulushning o'zgarishi bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va kutilayotgan istiqboliga baho berish imkonini beradi.

2.3-jadval ma'lumotlariga tayangan holda O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan YaIMning tarmoq bo'yicha tartibini ko'rib chiqamiz.

2.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasida YaIM dinamikasi va ishlab chiqarish tarkibi (mlrd. so‘m)⁸

	2010y.	2015y.	2018 y.	2019y.	2020 y.	2020 y. 2010 u. nis. marta
I. YalM, jami	62388,3	171808,3	406649	511838	580 203,20	9,3
shu jumladan:						
Yalpi qo’shilgan qiymat	56671,4	156731	361100	465412		
Mahsulotlarga so‘f soliqlar	5716,9	15077,3	45548,5	46426,1	44 372,20	7,7
II. Yalpi qo’shilgan qlymat	56671,4	156731	361100	465412		
Qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi	11201	28672,2	113720	130620		
Sanoat (qurilishni qo’shgan holda)	18875,3	51646,7	117762	169733		
sanoat	15114,8	40264,1	95612	139810	152 728,00	10,1
qurilish	3760,5	11382,6	22150	29923	37 488,50	9,9
Xizmatlar	26595,1	76412,1	129618	165059	194 363,50	7,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5982,7	16145,3	30610	35811	37 194,40	6,2
tashish va suqlash, axborot va aloqa	7337,7	19158,2	35100	45255	38 531,50	5,2
boshqa xizmat tarmoqlari	13274,7	41108,6	63908	83993	118 637,60	8,9

Avvalambor, respublikamizda barqaror iqtisodiy o’sish tendensiyasiga erishilganligi va 2019-yil yakunlari bo'yicha O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti joriy narxlarda 511838 mlrd. so‘mni

* O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo’mitasi ochiq ma'lumotlari asosida tuzilgan.

tashkil qildi va 2018-yilga nisbatan taqqoslaganda 5,2 % ga o'sdi. Qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi, investitsiyalarning keng jalb qilinishi natijasida nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, balki iqtisodiyot tarkibida muhim sifat o'zgarishlarining yuz berishi ta'minlandi.

Tarkibiy o'zgarishlar borasidagi siyosatning izchil amalga oshirilishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti tarkibi diversifikatsiya qilindi.

Jadvaldag'i ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki yalpi ichki mahsulot 2020-yilda 2010-yilga nisbatan 9,3 martaga ko'paydi. Uning ko'payishiga qishloq hamda o'rmon va baliq xo'jaliklarida yaratilgan YAIMning ko'payishi katta ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni, ushbu tarmoqda 2020 yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2010-yilga nisbatan 13,5 martaga ko'paydi. YALMning ko'payishiga sanoat va qurilish sohalaridagi ishlab chiqarish hajmining ko'payishi ham ijobjiy ta'sir qildi. Ya'ni, ushbu sohalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2020-yildan 2010-yilga nisbatan birgallikda 10 martaga ko'paydi. Milliy iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri –cxizmatlar sohasida xizmat ko'rsatish hajmi 2020-yilda 2010-yilga nisbatan 7,4 martaga ko'paydi.

Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlari bo'yicha 2020-yilda yalpi ichki mahsulot joriy narxlarda 580,2 trn. so'mni tashkil qilgan. Iqtisodiy o'sish 2019-yilga nisbatan 1,6 %ni tashkil qildi, O'rtacha valyuta kursi bo'yicha AQSH dollarida hisoblaganda YALM 2020-yilda 57698 mln. AQSH dollarini tashkil etdi va 2019-yilga taqqoslaganda kamaygan (2019 yilda 57711mln. AQSH dollarri).

Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasida YALM sotib olish qobiliyati pariteti bo'yicha 245,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan. MDHning boshqa mamlakatlarida ushbu ko'rsatkich mamlakatlari quyidagicha tashkil etdi: Rossiya federatsiyasi-4281.8mlrd. AQSH dollari, Ukrainada-562,2, Belarusiya-189,3, Ozarbayjan-150,8, Qirg'iziston-35.4, Tojikiston-32,9 mlrd. AQSH dollari

2.4-jadval

YaIM tarkibining o‘zgarish dinamikasi, %⁹

	1995y.	2000y.	2005y.	2010y.	2018 y.	2019 y.
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	32,4	34,4	29,5	19,8	28,0	25,5
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	27,8	23,1	29,1	33,3	29,0	33,2
Xizmatlar	39,8	42,5	41,4	46,9	43,1	41,3

Mustaqillik yillarda sanoat tarmog‘i va xizmatlar sohasining rivojlanish salohiyati yanada kengaytirilishi natijasida YaIM tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining bosqichma-bosqich kamayishi (1995-yilda 32,4 % dan 2019-yilda 25,5 % ga) tendensiyasi saqlanib qoldi. SHu bilan birga, YaIM tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining kamayishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ijobiy o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari sonida sodir bo‘ldi.

Sanoat tarmog‘ini diversifikatsiyalash, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash bo‘yicha chora-tadbirlarning qabul qilinishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmining o‘sishi va YaIM tarkibida sanoatning (qurilishni qo‘shgan holda) ulushi 1995-yildagi 27,8 % dan 2019-yilda 33,2 % gacha oshishi ta’minlandi.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti, bandlik va aholi daromadlari o‘sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish va servis sohasini isloh qilish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida, mazkur tarmoq qisqa muddat ichida iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sektoriga aylandi.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ochiq ma’lumotlari asosida tuzilgan.

2.4. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblash

Bu usul yakuniy foydalanish usuli deb ham yuritilib, unda YaMMni hisoblash uchun yakuniy mahsulotlarni sotib olishga qilingan barcha xarajatlar o'zaro qo'shib chiqiladi. Bu xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (C):

- a) uzoq muddat foydalilaniladigan iste'mol buyumlari sotib olishga;
- b) kundalik foydalilaniladigan iste'mol buyumlari sotib olishga;
- c) iste'mol xizmatlari to'loviga.

Yalpi ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):

- a) asbob-uskunalar, mashinalarni yakuniy sotib olishga;
- b) korxonalar, inshootlar, turarjoy binolarini qurishga sarflangan;
- d) tovar zaxiralari o'rtasidagi farqlar yoki zaxiralarning o'zgarishi.

Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G).

Bu guruh xarajatlariga mahalliy va markaziy boshqaruvin hokimiyyati idoralari tomonidan korxonalarning pirovard mahsulotlari va resurslari xaridi (avtomobil yo'llari va pochta muassasalarini qurilishi, davlat korxonalarida to'lanadigan ish haqi) xarajatlari kiritiladi. Lekin shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu xarajatlarga davlat transfert to'lovlarini kiritilmaydi.

Sof eksport (X_p): mamlakatning import va eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farq.

YaMMni xarajatlar orqali hisoblash formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\text{YaIM} = S + I + G + X_p$$

O'zbekiston Respublikasida yaratilgan YaIMning foydalanish (xarajatlarga ko'ra) tarkibi tahlili (2.5-jadval) shuni ko'rsatadi, uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari YaIM tarkibidagi eng salmoqli komponent ekan. Bu ko'rsatkichning YaIMdagi ulushiga ko'ra

2.5-jadval

O'zbekiston Respublikasida YalMning yakuniy iste'mol yo'naliishlari bo'yicha tarkibi (%)¹⁰

	1991y.	1995y.	2000y.	2005y.	2010y.	2018y.	2019y
YalM-jami	100	100	100	100	100	100	100
Yakuniy iste'mol xarajatlari	77,0	72,9	80,6	64,3	64,8	72,9	69,9
uy xo'jaliklari	54,9	50,1	60,9	47,4	47,9	54,3	52,3
davlat boshqaruvi organlari	20,7	22,3	18,7	15,9	15,8	17,6	16,7
UXXKNT	1,4	0,5	1,0	1,0	1,1	1,0	0,9
Yalpi jamg'arilish	26,8	24,2	19,6	28,0	25,5	26,8	27,6
asosiy kapitalning yalpi jamg'arilish	25,1	23	24	22,0	27,3	26,9	27,6
moddiy aylanma vosita'lari zaxirasining o'zgarishi (statistik tafovutni qo'shgan holda)	1.7	-8.8	-4.4	6.0	-1.8	-0.1	1.5
Tovar va xizmatlar eksport-importi saldosi	-3.8	2.9	-0.2	7.7	9.7	0.3	2.5
Eksport	35.3	31.6	26,5	37,9	33,1	18,8	28,9
Import	39.1	28,7	26,7	30,2	23,4	18,5	26,4

YalM iste'moli tarkibida asosiy ulush yakuniy iste'mol xarajatlari hissasiga to'g'ri keladi. Yakuniy iste'mol xarajatlarida asosiy ulush uy

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ochiq ma'lumotlari asosida tuzilgan.

xo‘jaliklari xarajatlari hissasiga to‘g‘ri keladi va ularning salmog‘i 1991–2019-yillarda 43,9 % dan 63,1 % gachani tashkil etdi.

Kuzatilayotgan davrda YaIM tarkibida davlat muassasalarining yakuniy iste’molga qilgan xarajatlari ulushi sezilarli darajada o‘zgarib turdi va 1991-yildagi 20,7 % dan 2019-yilda 16,7 % ga kamayish tendensiyasiga ega bo‘ldi.

Notijorat tashkilotlari tomonidan uy xo‘jaliklariga ko‘rsatilgan nobozor xizmatlarining YaIM dagi ulushi o‘rtacha 1,1 % ni tashkil etadi.

Yalpi jamg‘arilish asosiy fondlar va moddiy aylanma vositalari o‘sishini ifodalaydi. 1991–2019-yillarda yalpi jamg‘arilishning ulushi barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lib, YaIM ning o‘rtacha 25,4 % ini tashkil qildi.

Yalpi jamg‘arilishning asosiy ulushini kapitalning yalpi jamg‘arilishi tashkil qilib, iqtisodiyotda investitsion faoliyknii ifodalaydi. 1991–2019-yillarda asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi ko‘rsatkichining YaIM dagi ulushi o‘rtacha 26,4 % ni tashkil etdi.

Kuzatilayotgan davr mobaynida tovarlar va xizmatlar so‘f eksportining YaIM dagi ulushi o‘rtacha 2,1 % ni tashkil qildi (eksport 30,4 %, import 28,3 %).

2.5. YaIMni daromadlar(taqsimot usuli) bo‘yicha hisoblash

YaIMni daromadlar bo‘yicha aniqlashda yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida rezident-ishlab chiqarish birliklari tomonidan, qo‘silgan qiymatlar hisobidan, to‘langan dastlabki daromadlar qo‘sib chiqiladi.

YaMMni daromadlari yig‘indisi ko‘rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

– **sof bilvostia soliqlar (T_n)** – bilvosita soliqlar (qo‘silgan qiymat solig‘i, aksizlar, bojxona bojlari) va subsidiyalar hajmlari o‘rtasidagi farq;

– yollarma ishchilarining ish haqlari (**W**) xususiy va davlat kompaniyalarining yollarma ishchilarga hisoblagan barcha turdag'i mehnat haqi to'lovlarining nominal miqdori plus ish beruvchilar tomonidan ish haqi fondiga nisbatan hisoblanib to'lanadigan ijtimoiy sug'urta ajratmalari. O'zbekiston Respublikasida bu ajratma normasi 2005-yilda ish haqi fondiga nisbatan 31% bo'lgan bo'lsa. 2006-yildan boshlab 25 % qilib belgilandi

– Korporatsiyalarning yalpi foydasi + nokorporativ korxonalar daromadi (**R**).

Nokorporativ korxonalar – kichik hajmdagi, uy xo'jaliklariga tegishli korxonalar bo'lib ularda korxona foydasi va korxona egasining ish haqi elementlari o'zaro qo'shilib ketgan bo'ladi. Bu holat aralash daromad atamasini qo'llashga sabab bo'ladi.

R= Korporatsiyalarning sof foydasi (**R₁**) + nokorporativ korxonalar sof daromadlari(**R₂**) +amortizatsiya (**A**);

YalMni daromadlar ko'rinishida yalpi qo'shilgan qiymatni ko'rsatilgan uch guruhga bo'lib topish mumkin:

$$\text{YalM} = \mathbf{T}_n + \mathbf{W} + \mathbf{R}$$

Olingen dastlabki daromadlar qayta taqsimlanishi natijasida dividend, renta, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan olingen reinvestitsiya ko'rinishidagi daromadlar paydo bo'ladi.

Shuningdek, YaIMni daromadlar ko'rinishida aniqlashda, iqtisodiy nazariyada, daromadlarni quyidagi komponentlarga bo'lish ko'zda tutiladi:

- amortizatsiya (**A**);
- bilvostia soliqlar (**T**);
- yollarma ishchilarining ish haqlari (**W**);
- ijara haqi to'ovi va renta ko'rinishidagi daromadlar(**R₁**);
- kapital uchun olingen foiz daromadlari (**R₂**);
- mulkdan keladigan daromad (nokorporativ korxonalar daromadi) (**R₁**);
- korporatsiya foydasi (**R₂**).

Korporatsiyalar foydasi o‘z navbatida quyidagilarga bo‘linadi:

- a) korporatsiyasi foydasidan to‘lanadigan soliqlar ($R_{1.1}$);
- b) hissadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan dividendlar($R_{1.2}$);
- d) korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi($R_{1.3}$).

Keltirilgan yondashuvga ko‘ra:

$$YaIM (Y) = A + T + W + R_1 + R_2 + R_3 + R_4$$

Xarajatlar va daromadlar ko‘rinishida hisoblab topilgan YaIM hajmi o‘zaro mos keladi. Chunki milliy iqtisodiyot doirasida bir subyekt tomonidan qilingan har qanday xarajat ikkinchi subyekt uchun daromad bo‘lib tushadi.

2.6. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko‘rsatkichlar va ular o‘rtasidagi nisbat

Milliy hisobchilik tizimiga ko‘ra milliy iqtisodiyot rivojlanishini tahlil etish uchun YaIM ko‘rsatkichidan boshqa yana bir qator ko‘rsatkichlardan foydalilanildi. Bu ko‘rsatkichlar jumlasiga yalpi milliy daromad (YaMD) ko‘rsatkichi ham kiradi. Bu ko‘rsatkich MHTning oldingi ko‘rinishida hisoblangan yalpi milliy mahsulot (YaMM) ko‘rsatkichi bilan mohiyatan bir xil.

2.6-jadval

YaIM va YaMMning o‘zaro bog‘liqligi

YaIM		Mamlakat rezidentlari tomonidan xorijdan olingan daromadlari
Mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymati		
Mamlakatda joylashgan xorijiy mamlakat korxonalarining daromadlari	Milliy korxonalarining daromadlari	
YaMM		

YaMD – mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtiroy etish va mulkdan olgan boshlang‘ich daromadlari yig‘indisidir.

YaIM va YaMD ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni quyidagi formula ko'rinishida tasavvur etish mumkin:

YaMD = YaIM + mamlakat rezidentlari tomonidan xorijdan olingan daromadlari – norezidentlarning mamlakatdan xorija jo'natgan daromadlari.

YaIM va YaMD ning prinsipal farqlari shundaki, ulardan birinchisi mamlakat rezidentri tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlar oqimini o'lchasa, ikkinchisi ular olgan boshlang'ich daromadlarni o'lchaydi.

Sof ichki mahsulot (SIM) va Sof milliy daromad (SMD) ko'rsatkichlari YaIM va YaMD ko'rsatkichlaridan amortizatsiya (iste'mol qilingan asosiy kapital) summasi miqdoriga farq qiladi.

SIM = YaIM – A

SMD = YaMD – A

Makroiqtisodiy tahlilda shuningdek MHTga kirmagan Shaxsiy daromad (**SHD**) ko'rsatkichi ham qo'llaniladi.

SHD = SMD – [ISA (Ijtimoiy sug'urta ajratmalari) + T (bilvosita soliqlar) + (R_{1.1}) korporatsiya foydasiga soliqlar] + R_{1.3} (Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi + biznesning foiz daromadlari] + transfert to'lovlar (TR) + foizlar ko'rinishida olingan shaxsiy daromad.

Foizlar ko'rinishida aholi olgan daromadga davlat qarzları bo'yicha olingan foiz daromadlari ham kiritiladi.

Shaxsiy daromaddan aholi to'laydigan daromad solig'i, mulk solig'i va ayrim nosoliq to'lovlarini ayirib tashlab **shaxsiy tasarrufdagi daromad (SHTD)** ko'rsatkichi topiladi.

SHTD uy xo'jaliklari tomonidan **iste'mol (C)** va **jamg'arish (S)** uchun ishlatiladi.

SHTD = C + S

Makroiqtisodiy tahlilda uy xo'jaliklarining SHTD va Yalpi milliy tasarrufdagi daromad (**YaMTD**) ko'rsatkichlari o'zaro farqlanadi.

YaMTD = YaMD + Xorijdan olingan sof transfertlar

**Xorijdan olingan sof transfertlar = Mamlakat tashqarisidan
oligan transfertlar – Mamlakatdan tashqariga berilgan
transfertlar)**

Yalpi milliy tasarrufidagi daromad yakuniy iste'mol va milliy jamg'armish uchun ishlataladi.

YaMTD= Yakuniy iste'mol + Milliy jamg'armalar

Yakuniy iste'mol uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlaridan tashqari hukumatning iste'molga xarajatlarini ham o'z ichiga oladi.

2.7. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar

Milliy iqtisodiyot rivojlanishi jarayonlarida turli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtaida ma'lum proporsiyalar yoki tenglik ta'minlanishi lozim. Proporsiya atamasi aynan tenglikni bildirmasdan bir butunga nisbatan uning bo'laklarining nisbatini yoki shu bo'laklar o'rtaidagi nisbatni bildiradi. Bunga mavzuimizning YaMTD ning yakuniy iste'mol va milliy jamg'arishga bo'linishini misol qilib keltirish mumkin.

Odatda YaMTD hajmida yakuniy iste'mol hajmi yuqori bo'ladi. Ammo mavzuning 4-savolida Xitoy Xalq Respublikasi misolida ko'rdikki milliy jamg'armalarning ulushi ham yuqori bo'lishi mumkin ekan. Demak, yakuniy iste'mol va milliy jamg'armalarning YaMTD dagi ulushi 3:1 proporsiyada ham, 2:1 proporsiyada ham bo'lishi mumkin ekan.

Shu bilan birga, iqtisodiyotda muvozanat bo'lishi uchun ayrim ko'rsatkichlarning aynan teng bo'lishi talab etiladi. Turli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yoki ko'rsatkichlar guruhlari o'rtaidagi mavjud bo'ladigan, yoki mavjud bo'lishi iqtisodiy qonuniyat hisoblangan o'zaro tenglikka makroiqtisodiy ayniyat deyiladi.

Xarajatlar va daromadlar ko'rinishida hisoblangan YAIM ko'rsatkichlarining o'zaro tengligi asosiy makroiqtisodiy ayniyat hisoblanadi.

$$Y = C + I + G + X_n$$

Ikkinchisi bir makroiqtisodiy ayniyat investitsiyalar va jamg'armalar o'rta sidagi tenglik hisoblanadi.

Investitsiyalar miqdori mamlakatdagi jamg'armalar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bu ikki ko'rsatkich o'rta sidagi tenglikka erishish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim shartidir.

Agarda, milliy iqtisodiyot tashqi dunyo bilan hech qanday aloqaga ega emas ($X_n = 0$) va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi nolga teng ($G=0$), deb faraz qilinsa, unda Y_{AIM} orqali ifodalangan ishlab chiqarish hajmi SHTD ga teng bo'ladi. Ya'ni:

$$Y_{AIM} = SHTD = S + S, \text{ ayni paytda: } Y_{AIM} = S + I$$

Bu yerda makroiqtisodiy ayniyat quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S + I = S + S \text{ yoki } I = S$$

Ushbu ayniyatdan ko'riniib turibdiki, uy xo'jaliklarining jamg'arishga bo'lgan istaklari tadbirkorlikning qancha miqdorda investitsiyalash xohishlariga mos tushsa, unda daromadlar hajmi (SQC) va yalpi xarajatlar (SQI) hajmiga tengligiga yoki ishlab chiqarishning muvozanat darajasiga erishish mumkin.

Aytaylik, mamlakat iqtisodiyoti ochiq, ya'ni eksport-import aloqalari yo'lga qo'yilgan, soliq solish va transfert to'lovlar ko'rinishida davlat aralashuvi mavjud bo'lsin. Bunday holatda jamg'arish tushunchasi murakkablashib, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S = S_p + S_d + S_x$$

Bu yerda, S_p – xususiy jamg'armalar;

S_d – davlat jamg'armalari;

S_x – boshqa mamlakatlar jamg'armalari.

Bunda xususiy jamg'armalar daromadlar (U), transfert to'lovlar (TR), davlat zayomlari bo'yicha foizlar yig'indisidan (N) soliqlar (T) va iste'mol (C) xarajatlari yig'indisini ayirish natijasiga teng bo'ladi.

$$S_p = (U + TR + N - T) - C$$

Davlat jag‘marmalari quyidagi miqdorga teng bo‘ladi:

$$S_g = (T - TR - N) - G$$

Agar davlat jamg‘armalari nolga teng bo‘lsa, davlat byudjeti muvozanatlashgan, jamg‘arishning manfiy miqdori byudjet taqchil-ligini (BT) bildiradi:

$$BT = - S_g$$

Bu yerda, BT – byudjet taqchilligi miqdori.

Boshqa mamlakatlarning jamg‘armalari tashqi dunyoni bizning importimiz hisobiga olgan daromadlaridan ularni bizning eksportimizga sarflangan xarajatlarini ayirib topiladi.

$$S_{xq} = M - X \text{ yoki } S_x = - X_n$$

Agar mamlakat eksportiga nisbatan ko‘proq import qilsa, unda daromadlarning bir qismi xorijda qoladi va keyinchalik undan xorijiy sheriklar tomonidan mamlakatimizda ko‘chmas mulk va moliyaviy aktiv sotib olishda foydalilanildi.

Har qanday holatda ham barcha turdagи jamg‘armalarning umumiy yig‘indisi investitsiyalarga teng bo‘ladi:

$$S_p = S_d + S_x = (U + TR + N - T) - C + (T - TR - N) - G + (-X_n)$$

yoki

$$S_p + S_d + S_x = U - C - G - X_n$$

$$S = C + I + G - X_n - C - G - X_n$$

$$S = I$$

Demak, iqtisodiyotdagi investitsiya xarajatlari nafaqat ichki jamg‘armalar hisobiga, balki tashqi dunyo jamg‘armalari hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatda investorlarga kafolatlangan yuqori foya olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar xorijiy investorlar oqimining o‘sishiga olib keluvchi muhim shartlardan biridir.

Keynschilar fikriga ko'ra, S= I ayniyatga bozor mexanizmlari vositasida tasodifan erishiladi, xolos. Chunki investorlar va jamg'aruvchilarnig rejalarini o'zaro mos kelavermaydi. Shu tufayli davlat to'g'ri iqtisodiy siyosat yurgizib makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi shart.

2.8. Nominal va real YalIM

Iqtisodiyotda mavjud bo'lgan inflyatsiya jarayonlari YalIMni hisoblashni qiyinlashtiradi. Bu ko'rsatkich dinamikasi bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori va baho darajalarining o'zgarishini ifodalaydi. Bu shuni bildiradiki, YalIM miqdoriga bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning fizik hajmi, ham baho darajaci o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyotda doimiy inflyatsiya jarayonining mavjudligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslama baholarda hisoblashni zarur etib qo'yadi. Chunki, inflyatsiya iqtisodiyotning real holatini buzib ko'rsatadi. Iqtisodiyotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu vazifani bajarish uchun joriy baholarda hisoblangan nominal ko'rsatkichlardan emas, balki taqqoslama (bazis) baholarda hisoblangan real ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. Ayrim yagona firmadan farqli o'laroq milliy iqtisodiyotda juda ko'p sonli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi sababli ularning barchasini birdaniga taqqoslama baholarda hisoblash qiyin. Shu tufayli YalIM tarkibida katta ulushni tashkil etgan eng muhim tovarlar va xizmatlar bahosining o'zgarishi koeffitsiyenti (baholar indeksi) hisoblab topilib olingan natija butun milliy iqtisodiyot uchun tatbiq etiladi.

Baholar indeksini yoki inflyatsiya darajasini hisoblash uchun:

- deflyator (Paashe indeksi);
- iste'mol narxlari indeksi (Laspeyres indeksi);
- sanoat ishlab chiqarish baholari indekslari hisoblanishi lozim.

Deflyator ko'rsatkichi quyidagi formula bilan hisoblaganadi:

$$\text{Deflyator} = \frac{\sum Q_1^i P_n^i}{\sum Q_1^i P_0^i} * 100$$

Bu yerda, i – deflyatorni hisoblash uchun bozor savatiga kiritilgan tovarlar soni;

Q_1^i – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i – tovar yoki xizmatlar hajmi miqdori (Masalan 2 kg shakar, 2 dona ko‘ylak va h.k.);

P_1^i – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i — mahsulotning shu yilga bahosi;

P_0^i – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i – mahsulotning bazis yildagi bahosi.

Deflyatorni hisoblash shartlari:

- odatda o‘tgan yilga nisbatan hisoblanadi;
- bozor savati joriy yilda aniqlanib keyingi yillarda o‘zgartirilishi mumkin;
- bozor savatiga ham iste’mol ishlab chiqarish xarakteridagi tovarlar va xizmatlar kiritiladi;
- bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlar turlarining umumiy YaIM dagi ulushi katta qismini tashkil qilishi kerak;
- bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlar hajmlari o‘rtasidagi nisbat ularning YaIM dagi ulushlari o‘rtasidagi nisbatga mos kelishi kerak.

Nominal YaMM

$$\text{Real YaIM} = \frac{\text{Nominal YaMM}}{\text{Deflyator}} * 100$$

Iste’mol narxlari indeksi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{INI} = \frac{\sum Q_0^i P_1^i}{\sum Q_0^i P_0^i} * 100$$

Bu yerda,

Q_0^i – bazis yilda bozor savatiga kiritilgan i – tovar va xizmatlar hajmi;

P_1^i – i – tovarning joriy yildagi bahosi;

P_0^i – i – tovarning bazis yildagi hajmi.

Iste'mol narxlari indeksi hisoblashning shartlari;

– bozor savati bazis yil uchun aniqlanadi va bir necha yil davomida o'zgarmaydi;

– bozor savatiga faqat iste'mol xarakteridagi tovarlar va xizmatlar kiritiladi;

– bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlarning hajmi iste'mol xarajatlarining katta qismini tashkil etishi kerak.

INI ko'rsatkichining kamchiligi shundaki, bozor savati tarkibi o'zgarmas bo'lganligi tufayli aholi iste'moli tarkibida tovarlar va xizmatlar ulushining o'zgarganligini, shuningdek tovarlar va xizmatlar sifatida ro'y bergan o'zgarishlarni hisobga olish imkonini bermaydi. Shu sababli, bu indeks baholar darajasini biroz oshirib ko'rsatadi.

YalM deflyatori esa bozor savatiga joriy yilda kiritilmay qolgan tovarlar baholarining oshishini hisobga olish imkonini bermasligi tufayli baholar darajasini biroz pasaytirib ko'rsatadi. Shu sababli, bu ikki indeksning o'rtacha darajasini harakterlovchi Fishyer indeksi hisoblanadi:

$$If = \sqrt{Idef * Iini}$$

Sanoat ishlab chiqaruvchilar baho indeksi iste'mol narxlari indeksi singari hisoblanadi. Lekin bozor savatiga sanoat mahsulotlarigina kiritilib ular ulgurji baholarda hisoblanadi.

• O'zbekistonda 2008-2016-yillar uchun YalM deflyatori indeksi 126,8 % dan 109,6 % gacha kamaydi. 2017-yilda YalM

deflyatori indeksining nisbatan yuqori darajasi (120,8 %) qayd etildi, bu esa asosan, 2017-yil sentyabr oyida valyuta bozorini liberallashtirish va milliy valyutaning devalvatsiyasi bilan bog‘liqdir.

2.7-jadval

Oxirgi 10 yillikda (2010-2019-yillar) YaIM deflyatori indeksi dinamikasi, o‘tgan yilga nisbatan % da.

	2010 y	2011 y	2012 y	2013 y	2014 y	2016 y	2017 y	2018 y	2019 y
<i>YaIM deflyatori indeksi</i>	116,5	116,6	115	114,3	109,2	109,6	120,8	127,5	119,2

Qisqacha xulosalar

Mamlakatning makroiqtisodiy holati ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Makroiqtisodiy tahlilda YaIM, YaMD, SIM, SMD, SHD, SHTD, YaMTD, S S, INI, YaIM deflyatori kabi ko‘rsatkichlar danfoydalaniladi.

YaIM – mamlakat rezidentlari tomonidan ma’lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarininin umumiy yig‘indisidan iborat.

YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish, yakuniy iste’mol va taqsimot usullari mavjud bo‘lib, ulardan dastlabki ikki turi keng qo‘llaniladi.

YaIMni hisoblashda bir qiymatni ikki qayta hisoblashga yo‘l qo‘ymaslik uchun uni qo‘silgan qiymatlar yig‘indisi ko‘rinishida hisoblanadi. Bu usul YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli deyiladi.

YaIMni xarajatlar ko‘rinishida to‘rt guruhdagi xarajatlar – iste’mol, investitsiya, davlat xaridi va sof eksport xarajatlari yig‘indisi orqali hisoblanadi.

Har uchala usulda hisoblangan YaIM ko‘rsatkichi hajmi statistik xatolar istisno etilganda o‘zaro teng bo‘ladi.

Milliy hisobchilik tizimining barcha ko‘rsatkichlarini hisoblashning uslubiy bazasi bitta bo‘lgani uchun ularni o‘zaro taqqoslash imkoni mavjud.

Makroiqtisodiy tahlilda YaIM ko‘rsatkichi bilan birga YaMD ko‘rsatkichidan ham foydalaniladi. YaMD – mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang‘ich daromadlari yig‘indisidir.

Soddalik uchun YaIM yalpi ishlab chiqarish, YaMD esa yalpi daromad deb ham yuritiladi.

Nominal YaIM yakuniy tovarlar va xizmatlar hajmini joriy narxlarda, real YaIM esa doimiy narxlarda baholaydi. Shunday qilib, real YaMM hajmi faqatgina ishlab chiqarish hajmi o‘sishi bilan oshadi, nominal YaMM esa tovar va xizmatlar baho darajasining o‘sishi natijasida ham oshishi mumkin. Milliy ishlab chiqarish va daromad hajmining real o‘zgarishini aniqlash uchun baholar indekslaridan: YaIM deflyatori va INI ko‘rsatkichlaridan foydalanganiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilish uchun foydalaniladigan ko‘rsatkichlardan qaysilari makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi?
2. Qo‘shilgan qiymat, yakuniy mahsulot, oraliq mahsulot ko‘rsatkichlarini tavsiflab bering.
3. Nima uchun YaIM ko‘rsatkichini qayta hisoblashdan ehtiyoj bo‘lish zarur va bunga qanday erishiladi?
4. YaIMni hisoblashning qanday usullari mavjud?
5. YaIMni daromad bo‘yicha hisoblashda qo‘llaniladigan komponentlar tarkibini sanab o‘ting.

6. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblashda qo'llaniladigan komponentlar tarkibini sanab o'ting.
7. O'zbekiston Respublikasida YaIMning ishlab chiqarish strukturasiga tahliliy sharh bering.
8. YaIMni taqsimot usulida aniqlashda MHTning yangi talqinida keltirilgan hamda iqtisodiy adabiyotlarda qo'llab kelinayotgan uslublardagi farqlarni tushuntirib bering.
9. YaMD ko'rsatkichi qanday hisoblanadi va YaIM ko'rsatkichidan nimasi bilan farq qiladi?
10. SHD, SHTD, YaMTD ko'rsatkichlari o'rtaсидаги bog'liqlik va farqlar nimada?
11. Baholar indekslarini va real YaIM ni hisoblash zaruratiniz asoslab bering?
12. YaIM deflyatori va iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichlarining farqlarini izohlang.
13. Fisher indeksi nima uchun qo'llaniladi?
14. Respublikamiz YaIM yaratishda qaysi sohaning ulushi katta?
15. Oraliq va sof mahsulotlarning farqi ni'madan iborat?

Mavzu bo'yicha masalar

1-masala

Jadval ma'lumotlari bo'yicha quyidagilarni hisoblang:

- a) xarajat oqimlari bo'yicha YaIM hajmi;
- b) daromad oqimi bo'yicha YaIM hajmi (MHTning eski talqiniga ko'ra);
- d) SIM hajmi;
- e) MD hajmi.

	Mlrd. pul birl.
Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	10
Sof eksport	20
Dividendlar	105
Korporatsiyalar foydasiga soliq	10
Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishi	1000
Alohiba qo'yilmalardan daromad	340
Foiz	400
Ijara to'lovi	25
Yalpi xususiy ichki investitsiyalar	610
Yollanma ishchilarning ish haqi	3140
Biznesga bilvosita soliqlar	400
Iste'mol qilingan kapital hajmi	500
Shaxsiy iste'mol xarajatlari	3300

Yechish:

a) $YaIM = S + G + I + X_n = 3300 + 610 + 1000 + 20 = 4930$

bu yerda:

S – iste'mol xarajatlari,

G – tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishi,

T – Yalpi investitsiyalar,

X_n – sof eksport.

b) Daromadlar bo'yicha YaIMni Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi (10), dividendlar (105), Korporatsiyalar foydasiga soliq (10), alohiba qo'yilmalardan daromadlar (340), foizlar (400), ijara to'lovi (25), yollanma ishchilarning ish haqi (3 140) biznesga bilvosita soliqlar (400), iste'mol qilingan kapital hajmi (500)ni qo'shgan holda aniqlaymiz. Daromad bo'yicha YaIM = 4 930 mlrd. pul birligi. Xarajat bo'yicha YaIM daromad bo'yicha YaIM ga teng.

b) SIM = YaIM – amortizatsiya;

SIM = 4 930 – 500 = 4 430 mlrd. pul birligi;

d) MD = SIM – biznesga bilvosita soliqlar;

MD = 4 430 – 400 = 4 030 mlrd. pul birligi.

2-masala

YalM 6000 pul birligiga, iste'mol xarajatlari 4200 pul birligiga, davlat xarajatlari 900 pul birligiga, sof eksport esa 120 pul birligiga teng.

Quyidagilarni hisoblang:

- a) yalpi va sof investitsiyalar hajmi;
- b) eksport 450 pul birligiga teng bo'lsa import hajmini;
- d) amortizatsiya 200 pul birligiga teng bo'lsa SIMni.

Yechish:

a) Xarajatlarga ko'ra YalMni hisoblash formulasidan foydalanib yalpi investitsiyalarni topamiz:

$$I = YalM - S - G - X_n = 6000 - 4200 - 900 - 120 = 780 \text{ pul.birligi.}$$

Sof investitsiyalar = Yalpi investitsiyalar – amortizatsiya = 780 pul birl. – 200 pul birl. = 580 pul birligi.

b) $X_n = X(\text{eksport}) - M$ (import). Bundan: Import = eksport – sof eksport = 450 – 120 = 330 pul birligi.

d) SIM = YalM – amortizatsiya = 6000 – 200 = 5800 pul birligi.

3-masala

Quyidagi ma'lumotlarga asosan yalpi ichki mahsulot va takroriy hisob qiymatini aniqlang:

Iqtisodiy jarayon bosqichlari	Qiymat (pul birl.)
«1-firma» xomashyo topadi	200
«2-firma» xomashyoni qayta ishlashga yetkazadi	250
«3-firma» xomashyoni konstruksiyali matoga qayta ishlaydi	400
«4-firma» matoni yakuniy mahsulot tayyorlovchiga yetkazib beradi	500
«5-firma» yakuniy mahsulotni ishlab chiqaradi	800
«6-firma» yakuniy mahsulotni ulgurji sotuvchiga yetkazib beradi	900
«7-firma» mahsulotning chakana savdosini amalga oshiradi	1000
Umumiy savdo qiymati	4050

Yechish:

YalM jadval ma'lumotlari asosida ishlab chiqarish usuli yordamida yakuniy mahsulotni har bir ishlab chiqarish bosqichida qo'shilgan qiymatning yig'indisi orqali topish mumkin. Bunda oraliq mahsulotlar qiymati hisobga olinmaydi.

$$\text{YalM} = 200 + (250 - 200) + (400 - 250) + (500 - 400) + (800 - 500) + (900 - 800) + (1000 - 900) = 1000 \text{ pul birligi.}$$

Shunday qilib, qo'shilgan qiymat hajmi yakuniy mahsulot qiymatiga teng, bu mahsulotning chakana bahosida aks etadi. Takroriy hisob qiymati umumiy savdo qiymati va qo'shilgan qiymat orasidagi farq sifatida aniqlanadi, $4\ 050 - 1\ 000 = 3\ 050$ pul birligi.

4-masala

Taklif etilgan jadvalni tahlil qiling (ma'lumotlar taxminiy):

Yil	Nominal YalM (mlrd.pul birl.)	Deflyator (% da)	Real YalM (mlrd.pul birl.)
1	1800	50	
2	2400	70	
3	3500	100	
4	4200	105	
5	6000	120	

Quyidagi savollarga javob bering:

1. Nominal YalM qanday ko'raklich hisoblanadi?
2. Real YalM nominal YalMdan qanday farq qiladi?
3. Deflyator nima, uni qanday hisoblash mumkin?
4. Jadvalning so'ngi ustunini to'ldiring.

Yechish:

1. Yalpi ichki mahsulot – Ma'lum muddat davomida mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlar bozor baholarining yig'indisi.

2. Nominal YaIM – joriy yil narxlarida ifodalangan YaIM. Uning dinamikasiga mahsulotning fizik hajmi hamda narxlar darajasining o'zgarishi ta'sir etadi. Inflyatsiya sharoitida u iqtisodiy faoliyat natijalarini buzib ko'rsatgani uchun tuzatishni talab etadi.

Real YaIM – iqtisodiy baholarda (bazis yil baholarida) hisoblangan YaIM.

3. Deflyator bazis yiliga nisbatan joriy yilda mamlakatdag'i barcha tovarlar va xizmatlarning umumiyligi bahosi darajasi o'zgarishini ifodalaydigan baho indeksi.

$$\text{ЯИМ}_{\text{дефлятори}} = \frac{\text{номинал ЯИМ}}{\text{реал ЯИМ}} = \frac{\sum_{i=1}^n P_1^i \times Q_1^i}{\sum_{i=1}^n P_0^i \times Q_1^i}$$

Bu yerda, P_0^i va P_1^i – mos ravishda, bazis va joriy yildagi i -turdagi mahsulot birligining narxi;

Q_1^i – joriy yilda sotilgan i -turdagi tovar miqdori.

Binobarin,

$$\text{РеалЯИМ} = \frac{\text{номиналЯИМ}}{\text{дефлятор}}$$

Real YaIM quyidagilarni tashkil etadi:

1-yili 1800 mlrd. pul birl.: 0,5 = 3600 mlrd. pul birl.

2-yili 2400 mlrd. pul birl.: 0,7 = 4000 mlrd. pul birl.

3-yili 3500 mlrd. pul birl.: 1 = 3500 mlrd. pul birl.

4-yili 4200 mlrd. pul birl.: 1,05 = 4000 mlrd. pul birl.
--

5-yili 6000 mlrd. pul birl.: 1,2 = 5000 mlrd. pul birl.

5-masala

4200 milliard so‘m miqdoridaq potensial YaIMga erishish uchun hukumat bu yil davlat xaridlarini 100 milliard so‘mga va transfertlarni 40 milliard so‘mga oshirdi. Jamg‘arishga bo‘lgan chekli moyillik 0,25 ga teng. O‘tgan yilgi YaIMni aniqlang.

Yechish:

Transfertlar shaxsiy daromadlarning bir qismidir, shuning uchun o‘sish transfertlarning hajmi YaIMning o‘sishiga olib keladi. Kattalashtrish davlat sarf-xarajatlar ko‘paytiruvchi ta’sirga ega.

Holatning multiplikatorini hisoblaylik xarajatlar:

M_g = 1 / MPS, bu yerda M_g – davlat multiplikatori xarajatlar, MPS – marginal tejashga moyillik.

$$M_g = 1 / 0,25 = 4$$

Hukumat tarkibidagi o‘zgarishlar natijasida YaIMning o‘zgarishi xarajatlar bilan belgilanadi

$$\text{formula: } DY(G) = M_g \cdot -G = 4 \cdot 100 = 400 \text{ milliard so‘m.}$$

Keyin YaIMning umumiy o‘zgarishi:

$$D = \text{Total} + 400 + 40 = 440 \text{ milliard so‘m.}$$

U holda haqiqiy YaIM:

$$Y_f = Y^* - t \text{ Umumiy} = 4200 - 440 = 3760 \text{ milliard so‘m}$$

Javob: O‘tgan yilgi YaIM 3760 milliard rublni tashkil etadi

6-masala

Iqtisodiyot quyidagi ma’lumotlar orqali ifodalangan:

Ko‘rsatkichlar	Pul birliklari
YaIM	600
Uy xo‘jaliklari iste’moli	320
Sof investitsiyalar hajmi	110
Davlat xarajatlari	90
Iksport	120
Import	90
Byudjetga tushuvchi bevosita soliqlar hajmi	40
Bilvosita soliqlar hajmi	30
Tadbirkorlarga subsidiyalar	25

Quyidagilarni hisoblang:

- a) amortizatsiya mablag'larini hajmi;
- b) milliy daromad (MHTning eski talqiniga ko'ra);
- d) davlat byudjeti holati.

Yechish:

a) xarajatlarga ko'ra YaIMni hisoblash formulasiga asoslanib, yalpi investitsiyalar hajmini topamiz:

$$I = YaIM - C - G - N_x.$$

$$\text{Bunda, } T = 600 - 320 - 90 - 30 = 160.$$

$$A = I - I_{\text{cof}} = 160 - 110 = 50.$$

b) milliy daromad quyidagicha aniqlanadi:

$$MD = YaIM - A - T_n,$$

Bu yerda, T_n – biznesga bilvosita soliqlar.

Bunda

$$MD = 600 - 50 - 30 = 520.$$

d) davlat byudjeti holatini aniqlash uchun davlat daromad va xarajatlarini qiyoslash zarur.

$$T = 40 + 30 = 70.$$

Bunda $T - G = 70 - 90 = -20$, ya'ni byudjet defitsiti mavjud.

7-masala

Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar bilan yoritilgan:

- 1.Iste'mol xarajatlari (C) = 2300;
- 2.Yalpi investitsiyalar (I) = 700;
- 3.Davlat xarajatlari (G) = 800;
- 4.Transfert to'lovlari (TR) = 100;
- 5.Davlat qarzi bo'yicha foiz to'lash (N) = 100;
- 6.Soliqlar (T) = 800.

YaIM = YaMM deb taxmin qilinsin.

Hisoblang:

- a) shaxsiy jamg'armalar;
- b) davlat jamg'armalari;

d) agar defitsit obligatsiyalar chiqarish bilan 80%ga moliyalashtirilishi ma'lum bo'lsa, davlat byudjeti defitsitini qoplash uchun chiqarilgan davlat obligatsiyalari qiymati va qo'shimcha pul miqdori.

Yechish:

a) shaxsiy jamg'armalar quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$S_p = (Y + TR + N - T) - C$$

$$Y = C + I + G$$

$$Y = 2300 + 700 + 800 = 3800$$

$$S_g = (3800 + 100 + 100 - 800) - 2300 = 900$$

b) davlat jamg'armalari quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$S_g = T - TR - N - G$$

$$S_g = 800 - 100 - 800 = -200$$

d) davlat jamg'armalarining salbiy belgisi davlat byudjeti defitsiti muvjudligini anglatadi:

$$BD = -S_g = -200$$

Defitsit 80% obligatsiyalar chiqarish bilan moliyalashtiriladi, ya'ni:

$$\Delta B = 0,8 \times BD$$

$$\Delta B = 0,8 \times 200 = 160$$

Defitsitning qolgan qismi qo'shimcha pul chiqarish orqali moliyalashtiriladi:

$$\Delta M = 200 - 160 = 40.$$

8-masala

Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar orqali ifodalangan:

Iste'mol xarajatlari (C) = 1200;

Yalpi investitsiyalar (I) = 500;

Davlat xarajatlari (G) = 300;

Transfert to'lovlari (TR) = 200;

Davlat qarzi bo'yicha foiz to'lash (N) = 100;

Soliqlar (T) = 400.

Sof eksport (X_n) = -100.

Quyidagilar nimaga teng?

- a) xususiy jamg‘armalar;
- b) davlat jamg‘armalari;
- d) tashqi dunyo jamg‘armalari?

Yechish:

a) xususiy jamg‘armalar quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$S_p = (Y + TR + N - T) - C$$

$$Y = C + I + G$$

$$Y = 1200 + 500 + 300 = 2000$$

$$S_p = (2000 + 200 + 100 - 400) - 1200 = 700$$

b) davlat jamg‘armalari quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$S_g = T - TR - N - G$$

$$S_g = 400 - 200 - 100 - 300 = -300$$

d) tashqi dunyo jamg‘armalari quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$S_p = M - X, \text{ yoki } S_r = -X_n$$

$$S_p = -X_n = -(-100) = 100.$$

9-masala

Mamlakat iqtisodiyotidagi jamg‘armalar (C) real foiz stavkasiga bog‘liq (R):

$S = 100 + 400R$. Agar nominal foiz stavkasi 40% teng, narxlar oshishi sur’ati esa 30% ni tashkil etsa, u holda, jamg‘armalar nimaga teng bo‘ladi?

Yechish:

$$S = 100 + 400R \Rightarrow S = 140 \Rightarrow 140 = 100 + 400R \Rightarrow 40 = 400R \Rightarrow R = 40 : 400 = 0,1 \Rightarrow$$

$$S = 100 + 400R \Rightarrow 100 + 400 \times 0,1 \Rightarrow S = 100 + 40 = 140.$$

Jamg‘armalar 140 ga teng yoki nominal foiz stavkasi $R_n = R_r - P$, u holda real foiz stavkasi $R_r = R_n - P \Rightarrow 40\% - 30\% = 10\% \Rightarrow$ koef. 0,1 (10: 100) \Rightarrow

$$S = 100 + 400 \times 0,1 = 100 + 40 = 140$$

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. Keltirilgan malumotlarga asoslanib, YaIM ko'rsatkichini aniqlang:

1. Ish haqi-183,2
2. Eksport hajmi-15,3
3. Amortizatsiya-12,7
4. Davlat xaridi— 57,4
5. Biznesga egri soliqlar-13,3
6. Transfert to'lovlari-14,8
7. Import hajmi— 12,4
8. Foyda solig'i-40,8
9. Shaxsiy iste'mol xarajatlari— 223,1
10. Sof investitsiyalar-56,2

2. 2017-yilda YaIM 78000 mld. so'mni tashkil etdi. Bir yildan so'ng deflyator 1.2 martaga ortdi, real YaIM esa 10 % ga o'sdi. 2018-yilgi nominal YaIM hajmini toping(2017-yil -bazis yili).

3. Yopiq iqtisodiyotda YaIM 4800 mld. so'm. Iste'mol xarajatlari 2900 mld. so'mga, davlatning tovarlar va xizmatlar xaridi 1200 mld. so'mga, Iste'mol qilingan kapital qiymati 350 mld. so'mga teng.

Iqtisodiyotdagi sof investitsiyalar hajmini toping.

4.Iqtisodiyotda yalpi investitsiyalar hajmi 220 mld. so'mga, hyudjet profitsiti esa 15 mld. so'mga teng. Eksport hajmi 75 mld. so'mga, import hajmi esa 90 mld. so'mga teng bo'lsa xususiy jamg'armalar miqdorini aniqlang.

5.Berilgan ma'lumotlar asosida xususiy jamg'armalar miqdorini aniqlang (mld. so'm) : dromadlar (Y)-60, transfert to'lovlari-80 , davlat zayomlari bo'yicha foiz to'lovlari -60, soliqlar-80, iste'mol xurnjatlari-470.

6.Mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha quyidagi ma'lumotlar (p.b.) mavjud: shaxsiy iste'mol xarajatlari – 325;

transfertlar – 35;

arenda to‘lovlari – 24;
amortizatsiya ajratmasi – 17;
omonat bo‘yicha foizlar – 25;
mulk egalarining daromadlari – 63;
dividendlar – 18;
ishlovchilarning ish haqi – 382;
biznesga egri soliqlar – 11;
korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi – 4;
shaxsiy soliqlar – 41;
korporatsiyalar foydasiga soliqlar – 9;
korporatsiyalar foydasi – 56;
tovar va xizmatlar bo‘yicha davlat xaridlari – 105;
sof xususiy ichki investitsiyalar – 59;
ijtimoiy fondlarga ajratmalar – 43;
xorijdan olinadigan daromadlar – 12;
xorijga to‘lanadigan daromadlar – 8;
eksport – 57;
import – 10.

Aniqlang: Daromad va xarajatlar bo‘yicha YaIM va YaMM, milliy, shaxsiy va shaxsiy tasarrufidagi daromadlarni.

6.Mamlakatning joriy yil baholarida hisoblangan YaIM 6000 p. b. ni tashkil qildi. Bundan tashqari, mamlakatning joriy yil uchun quyidagi ma’lumotlari mavjud: iste’mol xarajatlari – 4500; investitsiyalar – 800; tovar va xizmatlar bo‘yicha davlat xaridlari – 400; import – 100. Ushbu mamlakatda eksport hajmi qancha bo‘lgan?

7.A mamlakatida iste’mol xarajatlaridan tashqari barcha xarajatlar avtonom. Shaxsiy jamg‘armalar funksiyasi quyidagi formulada berilgan: $S = -20 + 0,2(y - T)$, bu yerda: y – real YaIM., T – sof soliqlar.YAlpi investitsiyalar 60 teng, tovar va xizmatlar bo‘yicha davlat xaridlari 60 ga teng. Sof soliqlar ham 60 ga teng. Savdo balansining profitsiti 10 ga teng, eksport 40 ga teng. Doiraviy aylanishi modeli bo‘yicha daromadning muvozanat darajasi qancha bo‘ladi?

8.“Ilg‘or” firmasi 2020-yili reklama uchun 250 sh.b. mahsulot ishlab chiqardi. Reklama bukletlarini tayyorlash uchun firma 120 sh.b. da qog‘oz va kraska sotib oldi va ular to‘la ishlatildi. Firma xodimlariga ish haqi sifatida 80 sh.b. to‘landi. “Ilg‘or” firmasida 2020 yilda yaratilgan qo‘sishimcha qiymat miqdorini aniqlang.

9.Fermer 10 tonna bug‘doy yetishtirdi (urug‘lik bug‘doyning narxi 0 ga teng). Yetishtirgan bug‘doyning 9 tonnasini tegirmonchiga 1 mln. so‘m /tonna narxda sotdi va 1 tonnasini urug‘lik sifatida olib qoldi. Tegirmonchi 9 tonna un ishlab chiqardi va 8 tonnasini 1.5 mln. so‘m/ tonna narxida nonvoyga sotdi va 1 tonnasini zaxira sifatida olib qoldi. Nonvoy 9 tonna unni 2 mln..so‘m/ tonna narxda sotdi.Qo‘sishimcha qiymat metodi bilan YalM ni aniqlang.

10. Mamlakatda o‘tgan ikki yil davomida nominal YalM 500 mlrd p.b. dan 900 mlrd p.b.ga ko‘paydi, YalM deflyatori esa ushbu davrda 125 dan 150 % gacha o‘zgardi. O‘tgan ikki yil davomida YalM qanday o‘zgarganligini aniqlang.

III BOB. IQTISODIY TEBRANISH. ISHSIZLIK


3.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining rivoji davriyidir. Iqtisodiy o'sishning o'rmini kam ishlab chiqarish, so'ngra ortiqcha ishlab chiqarish egallaydi. Bularni ta'kidlash uchun iqtisodiyotdagi hodisalar, iqtisodiy shakl tushunchasi kiritilgan (to'lqin, tebranish).

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tarixini o'rganish, ulardan hech biri uzoq muddatda bir tekis rivojlanmaganligi, aksincha, barcha malakatlar uchun davriy rivojlanish xos ekanligini ko'rsatadi.

Davrlar – bu iqtisodiy faoliyatning davriy tebranishlari. Ular iste'mol bozorida iqtisodiy muvozanatni tiklash bilan bog'liq.

Iqtisodiy davr deganda, odatda, iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlanib, birin-ketin bir necha fazalarni bosib o'tib, o'zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o'tgan davr tushuniladi¹¹. Ayrim iqtisodiy davrlar boshqalaridan o'tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qiladi. Shunga qaramasdan ularning barchasi bir xil bosqichlardan tashkil topadi (3.1-čizma).



3.1-čizma. Iqtisodiyotning davriy rivojlanishi.

¹¹ McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 157

Iqtisodiy davrlar to‘rtta bosqichni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqich iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasiga erishilgan bosqich bo‘lib, u «**cho‘qqi**» deb yuritiladi. Bu iqtisodiyotda ish bilan to‘liq bandlik, ishlab chiqarish to‘la quvvatda ishlayotganligi, shuningdek, mahsulotlarning baho darajasining o‘sish holati kuzatiladi.

Keyingi bosqich **pasayish (retsessiya)** bosqichidir. Bunda ishlab chiqarish va bandlik darajalari kamayadi, ammo bahoning o‘sish darajasi pasaymaydi. Bu bosqich faol va uzoq davom etsagina bahoning o‘sish darajasi sustlashishi mumkin. **Pasayishning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik eng quyi darajaga tushadi va turg‘unlik davri boshlanadi.**

Ko‘tarilish bosqichida ishlab chiqarish va bandlik darajasi astasekin oshib, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish va to‘liq bandlik darajasiga erishiladi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, iqtisodiy davrlar bir xil bosqichlarga ega bo‘lsada, ammo ular davomiyligi va faolligiga ko‘ra o‘zaro farq qilib turadi. Shuning uchun ham iqtisodchilar, bu jarayonlarni iqtisodiy davrlar deb emas, balki iqtisodiy tebranishlar deb atash to‘g‘ri bo‘ladi deb hisoblashadi. Iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi sifatida iqtisodichilar uch omilni ko‘rsatadi.

Birinchi guruh olimlar iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi texnika va texnologiyalarda ro‘y beradigan o‘zgarishlar deb hisoblaydilar. Ularning fikricha fan-texnika yutuqlarini qo‘llash natijasida iqtisodiyotda o‘sish ro‘y beradi. Masalan avtomobilning yaratilishi yoqilg‘i sanoati, neft qazib chiqarish, kimyo, yo‘l qurilishi materiallari sanoatlarining jadal rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish unumдорligini bir necha baravar oshirish, ilgari foydalanimagan resurslarni ishga tushirish imkonini beradi. Texnik va texnologik yangiliklar doim ham yaratilavermasligi iqtisodiyotdagि tebranishlarga sabab bo‘ladi.

Olimlarning yana bir guruhi iqtisodiy bosqichlarni siyosiy va tasodifiy vaziyatlarga bog‘lashadi.

Bu jarayonni monetar siyosatga bog'laydigan olimlar ham mavjud, ya'ni davlat qanchalik ko'p pul bosib chiqarsa, uning qadri shunchalik kamayib boradi, va aksincha, pul miqdori qanchalik kam bo'lsa, ishlab chiqarish ko'laming pasayishi va ishsizlar sonining ortishi shunchalik tezlashadi. Xullas, iqtisodiy bosqichlarni baholashga turli xil yondashuvlar mavjud. Ammo barcha iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlilik darajalarini yalpi talab va boshqacha aytganda yalpi xarajatlar miqdoriga bog'liq, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydilar. Chunki, korxonalar o'z tovar va xizmatlarini ularga talab bo'lsagina ishlab chiqaradi. Boshqacha aytganda, talab katta bo'lmasa, korxonalarda tovar va xizmatlarni katta miqdorda ishlab chiqarish foydali emas. O'z navbatida, ishlab chiqarishda bandlilik va daromadlar darajasi ham, aynan shu sababli, past bo'ladi. Yalpi xarajatlar miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, ishlab chiqarishning o'sishi katta foya olib keladi. Shuning uchun ishlab chiqarish, bandlilik va daromadlar darajasi ortib boradi. Iqtisodiy tebranishlar sabablarini, ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, iqtisodiy tebranishlar amplitudasini qisqartirish barcha hukumatlar makroiqtisodiy siyosatining muhim maqsadlaridan biridir.

Sikllarning asosiy turlari

Sikl turlari	Siklning davomiyligi	Asosiy xususiyatlari
Kitchin sikli	2–4 yil	Zaxiralar miqdori → YaMM, inflyatsiya, bandlikning tebranishi, tijorat sikllari
Juglar sikli	7–12 yil	Investitsion sikl → YaMM, inflyatsiya va bandlikning tebranishi
Kuznets sikli	16-25 yil	Daromad → immigratsiya → uy-joy qurilishi → yalpi talab → daromad
Kondratev sikli	40-60 yil	Texnika taraqqiyoti, tarkibiy o'zgarishlar
Forrester sikli	200 yil	Enyergiya va materiallar
Tofflyer sikli	1000-2000 yil	Sivilizatsiyalarning rivojlanishi

Kitchin sikli zaxiralar sikli deb ham nomlanadi. Bunda Jozef Kitchin (1926-y.) o‘zining e’tiborini tovar zaxiralarining harakat chog‘idagi moliyaviy hisoblar va sotish narxlarini tahlil qilish asosida 2 yildan 4 yilgacha davr davomidagi qisqa to‘lqinlarni tadqiq qilishga qaratadi. Ayniqla, u siklning davomiyligini jahondagi oltin zaxiralarining tebranishlari bilan bog‘lab, uni 3 yil 4 oyga teng, deb hisoblaydi. Biroq qisqa muddatli sikllar sabablarining bunday izohi bugungi kunda ko‘philik iqtisodchilarni qoniqtirmaydi.

Juglar sikli «biznes-sikl», «sanoat sikli», «o‘rtacha sikl» va «katta sikl» kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda iqtisodiy fan 7-12 yillik sikllarni ajratib ko‘rsatganligi tufayli, aynan shu sikl Fransiya, Angliya va AQSHda foiz stavkalari va narxdagi tebranishlarni asosiy tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o‘rganishga katta hissa qo‘shtigan Klement Juglar (1819-1905 yy.) nomi bilan ataladi.

Birinchi sanoat sikli 1825-yili Angliyada metallurgiya va boshqa yetakchi tarmoqlarda mashinali ishlab chiqarish hukmron mavqeni egallagan davrda kuzatiladi. 1836-yildagi inqiroz dastlab Angliyada boshlanib, keyin AQSHga ham tarqaladi, 1847-1848-yillarda AQSH va qator Yevro pa davlatlarida boshlangan inqiroz tub mohiyatiga ko‘ra birinchi jahon sanoat inqirozi bo‘lgan.

Agar XIX asrda sanoat sikli 10-12 yilni tashkil qilgan bo‘lsa, XX asrda uning davomiyligi 7-9 yil va undan ham kam davrgacha qisqargan.

AQSH va Yevro paning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat siklini boshdan kechirgan bo‘lib, ulardan yettiasi ikkinchi jahon urushidan keyin ro‘y bergen.

Kuznets sikli ko‘p hollarda «qurilish sikli» deb ham nomlanib, 20 yilgacha bo‘lgan iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. Saymon Kuznets o‘zining «Milliy daromad» (1946-y.) nomli kitobida milliy daromad, iste’mol sarflari, ishlab chiqarish maqsadidagi uskunalar hamda bino va inshootlarga Yalpi investitsiyalar ko‘rsatkichlarida 20

yillik o‘zaro bog‘liq tebranishlar mayjud bo‘lishini ko‘rsatib bergan. 1955-yilda amerikalik iqtisodchining xizmatlarini tan olish ramzi sifatida sanoat siklini Kuznets sikli deb nomlashga qaror qilinadi.

Kondratev sikli «uzoq to‘lqinlar» sikli deb ham ataladi. Sikllilikning bu nazariyasini ishlab chiqishga rus olimi N.D.Kondratev katta hissa qo‘shgan. Uning tadqiqoti Angliya, Fransiya va AQSHning 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab olgan. Bunda u iqtisodiy o‘sishning ko‘p omilli tahlilini o‘tkazib, ya’ni tovar narxlari kapital uchun foiz, nominal ish haqi, tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘rtacha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta sikllarni ajratib ko‘rsatadi.

I sikl: 1787-1814-yillar – ko‘taruvchi to‘lqin; 1814-1851-yillar – pasaytiruvchi to‘lqin.

II sikl: 1844-1851yillar – ko‘taruvchi to‘lqin; 1870-1896-yillar – pasaytiruvchi to‘lqin.

III sikl: 1896-1920-yillar – ko‘taruvchi to‘lqin.

Kondratev siklining davomiyligi o‘rtacha 40-60 yilni tashkil qiladi va uning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirishi hisoblanadi. Kondratev birinchi katta siklining yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolyusiyasi, ikkinchisini – temir yo‘l transportining rivojlanishi, uchinchisini – elektr energiyasi, telefon va radioning kashf etilishi, to‘rtinchisini – avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bog‘laydi. Hozirgi zamон tadqiqotchilar beshinchi siklni elektronika, gen injenerligi va mikroprotsessorlar rivojlanishi taqozo qilishini ko‘rsatadi.

3.2. Mehnat bozori, ishsizlik tushunchasi, ishsizlikning turlari, o‘lchanishi va to‘la bandlik

Mamlakat iqtisodiyotida YaMM yoki YaIMni yaratishda qatnashadigan iqtisodiy resurslarning eng asosiyalaridan biri mehnat resurslari hisoblanadi. Inson resurslari avvalo yollanma xodimlar mehnati va insonlarning tadbirkorlik qobiliyatlaridan iborat. Mehnat

yoki inson resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini demografik fanlar, Statistika, Etnografiya, Mehnat iqtisodi, Ijtimoiy-madaniy kompleksni prognozlashtirish fanlari qatori Makroiqtisodiyot fani ham o'rganadi.

Makroiqtisodiyot inson resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy yo'naliishlarini tadqiq etish orqali ularni samarali boshqarishni maqsad qilib oladi. Chunki, mehnat resurslari va ularning faol qismi bo'lgan ishchi kuchi ishlab chiqarish kuchlarining eng asosiy qismidir. Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda mehnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni tushuniladi.

Mehnat resurslarini sifat jihatdan takomillashtirish iqtisodiyotning o'sish sur'atlari bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham mamlakatda mehnat bozorini, mehnatni boshqarish institutlarini va uning iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarini yaratish eng asosiy vazifalardan biridir.

Demak, mehnat bozori va uning maromida faoliyat ko'rsatishi quyidagi omillarga bog'liq:

1. aholi soni, yoshi va jinsining salmog'idagi o'zgarishlarga;
2. ish bilan bandlilikdagi hudud va tarmoq o'zgarishlariga;
3. qo'shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mexanizmiga;
4. ishlab chiqarish hajmiga, uning o'sish sur'atiga, ishlab chiqarish tarkibiga;
5. ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuviga;
6. mehnat resurslarini boshqarish usuli va boshqalarga.

Hozirgi sharoitda mehnat bozorida talab va taklif qonuni amal qiladi. Chunki, ishchi kuchi ham boshqa mehnat maxsullari qatori, tovar shakliga ega bo'lib, tovar-pul munosabatlariga faol jalb qilinadi. Uning bu xususiyati mehnat ko'rsatkichlari tizimida o'z aksini topadi. Ular orasida ish bilan bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Ya'ni ishbilarmonlar ishchi kuchidan shunday miqdorlarda foydalanadilarki, bunda mehnatning yuqori mahsuli real

ish haqi bilan yoki ish haqi hajmining puldagi ifodasi mehnatning yuqori mahsuli qiymatiga teng bo'lishi kerak. Agarda, real ish haqi hajmi oshsa, ishbilarmon ishchi kuchiga bo'lган talabni qisqartiradi, agar real ish haqi hajmi kamaysa, ishchi kuchiga bo'lган talab ortadi.

Amaliyotda aholining «to'la ish bilan bandligi» degan tushuncha bor. Lekin bunday natijaga o'z-o'zidan erishish qiyin. Chunki aholining ishlamoqchi bo'lган qismini ish bilan deyarli to'liq band qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham aholining ma'lum miqdorda ishsiz bo'lishi iqtisodiy jihatdan me'yoriy hol va asoslidir.

Ishsizlar – bu, ishchi kuchlarining bir qismi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lмаган, lekin ishlashni xohlovchi va ish qidirayotganlardan iborat.

Iqtisodiy adabiyotlarda ishsizlikning ikki shakli ajratiladi: tabiiy va majburiy¹²

Tabiiy ishsizlik-bu mehnat bozorining normal (tabiiy) holati. Tabiiy ishsizlik darajasi ko'pgina mamlakatlarda o'rtacha 5-6% qabul qilinadi, garchi ba'zida bo'lsa ham o'zgarishi mumkin. Yaponiyada ishsizlik darajasi bir foiz atrofida bo'lib, to'liqish bilan ta'minlangan deb hisoblanadi.

Tabiiy ishsizlik o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi: friksion ishsizlik, tarkibiy (strukturali) ishsizlik, davriy ishsizlik.

Friksion ishsizlik. Unga ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta'minlanishni kutayotgan ishchi kuchlari kiradi. Ishsizlikning bu turi asosan mavsumiy ishlar, ishlab chiqarishdagi eski modelning yangisi bilan almashtirilishi, ish yoki turarjoylarni o'zgartirishlar, o'quv yurtlarini tugatish va shuningdek, boshqa sabablardan kelib chiqadi. U doimo mavjud bo'lib, ma'lum bir darajada kerakli hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichi uchun tabiiy ishsizlikning ma'lum bir qiymati mavjud.

¹² Макроэкономика: учебник для вузов / Л.П. Кураков, М.В. Игнатьев, А.В. Тимирясова и др.; под общ. ред. Л.П. Куракова. – М.: Изд-во ИАЭП, 2017. – 336 с.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishsizlik uni belgilaydigan omillar qatoriga mamlakat fuqarolarini ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilish darajasi (eng kam ish haqi darajasi, ishsizlik nafaqasi miqdori) kiradi va qashshoqlik va boshqalar), kasaba uyushmalarining vakolati, odamlarning moyilligi mehnat faoliyati va hokazolarga qarab, bu omillar o‘zgaruvchan bo‘lganligi sababli, ishsizlikning tabiiy darajasining qiymati vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadi. Rivojlangan mamlakatlar uchun tabiiy ishsizlikning normal qiymati 5-7% ni tashkil qiladi..

Davriy ishsizlik asosan ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo‘lgan talabning kamayishidan paydo bo‘ladi. Davriy pasayish tovar va xizmatlarga bo‘lgan yalpi taklifning kamayishini, shunga muvofiq, yalpi taklifning kamayishini va oqibatda aholining ish bilan bandligini qisqarishi va ishsizlikning o‘sishini bildiradi.

Majburiy ishsizlik – bu ishsizlikning ikkinchi shakli, uning darajasi tabiiy darajadan oshib ketganda. Buning asosiy sababi raqobatdir, natijada firmalar bankrot bo‘lib, ishchilar ishsizlar qatoriga qo‘shilishadi.

Majburiy ishsizlikning quyidagi turlari mavjud: texnologik, mintaqaviy, yashirin va mavsumiy.

Texnologik ishsizlik ilmiy-texnik taraqqiyot ta’sirida ishchi kuchiga talabning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Yangi texnika va texnologiyani joriy etish natijasida ishchilar texnologik jihatdan ortiqcha bo‘lib qoladilar. Texnik jihatdan savodli, kompyuter egasi, o‘zlarini ijodiy rivojlantiradigan va qisqa vaqt ichida to‘g‘ri ishlab chiqarish qarorlarini qabul qila oladiganlar ishlab chiqarishda qoladilar

Mintaqaviy ishsizlik hududlarning tarixiy, demografik, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ta’sirida shakllanadi. Ishsizlikning ushbu turi mamlakatning zinch joylashgan mintaqalariga, masalan, Markaziy Osiyoga ta’sir qiladi. Ushbu muammoni hal qilish davlat darajasida amalga oshirilishi kerak.

Yashirin (qisman) ishsizlik bilan odamlar rasmiy ravishda ish bilan ta'minlangan. Bu mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytiradi. Masalan, 5 kunlik ish haftasi o'rniga 3-4 kunlik ish haftasi joriy etiladi, qolgan kunlar uchun ular nafaqa olish huquqiga ega. Biroq, ular mehnat birjasida ro'yxatdan o'tkazilmagan va shuning uchun ishsiz deb hisoblanmaydi.

Mavsumiy ishsizlik ma'lum sanoat tarmoqlari mahsulotlarining mavsumiy tebranishlari bilan bog'liq. Unga qishloq xo'jaligi, qurilish, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish (lagerlar, dam olish maskanlari va boshqalar) kiradi. Bu yilning ma'lum vaqtlarida sodir bo'ladi.

Institutsional ishsizlik, mehnat bozorini tashkil etishning o'zi yetarli darajada samarali bo'limganda paydo bo'ladi: bo'sh ish-o'rnlari to'g'risidagi to'liq bo'limgan ma'lumotlar, ishsizlik miqdori bo'yicha oshirilgan nafaqalar, kam daromad solig'i va boshqalar. Makroiqtisodiyot shuningdek, haqiqiy va uydirma ishsizlikni farqlash kerak. Birinchi holda, mehnatga layoqatli kishi ishlashni xohlaydi, lekin mehnat bozorida ish topa olmaydi. Ikkinci holda, odam u yoki bu sabab bilan ishlashni xohlamaydi. Ishsizlik uzoq muddatli yoki qisqa muddatli bo'lishi mumkin.

Birinchisi davriy, tizimli va texnologik ishsizlikni, ikkinchisiga mavsumiy, ishqalanadigan va yashirin ishlarni o'z ichiga oladi. Ishsizlikni tartibga solishga asosan davlatning iqtisodiy faoliyati erishiladi, u ikki yo'nalishda rivojlanadi: – ishsizlik darajasi va davomiyligini tartibga solish; – ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish. Birinchi yo'nalishni amalga oshirishda davlatning vazifasi real ishsizlikni darajasi va davomiyligi bo'yicha tabiiy ishsizlikka aylantirishdir

Agar ishsizlik tabiiy darajadan pastga tushsa, unda davlat tomonidan uni tartibga solish talab qilinmaydi. Davlat faqat majburiy ishsizlikni tartibga solishi, uning tabiiy shaklga o'tishini qidirishi kerak. Bunday tartibga quyidagilar orqali erishiladi: mehnat birjalari ishini sozlash; mehnat bozori holatini kuzatish; ishechilarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish; ishsizlikdan sug'urta

qilish tizimi; kichik korxonalarini imtiyozli soliqqa tortish; maqsadli va mintaqaviy ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish

To'la ish bilan bandlik barcha ishchi kuchining 100% ish bilan ta'minlanganligini bildirmaydi. Aksincha, friksion va strukturali ishsizlik ilojsiz hol bo'lganligini hisobga olsak, biz mutlaqto'la ish bilan bandlilikka erishib bo'lmasligini tushunamiz.

Agarda davriy ishsizlik bo'lmasa, u holda to'la ish bilan bandlilikka erishiladi. To'la ish bilan bandlik davridagi ishsizlik, **ishsizlikning tabiiy darajasi** deyiladi. Bunga ish qidiruvchilar soni bo'sh ish joylari soniga muvofiq kelsagina erishish mumkin.

Ishsizlikning tabiiy darajasi birinchidan, u iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensialidan to'liq foydalanayotganligini ko'rsata olmaydi, chunki amaliyotda ishsizlik darajasi «ishsizlikning tabiiy darajasi»dan ko'proq bo'ladi, ikkinchidan, ishsizlikning tabiiy darajasi doimiy emas, chunki u qonun va milliy an'analar bilan bog'liq holda o'zgarishini bilishimiz lozim.

Umumiy holda ishchi kuchi ish bilan band va faol ish qidirib yurgan ishsizlarga bo'linadi. **Ishsizlik darajasi** deb ishsizlarning ishchi kuchiga nisbatiga (% hisobida) aytildi va uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\text{Ishsizlik darajasi} = (\text{ishsizlar} / \text{ishchi kuchi}) \times 100\%$$

Barcha mavjud resurslardan to'liq foydalanish yoki ishsizlikning tabiiy darajasi holatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmini iqtisodiyotning **ishlab chiqarish potensiali** deb ataladi.

Mahsulotlarning potensial va haqiqiy ishlab chiqarilishi o'rtaqidagi farq YaMM hajmining uzilishi yoki orqada qolishi deb ataladi. U potensial ishlab chiqarishga nisbatan foizda aks ettiriladi.

$$\text{YaMM uzulishi} = ((\text{potensial YaIM-haqiqiy YaIM}) / \text{potensial YaIM}) \times 100\%.$$

3.3. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. A. Ouken qonuni

Ishsizlikning ko‘payishi natijasida mumkin bo‘lgan YaMM hajmini iqtisodiyot ololmaydi. Shu sababli, mamlakat miqyosida ishsizlikni tabiiy darajasida saqlash va uni tartibga solish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan qanchalik yuqori bo‘lsa, YaMM uzilishi shuncha ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun ham potensial hajmdagi YaMM haqiqiy YaMMdan katta bo‘ladi.

ya’ni, YaMM*>YaMM yoki U*>U.

Potensial YaMM*ni hisoblashda mamlakatda ishsizlik mutlaqo yo‘q deb emas, balki mavjud, biroq u tabiiy darajada, deb hisoblanadi.

Ishsizlik darajasi va YaMM uzilishi o‘rtasidagi miqdoriy nisbatni ingliz iqtisodchisi Artur Ouken matematik holda isbotlab bergen. Shuning uchun bu qonun, Ouken qonuni deyiladi. Qonunning mohiyati shundan iboratki, agar haqiqiy ishsizlik ishsizlikning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, milliy iqtisodiyot YaMMni ikki yarim foizga kam oladi. Ushbu nisbat ishsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo‘qotishlarni aniqlash imkonini beradi.

**YaMM uzilishi=2,5 (ishsizlikning tabiiy darajasi –
ishsizlikning haqiqiy darajasi)**

Demak, mos ravishda ularning nisbati 1:2,5 yoki 2:5 ga teng. Yo‘qotilgan YaMMning esa mutlaq qiymatini hisoblash mumkin. Misol uchun, 2016-yili ishlab chiqarish pasaygan davrda ishsizlik 9,5 foizga teng bo‘lgan, deb olaylik. Ishsizlikning tabiiy darajasi esa 6 foizga teng bo‘lishi kerak yoki 3,5 foiz ishsizlik uning tabiiy darajasidan ko‘p: 3,5 foizni Ouken koeffitsiyentiga (2,5) ko‘paytirib, 2016-yilda YaMMning potensial YaMM*dan 8,75 foizga kam olinganligini aniqlaymiz. YaMMning pastroq darajasi o‘z navbatida, ishlab chiqarishda qatnashuvchilar daromadlarining nisbatan kamroq bo‘lishini va iqtisodiyotning kelgusi taraqqiyotini investitsiyalash imkoniyatlari qisqarishini bildiradi.

YaMM uzilishini ifodalaydigan formula bilan Ouken formulasini umumlashtirib quyidagi formulani olamiz:

$$(YaMM_{\text{potensial}} - YaMM_{\text{haqiqiy}}) / YaMM_{\text{potensial}} * 100 = -B(ИТД - ИХД)$$

3.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy faol aholi soni, bandlik va ishsizlik darajasi¹³

Yillar	Iqtisodiy faol aholi soni, ming. kishi	Shulardan		Iqtisodiy faol aholining ulushi %	Ishsizlik darajasi %
		Iqtisodiyotda bandlar soni, ming kishi	Ishsizlar, ming kishi		
2019	14876,4	13537,6	1338,8	71,6	9
2018	14641,6	13279,9	1361,7	74,2	9,3
2017	14357,3	13520,3	837	73,5	5,8
2016	14022,4	13298,4	724	72,5	5,2
2015	13767,7	13058,3	709,4	71,9	5,2
2014	13505,4	12818	687,4	71,3	5,1
2013	13163	12523,3	639,7	70,5	4,9
2012	12850,1	12223,8	626,3	70	4,9
2011	12541,5	11919,1	622,4	69,7	5,0
2010	12286,6	11628,2	658,4	70,2	5,4

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tahlili qilayotgan yillarda O‘zbekistonda ishsizlik darajasida bir qator o‘zgarishlar ro‘y berdi. Agar 2010 -yilda ishsizlik darajasi 5,4 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2019-yilda 9% ni tashkil qildi yoki 3,4 % ga ko‘paydi. 2018 yilda ishsizlik darajasi oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada ko‘paydi. Ushbu ko‘rsatkichning 2018-yilda ko‘yishining asosiy sababi ishsizlik darajasini hisoblash metodikasida o‘zgarishlar hisobiga ro‘y berdi.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ochiq ma’lumotlari asosida tuzilgan.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonning iqtisodiy faol aholisi orasida ishsizlik darajasi 13,2% ni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2019-yilning birinchi yarmida bu ko'rsatkich 9,1% ni tashkil etgan edi, ya'ni 4,1 % ga ko'paydi.

COVID-19 pandemiyasi davrida koronavirus infeksiyasi tarqalishini oldini olishga qaratilgan karantin chora-tadbirlari mehnat bozoriga sezilarli darajada «ta'sir ko'rsatdi.

Ishga muhtoj bo'lganlar soni 1,94 mln.kishini tashkil etdi. 16–30 yoshdagi ishsizlik darajasi 20,1 foizga, ayollar orasida 17,4 foizga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, mehnat resurslari soni 2019-yilning shu davriga nisbatan 0,6 foizga ko'paydi va 19 mln. kishini tashkil etdi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga COVID-19 ning salbiy ta'siri sababli ish bilan band bo'lganlar soni 5 foizga kamayib, 12,7 mln.kishiga yetdi.¹⁴

3.2-jadval

Ishsizlik darajasi to'g'risida ma'lumot¹⁵ foizda

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2019-yil 2010-yilga nis. farqi
O'zbekiston Respublikasi	5,4	5,0	4,9	4,9	5,1	5,2	5,2	5,8	9,3	9,0	+3,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7,4	6,6	6,4	6,2	5,4	5,3	5,4	6,0	9,5	9,1	+1,7
<i>viloyatlar:</i>											
Andijon	5,8	5,3	5,3	5,4	5,6	5,6	5,6	6,0	9,6	9,2	+3,4
Buxoro	5,2	4,9	4,7	4,8	5,2	5,5	5,4	5,5	9,0	8,9	+3,7
Jizzax	5,7	5,2	5,0	5,1	5,4	5,2	5,4	5,0	9,4	9,2	+3,5
Qashqadaryo	5,8	5,3	5,3	5,2	5,5	5,5	5,3	6,1	9,7	9,3	+3,5
Navoiy	4,9	4,7	4,9	5,2	5,2	5,0	5,0	5,2	8,7	8,5	+3,6
Namangan	5,9	5,4	5,3	5,2	5,3	5,2	5,3	5,8	9,5	9,1	+3,2
Samarkand	6,0	5,5	5,4	5,3	5,6	5,7	5,7	6,5	9,7	9,3	+3,3
Surxondaryo	5,8	5,4	5,2	5,2	5,5	5,5	5,6	6,7	9,5	9,3	+3,5
Sirdaryo	4,5	4,3	4,0	4,3	4,6	4,9	4,4	5,1	9,6	9,3	+4,8
Toshkent	4,1	3,8	3,6	3,6	3,9	4,1	4,1	5,2	9,0	8,9	+4,8
Farg'onha	5,7	5,0	5,0	4,8	5,4	5,4	5,5	6,4	9,7	9,3	+3,6
Xorazm	5,5	5,2	5,3	5,3	5,5	5,4	5,5	5,7	9,5	9,1	+3,6
Toshkent sh.	3,3	3,4	3,3	3,4	3,6	3,8	3,6	4,5	7,9	7,4	+4,1

¹⁴ Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga muvofiq.

Jadvaldagagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, barcha viloyatlar, Qoraqalpog'iston Republikasi va Toshkent shahri bo'yicha ishsizlikning o'sish darajasi 2010-2019-yillarda 3-5 %ni tashkil qilyapti. Ishsizlik darajasining eng yuqori o'sish darajasi Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida kuzatilmoqda. Ya'ni, ushbu viloyatlarda ishsizlik darajasining o'sishi 4.8 %ni tashkil qilyapti.

3.4. O'zbekiston Respublikasida ishsizlar sonini hisoblash metodiksi

1. Ishsizlar soni mehnat rusurslari sonidan ish bilan bandlar va iqtisodiy nofaol aholi soni ayirish orqali hisoblanadi:

$$U = LR - E - EIP, \text{ bu yerda:}$$

U – ishsizlar soni;

LR – mehnat resurslari;

E – ish bilan bandlar;

EIP – iqtisodiy nofaol aholi soni.

2. Mehnat resurslari soni, mehnat yoshidagi mehnatga loyoqatli aholi soni bilan mehnat yoshidan katta va kichik bo'lgan aholi soni yig'indisi orqali quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$LR = WAPM + WTP, \text{ bu yerda:}$$

LR – mehnat resurslari;

WAPM – mehnat yoshidagi mehnatga layoqatli aholi soni;

WTP – ishlayotgan yoshlar va nafaqaxo'rlar.

3. **WAPM** soni mehnatga layoqatli aholi sonidan (erkaklar 16 yoshdan 60 yoshgacha va ayollar 16 yoshdan 55 yoshgacha) birinchi va ikkinchi guruh nogironlar, mehnat yoshidagi imtiyozli shartlarda nafaqa olayotgan aholi soni ayirish orqali quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$WAPM = Mp(16 - 59) + Wp(16 - 54) - Ip - PP, \text{ bu yerda:}$$

Mp (16 – 59) – 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar;

Wp (16 – 54) – 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar;

Ip – mehnat yoshidagi birinchi va ikkinchi guruh nogmronlari;

PP – mehnat yoshidagi imtiyozli shartlarda nafaqa olayotgan aholi soni.

Ma’lumotlar manbai:

Mp (16 – 59), **Wp** (16 – 54) – statistika tashkilotlari ma’lumotlari;

Ip – byudjetdan tashqari Pensiya fondi ma’lumotlari;

PP – byudjetdan tashqari Pensiya fondi ma’lumotlari.

WTP – byudjetdan tashqari Pensiya fondi va statistika tashkilotlari ma’lumotlari;

4. Ish bilan bandlar soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$E = EO_s + EI_s + LM, \text{ bu yerda,}$$

Eos – iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan bandlar;

EIs – iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar;

LM – mehnat migrantlari – fuqaro xorijiy mamlakatlarda mehnat faoliyatini yuritayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasiga qarashli xorijiy mamlakatlaridagi tashkilotlarda ishlayotganlar fuqarolardan tashqari.

Ma’lumotlar manbai:

Eos – statistika tashkilotlarining ma’lumotlari;

EIs – bandlik va va mehnat munosobatlari vazirligi tomonidan bandlik masalalarini bo‘yicha uy xo‘jaliklarini o‘rganish ma’lumotlari;

LM – ichki ishlari, bojxona organlari va mehnat tashkilotlari tomonidan bandlik masalalarini o‘rganish bo‘yicha ma’lumotlari.

5. Aholining iqtisodiy faol soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$EP = U + E, \text{ bu yerda,}$$

EP – iqtisodiy faol aholi.

6. Iqtisodiy nofaol aholi soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$EIP = PS + IW + VUP, \text{ bu yerda,}$$

EIP – iqtisodiy nofaol aholi;

PS – ishlab chiqarishda ajralgan holda o‘qiyotgan o‘quvchilar va talabalar soni;

IW – bola tarbiyasi bilan shug‘ullayotgan ishlamayotgan ayollar;

VUP – uzbekalari, o‘z xohishi bilan ishlamayotgan shaxslar hamda ko‘chmas va boshqa mulklardan daromad olayotgan aholi.

Ma’lumotlar manbai:

PS – statistika tashkilotlarining ma’lumotlari;

IW – statistika tashkilotlarining ma’lumotlari;

VUP – mehnat tashkilotlarining bandlikni o‘rganish bo‘yicha ma’lumotlari.

Band bo‘limgan, mustaqil ish izlayotgan aholi soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$US = U - UO, \text{ bu yerda,}$$

US – band bo‘limgan va mustaqil ish izlayotganlar soni;

U – band bo‘limgan aholi, ishsizlar;

UO – rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan ishsizlar.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy davrlar asosan to‘rtta bosqichini o‘z ichiga oladi va ularni iqtisodiy tebranishlar deb yuritish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy tebranishlarning sabablari xilma – xil bo‘lsa-da, ularning barchasi yalpi xarajatlar hajmining o‘zgarishi orqali YAIM dinamikasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ishsizlik darajasi deb, ishsizlar sonining ishchi kuchi soni, nisbatiga aytildi. Ishchi kuchi ham boshqa tovar mahsulotlari kabi bozorda sotiladi va sotib olinadi. To‘la ish bilan bandlik 100% ish bilan ta’minlanganlik darajasini anglatmaydi.

Kelib chiqish sabablariga ko‘ra friksion, tarkibiy va davriy ishsizlik turlari mayjud.

Ishsizlikning tabiiy darajasi friksion va tarkibiy ishsizlik darajalari yig‘indisiga teng bo‘lib, mamlakatdagi oxirgi o‘n yilda mavjud bo‘lgan haqiqiy ishsizlik darajasi va keyingi o‘n yil uchun prognoz

qilib hisoblangan ishsizlik darajalarining o‘rtacha miqdori sifatida belgilanadi.

Ishsizlar sonining oshishi, ya’ni ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan yuqori bo‘lishi potensial hajmdagi YaIM bilan haqiqiy hajmdagi YaIM o‘rtasida uzilishga olib keladi. Ouken qonuni bunday bog‘liqlikning miqdoriy darajasini ifodalaydi.

Nazarot va muhokama uchun savollar

- 1.Iqtisodiy tebranishlarning sabablarini qanday izohlaysiz?
2. Krizisga qanday tashqi omillar ta’sir qiladi?
- 3.Krizisga qaydan ichki omillar ta’sir qiladi?
- 4.Qisqa muddatli sikllarga qaysi sikllar kiradi?
- 5.Covid-19 milliy iqtisodiyotimizning qaysi sohalariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi?
- 6.Kondratev qaysi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilgan?
7. Ishsizlikning qanday turlari mavjud?
8. Ishsizlik darajasi qanday aniqlanadi?
9. Ishsizlikning tabiiy darajasi, ish bilan to‘liq bandlilik tushunchalariga tavsif bering.
10. Potensial YaIM ko‘rsatkichini izohlab bering.
11. Makrodarajada ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini qanday o‘lehash mumkin ?
12. Ishsizlik darajasi oshishining salbiy oqibatlariga izoh bering.
13. O‘zbekistonda ishsizlik darjasini o‘zgarishi qay tariqa ro‘y berdi?

Mavzu bo‘yicha masalalar

1-masala

Quyidagi ma’lumotlar asosida ishsizlik darajasini aniqlang:

Jami aholi – 450 ming kishi, jumladan:

16 yoshgacha bolalar – 80 ming kishi;

- pensionyerlar – 60 ming kishi, shundan 10 ming kishi hali ishlaydi;
- ishsizlar – 13 ming kishi;
- muddatli harbiy xizmatda – 5 ming kishi;
- litsey va kollej talabalari – 20 ming kishi;
- uy bekalari – 5 ming kishi.

Yechish:

Ishsizlik darajasi rasman ro‘yxatga olingen ishsizlar sonini ishchi kuchi soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi, ya’ni:

$$Ishsizlik\ darajasi = \frac{ishsizlar\ soni}{ishchi\ kuchi\ soni} \times 100$$

$$\text{shchi kuchi soni} = 450 - 80 - 50 - 5 - 20 - 5 = 290$$

qo‘srimcha ishlovchi pensioner ishchi kuchi tarkibiga kiradilar

$$\text{Ishsizlik darajasi} = (13 / 290) \times 100\% = 4,5\%$$

2-masala

2018-yilda shartli iqtisodiy tizimda aholi soni tarkibi to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar mavjud edi:

- ishchi kuchi soni – 350 mln. kishi,
- ishsizlar – 30 mln. kishi, jumladan:
 - 15 mln. kishi korxona bankrotligi natijasida ishsiz bo‘lib qoldi,
 - 3 mln. kishi yangi kasbni o‘rganadi;
 - 3 mln. kishi ishlab chiqarish qisqartirilgani natijasida ishdan bo‘shatilgan;
 - 5 mln. kishi korxona yangi faoliyat turiga o‘tganligi tufayli ishdan bo‘shatildi;
 - 4 mln. kishi ishlamaydi, chunki yosh bolalari va qari ota-onalari mavjud.

Tabiiy va haqiqiy ishsizlik darajasini hisoblang. Ouken qonunidan foydalanib, agar potensial YaIM 4 mlrd. pul birligini tashkil etgan bo‘lsa, YaIMning uzilishini aniqlang.

Yechish:

1.Joriy yilda tabiiy ishsizlik = yangi kasbni o'rganuvchi (friksion ishsizlik) 3 mln. kishi + yosh bolalari va qari ota-onalari mavjud 4 mln. kishi + korxona yangi faoliyat turiga o'tganligi natijasida ishdan bo'shatilgan 5 mln. kishi = 12 mln. kishi.

2. Davriy ishsizlik = korxona bankrotligi natijasida ishdan bo'shatilgan 15 mln. kishi + ishlab chiqarish qisqartirilgani natijasida ishdan bo'shatilgan 3 mln. kishi = 18 mln. kishi.

3. Haqiqiy ishsizlik = 30 mln. kishi

$$4. \text{ Haqiqiy.ishsizlik.darajasi} = \frac{\text{Ishsizlar.soni}}{\text{Ishchi.kuchi.soni}} = \frac{30 \times 100}{350} = 8,6\%$$

Haqiqiy ishsizlik darajasining tabiiy ishsizlik darajasida ortiqligi= $8,6\% - 3,4\% = 5,2\%$.

5. YaIMning uzilishini Ouken koeffitsiyentidan foydalangan holda aniqlanadi, u $-2,5\% \times 5,2\% = 13\%$ ga teng.

YaIMning uzilishining mutlaq miqdori = 4 mlrd. pul birl. x 13%) : 100% = 0,52 mlrd. pul birl.

Binobarin, YaIMning haqiqiy hajmi potensial hajmidan, haqiqiy ishsizlik darajasi tabiiy darajadan oshishi natijasida 0,52 mlrd. pul birligiga kam.

3-masala

2018-yilda shartli mamlakatda quyidagi ishsizlik ko'rsatkichlari mavjud edi:

friksion – 3%; tarkibiy -3%; davriy -10%.

Nominal YaIM 27600 pul birligini tashkil etdi, Ouken koeffitsiyenti esa 2,5% ga teng.

YaIMning uzilishi miqdorini aniqlang.

Yechish:

Haqiqiy ishsizlik darajasi quyidagicha topiladi:

friksion (3%) + tarkibiy (3%) va davriy (10%) = 16%

Tabiiy ishsizlik darajasi quyidagicha topiladi:

friksion (3%) + tarkibiy (3%) = 6%

Potensial YalMni Ouken qonunining matematik ko'rinishidan foydalangan holda topamiz:

$$\text{Haqiqiy YalM} = \text{potensial YalM} \times \left[1 - \frac{(U_1 - U_2) \times k}{100\%} \right],$$

bu yerda, U_1 – haqiqiy ishsizlik darajasi; U_2 – tabiiy ishsizlik darajasi; k – Oukena koeffitsiyenti. Ma'lumotlarni formulaga qo'yib, potensial YalMni topamiz.

$$27600 = \text{Potensial YalM} \times \left[1 - \frac{(16 - 10)2,5}{100} \right];$$

$$27600 = \text{Potensial YalM} \times 0,85$$

$$\text{Potensial YalM} = 27600 : 0,85 = 32470 \text{ (pul birl.)}$$

Agar haqiqiy ishsizlik tabiiy darajadan oshmasa, YalM 32470 pul birligini tashkil etar edi. Davriy ishsizlik mavjudligi sababli iqtisodiyot 4870 pul birligi (32470-27600) qiymatidagi YalMga ega bo'la olmagan.

4-masala

Iqtisodiyotda tabiiy ishsizlik darajasi – 6%, haqiqiy ishsizlik 10%ni tashkil etadi. Ishlab chiqarish hajmi – 600 mln. so'm. YalMning ishsizlik darajasining o'zgarishiga ta'sirchanligi koeffitsiyenti 3 ga teng. YalM uzilishini aniqlang.

Yechish:

Ouken qonuniga ko'ra:

$$(Y - Y^*) : Y^* = -\beta (u - u^*).$$

$$(Y - Y^*) : Y^* = -3 (0,1 - 0,06) = -0,12 \text{ Yoki } 12\%.$$

$$(600 - Y^*) : Y^* = 0,12 \Rightarrow Y^* = 682 \text{ mln. so'm}.$$

Demak, YalMning uzilishi davriy ishsizlik bilan bog'liq, u quyidagini tashkil etadi: $Y - Y^* = 600 - 682 = -82 \text{ mln. so'm}$.

5-masala

2019-yil oktyabr oyining oxiriga kelib mamlakatda iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlar soni 64,2 million kishini tashkil etdi, ishsizlar soni 8,4 million kishiga yetdi: 1) Haqiqiy ishsizlik darajasini hisoblang; 2) Keyingi olti oyda nafaqaga chiqdingiz deylik 4 million kishi, 0,4 million kishi o'z ixtiyori bilan ishdan ketgan, yo'qotilgan rasmiy

ravishda ishlab chiqarish hajmining 0,3 million kishiga kamayishi natijasida ish ro'yxatdan o'tgan ishsizlarning 1 million kishisi ish izlashni to'xtatdi, yarim kunlik va ish haftasiga 6 million kishiga o'tkazildi.

Ushbu o'zgarishlarni hisobga olgan holda quyidagilarni aniqlang:

- a) xodimlar soni;
- b) ishsizlar soni;

d) haqiqiy ishsizlik darajasi.

Yechish:

1. Ish kuchi (PC) = ish bilan bandlar+ ishsiz

$$RS = 64,2 + 8,4 = 72,6 \text{ (million kishi)},$$

u holda ishsizlik darajasi (UB) = 72,6 million kishi

100%·8,4 million kishi

$$= 11,6\%.$$

2. a) band bo'lganlar soni = $64,2 - 4 - 0,4 - 0,3 = 50,5$ (million kishi);

b) ishsizlar soni = $8,4 + 0,4 + 0,3 - 1 = 8,1$ (million kishi);

d) ishchi kuchi = $59,5 + 8,1 = 67,6$ (million kishi),

$$\text{keyin ishsizlik darajasi} = 8,1 * 100 / 67,6 = 12\%.$$

Mustaqil ishslash uchun masalalar

1.Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan: aholining umumiy soni 650 kishi, mehnatga layoqatli bo'Imagan yoshdagи aholi soni 140, ishsizlar soni 19, ishchi bilan band aholi soni 380 bo'lsa ishsizlar sonini toping.

2. Aholi soni 200 mln.kishi. Ish bilan bandlar soni 112 mln. kishi, mehnatga layoqatli yoshdagи aholi soni 160 mln. kishi, friksion ishsizlar 6 mln. kishi, tarkibiy ishsizlar 2 mln. kishi, davriy ishsizlar esa 5 mln. kishini tashkil etgan. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 4 %ga yuqori. Potensial YaIM 2500 shartli birlikka teng.' YaIMning siklik ishsizlik dinamikasiga ta'sirchanlik koefitsiyenti 2,4.

Topilsin:

- A) ishsizlikning haqiqiy darajasi;
- B) haqiqiy YaIM hajmi.

3. Ishsizlikning tabiiy darajasi 6 %, ishsizlikning haqiqiy darajasi 7,33 %, potensial YaIM yiliga 3 %ga o'sadi, YaIMning davriy ishsizlik dinamikasiga ta'sirchanligi koeffitsiyenti 3 ga teng. Keyingi yilda tabbiy ishsizlik darajasida resurslarning to'liq bandliligi ta'minlanishi uchun ishlab chiqarishning haqiqiy darajasi qanday sur'atda o'sishi lozim?

4. Ishsizlikning tabiiy darajasi 5 %, potensial YaIM 40 mld. so'm, ishsizlar soni 1 mln. kishi, ish bilan bandlar 14 mln. kishi.

Topilsin:

- a) ishsizlikning haqiqiy darajasi;
- b) YaIMning nisbiy va mutlaq uzilishi;
- b) haqiqiy YaIM hajmi.

5. Ishsizlik darajasi 8 %, ishchi kuchi soni 10 mln. kishi, aholi soni 19 mln.kishi, ishsizlikning tabiiy darajasi 5 %.

Topilsin:

- a) ishsizlar soni;
- b) YaIMning nisbiy va mutlaq uzilishi.

6. Milliy iqtisodiyotda ish kuchi tuzilishi quyidagicha berilgan:

1-chi yil ish bilan bandlar 100 mln. kishi, ulardan harbiy xizmatchilar 3 mln. kishi, ishsizlik darajasi 7%.

2-chi yil ish bilan bandlardan 6 mln.kishi ishdan bo'shatildi, oldin ishsizlar sifatida ro'yxatidan o'tganlardan 1.5 mln. kishi ish qidirishdan bosh tort, yana 2 mln. kishi friksion ishsizlar turidan strukturali ishsizlar qatoriga o'tkazildi. Harbiy xizmatchilar soni o'zgarmadi.

Hisoblash kerak:

- a)1-chi yildagi ishsizlar soni.
- b) 2-chi yil uchun ish bilan bandlar va ishsizlar soni.
- d) 2-chi yil uchun ishsizlik darajasi.

6. Yil boshida ishsizlik darajasi 15 % ni tashkil qildi. Yil davomida ish kuchi 5 %ga, ishsizlar soni esa 2 % ga kamaydi.Yil oxiridagi ishsizlik darajasini hisoblang.

7. Aholi soni 40 mln. kishini tashkil etadi,mehnat resurslari 25 mln.kishini tashkil qiladi, ishsizlik darajasi esa 12 %ni tashkil qiladi. Ishsizlar sonini aniqlang.

8. Joriy yilda tabiiy ishsizlik darajasi 6 % ni tashkil qildi, haqiqiy ishsizlik darajasi esa 10 %.

a) Haqiqiy YaIMni potensial YaIMdan qanchaga kam bo`linishini aniqlang.

b) Agar haqiqiy YaIM 150 mlrd. so`mni tashkil qilgan bo`lsa. (Ouchen koeffitsiyenti-2.5)

9. Ishsizlik darajasi 2018-yilda 20 % ga teng edi. 2019-yilda ish bilan bandlar soni 5 % ga ko`paydi, ishsizlik darajasi esa 16 % ni tushkil qildi. 2019-yilda ishsizlik darajasi 2018-yilga nisbatan qaysi tomonga va qanchaga o`zgardi.

10. Erkaklar o`rtasida ishsizlik darajasi 60 %ni. Ishsizlik darajasi erkaklar o`rtasida 12%, ayollar o`rtasida esa 8% ni tashkil qiladi. Umumiy ishsizlik darajasini aniqlang.

IV BOB. INFLYATSIYA VA INFLYATSIYAGA QARSHI SIYOSAT

4.1. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari

Inflyatsiya (lotincha inflatio – shishish, bo‘rtish, tarangla-shish) – ma’lum davr mobaynida mamlakatda baholar o‘rtacha (umumiy) darajasining barqaror o‘sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishi. Inflyatsiya bozor iqtisodiyotining asosiy izdan chiqaruvchi omillari jumlasiga kiradi, uning sur’ati qanchalik yuqori bo‘lsa, iqtisodiyotga xavfli ta’siri shunchalik katta bo‘ladi. Ayniqsa, bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi bir iqtisodiy tizimga o‘tayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta’siri anche xavfli. Chunki, bu davr narxlarning erkinlashuvi va shunga muvoqiq ularning umumiy darajasi keskin oshib ketishi bilan bog‘liq.

Ammo inflyatsiya davrida barcha tovarlarning baholari ham oshavyermaydi: ayrimlariniki barqaror bo‘lib tursa, ba’zilariniki esa tushishi mumkin.

“Inflyatsiya” atamasi ilk bor Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi Fuqarolar urushi davrida qo‘llanildi. Inflyatsiyaning atamasi muomaladagi qog‘oz pul massasining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan ziyod ko‘payib ketishi holatini izohlangan. Ammo inflyatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini ochib bermaydi. Umuman olganda, inflyatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Keynschilar maktabi namoyondalari bunday nomutanosiblikning sababi to‘liq bandlik sharoitida talabning haddan ziyod bo‘lishida deb bilishadi. Shu sababli, ular ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past bo‘lsa byudjet taqchilligi va qo‘sishmcha pul chiqarish yo‘li bilan xarid qobiliyatini, boshqacha aytganda yalpi talabni ko‘paytirish inflyatsiyaga olib kelmaydi deb hisoblashishadi.

Neoklassik yondashuv tarafdirlari inflyatsiyaning manbai ishlab chiqarishning haddan ziyod o'sishida, ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishida deb bilishadi. Demak, keynschilar inflyatsiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondashishadi.

Agar iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar massasi yalpi talabga nisbatan sekinroq o'ssa yoki yalpi talab ko'paygani holda o'zgarmasdan tursa, bu nomutanosiblik baholar darajasining ko'tarilishi orqali bartaraf etiladi. Oqibatda pul birligining xarid qobiliyatini pasayadi va milliy iqtisodiyotning qo'shimcha pul massasiga ehtiyoji paydo bo'ladi.

Inflyatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining va makroiqtisodiy buzilishlar natijasidir. Baholarning o'sishi, pul birligi xarid qobiliyatining pasayishidan tashqari inflyatsiya namoyon bo'lishining quyidagi uch helgisi ham bor. Bular:

- 1) valyuta kururslarining o'zgarishi;
- 2) kredit berish shartlarining qimmatlashuv va muddatlarining qisqarishi tomon o'zgarishi;
- 3) kundalik ehtiyoj mollaridan iborat iste'mol savati bahosining o'sishi.

Inflyatsiya baho indekslari – deflyator va iste'mol narxlar indeksi yordamida aniqlanadi.

Baholar o'rtacha (umumiy) darajasining nisbiy o'zgarishi **inflyatsiya darajasi** (baholarning o'sish sur'ati) deb ataladi. Makroiqtisodiy modellarda inflyatsiya darajasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$P - P_1$$

$$\pi = \frac{P - P_1}{P_1}$$

bunda; π – yillik inflyatsiya sur'ati;

P – joriy yilning narxlar indeksi; P_1 – o'tgan yilning narxlar indeksi.

Inflyatsiyani miqdoran o'lishash uchun makroiqtisodiyotda «70-miqdor qoidasi» deb atalgan usuldan ham foydalaniladi. Bu usul narxlarning barqaror o'sishi sharoitida inflyatsiya darajasi necha yilda ikki baravarga oshishini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun 70 ni yillik inflyatsiya darajasiga bo'lish kifoya:

Baholar ikki martaga	70
oshishi uchun zarur	= -----
yillar soni	π

Misol uchun, yillik inflyatsiya darajasi 7 % ga teng bo'lsa, taxminan 10 yilda baholar ikki martaga oshadi, Ya'ni, $(70:7 = 10)$.

Real YaMM va jamg'armaning necha yildan so'ng ikki marta oshishini hisoblash zarur bo'lgan hollarda ham «70-miqdor qoidasidan» foydalaniladi.

4.2. Inflyatsyaning turlari. Talab va taklif inflyatsiyasi

Talab inflyatsiyasi iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. Ya'ni to'liq bandlilikka yaqin sharoitda iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'sib borayotgan yalpi talabni qondirolmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlar bahosining ko'payishiga iqtisodiy bosim beradi va talab inflyatsiyasi kelib chiqadi. Yoki, oddiy so'zlar bilan aytganda, «haddan ziyod pullar haddan kam tovarlarni ovlaydi». Talab inflyatsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar aholining ish bilan to'liq bandligi va ish haqining oshib borishi hisoblanadi. Demak, inflyatsiya talab, taklif, ish bilan bandlik, baho, ishlab chiqarish sur'atlari kabi ko'pgina omillarga bog'liq.

Iqtisod pasayish holatida bo'lganda mamlakatda jami talab oshsa, ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, ishsizlik kamayadi, baho darajasi esa deyarli o'zgarmaydi yoki kam miqdorda o'zgaradi. Baho o'zgarmas-

ligining sababi shundaki katta hajmdagi bo'sh turgan mehnat va xomashyo resurslarini shu o'zgarmas bahoda ishga tushirish mumkin bo'ladi. Chunki, ishsiz yurgan kishi ish haqini oshirishni talab qilmaydi, uning uchun ishga yollanishning o'zi kifoya hamda qo'shimcha stanok sotib olishga hojat yo'q.

Bundan tashqari, baho ishchi kuchini to'la ish bilan bandligiga erishishdan oldin ham oshishi mumkin. Ya'ni ba'zi sanoat korxonalarida bo'sh turgan resurs va zaxiralarni ishlab chiqarishga yertaroq to'liq jalb qilinadi, natijada ular talabning o'sishiga mos ishlab chiqarishga, taklifga erisha olmaydi. Talab, taklifdan ko'payib ketadi, natijada baho yana osha boshlaydi.

Taklif inflyatsiyasi bu, mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baholarining oshishidan paydo bo'ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham tovarlarning baholari oshib boradi. Hatto ish bilan bandlik va YAIM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning bahosi oshadi. Jami taklif qisqarishining asosiy sababi mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning o'sishi hisoblanadi. Bunda nominal ish haqi, xomashyo va yoqilg'i narxlarining oshishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi.

Taklif inflyatsiyasining kelib chiqishiga, shuningdek, taklif mexanizmining buzilishi ham ta'sir qiladi. Taklif mexanizmi esa tasodifiy holda asosiy ishlab chiqarish omillari bahosining keskin ko'payishidan kelib chiqadi. Iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, taklif inflyatsiyasi o'z-o'zini cheklaydi. Ishlab chiqarishning pasayishi xarajatlarning qo'shimcha o'sishini cheklaydi, chunki ishsizlikning o'sishi nominal ish haqining asta-sekin pasayishiga olib keladi. Talab inflyatsiyasini cheklash uchun esa maxsus chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'ladi.

Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi qisqarishi bilan bir vaqtida nominal hajmining ortib borishi kabi vaziyat sodir bo'ladi. Daromadlarni ishlab

chiqarish tomonidan ta'minlanmagan o'sishi aholi qo'lidagi pulning taklif qilinayotgan tovar va xizmatlardan oshiqchaligiga olib keladi. Bunday hol pul birligining xarid quvvatini pasaytiradi, bir miqdordagi pulga joriy yilda o'tgan yildagiga nisbatan aholi kamroq mahsulot sotib oladi.

Uning real daromadi kamayadi. Misol uchun, joriy yilda aholining nominal daromadlari 30% ga ko'paygan, narxlar darajasi 50% ga oshgan bo'lsa, unda aholining real daromadlari 20% ga kamaygan bo'ladi. Chunki, narxlarning o'sishi aholi pul daromadlarining o'sishidan yuqori bo'lgan (30% – 50%q – 20%).

Inflyatsiyani real daromadlar darajasiga ta'siri u kutilayotgan yoki kutilmayotganiga ham bog'liq. **Kutilayotgan inflyatsiya** sharoitida daromad oluvchi inflyatsiyaning u olayotgan daromadga ta'sirini kamaytirish, ya'ni real daromadi darajasini saqlab qolish chorasini ko'radi.

Bu uchun Fisher tenglamasidan foydalanish mumkin:

$i = r + \pi \text{kut.}$, bu yerda, i -nominal foiz stavkasi; r – real foiz stavkasi; π kut – kutilayotgan infnflyasiya darajasi.

Inflyatsiya sur'ati 10 foizdan oshganda Fisher tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$i - \pi \text{kut.}$$

$$r = \frac{\text{---}}{1 + \pi \text{kut.}}$$

Kutilmagan inflyatsiya daromadlarni debtorlar va kreditorlar o'rtasida kreditorlar foydasiga qayta taqsimlaydi. Shuningdek kutilmagan inflyatsiya daromadlarni qayd qilingan daromad oluvchilar va qayd qilinmagan daromad oluvchilar o'rtasida keyingilari foydasiga qayta taqsimlaydi. Talab va taklif inflyatsiyasini qat'iy chegaralash qiyin. Ba'zida bu ikki turdag'i inflyatsiya bir-biri bilan qo'shilib ketadi. Masalan, talab inflyatsiyasi sharoitida yollanma ishchilar kutilayotgan inflyatsiya darajasini e'tiborga olib ish haqlari oshirilishini mehnat

shartnomalariga kiritadilar. Bu esa mahsulot tannarxini oshirib taklif inflyatsiyasini keltirib chiqaradi.

Tovarlar taklifning kamayishini kuzatayotgan iqtisodiy agentlar pul mablag'larini tovarlarga aylantirishga shoshadilar. Bu holat talab inflyatsiyasi ko'rinishini keltirib chiqaradi. Bunday ketma-ketlik oxir-oqibat Giperinflyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Giperinflyatsiya boshqarib bo'lmaydigan inflyatsiya jarayoni bo'lib, ishlab chiqarish va bandlik darajalariga halokatli ta'sir ko'rsatadi.

Yillik sur'ati bir necha o'n yoki yuz foizni tashkil etgan inflyatsiya pul tizimining boshlanayotgan yoki kuchayayotgan inqirozi belgisidir. Giperinflyatsiya uning halokatini, butun bozor mexanizmi falajlanishini anglatadi. Giperinflyatsiyaning rasmiy mezoni amerikalik iqtisodchi Fillipp Kegan tomonidan kiritilgan. F. Kegan Giperinflyatsiyaning boshlanishi deb baholarning birinchi bor 50% dan oshgan oyni, tugallanishi deb esa baholarning o'sishi bu sur'atdan pasaygan va shundan so'ng kamida bir yil davomida undan oshmagan oydan oldingisini hisoblash kerak deb taklif qilgan. Giperinflyatsiya sharoitida pul o'zining qiymat o'Ichovi va almashinuv vositasi singari funksiyalarini bajarolmay qoladi. Normal iqtisodiy munosabatlar buziladi. Mablag'lar ishlab chiqarishga emas, balki tovar-moddiy boyliklari jamg'arishga yo'naltiriladi.


4.3. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik. Fillips egri chizig'i

Iqtisodiyot o'z rivojlanishida potensial darajaga yaqinlashgan shariotda Yoki bandlilik darajasini oshirish yoxud inflyatsiya darajasini pasaytirish kabi muqobil variantlardan birini tanlashga majbur bo'linadi. Chunki qisqa muddatli davrda ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Ishsizlikni pasaytirish ish joylarini yaratish uchun qo'shimcha mablag'lar ajratilishini anglatadi. Ayni paytda bu ish haqi miqdorining oshishiga ham olib keladi. Har

ikkala holat ham baholar darajasining ko'tarilishiga olib keladi, ya'ni talab inflyatsiyasi ro'y beradi.

Ishsizlik va inflyatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ingliz iqtisodchisi A.V.Fillips tomonidan aniqlangan va **Fillips egri chizig'i** (5-chizma) deb ataladi.

Fillips egri chizig'i ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasidagi teskari bog'liqliknini xarakterlaydi.



4.1-chizma. Fillips egri chizig'i.

Mamlakat iqtisodiyotining xususiyatiga ko'ra, shuningdek, inflyatsiyaning qaysi turi mavjudligiga qarab Fillips egri chizig'idagi inflyatsiya va ishsizlik darajalarining kombinatsiyasi farq qilishi mumkin. Bunday tanlov kutilayotgan inflyatsiyaning sur'atiga bog'liq. Kutilayotgan inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa ishsizlikning har qanday darajasida (sur'ati past bo'lган inflyatsiya darajasiga nisbatan) haqiqiy inflyatsiya darajasi yuqori bo'ladi. Ishsizlik darajasi va inflyatsiya sur'atining maqbul miqdorlari quyidagi formula ko'rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$\pi = \pi_{kut} + f \left(\frac{Y_h - Y_p}{Y_p} \right) + \varepsilon$$

Bu yerda, π – inflyatsiyaning haqiqiy darajasi; π_{kut} – inflyatsiyaning kutilayotgan darajasi;

$Y_h - Y_p$

$$f \left(\frac{\cdot}{Y_p} \right) + \varepsilon = \text{talab inflyatsiyasi};$$

f – Fillips egri chizig‘ining og‘ish burchagini belgilovchi empirik koeffitsiyent;

ε – tashqi baho shoki (taklif inflyatsiyasi).

Oukan qonuniga ko‘ra YalMning uzilishi, ya’ni ($Y_h - Y_p$) / Y_p miqdor davriy ishsizlikning o‘zgarishiga bog‘liqligi sababli qisqa muddatli Fillips egri chizig‘ini tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\pi = \pi_{kut} - \beta [u - u^*] + \varepsilon$$

Keltirilgan tenglamadan ko‘rinib turibdiki, haqiqiy inflyatsiya darajasi miqdori kutilayotgan inflyatsiya darajasiga hamda tashqi baho shoklari darajasi bilan to‘g‘ri bog‘liqlikka, davriy ishsizlik darajasi bilan esa teskari bog‘liqlikka ega ekan.

Hukumat Fillips egri chizig‘iga asoslanib, qisqa davr uchun, iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib ishsizlik va inflyatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

4.4. Aksilinflyatsiya siyosati va uni amalga oshirish xususiyatlari

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash borasidagi choratadbirlarning muhim qismi aksilinflyatsiya siyosatidir.

Aksilinflyatsiya siyosati-baholar umumiy darajasini barqarorlash-tirish, inflyatsion keskinlikni yumshatishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Aksilinflyatsiya siyosati inflyatsiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga qaratilgan faol va inflyatsiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan passiv ko‘rishda bo‘lishi mumkin.

Aksilinflyatsiya siyosati o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

– Yalpi talabni tartibga solish;

– Yalpi taklifni tartibga solish.

Keynschi iqtisodchilar birinchi yo‘nalish tarafдорлари bo‘lib, ular davlat buyurtmasi va arzon kredit hisobiga samarali talabni shakllan-tirish asosida yalpi taklif darajasini ko‘tarish mumkin deb hisoblashadi. Hukumatning bu tadbirlar iqtisodiy pasayishni qisqartiradi va ishsizlikni kamaytiradi.

Ammo bunday aksilinflyatsiya siyosati davlat byudjeti taqchilligini yuzaga keltiradi va qo‘sishmcha pul emissiyasiga ehtiyoj tug‘diradi. Keyns davlat byudjeti taqchilligini davlat tomonidan olinadigan uzoq muddatli qarzlar hisobiga qoplashni taklif etgan.

“Aksilinflyatsiya siyosatining monetaristik yo‘nalishi tarafдорлари keyinchalik, keynschilarning inflyatsiyaga qarshi kurash bo‘yicha takliflari doimo samara beravyermagach va kamchiliklari yuzaga chiqib qolgach yuzaga keldi. Jumladan, bir qator mamlakatlarda davlat qarzi haddan oshib ketdi. Bunday sharoitda monetaristlar radikal aksilinflyatsiya usullarini taklif etishdi. Ular yalpi talabni konfiskatsiya tipidagi pul islohoti o‘tkazish hisobiga cheklash va byudjet taqchilligini ijtimoiy dasturlarni qisqartirish kamaytirishni taklif etishdi”*.

Monetaristlar inflyatsiya aynan pul bilan bog‘liq hodisa bo‘lganligi sababli shok terapiyasi pul massasining o‘sish sur’atlarini keskin qisqartiradi va inflyatsiya sur’atlarini tushiradi deb hisoblashadi. Ammo bunda ishlab chiqarish keskin pasayishi va bandililik qisqarishi mumkin.

Konfiskatsiya tipidagi shok terapiyasi ko‘rinishlaridan biri bo‘lib daromadlarning va baholarning nominal darajalarini o‘zgartirmagan holda eski pullarni belgilangan nisbatda yangisiga alishtirishtrish hisoblanadi. Bunday tadbirlar aholi tomonidan keyin qabul qilinishi sababli, u qisqa muddatda samara berishi zarur.

Monetaristlar tomonidan taklif qilinayotgan aksilinflyatsiya siyosatining yana bir ko‘rinishi – inflyatsiya sur’atlarini asta-sekinlik bilan pasaytirib borish (graduallash) usulidir. Bu usulda inflyatsiya

* Агапова Т.А. Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник.-7-е изд.перераб. и доп.- М.:Издательство “Дело и сервис”, 2005. 214. с.

sur'atlari pul massasini ko'p marotaba, lekin oz-ozdan kamaytirish orqali pul massasining o'sish sur'atini pasaytirishni ko'zda tutadi. Graduallash usuli inflyatsiyani asta-sekinlik bilan pasaytira borib iqtisodiyotda chuqur pasayishni oldini olish imkonini beradi.

Graduallash usulini qo'llash pul massasi va baholar darajasining yillik o'sish sur'ati 20-30 foizdan oshmaganda muvaffaqiyatli bo'ladi, deb hisoblanadi.

Aksilinflyatsiya siyosatining monetar usullarga muqobil bo'lgan variantlaridan biri baholar va daromadlarni tartibga solish siyosatidir. Bu usul daromadlarning o'sishi va baholarning o'sishini muvofiqlash-tirishni (adaptiv siyosat) ko'zda tutadi.

Daromadlar va baholarni tartibga solish siyosatini amalga oshirish hukumat tomonidan baholar (narxlar) va daromadlar darajalarini muzlatib qo'yish, pul ko'rinishidagi ish haqining o'sishini o'rtacha mehnat unumdorligining o'sishiga bog'lab qo'yish orqali amalga oshiriladi.

"Soliqlar tarkibini o'zgartirish, yalpi soliq tushumlaridagi to'g'ri-dan-to'g'ri soliqlarning ulushini kamaytirish, bilvosita soliqlar ulushini ko'paytirish, soliq stavkalarini pasaytirish, ularning rag'batlantirish funksiyalarini kuchaytirish, davlat byudjeti xarajatlarini pasaytirish kabilar ham inflyatsiyaga qarshi kurash tadbirlari hisoblanadi"*.

Aksilinflyatsiya siyosatining u yoki bu turini tanlash inflyatsiya jarayonlarining xususiyatiga bog'liq.

Inflyatsyaning yuqori sur'atlarini oldini olish uchun hukumat quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- samarali soliq tizimini va davlat xarajatlari ning baaqarorligini;
- pul massasi va milliy daromadning bir maromdag'i o'sish sur'atlarini;
- "inflyatsiyani import qilish" ga yo'l qo'ymaslik.

* Киселёва Е.А. Макроэкономика. /Экспресс курс:учебное пособие – М.:КНОРУС,2009, 62, с.

Har qanday inflyatsiyaning negizida asosiy iqtisodiy muvozanatlarning buzilishi yotadi. Shu sababli, inflyatsiyaga qarshi kurash — uni shunchaki bostirish emas, balki iqtisodiyotda vujudga kelgan nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan baquvvat tarkibiy siyosatini amalga oshirishdir. Bir qator chet mamlakatlarning inflyatsiyaga qarshi kurash tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular inflyatsiya bilan iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining buzilishi bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini anglagan holda, muomala sohasini qat'iy boshqarish va to'lovga qobiliyatli ortiqcha umumiy talabni bartaraf etish bilangina cheklanmadilar.

Muayyan maqsadlarga qaratilgan yirik investitsiya dasturlarini ishlab chiqdilar va amalga oshirdilar. Bu dasturlar ana shu no'mutanosiblikni tugatish va binobarin, inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish imkonini berdi.

Keyingi yillarda jahon bozorida narxlar darajasining keskin oshib boayotganligi aksilinflyatsiya siyosatini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

O'zbekistonda inflyatsiya qanday hisoblanadi.

O'zbekistonga iste'mol tovarlarining baholarining indeksini hisoblash tizimi 1994-yildan boshlab Xalqaro valyuta fondining texnik yordamida joriy qilina boshlandi.

Dastlabki yillarda iste'mol tovarlar va xizmatlar soni 285tani tashkil qilgan bo'lsa, bozordagi holatning o'zgarishi hisobiga ushbu ro'yxat kengaytirilib bordi va 2012-yilda u 305 taga yetdi. 2018-yilda tovarlar va xizmatlar 386 tani tashkil etib : shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari -112, nooziq-ovqat mahsulotlari-206 va 68 ta xizmat turlarida tashkil topgan.

Shuni, ta'kidlab o'tish kerakki iste'mol tovarlar tarkibi na faqat ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlardan (non, un, yog', go'sht, kommunal xizmatlar va boshqalar) tashqari, foydalanish majburiy bo'Imagan mahsulotlar (masalan, avtomobillar, benzin, zargarlik tovarlar, qishloq xo'jalik vositalari va boshqa lar) ham kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasida 2011–2019-yillardagi inflyatsiya darajasini quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

4.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2011-2019-yillardagi inflyatsiya darajasini¹⁶

	2011-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Inflyatsiya darjası	12,8	11,2	8,4	9,8	13,2	14,4	14,3	15,2	11,1

2020-yilning o'tgan sakkiz oyida inflyatsiya ko'rsatkichi o'tgan yilgi bilan solishtirganda 11,6 foizni tashkil qilgan.

Yil boshida inflyatsiya darjası 2021-yilda 11-12,5 foiz darajasida bo'lishi prognoz qilingan edi. 2020-yil yakuni bo'yicha inflyatsiya darjası 11,1 foizni tashkil qildi. 2019-yilda bu ko'rsatkich 15,2 foiz bo'lган edi va bu ko'rsatkich o'tgan yilgiga nisbatan 3,1 bandga pasaydi.

* Keyingi yilda inflyatsiya ko'rsatkichida 10 foiz, 2023-yilda 5 foizlik targetga erishish rejalashtirilgan.

Qisqacha xulosalar

Inflyatsiya ma'lum davr mobaynida mamlakatda baholar o'rtacha (umumiyl) darajasining barqaror o'sishi va pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishini anglatadi. Inflyatsyaning iqtisodiyotga salbiy ta'siri normal iqtisodiy munosabatlarni izdan chiqarishida namoyon bo'ladi.

Inflyatsiya darjası baho indekslari vositasida o'chanadi.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasi o'zaro farqlanadi. Inflyatsyaning bu ikki turi ko'pincha aralash holda yuzaga keladi. Kutilmagan inflyatsiya daromadlarni

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari asosida tuzilgan.

debitorlar va kreditorlar, aholining turli qatlamlari hamda davlat va aholi o'rtasida qayta taqsimlaydi.

Ishsizlik va inflyatsiya sur'atlari o'rtasidagi teskari bog'liqlik Fillips egri chizig'ida aks etadi.

Hukumat Fillips egri chizig'iga asoslanib, qisqa davr uchun ishsizlik va inflyatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

Aksilinflyatsiya siyosati-baholar umumiy darajasini barqaror-lashtirish, inflyatsion keskinlikni yumshatishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Aksilinflyatsiya siyosati o'z ichiga quyidagi oladi:

- Yalpi talabni tartibga solish;
- Yalpi taklifni tartibga solish.

O'zbekistonga Respublikasida iste'mol tovarlar va xizmatlar tarkibi yildan-yilga kengaytirilib bormoqda. Agar 1994-yilda uning tarkibiga 285 tovar va xizmat turlari kirgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2018-yilda 386 tadan tashkil topdi.

Nazarot va muhokama uchun savollar

1. Inflyatsiyaning mohiyati faqatgina muomaladagi pul massasining ortiqchaligi bilan izohlanishi to'g'rimi?
2. Inflyatsiyani tushuntirib berishga keynschilarining va neoklassiklarning yondashuvlari qanday farq qiladi?
3. Inflyatsiyaning ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari qanday?
4. Talab inflyatsiyasi qanday sodir bo'ladi?
5. Taklif inflyatsiyasiga izoh bering?
6. Fillips egri chizig'i qaysi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliknki ko'rsatadi? Bu bog'liqlik qanday tavsiflanadi?
7. Aksilinflyatsiya siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.

Mavzu bo'yicha masalalar

1-masala

Tahlil qilayotgan yillarda narx indeksi 300% ni tashkil qildi (1-chi yil) va 306 % (2-chi yil) Bazis yilda inflyatsiya darajasi 8% ni tashkil qildi. Tahlil qilayotgan yilda inflyatsiya darajasi bazis yilga nisbatan qanday o'zgardi

Yechish:

Masalani yechish uchun inflyatsiya darjasini aniqlash formulasidan foydalanamiz:

$$\pi_t = (R_1 - R_0) * 100 / R_0$$

Bu yerda, π_t – t – davridagi inflyatsiya darajasi;

R_1 -joriy yildagi inflyatsiya darajasi;

R_0 – bazis yildagi inflyatsiya darajasi).

Ma'lumotlarni formulaga qo'yamiz, $\pi = (306 \% - 300 \%) / 300 \% \cdot 100 \% = 2 \%$.

Javob: inflyatsiya darajasi 6 % ga kamaydi. $(2 \% - 8 \%) = -6\%$

2-masala

Mamlakatda haqiqiy ishsizlik darajasi 8,5 % bo'lganda, kutilyotgan inflyatsiya darajasi 10 % va inflyatsiyaning ishsizlikka nisbatan elastiklik darajasi 2 ga teng. Tabiiy ishsizlik 5,5 %dan 6,4% ga ko'tarilsa, iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi qanday o'zgaradi?

Yechish:

Masalani yechish uchun Fillips tenglamasidan foydalanamiz:

$$\pi_1 = \pi^e_1 - \beta(u - u^*)$$

bu yerda,

π_1 – birinchi yildagi inflyatsiya darajasi;

π^e_1 – kutilyotgan inflyatsiya darajasi;

β – inflyatsiyaning ishsizlikka nisbatan elastiklik darajasi koefitsiyenti.

u -haqiqiy ishsizlik darajasi;

u^* – tabiiy ishsizlik darajasi.

$$\pi_1 = \pi^e_1 - \beta(u - u^*) = 10 - 2(8,5 - 5,5) = 10 - 6 = 4\%$$

$$\pi_2 = \pi^e_1 - \beta(u-u^*) = 10 - 2(8,5 - 6,4) = 10 - 4,2 = 5,8\%$$

$$5,8 - 4 = 1,8\%$$

Javob: Iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi 1,8 %ga ko'payadi.

3-masala

Tadbirkorning o'tgan yildagi daromadi 300 mln. so'mga teng edi. Joriy yilda tadbirkorning daromadi 50 %ga ko'paydi, ushbu davrda inflyatsiya darajasi 20 %ni tashkildi. Joriy yildagi tadbirkorning real daromadini aniqlang.

Yechish:

Masalani yechish uchun Fillipsning foiz stavkachini aniqlash tenglamasidan foydalanamiz:

$$r = i - \pi^e / 1 + \pi^e$$

Bu yerda,

r – foizning real stavkasi %;

i – foizning nominal stavkasi %;

π^e – kutilyotgan inflyatsiya darajasi %

$$r = 0,5 - 0,2 / 1 + 0,2 = 0,3 1,2 = 0,25 (25 \%).$$

Demak, tadbirkorning real daromadi 25-%ga ko'paydi.

$$300 * 1,25 = 375 \text{ mln. so'm.}$$

Javob: Demak, tadbirkorning real daromadi 350 mln. so'mni tashkil qiladi.

4-masala

Ikki oyda inflyatsiya darajasi 44 %ni tashkil qildi. O'rtacha har oyda inflyatsiya darajasi necha foizga oshganligini aniqlang?

Yechish:

Masalani yechishda quyidagi formuladan foydalanmiz.

$$RI = (RI_1 + 1)^n - 1$$

Bu yerda: RI_1 – indeksda hisoblangan birinchi oraliqdagi inflyatsiya darajasi,

$$0,44 = (x+1)^2 - 1; \quad 1,44 = (x+1)^2; \quad x = 20$$

Mustaqil ishslash uchun masalalar

1.2017-yilda iste'mol narxlari 2016-yilga nisbatan 125 %ni, 2018-yilda esa 2016-yilga nisbatan 140 foizni tashkil qildi.

Topilsin:

- a) 2018-yilda 2016-yilga nisbatan inflyatsiya darajasini;
- b) inflyatsiya sur'atini barqaror deb hisoblasak, necha yilda baholar ikki martaga ortishini.

2.Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar vositasida tasvirlangan:

Yillar	Inflyatsiya darajasi	Nominal foiz stavkasi
1	3%	8%
2	8%	3%

Ikkinchchi yilda birinchi yilga nisbatan real foiz stavkasi qancha miqdorga ko'payganligini toping.

4. Aytaylik iste'mol savatiga faqat shakar va go'sht kirsin.

Jadvalda bu tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va narxi keltirilgan.

2017-yil bazis yili bo'lsa 2018-yil uchun YalM deflyatori va iste'mol narxlari indeksini aniqlang

Yillar	Ishlab chiqarish (sh.b.)		Bir sh.b. mahsulot bahosi (ming pul. birl.)	
	shakar	go'sht	shakar	Go'sht
2017	730	930	4	40
2018	700	990	4.5	42

3.Aytaylik iste'mol narxlari indeksi 2017-yili 301ga, 2018-yili esa 311 ga teng bo'lган bo'lsin. Bazis yili hisoblangan 2015-yilda inflyatsiya darajasi 4 % ni tashkil etgan. Zarur hisob-kitoblar yordamida 2018-yilda haqiqiy inflyatsiya darajasi 4 %dan kam bo'lганligini, baholar esa 2015-yilga nisbatan 211 %ga yuqori bo'lганини isbotlang.

4. Tahsil qilayotgan yillarda Marx indeksi 105% ni tashkil qildi (1-chi yil) va 112 % (2-chi yil) Bazis yilida inflyatsiya darajasi 8% ni

tashkil qildi. Tahlil qilayotgan yilda inflyatsiya darajasi bazis yilga nisbatan qanday o'zgardi.

5. Tahlil qilayotgan yillarda narx indeksi 115% ni tashkil qildi (1-chi yil) va 108% (2-chi yil) Bazis yilida inflyatsiya darajasi 8% ni tashkil qildi. Tahlil qilayotgan yilda inflyatsiya darajasi bazis yilga nisbatan qanday o'zgardi.

6. Mamlakatda haqiqiy ishsizlik darajasi 9 % bo'lganda, kutilyotgan inflyatsiya darajasi 11 % va inflyatsiyaning ishsizlikka nisbatan elastiklik darajasi 2 ga teng. Tabiiy ishsizlik 5.4 % dan 6,6 % ga ko'tarilsa, iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi qanday o'zgaradi?

7. Mamlakatda haqiqiy ishsizlik darajasi 11 % bo'lganda, kutilyotgan inflyatsiya darajasi 13 % va inflyatsiyaning ishsizlikka nisbatan elastiklik darajasi 2 ga teng. Tabiiy ishsizlik 6.5 % dan 5.2 % ga kamaysa, iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi qanday o'zgaradi?

8.Tadbirkorning o'tgan yildagi daromadi 500 mln. so'mga teng edi. Joriy yilda tadbirkorning daromadi 22 %ga ko'paydi, ushbu davrda inflyatsiya darajasi 14,4 %ni tashkil kildi. Joriy yildagi tadbirkorning real daromadini aniqlang.

9.Tadbirkorning o'tgan yildagi daromadi 400 mln. so'mga teng edi. Joriy yilda tadbirkorning daromadi 10 %ga ko'paydi, ushbu davrda inflyatsiya darajasi 12,4 %ni tashkil kildi. Joriy yildagi tadbirkorning real daromadini aniqlang.


10. Ikki oyda inflyatsiya darajasi 8 %ni tashkil qildi. O'rtacha har oyda inflyatsiya darajasi necha foizga oshganligini aniqlang?

11.Uch yilda inflyatsiya darajasi 31 %ni tashkil qildi. O'rtacha har yilda inflyatsiya darajasi necha foizga oshganligini aniqlang?

V BOB. YALPI TALAB -YALPI TAKLIF MODELI

5.1. AD-AS modeli haqida tushuncha

Bir xil turdag'i tovarlarga bo'lgan talab va taklif modeli tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ularning narxlari o'rtaqidagi farqlarni tushunish imkonini beradi. Shuningdek, ishlab chiqarilgan biror mahsulotning barqaror narxlari va hajmi turli yillarda turlicha bo'lishini tushunishga imkon yaratadi. Ammo bir xil turdag'i tovarlarga bo'lgan talab va taklif modeli bir nechta zaruriy iqtisodiy muammolar haqidagi savollarga, chunonchi, nima uchun narxlari oshadi va kumnyjadi; nima uchun narxlari darajasi ayrim davrlarda o'zgarishsiz qoladi va boshqa davrlarda zudlik bilan o'sadi; nima uchun ayrim vug'larda milliy ishlab chiqarishning real hajmi kamayadi yoki ko'payadi va shuningdek, boshqa savollarga javob bermaydi.



5.1-chizma. Jami talab, taklif va narxlari darajasi o'rtaqidagi o'zaro bog'liqlik.

Bu savollarga javob berish uchun mamlakatdagi barcha bozorlarni umumiyligi holda o'rganishimiz kerak. Aniq aytganda, minglab alohida narxlarni birlashtirib, yig'ilgan baholar birligiga yoki baholar darajasiiga olib kelishimiz lozim. Turli xildagi tovar va xizmatlar narxlarining umumiyligi baho darajasini birlashtirish, shuningdek, turli

tovar va xizmatlarni milliy ishlab chiqarishning real hajmiga birlashtirish – agregatlash (yoki yiriklashtirish) deb ataladi.


Birlashtirilgan baholar (baholar darajasi) va turli xil tovar va xizmatlar birlashishi (milliy ishlab chiqarishning real hajmi) yig‘indi deb ataladi. Ko‘rsatkichlarni yiriklashtirishning bu usulidan makroiqtisodiy tadqiqotlarda tez-tez foydalanib turiladi. Demak, turli xil tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab va taklif, ya‘ni ular hajmining o‘zgarishi milliy ishlab chiqarish holatini ko‘rsatadi.

Milliy bozordagi talab va taklif alohida xaridorlar istagi ko‘rinishida bo‘lmasdan, balki barcha xaridorlarning yig‘ma talabi va taklifi ko‘rinishida aks etadi.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, umumiy talab milliy iqtisodiyotdagi barcha uy xo‘jaliklari, korxonalar, hukumat va shuningdek, xorijiy xaridorlarning tovar va xizmatlariga bo‘lgan talabidan iborat. Jami talab va taklif hamda narxlar darajasi barcha makroiqtisodiy modellar tuzilishining asosi hisoblanadi.

5.2. AD egri chizig‘i va unga ta’sir etuvchi omillar

Oldingi mavzularda qayd etilganidek narxlar darajasi va jami talab o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud bo‘lib, narxlar qanchalik past bo‘lsa, xaridorlar ko‘proq tovar va xizmatlarni sotib olishni istab qolishadi.



5.2-chizma.

Yalpi talabning grafik modelini AD egri shaklida pastga va o'nga salbiy egilish bilan tasvirlash mumkin.

Ma'lumki, individual talab egri chizig'inining ushbu holati "daromad effekti" va "almashtrish effekti" ni tushuntiradi.

Birinchisi, ayrim tovarlarning narxi pasayishi bilan bog'liq bo'lib, daromadning iste'mol qobiliyatini ko'taradi va xaridorlarning ko'proq tovarlar sotib olishida namayon bo'ladi.

Ikkinchisi, mahsulot narxining pasayishini nazarda tutadi, shu sababli, xaridor ushbu mahsulotni boshqa o'xshash qimmat mahsulotlarga qaraganda ko'proq sotib olishga intiladi. Biroq, ular yalpi talabni tushuntirish uchun to'g'ri kelmaydi. Ko'pchilik kifissodechilar AD egri chizig'inining pastga qarab yo'nalishini pulning miqdoriy nazariyasi bilan tushuntirishadi, ya'ni jamiyatdagi pul miqdori. Uni quyidagi tenglama shaklda ko'rsatish mumkin:

$$M \times V = P \times Q.$$

Bu yerdan:

$$R = M \times V / Q.$$

$$Q = M \times V / R \text{ yoki } AD = M \times V / R$$

Bu yerda, R – iqtisodiyotdagi baho darajasi (baho indeksi);

M – Muomaladagi pul miqdori;

V – pulning aylanish tezligi;

Q – talabga javob beradigan mahsulot hajm.

Shuning uchun AD pul massasi va pul muomalasi tezligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, narxlar darajasiga teskari bog'liqdadir.

Yalpi talab quyidagi shakllarga ega: natural-moddiy va qiymat.

Yalpi talabning natural-moddiy shakli aholining, firmalarining va davlatning tovar va xizmatlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini aks ettiradi

Umumiy talabning qiymat shakli – bu iqtisodiyotda ishlab chiqorilgan yakuniy mahsulot va xizmatlarga (iste'mol tovarlari va xizmatlarga, investitsiyalarga, davlat xaridlari va sof eksportga) surʼunadigan barcha xarajatlar yig'indisi.

Yalpi talabga narxli va narxsiz omillar ta'sir qiladi.

Narxli omillari yalpi talab hajmining egri chiziq bo'ylab bir nuqtadan ikkinchisiga yuqoriga yoki pastga harakatlanishini, nuqtalar shaklida o'zgarishini keltirib chiqaradi

Shunga e'tibor beringki, talab egri chizig'i doimo pastga va o'nga suriladi. Nima uchun?

Bunday surilishning sababi har xil. Ya'ni alohida olingan tovarlarda talab egri chizig'inining surilishiga asosan daromad samarasi va o'rribosar tovarlar sabab bo'lar edi. Ayrim tovarlarning bahosi pasayganda, iste'molchilarning pul daromadlari ko'proq mahsulotlar sotib olish imkonini beradi (daromad samarasi). Shuningdek, baho pasayganda iste'molchi ushbu tovari ko'proq sotib oladi, chunki u boshqa tovarlarga nisbatan arzonroq bo'ladi (o'rnini bosadigan tovarlar).

Bunday izohlar jami talab to'g'risida gapirganda to'g'ri kelmaydi. Chizmadan ko'rinish turibdiki, agar biz talab egri chizig'i bo'yicha pastga qarab siljisak, barcha tovarlarning bahosi pasayadi. Shuningdek, alohida tovarlarga individning egri talabi iste'molchining daromadiga bog'liq bo'lsa, bu yerda esa umumiy daromaqlar miqdoriga bog'liq. Agarda jami talab egri chizig'ini daromad va o'rnini almashtiradigan tovarlar samarasi bilan tushuntirib bo'lmas ekan, u holda nima uchun u pastga siljiydi?

Avvalo jami talab egri chizig'inining bunday holati quyidagi uchta omil bilan bog'liq:

1. Foiz stavkasi samarasi.

2. Moddiy qiymatliklar samarasi yoki real kassa qoldiqlari yoxud boylik samarasi.

3. Import xaridlar samarasi.

Foiz stavkasi samarasi shuni bildiradiki, jami talab egri chizig'inining siljishi narxlar darajasi o'zgarishining foiz stavkasiga, demak, iste'mol xarajatlari va investitsiyalarga bo'lgan ta'siriga bog'liq. Aniq aytganimizda, agar baho darajasi oshsa, foiz stavkasi

ham oshadi, o'sgan foiz stavkalari o'z navbatida iste'mol xarajatlari va investitsiyalarning kamayishiga olib keladi.

Demak, tovarlarning baho darajalari oshsa, iste'molchilarga xarid qilish uchun katta miqdorda naqd pul kerak bo'ladi. Ishbilarmonlar uchun ham ish haqi va boshqa xarajatlarni to'lashga katta miqdorda pul zarur bo'ladi. Qisqacha aytganda, tovarlar bahosi darajalarining yuqoriligi pulga bo'lgan talabni oshiradi.

Pul birligi hajmi o'zgarmagan holatda talabning oshishi puldan soydalinishni chigallashtiradi. Bu foiz stavkasini ko'rsatadi. Foiz stavkalari yuqori sharoitda ishbilarmonlar va aholi xarajatlari miqdori kumayib, tezda foiz stavkalari oshishiga moslashadi.

Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, narxlarning o'sishi pulga bo'lgan talabni ko'paytirib, foiz stavkasining oshishiga olib keladi va shu tufayli milliy mahsulotning real hajmiga bo'lgan tulab qisqaradi.

Moddiy qiymatliklar samarasi yoki real kassa qoldiqlari shuni bildiradiki, narxlar darjasining oshishi, jamg'arilgan pul aktivlari (omonatlar, obligatsiyalar) real xarid qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Bunday sharoitda aholi yanada kambag'allashib boradi va bu o'z-o'zidan xarajatlarni miqdorini qisqartiradi.

Masalan, muayyan shaxs aktivida 10 mln. so'm bo'lsa, undan hech ikkilanmasdan birorta avtomashina sotib olishi, agarda inflyatsiya ushbu shaxs aktivining to'lash qobiliyatini 6 mln. so'mga tushurib yuborsa, u mashina sotib ololmasligi mumkin.

Import xaridlar samarasi shuni bildiradiki, biror mamlakatda tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashqi narxlarga nisbatan oshib borsa, shu xizmat va tovarlarga talab kamayadi va o'z navbatida import mahsulotlarga bo'lgan talab oshadi. Va, aksincha, ichki narxlarning pasayishi importning kamayishiga va eksportning oshishiga yoki milliy mahsulotga talab oshishiga olib keladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan omillar jami talabning narx omillari deb ataladi, chunki milliy ishlab chiqarish real hajmining o'zgarishi faqat

narxlargagina bog‘liq. U egiluvchan narx modeli deb ataladi. Bundan tashqari, jami talabning narxlarga bog‘liq bo‘laman omillari ham mavjud. Demak, jami talab uy xo‘jaligi, korxonalar, hukumat va xorijiy sheriklar talablaridan tashkil topadi. Unda xarajatlardagi o‘zgarishlar jami talabning miqdorida o‘z aksini topadi va uning egri chizig‘ini chapga yoki o‘ngga siljitali. Jami talabning narxlarga bog‘liq bo‘laman omillariga quyidagilarni kiritamiz:

1. Iste’mol xarajatlardagi o‘zgarishlar:

- a) iste’molchilarning qo‘llaridagi moddiy qiymatliklar o‘sganda;
- b) iste’molchilar kelajakda o‘z daromadlari ko‘payishini kutishi natijasida ko‘proq xarid qilishni afzal ko‘rishsa;
- b) iste’molchilarning qarzlari miqdori kamaysa va ularga hozirgi kunda ko‘proq xarid qilish imkonini bersa;
- d) iste’molchilar daromadlaridan olinadigan soliqlar stavkasi kamaysa.

2. Investitsiya xarajatlardagi o‘zgarishlar:

- a) foiz stavkalarini pul massasi ko‘payishi bilan oshib boradi va shunga muvofiq investitsiya xarajatlari qisqaradi;
- b) investitsiyalardan kutilayotgan foyda normasi oshsa;
- d) korxonalardan olinadigan soliqlar miqdori kamaysa;
- g) texnologiya – yangi texnikalar ishlab chiqarishga jalb qilinsa;
- d) zaxiradagi quvvatlar o‘zgarishi natijasida.

3. Davlat xarajatlarining o‘zgarishi, ya’ni davlat yangi-yangi xarajatlar miqdorini oshirganda. Masalan, harbiy xarajatlar va yangi kasalxona hamda boshqa muassasalar qurishga qaror qilganda.


4. Sof eksport xarajatlari.

5. Boshqa mamlakatlar milliy daromadlarining o‘sib borishi.

6. Valyuta kurslaridagi o‘zgarishlar.

5.3. AS egri chizig‘i va unga ta’sir etuvchi omillar

Jami taklif deganda, muayyan narxlar sharoitida real ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlarning real hajmi tushuniladi. Narxlarning yuqori darajasi ishlab chiqaruvchilarga qo‘sishimcha mahsulot ishlab chiqarishga imkoniyat yaratadi va aksincha past narxlar mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqartiradi. Shuning uchun ham milliy ishlab chiqarish hajmi bilan narxlar darajasi o‘rtasida to‘g‘ri aloqa mavjud. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmi narxlar o‘sib borishi bilan o‘sib, pasayishi bilan tushib boradi.



5.3-chizma. Jami taklif egri chizig‘i.

3-chizmada aks ettirilganidek, jami taklif egri chizig‘i uch qismdan, gorizontal yoki keynsian kesma, ko‘tarilib boruvchi yoki oraliq kesma va vertikal yoki klassik kesmadan iborat.

Jami taklif egri chizig‘idagi bu kesmalar qanday iqtisodiy vaziyatlarni aks ettiradi?

1. Gorizontal kesma iqtisodiyot chuqrur inqirozga uchragan va katta miqdordagi resurslardan foydalanimagan sharoitni ko‘rsatadi. Foydalanimayotgan ushbu resurslarni narxlar darajasiga ta’sir ko‘rsatmagan holda ishga tushirish mumkin. Bu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi o‘sса boshlasa, ishlab chiqarishdagi hech qanday vaziyat narxlar oshishiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Chunki, uch-to‘rt oy

bo'sh yurgan ishchilar ish joylariga qaytishgach, maoshlarini oshirishni talab qilishmaydi.

Shuningdek, ishlab chiqaruvchilar o'ziga zarur bo'lgan resurslarni barqaror narxlarda sotib olishlari mumkin, ishlab chiqarish xarajatlari ko'paymaydi. Demak, mahsulotlar narxining oshishiga asos yo'q. Ushbu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda narxlar darajasi o'zgarmaydi.

2. Vertikal yoki klassik kesma egri chiziq bo'yicha o'ngga siljishi natijasida ishlab chiqarishning mavjud hajmida iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitiga yoki ishsizlikning tabiiy darajasi sharoitiga erishgan vaziyatni ko'ramiz. Egri chiziqning bu nuqtasida iqtisodiyot o'zining ishlab chiqarish imkoniyatlari darajasida bo'ladi. Bu shuni bildiradiki, narxlarning har qanday oshishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib kelmaydi. Chunki, iqtisodiyot to'liq quvvatda faoliyat ko'rsatayapti. To'liq bandlik sharoitida ayrim firmalar boshqa firmalarga nisbatan resurslarga yuqoriyoq narxlarni taklif etish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishga harakat qiladi. Ammo, bunday holatda ayrim firmalar resurslar va ishlab chiqarish hajmini oshirishi mumkin, boshqalari esa yo'qotadi. Natijada bu narxlar oshishidan mahsulotlar narxi oshishi mumkin, ammo ishlab chiqarishning real hajmi o'zgarmay qoladi.

Jami taklif egri chizig'ining vertikal qismida ikkita kamchilik mavjud:

a) bu kesma klassik iqtisodiy fanlar nuqtayi nazaridan qaralgan va to'liq bandlik-me'yor-deb qabul qilingan.

b) «to'liq bandlik» va «to'liq bandlik sharoitidagi milliy ishlab chiqarishning real hajmi» – bu, o'zgaruvchan tushunchalar. Chunki, ishchi kuni va ishchi kuchlari ayrim vaqtlarda me'yordan oshib ketishi ham mumkin.

3. Oraliq kesma-ishlab chiqarish real hajmining o'sishi narxlar darajasining o'sishiga mos ravishda o'sib boradi. Nima uchun? Chunki, iqtisodiyotning iqtisodiy pasayish holatidan to'liq bandlikka o'tish

sharoiti noteks va turli vaziyatlarda ro'y beradi. Masalan, ayrim tarmoqlarda resurslarning yetishmasligiga duch kelinsa, boshqa tarmoqlarda aksincha. Shuningdek, ular ishlab chiqarishni kengaytirish uchun eski asosiy vositalardan va malakasiz mutaxassislardan foydalanihiga to'g'ri keladi. Bu esa mahsulotlar birligiga ketadigan xarajatlarning oshishiga va natijada narxlar darajasining o'sishiga olib keladi. Jami taklif egri chizig'idagi bu uchta kesma ayrim iqtisodchilar o'rtaida tortishuvlarga sabab bo'lmoqda.

Keynschilik maktabi vakillari jami taklif egri chizig'ini goh gorizontal, goh ko'tarilib boruvchi, deb hisoblaydilar va shu sababli, jami taklifdagi har qanday o'zgarishlar ishlab chiqarish hajmi va bandlikka ta'sir etadi, deydilar.

Klassik yoki neoklassik maktab vakillari egri chiziq butunlay vvertikal ko'rinishda bo'ladi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, jami taklifning o'zgarishi iqtisodiyot uchun unchalik sezilarli emas. Chunki, bu o'zgarish faqat narx darajasiga ta'sir etib, ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasining o'zgarishiga olib kelmaydi.

Shuningdek, ishlab chiqarish hajmi ko'payishi yoki kamayishi narxga bog'liq bo'lмаган omillar hisobiga ham ro'y berishi, bu omillar jami taklif egri chizig'ini goh o'ng tomonga, goh chap tomonga surishi mumkin. Narxga bog'liq bo'lмаган omillarning xususiyati shundaki, ular mahsulot birligiga ketgan xarajatlarga bevosita tu'sir qiladi va shu orqali jami taklif egri chizig'ining surilishiga sabab bo'ladi.

Resurslar (yer, ishchi kuchi, kapital) narxlarining o'zgarishi. Resurs narxlarining o'sishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va shuning uchun yalpi taklifni pasaytiradi. AS egri chizig'i chapga (yuqoriga) siljiydi va aksincha, narxlarning pasayishi teskari reaksiyaga sabab bo'ladi.

Bu omillar quyidagilardan iborat:

1. Resurslarga bo'lган talabning o'zgarishi:

a) ichki bozordagi resurslar miqdorining kamayishi; yer resurslari; mehnat resurslari; kapital resurslari; tadbirkorlik qobiliyatları;

b) import resurslar narxlaridagi o'zgarishlar;

d) bozordagi hukmronlik va monopoliya.

2. Unumdorlikdagi o'zgarishlar. Mehnat unumdorligi o'sishi milliy ishlab chiqarish hajmini va shu orqali yalpi taklifni ko'paytiradi Mehnat unumdorligi oshganda AS egri chizig'i o'nga pastga siljiydi, aksincha bo'lsa chapga yuqoriga siljiydi.

3. Huquqiy me'yordagi o'zgarishlar:

a) soliq va subsidiyalarning o'zgarishi;

b) davlatning tartibga solish jarayonidagi o'zgarishlar va boshqalar.

5.4. AD-AS modelida narxlar va milliy ishlab chiqarish real hajmining muvozanatlari darajalari


Narxlarning muvozanatlari darajasi deganda shunday narx darajasi tushuniladiki, unda jami talab va taklif bir-biriga mos kelishi yoki teng bo'lishi kerak.

Birinchi jami talab egri chizig'i va jami taklif egri chizig'ining oraliq kesmada mos kelishini ko'rib chiqamiz. Narxlarning muvozanatlari darajasi va milliy ishlab chiqarish hajmining muvozanatlari darajalari mos ravishda R_e va Q_e lar bilan belgilangan.

Nima uchun R_e narxlarning muvozanatlari darajasi va Q_e milliy ishlab chiqarishning muvozanatlari darajasini bildirishini ko'rsatishimiz uchun narxlar darajasi R_e bilan emas, balki R_1 bilan ko'rsatilgan. Jami taklif egri chizig'i ko'rsatayaptiki, narxlar darajasi R_1 bo'lgan vaziyatda korxonalar milliy ishlab chiqarish hajmini Q_1 miqdoridan oshirmaydi.


Iste'molchilar bunday hajmdagi mahsulotlarni R_1 darajada sotib olishga tayyor turadi. Iste'molchilar o'rtasidagi raqobat narxlar darajasini R_e gacha suradi. 5.4-chizmadagi strelkanening ko'rsatishicha, narxlar darajasining R_1 dan R_e gacha ko'tarilishi ishlab chiqarish

hajmini Q_1 dan Q_e gacha oshirishga va iste'molchilarning iste'molini Q_2 dan Q_e gacha kamaytirishga olib keladi.



5.4-chizma. Jami taklif egri chizig'ining oraliq kesmadagi muvozanat.

5.5-chizmada jami taklif egri chizig'i keynsian kesma orqali o'tadi. Bunday vaziyatda narxlar darajasi hech qanday ahamiyatga ega emas.



5.5-chizma. Jami taklif egri chizig'ining keynsian kesmadagi muvozanati.

Buni tushunish uchun avvalo milliy ishlab chiqarishning muvazanatlari hajmini Q₁ va muvozanatlari narxlar darajasini Re bilan belgilaymiz.

Jami taklifning keyingi o'sishi egri chiziqning yanada yuqoriroq surilishiga olib keladi. Jami talab egri chizig'i jami taklif egri chizig'inining vertikal kesmasida kesishadi. Bu yerda muvozanat narx R₂ darajasida, ishlab chiqarishning muvozanat hajmi Q₃ nuqtasida o'rnataladi. Jami taklifning bu kesmasida talabning har qanday o'zgarishi faqat narxlar darjasini o'zgarishga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmi esa to'liq bandlik sharoitida o'zgarmay qoladi.

Oraliq va vertikal kesmalarda narxlar o'sib borishi bilan kuzatilgan jami talabning ko'payishi talab infliyatsiyasi mavjudligini ko'rsatadi.

Jami taklifning o'zgarishi muvozanat narxlar darajasiga va milliy ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'ramiz.


Import mahsulotlari narxining oshishi mamlakatda ishlab chiqarilayotgan barcha mahsulotlar va import qilinayotgan resurslar narxini oshirib yuboradi. Shunday qilib, milliy ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar birligi xarajatlari oshib ketadi. Shuning uchun ham jami taklif egri chizig'i AS₁ dan AS₂ ga qarab siljiydi. Bunday vaziyatda narxlar darjasining oshishi infliyatsiyaga olib keladi.

Birinchidan, tashqi hamkorlar import mahsulotlariga bo'lган narxni oshiradi, deb faraz qilaylik.

Agarda jami taklif egri chizig'i Q₁ dan Q₂ ga qarab siljisa, narxlar darjasini R₁ dan R₂ ga qarab o'sadi, bandlik kamayadi va infliyatsiya kelib chiqadi. Buni biz stagflyasiya deb ataymiz.

Boshqa bir vaziyatda, masalan, narxlarga bog'liq bo'lman omillardan birortasi o'zgarib, jami taklifning o'zgarishiga olib kelsin. Ya'ni yerning bahosi pasaysa, korxonalardan olinadigan soliqlar

kamaysa va natijasida mahsulot birligiga ketgan sarf-xarajatlar qisqarsa, unda jami taklif egri chizig'i E_3 nuqtada kesib o'tadi



5.6-chizma. Jami taklif o'zgarishining ta'siri.

Bunda narxlar muvozanat darajasi R_1 dan R_3 ga qarab siljiydi va ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi Q_1 dan Q_3 ga oshadi, ya'ni iqtisodiy o'sish holati mavjud bo'ladi.

Qisqacha xulosalar

Birlashtirilgan baholar (baholar darajasi) va turli xil tovar va xizmatlar birlashishi (milliy ishlab chiqarishning real hajmi) yig'indi deb ataladi. Ko'rsatkichlarni yiriklashtirishning bu usulidan makroiqtisodiy tadqiqotlarda tez-tez foydalanib turiladi.

Foiz stavkasi samarasini shuni bildiradiki, jami talab egri chizig'inining siljishi narxlar darajasi o'zgarishining foiz stavkasiga, demak, iste'mol xarajatlari va investitsiyalarga bo'lgan ta'siriga bog'liq.

Moddiy qiymatliklar samarasi yoki real kassa qoldiqlari shuni bildiradiki, narxlar darjasining oshishi, jamg‘arilgan pul aktivlari (omonatlar, obligatsiyalar) real xarid qobiliyatini pasaytirib yuboradi.

Import xaridlar samarasi shuni bildiradiki, biror mamlakatda tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashqi narxlarga nisbatan oshib borsa, shu xizmat va tovarlarga talab kamayadi va o‘z navbatida import mahsulotlarga bo‘lgan talab oshadi. Va, aksincha, ichki narxlarning pasayishi importning kamayishiga va eksportning oshishiga yoki milliy mahsulotga talab oshishiga olib keladi.

Jami taklif deganda, muayyan narxlar sharoitida real ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlarning real hajmi tushuniladi. Narxlarning yuqori darajasi ishlab chiqaruvchilarga qo‘srimcha mahsulot ishlab chiqarishga imkoniyat yaratadi va aksincha past narxlar mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqartiradi.

Jami taklif egri chizig‘idagi bu kesmalar qanday iqtisodiy vaziyatlarni aks ettiradi?

1. Gorizontal kesma iqtisodiyot chuqur inqirozga uchragan va katta miqdordagi resurslardan foydalanilmagan sharoitni ko‘rsatadi

2. Vertikal yoki klassik kesma egri chiziq bo‘yicha o‘ngga siljishi natijasida ishlab chiqarishning mayjud hajmida iqtisodiyot to‘liq bandlik sharoitiga yoki ishsizlikning tabiiy darajasi sharoitiga erishgan vaziyatni ko‘ramiz

Nazarot va mulohaza savollari

1. Qisqa muddatlardagi noelastik va uzoq muddatlardagi elastik narxlarga misol keltiring.

2. Nima uchun AD egri chizig‘i pastga yo‘naltirilgan?

3. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda pul taklifini oshishini tahlil qiling.

4. AD va AS modellaridagi narxga bog‘liq bo‘lmagan omillarni sanab o‘ting.

5. Klassik yo‘nalishi namayondalari iqtisodiyotda muvozanat bo‘yicha qanday xulosa bildirishgan?
6. J. Keyns iqtisodiyotda muvozanat bo‘yicha qanday xulosa bildirgan?
7. J. Keynsning “foiz stavkasi samarasi”ning mohiyatini tushuntirib bering.
8. Yalpi talabga qanday omillar ta’sir qiladi?
9. Yalpi taklifga qanday omillar ta’sir qiladi?
10. Mehnat unumdorligining yalpi taklifga qanday ta’sir qilishini tushuntirib bering.
11. Resurslar narxi o‘zgarishining yalpi taklifga qanday ta’sir qilishini tushuntirib bering.

Mavzu bo‘yicha masalalar.

1-masala

O‘tgan yili AD egri chizig‘i tenglamasi: $Y = 3300 - 3P$ ko‘rinishiga ega edi. Joriy yilda bu tenglama: $Y = 3270 - 3P$ ko‘rinishiga ega. Potensial YaIM avvalgi darajasi 3000 da qolgan. Inflyatsiya darajasini va qisqa muddatdagi muvozanatli YaIM hajmini aniqlang.

Yechish:

Birinchi yilda: $3000 = 3300 - 3P$ $P = 100$,

Ikkinci yilda: $3000 = 3270 - 3P$ $P = 90$,

Ya’ni bu davrda narxlar darajasi 10%ga pasaygan.

Ikki yildagi AD egri chiziq tenglamalariga ko‘ra, qisqa muddatda egri chiziq chapga siljigan, shuning uchun:

$Y = 3270 - 300 = 2970$, ya’ni yalpi talabning qisqarishi ikkinchi yilda ishlab chiqarish hajmi kamayishiga olib kelgan.

2-masala

Uzoq muddatli AD egri chizig'i $Y = 3000$ tengligi, qisqa muddatli AS egri chizig'i $R = 1,0$ darajasida berilgan. AD egri chizig'i tenglamasi: $Y = 3,0 M/P$. Pul taklifi (M) 1000 ga teng. Narx shoki natijasida qisqa muddatli AS egri chizig'i $P = 1,5$ darajasiga siljigan, uzoq muddatli AD egri chizig'i – $Y = 2500$. AD egri chizig'i esa o'zgarmagan. Qisqa va uzoq muddatdagi yangi Y va P ni aniqlang.

Yechish:

Qisqa muddatda:

$$AD = 3 M/P, \quad M = 1000$$


$Y = 3 \times 1000 : 1,5 = 2000$, ya'ni qisqa muddatda Y va P muvofiq tarzda quyidagilarga teng:

$$Y = 2000, P = 1,5.$$

Uzoq muddatda:

AD: $2500 = 3 \times 1000/P$, $R = 1,2$, ya'ni uzoq muddatda Y va P mos ravishda quyidagilarga teng:

$$Y = 2500, P = 1,2 \text{ (chizma).}$$



3-masala

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari 960 mln. AQSH doll. Davlat xarajatlari 270 mln. doll. SSHA. Import 70 va eksport-75 mln. AQSH doll. SSHA Biznesni kengaytirishga investitsion xarajatlar

246 mln. va amortizatsiya xarajatlari 140 mln. AQSH doll. tashkil etdi. Yalpi talabni aniqlang.

Yechish:

Yalpi talabni quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$AD = \text{Iste'mol xarajatlari} + \text{yalpi investitsiya xarajatlari} + \text{tovar va xizmatlar sotib olishga davlat xarajatlari} + \text{tovar va xizmatlardan sof eksport} = S + Inv + G + Xn$

Bu yerdan: $AD = 960S + (246 + 140)Inv + 270G + (75 - 70)Xn = 1621$ mln. AQSH dol.

Javob: 1621 mln. AQSH dol.

4-masala

Iste'mol quyidagi funksiyada berilgan $S = 1000 + 0,8u^v$ (u^v – tasarrufdagi milliy daromad; yalpi investitsiya-2000 sh.b., sof eksport-300 sh.b. Soliqlar davlat xarajatlariga teng bo'lib 1200 sh.b. tashkil qildi. Iqtisodiyotdagi yalpi talabni aniqlang, agar milliy daromadning hajmi 10000 sh.b. tashkil qilgan bo'lsa.

Yechish:

Yalpi talabni quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$AD = \text{Iste'mol xarajatlari} + \text{yalpi investitsiya xarajatlari} + \text{tovar va xizmatlar sotib olishga davlat xarajatlari} + \text{tovar va xizmatlardan sof eksport} = S + Inv + G + Xn$

Yalpi iste'molni aniqlash uchun birinchi tasarrufdagi milliy daromadni aniqlash lozim. Uni hisoblash uchun milliy daromaddan soliqlarni ayirib tashlaymiz.:

$$10\,000 - 1200 = 8800 \text{ sh.b.}$$

Olingan natijalarini AD formulasiga qo'yamiz:

$AD = (1000 + 0,8 * 8800) S + 2000Inv + 1200G + 300Xn = 11\,540$. sh.b.

Javob: 11 540 sh.b.

Javob: 19 400 u. e.

5-masala

Iste'molning quyidagi funksiyada berilgan: $S = 13 500 + 0,7U^v$ (U^v – tasarrufdagli milliy daromad); yalpi investitsiya-6000 sh.b., sof eksport-1000 sh.b. Tovar va xizmatlar uchun davlat xarajatlari 0.2U tashkil qildi. Yaratilgan milliy daromad 100000 sh.b. soliqlar 20000 sh.b. tashkil qildi. Yalpi iste'molni aniqlang va qanday o'zgaradi, agar iste'molchilar daromadning har bir darajasida 2000 sh.b. kam iste'mol qilishni xohlasa.

Yechish:

Tasarrufdagli milliy daromadni aniqlaymiz:

$$100 000 - 20 000 = 80 000.$$

$$0,2 * 100000 = 20 000 \text{ sh.b.}$$

Olingen natijalarini AD formulasiga qo'yamiz:

$$AD = S + Inv + G + Xn = 69 500 S + 6000 Inv + 20 000 G + 1000 Xn = 96 500 \text{ sh.b.}$$

Iste'molning o'zgarishi yalpi talabni ham o'zgartiradi.

Iste'mol xarajatlari quyidagiga teng:

$$S = 13 500 - 2000 + 0,7 * 80 000 = 67 500 \text{ sh.b.},$$

Yalpi talab esa:

$$AD = 67 500 + 6000 + 20 000 + 1000 = 94 500 \text{ sh. b.}$$

Ya'ni yalpi talab 2000 sh.b.ga kamaydi:

$$94500-96500=-2000 \text{ sh.b.}$$

Javob: yalpi talab 2000 sh.b.ga kamaydi.

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. Yalpi talab egri chizig'i tenglamasi (AD): $Y=4$ (M/R). Dastlabki holatda pul massasi (M) 1200 mldr. dollarga teng. Pul

massasi 5 %ga o'sganidan so'ng qisqa muddatli muvozanatlari narxlar darajasini va daromadlar darajasini aniqlang.

2. Uzoq muddatli AS egri chizig'i $Y=2000$, qisqa muddatli AS-egri chizig'i $P=1,0$ darajasida gorizontal. AD egri chizig'i tenglamasi $Y=2.0 *M/P$. Pul taklifi (M) 1000 ga teng. Baho shoki natijasida yalpi taklif egri chizig'i $P=1.25$ darajasigacha ko'tarildi.

a) shokdan so'ng iqtisodiyotda o'rnatilgan qisqa muddatli muvozanat nuqtasining koordinatlari qanday?

b) iqtisodiyotda ishlab chiqarishning dastlabki darajasini tiklash uchun Markaziy bank pul taklifini qanchaga oshirishi kerak?

3. Iqtisodiyot dastlab to'liq bandlilik sharoitida turgan edi. Yalpi talabning uzoq muddatli tenglamasi (LRAC): $Y=4000 \text{ mlrd.doll}$. Yalpi talabning qisqa muddatli tenglamasi (SRAC): $P= 1,2$, Yalpi talab egri chizig'i (AD) tenglamasi: $Y=4 \text{ (M/R)}$. Dastlabki holatda pul massasi (M) 1200 mlrd. dollarga teng. Pul massasi 5 %ga o'sganidan so'ng uzoq muddatli va qisqa muddatli muvozanat nuqtalari koordinatlarini aniqlang.

4. Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari 1200 mln. AQSH doll. Davlat xarajatlari 320 mln. doll. SSHA. Import 130 va eksport-150 mln. AQSH doll. SSHA Biznesni kengaytirishga investitsion xarajatlar 420 mln. va amortizatsiya xarajatlari 150 mln. AQSH doll. tashkil etdi. Yalpi talabni aniqlang

5. Talab quyidagi funksiyada berilgan $S = 800 + 0,8u^v$ ($u^v -$ tasarrufdagi milliy daromad; yalpi investitsiya-1400 sh.b., sof eksport-200 sh.b. Davlat xarajatlari uchun soliqlar -740 sh.b. tashkil qildi. Iqtisodiyotdagi yalpi talabni aniqlang, agar milliy daromadning hajmi 8500 sh.b. tashkil qilgan bo'lsa.

6. Talab quyidagi funksiyada berilgan: $S = 2000 + 0,75U^v$ ($U^v -$ tasarrufdagi milliy daromad), yalpi investitsiya-5200 sh. b., sof eksport - 700 sh.b. , tovar va xizmatlarni sotib olish uchun davlat

xarajatlari 0,15U ni tashkil qiladi. Agar milliy daromad 30000 sh.b. va soliqlar 7500 sh.b. tashkil qilsa, yalpi talabni aniqlang.

7. Uy xo'jaligining iste'mol funksiyasi berilgan: $S = 40 + 0,85y$. Avtonom iste'molning hajmini hisoblang. Uy xo'jaliklarining tasarrufidagi daromad 400 sh.b.ni tashkil qilsa, ularning iste'mol xarajatlari va jamg'armasining miqdori qancha bo'ladi? Jamg'arma miqdori nolga teng bo'lish uchun daromad miqdori qancha bo'lishi kerak?

8.Iste'molning quyidagi funksiyada berilgan $S = 14200 + 0,8U^v$ (U^v – tasarrufdagi milliy daromad); yalpi investitsiya-5000 sh.b., sof eksport-1100 sh.b. Tovar va xizmatlar uchun davlat xarajatlari 0,2U tashkil qildi. Yaratilgan milliy daromad 120000 sh.b. soliqlar 210000 sh.b. tashkil qildi. Yalpi iste'molni aniqlang va qanday o'zgaradi, agar iste'molchilar daromadning har bir darajasida 3000 sh.b. kam iste'mol qilishni xohlasa.

9.Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari 20000 mln. AQSH doll. Davlat xarajatlari 3500 mln. doll. SSHA. Import 4520 va eksport-6500 mln. AQSH doll. Biznesni kengaytirishga investitsion xarajatlar 1500 mln.va amortizatsiya xarajatlari 4200 mln. AQSH doll. tashkil etdi. YAlpi talabni aniqlang.

VI BOB. ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTITSIYA FUNKSIYALARI

6.1. Daromad va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

Hozirgi kunda mamlakatning xalqaro bozorlarda erkin tovar uyriboshlari ham xalqaro baholarda, jahon andozalariga moslashib bormoqda. Bu hol iqtisodiyot ta'minotining makroko'lamdagi iste'mol funksiyasini o'rganishni taqozo etadi. Chunki, iste'mol funksiyasi mohiyatini bilish iste'mol bozorini boshqarishda asos bo'ladi.

Iste'mol bozorida xaridorlar faqat fuqarolardan iborat bo'lmaydi. Xaridorlar tarkibiga aholiga bepul xizmat ko'rsatuvchi korxona va boshkilotlar ham kiradi. Iste'mol bozorida har xil xizmatlar sotiladi. Iste'mol bozorining hajmi unda sotiladigan tovarlarning yalpi summasi bilan belgilanadi. Iste'mol tovarlari qat'iy davlat narxlari, nazorat qilinadigan narxlар va erkin narxlarda sotiladi.

Jamg'arma – bu mamlakat yoki firmalar ixtiyoridagi turli majburiy to'lovlari chegirib tashlangandan qolgan daromadning bir qismi. Jamg'arma iste'mol maqsadida ishlatilmaydigan daromaddir. Jamg'arma funksiyasi daromadlar bilan jamg'arma xarajatlarining uvviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Uy xo'jaliklari shaxsiy daromadlar miqdoridan turli xil soliqlarni to'lgandan so'ng o'z ixtiyoridagi daromad qoladi. Buni biz milliy daromadning bir qismi ham deb ataymiz. Bu daromadlar uy xo'jaliklari tomonidan iste'mol va jamg'arish uchun ishlatiladi.

$$\text{ID} = \text{S} + \text{S}$$

Demak, jamg'arma bu uy xo'jaligi ixtiyoridagi daromadning iste'mol qilinmagan qismidan iborat.

Agarda milliy iqtisodiyot tashqi dunyo bilan hech qanday aloqaga ega emas ($X = O$) va davlatning iqtisodiyotiga aralashuvi nolga teng ($O-O$) deb faraz qilinsa, unda sof milliy mahsulot ko'rsatkichi (SMM) orqali ifodalangan ishlab chiqarish hajmi ixtiyoridagi daromadga (ID) teng bo'ladi. Ya'ni:

$$\mathbf{SMM = ID = S + S ;}$$

Bu yerda makroiqtisodiy qonuniyat quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\mathbf{S + I = S + S \text{ yoki } I = S}$$

$$\mathbf{C + I = Yalpi xarajatlarga teng.}$$

Ushbu jamg'arish va investitsiyalardan ko'rinishib turibdiki, uy xo'jaliklarining jamg'arishga bo'lgan istaklari tadbirkorlikning qancha miqdorda investitsiyalash xohishlariga mos tushsa, unda ishlab chiqarish hajmi ($S+C$) va yalpi xarajatlar ($S+I$) tengligiga yoki ishlab chiqarishning muvozanat darajasiga erishish mumkin.

Agarda deylik, iqtisodiyotda eksport-import aloqalari soliq solish va transpert to'lovlari ko'rinishida davlat aralashuvni mavjud bo'lgan bo'lsa, bunday holatda jamg'arish tushunchasi murakkablashib quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\mathbf{S = S_p + S_d + S_x}$$

S_p – xususiy jamg'armalar;

S_d – davlat jamg'armalari;

S_x – boshqa mamlakatlar jamg'armalari.

Bunda xususiy jamg'armalar teng bo'ladi: daromadlar (u), transfert to'lovlari (TQ), davlat zayomlari bo'yicha foizlar yig'indisi (N) minus soliqlar (T) va iste'mol (C):

$$\mathbf{S_p = (U + TQ + N - T) - C ;}$$

$$\mathbf{Davlat jamg'armalari teng - S_d = (T - TQ - N) - G;}$$

Agar davlat jamg'armalari nolga teng bo'lsa, davlat byudjeti muvozanatlashgan, jamg'arishning manfiy miqdori byudjet taqchilligini (VT) bildiradi: $VT = - S_g$.

Boshqa mamlakatlarning jamg'armalari teng: Tashqi dunyoning bizning importimiz hisobiga olgan daromadlari minus ularning bizning eksportimizga sarflangan xarajatlariga teng, ya'ni:

$$\mathbf{S_x = M - X \text{ yoki } S_x = -NX}$$

Agar mamlakat eksportiga nisbatan ko'proq import qilsa, unda daromadlarning bir qismi xorijda qoladi va keyinchalik u xorijiy

sheriklar tomonidan bizning mamlakatimizda ko‘chmas mulk va moliyaviy aktiv sotib olishda foydalaniлади.

Har qanday holatda ham barcha turdagи jamg‘armalarning umumiyy yig‘indisi investitsiyalarga teng bo‘лади:

$$S_p + S_d + S_x = (U + TQ + N - T) - C + (T - TQ - N) - G + (-Nx);$$

$$\text{Yoki } Sp + Sd + Sx = U - C - G - NX = IS = I.$$

6.2. Iste’mol va jamg‘arish, ularning grafiklari

Uy xo‘jaliklarining iste’mol xarajatlari YaMM tarkibidagi eng katta ulushga ega bo‘lgan qismidir. SHuning uchun iste’mol xarajatluriga ta’sir etuvchi omillarni va uning o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.


Uy xo‘jaliklari ixtiyoridagi daromadning iste’mol qilinmasdan qolgan qismi ularning jamg‘armalarini tashkil etadi. Iste’mol va jumg‘armalarning hajmini belgilovchi asosiy omil uy xujaliklarining ixtiyoridagi daromadlaridir.

Ixtiyoridagi shaxsiy daromad iste’mol va jamg‘arish uchun ishlatalidi. Ya’ni qancha ko‘p iste’mol qilinsa, shuncha kam jumg‘ariladi va aksincha. Iste’mol va jamg‘arish o‘rtasidagi o‘zarobog‘liqlik har xil daromadga ega bo‘lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo‘lganlar, odatda, ko‘proq iste’mol qilib, kamroq jumg‘aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg‘arish tomonga o‘sadi.

6.1-jadval

Daromad, iste’mol va jamg‘arish ko‘rsatkichlari

Yillar	Daromad so‘m	Iste’mol so‘m	Jamg‘arish (C), ming so‘m
1	370	375	-5
2	390	390	0
3	410	405	5
4	430	420	20
5	450	435	15
6	470	450	20
7	490	465	25



370 390 405 410 Ixtiyordagi daromad

6.1-rasm. Iste'mol grafigi.

Iste'mol grafigi ikki to'g'ri chiziq ko'rinishida berilgan. Birinchivida u shunday shartli holatni izohlaydigan, ya'ni har qanday yilda iste'mol ixtiyoridagi daromadga teng bo'ladi. Ikkinchisi haqiqatda iste'mol grafigi bo'lib, haqiqiy iste'mol va daromad teng bo'lgan nuqtada (390) bissektrisa bilan kesishadi. Bundan quyi nuqtada haqiqiy iste'mol daromaddan oshiq. Bu vaziyat insonlarning qarz hisobiga hayot kechirishini bildiradi. Yuqori nuqtadagi haqiqiy iste'mol daromaddan kam hamda ular o'rtasidagi farq jamg'arishni tashkil etadi. Haqiqiy iste'mol to'g'ri chizig'i iste'mol hajmini belgilovchi vertikal o'qni a nuqtada kesib o'tadi. Bu hol uy xo'jaliklari umuman daromad olmaganlarida ham ma'lum miqdorda iste'mol

qılıshlarını anglatadı. A nuqta esa avtonom iste'mol hajmini anglatadı.
Yuqoridagi chizmaga asosan iste'mol funksiyasını yozamız:

$$S = S_0 + MRS \times (U - T)$$

yoki

$$S = a + vID$$

bu yerda, a – avtonom xarajatlar;


ID – ixtiyordagi daromad; ($ID = U - T$)

T – soliqlar;

$v = MRS$

Iste'mol hajmi avtonom iste'molga, ixtiyordagi daromad hajmiga
va iste'mol hajmining ixtiyordagi daromad hajmiga bog'liq.

Jamg'arish grafigi daromad bilan jamg'arish o'rtasidagi
bog'liqlikni ifodalaydi. Vertikal o'qdagi har bir nuqta jamg'arma
mildorini bildiradi va daromad bilan unga muvofiq keladigan iste'mol
hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi ($S = ID - C$).



6.2-chizma. Jamg'arish grafigi.

Boshlang‘ich daromad darajasida jamg‘arish nolga (0) teng holda ular daromadi o‘sib borishi bilan oshib boradi. Jamg‘arish grafigi ham iste’mol grafigiga o’xshab algebraik ifodaga ega:

$$S = -S_0 + MRS \times (U - T) \text{ yoki } S = -a + (1-b) ID;$$

Bu yerda, S – xususiy sektor jamg‘armalari miqdori;

S_0 (a) – mustaqil iste’mol;

MRS (1 – b) – jamg‘armaga chegaraviy moyillik;

u – daromad;

T – soliqlar.

Bunda, a – daromad darajasi uning boshlang‘ich nuqtasidan past bo‘lganda qarz hajmi;

v – og‘ish burchagi bo‘lib, jamg‘arishning o‘zgarishi (vertikal o‘zgarish) daromadning o‘zgarishiga (gorizontal o‘zgarish) bo‘lgan nisbati sifatida aniqlanadi: $5/20 k 0.25$

Tenglamaga daromad to‘g‘risida berilganlarni qo‘yib, unga muvofiq keladigan jamg‘arish miqdorini aniqlash mumkin:

$$S = -97,5 + 0,25 + 370 = -5$$

Iste’mol va jamg‘arish hajmiga . . . ixtiyordagi daromad dinamikasidan tashqari quyidagi omillar o‘zgarishlari ta’sir ko‘fsatadi:

1. Uy xo‘jaliklari daromadlari.
2. Uy xo‘jaliklarida to‘plangan boylik hajmi.
3. Baholar darajasi.
4. Iqtisodiy kutish.
5. Iste’molchilar qarzlari hajmi.
6. Soliqqa tortish hajmi.

Bu omillar ta’sirida joriy ixtiyordagi daromad tarkibida iste’mol va jamg‘arish ulushi nisbatlari o‘zgaradi.

6.3. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha va chegaraviy moyillik

Makroiqtisodiy tahlil qilish va tartibga solishda iste'mol hamda jamg'arma funksiyalarini yanada to'laroq bilish uchun iste'mol va jamg'armaga o'rtacha moyillik va chegaralangan jamg'arma, iste'molga moyillik tushunchalarini bilishimiz lozim.

O'rtacha miqdor yoki iste'molga o'rtacha moyillik deganda, o'z Ixtiyoridagi daromaddan iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi, ya'ni:

$$\text{ARS} = \frac{(S/U) \times 100 \%}{\text{iste'mol (C)}} \text{ yoki } \text{ARS} = \frac{\text{Iste'mol (C)}}{\text{Daromad (U)}} \times 100 \%$$

Ixtiyoridagi daromaddan jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik deb ataladi, ya'ni:

$$\text{ARS} = \frac{(S/U) \times 100 \%}{\text{Daromad (U)}} \text{ yoki } \text{ARS} = \frac{\text{Jamg'arma(C)}}{\text{Daromad (U)}} \times 100 \%$$

Misol uchun daromad darajasi 410, 430 va 530 million so'mlarga va iste'mol darajalari 405, 420 va 495 million so'mlarga teng bo'lsa, iste'molga o'rtacha moyillikni hisoblaymiz, ya'ni:

$$\text{ARS} = \frac{(405 / 410) \times 100 \%}{\text{}} = 98,78 \text{ yoki } 0,98;$$

$$\text{ARS} = \frac{(420 / 430) \times 100 \%}{\text{}} = 97,67 \text{ yoki } 0,97;$$

$$\text{ARS} = \frac{(495 / 530) \times 100 \%}{\text{}} = 93,39 \text{ yoki } 0,93 \text{ ga teng ekan.}$$

Demak, bu misollardan ko'rinish turibdiki, daromadlar miqdori ko'payib borishi bilan iste'mol kamayib boradi va aksincha jamg'arma ko'payib boradi. Soliqlar to'langandan keyin qolgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi, ikkinchi qismi esa jamg'ariladi yoki buni matematik holda ifodalasak;

$$\text{ARS} + \text{ARS} = 100 \% \text{ yoki } 1$$

Uy xo'jaligi soliqlarni to'lagandan keyin qolgan barcha daromadlarni har doim ham iste'mol qilayermaydi. Daromadlar ma'lum darajada ko'payib va kamayib turadi.

Iste'mol qilinadigan daromadning o'sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog'i) chegaralangan iste'molga moyillik deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

MRS=Iste'moldagi o'zgarish/Daromaddagi o'zgarish = ΔS /ΔU

$$\text{Ya'ni } S = 420 - 495 = 15; \quad U = 530 - 430 = 100;$$

$$U = 430 - 410 = 20; \quad S = 495 - 420 = 75;$$

$$\mathbf{MRS1 = 15 / 20 = 0,75; \quad MRS2 = 75 / 100 = 0,75.}$$

Bu shuni bildiradiki, daromadni 100 % ga (yoki bir birlikka) o'zgarishida iste'mol 75 % (yoki 0,75) o'zgaradi.

Daromadning o'sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog'i), agarda jamg'armaga qo'yilsa, bunday daromad chegaralangan jamg'armaga moyillik, deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

MRS=Jamg'armaning o'zgarishi /Daromadning o'zgarishi =ΔS/ΔU

$$\text{Ya'ni, } MRS1 = 5 / 20 = 0,25; \quad MRS2 = 25 / 100 = 0,25;$$

Shunday qilib chegaralangan iste'molga moyillik 0,75 ni tashkil etgan bo'lsa, chegaralangan jamg'armaga moyillik esa qolgan 0,25 ni tashkil etadi. Chegaralangan iste'molga moyillik va chegaralangan jamg'armaga moyillik birgalikda soliqlarni to'lagandan keyingi daromadga tengdir. Xulosa qilib aytganda, daromadning o'sgan qismi iste'molga yoki jamg'armaga ketadi. Agar daromadning o'sgan qismi iste'mol qilinmasa, u jamg'armaga qo'yilgan bo'ladi.

Qisqa muddatli davrlarda ixtiyordagi daromadlarning o'sishi ARS ni kamaytirib, ARS oshishiga olib keladi. Ya'ni iste'molchilar daromadlarining oshishi iste'mol xarajatlarini kamaytirib, jamg'armalar miqdorini oshiradi. Ammo, uzoq muddatli davrlarda esa iste'molga o'rtacha moyillik mutanosiblashadi. Chunki, iste'mol xarajatlari miqdori nafaqat ixtiyordagi daromadlar miqdoriga, balki umumiy yashash darajasiga hamda kutilayotgan va doimiy daromadlar miqdoriga ham ta'sir qiladi.

Iste'mol va jamg'arma miqdorini aniqlaydigan omillar:

1. Uy xo'jaliklari daromadlari.

2. Uy xo'jaliklarida yig'ilgan boyliklar.

3. Narxlar darajasi.
4. Iqtisodiy kutishlar.
5. Iste'mol qarzları miqdori.
6. Soliqlar darajasi va h.k.

6.4. Investitsiya va ularga talab

YaMMni xarajatlar bo'yicha aniqlashning ikkinchi qismi bo'lgan investitsiyalarga to'xtalib o'tamiz.

Investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar – bu, hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir. O'shining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik sholyntiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, yangi korxonalar qurish, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va ushbob-uskunalariga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir.

Demak, investitsiyalar – bu, yangi korxonalar qurilishiga, mashina va ushbob-uskunalar sotib olishga, ya'ni kapital barpo etishga ketgan xarajatlardir.

Investitsiyalar investitsiyalash obyektiga ko'ra uch turga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish investitsiyalari.
2. Tovar moddiy zaxiralariga investitsiyalar.
3. Uy joy qurilishiga investitsiya.

Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi omil real foiz stavkasidir. Real foiz stavkasi ortishi bilan investitsiyalar hajmi kamayadi. Chunki investorlar uchun qarz bahosi ortib, ular oladigan foyda normasini puchytirib qo'yadi.

Avtonom investitsiyalar grafigi quyidagicha avtonom investitsiyalar funksiyasi quyidagicha:


$$I = e - dR$$

Bu yerda, **I** – avtonom investitsiya xarajatlari.

e – foiz stavkasi 0 ga teng bo‘lgandagi xarajatlarning maksimal hajmi. U yer, foydali qazilma boyliklari bilan belgilanadi;

R– real foiz stavkasi;

d – investitsiyalarning real foiz stavkasi dinamikasi o‘zgarishiga ta’sirchanligini belgilovchi empirik koeffitsiyent.



6.3-rasm. Avtonom investitsiyalar grafigi.

Sof xarajatlarning investitsiyaga bo‘lgan xarajati miqdori ikkita omilga, ya’ni sof foydaning kutilayotgan me’yori va foiz stavkasi yoki tadbirkor real kapitalni sotib olishga zarur pulga ega bo‘lishi uchun to‘lashi lozim bo‘lgan bahoga teng.

Agarda kutilayotgan foyda me’yori foiz stavkasidan yuqori bo‘lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda miqdoridan yuqori bo‘lsa, investitsiyalash foydali bo‘lmay qoladi.

Misol uchun, zavodga 100000 so‘mlik yangi stanok sotib olindi. Uni ishlatish muddati bir yilga teng deylik. Yangi stanokni qo‘llashdan zavod 110000 so‘mlik kutilayotgan sof daromadni oladi desak, zavod stanok xarajatini (100000 so‘m) qoplagan va 10000 so‘m daromad olgan bo‘ladi. Sof foyda normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Fn = 10000/100000 \times 100\% = 10\%.$$

Investitsiya xarajatlari foya keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasining o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darjasini ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16% ga teng bo'lsa, inflyatsiya darjasini yiliga 12% ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4 foizni (16%-12%) tashkil etadi. Suni ta'kidlash kerakki, investitsiyalash qarorini qabul qilishda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasida, nominal foiz stavkasi joriy baholarda, real foiz stavkasi doimiy yoki inflyatsiya hisobga olingandan keyin aniqlashtirilgan baholarda hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, real foiz stavkasi – bu, nominal foiz stavkasidan inflyatsiya chegirib tashlab, topilgan foiz stavkasidir.

Real foiz stavkasi = nominal foiz stavkasi – inflyatsiya foizi

Demak, real foiz stavkasi, ya'ni pul kapitalini qarz olish bahosi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashni xohlovchilar shuncha kam bo'ladi va aksincha, real foiz stavkasi qanchalik past bo'lsa, foya keltiradigan investitsiya loyihalari shuncha ko'p bo'ladi.

Foiz stavkasining miqdori pul-kredit siyosatining muhim vositasi hisoblanadi: davlat uni o'zgartirish orqali mamlakatdagi pul taklifini turtibga solib turadi.

Foiz stavkasining ko'tarilishi pul qimmatlashuvi va unga bo'lgan turlabning qisqarayotganligini bildiradi. Demak, investitsiya xarajatlari ham qisqarib boradi. O'z navbatida investitsiya xarajatlarining qisqarishi, kelajakda milliy ishlab chiqarish hajmining pasayishini bildiradi.

Hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda ishlab chiqarish tarmoqlari muhim o'rinni egallaydi. Respublikamizda keyingi yillurda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida respublika yulpi ichki mahsulotda ishlab chiqarish tarmoqlarining ulushi yildan-yilga ko'payib bormoqda Ishlab chiqarish tarmoqlarning rivojlanishi nafsiqtan iqtisodiy muammolarni yechishda, balkim ijtimoiy muam-

molarni, ya’ni yangi ish o’rinlarini tashkil etish orqali aholi bandligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun respublikamizda iqtisodiyot tarmoqdariga investitsiyalarni jalb qilishga katta e’tibor berib kelinyapti. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “2019-yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so‘mlik yoki 2018-yilga nisbatan 16 foiz ko‘p investitsiyalarni o‘zlashtirish mo‘ljallanmoqda. Bu borada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdori joriy yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib, 4,2 milliard dollarga yetkaziladi. Natijada, 142 ta zamонавиј корхона ishga tushiriladi.” kabi bir qator vazifalar qo‘yildi.

6.2-jadval

2010– 2020 yillarda O’zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi¹⁷

Ko‘rsatkichlar nomi	2010-yil	2015-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2020-yil 2010-yilga nisbatan farqi
Asosiy kapitalga investitsiya hajmi. mlrd. so‘m	15338,2	41670,5	124231,3	195927,3	202000,1	+186661,9
YaIM asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya ulushi %	24,6	24,3	30,6	38,3	34,8	+10,2
Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga investitsiya hajmi ming. so‘m.	543,4	1331	3727	5745,7	5872,1	+5328,7

Jadvaldagagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O’zbekistonda 2020-yilda iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga barcha manbalardan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 202 trln. so‘m.tashkil qilgan, bu esa 2019-yilga 103.5 % ko‘paydi. Investitsiya hajmi 2010-yilga

¹⁷ O’zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ochiq ma’lumotlari asosida tuzilgan.

nisbatan 13.4 marta yoki 186661.8 mlrd. so‘mga ko‘paydi , 2015yilga nisbatan 4,8 marta, 2018-yilga nisbatan 1.32 martaga ko‘paydi.

Mamlakatning investitsion faolligini baholovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri – asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YalM dagi ulushidir.Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ushbu ko‘rsatkich yildan-yilga ko‘payib bormoqda va 2020-yilda 2010-yilga nisban 10.2 punktga ko‘paygan bo‘lsa, 2019-yilga nisbatan 3.5 punktga kamaydi. Ushbu ko‘rsatkichning yildan-yilga ko‘payishi ijobjiy holatdir va bu mamlakat investitsion faolligi oshib borayotganligidan dalolat beradi. Ammo 2019-yilga nisbatan kamayishi pandimeya bilan bog‘liq.

Mamlakat investitsion faolligi baholovchi yana bir ko‘rsatkich bu aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga investitsiya hajmidir. Jadvaldagি ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga investitsiya yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Ya’ni 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 5872.1 ming so‘mni tashkil qilgan va o‘tgan yilga nisban 102.2% ko‘paygan bo‘lsa, 2010-yilga nisbatan qariyb 10.8 martaga ko‘paydi. Ammo, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha rivojlangan mamlakatlarga nisbatan juda quyi o‘rnlarni egalab turibmiz.

Iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarning samaradorligiga ta’sir qiluvchi yana bir omil ularning qaysi sohalarga yo‘naltirilganligidir.

6.2-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiya¹⁸

	2019-yil		2020-yil.		2020-yil 2019-yilga nisbatan	
	Mlrd. so'm	Jamig a nis. %	mlrd. so'm	Jamig a nis. %	mlrd. so'm	Jamiga nis.%
	Jami	195927, 3	100	202000, 1	100	6072,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6661,5	3,4	7070,0	3,5	408,47	0,1
Konchilik sanoati	29193,2	14,9	42016,0	20,8	12823	5,9
Qayta ishlash sanoati	36638,4	18,7	36158,0	17,9	-480,4	-0,8
Elektr, gaz va bug' ta'minot va va havoni konditsionerlash	11167,9	5,7	16160,0	8	4992,1	2,3
Suv ta'minoti, kanalizatsiya	2938,9	1,5	2828,0	1,4	-110,9	-0,1
Qurilish	3722,6	1,9	4242,0	2,1	519,38	0,2
Ulgurja savdo,mototsikl va transport vositalarning motori ta'mirlash	9992,3	5,1	7474,0	3,7	-2518	-1,4
Tashish va saqlash	23511,3	12	18382,0	9,1	-5129	-2,7
Mehmonxona va ovqatlanish uchun xizmatlar	3722,6	1,9	1616,0	0,8	-2107	-1,1
Axborot va aloqa	4506,3	2,3	5656,0	2,8	1149,7	0,5
Faoliyatning boshqa turlari	63676,4	32,5	60196,0	29,8	-3480	-2,7

¹⁸ Manba muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy veb-saytida e'lon qilingan ochiq ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadvaldag'i ma'lumotlardan ko'riniib turibdiki, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning qariyb 40 % sanoatni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shulardan 20,8 % konchilik sanoatiga yo'naltirilgan bo'lsa, 17,9% qayta ishslash sanoati korxonalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qisqacha xulosalar

Iste'mol xarajatlarini YaIMning eng yirik komponenti bo'lib, uning hajmini avvalo uy xo'jaliklarining tasarrufidagi daromadi belgilaydi. Aholining daromadlari miqdori oshib borishi bilan undagi jamg'armalar ulushi ham oshib boradi.

Iste'mol va jamg'arish hajmi, shuningdek iste'molchilar boyliklari darajasiga, narx va soliq o'zgarishlari, iste'molchilarning qarzi darajasiga va boshqa omillarga bog'liq.

Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik aholi daromadlarining qancha qismi iste'molga va qancha qismi jamg'armaga sarflanganligini xarakterlovchi ko'rsatkichlardir.

Iste'molga chegaraviy moyillik (MRC) iste'moldagi o'zgarishlarni ixtiyordagi daromad darajasidagi o'zgarishga bo'lib topiladi. MRS ning katta yoki kichikligi fiskal siyosat samaradorligini belgilovchi omillardan biridir.

Investitsiya yoki kapital qo'yilmalar hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan mablag' hisoblanadi. Investitsiya xarajatlari dinamikasi, foiz stavkasi, kutilayotgan sof foyda normasi va boshqa bir qancha omillarga bog'liq.

Investitsiya hajmining YaMM hajmiga bog'liqligini xarakterlovchi model – akselerator modeli deyiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Daromad, iste'mol va jamg'armalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirib bering. Qanday holatda iste'mol daromadga teng bo'ladi va qanday holatda jamg'arish bo'ladi?

2. Iste'mol va jamg'arma grafiklarini izohlang. Ya'ni qanday vaziyatda jamg'arish bo'ladi va qanday vaziyatda qarz hisobiga hayot kechiriladi?

3. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va chegaraviy moyillik tushunchasini izohlang. Iste'molga jo'natiladigan yillik daromadning foydalilanadigan qismining foizdagi ko'rsatkichi nimadan iborat bo'ladi?

4. Qaysi mablag'larni biz investitsiya tarkibiga kiritamiz. Investitsiya bilan ularga qilingan xarajatlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud. Rejali investitsiya va rejalashtirilmagan investitsiya o'rtasida qanday farq mavjud?

Mavzu bo'yicha masalalar.

1-masala

Uy xo'jaliklarining tasarrufidagi daromadi 40000 sh.b. tashkil qilib, ularning jamg'armasi 10000 sh.b.ni tashkil qilsa iste'molga o'rtacha moillik nechaga teng bo'ladi?

Yechish:

Jamg'armaga o'rtacha moyillik quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$ARS = S/U = 10000/40000 = 0,25$$

Iste'molga O'rtacha moyillik quyidagicha aniqlanadi:

$$APC = 1 - APS$$

$$APC = 1 - 0.25 = \mathbf{0.75}$$

2-masala

Tasavvur qilamiz makroiqtisodiyotda muvozanat holati YAMM 60 mlrd.AQSH doll.ga teng bo'lganda erishiladi.. Bunda iste'mol darajasi 40 mlrd. AQSH dollariga teng. Investitsiya hajmi 20 mlrd. AQSH dollariga teng. Iqtisodiyotda investitsiyalarni 10 mlrd. AQSH dollariga ko'paytirishning yangi imkoniyatlari paydo bo'ldi. Iste'molga chekli moyillik $\frac{2}{3}$ ga teng bo'lsa, YAMMning o'sishi qancha qo'shimcha investitsiyani talab qiladi?

Yechish:

Avtonom xarajatlarning multiplikatori quyidagi formula bilan hisoblanadi;

$$m = \Delta Y / \Delta M$$

Multiplikatorni chekli iste'mol normasi orqali ham hisoblash mumkin:

$$m = 1 / 1 - mpc$$

$$m = 1 / 1 - mpc = 1 / 1 - 0.67 = 3$$

Olingan natijalarni formulaga qo'yamiz:

$$\Delta Y / \Delta M = 3 \times 10 = 30 \text{ mlrd. AQSH.dol.}$$

Javob: qo'shimcha 30 mlrd.AQSH doll. investitsiya talab qilinadi.

3-masala

Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi:: $Y = C + I + G + X_n$; $S = 200 + 0,5D$ (bu yerda: D – tasaffurdagi daromad); $I = 150 + 0,2Y$; $G = 200$; $t = 0,2$ (bu yerda: t – soliq stavkasi); $X_n = 150 - 0,1Y$.

Aniqlang:

1.Daromadning muvozanat darajasini;

2.Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdorini.

Yechish:

1. Daromadning muvozanat darajasini asosiy makroiqtisodiy tojdest orqali aniqlaymiz: $Y = C + I + G + X_n$.

Iste'molni daromadning umumiylar darjasining funksiyasi ko'rsatamiz: Tasarrufdagilari daromad = daromad – soliqlar.

$$T = t \times Y; D = Y - 0,2Y = Y(1-0,2) = 0,8Y.$$

$$\text{bundan } C = 200 + 0,5 \times 0,8Y = 200 + 0,4Y;$$

$$Y = 200 + 0,4Y + 150 + 0,2Y + 200 + 150 - 0,1Y;$$

$$Y - 0,4Y - 0,2Y + 0,1Y = 700; 0,5Y = 700; Y = 1400$$

Avtonom xarajatlarning multiplikatori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$m = 1 / (1 - mpc)$$

Iste'molning chekli normasini mpc iste'molning berilgan funksiyasidan olamiz: $S = 200 + 0,5Di$ ($S = Sa + mpc \times D$),

Demak: $mpc = 0,5$. Bu yerdan $= 1/(1-0,5) = 2$

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. Uy xo'jaliklarining tasarrufidagi daromadi 45000 sh.b. tashkil qilib, ularning jamg'armasi 15000 sh.b.ni tashkil qilsa iste'molga o'rtacha moillik nechaga teng bo'ladi?

2 Tasavvur qilamiz makroiqtisodiyotda muvozanat holati YAMM 80 mlrd.AQSH doll.ga teng bo'lganda erishiladi.. Bunda iste'mol darajasi 50 mlrd. AQSH dollariga teng. Investitsiya hajmi 30 mlrd. AQSH dollariga teng. Iqtisodiyotda investitsiyalarni 15 mlrd. AQSH dollariga ko'paytirishning yangi imkoniyatlari paydo bo'ldi. Iste'molga chekli moyillik 0.58 ga teng bo'lsa, YaMMning o'sishi qancha qo'shimcha investitsiyani talab qiladi?

3.Makroiqtisodiyotda muvozanat holati YaMM 120 mlrd.AQSH doll.ga teng bo'lganda erishiladi. Bunda iste'mol darajasi 90 mlrd. AQSH dollariga teng. Investitsiya hajmi 50 mlrd. AQSH dollariga teng. Iqtisodiyotda investitsiyalarni 20 mlrd. AQSH dollariga ko'paytirishning yangi imkoniyatlari paydo bo'ldi .Iste'molga chekli moyillik 0.78 ga teng bo'lsa, YaAMMning o'sishi qancha qo'shimcha investitsiyani talab qiladi?

4.Iqtisodiyot quyidagi nisbatlar bilan xarakterlanadi: $C = 323+0,3Y$, $T = 100$, $G = 80$, $I = 300$, iqtisodiyotdagi muvozanat hajmni hisoblang.

Bu yerda, C – iste'mol xarajatlarining funksiyasi, Y – daromad, T – to'g'ri soliqlar, G – davlat xarajatlari, I – investitsiya,

5. Agar tasarrufdagi daromad 600 mln. so'mdan 650 mln. so'mga ko'paysa,iste'mol 40 mln.so'mga ko'paysa jamg'armaga chekli moyillik nimaga teng bo'ladi.

6. Agar shaxsiy tasarrufdagi daromad 200 mln.so'mdan 400 mln. so'mga ko'paydi, shundan shaxsiy xarajatlari 150 mln. so'mga

ko‘paydi. Ushbu holatda jamg‘armaga chekli moyillik necha foizga teng bo‘ladi.

7. Agar jamg‘armaga chekli moyillik 0,4 teng bo‘lsa. Davlat xarajatlarini 100 mln.so‘mga ko‘patirilsa muvozanat ishlab chiqarish qanday o‘zgaradi?

8. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi: $Y = C + I + G + X_n$; $S = 100 + 0,9D_i$ (bu yerda D_i – tasarrufdagi daromad); $I = 200$; $G = 200$; $X_n = 100$; $t = 0,2$ (bu yerda t – soliq stavkasi); Daromadning muvozanat darajasi va avtonom xarajatpar multiplikatorining miqdorini aniqlang.

9. Joriy investitsion xarajatlarni 100 mln. AQSH doll. ko‘paytirish YaMM 500 mln. AQSH doll. ko‘payishiga olib keldi. Ushbu iqtisodiyotda jamg‘armaga chekli moyillikka baho bering va xarajatlar multiplikatorini aniqlang.

10. Iste’mol funksiyasi quyidagicha berilgan: $S=80+0,5Y$. Jadvalni to‘ldirib iste’mol grafigini chizing.

Daromad	Iste’mol.	Jamg‘arma
0		
100		
200		
300		

11. Yalpi ichki mahsulot 200 mlrd so‘nni tashkil qildi. Iste’molga chekli moyillik – 0,75. Agar mamlakat rahbariyati YaIM 400 mlrd. so‘mga yetkazish vazifa qilib qo‘ysa, investitsiya hajmi qancha bo‘lishi kerak?

VII BOB. KEYNSNING TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT MODELI

7.1. Klassik iqtisodchilarning iqtisodiy muvozanat nazariyasи

«Buyuk depressiya» davrida ko‘pgina yetuk iqtisodchilar, ya’ni hozirgi kunda klassiklar deb ataladigan iqtisodchilar, bozor iqtisodiyoti iqtisodiyotdagi resurslardan to‘liq foydalanish imkonini beradi, deb hisoblashgan edi. Ammo, ular iqtisodiyotda ayrim vaqtarda – urush, siyosiy to‘ntarish, tabiiy ofat va shuningdek, boshqa holatlarda o‘zgarishlar bo‘lib turushini tan olishsa ham, bozor tizimining o‘ziga xos xususiyatlari bu iqtisodiy qiyinchiliklarni o‘z-o‘zidan hal qiladi, deb tushuntirishadi.

Klassiklar nazariyasida ikkita asosiy tushuncha mavjud.

1) To‘liq bandlik sharoitida mahsulotlarni sotib olish uchun xarajatlar miqdorining yetishmasligi (ya’ni, AD≠AS bo‘lishi) mumkin emas.

2) Umumiy xarajatlar miqdori yetishmay qolgan sharoitda ham baho, ish haqi va foiz stavkasi kabi dastaklar ishga tushadi va natijada xarajatlar miqdorining kamayishi ishlab chiqarishning real hajmi, bandlik va real daromadlar miqdorining kamayishiga olib kelmaydi.

Pul bozori investitsiya va jamg‘armalar tengligini hamda to‘liq bandlik sharoitini ta’minlaydi. Faqatgina, ishsizlikning tabiiy darajasida «ixtiyoriy» ishsizlik bo‘lishi mumkin, deb hisoblashadi. Bu shuni bildiradiki, AD va ASning tenglik nuqtasida ishlab chiqarish hajmi (u) uning potensial hajmiga (u^*) teng.

Klassiklar nazariyasini tan olmaslik asosan Sey qonunidan boshlangan. Sey qonunining mohiyati mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonining o‘zi ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiyamatiga teng ravishda daromad yaratadi degan oddiy g‘oyadan iborat. Demak, mahsulotlarni sotib olish uchun har qanday mahsulotlar hajmini ishlab chiqarish o‘z-o‘zidan daromad yaratadi. Ya’ni taklif o‘zining xususiy talabini paydo qiladi. Sey qonunining mohiyatini mahsulotlar

ayirboshlash savdosida ham ko'rish mumkin. Poyabzalchi poyabzal ishlab chiqaradi yoki o'ziga zarur bo'lgan boshqa mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish uchun poyabzal taklif qiladi. Poyabzalchi tomonidan poyabzalning taklif qilinishi uning talabidan iborat. Butun iqtisodiyot bo'yicha mahsulotlar almashishi xuddi shu tarzda amalga oshiriladi.

Ammo, Sey qonuni mahsulotlar ishlab chiqarishi, mos ravishda pul daromadlari summasini olish imkonini bersa ham, iste'molchilar ushbu daromadlarning hammasini to'liq xarajat qilmasligi umum qabul qilingan tushunchadir. Ya'ni daromadlarning qandaydir bir qismi jamg'ariladi va bu qism nuqoridagi bahsda o'z javobini topmaydi. Jamg'arish daromadlar tarkibidan ma'lum miqdordagi mablag'larni o'zida mujassamlashtiradi. Demak, iste'mol xarajatlari barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdorini sotib olishga etmaydi. Agarda uy xo'jaliklari o'z daromadlarining bir qismini jamg'arishsa, u holda taklif o'z talabini paydo qilmaydi. Jamg'arish iste'molning yetishmasligiga, natijada, sotilmay qolgan mahsulotlar ishlab chiqarishning kamayishiga olib keladi.

Ammo, klassik iqtisodchilar haqiqatda jamg'arish talabning yetishmasligiga olib kelmaydi, chunki har bir jamg'arilgan so'm tadbirkorlar tomonidan investitsiyalashadi, deb ta'kidlashadi. Agarda, tadbirkorlar uy xo'jaliklarining jamg'armalari miqdorida investitsiya qilishsa, Sey qonuni amal qiladi va ishlab chiqarish hamda bandlik sharoitidagi daromadlar va mahsulotlar ishlab chiqarishini ta'minlashi uchun xarajatlar darajasiga erishishi va uni saqlab qolishi, tadbirkorlar tomonidan uy xo'jaliklari jamg'armalari miqdorida investitsiyalashiga bog'liq.

Yuqorida aytganimizdek, klassik iqtisodchilar ta'kidlashicha, kapitalizmning o'ziga xos pul bozori mavjud va bu bozor jamg'arma va investitsiyaning tengligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham to'liq bandlik mavjud, ya'ni pul bozorida (foiz stavkaları) jamg'arma

tariqasida daromadlar va xarajatlar miqdoridan chiqqan mablag'lar o'z-o'zidan investitsion mahsulotlarga sarf qilingan mablag'lar miqdorida qaytadan kelishi ustidan nazorat olib boriladi. Foiz stavkalari yordamida jamg'arma va investitsiyalarni boshqarishning izohi oddiy va hammaga tushunarlidir.

Klassik iqtisodchilarning ta'kidlashicha, boshqa vaziyatlarda uy xo'jaliklari jamg'arish o'rniga iste'mol qilishni afzal ko'rishadi. Tovar va xizmatlar iste'moli insoniyat talabini qondiradi, foydalanilmagan mablag'lar yo'q. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, iste'molchilar ularning tejamkorligini rag'batlantirish tariqasida foiz stavkalari to'lasagina jamg'arishi mumkin. Foiz stavkalari qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik ko'p mablag' jamg'ariladi. Jamg'armalardan foydalanish uchun kimlar to'lov ishlarini olib borishadi? Albatta, korxona rahbarlari, investorlar, ya'ni o'zining ishlab chiqarishini kengaytirish va yangilash uchun pul kapitalini izlovchilar hisoblanishadi.

Bilamizki, foiz stavkalari ishbilarmonlarning ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Demak, ular o'z vaqtida foiz stavkalarining pastroq bo'lishiga intilishadi. Qisqacha aytganda foiz stavkalarining o'zgarishi Sey qonunini ko'proq miqdorda jamg'armalar mavjud bo'lgan iqtisodiyotda ham faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Foiz stavkasi, jamg'arma va investitsiyani bog'lab turar ekan, butun iqtisodiyot shunday bo'lishi kerak, deb ta'kidlashadi.

Klassik iqtisodchilar o'z g'oyalarini yana bir tushuncha bilan isbotlashga harakat qilishadi. Ya'ni tadbirkorlar tomonidan taklif qilingan mahsulotlar hajmining darajasi nafaqat umumiy xarajatlar miqdoriga, balki mahsulotlar Bahosi darajasiga ham bog'liq. Bu shuni bildiradiki, agarda foiz stavkalari ayrim sabablarga ko'ra, jamg'armalarni investitsiyalar tariqasida ishlab chiqarishga qaytarmasa, kamaygan har qanday xarajatlar miqdori mos ravishda bahoning pasayishi bilan qoplanadi. Boshqacha aytganda, 40 so'mga

10 so‘mdan to‘rtta ko‘ylak sotib olishsa, narxlar 5 so‘mga kamayganda 20 so‘mga shuncha ko‘ylak sotib olish mumkin.

Sotuvchilar o‘rtasidagi raqobat bahoning egiluvchanligiga olib keladi. Bundan tashqari, talabning kamayishi ortiqcha mahsulotlardan qutilish uchun narxlarning pasayishiga sabab bo‘ladi. So‘m to‘lov qobiliyatining oshishi jamg‘armasi mavjud bo‘lmagan shaxslar mavjud pul mablag‘lari sharoitida ko‘proq mahsulotlar sotib olishga undaydi. Shuning uchun jamg‘arma ishlab chiqarish va bandlikning pasayishiga emas, balki narxlarning pasayishiga olib keladi. Narxlarning pasayishi resurslar narxining pasayishiga, xususan, ish haqining pasayishiga ham olib keladi.

Klassik iqtisodchilarning fikricha, ish haqi miqdori kamayadi va kamayishi kerak. Ish haqining kamayishi ishsizlar sonini oshiradi. Ammo, ishbilarmonlar ishsizlarni oldingidek yuqori ish haqi stavkalari bilan emas, balki past stavkalar bilan ishga jalb qilishadi. Mehnatga bo‘lgan talab tezda kamayadi. Yuqori ish haqi stavkalarida ishlaydigan ishchilar past ish haqi stavkalarida ishlashga majbur bo‘lishadi. Raqobatning mavjudligi ishchilarni shunga rozi bo‘lishga majbur qiladi. Bo‘sh ish joylariga bo‘lgan raqobat ish haqining shu durajagacha pasayishiga olib keladiki, toki ishbilarmonlar barcha ishsizlarni ishga jalb qila olishsin. Shuning uchun klassik iqtisodchilar mujburiy ishsizlik mavjud bo‘lmaydi, deb hisoblashadi. Ularning fikricha, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi umuman mumkin emas.

7.2. Keynsning iqtisodiy muvozanat nazariyasi

Klassik iqtisodchilarning bandlik nazariyasiga iqtisodiyotda mavjud bo‘ladigan ishsizlik va inflyatsiya to‘g‘ri kelmaydi. Bilamizki, iqtisodiyotda to‘liq bandlik sharoitiga har doim ham erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham iqtisodchilar klassik nazariyaning asosiy juxatlarini tanqid qila boshladilar.


1936-yili ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns kapitalizm iqtisodiyotiga yangi, ish bilan bandlik nazariyasini kiritadi. U o‘zining

«Pul, foiz va ish bilan bandlikning umumiy nazariyasi» asosida uning noto‘g‘ri jihatlarini isbotlashga urindi.

Keyns nazariyasining eng qat’iy jihat shundaki, u bozor iqtisodiyotida ish bilan to‘la bandlikni ta’minlaydigan hech qanday mexanizm yo‘qligini isbotladi. Makroko‘lamda iqtisodiyot muvozanatga erishishi mumkin, lekin shunda ham ma’lum miqdorda ishsizlik va inflyatsiya saqlanib qolishini, to‘la ish bilan bandlik qonuniy holat emasligini, balki tasodif ekanligini, kapitalizm o‘zo‘zidan tartibga tushib, rivojlanib ketavermasligini isbotlab berdi. SHuningdek, iqtisodiyotdagи tebranishlar faqat urush, tabiiy ofat va shu kabi vaziyatlargagina bog‘liq emasligini, balki u tinchlik yillarida ham ichki omillarning salbiy oqibatlaridan kelib chiqishi mumkinligini asoslagan.

Ishsizlik va inflyatsiyaning kelib chiqishi investitsiya va jamg‘armalarga bevosita bog‘liq.

Narxlarning oshishi va ish haqining pasayishi boshqa salbiy omillar bilan birga iqtisodiyotning beqarorligiga olib keladi. Keyns nazariyasi Sey qonunini ham ma’lum darajada inkor etadi. Sey qonuni bo‘yicha tadbirkorlar faoliyati va jamg‘arish rejalari foiz stavkasida mutanosiblashadi. Keynschilarning fikricha, agar tadbirkorlar jamg‘armalarni ko‘paytirishsa, firmalar investitsiyalarni ko‘paytirishlari mumkin. Quyidagi 7.1-chizmadan ko‘rinib turibdiki, jami talab va taklifning tengligi sharoitida ($AD=AC$), ishlab chiqarish hajmi uning potensial hajmidan kam ($U_0 \neq U^*$).



7.1-chizma. Talab va taklifning tengligi.

Bunday nomutanosiblikning asosiy sabablaridan biri rejalash-tililgan investitsiyalar va jamg'armalarning bir-biriga mos kelmasligidir.

Chunki, jamg'aruvchi subyektlar va investorlar har xil guruhdagi odamlardir. Korxonalar, ayniqsa, korporatsiyalar katta miqdordagi investitsiya qarorlarini qabul qilishadi. Katta hajmdagi ishlab chiqqurishga ega bo'lgan iqtisodiyotda uy xo'jaliklari ko'p miqdorda jumg'anrishadi. Shuni aytib o'tish kerakki, jamg'arish va investitsiyalarini har xil guruhlardagi odamlar turli maqsatlarda qabul qilishadi.

Keynschilar fikricha, jamg'arma va investitsiyalar bitta omilga bo'lgan bo'limgan holda turli sabablar asosida amalga oshiriladi. Misalan, ayrimlari qiymati o'zining ish haqi miqdoridan ortiq bo'lgan mahsulotlarni sotib olish uchun, uy xo'jaliklari esa avtomobil yoki televizor xarid qilish uchun jamg'arishadi. Jamg'armalar biror shaxs yoki oltuning kelajakdag'i iste'molini qondirish maqsadida; ya'ni uy xo'jaliklari oila boshlig'ining nafaqaga chiqqandan keyingi hayotini yoki bolulari kelajagini ta'minlash maqsadida jamg'arishadi.

Bundan tashqari, jamg‘arma tasodifiy vaziyatlarda foydalanish maqsadida jamg‘ariladi. Keynschilar ta’kidlashicha, jamg‘arma va investitsiyalarni aniqlashning eng asosiy omili milliy daromad hisoblanadi.

Nima uchun tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini sotib olishadi? Investitsiyalash uchun pul kapitaliga ega bo‘lishga to‘lanadigan to‘lovlar, ya’ni foiz stavkasi investitsiya rejasini tuzayotganda hisobga olinadi. Ammo, foiz stavkasi yagona omil hisoblanmaydi. Investitsiyalar miqdorini aniqlashda asosiy omillardan biri foyda normasi ham sanaladi.

Klassiklar nazariyasi bo‘yicha jamg‘arma va investitsiyalar miqdorini aniqlaydigan asosiy omil foiz stavkasi hisoblanadi. Agarda, u oshsa, uy xo‘jaliklari kamroq iste’mol qilib, ko‘proq jamg‘arishga harakat qilishadi. Uy xo‘jaliklarida jamg‘armalarning ko‘payishi kredit narxlarining kamayishiga olib keladi. Bu esa o‘z vaqtida investitsiyaning o‘sishini ta’minlaydi.

Keynschilar fikricha esa, pul bozorida boshqa ikkita manba mavjud. Birinchidan, uy xo‘jaliklarining naqd jamg‘armalari va ikkinchidan, pul taklifini ko‘paytiradigan kredit tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi.

Keynschilar nazariyasi bo‘yicha aholi o‘z mablag‘larini nafaqat kunlik xaridlarni amalga oshirish uchun, balki o‘z boyliklarini oshirish uchun ham saqlashadi. Bu pul vositalari bir qismining kamayishi va ularni pul bozorida investorlarga berish, joriy jamg‘armalarga nisbatan solishtirganda vositalarning ortiqchaligiga olib kelishi mumkin. Shunga o‘xhash kredit beradigan muassasalardan ssudalarning berilishi pulning taklifini ko‘paytiradi. Bank yoki boshqa moliyaviy tashkilotlardan kreditlarning berilishi joriy jamg‘armalar ko‘payishiga asos bo‘ladi. Natijada, uy xo‘jaliklari qo‘lidagi pul vositalarining kamayishi va banklar tomonidan ssudalarning berilishi investitsiyalar miqdori joriy jamg‘armalar miqdoridan oshishiga olib kelishi mumkin.

Bunda iste’molning oddiy funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$S = S_0 + MRS(U - T);$$

Bu yerda; S – iste'mol xarajatlari;

a – mustaqil iste'mol (joriy daromadlar miqdoriga bog'liq bo'limgan);

v – iste'molga chegaraviy moyillik;

U -daromad;

T -soliqlar;

($U-T$) – ixtiyoridagi daromad. Makroiqtisodiy modellarda bu ko'rsatkich U yoki ID ko'rinishni bildiradi.

Keynschilar yondashuvi shundan iboratki, jamg'arish va investitsiyalar rejası bir-biriga mos kelmaydi va shuning uchun ham ishlab chiqarish, daromad, bandlik, narxlar darajasida o'zgarishlar bo'lib turadi. Bundan tashqari, keynschilar fikricha, narxlar darajasi va ish huqi haqiqatda pasayishga yo'naltirilgan egiluvchanlikdan iborat emas. Hatto ular shunday bo'lgan taqdirda ham shubhalidir. Chunki narxlar va ish haqining pasayishi keng tarqalgan ishsizlikni biroz yumshatishi mumkin, xolos.

7.3. Klassik iqtisodchilar va keynschilar iqtisodiy muvozanat nazariyalarida jami talab va uning o'zgarishi

Klassik iqtisodchilar fikricha, jami talab egri chizig'i vertikal to'g'ri chiziqdan iborat va faqat ishlab chiqarishning real hajmini ifodalaydi. Ikkinchidan, pastga egilgan jami talab egri chizig'i barqaror bo'llishga intiladi va faqat narxlar darajasini aniqlaydi. Bu ikki umum ko'rsatkichni qarab chiqamiz.

1. **Vertikal jami taklif.** Vertikal jami taklif egri chizig'i ishsizlikning tabiiy darajasiga yoki to'liq bandlik sharoitdagi ishsizlik darajasiga to'g'ri keladi. Klassiklar fikricha, iqtisodiyot – Sey qonuni, barqaror soiz stavkasi, egiluvchan narx va ish haqi kabi omillar to'sirida to'liq bandlik sharoitida faoliyat ko'rsatadi. Narxlar o'zgarishi tilan bir vaqtida ishlab chiqarish hajmi o'zgarmaydi.

Oldingi mavzularda ko'rib o'tdikki, narxlarning past darajasida ishlab chiqarish foydaliligi kamayadi va ishlab chiqaruvchilarni kamroq mahsulotlar taklif qilishga va shuningdek, kamroq ishchilarni jalb qilishga undaydi. Klassiklar fikricha, ishlab chiqarishga kiritilayotgan omillarga xarajatlar narxlar pasayishi bilan bir vaqtida kamayadi va natijada real foyda va ishlab chiqarish hajmi o'zgarmay qoladi.

2. Barqaror jami talab. Klassiklar hisobicha, jami talab asosida pul yotadi. Ya'ni ishlab chiqarishning real hajmini sotish birinchidan, uy jihozlari va ishbilarmonlardagi mavjud pul miqdorlariga, ikkinchidan, ushbu pullarning narxlar darajasi bilan aniqlanadigan to'lov qobiliyatiga va real qiymatiga bog'liq. Vertikal chiziq bo'yicha pastga tushsak, narxlar darajasi kamayadi. Bu shuni bildiradiki, har bir so'mning to'lov qobiliyati oshadi va shuning uchun ushbu pullarga ko'proq mahsulotlar sotib olish mumkin.

Klassiklar fikricha, davlat moliya tashkilotlari pul taklifini doimiy ravishda qo'llab turadi. Ushbu taklif egri chizig'ida pul miqdorini ko'paytirish inflyatsiyaga, kamaytirish esa delflyatsiyaga olib keladi. Shuning uchun narxlar barqarorligini saqlab turishda pul taklifi ustidan nazorat olib borish kerak.

Keynsanchilar fikricha, mahsulotlar narxi va ish haqi egiluvchan emas, shuning uchun jami taklif egri chizig'i gorizontal o'qdan iborat. Bundan tashqari, jami taklif talabdagi narx omillaridan birortasining o'zgarishiga bog'liq ravishda davriy o'zgarib turadi.

1. Gorizontal jami taklif egri chizig'i pasayishiga qarab, narx darajasi va ish haqining noelastikligi jami taklif egri chizig'ini gorizontal joylashtiradi. Bunday holatda ishlab chiqarish hajmining kamayishi naxlarning pasayishiga, shuningdek, real ishlab chiqarish hajmining ko'payishi narxlearning oshishiga olib kelmaydi. Shuning uchun ham Keynsian kesma ishlab chiqarish hajmining nol darajasidan to'liq bandlikka erishishi yoki ishlab chiqarishning potensial hajmiga erishgungacha bo'lgan qismidan iborat. Keynschilar fikricha, to'liq ish

bilan bandlikka erishgandan keyin jami taklif egri chizig'i vertikal yo'nalish oladi.

2. **Nobarqaror jami talab.** Keynschilar fikricha, pul taklifida hech qanday o'zgarish bo'lmasa ham jami talab nobarqarordir. Xususan, jami talabdagi investitsiya kabi omillar o'zgarishga olib keladi. Masalan, jami talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmi va bandlikka ta'sir ko'rsatadi. Narxlar darajasi esa o'zgarmay qoladi.

Klassiklar fikricha, pul taklifida katta o'zgarish bo'lmasa jami talab o'zgarmaydi, ya'ni barqaror hisoblanadi. Jami talab kamaygan taqdirda ham narxlar va ish haqining egiluvchanligi ishlab chiqarish ro'rlari hajmining barqarorligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham davlatning makroiqtisodiy siyosati ortiqchadir. Keynschilar fikricha, jami talabning o'zgaruvchanligi va narxlarning noegiluvchanligi hujizlik darajasi oshishiga olib keladi.

Iqtisodiyotda katta yo'qotishlar qilmaslik uchun davlat jami tahlabni boshqarib turish maqsadida makroiqtisodiy siyosat yuritish lozim, deb hisoblaydi. Keynsianchilar fikricha, jami talabni tahlil qillishda narxlarning noegiluvchanligidan tashqari YaMMni hisoblashda to'rtta komponent, ya'ni iste'mol, investitsiya, davlat suridi va soj eksportni ham qarab chiqish kerak.

7.4. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar. “Keyns xochi”. Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi

Ishlab chiqarish kamayishi natijasida mumkin bo'lgan yo'qotishning oldini olish uchun yalpi talabni tartibga solib turadigan faol davlat siyosati zarur. Shuning uchun ham Keynsning iqtisodiy nazariyasini ko'p hollarda yalpi talab nazariyasi deb yuritiladi.

Haqiqiy investitsiya rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan investitsiyalar miqdorini o'z ichiga oladi. Rejalashtirilmagan investitsiyalariga to'yor material zaxiralari (TMZ) investitsiyalardagi kutilmagan o'zgarishlar kiradi. Ushbu rejalashtirilmagan investitsiyalar tenglashtiruvchi mexanizm sifatida jamg'arma va investitsiyalar

miqdorining o'zaro bir-biriga mos kelishini bildiradi va makroiqtisodiy tenglikni ta'minlaydi.

Rejalashtirilgan xarajatlarga uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyoning mahsulot va xizmatlarni sotib olishga mo'ljallangan xarajatlari kiradi. Firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdagi kutilmagan o'zgarishlar tovar materiallar zaxirasida rejalashtirilmagan investitsiyalar qilishga olib kelsa, real xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlardan farq qiladi.

Rejalashtirilgan xarajatlar funksiyasi ($E=S+I+G+X_n$), iste'mol funksiyasi ($S = S_0 + MRS (U - T)$) ko'rinishidagidek, $I+G+X_n$ miqdorda yuqoriga surilgan bo'ladi.

Ushbu vaziyatda sof eksport miqdori, yalpi daromadlar (U) o'zgarishiga bog'liq emas. Shuning uchun sof eksport to'liq xarajatlar miqdoriga qo'shiladi ($E= S_0+I+G+X_n$).

Mustaqil xarajatlar miqdori sof eksport funksiyasini hisobga olgan holda quyidagiga teng bo'ladi:

$$X_p = g - m \cdot x Y;$$

Bu yerda, X_p – sof eksport;

g – mustaqil (avtonom) sof eksport;

m – importga chegaraviy moyillik;

Y – daromad.

$$m = \Delta M / \Delta Y;$$

Bu yerda: ΔM – importga xarajatlarning o'zgarishi;

ΔY – daromadlarning o'zgarishi.

Yalpi daromadlarning oshishi bilan import ham oshadi. Chunki, iste'molchilar va investorlar milliy va import mahsulotlarga bo'lgan xarajatlar miqdorini oshiradi.


Bunda mamlakatdagi eksport miqdori yalpi daromadlar (U) miqdoriga bog'liq bo'lmaydi, balki mamlakatning yalpi daromadlari o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham mamlakatdagi yalpi daromadlar (U) o'zgarishi bilan sof eksport (X_p) o'rtaсидаги bog'liqliк salbiydir va sof eksport funksiyasida minus ishorasi bilan belgilanadi.

Rejalahtirilgan xarajatlar chizig'i haqiqiy va rejalahtirilgan xarajatlar bir-biriga teng bo'lganda ($U=E$) A nuqtada kesishadi. Keltirilgan ushbu 7.2-chizma "Keyns xochi" nomini olgan.

$U=E$ chiziqda haqiqiy investitsiyalar va jamg'armalar tengligi suqlanadi. A nuqtada esa daromadlar rejalahtirilgan xarajatlarga teng bo'ladi. Shuningdek, bu yerda rejalahtirilgan hamda haqiqiy investitsiyalar va jamg'armalarning o'zaro tengligi paydo bo'ladi. Ya'ni makroiqtisodiy tenglik ta'minlanadi.

Agarda, ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi (U_1) uning tenglik darajasidan (U_0) ko'p bo'lsa, iste'molchilar mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar taklif qilganga nisbatan kam sotib oladi ($AD < AC$). Notimugan mahsulotlar TMZ ko'rinishiga ega bo'ladi. Zaxiralarning o'sishi firmalarda ishlab chiqarish hamda bandlik darajalari punayishiga olib keladi. Bu esa YaMM hajmini kamaytiradi. Asta-sekin U_1 dan U_0 gacha keladi, ya'ni daromad va rejalahtirilgan xarajatlar tenglashadi. O'z navbatida yalpi talab va taklifning tenglashishiga ($AD=AC$) erishiladi.

Aksincha, haqiqiy ishlab chiqarish (U_2) uning tenglik darajasidan (U_0) kam bo'lgan vaziyat esa, firmalar iste'molchilar talabiga nisbatan kam ishlab chiqarayotganligini ($AD > AC$) ko'rsatadi. Talabning oshishi esa firmalar zaxirasining kamayishi hisobiga qondiriladi. Natijada, YaMM doimiy ravishda U_2 dan U_1 ga qarab o'sadi va yana $AD=AS$ tengligiga erishiladi.



7.2-chizma. Investitsiya va jamg‘armalarning o‘zaro mutanosibligi

7.5. Keynsning bandlik nazariyasi. Mustaqil xarajatlar multiplikatori

Oldingi o‘rinlarda qayd etilganidek, Keynsning iqtisodiy nazariyasiga binoan bozor iqtisodiyotida ish bilan bandlikni to‘la ta’minlaydigan hech qanday avtomatik mexanizm yo‘q. Demak, ishlab chiqarish va ish bilan bandlikning o‘zaro bog‘liqligi qanday aniqlanishini bilish uchun tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi, ish bilan bandlik va ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari kabi ko‘rsatkichlarni qarab chiqish kerak bo‘ladi.

Keyns modelida muvozanat darajadagi ishlab chiqarishni aniqlashda bir-biri bilan bog‘liq ikkita usuldan foydalilanilgan.

1.Umumiy xarajatlар va ishlab chiqarishni taqqoslash usuli, ya’ni

(S+ I)= SMM;

2. Inyeksiya va tortib olish usuli.

Ushbu usullardan birinchisini, ya’ni yalpi xarajatlar va ishlab chiqarish hajmi usulini qarab chiqamiz. Bu usul qisqacha qilib «Xarajatlar va ishlab chiqarish hajmi usuli » deb ham aytildi.

Ishlab chiqarish hajmi deganda, amaliyotda ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan SMM hajmiga aytildi. Unda SMM ishlab chiqarishning turli miqdordagi potensiali bilan taqqoslanadi. Bu yerda eng asosiy ko‘rsatkich, ishlab chiqarishga sarf qilingan umumiy xarajatlar miqdorida yalpi daromadlarni olish hisoblanadi. Masalan, biron tadbirdor yuz ming so‘mlik mahsulotni taklif etib, yuz ming so‘mlik daromad olsagina u ishlab chiqarishni davom ettirishi mumkin.

Yalpi xarajatlar deganda, ishlab chiqarishga sarf qilingan umumiy xarajatlar miqdori tushuniladi. Yoki boshqacha aytganda, YaMM ni hisoblashdagi iste’mol va investitsiya xarajatlaridan iboratdir. Shuni ham ta’kidlab o’tish kerakki, SMM ni hisoblayotganda, ya’ni, yalpi investitsiyalar miqdori emas, balki sof investitsiyalar miqdori hisobga olinadi, ya’ni SMM= YaMM-A

Bundan tashqari umumiy hisoblarda sof investitsiyalarning joriy miqdori emas, balki reja miqdori e’tiborga olinadi. Chunki, ishlab chiqarish hajmi bilan yalpi xarajatlar o’rtasidagi muvozanatning buzilishi rejadan ortiqcha investitsiyalarga bo‘lgan talabni keltirib chiqaradi.

SMM Keynsning ish bilan bandlik nazariyasi asosini tashkil etadi. Muvozanat hajmidagi SMMning aniqlanishi iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlaydi.

Muvozanatli ishlab chiqarish rejasi– bu, yalpi xarajatlar rejasi xarj qilingan tovar va moddiy resurslar tengligini ta’minlovchi SMM hajmlini ishlab chiqarishdir. Muvozanatli hajmdagi SMMni ishlab chiqarish ish bilan to‘liq bandlikni, ishlab chiqarish xarajatlari va olinmayotgan daromadlarning bирgalikdagи muvozanatini birlashtiradi.

Inyeksiya va tortib olish usuli to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelmasa ham uning ma’nosi shundan iboratki, ya’ni muvozanatli darajadan tashqari

holatlarda SMM va yalpi xarajatlar muvozanatining buzilishiga qaratiladi. Bilamizki, har qanday hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish o‘ziga mos ravishda soliqlar to‘langandan keyingi daromadlar miqdorini beradi.

Yana shu ma’lumki, uy xo‘jaliklari ushbu daromadlarning bir qismini jamg‘arishi mumkin. Jamg‘arish o‘z navbatida tortib olishni bildiradi. Jamg‘arish natijasida iste’mol ishlab chiqarishning umumiyligi hajmidan yoki SMMdan kam bo‘ladi. Bunday holatda iste’mol, bozorda jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini sotib olishga yetmaydi. Natijada esa ishlab chiqarish hajmi kamayadi. Mahsulotlarning bir qismi ishlab chiqarish vositalari shaklini oladi. Shuning uchun investitsiyani daromadlar va xarajatlar miqdoridagi xarajatlar inyeksiyasi deb qarash mumkin. Boshqacha aytganimizda, investitsiya jamg‘armaga olingan vositalarni qoplash imkoniyatini bildiradi.

Agarda jamg‘armaga olingan vositalar investitsiya inyeksiyasidan ko‘p bo‘lsa, jami xarajatlar SMMdan kam bo‘ladi. Boshqacha aytganda, SMMning har qanday darajasi, ya’ni jamg‘arish investitsiyadan ko‘p bo‘lgan vaziyatda muvozanat nuqtadan yuqori bo‘ladi. Aksincha, investitsiya inyeksiyasi jamg‘armaga olingan vositalar miqdoridan ko‘p bo‘lsa, jami xarajatlar SMMdan ko‘p bo‘ladi. Investitsiyalar jamg‘armalardan ko‘p bo‘lgan har qanday sharoitda SMM hajmi muvozanat nuqtadan past bo‘ladi. Jamg‘armaga olingan vositalar miqdori investitsiya inyeksiyasi tomonidan to‘liqqoplansa, jami xarajatlar umumiyligi ishlab chiqarish hajmiga teng bo‘ladi. Inyeksiya bu mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo‘lgan iste’mol xarajatlariga ko‘shimcha hisoblanadi.

Milliy ishlab chiqarishning muvozanat holati (U_0), yalpi xarajatlar tarkibining har qanday o‘zgarishi natijasida (iste’mol, investitsiya, davlat xarajatlari yoki sof eksport) tebranishi mumkin. Ushbu tarkibdagi birorta omilning o‘sishi rejalashtirilgan xarajatlar egri chizig‘ini yuqoriga suradi va aksincha.

Mustaqil xarajatlar tarkibidagi har qanday o'sish yalpi daromadlarning (ΔU) multiplikator samarasini hisobiga ko'proq oshishiga olib keladi.

$$\Delta A (\Delta S_0) = \Delta(a (S_0) + I + G + X_n)$$

Mustaqil xarajatlar multiplikatori YaMM muvozanatidagi o'zgarishning mustaqil xarajatlar tarkibidagi har qanday omillar o'zgarishiga nisbatini ko'rsatadi.

$$m = \Delta U / \Delta A (\Delta S_0);$$

Bu yerda,

m - mustaqil (avtonom) xarajatlar multiplikatori;

ΔU - YaMM muvozanatidagi o'zgarish;

$\Delta A (\Delta S_0)$ - «U» o'zgarishiga bog'liq bo'limgan holda mustaqil xarajatlar o'zgarishi.

Multiplikator - yalpi daromadlar mustaqil xarajatlarning ~~daromadlari~~ o'sishi (kamayishi)dan necha marta ortiq o'sganligini (kamayganligi) ko'rsatadi. Mustaqil xarajatlar tarkibidagi omillardan ~~daromadlarning~~ bir marta o'zgarishi, YaMMni bir necha marta o'zgarishiga olib keladi.

Masalan, mustaqil iste'mol ΔS_a miqdorda o'ssa, bu yalpi xarajatlar va daromadlarning (U) o'sha miqdorda o'sishiga olib keladi. ~~Bu esa, o'z navbatida iste'molning ikkinchi marta (daromadlar oshishi hisobiga) MRS x ΔS_a miqdorda o'sishiga olib keladi.~~ Keyinchalik yalpi xarajatlar va daromadlar MRS x ΔS_a miqdorda yana o'sadi.


Shunday qilib, «daromad-xarajat» ko'rinishida zanjir paydo bo'lindi.

$$A \Delta u \uparrow \rightarrow A D \uparrow \Rightarrow U \uparrow \Rightarrow A D \uparrow \Rightarrow U \uparrow \Rightarrow S \uparrow \Rightarrow A D \uparrow \Rightarrow U \uparrow \text{ va hokazo.}$$

Ushbu oddiy vaziyatdan ko'rinish turibdiki, yalpi daromadlar (U), ~~daromadlari~~ o'zgarishga $\Delta S_a \uparrow$ nisbatan bir necha marta ko'p o'zgaradi va mustaqil xarajatlar multiplikatori miqdorida ko'rindi.

Bu shuni bildiradiki, S, I, G, Xn miqdorlardagi oddiy o'zgarishlar ~~ham~~ ~~daromadlarning~~ chiqarish hajmi va bandlik darajalarida katta o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, multiplikator iqtisodiy

nobarqarorlik omili hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatning byudjet-soliq siyosatidagi asosiy vazifalardan biri iqtisodiyotning bir me'yorda ishlashini ta'minlash tizimini yaratish sanaladi.




7.3-chizma. Ishlab chiqarishning haqiqiy va potensial hajmidagi regression uzilishi.

Agarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi (U_0) potensial (U^*) hajmidan kam bo'lsa, yalpi talab samarasiz hisoblanadi. Ya'ni $AD=AS$ tenglikka erishilgan bo'lsa-da, yalpi xarajatlar miqdori resurslarining to'liq bandligi darajasini ta'minlamaydi. Yalpi talabning yetishmasligi iqtisodiyotda turg'unlik darajasiga olib keladi.

Ishlab chiqarishda to'liq bandlikka erishish va regression uzilishni yo'qotish uchun yalpi talabni rag'batlantirish va tenglikni «A» nuqtadan «V» nuqtagacha surish lozim. Bu yerda yalpi muvozanat daromadlarning o'sishi ΔU quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta U = \text{Regression uzilish miqdori} \times \text{Mustaqil xarajatlar multiplikatori miqdori}$$

Agarda, ishlab chiqarish haqiqiy hajmi (U_0) potensial (U^*) hajmidan ko'p bo'lsa, yalpi xarajatlar ortiqcha hisoblanadi. Yalpi talabning ortiqchaligi iqtisodiyotda inflyatsiya jarayoniga olib keladi.



7.4-chizma. Ishlab chiqarishning haqiqiy va potensial hajmidagi inflyatsion uzilishi.

Inflyatsion uzilishni yo'qotish uchun yalpi talabni bir maromda ishlab turish kerak va tenglikni A nuqtadan V nuqtagacha surish lozim. Bu yerda yalpi talab muvozanatidagi (ΔU) qisqarish quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta U = \text{Inflyatsion uzilish miqdori} \times \text{Mustaqil xarajatlar multiplikatori miqdori}$$

Qisqacha xulosalar

Klassik iqtisodchilar makroiqtisodiy muvozanat faqat to'liq boshqlik sharoitida ro'y beradi, qisqa muddatli buzilishlar esa bozor

mexanizlari tomonidan, ya'ni baho, ish haqi kabi dastaklarning ishga tushishi bilan bartaraf etiladi deb hisoblashishadi.

Klassik iqtisodchilar nazariyasidan farqli o'laroq ingliz iqtisodchisi J. Keysn o'zining to'liq bandlik mavjud bo'lmagan sharoitda ham makroiqtisodiy muvozanat ro'y beradi, tartibga solinmagan iqtisodiyotda to'liq bandlilik faqatgina tasodifiy ro'y beradi deb hisoblaydi.

Keysn modelida makroiqtisodiy muvozanat ishlab chiqarishni ta'minlovchi ikkita omil yalpi xarajatlar va yalpi daromadlarning kesishuv nuqtasida ro'y beradi. Bu modelda tovar zaxiralarining o'zgarishi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi omil deb qaraladi.

Yalpi daromadlarning avtonom xarajatlar miqdoridagi dastlabki o'sishdan (kamayishi)dan necha marta ortiq o'sishi (kamayishi) multiplikator samarasi deyiladi. Multiplikator iqtisodiy tebranishlar darajasini kuchaytiruvchi omil hisoblanadi.

Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdori iste'molga chegaralangan moyillik darjasasi bilan belgilanadi va u bilan to'g'ri bog'liqlikka ega..

Vertikal jami taklif. Vertikal jami taklif egri chizig'i ishsizlikning tabiiy darajasiga yoki to'liq bandlik sharoitdagi ishsizlik darajasiga to'g'ri keladi. Klassiklar fikricha, iqtisodiyot – Sey qonuni, barqaror foiz stavkasi, egiluvchan narx va ish haqi kabi omillar ta'sirida to'liq bandlik sharoitida faoliyat ko'rsatadi. Narxlar o'zgarishi bilan bir vaqtida ishlab chiqarish hajmi o'zgarmaydi.

Barqaror jami talab. Klassiklar hisobicha, jami talab asosida pul yotadi. Ya'ni ishlab chiqarishning real hajmini sotish birinchidan, uy jixozlari va ishbilarmonlardagi mavjud pul miqdorlariga, ikkinchidan, ushbu pullarning narxlar darjasasi bilan aniqlanadigan to'lov qobiliyatiga va real qiymatiga bog'liq. Vertikal chiziq bo'yicha pastga tushsak, narxlar darjasasi kamayadi. Bu shuni bildiradiki, har bir

so'mning to'lov qobiliyati oshadi va shuning uchun ushbu pullarga ko'proq mahsulotlar sotib olish mumkin.

Gorizontal jami taklif egri chizig'i pasayishiga qarab, narx darajasi va ish haqining noelastikligi jami taklif egri chizig'ini gorizontal joylashtiradi. Bunday holatda ishlab chiqarish hajmining kamayishi naxlarning pasayishiga, shuningdek, real ishlab chiqarish hajmining ko'payishi narxlarning oshishiga olib kelmaydi. Shuning uchun ham Keynsian kesma ishlab chiqarish hajmining nol darajasidan to'liq bandlikka erishishi yoki ishlab chiqarishning potensial hajmiga erishgungacha bo'lgan qismidan iborat. Keynschilar fikricha, to'liq ish bilan bandlikka erishgandan keyin jami taklif egri chizig'i vertikal yo'nalish oladi.

Nobarqaror jami talab. Keynschilar fikricha, pul taklifida hech qanday o'zgarish bo'lmasa ham jami talab nobarqarordir. Xususan, jami talabdagi investitsiya kabi omillar o'zgarishga olib keladi. Masalan, jami talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmi va bandlikka ta'sir ko'rsatadi. Narxlar darajasi esa o'zgarmay qoladi.

* * * Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Klassik iqtisodchilardan kimlarni bilasiz va ularning qanday nazariyalari bilan tanishsiz?
2. Sey qonunining mohiyatini, uning kamchiliklari va yutuqlarini tushuntirib bering.
3. Nima uchun klassiklar nazariyasi tanqidga uchragan. Kimlar bu nazariyalarning kamchiliklarini ochib bergen?
4. Keynsning umumiy xarajatlar va ishlab chiqarishni taqqoslash usulini mohiyati nimada?
5. Inyeksiya va tortib olish usuli deganda nimani tushunasiz?
6. Mustaqil xarajatlar multiplikatori nimani ko'rsatadi?
7. Nobarqaror jami talab deganda nimani tushunasiz?

Mavzu bo'yicha masalalar

1-masala

Iste'mol xarajatlari 350 sh.b.ni, rejalashtirilgan investitsiyalar 100 sh.b.ni, davlat xarajatlari 150 sh.b.ni tashkil etadi. Investitsiyalar 10 sh.b.ka ko'paydi. Daromadning yangi muvozanatli darajasi 640ni tashkil qildi. Iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillikni toping.

Yechish:

Dastlab daromadlarning boshlang'ich miqdorini topamiz

$$Y = S + G + I + X_a = 350 + 100 + 150 = 600 \text{ sh.b.}$$

Avtonom xarajatlar multiplikatorini aniqlaymiz

$$m = \Delta Y / \Delta E (\Delta I) = (640 - 600) / 10 = 4$$

$$m = 1 / (1 - MPC), \text{ bundan } MPC = 1 - 1/MRS = 1 - 1/4 = 0,75$$

2-masala

Dastlabki avtonom investitsiyalar natijasida YaIM 10 mlrd. pul birligiga oshdi (ΔY). Jamg'arishga chegaralangan moyillik (MPC) 0,2 ga teng bo'lsa, bu investitsiyalar miqdorini toping.

Yechish:

Investitsiyalar miqdorini avtonom xarajatlar multiplikatori (m) yordamida topish mumkin, u jamg'armaga chegaralangan moyillik asosida hisoblanadi.

$$t = \frac{1}{MPS} = \frac{1}{0,2} = 5$$

YaIMning ortishi (ΔY) = $\Delta I * t$, bunda investitsiyalar o'zgarishini aniqlash mumkin: $10 = \Delta I \times 5$, $\Delta I = 2$.

Binobarin, dastlabki investitsiyalarning 2 mlrd. pul birligiga ortishi YaIMning 10 mlrd. pul birligiga ortishiga sabab bo'ldi.

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. O'tgan yili YaMM 1000 tashkil qildi, davlat xarajatlari 100 tashkil qildi. Xarajatlarni 50 ga oshirib hukumat YaMMni 200 ga oshirishga erishdi. Bu holatda, davlat byudjeti taqchilligi 2 yil davomida 0 ga teng bo'ldi. MRS (iste'molga bo'lgan chegaralangan moyillik) nechaga teng?

2. Iste'molga chegaralangan moyillik 0,75 ga teng. Ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi 2000. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun hukumat davlat xarajatlarini 50 ga kamaytirdi va soliqlarni 20 ga oshirdi. Potensial YaIM hajmini toping.

3. Agar soliqlar 100 birlikka ko'tarilsa, foiz stavkasi o'zgarmasdan qolsa, iste'molga chegaraviy moyillik 0,6 ga teng bo'lsa keyns xochini qo'llagan holda hisoblangan ishlab chiqarish hajmini aniqlang.

4. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan tasvirlangan:

$$Y=C+I+G+X_n$$

$$C=400+0,9 Y \quad dI=200+0,25Y$$

$$X_n=200-0,1YG=200 \quad t=0,333$$

Daromadning muvozanatlari darajasi va avtonom xarajatlar multiplikatorini toping.

5. Joriy yilda muvozanatlari YaIM hajmi 1500 sh.b.ni, iste'mol hajmi esa 1200 sh.b.ni tashkil etdi. Joriy yilda iste'mol o'tgan yilga nisbatan 20 %ga ko'paygan. O'tgan yilgi shaxsiy tasarrufdagi daromad hajmi 1100 sh.b. Jamg'arishga chegaralangan moyillik 20%.

Topilsin:

- a) o'tgan yilgi iste'mol va jamg'arish hajmlarini;
- b) joriy yildagi shaxsiy tasarrufdagi daromad hamda jamg'arish hajmlarini;
- b) iste'molga chegaralangan moyillik hajmini.
- d) avtonom xarajatlar multiplikatorini;
- c) iste'mol xarajatlari 10 sh.b.ka ko'paygan holatdagi muvozanatlari YaIMning yangi hajmini.

6. Iste'mol hajmi 350 ni, rejalashtirilgan investitsiyalar 100 ni, davlat xarajatlari 150 ni tashkil etadi. Investitsiyalar 10 ga ko'paydi va Daromadlarning yangi muvozanatlari darajasi 640 ni tashkil etdi. Iste'molga chegaralangan moyillik miqdorini toping.

7. Mamlakat aholisi mavjud daromadlarning 20% ini jamg'armada saqlaydi, avtonom iste'mol $a = 200$. Narxlar darajasi va ish haqining nominal stavkasi o'zgarmasdir. Investitsiya talabi $I = 200$, davlat xaridlari $G = 800$, real milliy daromad $Y = 3000$. Soliqlar darajasi daromad darajasiga bog'liq emas.

Agar o'zgarmas soliqlarda davlat xarajatlari 50 birlikka oshgan bo'ssa, real milliy daromad qanday o'zgaradi?

VIII BOB. DAVLAT BYUDJETI, SOLIQLAR VA DAVLAT QARZI

8.1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi

Bozor iqtisodiyotidagi har qanday faoliyat mablag‘, pul talab qiladi, moliyani yuzaga keltiradi. Sababi jamiyatning ravnaqi, aholining farovonligi, yurtning tinchligini ta’minlash va boshqa maqsadlarni amalga oshirish –hammasi moliyaga borib taqaladi.

Moliya – iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag‘laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimidir¹⁹.

Moliya – iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag‘laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimi bo‘lib, uning vositasida turli darajada pul mablag‘alari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida ishlataladi.

Moliyaning obyekti – pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar bo‘lib, uning subyekti, ya’ni ishtirokchilari firma, jamoat tashkilotlari, davlat idoralari, har xil muassasalar, turli oilalar va ayrim shaxslar bo‘ladi.

Moliya munosabatlari pul munosabatlaridan shunisi bilan farq qiladiki, uning tarkibiga shaxsiy iste’mol xizmati munosabatlari kirmaydi hamda pul harakati tovar harakati bilan bir vaqtda yuz bermaydi.

Moliya iqtisodiyot doirasida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta vazifalarni bajaradi.

1. Iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash va unga xizmat ko‘satish vazifasini bajaradi.

¹⁹ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 17th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2008. page 75.

2. Moliyaviy resurslarni korxonalar, tarmoqlararo taqsimlash vazifasi;

3. Moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol ustidan nazorat qilish vositasi sifatida foydalaniladi.


4. Moliyaning rag'batlantiruvchanlik vazifasi.

5. Ijtimoiy himoyalash vazifasi.

6. Iqtisodiy axborot berish vazifasi.

Moliya tizimi – jamiatning moliyaviy munosabatlari va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar tushuniladi

Moliya tizimi bir nechta maxsus moliyaviy muassasalardan tashkil topadi:



8.2.Davlat byudjeti. Byudjet taqchilligi va davlat qarzları

Davlat byudjeti:

– bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir.

Davlat daromadaari va xarajatlarining asosiy qismi davlat byudjeti orqali o'tadi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umum davlat miqyosidagi ijtimoiy vositalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

O'zbekiston davlat byudjetining tarkibi va tuzilishi:

Daromadlar:

To‘g‘ri soliqlar, egri soliqlar, resurs uchun to‘lovlar va mol-mulk solig‘i, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga soliqlar, boshqa soliqlar va daromadlar

Xarajatlar:

Ijtimoiy sohaga, ijtimoiy himoyaga, iqtisodiyotga, markazlashgan investitsiyalar, davlat boshqaruvi, boshqa xarajatlar. Davlat byudjetining daromadlar va xarajatlari muvozanatda bo‘lishi taqozo etidi.

Mahalliy (tuman, shaharlar va viloyatlar) byudjet daromadlari quyidagi mablag‘lardan hosil bo‘ladi:

A) mahalliy hokimiyat tasarrufidagi korxonalar foydasidan ajratilgan mablag‘lar;

B) soliqlardan, shu jumladan:

- jismoniy shaxslarning mulk solig‘i;
- yer solig‘i;
- kurort yig‘imi;
- reklama solig‘i;
- ishlab chiqarish obyektlarini qurish uchun olinadigan soliq;
- savdo litsenziyasi yig‘imi;
- vino-aroq mahsulotlari bilan savdo qilish huquqini beradigan litsensiya yig‘imi;
- tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olish yig‘imi;
- mahalliy zayomlarni chiqarishdan tushadigan mablag‘lar.

Davlat byudjeti xarajatlarining daromadlaridan ortib ketishi byudjet taqchilligini bildiradi.

Buning sababi, davlatning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi vazifalarining kengayib borishidir.

O‘rnatilgan xalqaro standartlariga ko‘ra, byudjet taqchilligi YAMning 5% darajasidan oshmasligi lozim. Byudjet taqchilligi asosan, davlat qimmatli qog‘ozlarni sotish, nobyudjet fondari (sug‘urta, pensiya fondlari)dan qarz olish ko‘rinishidagi davlatning ichki va tashqi qarzlarli hisobiga qoplanadi. Moliyaviy resurslarni davlat tomonidan qarzga

olishning asosiy shakli – bu davlat qarz majburiyatlari (zayomlari)ni chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar va savdo kompaniyalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi.

Tashqi qarz– bu davlat byudjet taqchilligini qoplash maqsadida o'ziga kerakli moliyaviy resursni jalb qilish uchun xalqaro kreditdan foydalanishi.

Demak, davlat byudjet taqchilligini qoplash uchun zarur moliyaviy resurslarni hamda ssuda kapitallarini ham milliy bozordan ham tashqi bozordan qarz oladi.

Xalqaro kreditning tez o'sishi kapitalning mamlakatlararo migratsiysi, mamlakatlar va regionlar iqtisodiy o'zaro bog'liqligi chuqurlashuvining muqarrar natijasi hisoblanadi. Xalqaro kredit ham xususiy sektor ham davlat byudjeti taqchilligini qoplash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga ham kreditor ham debitor mamlakatlar iqtisodiyotining ko'chayib borishiga sabab bo'ladi.

8.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibi,
(mlrd. so'm)²⁰**

Ko'rsatkichlar	2011- yil	2015- yil	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2020- yil*	2020- yil 2011 yilga mis. marta
Davlat byudjeti xarajatlari (maqsadli jang'armalarsiz) JAMI	16726	36289,8	40930	49681	62 229,50	12846 0	7,6
To'g'ri soliqlar	4 497,00	8 798,50	9853,6	11539,4	12805,4 .2	55532 .2	12,3
Egri soliqlar	8 225,00	19193,8	21131	26133,2	33404,3	40719	5
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	2 626,20	4 816,10			9714,5 .4	20690 .4	7,8
Boshqa daromadlar	1 713,10	3 481,40	5306,2	6867,4	6 305,30	11518 .5	6,7

*2020-yil proqnoz ko'rsatkichlar

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy veb-saytida e'lon qilingan ochiq ma'lumotlari.

Keltirilgan 1-jadval²¹ ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2011-yil davlat byudjeti daromadlari 16726 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 128460 mlrd. so'mga etib, 111734 mlrd. so'mga yoki 7.6 martaga ko'paydi. Bunda to'g'ri soliqlar 51035,4mlrd. so'mga yoki 12.3 martaga, egri soliqlar 32494 mlrd. so'mga yoki 5 martaga, resurs to'lovlar va mol-mulk solig'i 18064 mlrd. so'mga yoki 7.8 martaga hamda boshqa daromadlar 9805,4 mlrd. so'mga yoki 6,7 martaga oshganini rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, 2011-davlat byudjetining 91,6 foiz soliqli tushumlar 8,4 foiz boshqa daromadlardan, 2020-yilda esa 91,1 foizi soliqli tushumlar 8,9 foizi boshqa daromadlardan shakllantirilgan. Bilvosita soliqlar hamda resurs to'lovlar va mol-mulk solig'inining ulushi yildan-yilga oshib bormoqda.

8.2-jadval

○'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi, (mlrd. so'm)²²

Ko'rnatkichlar	2011- yil	2015- yil	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2020- yil*	2020- yil 2011- yilga nis. marta
Davlat byudjeti xarajatlari (maqsadli jumg'armalarsiz) JAMI	16726	36289,8	40930	49343,7	62 170	13110,4,6	7,8
Ijtimoiy soha va nholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari	9 704,90	20434,8	24107	27223,3	35034	66018,1	6,8
Fuqarolik jamiyatni institutlari va nodavlat notijorat fondlari rivojlantirishga	5	10	11	12	15	18	3,6

²¹ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy veb-saytida e'lon qilingan ochiq ma'lumotlari.

grantlar va mablag'lar							
Iqtisodiyotga xarajatlar	1 931,60	3 846,70	4336	5280. 7	6957,8	14132 .3	7,3
Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	1 096,10	1 843,90	2132	3234. 7	3047,6	13624 .8	12,4
Davlat boshqaruv organlari, boshqarmalari, sudsari va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari xarajatlari	629,6	1 594,30	1791	1931. 1	2189,8	5710	9
Boshqa xarajatlar	3 358,70	7 690,30	8554	10851	13545,4	31601 .4	9,4

Davlat byudjeti xarajatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2011 yilda 16726 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda 131104,6 mlrd. so'mga yetib, 114378,6 mlrd. so'mga yoki 7,8 martaga oshdi. Bunda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari 56313,2 mlrd. so'mga yoki 6,8 martaga, fuqarolik jamiyatni institutlari va nodavlat notijorat fondlari rivojlantirishga grantlar va mablag'lar 13 mlrd. so'mga yoki 3 martaga, iqtisodiyotga xarajatlar 12200,7 mlrd. so'mga yoki 7,3 martaga, markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlari 12528,7 mlrd. so'mga yoki 12,4 martaga, davlat boshqaruv organlari, boshqarmalari, sudsari va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari xarajatlari 5080,4 mlrd. so'mga yoki 9 martaga va boshqa xarajatlar 28242,7 mlrd. so'mga yoki qariyb 9,4 martaga oshganini ko'rishimiz mumkin.

Davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari 2011 yilda 58,0 foizni, 2020 yilda 50,38 foizni tashkil etgan yoki 7,62 foizli punktga pasaygan. Iqtisodiyotga xarajatlar 0,3 foizli punktga pasaygan, davlat boshqaruv organlari, boshqarmalari, sudsari va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari xarajatlari 0,24 foizli punktga kamaygan va boshqa xarajatlar 4 foizli punktga o'sgan.

Prognoz bo'yicha 2020--yilda byudjet taqchilligi 2644.6 mlrd. so'mni yoki 2,05foizni tashkil qiladi.

8.3-jadval

2016-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi (milliard AQSh dollarri)

2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil*
9,5	11,6	14,7	21,5	27,6	28,4

*2021 yil proqnoz ko'rsatkichlar

Jadvaldagagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston respublikasining davlat qarzi yildan-yilga ko'payib bormoqda. Ya'ni davlat qarzi 2020-yilda 2016-yilga nisbatan qariyb 3 martaga ko'paydi. 2021-yilda esa proqnoz bo'yicha davlat qarzi 2020-yilga nisbatan 0.8 mlrd. AQSH dollariga ko'payib 28.4 mlrd AQSH dollarini tashkil qiladi. Bu esa 2016-yilga nisbatan 3 martaga ortiq.

Davlat qarzini va u bo'yicha foizlarni to'lash yoki qayta moliyalashtirish yo'li bilan – eski kreditlar bo'yicha qarzlarni to'lash uchun yangi kreditlar berish yoki konversiya va konsolidatsiya yo'li bilan amalga oshiriladi.

Konversiya – kredit shartlari va to'lanadigan foizlar miqdorini o'zgartirish yoki kreditni uzoq muddatli chet el investitsiyasiga aylantirish. Bunday holda, xorijiy kreditorlar ko'chmas mulk sotib olishlari yoki qo'shma kapital qo'yilmalarda ishtirok etishi va hokazo. Natijada mamlakatda chet el kapitali mamlakatda pul resurslarini olmasdan ko'payadi

Konsolidatsiya – qarz oluvchi va qarz beruvchining o'zaro roziligi bilan qisqa muddatli majburiyatlar uzoq muddatli va o'rta muddatli bo'lib qolganda, muddatning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan kredit shartlarining o'zgarishi.

8.3. Soliq tizimi va uning vazifalari

Soliq – bu mahalliy va hokimiyat tarafidan hududiy va jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini majburiy ravishda byudjetga jalb qilish shaklidir.

Soliq bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil kategoriya sifatida amal qiladi va moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi bo‘lib, uni yig‘ish davlat tomonidan belgilangan tartib qonunlar asosida amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakl va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi.

Milliy iqtisodiyotda soliq quyidagi muhim vazifalarini bajaradi:

- milliy daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash;
- davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);
- ijtimoiy tanglikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);
- iqtisodiyotni tartibga solish;
- iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish va h.k.

Davlat sarflari va soliq hajmining o‘sib borishi quyidagi omillarni taqozo qiladi:

1. Aholi sonining o‘sishi.
2. Talabning ortishi va urbanizatsiya.
3. Atrof-muhitning ifloslanishi.
4. Daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish.

Milliy mudofaa, davlat xafvsizligini ta’minlash xarajatlari hajmining o‘sishi.

Hozirgi davrda davlatning soliq siyosatini O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi va uning joylardagi (viloyat, shahar, tuman) muassasalari amalga oshiradi.

Respublika hududida amal qiluvchi soliqlar, to‘lovlar tartibi, obyekti, imtiyozlar, soliq to‘lash bilan bog‘liq ravishda kelib chiqadigan umumiy munozaralarni hal qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘g‘risidagi qonunlari bilan aniqlanadi.

Soliq stavkasini belgilash bir qator tamoyillarga asoslanadi:

1. Naflilik tamoyili.
2. To'lovga layoqatlilik tamoyili.
3. Adolatlilik tamoyili.

Soliq stavkasi (t) – bu olinadigan soliq summasining (T) soliq olinadigan daromad summasiga (D) nisbatining foizdagi ifodasiga aytildi.

$$t = (T/D) \times 100\%$$

Soliq stavkasi va daromadlar o'rtasidagi nisbatga asoslanib, soliqlar quyidagilarga bo'linadi:

1. Progressiv (o'sib boruvchi).
2. Proporsional (mutanosib).
3. Regressiv (kamayib boruvchi).

Progressiv soliq

– soliqning o'rtacha stavkasi daromadlar ortishi bilan o'sib borishi tushuniladi.

Regressiv soliq

– daromadlar o'sishi bilan soliqning o'rtacha stavkasi pasayib borishiga aytildi.

Proporsional soliq

– soliq stavkasi daromad hajmiga bog'liq bo'limgan holda o'zgarishsiz qoladi


Soliqlarni pasaytirish iqtisodiy yuksalish va davlat daromadlarining o'sishiga olib kelishini birinchi bo'lib amerikalik iqtisodchi A.Laffer aniqladi.

Davlat byudjetining daromadlari va soliq stavkasi o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikning grafikda tasvirlanishi «Laffyer egri chizig'i» nomini olgan.

Grafikning tik o'qida soliq stavkasi (R), yotiq o'qida davlat byudjetiga tushumlar (B) aks etgan. Soliq stavkasining optimal miqdori R_1 davlat byudjetiga eng yuqori tushum V1ni ta'minlaydi. Soliqlar

yanada oshirilganda tadbirkorlikka qiziqish susuyadi. Laffer samarasi faqat erkin bozor mexanizmida namoyon bo‘ladi.

Laffer egri chizig‘i



Qisqacha xulosalar

Davlat byudjeti – mamlakat hukumatiga davlatning iqtisodiy funksiyalarini bajarish imkonini beruvchi asosiy moliyaviy manba bo‘lib, uning xarajatlari tarkibini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va ijtimoiy himoyaga sarflanadigan mablag‘larning mutlaq miqdori va jami xarajatlardagi ulushi oshib bormoqda.

Soliqlar majburiy to‘lov bo‘lib fiskal, qayta taqsimlash, rag‘batlantirish va nazorat funksiyalarini bajaradi.

Barcha soliqlar uch guruhg‘a-to‘g‘ridan-to‘g‘ri, egri soliqlar hamda resurs to‘lovlari va mulk solig‘iga bo‘linadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq siyosati iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishda soliqlarning rolini oshirishga qaratilgan.

Soliq islohotlari iqtisodiyotga soliq yukini pasaytirish, soliqlarni umififikatsiya qilish, soliq stavkalarini pasaytirish, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarning stavkalarini pasaytirish, soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasini kuchaytirish yo‘nalishlarida amalga oshirilmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat byudjetiga ta’rif bering va uning xarajatlari tarkibini sunab o‘ting.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarida qanday o‘zgurishlar ro‘y bermoqda?
 3. Soliqlarning funksiyalariga izoh bering.
 4. To‘g‘ri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?
 5. Egri soliqlar tarkibga qanday soliqlar kiradi?
 6. Soliq stavkasining qanday turlari mavjud?
 7. O‘zbekiston Respublikasi byudjetiga soliq tushumlarning turkibi va miqdoridagi tendensiyalarni izohlab bering.
 8. Mamlakatimizda soliq siyosati qaysi maqsadlarga qaratilgan?

Mavzu bo‘yicha masalalar

1-masala

Mamlakat davlat byudjetining 2018-yildagi holatiga baho bering. 2017-yilgi byudjet bo‘yicha quyidagilar berilgan: davlat moliyulashtirilgan investitsiyalari 40 mlrd AQSH doll., transfertlar-22, hukmli xarajatlar-9, davlat organlariga xarajatlar-30, davlat qarzlariga xizmat ko‘rsatish foizi yillik 5%, davlat qarzi 125, ekologiya xarajatlari-0.7, soliqdan tushumlar-141 mlrd. AQSH doll., davlat muklildan daromadlar – 6 mlrd. AQSH doll.

Yechish:

1. Davlat qarzi bo‘yicha foiz uchun to‘lov miqdorini hisoblaymiz. Ma‘lumki davlat qarzi 125 mlrd. AQSH doll. bo‘lib, yillik foiz 5 %ni tashkil qiladi. Demak, jami to‘lov hajmi quyidagiga teng bo‘ladi:

$125 * 5 / 100 = 6,25$ mlrd AQSH doll.

2. Jami xarajatlarni hisoblaymiz:

Davlat markazlashgan investitsiyalari – 40 mlrd AQSH doll.

Transfertlar – 22 mlrd AQSH doll.

Harbiy xarajatlar – 9 mlrd AQSH doll.

Davlat organlarini saqlash xarajatlari – 30 mlrd AQSH doll.

Davlat qarzi bo'yicha foizlar – 6,25 mlrd AQSH doll.

Ekologiya xarajatlari – 0,7 mlrd AQSH doll.

Umumiy xarajatlarni hisoblaymiz:

$40 + 22 + 9 + 30 + 6,25 + 0,7 = 107,95$ mlrd AQSH doll.

Daromadlarning umummiy yig'indisi quyidagiga teng:

$141 + 6 = 147$ mlrd AQSH doll.

Shunday qilib, byudjetning daromadlar qismi, xarajatlar qismidan ko'p, demak, byudjetda profitsit kuzatilmoqda.

Javob:

Byudjetda profitsit kuzatilmoqda.

2-masala

Yalpi milliy mahsulotga davlat xarajatlari 500 p.b., soliqlar 0,4 Y ni, transfertni – 0,2 Y ni tashqi qilyapti. Mamlakatning davlat qarzi 1000 sh.b. ni tashkil qilib davlat yillik 10 % to'laydi. Byudjetning saldosini aniqlang, agar YaMM – 2000 sh.b. ni tashkil qilsa.

Yechish:

1. Birinchi byudjetga tushumlarni aniqlaymiz:

$0,4 * 2000 = 800$ sh.b.

2..Byudjetning xarajatlar qismini aniqlaymiz:

$500 + 0,2 * 2000 + 0,1 * 1000 = 1000$ sh. b..

Demak, xarajatlar qismi daromadlar qismidan ko'p:

$800 - 1000 = 200$ u. e.

Javob: byudjet defitsiti 200 sh.b. ni tashkil qilyapti.

3-asala

YuMMga davlat xarajatlari 7000 sh.b. ni tashkil qilyapti, soliqlar - 0,6Y, transferlar - 0,25Y. Mamlakatning davlat qarzi 10 000 sh.b.ga teng bo'lib davlat qarzi bo'yicha yillik foiz stavkasi 15 %. Agar YuMM 20000 sh.b.ga teng bo'lsa byudjetning davriy va strukturali defitsitini aniqlang.

Yechish:

1.Birinchi navbatda haqiqiy defitsitni aniqlaymiz:

$$\text{Soliqlar-Xarajatlar} = 0,6 * 20000 -$$

$$(7500 + 0,25 * 20000) + 100000 * 0,15) =$$

$$12000 - 140000 = -2000 \text{ sh.b.}$$

2.Strukturali defetsitni quyidagi formula bilan topamiz:

$$T^* = (G + Tr^* + idav.qarz. bo'yicha)$$

Bu yerda; T^* – resurslarning to'liq bandlik sharoitidagi soliqlar,

Tr^* – to'liq bandlik sharoitida transferlar

Mamlumotlarni formulaga qo'yamiz:

$$6 * 25000 - (7500 + 0,25 * 25000 + 10000 * 0,15) = 15000 - 15250 = -250$$

sh.b

3.Davriy defitsitni topamiz. Davriy defitsit haqiqiy defitsitdan strukturali defetsitni ayirish orqali aniqlanadi:

$$2000 - 250 = 1750 \text{ sh. b.}$$

Javob: strukturali – 250 sh. b.,davriy – 1750 sh.b..

4-masala

Iste'mol quyidagi funksiyada berilgan $S = 0,75 Y^v + 300$, davlat xarajatlari 200 sh. b., soliqlar – 0,4 Y, investitsiyalar 600 sh.b.ga teng. Milliy daromadni, iste'molni va soliq to'lovlarini aniqlang. Soliq multiplikatorini hisoblang.

Yechish:

1.Milliy daromadni hisoblaymiz:

$$Y^v + Inv + G = 0,75(Y - 0,4Y) + 300 + 600 + 200$$

$$0,55 Y = 1100, \text{ bu yerdan}$$

$$Y = 2000$$

Iste'mol:

$$S = 0,75 (2000 - 0,4 * 2000) + 300 = 1200;$$

Soliqlar: $0,4 * 2000 = 800$.

2.Soliq multiplikatorini topish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$m_{soliq} = MPC / (1 - MPC) * (1 - ty)$$

Ma'lumotlarni formulaga qo'yamiz:

$$m_{soliq} = 0,75: [(1 - 0,75) * (1 - 0,4)] = 0,75: 0,15 = -5.$$

Javob: $Y = 2000$, $C = 1200$, $T = 800$, $m_{soliq} = -5$.

4-masala

Soliq funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega: $T = 300 + 0,1Y$, aholiga transfertlar $Tr = 4000 - 0,2(Y - Y^*)$, davlat xaridlari 400 sh.b. Potensial ishlab chiqarish hajmi $Y^* = 3000$ sh.b.. Agar YaMMning haqiqiy hajmi uning potensial hajmiga teng bo'lsa, davlat qarzi bilan nima bo'ladi?

Yechish:

1. Bu yerda birinchi navbatda davlat byudjetining holatini aniqlash lozim. Buning uchun uning daromad va xarajatlar qismini hisoblash kerak. Ushbu holatda daromadlar soliq tushumlarisha teng:

$$T = 300 + 0,1 * 3000 = 600 \text{ sh.b.}$$

2.Hozirgi holatda xarajatlar davlat xaridlari va transfertlardan tashkil topgan:

$$400 + 400 - 0,2 * (3000 - 3000) = 800 \text{ sh.b.}$$

Shundan qilib, xarajatlar daromadlardan ko'p, byudjet defitsiti 200 sh.b.ni tashkil qilyapti. Ya'ni, ushbu summmaga davlat qarzi ko'payadi.

Javob : davlat qarzi 200 sh.b.ga ko'payadi.

Mustaqil yechish uchun masalalar

1.Iqtisodiyotga davlat xarajatlari 5000 p.b.ni tashkil qilyapti, soliqlardan tushumlar 5000 p.b., aholi uchun transfertlar 1100 p.b.

Davlat qarzi 9000 p.b. tashkil qilib, davlat har yili 10 % yillik to‘laydi. Davlat byudjetining holatiga baho bering..

2.X mamlakatida 2019-yili 35 mln. p.b. miqdorida soliqlar yig‘ib olindi, bojxona boji -12 mln.p.b., byudjetga soliqdan tashqari tushumlar 20 mln.p.b. tashkil qildi. Ushbu yili tovar va xizmatlar bo‘yicha davlat xaridlari 38,4 mln.p.b., transfertlar-14.7 mln.p.b. va davlat qarzi bo‘yicha to‘lovlar 17.6 mln.p.b.ni tashkil qildi. Mamlakat davlat byudjetining holatini aniqlang.

3.Mamlakatning iqtisodiyotga davlat xarajatlari 6500 p.b. tashkil etdi, soliqlar bo‘yicha tushumlar 7500 p.b. aholi uchun transfertlar 1400 p.b. Davlat qarzi 15000 p.b. tashkil qilib, davlat har yili 10 % yillik to‘laydi. Davlat byudjetining holatiga baho bering.

4.Yil boshida davlat qarzi 2000 sh.b. ni tashkil qildi, qarz bo‘yicha yillik foiz to‘lovi 8%. Joriy yilda yalpi milliy mahsulotga davlat xarajatlari 1500 sh.b.ni tashkil qildi, transfertlar YaMMdan 20%. Dalat byudjeti YaMMning 40 %ni tashkil qiladi. Joriy yil oxiri uchun qarz yukini aniqlang, agar mamlakatda YaMM 5000 sh.b. tashkil qilgan bo‘lsa.

5.YaMMga davlat xarajatlari 500 sh.b. ni , soliqlar 0,4 Y, transfertlar – 0,2Yni tashkil qildi. Davlat qarzi 1000 sh.b., davlat qarzi bo‘yicha yillik foiz 10 %. Joriy yil uchun byudjet saldosini aniqlang, agar mamlakatda YaMM 2000 sh.b. tashkil qilgan bo‘lsa.

6. Mamlakat Jahon valyuta fondidan 6 mlrd AQSH doll. miqdorida qarz oldi. Ushbu mablag‘lar iqtisodiyotni investitsiyalashga yo‘naltirildi. Investitsiyalar joriy qilingandan so‘ng milliy daromadning yillik o‘sishi 2 mlrd AQSH doll. tashkil qiladi. Qarzni 4 yil ichida ko‘paytirish va yillik 10 % ni tashkil qiladi. Ushbu qarz davlat qarzining va iqtisodiy subyektlarning soliq yukining ko‘payishiga olib keladimi?

7.Mamlakat hukumati xalqaro moliyaviy institutlardan 1 mlrd. AQSH dollarini miqdorida kredit oldi. Kreditni 10 yil muddatga va

yillik foiz 10 %ni tashkil qiladi. Mamlakat birinchi uch yilda foizni to‘lay olmadi. To‘rtinchi yildan boshlab mamlakat kredit foizlarini uzluksiz to‘la borsa, kreditorlarga qancha mablag‘ qaytaradi va davlat qarzida qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

8.Jadvaldagи ma'lumotlar asosida soliqqa tortishning turini aniqlang, (proporsional, progressiv, regressiv). Darmadning 80 % iste'molga yo'naltirilsa, soliq multiplikatorini hisoblang.

Daromad (ming sh.b.)	Soliq (ming sh.b.)
0	0
100	30
200	60
300	90
400	120
500	150

IX BOB. BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI

9.1. Byudjet-soliq siyosatning mohiyati, usullari va davlat xarajatlari multiplikatori

Davlatning eng asosiy vazifasi iqtisodiyotni barqarorlashtirish hisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga asosan fiskal yoki byudjet-soliq siyosat orqali erishiladi. Davlat tomonidan olib boriladigan fiksal siyosat deb asosan byudjet-soliq siyosatiga aytildi. Byudjet-soliq siyosatiga, davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirish orqali iqtisodiyotda to'liq bandlik, to'lov balansining tengligi va inflatsiyani kamaytirish evaziga iqtisodiy muvozanatga erishish jarayonlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Iqtisodiy turg'unlik yoki inqiroz vaziyatlarda davlat tomonidan rug'batlantiruvchi fiskal siyosat olib boriladi. Ya'ni davlat qisqa muddatlarda iqtisodiyotning pasayishini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish yoxud ikkalasini bir vaqtning o'zida olib borish evaziga kamaytiradi. Uzoq muddatli iqtisodiy pasayish davrlarida soliqlarni kamaytirish ishlab chiqarish omillarining o'sishiga va natijada, iqtisodiy o'sishga olib kelishi mumkin. Ammo, bunga Markuziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatidan samarali foydalanish va davlat xarajatlari tarkibini maqbul holatga olib kelish orqaligina erishish mumkin.


Iqtisodiyotda to'liq bandlik va talab inflatsiyasi kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda bosiq fiskal siyosat olib boriladi. Uning munshi maqsadi davlat xarajatlarini kamayishi va soliqlarning o'sishini mo'ljallab yoki ikkalasini bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davrlri o'sishini chegaralashdan iborat.

Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirlar talab inflatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yuqori soliqlar iqtisodiyotda shingnatsiyaga olib kelishi mumkin. Bu esa mamlakat iqtisodiy imkoniyatlarini izdan chiqaradi. Bunga davlat xarajatlaridan samarasiz foydalunish turki bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli davrlarda byudjet-

soliq siyosatlari davlat xarajatlari samarasi multiplikatori, soliq multiplikatori va balanslashgan byudjet multiplikatorlari bilan birga olib boriladi.

Davlat xarajatlarining o'sishi rejalashtirgan xarajatlarining (ΔE) ushbu miqdorda o'sishiga va umumiy xarajatlarning egri chiziq bo'yicha tepaga surilishiga olib keladi. Bu vaziyatda milliy ishlab chiqarish hajmi (ΔU) miqdorida o'sadi.

$$\uparrow \rightarrow \Delta E \uparrow (\Delta E = \Delta C) \rightarrow \uparrow \Delta U (\Delta U \rightarrow \Delta Sx \text{ mg})$$



9.1-chizma. Davlat xarajatlari o'zgarishining multiplikativ samarasi.


9.2. Soliq va balanslashgan byudjet multiplikatorlari

Daromadlar darajasiga va soliqlar o'zgarishiga multiplikator ta'sirini qiyoslaymiz. Iqtisodiy rivojlanish davrlarda soliqlar miqdorini ΔT ga kamaytirsak, daromadlar darajasi ΔU ga oshadi. Bu esa daromadlar darajasi tengligining oshishiga olib keladi. Agarda iste'mol xarajatlari ($\Delta T - b$) (bu yerda b -iste'molga chegaraviy moyillik) oshsa, u rejalashtirilgan xarajatlarni egri chiziq bo'yicha yuqoriga siljitaldi, milliy ishlab chiqarish hajmini esa ΔU ga oshiradi:

Bu yerda ochiq iqtisodiyotda xarajatlar multiplikatori

$$Mg = 1/(1-b(1-t)+m) \text{ ga teng}$$

– m' – importga chegaraviy moyillik bo‘lib, $m' = \Delta M / \Delta U$ (ΔM – importdagи o‘zgarish) orqali aniqlanadi.



9.2-chizma. Davlat xarajatlari o‘zgarishining multiplikativ samarasи.

Soliqlar stavkasini aniqlashda chegaraviy soliq stavkasi formulasidan foydalanadi:

$$t = \Delta U / \Delta T;$$

Bu yerda, t – chegaraviy soliq stavkasi;

ΔT – soliqlarning o‘sishi;

ΔU – daromadlarning o‘sishi.

Bundan chiqadiki, soliq tizimining progressiv usuli multiplikator sumarasini yumshatadi.

$$MT = \Delta U / \Delta T = -1 / (1 - b) - \text{soliq multiplikatori};$$

$MT = -b / (1 - b) \times (1 - t)$ – yopiq iqtisodiyot uchun soliq multiplikatori.

To‘liq soliq funksiyasi $T = Ta + tU$ – ko‘rinishga ega.

Bu yerda, Ta – mustaqil soliqlar (mulkka, yerga soliqlar).

To'liq soliq funksiyasini e'tiborga olsak, iste'mol funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S = a + b (U - (T_a + tU));$$

Ochiq iqtisodiyot sharoitida sof eksport funksiyasini e'tiborga olsak, soliq multiplikatori quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$MT = -b / (1-b)x(1-t)+m'$$

Birinchi vaziyatdagi milliy ishlab chiqarish hajmi tengligi kengaytirilgan modelga olib kelinsa, ikkinchi ko'rinishga ega bo'ladi. Bunda asosan daromadlarning o'zgarishiga ΔU , bir vaqtning o'zida davlat xarajatlari ΔG va mustaqil soliqlar T_a orqali erishiladi

$$\frac{1}{\Delta U = \Delta G x} - \frac{b}{\Delta T x} = \frac{(1-b)(1-t)+m'}{(1-b)(1-t)+m'}$$

Ushbu formula balanslashgan byudjet multiplikatori formulasini bildiradi.

9.3. Fiskal siyosat turlari

Davlatning fiskal harakatlari iqtisodiyotni muvofiqlashtirishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun real milliy ishlab chiqarish hajmi va bandlikni o'zgartirish, inflyatsiya va iqtisodiy o'sishni nazorat qilish maqsadida davlat tomonidan xarajatlar va soliqlar orqali boshqariladigan diskretsion fiskal siyosatni ko'rib chiqamiz.

Masalan, davlat SMM miqdori qanday bo'lishidan qat'i nazar 20 mlrd. so'mlik tovar va xizmatlarni sotib olishga qaror qildi, deylik. Xususiy xarajatlarning oshishi kabi, davlat xarajatlarining oshishi ham jami xarajatlar grafigini bissektirisaga nisbatan siljishiga va SMM muvozanat miqdorining o'sishiga olib keladi. Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki, davlat xarajatlari multiplikator samarasini bilan tasdiqlangan. Davlat xarajatining 20 mlrd. so'mga oshishi SMMni 80 mlrd. so'mga oshishiga olib keladi. Ya'ni multiplikator 4 ga teng.

Bundan tashqari, davlat xarajatlarining 20 mlrd. so'mga oshishi soliq tushumlari hisobidan moliyalashtirilmaydi. Chunki, soliqlarning

oshishi SMM miqdorining kamayishiga olib keladi. Boshqacha aytganimizda, davlat xarajatlari byudjet kamomadi bilan qoplanishi kerak.

Agarda davlat xarajatlar miqdorini kamaytirsa, jami xarajatlar grafigi pastga qarab siljiydi. Ya'ni har qanday sharoitda SMM miqdorini kamaytiradi. Masalan, davlat xarajatlari 20 mldr. so'mdan 10 mldr. so'mga qisqarsa, SMM miqdori 40 mldr. so'mga kamayadi. Multiplikator samarasи 4 ga teng bo'ladi.

Davlat 20 mldr. so'm miqdorida soliq joriy qilsin. Ya'ni davlat SMMning har qanday miqdorida 20 mldr. so'mlik soliq tushimiga ega bo'lsin. Bu, o'z navbatida, soliqlarni to'lagandan keyingi daromadlar miqdoriga ta'sir qiladi. Chunki, bu ta'sir iste'mol va jamg'arish miqdorining kamayishiga olib keladi. Xususiy iste'mol va xususiy jamg'armalar multiplikatori, soliqlarni to'lagandan keyingi daromadlar miqdori kamayishining qancha qismi iste'molga va qancha qismi jamg'armaga to'g'ri kelishini aniqlab beradi. Ya'ni, MRS va MRS lar bo'yicha hisoblaganimizda har qanday miqdordagi SMMdan 20 mldr. so'mlik soliqlarning olinishi iste'mol xarajatlarini 15 mldr. so'mga, jamg'armani esa 5 mldr. so'mga kamaytiradi. Bu kamayishlar SMM miqdori 60 mldr. so'mga kamayishiga olib keladi.

Demak, soliqlarning olinishi SMM miqdoriga nisbatan soliqlarni to'lagandan keyingi daromadlar miqdori kamayishiga olib keladi. Bu kamayish, o'z navbatida, SMMning har qanday miqdorida iste'mol va jamg'armalar miqdorini kamaytiradi. Jamg'arma va iste'mollar kamayishi miqdorlari MRS va MRS lar bilan aniqlanadi.

Davlat xarajatlari va soliqlar miqdorining bir xil miqdorda o'sishi SMM miqdorining o'sishiga olib keladi. Misolimizda ΔG va ΔT larning 20 mldr. so'mga oshishi SMM miqdorining 20 mldr. so'mga oshishiga olib kelgan. Bu balanslashgan byudjet multiplikatorini tushunish imkonini beradi.

Davlat xarajatlarining o'zgarishi soliq miqdorining o'zgarishiga nisbatan jami xarajatlar miqdoriga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Davlat

xarajatlari jami xarajatlar miqdoriga bevosita, soliqlar miqdori esa bilvosita ta'sir ko'rsatadi:

$$\text{Jami xarajatlar} = S + I + \Delta G + X_p;$$

Ko'rinish turibdiki, balanslashgan byudjet multiplikatori birga teng. Soliqlar miqdorining 20 mldr. so'mga oshishi soliqlar to'lagandan keyingi daromadlar miqdorini 20 mldr. so'mga qisqartiradi va iste'mol xarajatlari 15 mldr. so'm kamayishiga olib keladi. O'z navbatida, iste'mol xarajatlarining 15 mldr. so'mga kamayishi SMM ni 60 mldr. so'mga kamayishiga olib keladi. Ammo, davlat xarajatlarining 20 mldr. so'mga oshishi SMM ni 80 mldr. so'mga oshiradi. Demak, mos ravishda davlat xarajatlari va soliqlar 20 mldr. so'mga oshishi SMM ni 20 mldr. so'mga (80-60 = 20) oshiradi.

Fiskal siyosatning fundamental maqsadi ishsizlik yoki inflyatsiyani tugatishdir. Iqtisodiyotning pasayish davrida rag'batlan-tiruvchi fiskal siyosat to'g'risida gap ketadi. U birinchidan, davlat xarajatlarini oshiradi, ikkinchidan, soliqlarni kamaytiradi, uchinchidan, birinchi va ikkinchi yo'nalishlarni birga qo'shib olib boradi. Boshqacha aytganimizda, balanslashgan byudjet bo'lsa, iqtisodiyot inqirozga uchragan paytda fiskal siyosat davlat byudjeti kamomadi yo'nalishiga harakat qiladi.

Teskari, iqtisodiyotda kyeragidan ortiqcha talab inflyatsiyasiga joy bo'lsa, bunday sharoitga bosiq fiskal siyosat to'g'ri keladi. Ya'ni, birinchidan, davlat xarajatlarini kamaytirish, ikkinchidan, soliqlarni oshirish va uchinchidan, ikkalasini bir-biriga qo'shib olib borish. Agarda iqtisodiyot oldida inflyatsiya ustidan nazorat o'rnatish muammosi turgan bo'lsa, fiskal siyosat davlat byudjetining ijobjiy qoldig'iga yo'naltirilgan bo'ladi.

Lekin, shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, SMM qiymati nafaqat davlat xarajatlari va soliqlar o'rtasidagi farqqa, balki byudjetning mutlaq miqdoriga ham bog'liq.

Davlat byudjetida kamomad bo‘lgan sharoitda uning iqtisodiyotni rag‘batlantirishi kamomadni rag‘batlantirishiga bog‘liq. Mamlakat byudjet kamomadini ikki xil yo‘l bilan – aholidan qarz olish hisobiga (foizli qog‘ozlarni sotish hisobiga) yoki kreditorlar tomonidan yangi pullar chiqarish orqali moliyalashtirish mumkin.

Davlat pul bozoriga o‘zining qarzlari bilan chiqqan sharoitda moliyaviy vositalar uchun xususiy tadbirkorlar bilan raqobatga kirishishga to‘g‘ri keladi. Moliyaviy vositalarga bo‘lgan bu qo‘sishimcha talab foiz stavkalari muvozanat nuqtasini oshiradi. Chunki, oldingi mavzulardan ma’lumki, investitsiya xarajatlari foiz stavkalari bilan teskarci mutanosiblikka ega.

Demak, davlat tomonidan qarzlar olish foiz stavkalari darajasining oshishiga olib keladi. Davlat byudjeti kamomadi yangi pullarni chiqarish orqali moliyalashtirilsa, xususiy investitsiyalar ta’siridan kutilishi, davlat xarajatlari investitsiya va iste’molga kuchli ta’sir qilmagan holda o‘sishi mumkin. Demak, davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirishda yangi pullarni chiqarish davlat qarzlarini kengaytirishga nisbatan yaxshiroq usul hisoblanadi.

DaVlat xarajatlari va soliqlar miqdorining o‘zgarishi ayrim holatlarda avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Chunki, avvalgi o‘rinlarda qayd etilganidek, SMMning har qanday darajasida bir miqdordagi soliqlar olinadi.

Barcha turdagи soliqlar ham SMM o‘sishiga mos ravishda sof soliqlar tushumini ko‘paytiradi (sof soliq umumiyligi soliqlar tushumidan davlat transfert to‘lovlari ayirmasiga teng). SMM miqdorining o‘sib borishi bilan individual daromad soliqlari, korxonalar daromad va foyda soliqlari, QQS, aksizlar miqdori oshib boradi. Va, aksincha SMM miqdori kamaysa, soliq tushumlari kamayadi. Bu yerda transfert to‘lovlari qarama-qarshi xususiyatga ega. Chunki, iqtisodiy o‘sish sharoitida ishsizlarga to‘lanadigan nafaqalar, fermeqlarga beriladigan subsidiyalar kamayadi va teskarisi.

Davlatning fiskal siyosatida to‘lanadigan soliqlar miqdori katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ishlab chiqarish korxonalarini to‘laydigan soliqlar tarkibini qarab chiqamiz.

Korxonalar uchun soliqlarni qanday manbalardan to‘lashni bilish lozim. Soliqlar to‘lanadigan manbalarga ko‘ra, quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritiladigan soliqlar: yer solig‘i, avtomobil yo‘llardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliq, trasport solig‘i, transport vositalari egalaridan olinadigan soliq;

2) xarajatlari mahsulotlarni sotishdan tushadigan tushumlar tarkibiga kiritiladigan soliqlar; QQS, aksizlar, eksport ta‘riflari;

3) xarajatlari moliyaviy natijalarga qo‘shiladagan soliqlar: foyda solig‘i, mol-mulk, reklama, atrof-muhitni toza saqlash, uy-joy fondi va ijtimoiy soha obyektlarini saqlab turish soliqlari va boshqalar;

4) xarajatlari korxona ixtiyorida qoladigan foydadan qoplanadigan soliqlar: hisoblash texnikasi va avtomobilarni sotish uchun to‘lanadigan soliqlar, savdo qilish uchun beriladigan litsenziyalar yig‘imi, birja amalga oshirgan ishlar uchun yig‘imlar, dām olish va kurort zonalarida ishlab chiqarish obyektlarini qurish uchun to‘lanadigan soliqlar va boshqalar.

9.4. Byudjet ortiqchaligini kamaytirish va byudjet kamomadini moliyalashtirish usullari

Davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish usullari:

Pul-kredit emissiyasi;

Davlat zayomlarini chiqarish;

Davlat byudjetiga soliq tushumlarini ko‘paytirish.

Monetar siyosat yuritishda davlat byudjeti kamomadi pul chiqarish orqali qoplanadi.

Inflyatsiya darajasi oshganda Oliver-Tanzi samarasi paydo bo‘ladi. Ya‘ni soliq to‘lovchilar tomonidan davlatga to‘laydigan soliqlar to‘lovini atayin kechiktirish hollari yuzaga keladi. Bu esa

davlat byudjeti kamomadi oshishiga olib keladi. Bundan davlat byudjeti kamomadini pul chiqarish yo'li bilan qoplash, beriladigan kreditlarga foiz stavkalarini imtiyozil qilib belgilash yoki to'lovlarni kechiktirish shakllari ham qo'llanishi mumkin. Bu esa inflyatsiyaning oshishiga olib keladi.

Byudjet ortiqchaligini kamaytirish usullari:

1. Muomaladagi pul mablag'larini olib qo'yish;
2. Davlat qarzlarini kamaytirish.

Hozirgi sharoitgacha bizning mulohazalarimiz yopiq iqtisodiyot sharoitida olib boriladigan fiskal siyosat to'g'risida cheklangan edi. Agarda, mamlakat jahon iqtisodiyotining bir qismini tashkil qilsa, ya'ni ochiq iqtisodiyot sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, qo'shimcha qiyinchiliklar kelib chiqadi.

Chet mamlakatlarda ro'y berayotgan hodisalar va ular tomonidan qabul qilinayotgan siyosiy tadbirlar mamlakat eksportiga va iqtisodiyotiga ta'sir qiladi. Yalpi talabning xalqaro zarbasiga duchor bo'lishi bizning SMMni qisqartirishi va fiskal siyosatimiz tadbirlarini qadrsizlantrishi mumkin.

Maşalan, biz respublikamizda ishlab chiqarish pasayishini kutayapmiz va yalpi talabning o'sishini ta'minlashga yetarli darajada davlat xarajatlari va soliqlari miqdorini shu darajagacha qisqartirdik. Shuningdek, asosiy savdo hamkorimiz bo'lgan davlatlar iqtisodiyoti kutilmaganda va tezlik bilan o'sa boshlasin. Ta'minlanganlik darajasining oshishi va daromadlarining o'sishi bu mamlakatlarda respublikamizdan tovarlarni sotib olishning o'sishiga olib keladi. Bizning sof eksportimiz o'sadi. Yalpi talab nihoyatda tez o'sadi va biz talab inflyatsiyasi muammosi oldida turgan bo'lamiz. Agarda sof eksportimizning shunchalik o'sishini oldindan bilganimizda rag'batlantiradigan qulay fiskal siyosat yuritgan bo'lar edik.

Sof eksport samarasи, fiskal siyosat samaradorligini xalqaro savdo orqali barang qilishga harakat qiladi. Biz o'rin almashish samarasini qarashni tugatdik va rag'batlantiruvchi fiskal siyosat orqali foiz

stavkalarini oshishi mumkinligi haqida xulosaga keldik, ya'ni investitsiyani qisqarishiga olib keladi shunday ekan fiskal siyosatni bekorga chiqaradi. Endi biz ishonishimiz kerakki, foiz stavkalarini o'sishi bizni sof eksportga qanday ta'sir qiladi. Keyin faraz qilaylik, biz rag'batlantiruvchi fiskal siyosat olib borayapmiz, ya'ni iqtisodiyotga yuqori stavkali foiz olib keladi. Bunday foiz stavkalari chetdan moliyaviy kapitallarni jalb qiladi. Chetdan kelgan moliyaviy investorlar chetdan qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishdan oldin, o'zining hisobida o'sha mamlakatning valyutasiga (mos, respublikamizning so'mi) ega bo'lishi kerak.

Biz bilamizki, tovarga talabni oshishi hozirgi sharoitda so'm bahosining oshishiga olib keladi. Shunday qilib, so'mni narxi boshqa valyutaga tenglashtirilgan narxda oshadi, boshqacha aytganda so'm qimmatlashayapti.

Keyingi jadvalda fiskal siyosatga sof eksportning ta'siri ikki yo'nalish bo'yicha berilgan. Ushbu jadvalda sof eksportga ta'sir ikki yo'nalishda ham ro'y beradi. Ya'ni ichki foiz stavkasini kamaytirish, bosiq fiskal siyosat, sof eksport miqdorini o'sishiga imkoniyat yaratadi.

9.1-Jadval.

Fiskal siyosat va uni sof	eksportga ta'siri
1) Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat.	2) Bosiq fiskal siyosat.
Muammo: inqiroz, sekin o'sish.	Muammo: inflyatsiya.
Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat.	Bosiq fiskal siyosat.
Eng katta ichki foiz stavkasi.	Eng kichik ichki foiz stavkasi.
So'mga tashqi talabni oshishi.	So'mga tashqi talabni kamayishi.
So'mni qimmatlashuvi.	So'mni arzonlashuvi.
Sof eksportni kamayishi, (rag'batlantiruvchi fiskal siyosatni qisman qarama-qarshiligidan yalpi talab kamayadi).	Sof eksportni ko'payishi (bosiq fiskal siyosatni qarama-qarshi-ligidan qisman yalpi talab o'sadi).

Qisqacha xulosalar

Fiskal siyosat (byudjet-soliq siyosati) maqsadi iqtisodiy o'sish, baholarning barqaror darajasi, to'liq bandlik va to'lov balansi barqarorligini ta'minlashdan iborat. Bu maqsadlarga erishish uchun davlat xarajatlari va soliqlar bilan manipulyasiya qilinadi.

Fiskal siyosat cheklovchi yoki rag'batlantiruvchi turlarga bo'linadi. Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat iqtisodiyotning pasayish davrida olib borilsa, cheklovchi fiskal siyosat iqtisodiyotda haddan ziyod talab tufayli inflyatsiya paydo bo'lgan sharoitda olib boriladi.

Fiskal siyosat tadbirdari qisqa va uzoq muddatda multiplikator samarasi ta'siri ostida bo'ladi.

Davlat xarajatlari multiplikatori iste'molga chegaralangan moyillik darajasi bilan to'g'ri bog'liqlikka, chegaraviy soliq stavkasi hamda iste'molga chegaralangan moyillik darajasi bilan teskari bog'liqlikka ega.

Davlat xarajatlari va soliqlar miqdorini bir xil miqdorga oshirilishi daraomadlar hajmini ham shuncha miqdorga oshirilishiga olib keladi. Bu holat balanslashgan byudjet multiplikatori bilan izohlanadi.

Iqtisodiy pasayish paytida byudjetning davriy taqchilligi, diskret fiskal siyosat natijasida esa tarkibiy taqchilligi yuzaga keladi. Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning maqbul yo'li davlat qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni sotish hisobiga qarz olishdir.

Respublikamizda o'tkazilayotgan byudjet-soliq siyosati iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirish, soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish, barqaror iqtisodiy o'sishga shart-sharoit yaratish, yalpi talabni oshirish kabi maqsadlarga qaratilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Fiskal siyosatning mohiyati va uning vositalari. Davlat xarajatlari, soliq multiplikatori. Balanslashgan byudjet multiplikatori.
2. • Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi, ularni tugatish usullari qanday olib boriladi?

3. Fiskal siyosatning jami taklifga ta'sir qilish usullarini aniqlang.
4. Ochiq iqtisodiyot bilan yopiq iqtisodiyotdagi fiskal siyosatlarning farqini tushuntiring.
5. Davlat xarajatlari multiplikatori, soliq multiplikatori, byudjet ekspansiyasi siyosati,
6. Davlat byudjet kamomadi va profistiti tushunchalarini izohlab bering.
7. To'liq bandlik sharoitidagi byudjet tushunchasini izohlab bering.

Mavzu bo'yicha masalalar.

1-masala

Soliq funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega: $T = 350 + 0,1Y$, ijtimoiy transfertlar funksiyasi: $TR = 300 - 0,2 \times (Y - Y^*)$, davlat xaridlari – 200 sh.b. Milliy ishlab chiqarishning potensial hajmi $Y^* = 1000$. Davlat byudjetining saldosini aniqlang, agar milliy ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi potensialga nisbatan 100 sh.b ga kam.

Yechish:

1. Soliq funksiyasidan foydalangan holda yig'ilgan soliqlar miqdorini hisoblaymiz:

$$T = 350 + 0,1 \times 900 = 440 \text{ sh.b.}$$

2. Byudjetning xarajatlar qismini hisoblaymiz. U ijtimoiy transfertlar va davlat xaridlaridan tashkil topgan:

$$\text{Xarajatlar} = 300 - 0,2 \times (900 - 1000) = 520 \text{ sh.b}$$

Byudjet xarajatlar va daromadlar o'rtaqidagi farqni aniqlaymiz:

$$450 - 520 = -70 \text{ sh.b.}, \text{ demak, byudjetda defitsit mavjud bo'lib, u } 70 \text{ sh.b. ni tashkil qiladi.}$$

2-masala

Mamlakat iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi:
Haqiqiy daromod (Y) = 8000 sh. b. Iste'molga chekli moyillik = 0,8.

$$\text{Muvozonali daromad } (Y^*) = 8600 \text{ sh.b.}$$

- Iqtisodiyot muvozanatga ($Y^* = 8600$ sh.b.) erishish uchun davlat xarajatlari qanday o'zgarishi kerak, boshqa holatlar teng bo'lsa?
- Iqtisodiyot muvozanat holatiga erishish uchun, boshqa holatlar teng bo'lgan sharoitida soliq tushumlarining miqdori qanday o'zgarishi kerak?

Yechish:

- Daromadning o'zgarishiga davlat xaridlari o'zgarishining ta'sirini aniqlaymiz:

$$\Delta Y = \Delta G \times Mg,$$

Bu yerda, ΔY – daromadning o'zgarishi;

ΔG – davlat xaridlarining o'zgarishi;

Mg – xarajatlar multiplikatori..

$$\Delta Y = 8600 - 8000 = 600 \text{ u. e.}$$

$$Mg = 1 / (1 - MPC) = 1 / (1 - 0,8) = 5 \quad \Delta G = 600 / 5 = 120.$$

- Demak, iqtisodiyot muvozanat holatiga erishish uchun, davlat xarajatlari 120 sh. b.ga ko'payish kerak.

- Daromadning o'zgarishiga soliq tushumlari o'zgarishining ta'sirini aniqlaymiz:

$$\Delta Y = \Delta T \times Mn,$$

Bu yerda: ΔY – daromadning o'zgarishi;

ΔT – soliqlarning o'zgarishi;

Mn – soliqqa tortish multiplikatori.

$$Mn = -MPC / MPS = -0,8 / 0,2 = -4 \quad \Delta T = 600 / -4 = -150 \text{ sh. b.}$$

Shunday qilib, soliq tushumlari 150 sh.b. ga kamaysa, iqtisodiyot muvozanat holatiga erishadi.

3-masala

Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi:
 Imaqiydaromad $u = 4\ 000$ mln. AQSH doll., iste'molga moyillik $Sy = 0,8$, To'liq bandlik sharoitida daromad $Uf = 4\ 200$ mln. AQSH doll.

Iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitiga yetish uchun, hukumat soliq tushumlarni miqdorini qancha o'zgartirish kerak?

Yechish:

1. Masalaning sharti bo'yicha hukumat daromadni 200 mln. AQSH doll.ga ko'paytirish kerak:

$$\Delta y = y_F - y = 4 \cdot 200 - 4 \cdot 000 = 200 \text{ mln. AQSH doll.}$$

qiladi., ya'ni milliy daromadni ko'paytirish uchun soliq tushumlarini kamaytirish lozim.

Soliqlar milliy darmadga teskari m.

Davlat soliqlar tushumini qanchaga kamaytirishni aniqlaymiz. Uni hisoblash uchun multiplikator modelidan foydalanamiz:

$$\Delta y = -Cy / (1 - Cy) \cdot \Delta T.$$

Bu yerda, Sy – iste'molga chekli moyillik.

Ma'lumotlarni formulaga qo'yamiz:

$$200 = -0,8 / (1 - 0,8) \cdot \Delta T;$$

$$200 = -0,8 / (0,2 \cdot \Delta T);$$

$$200 = -4 \cdot \Delta T;$$

$$\Delta T = 200 / -4 = -50 \text{ p.b.}$$

Javob: davlat soliqlarni 50 p.b. ga kamaytirish kerak.

3-masala

O'tgan yili mamlakat iqtisodiyotida retsessiya holati kuzatildi, Shu sababli, haqiqi daromad (Y) 8000 mlrd sh.b.ga teng bo'ldi, bu esa 600 mlrd sh.b.ga muvozanat daromadga (Y^*) nisbatan kam. Mamlakatda jamg'armaga chekli moyillik = 0,2.

Aniqlang:

1.m Iqtisodiyot muvozanat holatiga erishish uchun, boshqa holatlar teng bo'lgan sharoitida davlat xaridlari xarajatlari miqdori qanday o'zgarishi kerak?

2. Iqtisodiyot muvozanat holatiga erishish uchun, boshqa holatlar teng bo'lgan sharoitida soliq tushumlarining miqdori qanday o'zgarishi kerak

Yechish:

Bu yerda , ΔY – daromadning o‘zgarishi;

ΔG – davlat xaridlarining o‘zgarishi;

Mg – xarajatlar multiplikatori.

$$\Delta Y = 8600 - 8000 = 600 \text{ mldr sh.b..}$$

Agar jamg‘armaga chekli moyillik (MPS) = 0,2 teng bo‘lsa, unda iste’molga chekli moyillik (MPC) = 0,8.

$$MPS + MPC = 1$$

$$Mg = 1 / (1 - MPC) = 1 / (1 - 0,8) = 5$$

$$\Delta G = 600 / 5 = 120 \text{ mldr sh.b.}$$

Demak, iqtisodiyot muvozanat holatiga erishish uchun davlat xaridlarini 120 mldr. p.b.ga etkazish kerak.

1) $\Delta Y = \Delta T \times Mn$,

gde ΔY – daromadning o‘zarishi;

ΔT – soliqarning o‘zgarishi;

Mn – soliqqa tortishning multiplikatori.

$$Mn = -MPC / MPS = -0,8 / 0,2 = -4$$

$$\Delta T = 600 / -4 = -150 \text{ mldr p.b.}$$

Demak, iqtisodiyot muvozanat holatiga erishish uchun soliqlarni 150 mldr. p.b.ga kamaytirish kerak.

Mustaqil yechish uchun masalalar

1. Mamlakatda haqiqiy YalM 2000 mln.sh.b.ni tashkil qildi. Mamlakatda to‘liq bandlikni ta’minlash maqsadida hukumat davlat xaridlarini 100 mln.sh.b.ga kamaytirdi va soliqlarni 50 mln.sh.b.ga ko‘paytirdi. Agar iste’molga chekli moyillik 0.75 ga teng bo‘lsa yalpi tekki mahsulotning potensial hajmini aniqlang.

2. Mamlakat iqtisodiyotida tabiiy ishsizlik darajasi 7 %ni tashkil qildi, haqiqiy ishsizlik esa-9%. YalMning potensial hajmi 3000 mldr. doll. Oukan koeffitsiyenti 2,5ga teng. Hukumat iqtisodiyotni barqaror-Ishtirish uchun qanday siyosat o‘tkazish kerak, agar iste’molga chekli moyillik 0.9 ga teng bo‘lsa?

3. Mamlakat iqtisodiyotida nominal YalM 3346,5 mldr.p.b. ga teng, potensial YalM esa – 3000 mldr. p.b.. inflyatsiya darajasi yiliga 15 %ni

tashkil qilyapti. Iqtisodiyotni baqarorlashtirish uchun hukumat davlat xaridlarini va soliqlarni o'zgartirmoqchi. Bu yerda farqning 2/3 qism davat xaridlarini o'zgartirish va 1/3 qismi esa soliqlarni o'zgartirish hisobiga qisqarish kerak. Agar iste'molga chekli moyillik 0.8 ga teng bo'lsa.

4. Davlat qarzi yil boshida 300 mldr p.b. tashkil qildi. Nomina davlat xarajatlari qarzni to'lash bilan bog'liq xarajatlarsiz-40 mldr. p.b. teng. Yil davomida narxlar darajasi 5 %ga ko'paydi, nominal foiz stavkasi – 10%, nominal soliq tushumlari – 50 mldr. p.b. Davlat qarzini qaytarish bo'yicha nominal foiz to'lovini, davlat qarzining real miqdorini, va yil boshidagi byudjet defitsiti miqdorini aniqlang.

5. Faraz qilaylik, davlat xaridlari 500 p.b. ga teng, soliq funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega, $T=0,4Y$, transfertlar funksiyasi $F=0,2Y$, narxlar darajasi $R=1$. Davlat qarzi $D=1000$, foiz stavkasi $R=0,1$. YalMning haqiqiy hajmi 2000 p.b. teng, potensial esa 2500 p.b. ni tashkil qilyapti.

- a) davlat byudjeti saldosи defitsit yoki prfitsitmi?
- b) Davlat byudjeti strukturali defitsitining miqdori qancha?
- c) Davlat byudjeti davriy defitsitining miqdori qancha?

6. Mamlakat xorijiy moliyaviy institutlardan 1000 mldr. AQSH dollari miqdorida, yillik 8 % stavkasida kredit oldi. Hukumat ushbu mablag'larni investitsion loyihalarga yo'naltiradi va bu YalMning bir necha yil davomida yiliga 300 mln. AQSH dollariga ko'payishiga olib keladi.

Aniqlang:

- a) davlat qarzi qanchaga ko'payadi?
- b) ushbu mamlakat soliq to'lovchi fuqarolarining sof qarz yuki ko'payadimi?
- c) necha yildan keyin qarzni uzishi mumkin?

7. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi: real foiz stavkasi -3%, YalMning real o'sish darajasi 7%, davlat qarzining YalM nisbati 50% teng, davlat byudjetining birlamchi defitsiti YalMning 5 %ni tashkil qiladi. Davlat qarzining YalMga nisbati o'sishi yoki kamayishini hisoblang.

X BOB. PUL BOZORIDAGI MUVOZANAT

10.1. Pul taklifi modeli

Pul taklifining asosiy qismi qog'oz pullar va chek qo'yilmalari hisoblanadi.

Qog'oz pullar – respublika markaziy banki tomonidan muomalaga qo'yilgan naqd pullardan iborat.

Chek qo'yilmalari esa tijorat yoki xalq banklarining qarz mujburiyatlaridan iborat. **Pul bozori** – bu mamlakatdagi pul miqdori **hamda foiz stavkasining turli darajalarida pul mablag'lariga bo'lgan talab** va pul taklifining o'zaro nisbatini ifodalovchi **mexanizm**.

Pul taklifi – bu bozorda pul sifatida muomalada bo'lgan turli-tuman moliyaviy mablag'lar, ya'ni pul agregatlari yig'indisi hisoblanadi.²³

Pul taklifi multiplikatori – bu bankdagi pul depozitlari qo'shimcha ravishda o'sgan hajmining majburiy zaxiralar qo'shimcha hajmiga nisbati bo'lib, pul mablag'larining bir birlikka ko'payishi iqtisodiyotdagi pul taklifining qanchaga o'sishini ko'rsatadi:

$$m = \frac{M_s}{R} \quad \text{ëku} \quad m = \frac{1}{r},$$

bu yerda,

m – pul taklifi multiplikatori koeffitsiyenti;

M_s – bankdagi pul depozitlarining qo'shimcha ravishda o'sgan hajmi;

R – majburiy zaxiralar qo'shimcha hajmi;

r – majburiy zaxiraning foizdagi me'yori.

Pulga bo'lgan umumiy talab bitimlar

²³ McConnell, Bruce. Economics: principles, problems and policies. 17th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2008, pages 229

Pul taklifi modeli (M_c) o‘z ichiga bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar (**C**) va zarur bo‘lganda iqtisodiy agentlar ishlatishi mumkin bo‘lgan depozitlarni (**D**) oladi:

$$(M_c) = S + D$$

Bundan tashqari, qog‘oz pullar va chek qo‘yilmalari haqiqiy qiymatga ega emas. O‘n so‘mlik kupyura -bu, bir bo‘lak qog‘oz yoki chek qo‘yilmalari hisobxonasi kitobidagi oddiy yozuvdan iborat. Tanga pullarning esa, bilamizki, haqiqiy qiymati nominal qiymatdan kam. Davlat qo‘lingizdagi qog‘oz pullarni qiymati yuqoriroq bo‘lgan bo‘lsa ham, oltunga almashtirmaydi.

Ikkinchidan, pul qiymati. Agarda qog‘oz pullar va chek qo‘yilmalari qiymat beradigan ichki xususiyatga ega bo‘lmasa ya oltin yoki boshqa metall qiymatliklarga almashinmasa nima uchun ular pul hisoblanadi? O‘n so‘mlik kupyuraga yoki yuz so‘mlik cheklarga qiymat qanday beriladi? Bu savollarga javob olish uchun quyidagi uchta jihatni qarab chiqamiz:

1. Yaroqliligi. Naqd va chek qo‘yilmalarini oddiy sababga ko‘ra, insonlar pul sifatida qabul qiladi, amaliyatda ular asosan pul vazifasining asosiy qismini bajarishadi va muomala vositasi sifatida qabul qilingan. Masalan, siz do‘konda qog‘oz pullarni kiyim – kechakka almashtirasiz. Nima uchun? Sotuvchi bu qog‘oz bo‘lagini qabul qilib oladi. Javob oddiy – sotuvchi biladi, uni boshqa birovlar ham tovarga almashtiradi.

2. Qonuniy to‘lov vositasi. Qog‘oz pullarga ishonchimiz qonunlarga asoslangan. Davlat naqd pullarni qonuniy to‘lov vositasi sifatida e‘lon qilgan.

3. Nisbiy kamligi. Pul qiymati uning foydaliligiga nisbatan kamligi bilan aniqlanadi. Pulning foydaligi uning hozir va kelajakda tovar va xizmatlarga erkin almashtirish qobiliyatidan kelib chiqadi. Iqtisodiyotda pulga bo‘lgan talab bajarilgan ishlarning so‘mdagi qiymati plus korxona va individlarning keyinchalik biror ishni amalgalashirish uchun zarur bo‘ladigan pullar miqdori orqali aniqlanadi.

Pulning real qiymati yoki to‘lov qobiliyati pul birligiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori orqali aniqlanadi. Tovar va xizmatlarni sotib oladigan pulning qiymati baho darajasi bilan teskari aloqnga ega. Narxlar qancha yuqori bo‘lsa, pulning to‘lov qobiliyati shunchalik past bo‘ladi va aksincha. Umumiy pul taklifi nafaqat joriy hisoblardagi mablag‘lardan (D), balki aholi qo‘lidagi naqd pullardan (C) ham tashkil topadi. Shuning uchun pul taklifining umumiy modelini pullarni bank depozitlaridan naqd pulga mumkin bo‘lgan oqib o‘tishini hisobga olib tuziladi.

$$M = (1/r) \times D$$

Bunda, **M**— pul taklifi hajmi;

r majburiy zaxiralash normasi;

D dastlabki omonat.

Keltirilgan formuladan ko‘rinib turibdiki, pul taklifi majburiy zaxiralash normasiga bog‘lik bo‘lib, uni bank multiplikatori yoki pul ekspansiyasi multiplikatori, deb ataladi. U ushbu bank zaxiralar normasida ortiqcha zaxiralarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo‘lgan yangi kredit pullarining eng ko‘p miqdorini bildiradi.

Mamlakatdagi pul bazasini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$MV = S + R$$

Bu yerda, **MV** – pul bazasi; **S** – naqd pullar hajmi; **R** – bank rezervlari.

10.2. Pul bozorida muvozanatga erishish va pul multiplikatori

Pulga bo‘lgan talab va taklifni birlashtirib pul bozorini va foiz stavkasining tengligini aniqlashga harakat qilamiz. To‘g‘ri chiziq shakllidagi pul taklifi umumiy holda berilgan. Ya’ni pul-kredit va mollyn tashkilotlari iqtisodiyotni ma’lum bir miqdordagi pul hajmi bilan ta’minlab turadi. Resurslar va mahsulotlar bozoridagiga o‘xshab pulga talab va taklif to‘g‘ri chiziqlarining kesishishi muvozanat nuqtani bildiradi. Bunday holatda baho tengligi bo‘lib foiz stavkasining tengligi

hisoblanadi yoki u puldan foydalanganlik uchun to‘langan bahodan iboratdir (10.1-chizma).

Uni sodda ko‘rinishda quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$MV = PY;$$

Bunda, **M** – muomalaga chiqarilgan pul;

V – pulning aylanish tezligi;

P – YaMM deflyatori;


U – real YaMM.

Ushbu ayniyatni pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi deb aytildi. Uning chap qismi (**MB**)-bu, real pul zaxirasining taklifini, o‘ng qismi (**PU**) nominal YaMMni ifodalaydi.

Masalan, iqtisodiyotda 1000 birlik pul muomalada bo‘lsaq, unda har bir pul birligi yil davomida uch marta qo‘ldan-qo‘lga o‘tsa yoki bir yilda 3 ta bitimga (oldi-sotdi) xizmat qilsa (**B**), unda pul zaxirasi taklifi real hisobda 3000 ga teng (**MB**). **U** mamlakatdagi bitimlarning umumiy soniga, ya’ni nominal YaMM hajmiga (**RU**) muvofiq kelishi mumkin.

Pul bozorida qanday qilib tenglikga erishish mumkin?

Bu savollarga yuqoridagi chizmadan foydalangan holda javob berishga harakat qilamiz. Ushbu chizmada ko‘ringanidek, pul taklifi 200 mlrd. so‘mdan 150 mlrd. so‘mga kamaygan bo‘lsin. Talab qilinayotgan pullar miqdori taklif qilingan pullar miqdoridan oldingi muvozanatga nisbatan 50 mlrd. so‘mga ko‘p. Bunday holatda odamlar o‘zlarida mavjud bo‘lgan moliyaviy aktivlarni sotish orqali moslashtirishga harakat qilishadi. Obligatsiyalarni sotish orqali pulga ega bo‘lish boshqa birovlar uchun pulni yo‘qotish hisoblanadi.



10.1-chizma. Pul bozorida tenglikga erishish.

Umuman, 150 mlrd. so‘m naqd pul mavjud. Obligatsiyalarni sotish orqali jamoa bo‘lib, ko‘p naqd pulga ega bo‘lish bozorga obligatsiyalar talabiga nisbatan taklifni ko‘paytiradi va ularning narxini tushiradi. Obligatsiyalar narxining pasayishi foiz stavkalarini oshiradi. Maxsus, ming so‘mlik nominal qiymatdagi obligatsiyani sotish natijasida 50 so‘mlik doimiy foizlar to‘lansa, yillik o‘rtacha foiz stavkasi 5 foizga teng bo‘ladi.

$$50 / 1000 = 5\%$$

Obligatsiyalar taklifining ko‘payishi natijasida ularning narxi 667 so‘mga tushib qoldi, deylik. Bunday holda obligatsiyalarni sotib oluvchilar uchun obligatsiyaning 50 so‘mlik doimiy foiz stavkasi 7,5 foizga teng bo‘ladi.

$$50 \text{ so‘m} / 667 \text{ so‘m} = 7,5\%$$

Chizmadan ko‘rinib turibdiki, 200 mlrd. so‘mlik pul taklifi davridagi 5 % li foiz stavkasi, 150 mlrd. so‘mlik pul taklifi sharoitida 7,5 % oshgan. Foiz stavkalarining oshishi pulni saqlashdagi xarajaturni oshiradi va pul miqdorini kamaytiradi. Boshqacha

aytganda, talab qilinayotgan pullar 200 mlrd. so‘mdan 150 mlrd. so‘mga tushadi. Shunga e’tibor berishimiz kerakki, 7,5 % li foiz stavkasi sharoitida pulning talabi va taklifi 150 mlrd. so‘mga tenglashadi. Aksincha, pul taklifini 200 mlrd. so‘mdan 250 mlrd. so‘mga ko‘paytirish 50 mlrd so‘mlik pulning ortiqchalogiga olib keladi. Odamlar obligatsiyani ko‘proq sotib olish hisobiga puldan qutilishga harakat qilishadi. Ayrimlar tomonidan pulning xarajat qilinishi boshqa birovlarning pulga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Shuning uchun jamoa tariqasida obligatsiyalarни ko‘p miqdorda sotib olish ularga bo‘lgan talabni oshiradi va narxning oshishiga olib keladi. Obligatsiyalar narxining oshishi foiz stavkalarini pasaytiradi. Masalan, yillik normasi 50 so‘mlik foiz stavkasiga ega bo‘lgan obligatsiyalar endi 2000 so‘m bo‘lsin.

$$50 \text{ so‘m} / 2000 \text{ so‘m} = 2,5\%$$

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelamizki, birinchidan, obligatsiyalar narxi va foiz stavkalari teskari bog‘liqlikka ega, ikkinchidan, pul bozoridagi nomuvozanat holat obligatsiyalar narxining o‘zgarishiga va u ‘orqali foiz stavkasining o‘zgarishiga, uchinchidan, foiz stavkalarining o‘zgarishi insonlarning pulni saqlashga tayyorlanishiga ta’sir qiladi, to‘rtinchidan, insonlarning pulni saqlashga tayyorgarligi o‘zgarishi pul bozoridagi muvozanatni tiklaydi va beshinchidan, muvozanatli foiz stavkasi taklif qilinayotgan va talab qilinayotgan pullar miqdorini tenglashtiradi.

Yuqori darajali foiz stavkasi investitsiya va iste’mol xarajatlarini kamaytiradi va aksincha, foiz stavkalarining past darajasi investitsiya va iste’mol xarajatlarini oshiradi. Ushbu vaziyatlarning ikkalasi ham ishlab chiqarish, bandlik va baho darajalariga ta’sir etadi.

Pul bozorida muvozanatni o‘rnatish va saqlab turish mexanizmi qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida muvafaqqiyatli amal qiladi. Pul bozoridagi muvozanat tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanat singari makroiqtisodiy muvozanatning muhim tarkibiy qismidir.

10.3. Monetar siyosatning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari)

Indikator so'zi lotincha «indicator» degan so'zdan olingan bo'lib, ko'rsatkich degan ma'noni anglatadi. Fransiyalik mutaxassislar

I. Bernar va J. Kolli tomonidan yozilgan va rus tiliga o'girilgan 2 томлик «Толковый экономический и финансовый словарь»да индикатор тушunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «индикатор – это меры, показывающие, каким образом достигаются цели национальной политики в области экономики и финансов. Индикаторы – это меры, показывающие, каким образом достигаются цели национальной политики в области экономики и финансов».

A.N. Azriliyan tahriri ostida chop tiigan «Большой экономический словарь»да ham indikator tushunchasi iqtisodiy va moliyaviy miqdorlar o'zgarishining raqamli ko'rsatkichi sifatida talqin etilgan. Indikator tushunchasining yuqorida keltirilgan talqiniga asoslangan holda, pul-kredit siyosatining indikatoriga quyidagicha ta'rif berish mumkin: “Markaziy bank pul-kredit siyosatining indikatori – bu milliy valyutaning va mamlakatda baholar barqarorligini ta'minlash tadbirlarining samaradorligini baholashda o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy miqdorlar o'zgarishining raqamli ko'rsatkichidir”.

Yuqorida keltirilgan ta'rifda milliy valyutaning va baholar barqarorligini ta'minlash tadbirlari deyilishining sababi shundaki, hozirgi davrda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida, shu jumladan o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida markaziy banklar pul-kredit siyosatining bosh maqsadi bo'lib, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va mamlakatda baholar barqarorligiga erishish hisoblanadi.

Baholar barqarorligini ta'minlash faqatgina EMBning bosh maqsadi hisoblanmaydi. Buning sababi shundaki, EMB pul-kredit siyosatini amalga oshirishda butun diqqat e'tiborini faqat yevro ning barqarorligini ta'minlashga qaratadi, baholar darajasiga ta'sir etishni monetar siyosatning pirovard maqsadi, deb hisoblamaydi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirish va uning samaradorligini baholashda aniq ko'rsatkichlardan foydalanish masalasi qator taniqli iqtisodchi olimlar tomonidan ilgari surilgan va

tadqiq qilingan. Ayniqsa, zamonaviy monetarizm nazariy oqimining asoschisi professor Milton Fridmen o‘zining ilmiy izlanishlarida bu masalaga alohida e’tibor qaratgan. Shuningdek, J. Keyns, A. Meltser, K. Brunner, R. Lukas, K. Uorberton kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida ham mazkur masalaga jiddiy e’tibor qaratilgan. Hozirgi vaqtida pul-kredit siyosatining indikatori sifatida asosan pul massasining o’sishi, milliy valyutaning almashuv kursi, inflyatsiya darajasi ko’rsatkichlaridan foydalanilmoqda.

Dunyoning ko’pchilik mamlakatlarida valyuta kursidan monetar indikator sifatida foydalanilayotganligining sababi shundaki, ularda milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayib ketishidan kuchli xavotirlanish mavjud. Shuning uchun ham mazkur mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklari valyuta kursini tartibga solish siyosatini olib boradilar yoki garchi milliy valyuta qonunchiligidagi erkin suzish rejimi aks ettirilgan bo‘lsa-da, valyuta intervensiysi orqali milliy valyutaning almashuv kursiga ta’sir etish siyosati davom ettiriladi. Lekin qayd etish joizki, bu guruhdagi mamlakatlarning asosiy qismi milliy valyutaning almashuv kursidan pul-kredit siyosati indikatori sifatida foydalanayotganliklarini rasman e’tirof etmaydilar.

Agarda ushbu shartning bajarilishi ta’milnagan bo‘lsa, u holda, milliy valyutaning kursi valyuta bozoridagi xorijiy valyutaga bo‘lgan talab va taklif asosida shakllanmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, almashuv kursiga ta’sir qiluvchi omillarning ta’sir mexanizmini baholash imkonini bermaydi. Xususan, xorijiy valyutalar savdosi valyuta bozorida buyurtma asosida amalga oshiriladigan mamlakatlarda Markaziy bank, milliy valyutaning qadrsizlanish sur’atini pasaytirish maqsadida, ma’lum bir davriy oraliqlarda konversion operatsiyalar bo‘yicha berilgan buyurtmalarning ma’lum qismini qabul qilmaslik kabi ma’muriy usullardan foydalanishi mumkin.

Bundan tashqari, Markaziy bank yoki hukumatning milliy valyuta kursini shakllantirish jarayoniga faol tarzda aralashuvi valyuta kursining o‘zgarishini omilli tahlil qilish va prognozlashni amalgा

oshirish imkonini bermaydi. b) Markaziy bankning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligining ta'minlanganligi. Xalqaro bank amaliyotida Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi deganda, odatda, uning monetar instrumentlardan cheklovlsiz, mustaqil tarzda foydalanish imkoniyatining mavjudligi tushuniladi.

Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi deganda esa, uning pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda hukumat va davlat boshqaruvi organlaridan mustaqilligi tushuniladi. Markaziy bankning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligining ta'minlanmaganligi unga pul-kredit siyosatining bosh maqsadiga, ya'ni milliy valyuta va baholar burqarorligini ta'minlashga erishish imkonini bermaydi. d) Markaziy bankning yetarli darajada oltin-valyuta zaxiralariiga ega bo'lishi. Markaziy bankning yetarli darajada oltin-valyuta zaxiralariiga ega bo'lishi valyuta intervensiyasini zarur hajmda va o'z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa, milliy valyutaga bo'lgan ishonchni mustahkamlash nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi, chunki valyuta intervensiyasini muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish milliy valyuta kursining favqulodda yuzaga keladigan keskin tebranishlariga o'z vaqtida barham berish imkonini beradi. Yetarli darajada oltin-valyuta zaxiralariiga ega bo'lмаган Markaziy banklar milliy valyutaning almashuv kursiga samarali ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. e) Hukumat tashqi qarzini to'lashning takomillashgan mexanizmini shakllantirilganligi. Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, hukumatga va davlat organlariga tegishli bo'lgan oltin-valyuta zaxiralaring barchasi. Markaziy bankning balansiga o'tkazildi va hukumat o'zining tashqi qarzini to'lash to'g'risidagi topshirignomani Markaziy bankka uzatganda, tashqi qarz summasi Markaziy bankning balansidagi oltin-valyuta zaxiralari hisobidan to'kunadi. Haqiqatda to'langan tashqi qarzning milliy valyutadagi ekvivalenti Markaziy bank tomonidan hukumatning joriy hisobraqamidan chegirib olinadi. Hukumatning joriy hisobraqamida

to‘lanadigan tashqi qarzning milliy valyutadagi ekvivalenti mayjud bo‘lmagan sharoitda

Markaziy bank tashqi qarzni to‘lash to‘g‘risidagi topshiriqnomani qabul qilmasligi shart. Shunisi xarakterlik, inflyatsiya va pul massasi o‘rtasidagi bog‘liqlik har doim ham to‘g‘ri mutanosiblik xarakteriga ega bo‘lavermaydi. Ayrim hollarda inflyatsiyaning pasayish sur’ati sharoitida muomaladagi pul massasi o‘sish sur’atiga ega bo‘ladi. Masalan, Yaponiyada 1980— yilda inflyatsiyaning yillik darajasi 3 foizga pasaygani holda, muomaladagi pul massasining yillik o‘sishi 15 foizni tashkil etdi. Bu holatni hisobga olish, ayniqsa, inflyatsiyaning maqsadli ko‘rsatkichidan pul-kredit siyosatining indikatori sifatida foydalanayotgan mamlakatlar uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, inflyatsiyaning maqsadli ko‘rsatkichiga erishishda ko‘zda tutilgan omillarning ta’sir darajasini baholashda xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunining 23-moddasiga muvofiq, Markaziy bank “pul massasi yillik o‘sish sur’atining aniq maqsadli ko‘rsatkichlarini” belgilaydi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-fevraldaggi 63-sonli “Pul-kredit ko‘rsatkichlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining zimmasiga pul massasining o‘sishini nazorat qilish bo‘yicha quyidagi majburiyatlar yuklatilgan : – pul massasi ustidan samarali nazorat qilishni ta’minlash imkonini beruvchi pul aggregatlari, bank tizimi likvidlitigining va pulga bo‘lgan talabning omillar bo‘yicha tahlili va dinamikasini modellashtirish; – zaxira pullar va pul massasi o‘zgarishining choraklik va yillik maqsadli prognozlarini ishlab chiqish; – pul aggregatlari hajmlari va tarkibining o‘zgarishi, pul bozorining holati hamda zaxira pullar va pul massasi o‘zgarishining maqsadli prognozları bajarilishi ustidan doimiy monitoringni amalga oshirish. Bozor munosabatlariga o‘tayotgan

davlatlar, shu jumladan, Markaziy va Sharqiy Yyevro pa davlatlarida milliy valyutaning almashuv kursi ko'rsatkichidan pul siyosatining indikatori sifatida foydalanish hollari bir necha bor kuzatildi. Milliy valyutaning almashuv kursidan indikator sifatida foydalanishning afzalligini isbotlovchi muhim. Mualliflar tomonidan XVFning "International Financial Statistics" byulleteni (Washington D.C., 1982) ma'lumotlari asosida hisoblandi. Almashuv kursi odatda yetakchi valyutalarga, masalan, AQSH dollari, Gemaniya markasi, Yaponiya ieniga yoki valyutalar savatiga nisbatan bog'lab qo'yildi. Ayrim davlatlarda muomaladagi milliy valyutadagi pul massasini to'liq xorijiy valyutalar bilan ta'minlash rejimi qo'llanildi. Bunday rejim 1992-yildan boshlab Estoniyada, 1994-yildan boshlab Litvada, 1999-yil iyun oyidan boshlab Bolgariyada joriy qilindi. Yetarli darajada oltin-valyuta zaxiralariga ega bo'lman davlatlarda suzib yuruvchi kurs rejimidan foydalanildi yoki valyuta kursini belgilashda sun'iylikka yo'l qo'yildi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 1996-yil iyul oyidan boshlab o'zgaruvchan valyuta yo'lakchasi joriy qilindi. Milliy valyutaning almashuv kursidan pul-kredit siyosatining indikatori sifatida foydalanish unga qat'iy rioya qilishni talab etadi. Ushbu maqsadga erishish uchun pul-kredit siyosati, soliq-byudjet siyosati o'zaro muvosiqqlashtirilgan tarzda amalga oshirilishi lozim. Ana shundagina inflyatsiya darajasini sezilarli darajada pasaytirishga muvaffaq bo'linadi. Mamlakatning yirik miqdorda tashqi qarzining mavjudligi va uning o'sish tendensiyasiga ega ekanligi valyuta bozoriga nisbatan kuchli tazyiqni yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda milliy valyutaning sezilarli darajada devalvatsiya qilish lozim. Aks holda, Markaziy bank va hukumatning valyuta zaxiralari valyuta intervensiysi orqali keskin kumayib ketishi mumkin. Bunday sharoitda milliy valyutaning devalvatsiya qilish mamlakat korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi va almashuv kursi inqirozining oldini oladi.

Qat'iy belgilangan almashuv kursini joriy qilish ma'lum darajada inflyatsiyani jilovlab turish imkonini beradi, ammo uning 41

<http://www.Imf.org> 42 moslashuvchan bo'Imaganligi sababli inflyatsiyani pasayish sur'atlari sekin kechadi. Agar mamlakatda belgilangan nominal almashuv kursi mayjud bo'lgan sharoitda inflyatsiya darajasi savdo sheriklari bo'lgan mamlakatlardagiga nisbatan yuqori bo'lsa, u holda bu mamlakat valyutasining real almashuv kursi oshadi. Bunday sharoitda mehnat umumidorligining tegishli ravishda oshmasligi mamlakat korxonalarining tashqi raqobatbardoshligiga jiddiy putur yetkazadi va iqtisodiy o'sishni jilovlaydi.

Xalqaro amaliyotda aynan shunday holat bir necha mamlakatlarda kuzatildi. Masalan, 1996-yilning oxirida Chexiya Respublikasida iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatildi. Bu holatning sabablari tahlil qilinganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, mamlakatda real ish haqining o'sish sur'atlari mehnat unumidorligining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'ldi, eksport sohasida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi mamlakat hukumati tomonidan milliy valyutaning almashuv kursini devalvatsiya qilinishiga olib keladi. Ammo bu inflyatsiyani kuchaytiruvchi manbadir. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishilgan paytda suzuvchi almashuv kursi Markaziy bankka, mamlakatning xo'jalik subyektlariga ichki va tashqi iqtisodiy konyunkturaning favqulodda yuzaga keladigan o'zgarishlariga moslashish imkonini berishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul bazasi orqali muomaladagi pul massasiga bevosita va faol tarzda ta'sir etish imkoniyatiga ega. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki majburiy zaxira siyosatidan an'anaviy monetar instrument sifatida faol tarzda foydalanmoqda. Majburiy zaxira ajratmalari esa pul bazasining muhim elementi bo'lib, pul massasining multiplikativ ko'payishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pul bazasining elementlaridan yana biri tijorat banklarining Markaziy bankning balansidagi "Vostro" vakillik hisobraqamlarining qoldiqlari bo'lib, Markaziy bankning obligatsiyalarini tijorat banklariga sotish yo'li bilan uning miqdorini

kamaytirish mumkin. Yoki Markaziy bankning REPO operatsiyalaridan foydalanish orqali “Vostro” vakillik hisobraqamlarining qoldiqlari miqdorini oshirish mumkin. Bunda, ayniqsa, Markaziy bank tomonidan qimmatli qog‘ozlarni qaytarib sotib olish sharti bilan sotish usulidan keng foydalanish mumkin. Amalda tijorat banklarining pullari Markaziy bankning pullari asosida shakllanadi. Pul bazasining keskin qisqarishi pul agregatlari miqdorining kamayishiga olib keladi. Buning sababi shundaki, tijorat banklarining “Nostro” vakillik hisobraqamlari qoldiqlarining kamayishi birinchi navbatda ularning balansidagi depozitlar miqdorining kamayganligini anglatadi. “Keng” pul bazasi tarkibiga odatda tijorat banklarining Markaziy bankning balansida ochilgan vakillik hisobraqamlarining qoldiqlari, muomalaga chiqarilgan naqd pullar va majburiy zaxira ajratmalari kiradi (shunisi xarakterliki, respublikamiz tijorat banklari milliy valyutada faqat bittagina vakillik hisobraqamiga ega bo‘lib, u ham bo‘lsa Markaziy bankning balansida ochilgan vakillik hisobraqamidir). Vakillik hisobraqamlari qoldiqlarining banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan miqdordan yuqori bo‘lishi tijorat banklarining kredit faolligini past ekanligidan, bank aktivlari daromadlilik darajasining yetarli darajada emasligidan va pul massasining multiplikativ asosda ko‘paytirish imkoniyatidan to‘liq foydalanilmayotganligidan dalolat beradi. Buning sababi shundaki, muomaladagi pullarning asosiy qismi tijorat banklari kredit emissiyasining natijasidir. Banklarning vakillik hisobraqamlarida pul mablag‘larining to‘planishi jalb qilingan mablag‘lardan va bankning o‘z mablag‘laridan aktiv operatsiyalarda va, birinchi navbatda, kredit operatsiyalarida foydalanilmayotganligidan dalolat beradi. Masalan, tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi “Nostro” vakillik hisobraqamlarida vaqtinchalik valyuta mablag‘larining yetishmasligi muammosi xorijiy vakil bankning overdraft kreditlari orqali qisqa vaqt oralig‘ida hal qilinishi mumkin.

10.4. Majburiy zaxira siyosati

Majburiy zaxira siyosati Markaziy bank pul-kredit siyosatining an'anaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Bunda uch xil tushuncha qo'llaniladi:

1. Zaxira talablari (reserve requirements).
2. Minimal zaxiralar (minimum reserves).
3. Majburiy zaxiralar (legal reserves).

Majburiy zaxira siyosati monetar siyosatning instrumenti sifatida dastlab AQSH Federal zaxira tizimi (FZT) tomonidan mamlakat bank tizimining likvidliligiga ta'sir etish maqsadida joriy qilingan edi. Hozirgi davrga kelib majburiy zaxira siyosati muomaladagi pul massasini tartibga solishning, milliy bank tizimining likvidliligiga Markaziy bank tomonidan ta'sir etishning muhim, ta'sirchan vositasiga aylandi.

Markaziy bankning majburiy zaxira siyosati quyidagi uch funksiyani bajaradi: – tijorat banklarining kredit ekspansiyasini jilovlash; – milliy bank tizimining likvidliligiga ta'sir etish; – tijorat banki bankrot bo'lgan sharoitda uning majburiyatları yuzasidan hisoblashish.

Muomaladagi pul massasining asosiy qismi tijorat banklarining kredit emissiyasi natijasida vujudga keladi. Shu sababli, muomaladagi pul massasini tartibga solishda asosiy e'tibor tijorat banklarining kredit ekspansiyasini jilovlashga qaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, Markaziy bankning tijorat banklari kredit emissiyasiga bevosita va tezkor tarzda ta'sir qiladigan monetar instrumentlarga bo'lgan ehtiyojini yuzaga keltiradi. Majburiy zaxira talabnomasi, boshqa monetar instrumentlardan farqli o'laroq, tijorat banklarining kreditlash salohiyatiga bevosita va tezkor ta'sir etish xususiyatiga ega. Shu sababli, rivojlangan sanoat mamlakatlari markaziy banklari ham mazkur instrumentdan foydalanish amaliyotidan voz kechishmagan.

Bunga misol qilib AQSH FZTni, Yyevro pa Markaziy bankini (EMB) keltirish mumkin. Majburiy zaxira siyosati kam sonli

davlatlarda pul-kredit siyosatining instrumenti sifatida qo'llanilmaydi. Bunday davlatlar safiga Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya kabi davatlarni kiritish mumkin. Shu bilan birga, yevro zona mamlakatlarida ham majburiy zaxira siyosatining monetar instrument sifatidagi ahamiyatining pasayayotganligini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, EMB ning majburiy zaxira stavkasi barcha turdagи depozitlar uchun 2 % qilib belgilangan.

Markaziy bank pul-kredit siyosatining instrumentlaridan foydalanish amaliyoti takomillashmagan mamlakatlarda, xususan, ko'pchilik o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida majburiy zaxira siyosatidan Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri sifatida foydalanadi. Buning boisi shundaki, birinchidan, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ko'pchiligidagi moliya bozorlari rivojlanmagan bo'lib, bu holat Markaziy banklarning ochiq bozor siyosatini, qayta moliyalash siyosati va valyuta siyosatini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi; ikkinchidan, majburiy zaxira siyosati muomaladagi pul massasiga bevosita va tez ta'sir qilish xususiyatiga ega; uchinchidan, majburiy zaxira talablariga tijorat banklari tomonidan rioya etilayotganligi ustidan nazorat qilish oson. Buning sababi shundaki, Markaziy bank tijorat banklarining balans ma'lumotlarini doimiy tarzda olib turish amaliyotiga ega. Masalan, O'zbekiston Respublikasida Markaziy bankning tijorat banklarini litsenziyalash va ular faoliyatini tartibga solish bilan shug'ullanadigan departamenti xodimlari tijorat banklarining balans ma'lumotlarini doimiy va tezkor tarzda olishadi va ushbu ma'lumotlar asosida tijorat banklari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishadi. Shunisi xarakterlik, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ko'pchiligidagi, xususan,

O'zbekiston, Rossiya va Qozog'istonda ochiq bozor siyosati, qayta moliyalash siyosati kabi an'anaviy monetar instrumentlardan foydalanish mexanizmi takomillashmaganligi sababli majburiy zaxira siyosatidan asosiy monetar instrument sifatida foydalilanadi.

Mazkur mamlakatlarda majburiy zaxira stavkalari boshqa mamlakatlardagiga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir. Majburiy zaxira siyosati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy, an'anaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, respublika Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarining rivojlanmaganligi, Davlat byudjeti defitsitining mavjud emasligi, rezidentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar investitsion jozibadorligining past ekanligi majburiy zaxira siyosatining monetar instrument sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi, deb hisoblaymiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldaggi PQ1166-sonli "Tijorat banklarining investitsiya loyihibarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxira stavkalari 2009-yilning 1-sentyabridan boshlab, depozitlarning muddatiga bog'liq tabaqlashtirildi.

Respublika Markaziy bankining majburiy zaxira stavkalari 2007-yilning sentyabr oyida unifikatsiya qilindi va tijorat banklarining barcha depozitlari uchun yagona 15% qilib belgilandi. 2008-yil noyabrdan boshlab, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2,0 foizli punktga oshirildi. 2001-2005-yillar mobaynida respublika Markaziy bankining tijorat banklarining so'mdagi depozitlariga nisbatan belgilagan majburiy zaxira stavkalarining sezilarli darajada pasayib borishi kuzatildi. Bu esa, xorijiy valyutalarga nisbatan tranzaksion depozitlar shaklida yuzaga keladigan talab summasini sezilarli darajada oshishiga olib keldi va majburiy zaxira talabnomalarining tijorat banklarining depozit bazasiga nisbatan salbiy ta'siri saqlanib qoldi. 2009-2017-yillarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxira stavkalari tijorat banklari depozitlarining muddatiga bog'liq ravishda tabaqlashtirildi. Bundan ko'zlangan maqsad – tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini

mustahkamlashga ko'maklashish. Yyevro muomalaga kiritilgunga qadar

Yyevro pa Ittifoqiga (Yel) a'zo bo'lgan mamlakatlarning ichida majburiy zaxira stavkasi nisbatan Italiya va Ispaniyada yuqori bo'lib (20 foizgacha), inflyatsiya yillik darajasini ushbu ikkala mamlakatda Yelning boshqa mamlakatlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi bilan izohlanadi. O'zbekistonda esa, 2018-yilga qadar majburiy zaxira stavkalarining darajasini belgilashda inflyatsiya omilini hisobga olishga zaruriyat yo'q edi. Chunki, bu davrda mamlakatimizda inflyatsiyaning mo'tadil darajasini ta'minlashga muvaffaq bo'lingan. Masalan, inflyatsiyaning yillik darjasи 2012-yilda 7,0 foizni tashkil etdi. Holbuki, ushbu ko'rsatkich 2001-yilda 26,6 foizni 81 tashkil etar edi. Biroq, 2017-yil yakuni bo'yicha mamlakatimizda inflyatsiyaning yillik darjasи 14,4 foizni tashkil etdi. 2007-yilning 1-sentyabridan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining xorijiy valyutadagi depozitlarga nisbatan o'rnatgan majburiy zaxira stavkasini 5 foizli punktga keskin oshirilishi, birinchidan, tijorat banklarining likvidliligiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi; ikkinchidan, tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi muddatli va jamg'arma depozitlariga foiz to'lash imkoniyatini keskin pasaytirib yuboradi. Bu esa, aholi qo'lidagi va korxonalar joriy hisob raqamlaridagi valyuta mablag'larini banklarning muddatli depozit hisobraqamlariga jalb etish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida aholi va korxonalar joriy hisobraqamlaridagi valyuta mablag'larini tijorat banklarining muddatli va jamg'arma depozit hisob raqamlariga jalb etish va ularni iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga kredit sifatida yo'naltirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifani hal etish, o'z navbatida, xorijiy valyutalarda banklarga jalb etilgan muddatli va jamg'arma depozitlariga to'lanadigan foiz stavkalarini oshirish yo'li bilan mazkur depozitlarning aholi va korxonalar uchun jozibadorligini oshirishni

taqozo etadi. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun Markaziy bank xorijiy valyutalardagi depozitlarga nisbatan belgilangan majburiy zaxira stavkalarini minimal darajaga keltirishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xorijiy valyutalardagi depozitlarga nisbatan belgilangan amaldagi zaxira stavkasini oshirish yo‘li bilan respublikamiz tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi muddatli va jamg‘arma depozitlariga foiz to‘lash imkoniyatini keskin pasaytiradi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining xorijiy valyutadagi depozitlariga nisbatan Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan majburiy zaxira stavkalarining sezilarli darajada (5-6 foizli punktdan 80 foizli punktgacha) oshirilishi, odatda, mamlakatga xorijiy valyutalar kirib kelishining kuchayishi oqibatida mamlakatning to‘lov balansida katta miqdorda ijobjiy saldoning paydo bo‘lishi va xalqaro zaxiralar miqdorining keskin ko‘payishi natijasida amalga oshiriladi. Shunisi xarakterliki, ayrim MDH davlatlarida (Rossiya, Qozog‘iston) so‘nggi yillarda markaziy banklarning majburiy zaxira stavkalarini pasayib borishi kuzatilmoqda.

Masalan, AQSHda 2007-yilning 20-dekabridan boshlab tranzaksion depozitlar bo‘yicha tabaqlashgan majburiy zaxira stavkalari quyidagicha bo‘lishi belgilab qo‘yildi: – 0 AQSH dollaridan 9,3 mln. AQSH dollarigacha bo‘lgan tranzaksion depozitlarga nisbatan 0 %; – 9,3 mln. AQSH dollaridan ortiq va 43,9 mln. AQSH dollarigacha bo‘lgan tranzaksion depozitlarga nisbatan 3 %; – 43,9 mln. AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan tranzaksion depozitlarga nisbatan 10 %. Ta’kidlash lozimki, AQSHda 1990-yil 20-dekabrdan buyon muddatli depozitlar va xorijiy valyutadagi depozitlar majburiy zaxira talabnomalaridan to‘liq ozod qilingan. AQSH misolida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, nisbatan katta miqdordagi tranzaksion depozitlarga nisbatan yuqori zaxira stavkalari belgilangan.

Chunki ular xorijiy valyutalarga bo‘lgan talabga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tijorat banklarining muddatli depozitlari esa majburiy zaxira talabnomalaridan ozod qilingan. Buning boisi shundaki,

muddatli depozitlar tijorat banklarining asosiy resurs manbai hisoblanadi va ularga nisbatan yuqori zaxira stavkalarining qo'llanilishi tijorat banklarining resurs bazasiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanada, Lyuksemburg, Shvetsiyada majburiy zaxira siyosatidan Markaziy bank pul-kredit siyosatining instrumenti sifatida foydalanilmasligining asosiy sababi, fikrimizcha, mazkur mamlakatlarda pul-kredit siyosatining ochiq bozor siyosati, qayta molialash siyosati, valyuta siyosati kabi an'anaviy instrumentlaridan foydalanish amaliyotining takomillashganligidir. Shu sababli, mazkur mamlakatlarda majburiy zaxira stavkalari orqali tijorat banklarining depozit bazasiga ta'sir qilish yo'li bilan ularning kredit ekspansiyasini jilovlash zaruriyati mavjud emas. Shunisi xarakterlik, majburiy zaxira stavkalarini depozitlarning summasi va muddatiga bog'liq ravishda tabaqalashtirish zaxira talabnomalari miqdorini hisoblash va uning to'g'ri hisoblanayotganligi ustidan Markaziy bank nazoratini amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Ammo qiyinchilikdan qochib, zaxira stavkalarini tabaqalashtirmaslik majburiy zaxira siyosatidan foydalanish amaliyotini takomillashtirish imkonini bermaydi.

Odatda, tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi depozitlariga majburiy zaxira talabnomalarini joriy etish to'lov balansining yirik miqdordagi profitsiti mavjud bo'lgan sharoitda milliy valyutaning revalvatsiyasiga yo'l qo'ymaslik maqsadida amalga oshiriladi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida esa, revalvatsiya muammosi mavjud emas. 2005-yildan 2012-yilga qadar so'm nominal almashuv kursining yetakchi xorijiy valyutalarga nisbatan pasayishi kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda: – Markaziy bankning majburiy zaxira tulabnomasi tijorat banklarining kreditlash salohiyatiga bevosita va kuchli ta'sir ko'rsatadi, shu sababli, bozor xarakteriga ega bo'lgan monetar instrumentlardan (ochiq bozor siyosati, diskont siyosati, valyuta siyosati) foydalanish amaliyoti takomillashmagan

mamlakatlarda majburiy zaxira talabnomalari tijorat banklari kredit ekspansiyasini jilovlashning eng qulay vositasi hisoblanadi; – qator rivojlangan davlatlarda Markaziy bankning majburiy zaxira talabnomalarining tijorat banklari resurs bazasiga nisbatan salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida majburiy zaxira stavkalari depozitlarning summasi va muddatiga bog'liq ravishda tabaqalashtirilgan; – O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank majburiy zaxira stavkalarini depozitlarning muddatiga bog'liq ravishda tabaqalash-tirilganligi tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qisqacha xulosalar

Pul emissiyasi faqat Markaziy bank vakolatiga kirsada, tijorat banklari ham kredit berib pul taklifini ko'paytirish qobiliyatiga ega.

Tijorat banklarining pul taklifini keltirib chiqarish imkoniyati majburiy zaxira normasini belgilash orqali tartibga solib turiladi.

Umumiy pul taklifi nafaqat joriy hisobkardagi mablag'lardan, balki aholi qo'lidagi naqd pullardan ham tashkil topadi. Pul taklifi miqdori majburiy zaxira normasi, deponentlash koefitsenti va pul bazasi miqdoriga bog'liq.

Mahsulotlar bozoridagi kabi pul bozorida ham pulga bo'lgan umumiy talab va taklif muvozanat nuqtada kesishadi. Mahsulotlar bozorida muvozanat nuqtani narxlar tengligi asoslasa, pul bozorida esa bunday tenglikni foiz stavkasi belgilaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Respublikada pul muomalasi qanday tartibda olib boriladi?
2. Pul taklifi asosida nimalar yotadi? Pullar va chek qo'yilmalari deganda nimani tushunisiz? Bank multiplikatori va pul multiplikatori qanday aniqlanadi hamda ularning bir-biridan farqi nimada?

3. Pul bozoridagi muvozanat nuqtani nima bildiradi? Pul bozorida tenglikka erishilmasi nima bo'lishi mumkin? Pul bozorida qanday qilib tenglikka erishiladi?

4. Pul-kredit siyosatini kim olib boradi va uning qanday vositalari mavjud? Qanday qilib bir so'mni o'n so'm qilish mumkin? Pul taklifining multiplikatori qanday aniqlanadi?

5. Kredit nima va uni berishning qanday shartlarini bilasiz? Kreditni kimlar bera olishi mumkin va kredit tizimini nechta guruhga bo'lishimiz mumkin?

Mavzu bo'yicha masalar.

1-masala

Iqtisodiyotda pul bazasi 200 mln. so'mga teng. Deponentlash koefitsiyenti 0,8. Majburiy zaxira me'yori 20%. Real pul qoldig'iga talab quyidagi tenglama orqali ifodalanadi: $M_d = 0,4Y - 50r$, daromad hajmi $Y = 800$. narxlar darajasi $P = 4$. Muvozanatli foiz stavkasini toping.

Yechish:

Masala shartiga ko'ra:

$$MB = 200, cr = 0,8, rr = 0,2, P = 4, Y = 800.$$

$$m_m = \frac{cr + 1}{cr + rr} : \Rightarrow (0,8 + 1):(0,8 + 0,2) = 1,8$$

$$M_s = MB \times m_m = 200 \times 1,8 = 360.$$

Narx darajasini hisobga olgan holda, real pul taklifi

$$M_s = 360 : 4 = 90.$$

Muvozanat nuqtasida $M_s = M_d$, ya'ni:

$$90 = 0,4 \times 800 - 50r \Rightarrow r = 4,6\%.$$

2-masala

Bank multiplikatori 2,5 ga teng. Pul taklifining oshishi 60 mln. so'mni tashkil etdi. Zaxiralash me'yorini va pul taklifi oshishiga sabab bo'lgan ortiqcha zaxiralar hajmini aniqlang.

Yechish:

Bank multiplikatori formulasi:

$m_m = 1 / rr = 2,5 \Rightarrow rr = 0,4$, ya'ni zaxiralash me'yori 40%ni tashkil etadi.

Masala shartiga ko'ra: $\Delta M_s = 60$, demak, ortiqcha zaxiralalar hajmi quyidagiga teng:

$$\Delta R = \Delta M_s; m_m = 60 : 2,5 = 24.$$

3-masala

Markaziy bank, «arzon pullar» siyosatini amalga oshirish orqali 10 mlrd. so'm miqdoridagi qimmatli qog'ozlar, jumladan, tijorat banklaridan 5 mlrd. so'm va aholidan 5 mlrd. so'm sotib oldi. Aholi olingen pullarning bir qismini bank tizimidan tashqarida naqd pulda saqlaydi. Majburiy zaxiralalar me'yori 20%ni tashkil etadi. Agar bank tizimi o'z «arzon pullar» imkoniyatlaridan to'liq foydalansa, pul taklifi qanday o'zgaradi?

Yechish:

1-usul. $\Delta M_s = MB \times m_m$.

$MB = 9 \text{ mlrd. so'm}$ ($10 - 1 = 9$ Yoki 4 (ahofi) + 5 (tijorat banki) = 9).

$m_m = 1 : 0,20 = 5 \Rightarrow \Delta M_s = 9 \times 5 = 45 \text{ mlrd. so'm}$, ya'ni agar tijorat banklari depozitlari 9 mlrd. so'mga oshsa, pul taklifi 45 mlrd. so'mga oshadi. Umumiy pul taklifi $M_s = D + C$, demak, pul taklifining umumiyligi o'zgarishi quyidagini tashkil etadi:

$$\Delta M_s = 45 + 1 = 46 \text{ mlrd. so'm.}$$

2-usul. Markaziy bank tijorat banklaridan 5 mlrd. so'm miqdoridagi obligatsiyalarni sotib olib, ortiqcha zaxiralarni yaratadi, ya'ni $Yer = 5 \text{ mlrd. so'm} \Rightarrow$ bunda depozitlar hajmi $D = \Delta R \times m = 5 \times 5 = 25 \text{ mlrd. so'mga}$ ortadi.

Markaziy bank shuningdek, aholidan 5 mlrd. so'm miqdoridagi obligatsiyalarni sotib oldi. Shartga ko'ra, aholi 1 mlrd. so'mni naqd pulga aylantirgan, demak 4 mlrd. so'm bank hisob raqamlarida depozit sifatida saqlanadi. Bunda majburiy zaxiralalar: $rr = D \times rr = 4 \times 0,2 = 0,8$

mlrd. so'mga, ortiqcha zaxiralar esa: $\Delta R = 4 - 0,8 = 3,2$ mlrd. so'mga teng.

$$\Delta M_s = \Delta R \times m_m = 3,2 \times 5 = 16 \text{ mlrd. so'm.}$$

Demak, bank tizimida depozitlarning umumiy hajmi: $D = 25 + 16 = 41$ mlrd. so'm. pul taklifi: $M_s = D + C = 45 + 1 = 46$ mlrd. so'm, ya'ni Markaziy bank «arzon pullar» siyosatini amalga oshishi orqali pul taklifini 46 mlrd. so'mga oshirgan.

4-masala

Iqtisodiyotda pul bazasi 2500 mlrd p.b. ni tashkil qiladi. Naqd pullarning umumiy depozitlardagi ulushi 75 %ni tashkil qiladi. Mu'ljburiy zaxiralash normasi 10 %. Pul massasini aniqlang.

Yechish

Pul massasi va uning o'sishi pul bazasining hajmi va pul multiplikator formulasi orqali aniqlanadi:

$$M = km \cdot H.$$

Pul multiplikatori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$km = 1 + c / c + r = 1 + 0,75 / 0,75 + 0,1 = 1,75 / 0,85 = 2,06.$$

Demak. Pul massasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$M = 2,06 \cdot 2\,500 = 5\,147 \text{ mlrd p.b.}$$

Javob: mamlakatda pul massasi 5 147 mlrd p.b. ga teng bo'ladi.

5-masala

Iqtisodiyotda haqiqiy YaMM – 2 000 p.b., narx darajasi – 2; pul birrigi bir yilda 25 marta aylanadi. Pulga transaksion talabni aniqlang

Yechish

Pulga transaksion talab quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$M \cdot V = P \cdot y;$$

$$M = P \cdot y / V.$$

Mu'lumotlarni formulaga qo'yamiz:

$$M = P \cdot y / V = 2 \cdot 2\,000 / 25 = 160 \text{ p.b.}$$

Javob: Pulga transaksion talab 160 p.b. ni tashkil qiladi.

5-masala

Yil davomida pulga nominal taklif 10 %ga ko‘paydi. Ushbu davrda narx darajasi 8 %ga ko‘paydi va pul birligining aylanish tezligi 5%ga tezlashdi. Ushbu davrda haqiqiy YaMM qanday o‘zgaradi?

Yechish:

Masalani yechish Fisher tenglamasidan foydalanish lozim (pulning miqdoriy nazariyasi):

$$M \cdot V = P \cdot y.$$

Ushbu tenglamaga asosan pul mablag‘lari miqdorining ko‘payishi nominal YaMM ning ko‘payishiga olib keladi, ammo haqiqiy YaMM o‘zgarmaydi. Shuning uchun pul taklifining o‘sish darajasi YaIMning o‘rtacha yillik o‘sish darajasiga mos kelishi kerak.

Ushbu bog‘liqlikni quyidagi formula bilan ko‘rsatish mumkin:

$$\Delta M\% + \Delta V\% = \Delta y\% + \Delta P\%.$$

Bu yerdan YaMMning o‘sishini aniqlash mumkin:

$$10 \% + 5 \% = \Delta y \% + 8 \% \Rightarrow \Delta y \% = 15 \% - 8 \% = 7 \%.$$

Javob: haqiqiy YaMM 7 %ga ko‘paydi.

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. Agar pul bazasi 200 mlrd so‘mga teng bo‘lsa, pul taklifi hajmini aniqlang. Bank rezervlari normasi 0,1 ga teng, deponentlash koeffitsiyenti 0,3 ga teng.

2. Aytaylik naqd pulga talab depozitlar summasining 10%iga teng bo‘lsin. Majburiy zaxiralash normasi 15%. Agar Markaziy Bank pul taklifini 330 mlrd. so‘mga oshirmoqchi bo‘lsa, u pul bazasini qanchaga o‘zgartiradi?

3. Agar pul bazasi (MB) 300 mlrd. so‘mga, depozitlarni majburiy zaxiralash normasi-10 % ga, deponentlash koeffitsiyenti (cr) -0,3 ga teng bo‘lsa pul taklifi hajmini aniqlang.

4. Tijorat bankining umumiy (summar) zaxiralari 220 mln.rub.ni tashkil etadi. Depozitlar 950 mln.rub.ga teng. Depozitlarning umumiy

zaxiralash me'yori 20%ni tashkil etadi. Agar bank ssuda berish uchun jami shaxsiy ortiqcha zaxiralaridan foydalanishga qaror qilsa, pul taklifi qanday o'zgarishi mumkin?

5.Iqtisodiyotda pul bazasi 3500 mlrd p.b. ni tashkil qiladi. Naqd pullarning umumiy depozitlardagi ulushi 80 %ni tashkil qiladi. Majburiy zaxiralash normasi 15 %. Pul massasini aniqlang.

6. Iqtisodiyotda haqiqiy YaMM – 2 000 p.b., narx darajasi – 2; pul birligi bir yilda 25 marta aylanadi.Pulga transaksion talabni uniqlang.

7.Yil davomida pulga nominal taklif 10 %ga ko'paydi. Ushbu davrda narx darajasi 8 %ga ko'paydi va pul birligining aylanish tezligi 5%ga tezlashdi. Ushbu davrda haqiqiy YaMM qanday o'zgaradi?

8.Iqtisodiyotda pul bazasi 4800 mlrd p.b. ni tashkil qiladi. Naqd pullarning umumiy depozitlardagi ulushi 85 %ni tashkil qiladi. Majburiy zaxiralash normasi 15 %. Pul massasini aniqlang.

9. Iqtisodiyotda haqiqiy YaMM – 3000 p.b., narx darajasi – 2; pul birligi bir yilda 20 marta aylanadi.Pulga transaksion talabni aniqlang.

10.Yil davomida pulga nominal taklif 15 %ga ko'paydi. Ushbu davrda narx darajasi 10 %ga ko'paydi va pul birligining aylanish tezligi 10 %ga tezlashdi. Ushbu davrda haqiqiy YaMM qanday o'zgaradi?

XI BOB. PUL-KREDIT SIYOSATI

1.Pul tushunchasi, uning funksiyalari

«Pul» tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida barcha iqtisodiy fanlarning eng asosiy bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Pul tizimining to‘g‘ri faoliyati daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishiga hayotiy kuch beradi. Yaxshi ishlayotgan pul tizimi ishlab chiqarish quvvatlari va bandlikdan to‘liq foydalanish imkonini beradi. Aksincha, yomon ishlayotgan pul tizimi iqtisodiyotdagi inqirozlarga, Ya’ni, ishsizlik, inflyatsiya va shuningdek, boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi.

Pul – tovarlar ayriboshlashda umumiy teng qiymatlilik (ekvivalent) rolini bajaradi. Pullar maxsus xususiyatga – likvidlik (ya’ni tez almashtirish) xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun ham ideal vosita hisoblanadi. Har qanday buyumning likvidliligi uni sezilarsiz sarf-xarajatlar bilan boshqa buyumga ayriboshlanish qobiliyatini bildiradi. Ayriboshlash kengayishi bilan kredit pullar deb ataluvchi veksellar, banknotlar, cheklar, sertifikatlari, kredit kartochkalari va boshqa shunga o‘xshash qiymatliklarga ega bo‘lgan pullar paydo bo‘ladi.

Pul o‘z tabiatiga ko‘ra, uch xil xususiyatga ega, ya’ni hamma narsaga ayriboshlanadigan muhim xarid vositasi, boylik timsoli, mehnatning qiymat shaklidagi o‘lchov vositasi.

Umuman pulning beshta vazifasi mavjud:

1. Qiymat o‘lchovi.
2. Airboshlash vositasi.
3. Xazina to‘plash va jamg‘arish vositasi.
4. To‘lov vositasi.
5. Jahon puli.

Pul o‘z xizmati mazmuni va miqyosiga qarab turli toifalarga bo‘linadi:

1. Xazina biletlari – bunda pul oddiy muomalada ishlataladi.
2. Banknot-kredit pullari – bunday pullar qarz olish va berish jarayonida ishlataladi.

Pul tovar sifatida qiymatga ega. Hozirgi kunda pulning qlymatidan turli ko‘rinishlarida foydalanimoqda. Ya’ni qog‘oz pullarga tovar va pulli xizmatlar ekvivalent almashinadi. Bundan tashqari bank cheklaridan va kredit kartochkalaridan ham keng foydalanimoqda.

Pul muomalasidagi eng asosiy masalalardan biri mamlakatda surur bo‘ladigan pul massasini aniqlash va muomalaga chiqarish muohlannadi. Bu esa makroiqtisodiyotning asosiy muammosi bo‘lib, davlat tomonidan tartibga solib turiladi.

Pul massasi muomalaga chiqarilgan metall tangalar va qog‘oz pullari (xuzina va bank biletlari)ning jami miqdoriga teng. Xo‘jalik muomalasidagi pul vositalarining umumiy hajmiga naqd puldan tashqari banklarning joriy hisobdagi pul vositalari ham kiradi.

11.2. Pul agregatlari

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida pul massasining asosini ~~muohl~~ etuvchi yoki pul agentlarini bilish eng zarur muammolardan birlidir. Chunki, pulning eng samarali miqdordagi massasini chiqarish uning xarid qobiliyati barqarorligini ta’minlaydi. Pulning xarid qobiliyati barqarorligi tovar va xizmatlar narxi keskin o‘zgarishining oldindol oлади. Hozirgi davrda O‘zbekistonda pul muomalasi ikki ko‘rlinshda yuritiladi:

1. Naqd pul muomalasi.
2. Naqd bo‘lman pul muomalasi.

Rivojlangan mamlakatlarda zarur bo‘lgan pul miqdorini ~~aniqlashda~~ «Shartnoma tuzish uchun pul yoki tor ma’nodagi pullar» – M_1 va «Keng ma’nodagi pullar» – $M_2; M_3; M_4$ miqdori hisoblanadi.

M-tunga pullar, qog‘oz pullar, joriy hisobdagi pullar va yo‘l cheklarini;

M₂-M₁ va tezkor jamg‘arma hisoblarini;
M₃-M₂ va likvidli qimmatli qog‘ozlarni o‘z ichiga oladi.

$$M_3 = M_2 + LKB + BTM + KQMM;$$

Bu yerda, **LKB**-likvid qimmatli qog‘ozlar (obligatsiyalar, sertifikatlar, xazina majburiyatlari va boshqalar);

BTM – jamoat va byudjet tashkilotlari hisoblaridagi mablag‘lar;

KQMM – kapital mablag‘larni moliyalashtiruvchi mablag‘lar.

Eng umumlashgan shakldagi «Keng ma’nodagi pullar» **M₄** hisoblanadi.

$$M_4 = M_3 + PBLM;$$

Bu yerda, **PBLM** -pul bo‘lmagan likvid mablag‘lar (oltin, brilliant, kumush, platina va shu kabi qiymatli pul bo‘lmagan mablag‘lar).

Jami pulning taklifi deb ma’lum vaqt birligi ichida iqtisodiyotga xizmat qilayotgan pullarga aytildi. Pul egasi pulni qanday shaklda saqlash samarali bo‘lsa, xuddi shu ko‘rinishdan foydalanadi. Eng muhimmi, pul taklifi davlat tomonidan tartibga solinadi.

3. Pulga bo‘lgan talab nazariyasи

Bitimlar uchun pulga bo‘lgan talab – bu, ahotiga va korxonalarga tovar va xizmatlarni xarid qilish uchun zarur bo‘lgan pul miqdoridir. U nominal YaMM o‘sishi bilan ortib boradi.

Moliyaviy aktivlar tomonidan pulga bo‘lgan talab pulning jamg‘arish vositasi sifatidagi funksiyasiga asoslangan. Chunonchi, odamlar o‘zlarining moliyaviy aktivlarini aksiyalar, obligatsiyalar, bankdagi omonatlar ko‘rinishida qo‘llarida tutib turadi. Uni quyidagi ko‘rinishda yozishimiz mumkin:

$$MV = PY;$$

$$M = PY / V;$$

Bunga asosan bitimlar uchun pulga bo‘lgan talab, real YaMM miqdoriga (**Y**), narxlар darajasiga (**R**) va pul aylanish tezligiga (**B**) bog‘liq. Ushbu formula bilan birga pul talabini izohlashda Kembridj tenglamasidan ham foydalaniladi:

$$M = k \times PY;$$

Pulga bo‘lgan umumiy talab foiz stavkasi miqdoriga Yoki pulning ishlatalish bahosiga nisbatan teskari bog‘liqlikda bo‘ladi. Foiz stavkasi qanchalik yuqori bo‘lsa, pulga bo‘lgan talab shuncha past bo‘ladi va uksincha, foiz stavkasi pasayishi bilan pulga bo‘lgan talab oshadi.

Ilar qanday ishlab chiqarish tizimi faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘ladigan ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar pul yoki uning vositalari yordamida amalga oshiriladi, o‘lchanadi, baholanadi. Demak, pul maxsus xususiyatga ega bo‘lgan tovar hisoblanib, ayrboshlashning rivojlinishi natijasida paydo bo‘lgan. Uning maxsus xususiyati likvildiligidir (ya’ni tez almashtirish).

Mahsulotlar bozoridagi kabi pul bozorida ham pulga bo‘lgan umumiy talab va taklif muvozanat nuqtada kesishadi. Mahsulotlar bozorida muvozanat nuqtani narxlar tengligi asoslasa, pul bozorida esa bunday tenglikni foiz stavkasi bildiradi. Umuman, pullar keng ma’nodagi va tor ma’nodagi pullarga bo‘linadi. Bularga pul agregatlarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Pul insonlarga kundalik ehtiyojlarini qondirish va jamg‘arish uchun zarur. Shuning uchun ham pulga bo‘lgan umumiy talab bitimlar uchun pulga talab va moliyaviy aktivlar uchun pulga talablardan iborat. Shuningdek, umumiy pul taklifi nafaqat joriy hisoblardagi mahbub‘lardan, balki aholi ko‘lidagi nakd pullardan ham tashkil topadi.

11.3. Pul-kredit siyosati

Aksariyat mamlakatlarda davlat pul chiqarishga monopol huquqliga ega. Shuning uchun u butun pul massasi miqdorini tartibga solib turadi. Uni amalga oshirish huquqi nisbatan mustaqil muassasa Markazly bank ixtiyorida, pul taklifini ko‘paytirishga yoki pul yaratish qobiliyatliga tijorat banklari ham ega. Ular kreditlar berish, to‘lov vokalalari emissiyasini yoki kredit multiplikatsiyasini amalga oshiradi. Maxsus, A bankning depoziti qo‘sishmcha 2000 ga o’sgan bo‘lsa,

rezerv normasi 20%ga teng bo'lganda (rezerv normasi – bu rezervlarning depozitlarga nisbati) u 400 so'mni o'zida qoldirib qolgan 1600 so'mni qarzga beradi. Shunday qilib, A bank pul taklifini 1600 ga ko'paytiradi va u endi $2000 + 1600 = 3600$ ni tashkil etadi. Ya'ni omonatchilarning depozitlardagi 2000 dan tashqari yana 1600 qarz oluvchilarning qo'llarida qoladi. Agar 1600 so'm yana bankka tushsa (masalan B bankka) unda 20%ni teng bo'lgan rezerv normasida u 320 ni rezervda qoldirib, 1280 ni kreditga beradi. Hamda shu miqdorda pul taklifini oshiradi. Kredit berishning bu jarayoni so'ngi pul birligidan foydalanishga qadar davom etadi va pirovard natijada jami pul taklifi quyidagicha aniqlanadi:

Dastlabki omonat = 2000

A bankning ssudasi = $(1-0,2) \times 2000 = 1600$

B bankning ssudasi = $(1-0,2) \times 1600 = 1280$ va h.k.

Jami pul taklifi teng bo'ladi

$(2000 + (1-0,2) \times 2000 + (1-0,2) \times 1600 + \dots) = X_1 + (1-0,2) + (1-0,2) \times 1600 + \dots = 1/1 - (1-0,2) \times 2000 = 1/0,2 \times 2000$. ($\frac{1}{1-x}$ -kvadratni bildiradi).

Bu ifodani quyidagi formula ko'rinishida yozish mumkin:

$$M = (1 / r) \times D;$$

Bunda – M – hajmi pul taklifi.

r – bank rezervlar normasi.

D – dastlabki omonat.

Keltirilgan formuladan ko'rinish turibdiki, pul taklifi $1/r$ koeffitsiyentiga bog'liq bo'lib, uni bank multiplikatori yoki pul ekspansiyasi multiplikatori deb ataladi. U ushbu bank rezervlar normasida ortiqcha rezervlarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo'lgan yangi kredit pullarining eng ko'p miqdorini bildiradi.

Kredit – qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatga qarz berish ma'nosini beradi. Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor, ya'ni kredit beruvchi, ssuda oluvchi tomon esa qarzdor, ya'ni kredit oluvchi debitor hisoblanadi.

Bank kreditlarining asosiy qoidalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- muddatlilik;
- aniq maqsadga yo'naltirilganlik;
- foizlilik;
- qaytarib berishlilik;
- moddiy ta'minlanganlik va boshqalar;

Kredit uzoq va qisqa muddatli bo'ladi. Qisqa muddatli kredit korxona va tashkilotlarning aylanma fondlarini shakllantirishga xizmat qilladi. Uzoq muddatli kredit esa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kapital mablag'lar ajratish manbai bo'lib hisoblanadi.

Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirishda ma'lum dastaklardan foydalanadi va shular orqali pul taklifini o'zgartirib pul kredit muomalasini tartibga solib turadi:

1. Hisob stavkasini aniqlash.
2. Majburiy rezervlar normasini belgilash.
3. Ochiq bozordagi operatsiyalarni amalga oshirish.

Hisob stavkasi deb, markaziy bank tomonidan banklarga beriladigan ssudaning foiz stavkasi tushuniladi. Bu ssudalarni tijorat banklari ayrim ko'zda tutilmagan zarurat tug'ilganda va moliyaviy ahvoli mustahkam bo'lgan hollardagina oladilar. Hisob stavkasining posiyishi bilan tijorat banklarida markaziy bankdan qo'shimcha rezervlarni olish imkoniyatlari kengayadi. O'z navbatida bu tijorat banklarini rezervlardan yangi kreditlar berish bilan pul taklifini ko'paytiradi. Yana shunday hollar mavjudki, markaziy bank hisob stavkasini ko'tara borib, tijorat banklari tomonidan qo'shimcha rezervlarni olish yo'lidagi to'siqlarni biroz ko'targanday bo'ladi va kreditlar berish bo'yicha ularning faoliyatini pasaytiradi. Ya'ni shu yo'llan pul taklifini cheklaydi.

Majburiy rezervlar – bu kredit maqsadlari uchun ishlatalmaydigan bank omonatlarining bir qismidir. Ular mijozlar tomonidan o'z omonatlarini talab qilib olganda zarur bo'ladi. Markaziy bank tijorat

banklarini ushlab turishga majbur bo‘lgan rezervlarning eng quyi normasini o‘rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, imkoniyatiga ta’sir etadi. Bu me’yor qanchalik yuqori bo‘lsa, ortiqcha rezervlar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish qobiliyati past bo‘ladi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar – Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatbaho qog‘ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish. Markaziy bank tijorat banklaridan yoki aholidan bu qimmat baho qog‘ozlarni sotib olar ekan shu bilan tijorat banklari rezervlarini sotib olingan obligatsiyalar miqdori hajmida ko‘paytiradi. Bu rezervlardan kredit berib tijorat banklari pul taklifini kengaytiradi. Obligatsiyalarni sotish teskari natijaga olib keladi, ya’ni markaziy bank tijorat banklari va aholiga obligatsiyalarni sotish bilan rezervlarni hamda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini pasaytiradi. Bu holda pul taklifi qisqaradi.

11.4. Pul-kredit siyosati va uni amalga oshirish vositalari

Pul-kredit siyosati deganda, to‘liq bandlik sharoitidagi jami mahsulotni ishlab chiqarishga inflyatsiyaning ta’sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o‘zgartirish tushuniladi. Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vazifasini hayotga taqdim etadi.

Xalq xo‘jaligining har qanday tarmog‘i kabi kredit tizimi ham tarkibiy qismlarni, bosqichma-bosqich pastdan yuqoriga tomon tuzilishni tashkil etishga, ya’ni markaziy boshqaruv bo‘g‘ini va quyi (ish bajaruvchi) tashkilotlarni ajratishga ehtiyoj sezdi.

Quyi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida boshqaruv tashkiloti kredit muassasalarining faoliyat ko‘rsatishini nazoratga olishi, ular ishini tahlil qilishi hamda kredit tizimi to‘xtovsiz va pishiq-puxta ishlashi uchun mavjud ta’sir etish dastaklari orqali tizim faoliyatini kerakli izga solishi, xalq oborotiga kredit hisobi

sumuradorligini ta'minlashi, kredit operatsiyalarining hajmi asossiz ravishda kengayib yoki kamayib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Kredit deganda, o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum (hudud) muddatga haq to'lush sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chilqan munosabatlarni tushunish kerak.

Kredit subyektlari har xil bo'ladi. Bularga korxona, firma, tashkilot, muassasa, davlat va turli toifadagi aholini kiritish mumkin. Kredit obyekti – har qanday pul emas, balki vaqtincha bo'sh turgan, egasi tomonidan ishlatilmay va qarzga Berilishi mumkin bo'lgan juddir.

Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor, ya'ni kredit beruvchi, ~~menha~~ oluvchi tomon esa qarzdor, ya'ni kredit oluvchi debitor hisoblanadi.

Hozirda hamma mamlakatlarda pul miqdorini tartibga solishda uchliq bozorda operatsiyalarni, ya'ni davlat qimmatli qog'ozlarini taklif qillish usulidan keng foydalaniilmoqda. Ushbu operatsiyalarni Markaziy bank asosan nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi. Bozorda Markaziy bank xazina qimmatli qog'ozlarini sotish yoki xarid qilish yo'li bilan pul taklifiga ta'sir etib, pul bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta'minlaydi.

Pul bozorida muomalada pul miqdori ortiqchaligi mavjud deb ~~haraz~~ qilamiz. Tabiiyki, Markaziy bank ortiqcha pul massasini ~~hammy~~ yoki yo'q qilishga harakat qiladi. Buning uchun, u ochiq bozorda o'zining qimmatli qog'ozlarini aholi va banklarga taklif etadi, ~~ular esa umi~~ xarid qila boshlaydilar. Davlat qimmatbaho qog'ozlarining (~~uchliq~~ yoki xarid qilish yo'li bilan) taklifi oshib borgan sari, unga bo'lgan baho pasayadi, o'z navbatida, unga bo'lgan foiz (ya'ni qimmatli qog'ozlarni sotib olganlarga foiz shaklida haq to'lanadi) oshiradi, bu esa unga bo'lgan talabni oshiradi. Banklar va aholi qimmatli qog'ozlarni ko'proq xarid qila boshlaydi, pirovard natijada,

banklarning zaxiralari qisqaradi, o‘z navbatida, bu hol pul taklifining bank multiplikatoriga teng nisbatda qisqarishiga olib keladi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning yana bir vositasi— bu hisob-kitob stavkasi siyosatidir. Hisob-kitob stavkasini Markaziy bank belgilaydi. Agar ushbu stavka past bo‘lsa, unda tijorat banklari ko‘proq kredit olishga harakat qiladilar. Natijada banklarning ortiqcha zaxiralari ortib boradi va muomaladagi pul massasi miqdorining oshib borishiga olib keladi. Agarda hisob stavkasi miqdori yuqori bo‘lsa, unda banklar kamroq kredit olishga, qolganlarini esa qaytarib berishga harakat qiladilar, pirovard natijada ortiqcha bank zaxiralari qisqaradi, muomaladagi pul miqdori kamayadi.

Amaliyotda, davlatlar hisob stavkasi siyosatini ochiq bozordagi operatsiyalar siyosati bilan muvofiqlashtirilgan holda olib borishga harakat qiladilar.

Pul-kredit siyosatining vositalaridan yana biri—bu, majburiy bank zaxira me’yorini o‘zgartirish siyosatidir. Majburiy bank zaxira me’yorini Markaziy bank belgilaydi va uni o‘zgartirib turadi. Agar Markaziy bank majburiy bank zaxirasini kamaytirsa, ortiqcha bank zaxiralari ortadi, bu esa pul taklifining multiplikatsion ortishiga olib keladi.

Masalan, ushbu me’yor 25% bo‘lsa, unda bankka qo‘yilgan 800 so‘mdan 200 so‘m majburiy bank me’yorini tashkil etadi. Bunda bank faqat 600 so‘mni qarzga berishi mumkin bo‘ladi. Endi faraz qilaylik, me’yor 10% ga tushuriladi, unda bank 720 so‘mni qarzga berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Majburiy bank zaxirasi me’yorini ko‘tarish yordamida davlat pul taklifini kamaytiradi. Zero, bu banklarning ortiqcha bank zaxiralari qisqarishiga olib keladi. Pul-kredit siyosatini o‘tkazishda bu vosita butun bank tizimining asoslariga ta’sir etadi. Shuning uchun u ko‘pchilik mamlakatlarda o‘ta zarur bo‘lgandagina qo‘llaniladi.

Xo‘sh, pul-kredit siyosatining oqibatlari qanday?

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati YaMM, bandlik va baholar darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Faraz qilamizki, iqtisodiyotda ishlab chiqarish qisqarmoqda va ishsizlar soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda davlat Markaziy bank orqali pul taklifini biz yuqorida ko'rib chiqqan vositalar yordamida oshirishga harakat qiladi. Natijada pul taklifi o'sadi, foiz stavkasi esa kamayadi. Bu esa investitsiyalarga bo'lgan talabni oshiradi va o'z navbatida, YaMM miqdorining ko'payishiga olib keladi. Bu bilan davlat ma'lum davrda o'z maqsadiga erishadi, ishlab chiqarishning orqaga ketishi to'xtaydi, ishsizlar soni kamayadi, jamiyatning daromadlari esa oshadi.

Pul-kredit siyosatining oqibati to'g'risida gapirganda, bu siyosatning qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlarini farqlash kerak. Agarda qisqa muddatli davrda davlat pul taklifini oshirgan va huning natijasida YaMM miqdori o'sishini rag'batlantirgan hamda bu bilan ma'lum darajada samaradorlikka erishgan bo'lsa, uzoq muddatli davrda esa bu choralarining samaradorligi pasayadi.

Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, pul-kredit siyosati asosida yaxlit iqtisodiyotga pul-kredit siyosatining ta'sir jarayonlarini o'rjanuvchi pul nazariyasi yotadi. Ushbu nazariyaga ikki xil yondashuvchi iqtisodchilar o'ttasida ko'p yillardan beri tortishuvlar bo'lib kelmoqda. Bularga takomillashtirilgan keynschilar nazariyasi va zamonaviy pul miqdori nazariyasini kiritamiz. Ushbu ikki nazariya turuldlari ham pul taklifining nominal YaMMga ta'sirini inkor etmoydilar, ammo bu ta'sirning ahamiyatiga har xil baho beradilar. Keynschilar fikricha, monetar siyosat asosiga foiz stavkasi darajasi ~~anom~~, monetaristlar fikricha esa, pul taklifining darajasi asos qilib ~~ulintchi~~ zarur. Keynschilar bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat ~~ulankhuvi~~ shart deb hisoblashadi, monetaristlar esa uni ortiqcha deb hisoblaydilar.

Keynschilar pul taklifining YaMMga ta'sirini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi deb hisoblashadi: pul taklifining o'zgarishi foiz stavkusining o'zgarishi, u esa o'z navbatida, investitsiyalarga bo'lgan

talabning o‘zgarishi orqali YaMMga ta’sir etadi. Monetaristlar esa bu borada shunday deydilar – pul miqdorining o‘zgarishi bilan YaMM o‘zgarishi o‘rtasida yaqinroq aloqa mayjud: ya’ni, pul miqdorining o‘zgarishi bevosita YaMM o‘zgarishiga olib keladi.

Keynschilarning asosiy tenglamasi quyidagicha:

$$YaMM = S + I + G + X_n;$$

Bu yerda, **C** – aholi iste’mol xarajatlari;

I – investitsiyalar;

G – davlatning tovar va xizmatlarni sotib olish xarajatlari;

X_n – sof eksport.

Monetaristlar esa quyidagi tenglamaga asoslanadilar:

$$M \times V = Q \times P$$

Agar **Q × P** = YaMM bo‘lsa, unda tenglamani quyidagicha yozish mumkin bo‘ladi:

$$M = YaMM / V;$$

Bu yerda: **M**-pul massasi;

V-pulning aylanish tezligi yoki aylanishlar soni;

P-tovar va xizmatlarning o‘rtacha bahosi;

Q-sotilgan tovarlar soni.

Bunda monetaristlar pulning aylanish tezligini barqaror deb hisoblaydilar, keynschilar esa, aksincha, nobarqaror deydlar.

Hozirda mavjud bo‘lgan monetaristik siyosatning modellari bu ikki yondashuvning sintez qilingan, ya’ni, bu yondashuvlarning ijobjiy jihatlarini qo‘shib, o‘zida aks ettirgan monetaristik siyosatning variantidir. Uzoq muddatli davrda monetaristik yondashuv ko‘proq ishlataladi. Shu bilan birga qisqa muddatli davrlarda esa davlat foiz stavkasiga ta’sir etishdan voz kechmaydi.

O‘zbekistonda pul-kredit siyosatining quyidagi yo‘nalishlari mavjud:

- davlat tomonidan pul massasini oldindan bilish, uni doimiy nazorat qilish;

- Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining operatsiyalarini pul bilan ta'minlash, bunda Markaziy bankning tijorat banklariga foiz hisobida kredit berishi nazarda tutiladi, bu esa o'z navbatida Markaziy bank tomonidan, umuman, pul muomalasi sohasini nazorat qilishga imkon beradi;
- Kredit va byudjet tizimlari o'rtasida o'zaro munosabatlar vositasini takomillashtirish, kredit berish, byudjet kamomadi pul chiqarish hisobiga emas, balki davlatning qimmatli qog'ozlarini sotish hisobiga qoplanishi zarur.

11.5. Davlat pul-kredit siyosatining asoslari

Davlatning pulga bo'lgan talab va taklifi o'zgarishi borasidagi siyosatini monetar siyosat deb yuritiladi. Bu siyosat monetarizm nazariyasiga asoslanadi. Uning bosh g'oyasi iqtisodiy o'sishni bozor mexanizmi ta'minlaydi, bu mexanizmning asosiy vositasi pul, degan xulosadan iborat. Pulga bo'lgan talab va taklif quyidagi bog'lanish yordamida o'zgartirib turilishi tavsiya etiladi.

$$M \times V = Q \times P$$

Bu tenglik bozor iqtisodiyotidagi eng muhim muvozanat bo'lib, unga asoslanib, quyidagi bog'lanishlarni aniqlash mumkin:

Bozordagi baho pul massasi bilan bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymatiga bog'liq

$$M_s = M \times V = Q \times P$$

ya'ni pul taklifi bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlarning bozordagi bahosi bilan belgilanadi. Agar:

1. $M_s > 1$ bo'lsa, pulning taklifi talabga nisbatan ko'p bo'ladi;
2. $M_s < 1$ bo'lsa, pul talabga nisbatan kam bo'ladi;
3. $M_s = 1$ bo'lsa, pul massasi bilan tovar va xizmatlar massasi tenglashadi, ya'ni bozor muvozanatlashadi.

Birinchi holda narx oshgan bo‘ladi va pul qadri pasayadi, ikkinchi holda esa aksincha, pul massasi kamaygan bo‘ladi va to‘lov inqirozi yuzaga keladi.

Muomalada bo‘lishi zarur bo‘lgan pul massasi tovar va xizmatlar massasi bilan pul harakati-pul aylanish tizimiga bog‘liq:

$$M = R \times Q / V;$$

Muomala uchun zarur bo‘lgan pul massasini davlat o‘zi belgilangan kurs bo‘yicha oltinga muvofiqlashtirgan holda muomalaga chiqaradi va davlat doirasida harakat qiladi. Muomalada tovarlar bilan ta’minlanmagan pulning paydo bo‘lishi inflyatsiyani bildiradi. Pul qadrsizlanganda muomaladagi pul ko‘payib, unga nisbatan tovar va xizmatlar kamayib ketadi. Pul birligining xarid kuchi unga sotib-olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdoridan kamayadi, natijada ularning bahosi o‘sadi. Bu esa o‘z navbatida pulning valyuta kursini pasaytiradi, chunki, unga nisbatan boshka valyutaga ko‘proq tovar sotib olish mumkin bo‘ladi.

Davlat o‘z xarajatlarini qoplash uchun pul emissiyasini joriy qilib, uni ko‘paytirib, muomalaga tashlashi mumkin. Lekin uni tovar va xizmatlar massasi bilan ta’milay olmaydi. Buning natijasida pul inflyatsiyasi kuchayib boradi. Demak, qog‘oz pullar oltinga, chet el valyutasiga nisbatan qadrsizlanadi. Binobarin, pul miqdori asosan ishlab chiqarish holatiga, narxga, pul aylanishi tizimiga bog‘liq bo‘lib, unga nisbatan davlat jiddiy yondashadi.

Iqtisodiyotni tartiblash uchun davlat muomaladagi pul miqdorini o‘zgartirib, uni normal xolga keltirib turadi. Bu ishni Markaziy bank amalga oshiradi. Monetaristlar iqtisodiyotga amaliy jihatdan yondashib, pul massasini 3 – 5 foiz oshirishni tavsiya etishadi.

Pul-kredit siyosati fiskal va tashqi siyosatlar bilan o‘zarlo bog‘liq. Agarda hukumat iqtisodiyotni davlat xarajatlarini oshirish orqali qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirmoqchi bo‘lsa, uning muvaffaqiyatlari amalga oshishi ko‘proq pul-kredit siyosatiga bog‘liq. Chunki, bu mo‘ljallanayotgan xarajatlar qimmatli qog‘ozlar (ya’ni obligatsiyalar)ni

chiqarish evaziga amalga oshsa, pulga bo‘lgan talab oshadi va natijada esa foiz stavkalari ko‘tariladi. Bu esa investitsiya xarajatlarining kamayishiga olib keladi.

Yoki Markaziy bank hukumatning yuqoridagi siyosatini qo‘llab-quvvatlash uchun pul taklifini ma’lum miqdorda ko‘paytirsa, pul qadrsizlanishi mumkin.

Umuman, barqaror pul-kredit siyosati hukumat tomonidan olib boriladigan fiskal siyosatga hamma vaqt ham mos kelavermaydi.

Qisqacha xulosalar

Pul to‘lov, jamg‘arish va qiymat o‘lchovi funksiyalarini bajaruvchi, yuqori likvidli tovardir. Pul tushunchasi faqatgina naqd pullar bilan cheklanib qolmasdan, uning tarkibiy elementlari likvidlilik darajasi tushib borishiga qarab agregatlarga ajratilgan. Makroiqtisodiy tahlilda e’tibor ko‘proq M_1 va M_2 agregatlariga qaratiladdi.

Pulga bo‘lgan umumiyl talab bitimlar uchun pulga talab, ehtiyyotkorlik vajidan pulga talab va moliyaviy aktivlar uchun pulga tulub yig‘indisidn iborat.

Pulga bo‘lgan talab hajmi YaIM (daromad) hajmi, baholar darajasi, pulning aylanish tezligi va foiz stavkasiga bog‘liq.

Nazorat va mulohaza savollari

1. Respublikada pul muomalasi qanday tartibda olib boriladi?
2. Pul massasi qanday aniqlanadi?
3. Pul agregatlarini aniqlay olasizmi?
4. Pulning miqdoriy nazariyasi bo‘yicha pulga talab qanday aniqlanadi?
5. Pul-kredit siyosati deganda nimani tushunasiz ?
6. Ochiq bozordagi operatsiyalar deganda nimani tushunasiz ?
7. Majburiy rezervlar deganda nimani tushunasiz ?
8. O‘zbekistonda pul-kredit siyosatining qanday yo‘nalishlari mavjud?

Mavzu bo'yicha masalalar

1-masala

Tijorat bankining pul zaxiralari 250 mln. pul birligini tashkil etadi. Depozitlar 980 mln. pul birligiga teng. Majburiy zaxiralar me'yori 20 %ni tashkil etadi. Agar bank ssuda berish uchun ortiqcha zaxiralardan foydalanishga qaror qilsa, pul taklifi qanday o'zgarishi mumkin?

Yechish:

Majburiy zaxiralar me'yori – 20 % da majburiy zaxiralar summasi quyidagini tashkil etadi: $980 \times 0,2 = 196$ (mln. pul birligi).

Ortiqcha zaxiralar: $250 - 196 = 54$ (mln. pul birligi).

Agar ulardan ssuda berish uchun foydalanilsa, u holda, qo'shimcha pul taklifi quyidagini tashkil etadi:

$$\Delta M = N \times m,$$

bu yerda, ΔM – qo'shimcha pul taklifi;

N – tijorat bankining ortiqcha zaxiralar;

m – bank multiplikatori, u quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$m = \frac{1}{R} \times 100\%,$$

bu yerda, R – majburiy zaxiralar me'yori. Bundan:

$$\Delta M = 54 \times \frac{1}{20} \times 100 = 270 \text{ (mln. pul birligi)}.$$

2-masala

Majburiy zaxiralar me'yori 20 %ga teng. Tijorat banki ortiqcha zaxira sifatida depozitlar summasidan yana 5 %ga ega. Depozitlar miqdori 20 000ni tashkil etadi. Bank ssuda berish uchun qanday maksimal summadan foydalanishi mumkin?

Yechish:

Majburiy zaxiralar miqdori: $20 000 \times 0,2 = 4 000$ ni tashkil etadi.

Ortiqcha zaxiralar: $20 000 \times 0,05 = 1 000$ ga teng.

Pul zaxiralari: $4 000 + 1 000 = 5 000$ ga teng.

Agar zaxiralar 5 000 ni tashkil etsa, u holda bank qolgan mablag'lardan ssuda berish uchun foydalanishi mumkin: 20 000 – 5 000 = 15 000.

3-masala

Iqtisodiyotdagi pul bazasi 300, majburiy zaxiralar 130, pul massasi 960, depozitlar 790 ni tashkil etadi. Bu ma'lumotlar asosida pul multiplikatorini toping.

Yechish:

Pul multiplikatori quyidagicha aniqlanadi:

$$m_m = \frac{cr + 1}{cr + rr};$$

bu yerda, cr (deponentlash koeffitsiyenti) va rr (zaxiralash me'yori) noma'lum.

$$rr = \frac{R}{D}cr = \frac{c}{D}$$

Masala shartiga ko'ra, R = 130, D = 790, MB = 300, M = 960.

Bunda:

$$rr = 130 : 790 = 0,16$$

$$M_s = C + D \Rightarrow C = 960 - 790 = 170$$

$$Cr = C : D = 170 : 790 = 0,215$$

$$m_m = (0,215 + 1) : (0,215 + 0,16) = 3,2.$$

4-masala

Bankda kichik muddatli qo'yilmalar 81,5 mln.p.b. ni tashkil qilyapti, yirik muddatli qo'yilmalar – 32,3 mln.p.b., chekli qo'yilmalar – 22,4 mln.p.b., cheksiz omonat qo'yilmalar – 15 mln.p.b., naqd pullar – 48,8 mln.p.b.. Ushbu ma'lumotlar asosida M1, M2, MZ agregatlarni hisoblang.

Yechish:

Agregat M1 –naqd pul, chekli qo'yilmalar va cheksiz omonat qo'yimalardan tashkil topgan:

$$M1 = 48,8 + 22,4 + 15 = 86,2$$

M2 o‘z navbatida M1 va kichik muddatli qo‘yilmalardan tashkil topgan:

$$M2 = 86,2 + 81,5 = 167,7$$

M3 o‘z navbatida M2 va yirik omonat qo‘yilmalaridan tashkil topgan:

$$M3 = 167,7 + 32,3 = 200 \text{ mln.p.b.}$$

Javob:

$$M1 = 86,2 \text{ mln.p.b.},$$

$$M2 = 167,7 \text{ mln.p.b.},$$

$$M3 = 200 \text{ mln.p.b.}$$

5-Masala

Majburiy zaxiralash normasi 5%. Bankdagi majburiy zaxiralar 60 ming AQSH doll. Bankning kredit imkoniyalari va bank tomonidan pul taklifi qanday o‘zgaradi, agar mijoz Salimov bankdan avtomobil sotib olish uchun 30 ming AQSH dollarini, boshqa mijoz Latipov esa 10 ming AQSH dollarini uyda saqlash uchn olsa.

Yechish:

$$\text{mult} = 1 / 0,05 = 20;$$

$$D1 = 60 \times 20 = 1200;$$

$$K1 = D1 - Rmjb$$

$$K1 = 1200 - 60 = 1140.$$

Pullarning olinishi depozit hajmining kamayishiga olib keladi.

$$Rmjb.2 = 0,05 \times (1200 - 40) = 58;$$

$$K2 = D2 - Robyaz.2 = 1160 - 58 = 1102;$$

$\Delta K = 1102 - 1140 = -38$ (bankning kredit imkoniyatlari ming AQSH dollariga kamayadi);

$\Delta M = \Delta K \times \text{mult} = -38 \times 20 = -760$ (pul taklifi 760 ming AQSH dollariga kamayadi.)

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. Agar real YalM 110 foizga, pul massasi esa 108 foizga o'ssa va pulning aylanish tezligi o'zgarmasdan qolsa baholar darajasi qanday o'zgaradi?

2. Pulga bo'lgan umumiy talab 1000 sh.b.ka teng. Aktivlar tomonidan pulga talab funksiyasi $M_d^{\text{akt}} = 204\text{-}20r$

Nominal foiz stavkasi $r=20\%$

a) bitimlar uchun pulga talab miqdorini aniqlang;

b) nominal milliy daromad 2400ga teng bo'lsa, pulning aylanish tezligi nimaga teng?

3. Bank zaxiralari normasi 0,5ga teng, depozit hajmi naqd pul luijmidan 2 martaga ko'p. U holda pul bazasining 1 mldr. so'mga ko'payishi pul taklifini qanchaga oshiradi?

4. Tijorat banklarining jami rezervlari 220 mln. so'm. Depozitlar 950 mln. so'mga teng. Depozitlarni majburiy zaxiralash me'yori 20%. Bank o'zining barcha ortiqcha rezervlarini ssuda berish uchun ishlatishga qaror qilsa pul taklifi qanday o'zgaradi?

5. X bankiga ikkita yangi depozit: 10 000 i 15 000 sh.b. keldi. Majburiy zaxiralash normasi 20 %ni tashkil qiladi. X bankining kredit imkoniyatlari qanchaga ko'payadi va maksimal qancha pul massasi ko'payishi mumkin?

6. X mamlakatida 2019-yilda majburiy zaxira normasi 0,25 ga teng edi. Markaziy bank majburiy zaxira normasini 0.2 ga kamaytirdi va 2019-yildagi pul taklifining 4 % hajmidagi davlat obligatsiyalarini sotib oldi. Buning natijasida inflyatsiya darajasi 5 %ga ko'paydi., pulning aylanish tezligi esa o'zgarmadi. 2020-yilda YaIM 2019-yilga nisbatan necha foizga o'zgarganligini hisoblang.

7. Majburiy zaxiralari normasi 5 %ni tashkil etadi. Davlat surajatlari uning daromadlaridan 20 mldr. p.b.ga ko'p. Byudjet defitsiti qurx olish hisobiga moliyalashtirildi. Markaziy bank ochiq bozordagi operutsiyalari orqali jami obligatsiyalarning $\frac{1}{4}$ qismini sotib oldi. Pul taklifi qanday o'zgarishi mumkin, agar tijorat banklari obligatsiyalarni

sotish natijasida olingan mablag‘larning 3 % ni ortiqcha zaxira shaklida saqlagan va qolganini kredit shaklda berishgan bo‘lsa?

8.Tijorat bankining zaxirasi 220 mln.p.b. tashkil qildi. Depozitlar 950 mln.p.b. teng.. Depozitlarning majburiy zaxira normasi 20 %. Agar bank o‘zining zaxiradan ortiqcha mablag‘larini kredit berishga yo‘naltirsa pul taklifi qanday o‘zgaradi.

9.Bankda kichik muddatli qo‘yilmalar 50 mln.p.b. ni tashkil qilyapti, yirik muddatli qo‘yilmalar – 18.2 mln.p.b., chekli qo‘yilmalar – 15 mln.p.b., cheksiz omonat qo‘yilmalar – 12 mln.p.b, naqd pullar – 35.2 mln.p.b.. Ushbu ma’lumotlar asosida M1, M2, MZ agregatlarni hisoblang.

10.Majburiy zaxiralash normasi 10 %. Bankdagi majburiy zaxiralar 80 ming AQSH doll. Bankning kredit imkoniyalari va bank tomonidan pul taklifi qanday o‘zgaradi, agar mijoz Amonov bankdan avtomobil sotib olish uchun 25 ming AQSH dollarini, boshqa mijoz Bozorov esa 8 ming AQSH dollari uyda saqlash uchun olsa.

11.X mamlakatida 2018-yilda majburiy zaxira normasi 0,2 ga teng edi. Markaziy bank majburiy zaxira normasini 0,15 ga kamaytjrdi va 2018-yildagi pul taklifining 5 % hajmidagi davlat obligatsiyalarini sotib oldi. Buning natijasida inflyatsiya darajasi 4 %ga ko‘paydi., pulning aylanish tezligi esa o‘zgarmadi. 2019-yilda YAIM 2018-yilga nisbatan necha foizga o‘zgarganligini hisoblang.

XII BOB. IS-LM modeli

12.1. IS – egri chizig‘i va uning o‘zgaruvchilari

Iqtisodiyotdagi muvozanat yoki tovar-pul muvozanatiga erishishda, investitsiya va jamg‘armalarning YaMM bilan bog‘liqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, banklar folz stavkalarini pasaytirib borishi bilan YaMM hajmi ham ko‘payib boradi. Ya’ni milliy iqtisodiyot moliyaviy «kislorodni» ko‘proq olishi multijasida YaMM ishlab chiqarishi ham ko‘payib boradi. Ushbu munzuriyani atoqli iqtisodchi Xiks tadqiq qilganligi uchun uning nomi illan yuritiladi. IS -egri chizig‘i esa Xiks egri chizig‘i deyiladi.

Umuman, IS egri chizig‘i tovar va xizmatlar bozorida vujudga keladigan daromadlar darajasi va foiz stavkasi o‘rtasidagi munosabatlarni bildiradi. Buni tushunish uchun tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni, ya’ni «Keynsian xochi»ni qarab chiqamiz. Bunda davlatombor rejalashtirilayotgan xarajatlar miqdorini, ya’ni «Keynsian xochi»ni olish uchun rejalashtirilayotgan xarajatlar miqdorini tashkil qilluvchi omillarni ko‘rib chiqamiz.

Rejalashtirilayotgan xarajatlar uy xo‘jaliklari, firmalar va davlatning tovar va xizmatlarini sotib olishga mo‘ljallagan xarajatlar miqdoridan iborat. Haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlardan, ya’ni biror firma rejalashtirilmagan investitsiyalar miqdorini oshirishga yoki kamaytirishga qaror qilgan vaziyatlardagina farq qiladi.

Faraq qilaylik, iqtisodiyot yopiq iqtisodiyotdan iborat, sof eksport nolga teng. Biz rejalashtirilayotgan xarajatlar miqdorini (E) iste’mol (U), rejalashtirilgan investitsiyalar (I) va davlat xarajatlari (G)ning yig‘indisi orqali topishimiz mumkin:

$$E=S+I+G.$$

Demak, keynsian xochi daromadning (U) rejalashtirilayotgan xarajatlarga bog‘liqligini aks ettirar ekan. Bu tenglamaga biz iste’mol funksiysini qo’shsak:


$$S = S_0 + MRS(U-T)$$

Iste'mol funksiyasi ko'rsatayaptiki, iste'mol ixtiyoridagi daromadlar miqdoriga bog'liq ($U-T$). Bundan tashqari, rejalashtirilgan investitsiyalar miqdori ($I=I$) shaklida qayd qilingan bo'lsin va byudjet siyosati davlat xarajatlari va soliqlari miqdori o'zgarmagan holda qolsin: $G=G$; $T=T$.

Bu tenglamalarni birlashtirsak, quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz:

$$E = S_0 + MRS(U-T) + I + G;$$

Quyidagi 12.1-chizmada rejalashtirilayotgan xarajatlar grafikda daromad funksiyasi shaklida berilgan. Bu to'g'ri chiziq ijobiy siljishga ega. Chunki, yuqori daromadlar darajasi yuqoriroq iste'mol darajalariga, ya'ni rejalashtirilayotgan xarajatlarning yuqoriroq darajasiga olib keladi. Chiziqnning egilishi iste'molga chegaraviy moyillikni bildiradi – MRS . ya'ni, u daromadlarni 1 so'mga oshirganda rejalashtirilayotgan xarajatlarning qanchaga oshishini ko'rsatadi.



12.1-chizma. Daromad funksiyasi sifatida rejalashtirilayotgan xarajatlar.

Muvozanatdagি iqtisodiyot. Bilamizki, iqtisodiyot haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo'lgan sharoitda muvozanatga erishadi. Ma'lumki, YaMM ko'rsatkichi ikki yoqlama ma'noga ega: ya'ni, iqtisodiyot agentlari daromadi va ishlab chiqarish mahsulotlarini sotib olishga ketgan xarajatlardan iborat. Shuning uchun

u nafaqat jami daromadlar, balki tovar va xizmatlarga qilingan xarajatlar miqdoriga tenglashadi. Biz muvozanat sharoitini quyidagicha yozamiz: haqiqiy xarajatlar teng rejalashtirilgan xarajatlarga $Y=E$;

12.2. LM – egri chizig‘i va uning o‘zgaruvchilari

Keyingi 12.2-chizmadagi 45 gradusli burchak hosil qilgan chiziq ushbu sharoit bajarilishini ko‘rsatadigan nuqtani bildiradi. Agarda biz rejalashtirilgan xarajatlar funksiyasini qo‘shsak, diagramma «Keynsian xochi» shakliga keladi.

LM egri chizig‘i o‘zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o‘rtusidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunish uchun foiz stavkasining oddiy nazariyasini qarab chiqamiz. Bu nazariya tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasiidir.

Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi – bu, keynschilar foiz stavkasi nazariyasini oddiy sharhlab berishdan iborat. IS egri chizig‘ini tashkil qilishda «Keynsian xochi» asos bo‘lganidek, tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi ham **LM** egri chizig‘ini tashkil qilib, pul vositalari real zaxiralariga talab va taklif foiz stavkasini aniqlashni tushuntirib beradi. Buni biz real pul vositalariga taklifdan boshlaymiz.

Agarda **M**-pul taklifini, **R**-narxlar darajasini bildirsa, **M/R** esa pul vositalarining real zaxirasi miqdorini ko‘rsatadi.

Real pul zaxiralariga talabni quyidagi ko‘rinishda yozamiz:


$$(M/R) = f(R, Y)$$

Bu yerd, **f (R, Y)** -funksiyasi pulga talab miqdorini bildiradi.

Bu tenglama ko‘rsatayaptiki, pulga bo‘lgan talab miqdori foiz stavkasi funksiyasini anglatadi.

Keyingi grafikda foiz stavkasi va real pul zaxiralari miqdoriga tulub teskari bog‘liqlikka ega. Chunki, yuqori foiz stavkasi pulga talab miqdorining kamayishini ko‘rsatadi.

Foiz stavkasi



12.2-chizma. Real pul zaxiralariga talab.

Insonlar pulni saqlashadi, chunki pul tez almashtirish xususiyatiga ega. Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi ko'rsatadiki, pulga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasiga bog'liq. Shuning uchun foiz stavkasi oshganda, insonlar boyliklarini pul shaklida kamroq ushlab turishga harakat qiladi.

Foiz stavkasi tengligiga ega bo'lish uchun pulga talab va taklif egri chiziqlarini birlashtiramiz.

Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasiga mos ravishda foiz stavkasining o'zgarishi pul bozorida muvozanatga olib keladi. Foiz stavkasining muvozanat nuqtasida pul vositalari zaxirasiga talab miqdori taklif miqdoriga teng. Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi, Ya'ni pul taklifining kamayishi foiz stavkasini oshiradi, pul taklifining ko'payishi esa foiz stavkasini kamaytirishdan kelib chiqqan.

Endi tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyясini **LM** egri chizig'ini tashkil qilishda foydalanamiz. Muvozanat foiz stavkasi – pul talabi va taklifini tenglashtiradigan foiz stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikni **LM** egri chizig'i ifodalaydi.




12.3-chizma. Tez (pulga) aylanishi afzalligi nazariyasi.

Shungacha faqat foiz stavkasi real pul zaxiralariga bo‘lgan talab miqdoriga ta’sir ko‘rsatadi, deb hisobladik. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, pul talabi miqdoriga daromadlar darajasi ham ta’sir ko‘rsatadi. Daromadlar yuqori bo‘lsa, xarajatlar ham ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun odumlar ko‘proq ishlarni amalga oshirishga harakat qilishadi. Bu esa o‘z navbatida ko‘proq pulni talab qiladi. Shunday qilib, daromadlar durajasining yuqoriroq bo‘lishi pul talabini oshiradi. Boshqacha mytganimizda, daromad va pulga talab o‘rtasida to‘g‘ri aloqa mayjud.


Pul bozori holatini belgilovchi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bunday o‘zaro munosabatlar yig‘indisining grafigi (12.3-chizma) quyidagicha bo‘ladi.

A qismidan ko‘rinib turibdiki, pulga bo‘lgan talab, foiz stavkasi shuningdek, daromadlar ko‘payishi natijasida ham oshadi. Bu holda Md_1 yuqori surilib, Md_2 holatini egallaydi va unda muvozanatlil foiz stavkasi ham o‘sib, R_1 holatidan R_2 holatigacha ko‘tariladi.

A. Real pul bozori



B. LM egri chizig'i



Real pul zaxirasi.

Daromad

12.3-chizma Real pul bozori va LM egri chizig'inining bog'liqligi.

Shunday qilib, daromad yuqoriroq foiz stavkasiga olib keladi va buni LM egri chizig'i aks ettiradi. U pul bozorida foiz stavkasi va daromad o'rtaсидаги munosabatlarni ko'rgazmali tarzda ifodalaydi. Daromad darajasi qancha baland bo'lса, pulga bo'lган talab shuncha yuqori va shunga muvofiq muvozanatli foiz stavkasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, IS chizig'i ham o'zida ikki o'zgaruvchi, Ya'ni foiz stavkasi va daromadning mumkin bo'lган turli xil o'zaro bog'liqliklarini aks ettiradi.


12.3.IS – LM modeli va undagi makroiqtisodiy muvozanat

Endi bizda IS – LM modelining barcha o'zgaruvchi omillari mavjud. Modelning ikkita tenglamasi:

$$(IC) \quad U = S(U-T) + I(R) + G; \quad (LM) \quad M/P = L(R, U);$$

Byudjet-soliq siyosati G va T pul kredit siyosati M va narxlar darajasi R modelda o'zgaruvchi omillar sifatida berilgan. Bu ikki IS va LM egri chiziqlarini birlashishida hosil bo'ladigan grafikni biz, IS-LM modeli deb atashimiz mumkin.

IS egri chiziq – bu tovarlar bozoridagi muvozanat egri chiziq'idir. U o'zida tovarlar bozoridagi muvozanatni ta'minlovchi foiz stavkasi R ning va daromad U ning barcha o'zaro birliklarini ko'rnatadi, LM egri chizig'i esa pul bozoridagi muvozanat shartlarini qondiruvchi R va U ning o'zaro birlashuvlarini beradi.



12.5-chizma. IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanat.

IS-LM egri chiziqlari kesishadigan nuqta IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanatlik holatidir. Bu nuqta o'zida shunday foiz stavkasi R^* ni va daromad darajasi U^* ni aniqlaydiki, qachonki ular real pul mablag'lariga bo'lgan talab ularning taklifiga teng kelgan vaziyatni ifodalaydi. Ya'ni mahsulotlar pul bozorida ham muvozanat shartlariga shoyu qillasa, pulga bo'lgan umumiy talab foiz stavkasi miqdoriga yoki pulning ishlatalish bahosiga nisbatan teskari bog'liqlikda bo'ladi.

Shunday qilib, IS-LM modeli iqtisodiy siyosatning oqibatlarini qilishi muddatli davrga makroiqtisodiy tahlil qilishda juda keng uchunlaidi.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy o'sish to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish potensial YaIM hajmining uzoq muddatli ko'payishi tendensiyasini anglatadi. U o'sish ishlab chiqarish natijalari va omillarida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarini xarakterlaydi.

Iqtisodiy o'sish real YaIM ning yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM ni o'sish sur'ati bilan o'chanadi.

Iqtisodiy o'sish taklif, talab va taqsimot omillari bilan belgilanadi.

Iqtisodiy o'sishni belgilovchi talab omillariga tabiiy resurslar soni va sifati, mehnat resurslari soni va sifati, kapital, texnologiya va boshqalar kiradi.

Bulardan foydalanish usuliga ko'ra iqtisodiy o'sish ekstensiv va intensiv turlarga bo'linadi. Ishlab chiqarish resurslar miqdorini o'zgartirmagan holda o'ssa, intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish modellari deganda iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda foydalaniladigan, ularning manbalarini aniqlash va qonuniyatlarini ohib berishga xizmat qiluvchi modellar tushuniladi.

Keynschilar (Harrod, Domar) modellarida iqtisodiy o'sishning asosiy omil investitsiyalar deb qaraladi. Jamg'arish normasini ko'tarish orqali investitsiyalarni ko'paytirish va ularning samaradorligini oshirish iqtisodiy o'sish shartlari deb qaraladi.

Klassik modellarda iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning barcha omillariga bog'liq, mehnat va kapital o'zaro almashiniladi deb qaraladi. Shunga ko'ra kapitalning ma'lum darajasida mehnatning kapital bilan qurollanganlik darjasasi, o'z navbatida ishlab chiqarish hajmi ham turlicha bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Milliy darajadagi yoki makroiqtisodiy muvozanat nimani bildiradi?

2. IS egri chizig‘ining asosiy o‘zgaruvchilari qanday? Yopiq iqtisodiyot va ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy muvozanatga qanday erishiladi?
3. LM egri chizig‘ining asosiy o‘zgaruvchilari nimalardan iborat?
4. LM egri chizig‘ida Keynsian xochi nimani ko‘rsatadi?
5. Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasini qanday tushunasisiz?
6. IS-LM modeli qanday vaziyatni ifodalaydi?

Mavzu bo‘yicha masalalar

1-masala

Oehiq iqtisodiyotda iste’mol funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$C = 100 + 0,65Y_d, \text{ investitsiya funksiyasi } I = 200 - 1500r, \text{ soliqlar } T = 200, \text{ davlat xarajatlari } G = 200, \text{ pulga talab funksiyasi } M = (0,5Y - 2000r)P, \text{ pul taklifi } M = 550, \text{ narxlar darajasi } P = 1, \text{ sof eksport funksiyasi } X_n = 100 - 0,05Y - 500r. \text{ IS va LM egrilar tenglamasi, shuningdek, } Y \text{ daromad va } R \text{ foiz stavkasining muvozanat qiymatini aniqlang.}$$

Yechish:

IS egri chizig‘i tenglamasini topamiz

$$Y = S + I + G + X_n.$$

$$Y = 300 + 0,65(Y - 200) + 200 - 1500r + 200 + 100 - 0,05Y - 500r.$$

$$0,4Y = 670 - 2000r.$$

$$Y = 1675 - 5000r$$

LM egri chizig‘i tenglamasini topamiz

$$M/P = kY - hr.$$

$$110/I = 0,5Y - 2000R.$$

$$0,1Y = 550 + 2000R.$$

$$Y = 1100 + 4000R - LM \text{ tenglamasi}$$

Y daromad va R foiz stavkasining muvozanat qiymatini aniqlash uchun IS va LM egri chiziqlarining kesishish nuqtasini topish kerak.

$$1675 - 5000r = 1100 + 4000r.$$

$$575 = 9000r \Rightarrow r = 0,064 \text{ Yoki } 6,4\%.$$

Tenglama modellaridan biriga foiz stavkasining muvozanat qiymatini qo'ygan holda, daromadning muvozanat qiymatini topish mumkin:

$$Y = 1100 + 4000 \times 0,064 = 1356.$$

2-masala

Ochiq iqtisodiyotda iste'mol funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$C = 100 + 0,8Y;$$

$$- investitsilar funksiyasil = 200 - 400r;$$

$$- soliq stavkasi t = 0,2;$$

$$- davlat xarajatlari G = 200;$$

$$- pulga talab funksiyasi M = (0,8Y - 1600r)P;$$

$$- pul taklifi M = 800;$$

$$- narx darajasi P = 1;$$

$$- sof eksport funksiyasi X_n = 100 - 0,04Y - 400r;$$

IS va LM egri chiziqlari tenglamalari, shuningdek, Y daromadlar foiz stavkasining muvozanat qiymatini aniqlang. Agar davlat xarajatlari 100 ga ko'tarilsa, IS egri chizig'i va daromad hamda foiz stavkasining muvozanat qiymati qanday o'zgaradi?

Yechish:

IS egrisi tenglamasini topamiz:

$$Y = C + I + G + X_n.$$

$$Y = 100 + 0,8(Y - 0,2Y) + 200 - 400r + 200 + 100 - 0,04Y - 400r$$

$$0,4Y = 600 - 800r$$

$$Y = 1500 - 2000R - IS \text{ tenglamasi.}$$

LM egrisi tenglamasini topish:

$$M / P = kY - hr.$$

$$800 / 1 = 0,8Y - 1600r.$$

$$0,8Y = 800 + 1600r.$$

$Y = 1000 + 2000r$ – LM tenglamasi.

Y daromadlar foiz stavkasining muvozanat qiymatini aniqlash uchun IS va LM egrilarining kesishuv nuqtasini topish kerak.

$$1500 - 2000r = 1000 + 2000r$$

$$500 = 4000r \Rightarrow r = 0,125 \text{ yoki } 12,5\%.$$

Tenglama modellaridan biriga foiz stavkasining muvozanat qiymatini qo'ygan holda, daromadning muvozanatlari hajmini topish mumkin:

$$Y = 1000 + 2000 \times 0,125 = 1250.$$

Davlat xarajatlari o'sishi IS egri chizig'i o'ngga siljitadi va daromad hamda foiz stavkasining muvozanat qiymatini ortishiga olib keladi. Daromadning yangi qiymatini multiplikator yordamida aniqlash mumkin:

$$\Delta Y = AG \times m, \text{ bu yerda, } m = \text{davlat xarajatlari multiplikatori.} m = 1/4 (1 \text{ MPC})$$

$$m = 1/0,2 = 5.$$

$$\Delta Y = 100 \times 5 = 500, \text{ ya'ni daromadning yangi muvozanat qiymati } Y = 1750.$$

Ushbu qiymatni LM tenglamaga qo'ygan holda, muvozanatlari loz stavkasini aniqlash mumkin:

$$Y = 1000 + 2000r$$

$$1750 = 1000 + 2000r \Rightarrow r = 0,375 \text{ Yoki } 37,5\%.$$

3-masala

Ochiq iqtisodiyotda iste'mol funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$C = 80 + 0,8Y_d;$$

Investitsiyalar funksiyasi $I = 100 - 800r$;

Koliq stavkasi $t = 0,25$;

Davlat xarajatlari $G = 60$;

Pulga talab vazifasi $M = (0,5Y - 1000r)P$;

Pullik taklif $M = 200$;

Narxlar darajasi $P = 2$.

IS va LM egri chiziqlar tenglamasi, shuningdek, Y daromad va r foiz stavkasining muvozanat qiymatini aniqlang. Agar davlat xarajatlari 100 ga ko'tarilsa, LM egri chizig'i va daromad hamda foiz stavkasining muvozanatli darajalari qanday o'zgaradi?

Yechish:

IS egri chizig'i tenglamasini topamiz

$$Y = C + I + G + X_n.$$

$$Y = 80 + 0,8(Y - 0,25Y) + 100 - 800r + 60.$$

$$0,4Y = 240 - 800r.$$

$$Y = 600 - 2000R - IS \text{ tenglamasi.}$$

LM egri chizig'I tenglamasini topamiz

$$M : P = kY - hr.$$

$$200 : 2 = 0,5Y - 1000r.$$

$$0,5Y = 100 + 1000r.$$

$$Y = 200 + 2000R - LM \text{ tenglamasi.}$$

Y daromadlar foiz stavkasining muvozanatli darajasini aniqlash uchun IS va LM egri hiziqlarining kesishuv nuqtasini topish kerak.

$$600 - 2000R = 200 + 2000r.$$

$$400 = 4000r \Rightarrow r = 0,1 \text{ Yoki } 10\%.$$

Tenglama modellaridan biriga foiz stavkasining muvozanatli darajasini qo'ygan holda, daromadning muvozanatli darajasini topish mumkin:

$$Y = 200 + 2000 \times 0,1 = 400.$$

Pul taklifining o'sishi LM egri chizig'ini o'ngga siljitadi va daromad hamda foiz stavkasining muvozanatli darajalarini kamayishiga olib keladi. Ularni aniqlash uchun LM egri chizig'ineng tenglamasiga yangi M qiymatni qo'yish zarur:

$$300 / 2 = 0,5Y - 1000r.$$

$$0,5Y = 150 + 1000r.$$

$$Y = 300 + 2000r - LM \text{ egri chizig'ining yangi tenglamasi.}$$

$$600 - 2000r = 300 + 2000r.$$

$$r = 0,075 \text{ Yoki } 7,5\%,$$

$$Y = 300 + 2000 \times 0,075 = 450.$$

4-masala

Aholining pulga talabi quyidagi formula bilan aniqlanadi $L = 0,8Y + 600 - 50i$. Muomalada 1000 p.b. mavjud. Narx darajasi 1ga teng. Tadbirkorlarning investitsiyalarga talabi quyidagi funksiyada berilgan: $Inv = 80 - 10i$, Iste'mol talabi: $S = 1200 + 0,6Y$. YaMMga davlat xarajatlari va soliqlar teng bo'lib 500 p.b. tashkil qildi. Agar Muomaladagi pul massasi 100 p.b.ga kamaysa foiz stavkasi va YaMMning muvozanati qanday o'zgaradi.

Yechish:

Masalani yechish uchun IS, LM egri chiziqlarining tenglamasidan foydalanamiz:

$$\frac{IS}{Y} = C + Inv + G;$$

$$\frac{LM}{M^s} = L.$$

Ma'lumotlarni formulaga qo'yamiz:

$$IS: Y = 0,6(Y - 500) + 1200 + 80 - 10i + 500 = 0,6Y - 10i + 1480;$$

$$LM: 0,8Y + 600 - 50i = 1000;$$

$$IS: i = 148 - 0,04Y;$$

$$LM: i = 0,016Y - 8.$$

Tenglamani yechish orqali muvozanatdagi foiz stavkasi 37,57, amalik talab $Y = 2785,7$ ga teng ekanligi aniqlandi.

Agar pul miqdori kamaysa LM boshqa ko'rinishga ega bo'ladi:: $0,8Y + 600 - 50i = 900$ yoki $LM: i = 0,016Y - 6$.

Tenglamani yechish natijasida foiz stavkasi 38 va YaMM-2750 p.b. ga teng ekanligi aniqlandi.

O'zgarishlarini aniqlaymiz: $38 - 37,57 = +1,43\%$

~~2750 - 2785,7 = -35,7 sh.b.~~

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1.Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan:

$$C = 400 + 0.9Y_d \text{ (iste'mol);}$$

$$I = 300 - 2000R \text{ (investitsiyalar);}$$

$$X_n = 100 - 0,05Y - 1000R \text{ (sof eksport);}$$

$$M = (0,4Y - 100R)P \text{ (nominal pul taklifi);}$$

$$G = 100 \text{ (davlat xarajatlari);}$$

$$t = 0,5 \text{ (soliq stavkasi);}$$

$$M_s = 180 \text{ (baholarning belgilangan darajasi).}$$

Bu holatda daromadlarning va foiz stavkasining muvozanatli darajalarini toping.

2. Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar vositasida berilgan:

$$Y = C + I + G + X_n; \quad C = 100 + 0,9Y_d; \quad I = 200 - 500R;$$

$$X_n = 100 - 0,12Y - 500R; \quad M = (0,8Y - 2000R)P;$$

$$G = 200; \quad t = 0,2; \quad M_s = 800; \quad P = 1.$$

Bunday vaziyatda LM egri chizig'i tenglamasi qanday ko'rinishda bo'ladi?

3. Ochiq iqtisodiyotda iste'mol funksiyasi:

$$C = 300 + 0,8Y_d;$$

$$- investitsiyalar funksiyasi I = 200 - 1500r;$$

$$- soliq stavkasi t = 0,2;$$

$$- davlat xarajatlari G = 200;$$

$$- pulga talab funksiyasi M = (0,5Y - 200r)P;$$

$$- pul taklifi M = 550;$$

$$- narxlar darajasi P = 1;$$

$$- sof eksport funksiyasi X_n = 100 - 0,04Y - 500r.$$

IS va LM egri chiziqlari tenglamasi, shuningdek, Y daromad va r foiz stavkasining muvozanat qiymatini aniqlang. Agar narxlar darajasi ikki barobar oshsa, LM egri chizig'i va daromad hamda foiz stavkasining muvozanat qiymati qanday o'zgaradi?

4. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan: muvozanatli ishlab chiqarish hajmi $U=5000$; iste'mol funksiyasi – $S = 500 + 0,6(U-T)$; Soliqlar $T=600$; davlat xarajatlari – 1000; investitsiya funksiyasi: $I=2160-10000R$. Bu holatda muvozanatning rejl foiz stavkasi nechaga teng bo'ladi?

5. Iqtisodiy tizim quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi: iste'mol funksiyasi $C=60+0,8 Yd$. Rejalashtirilgan investitsiyalar daromadga bog'liq emas va $I= 40$ birlik. Davlat xarajatlari $G= 20$ birlik. Topilsin:

- a) Iqtisodiyotdagি muvozanatli daromad darajasini;
- b) xarajatlar multiplikatori miqdorini;
- c) davlat xarajatlari 10 birlikka ko'payganda muvozanatli daromad darajasini.

6. Iqtisodiy tizim quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

Iste'mol funksiyasi $C=38+0,5 (Y-T)$;

Investitsiya funksiyasi $I=50-100 R$;

Davlat xarajatlari va soliqlar $G=T=20$;

Pulga talab funksiyasi: $L=0,5-80R$;

Pul taklifi $M=160$; baholar darajasi $P=2$.

a) IS egri chizig'i tenglamasini tuzing.

b) LM egri chizig'i tenglamasini tuzing.

c) Foiz stavkasi va daromadning muvozanatli darajasini toping.

d) Davlat xarajatlari 20 dan 30 ga qadar ko'paysa foiz stavkasi va daromadning muvozanatli darajasi qanday o'zgaradi.

e) pul taklifi 160 dan 180 ga qadar ko'paysa foiz stavkasi va daromadning muvozanatli darajasi qanday o'zgaradi.

7. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan tasvirlangan:

$$Y = C + I + G + X_n$$

$$C = 400 + 0,9 Y \quad dI = 200 + 0,25 Y$$

$$X_n = 200 - 0,1 Y \quad G = 200 \quad t = 0,333$$

Daromadning muvozanatli darajasi va avtonom xarajatlar multiplikatorini toping.

8.Yopiq iqtisodiyot bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

$$S = 170 + 0,6Y^v;$$

$$Inv = 100 - 40i;$$

$$G = 350;$$

$$T = 200;$$

$$L = 0,75Y - 6i;$$

$$M^s = 735.$$

IS formulasini aniqlang..

9.Yopiq iqtisodiyot bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan: $S = 170 + 0,6Y^v;$

$$Inv = 100 - 40i;$$

$$G = 350;$$

$$T = 200;$$

$$L = 0,75Y - 6i;$$

$$M^s = 735.$$

LM formulasini aniqlang

10.Yopiq iqtisodiyotda davlatning ishtirokisiz iste'mol quyidan funksiya bilan aniqlanadi. $S = 0,75Y + 60$, investitsiya – $Inv = 200 - 5i$. Mulk uchun pulga talab quyidagi formulada berilgan: $M^d_{im} = 300 - 10i$, bitimlar uchun pulga talab: $M^d_{sd} = 0,5Y$. Muomalada 450 p.b. mavjud. Agar, iste'molga chekli moyillik 0.8 ga ko'paysa foiz stavkasi va YaMMning muvozanat qiymatlarini aniqlang.

11.Iqtisodiyot holati quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi: $S = 0,5Y^v + 80$, $Inv = 300 - 10i$, $G = 0,1Y + 60$, soliqlar 100 sh.b. tashkil etadi. $M^s = 500$, $L = 0,4Y + 100 - 12i$. IS – LM modelidan foydalangan holda qo'shma muvozanat ko'rsatkichlarini toping.

XIII BOB. IQTISODIY O'SISH:UMUMIY TAFSIFI, NEOKEYNSCHA VA NEOKLASSIK MODELLARI

13.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi

Iqtisodiy o'sish bevosita YaIM hajmining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari har bir birligi hisobiga o'sishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi²⁴.

Iqtisodiy o'sishni YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog'liq bo'ladi. Odatda, biron bir mamlakat iqtisodiy o'sishini YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali o'lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini tavsiflaydigan mazkur ko'rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o'sishi) miqdoriy kb'rsatkichlar bo'lib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli, farovonlikning haqiqiy o'sishini to'liq tavsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasini pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va inson hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi. Shunga ko'ra, iqtisodiy o'sishning barcha tavsifi yillik o'sish sur'atlarining foizdagi o'lchovida to'liq o'z ifodasini topadi:

$$OS = \frac{YaIM_{joriy\ davr} - YaIM_{bazis\ davr}}{YaIM_{bazis\ davr}} \times 100\%,$$

bu yerda;

²⁴ McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 411

O'S – iqtisodiy o'sish sur'ati, foizda;

YaIM_{bazis davr} – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi;

YaIM_{joriy davr} – joriy davr (yil)dagi real YaIM hajmi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Iqtisodiy o'sish ikki xil usul bilan aniqlanadi va o'lchanadi.

Birinchi usul, YaMMni (YaIM, SMM) o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumi iqtisodiy imkoniyatlari harakatini aniqlash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi usul, real YaMMni (YaMM; SMM) o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi.

Umumiy iqtisodiy o'sish darajasi aslida YaIM miqdori bilan belgilanadi. Shuningdek bu ko'rsatkichlar miqdori va hal qilayotgan vazifasiga qarab YaMM yoki MD ham bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkichlarning bari bir-biriga juda ham yaqin. YaMM ham YaIM kabi ushbu mamlakat aholisi olayotgan daromadlar miqdorini ko'rsatadi. Shuning uchun ham uni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar dinamikasi va darajasini aniqlayotganda foydalanish mumkin. Iqtisodiy o'sish nazariyasi va modellarida umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning farqi unchalik katta ahamiyatga ega emas. Chunki, ularning farqi iqtisodiy o'sish chegarasi va omillari o'sish darajasini tahlil qilishda hal qiluvchi jarayon bo'lib hisoblanmaydi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasida daromadlar iste'mol va investitsiyalarga bo'linadi.

$$Y = C + I$$

Davlat xarajatlari va sof eksport ko'rsatkichlari ham iste'mol va investitsiyalar tarkibiga kiritib yuboriladi. Absolyut miqdordagi ko'rsatkichlar dinamikasi Y_t (t -vaqt indeksi) va jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar birgalikda o'sish jarayonini bildiradi. Iste'mol hajmi C_t iqtisodiyotning pirovard maqsadini va yashash darajasini oshishini bildirsa, investitsiya esa I_t resurs imkoniyatlarining o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini bildiradi. Iste'mol va investitsiya o'rtasida yetarlicha qarama-qarshilik mavjud, chunki joriy iste'mol miqdorining oshishi iqtisodiy o'sish potensiali imkoniyatlarini qisqartiradi.

13.2. Iqtisodiy o'sish o'chovi: potensial va haqiqiy daromad dinamikasi

O'sishning barcha imkoniyatlari real miqdorda, Ya'ni doimiy narxlarda qaraladi. Aksincha, nominal ko'rsatkichda ularning dinamikasi nafaqat o'sish darajasini, balki infliyatsiyani ko'rsatgan bo'lar edi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

a) **bazis o'sish sur'ati** = $Y_t / Y_0 \times 100\%$;

b) **zanjirli o'sish sur'ati** = $Y_t / (Y_{t-1})$;

Qo'shimcha o'sish sur'atlari esa:

a) **bazisli qo'shimcha o'sish sur'ati** = $(Y_t - Y_0) / Y_0$;

b) **zanjirli qo'shimcha o'sish sur'ati** = $(Y_t - Y_{t-1}) / Y_{t-1}$:

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish, birinchidan milliy mahsulot hajmini va daromadni ko'payishini, ikkinchidan resurslardan samarali foydalanishni, uchinchidan yangi yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga, to'rtinchidan xalqaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sish usullaridan to'g'ri va o'z joyida foydalanish katta ahamiyatga egadir. Masalan, mamlakat harbiy salohiyatini aniqlash va rivojlantirish muammosi qaralayotganda iqtisodiy o'sishning birinchi usulidan, mamlakat aholisining turmush faoliyati taq qoslanayotganda ikkinchi usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, Hindistonda yetishtirilgan YaMM Shvesariyada yetishtirilgan YaMM dan 70% ga ko'p, ammo aholisi yashash darajasi bo'yicha Hindiston aholisi Shvetsariya aholisi yashash darajasidan 60 martagacha kam.

13.3. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar

Iqtisodiy o'sish avvalom bor foydalanilayotgan resurslarning soni va sifatiga, shuningdek foydalanilayotgan texnologiyaga bog'liq. Agarda qaralayotgan omillar va iqtisodiy o'sish tarkibiy qismlari yaxlitlashtirilgan bo'lsa iqtisodiy o'sishni ekstensiv va intensiv o'sishga bo'lish mumkin. Agarda foydalanayotgan resurslar miqdori o'zgarmay qolgan holda ishlab chiqarish o'ssa to'liq intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi.

Umuman olganimizda iqtisodiy o'sish bir nechta omillar ta'sirida amalga oshiriladi. Ya'ni:

- 1. Tabiiy resurslar soni va sifati;**
- 2. Mehnat resurslari soni va sifati;**
- 3. Asosiy kapital hajmi;**
- 4. Texnologiya va boshqalar.**

Ushbu omillarning barchasi ishlab chiqrishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa iqtisodiy o'sish istiqbollarini belgilashda ishlab chiqarish funksiyalaridan keng foydalanish imkonini beradi. Ya'ni iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish omillari miqdorining qo'shimcha o'sish sur'atlari ($\Delta K / K$ va $\Delta L / L$) va texnika taraqqiyoti natijasida ularning umumiy unumdorligini qo'shimcha o'sish sur'atlariga ($\Delta A / A$)

Λ) bog'liq holda mahsulot ishlab chiqarishning qo'shimcha o'sish sur'atini ($\Delta Y / Y$) hisoblash imkonini beradi:

$$\Delta Y/Y = \alpha (\Delta K/K) + (1-\alpha) (\Delta L/L) + \Delta A/A$$

Bu yerda, α koeffitsiyenti – ishlab chiqargan mahsulotda kapital hissasi;

1– α koeffitsiyenti – ishlab chiqargan mahsulotda mehnat hissasi.

Faraz qilaylik, milliy mahsulotda kapital hissasi 0,3 ni, mehnat hissasi esa $1-0,3= 0,7$ ni tashkil etsa, unda kapitalni ($\Delta K/K$) va mehnatni ($\Delta L/L$) 10%ga qo'shimcha o'sishi ishlab chiqarish hajmini ham 10% ga qo'shimcha o'sishiga olib keladi. ($0,3 \times 10 \% + 0,7 \times 10 \% = 3 \% + 7 \% = 10\%$) ya'ni ekstensiv omillar hisobiga ro'y beradi.

Ammo, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi intensiv omillar hamma vuqt ham qadrlangan va iloji boricha ulardan foydalanishga harakat qilinadi. Shuning uchun ham davlat iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash maqsadida, fan-texnikaning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, soliq mexanizmi va tizimini iloji boricha ixchamlashtirish kabi ishlarni olib bormoqda.

Iqtisodiy o'sishga mamlakatning soliq tizimi ham sezilarli ta'sir qilindi. Soliqqa tortish stavkalarini kamaytirish va amortizatsiyaga nafotmalarning o'sish tomon o'zgarishi investitsiyalar hajmini ko'paytiradi va shu orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Keyingi yillarda ijtimoiy va ekologik muammolarni kuchayishi deyarli barcha mamlakatlarda iqtisodiy o'sish eng avvalo aholi fuqovonligini ta'minlashning sharti sifatida qaralmoqda. Chunki, iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash zarurligi sababli rivojlangan mamlakatlarda amal qilgan iqtisodiy o'sishning miqdoriy nazariyasini o'rnini iqtisodiy o'sishning sifat nazariyasiga bo'shatib berdi.

Ya'ni davlat siyosati iqtisodiy o'sishning quyidagi muammolarini hal etishga yo'naltirilgan:

- iste'mol darajasi yuqori bo'lgan iqtisodiyotning barqaror holatini ta'minlashga qaratilgan omonat jamg'arish me'yorlarini tanlash;
- aholi o'sishini tartibga solish;
- fan-texnika taraqqiyotining ekologik jihatdan xavfsiz yutuqlarini joriy etish va mehnat unumdarligini oshirish.

Iqtisodiy o'sishning ijtimoiy yo'naltirilganligi kuchayib borishi bilan amaliyotda xalq farovonligi tushunchasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim mezonlari sifatida yanada aniqlanmoqda va kengaytirilmoqda. Agarda ilgarilari uni moddiy ta'minlanganlikning miqdoriy ko'rsatkichlari aks ettirgan bo'lsa, hozirda birinchi o'ringa o'rtacha umr ko'rish, o'lim darajasi, shu jumladan bolalar o'limi, ishsizlik darajasi, daromadlar tengsizligi, ta'lim darajasi, atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlar qo'yilmoqda. Ya'ni iqtisodiy o'sish shaxsning rivojlanib borishi uchun sharoit yaratib berishi lozim.

Iqtisodiy o'sishning salbiy oqibatlaridan biri bo'lib aholini ijtimoiy, mulkiy tabaqalanishi kuchayishi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlat aholi turli qatlamlarini himoya qilish maqsadida ijtimoiy siyosatlarni olib boradi.

Davlat ushbu ijtimoiy siyosatlarni olib borishdan oldin aholi daromadlari miqdorini aniqlaydi. Aholi daromadi ish haqi, dividendlar va foizlardan, shuningdek, transfert to'lovlaridan tashkil topadi. Daromadlarning kengroq ma'nosи pulsiz yoki imtiyozli narxlarda aholi oladigan tovarlar va ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy kommunal xo'jaligi, transport va boshqa xizmatlar ko'rinishidagi to'lovlarini ham o'z ichiga oladi.

Davlat daromadlarning qayta taqsimlanishini asosan ikki xil tayanch omillar yordamida amalga oshiradi:


1. Soliq tizimi.
2. Transfert dasturlari.

Davlat transfert dasturlaridan tashqari yana bir qator nodavlat va jamoat dasturlari ham mavjud. Davlat va nodavlat tashkilotlari transfert dasturlarini barcha turlari yagona bir maqsadga, ya'ni aholi daromadlarini tenglashtirishga yo'naltirilgan.

Daromadlar taqsimlanishining tengsizligini ifodalash uchun ko'p hollarda Lorens egri chizig'i diagrammasidan foydalaniлади.

Bu chizma to'rtburchak ko'rinishida bo'lib, uning gorizontal tomonida – aholi xisssasi (foizi), vertikal tomonida-daromad hissasi (foizi) ko'rsatilgan. Agar jamiyatda daromad mutlaq baravar tuqsimlangan deb faraz qilsak, Ya'ni 20 % aholi jami daromadning 20 % ga, 40 % – 40 % ga ega bo'lsa, unda mutlaq tenglikning bu vaziyatini ifodalovchi chiziq bissektrisa ko'rinishiga ega bo'lar edi.

Ammo, hayotda aholi o'rtasida daromadlarni taqsimlanishi bir xil emas. Masalan, agar aholining 20% A nuqta bilan belgilangan daromadlarning ozgina qismini olsa, aholining 40% B nuqta bilan belgilangan qismini oladi va hokazo.



13.1-chizma. Lorens egri chizig'i.

Bunday holatda daromadni haqiqatda taqsimlanishini bildiruvchi chiziq Lorens egri chizig'i deb ataladi. Bissektrisa va Lorens egri chizig'i o'rtasidagi uzilish yoki maydon qancha katta bo'lsa, daromad taqsimlanishining tengsizlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Bu uzilish kattaligi tengsizlik darajasini ifodalaydi.

13.4. Iqtisodiy o'sish modellari va Robert Solou modeli

Iqtisodiy o'sish modellari uzlusiz yoki nodiskret variantlarda yozilishi mumkin. Birinchi holatdagi $U_t, I_t, C_t, K_t, L_t, W_t$ o'zgaruvchi modellari vaqtning uzlusiz funksiyasi hisoblanadi. Ikkinci holatda bu miqdorlar vaqtning ketma-ketligi sifatida qaraladi. Agarda model real statistik ma'lumotlardan tashkil topsa va amaliy hisob-kitoblarda foydalanilsa, u holda uni nodiskret yoki nouzlusiz qilish oson, chunki statistik ma'lumotlar har doim uzlusiz emas, balki nodiskretdir, ularda vaqt-vaqt bilan uzilishlar bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish modellarining umumlashtirilgan "karkasi"ni quyidagicha yozish mumkin. Ushbu karkaslığı har bir aniq modelni tuzayotganda ayrim qo'shimcha o'zgaruvchilar, cheklashlar, iqtisodiy sharoitlar va imkoniyatlardan foydalanish mumkin.

$$Y_t = f(K_t, L_t, t); \quad (1)$$

$$Y_t = C_t + I_t; \quad (2)$$

$$K_t = K_{t-1} + I_t - W_t; \quad (3)$$

$$I_t = \alpha t Y_t; \quad (4)$$

$$W_t = \beta K_t. \quad (5)$$

Ushbu modellar nisbatining ma'nosи qisqacha quyidagilardan iborat:

(1) ishlab chiqarish funksiyasi formulasi: bu yerda t ga bog'liq holda modelda texnik taraqqiyotni tasvirlashni kiritish mumkin;

(2) daromadlarni iste'mol va investitsiyaga taqsimlashni ko'rsatuvchi asosiy makroiqtisodiy ayniyat;

(3) vaqtinchalik investitsiya bo‘lman vaziyatda investitsiya va uni chiqib ketishini hisobga olgan holda kapital hajmi dinamikasini hisoblash formulasi;

(4) jamg‘arish normasi (α) orqali daromadlar va investitsiyalarni bog‘lab turuvchi ayniyat;

(5) chiqib ketishning doimiy normasi (β) sharoitida kapitalni chiqib ketishini hisoblash formulasi.

Ushbu tizimdagi eng asosiy formula bo‘lib ishlab chiqarish funksiyasi (1) hisoblanadi.

$$Y_t = f(K_t, L_t, t); \quad (1)$$

(1)-(5) modeli birinchi marta 1956-yili R. Solou tomonidan taklif qilingan edi. Uning turlicha ko‘rinishlari va usullaridan hozirgi kunda ham keng foydalanilib kelinmoqda. Solou modelida ishlab chiqarish funksiyasi (1) ishlab chiqarish omillarining eng so‘nggi natijasini bildiradi va unda kapitalni jamg‘arishda investitsiyalarga qilingan qo‘sishimcha xarajatlar kapitaldan foydalanishdagi qo‘sishimcha umuralarни qoplamaqligini qolgan vaziyatda to‘xtatiladi.

Solou modeli paydo bo‘lguncha iqtisodiy o‘sishni ko‘rsatadigan model bo‘lib **Harrod-Domar modeli** (1939,1946) hisoblangan. Uning modelida o‘sishni ta’minlaydigan asosiy omil bo‘lib doimiy kapital qaytimi o‘sishi hisoblangan. Solou modeli Harrod-Domar modeliga nisbatan iqtisodiy o‘sishni izohlashda qo‘sishimcha ko‘rnatzikichlarga ega.

Demak, Harrod-Domar modelida o‘sishini ta’minlaydigan asosiy umil bo‘lib kapital jamg‘arish hisoblanar ekan. U 1920-1950-yillardagi lyubodly o‘sishlarni kuzatishlarda qo‘l kelgan, ammo keyingi yillardagi hozirgi hajmiga to‘g‘ri kelmay qolgan. Uning asosiy mohiyati: kapital umumidorligining doimiyligi, kapital chiqib ketishi mumkin emasligi, investitsion uzulish ham nolga teng va ishlab chiqarish mehnat xarajatlariga bog‘liq emasligidan iborat.

Hozirgi davrda iqtisodiy o‘sishni ta’minalashda texnik taraqqiyot, mehnat va kapitalning sifati, bir-birini almashtirishi va birligida

faoliyat ko'rsatishlari asosiy resurs va omil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu omillarni hisobga olmaydigan o'sish nazariyasida, ya'ni o'sishning asosiy manbai bo'lib, kapitalni fizik jamg'arish, o'sishni doimiy ravishda tartibga solib turuvchi omil bo'lib hisoblanadi. Jamg'arish normasi esa asta-sekinlik bilan ikkinchi planga tushib qoladi.

Harrod-Domar modeliga nisbatan Solou modeli makroiqtisodiy jarayonlarning ayrim tomonlarini to'liqroq ochib beradi. Ya'ni, birinchidan, bu modelda ishlab chiqarish funksiyasi to'g'ri chiziqdan iborat emas va unumadorlikning kamayib borishi kabi xususiyatlarga ega. Ikkinchidan, model asosiy kapitalning chiqib ketishini hisobga oladi. Uchinchidan, Solou modeli mehnat resurslari va texnik taraqqiyot dinamikasi va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini hisobga oladi. To'rtinchidan, bu yerda ko'pgina hollarda iste'mol darajasini maksimallashtirish vazifasi qo'yiladi va hal qilinadi.

Biz Solou modelini to'liq izohlab bermoqchi emasmiz, balki uning asosiy yo'nalishilari, xususiyatlari va xulosalarini keltirib o'tmoqchimiz.

Solou modelining ko'rinishi va xususiyatlari:

1. Ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$U=f(K, L);$$

bu yerda **U – ishlab chiqarish yoki daromad; K – kapital; L – mehnat.**

Daromadlar U iste'mol va investitsiyaga bo'linada:

$$U=S+I;$$

Ish bilan bandlar soni L esa n darajada doimiy o'sadi. Mehnatni tejaydigan texnik taraqqiyot g darajaga ega, Ya'ni bir ishchiga g daraja bilan birga o'sadi.

Demak, mamlakat iqtisodiy o'sishi ikki xil usuldan foydalangan holda aniqlanadi. Birinchi, mamlakatda yetishtirilayotgan mahsulotlarni o'tgan davrga nisbatan solishtirish va ikkinchisi,

mumlikatda yetishtirilgan mahsulotlarni o'tgan davrga nisbatan aholi Jon boshiga solishtirish orqali aniqlanadi.

Iqtisodiy o'sishni aniqlash va asoslab berish jarayonlarida quyidagilarga e'tibor beriladi: iqtisodiy o'sishni aniqlash, iqtisodiy o'sish omillari va boshqalar. Iqtisodiy o'sish sur'atlari bazisli o'sish sur'atlari, zanjirli o'sish sur'atlari, qo'shimcha bazisli va zanjirli o'sish sur'atlari yordamida aniqlanadi.

Keynsianchilar iqtisodiy o'sishni birinchi navbatda talab omillariga bog'lashadi va ularning ta'kidlashicha, davlat fiskal va pul-kredit siyosati orqali uni boshqarib turishi mumkin. Iqtisodiy nazariya tarmidorlari iqtisodiy o'sishni avvalo taklif omillariga bog'lashadi, yu'nt oldindan o'ylangan soliq tizimi orqali rag'batlantirilib boriladi, deb hisoblashadi. Ko'pgina iqtisodchilarning fikricha, iqtisodiy o'sish davlatning industrial siyosatni tashkil qilishda qatnashishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sish foydalanilayotgan resurslarning soni va sifatiga bo'nda texnologiyaga bog'liq. Agarda bularni yaxlitlashtirilsa, ular ekstensiv va intensiv o'sishga bo'linadi. Ishlab chiqarish resurslar mifqdorini o'zgartirmagan holda o'ssa, intensiv omillar hisobiga amalga oshigan hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadigan omillarga tabiiy resurslar soni va sifati, mehnat resurslari soni va sifati, kapital, texnologiya va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy o'sish modellari deganda iqtisodiy o'sishni aniqlashda myodalomiligidan modellar tushuniladi. Bu modellar bir nechta iqtisodiy tarmulalar yordamida izohlanadi. Xuddi shunday modellarga R.Solou, Harrod-Domar, Leontev va boshqalarning modellarini kiritishimiz mumkin.

13.5. Iqtisodiy o'sish turlari

Ilmiy-teknika taraqqiyoti iqtisodiy jihatdan yetakchi omil shahrigi o'sish, birinchi bo'lib 1950-yillarda ifodalangan. Amerikalik iqtisodchi Amerikalik iqtisodchi R. Solou. U 1909-1949-yillarda

Amerika iqtisodiyotining rivojlanishini o'rgangan va buni ko'proq aniqladi. Mehnat unumdorligining o'sishining 80% ilmiy-texnik taraqqiyot hisobiga erishiladi.

Iqtisodiy o'sishning ekstensiv turi ikkiga bo'linadi pastki turi:

– oddiy proporsional, barcha tarmoqlarning rivojlanish darajasi past;

– tarkibiy, uning ichida tarkibiy qayta qurish, ya'ni ayrim sanoat tarmoqlari yuqori darajada rivojlanadi, boshqalari esa past va ishlab chiqarishning mutlaq pasayishi bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi ishlab chiqarishning bevosita omillarini sifat jihatidan takomillashtirish orgali moddiy ne'matlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko'payishini o'z ichiga oladi:

ilg'or texnologiyalarni qo'llash, ishchi kuchidan foydalanish, yuqori mehnat unumdorligi va boshqalar.

Shu munosabat bilan ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari asosiy omilga aylanmoqda. Har bir birlikdan yakuniy mahsulot chiqishi ortadi ishlab chiqarish bilan bog'liq omillarning sifati oshadi. Shuning uchun ishlab chiqarishni ko'paytirish ikki baravar boshqa korxonani qurish talab qilinmaydi.

Ushbu natijani mavjud ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash va mavjud omillardan yaxshilab foydalanish orqali olish mumkin

Iqtisodiy o'sishning intensiv turiga bo'linadi ikkita kichik tip:

– qisman yoki kapitalni talab qiladigan; – universal yoki mablag' tejash birinchi pastki turda intensivatsiya faqat o'z ichiga oladi yashash uchun mehnat xarajatlari. Zamonaviy sharoitda bu mehnatni mexanizatsiyalash bilan bog'liq. Binobarin, jonli mehnat asta-sekin mashina mehnati bilan almashtiriladi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning kapital talab qiladigan turi ikki shaklda namoyon bo'ladi. Birinchi shakl ishlab chiqarishni ko'payishi bilan bog'liq qo'shimcha mehnat ishtirokisiz, ya'ni mehnat unumdorligini oshirish orqali.

Ikkinchchi shakl ancha rivojlangan. Bu to'liq deb hisoblanadi qo'l mehnati ishlab chiqarishdan siljishi.

Intensiv iqtisodiy o'sishning ikkinchi kichik turi uning doirasida hamma intensivlashishi bilan ajralib turadi ishlab chiqarish resurslari (ishlab chiqarish omillari). Bu quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- ijtimoiy mahsulotning mehnat, fond va moddiy iste'molining pasayishi, shu bilan birga uning ilmiy intensivligi oshadi;
- mehnat unumdarligining yuqori o'sish sur'atlari uning kapital-mehnat nisbati bilan taqqoslaganda;
- yalpi mahsulotdagi MD ulushining o'sishi;
- to'planish darajasining pasayishi

Hozirgi vaqtida iqtisodiy o'sishni odatda shunday deb atashadi. o'sish nisbatiga qarab yoki bu tur intensiv omillar tufayli real YaMM. Agar intensiv o'sish omillaridan olingan real YaMM ulushi 50% dan oshsa, u holda iqtisodiyot asosan o'sishning intensiv turi bilan tuvsiflanadi. Va aksincha, agar yalpi ichki mahsulotning real o'sishi ulushi intensiv hisobiga olinadigan bo'lsa Yalpi ichki mahsulotning umumiy o'sishining 50 foizidan kamrog'ini tashkil etadigan omillar bo'lsa, unda iqtisodiy o'sish asosan ekstensiv sifatida tavsiflanadi. Binobarin, real hayotda iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlari sof shaklda mavjud emas. Shuning uchun real iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda asosan iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini ajratib ko'rsatish odat tusiga kiradi.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy o'sish – bu obyektiv qonuniyat bo'lib, aholining o'sishi, FIT jarayonlari, ishlab chiqarish hajmining ma'lum bir vaqt davomida o'sishi kabi jarayonlar bilan bog'langan

Iqtisodiy o'sish ikki xil usul bilan aniqlanadi va o'lchanadi.

Birinchi usul, YaMMni (YaIM, SMM) o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini aniqlash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi usul, real YaMMnii (YaMM, SMM) o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi.

Iqtisodiy o'sish bir nechta omillar ta'sirida amalga oshiriladi. Ya'ni:

1. Tabiiy resurslar soni va sifati.
2. Mehnat resurslari soni va sifati.
3. Asosiy kapital hajmi.
4. Texnologiya va boshqalar.

Iqtisodiy o'sishning dastlabki neoklassik modellari 1950-1960-yillarda, ya'ni dinamik muvozanat muammosiga e'tibor susaygan va birinchi planga nafaqat foydalanimagan quvvatlar hisobiga, balki shu bilan birga yangi texnikani joriy qilish, unumdorlikni oshirish va ishlab chiqarishni tashkil etishni yaxshilash hisobiga potensial mumkin bo'lgan o'sish sur'atlariga erishish muammosi chiqqan davrda paydo bo'ldi.

Birinchi neoklassik model R. Solou tomonidan 1956-yilda "Iqtisodiy o'sish nazariyasiga hissa" asarida tasvirlab Berildi va so'ngra 1957-yilda "Texnik taraqqiyot va aggregativ ishlab chiqarish funksiyasi" nomli asarida rivojlantirildi

Jamg'arish normasining o'sishi investitsiyalar hajmining oshishini keltirib chiqaradi. Bu esa asosiy kapital miqdorining ortishiga, o'z navbatida kapital bilan qurollanganlik darajasining (k) ko'tarilishi orqali, pirovard natijaga, ya'ni esa ishlab chiqarish hajmining (Y) ko'payishiga olib keladi.

R.Soluning fikriga ko'ra , barqaror muvozanat sharoitida kapital, mehnat va milliy daromad darjasasi bir xil, aholi soni o'sishiga teng sur'atda o'sib boradi. Aholi sonining tez o'sishi iqtisodiyotning o'sish sur'atlari jadallahishiga ta'sir etadi, ammo barqaror muvozanat holatida aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish kamayadi. O'z navbatida, jamg'arish normasining oshirilishi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdorini oshiradi va kapital bilan qurollanganlik

ko'effitsiyentini ko'tarilishiga olib keladi, lekin barqaror holatdagi o'sish sur'atiga ta'sir ko'rsatmaydi

Nazorat va mulohaza savollari

1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uni o'lhash usullarini izohlab bering.
2. Iqtisodiy o'sish sur'atlari qanday aniqlanadi ?
3. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni formulalar yordamida tushuntirib bering.
- 4.Ilarrod-Domar modelining mohiyatini tushuntirib bering.
5. Iqtisodiy o'sish qanday salbiy oqibatlarga olib keladi?
6. Iqtisodiy o'sishda Lorens egri chizig'inинг qanday aloqasi mavjud ?
- 7.Iqtisodiy o'sishning intensiv turini tushuntirib bering.
8. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv turini tushuntirib bering.

Masalalarni yechilishi bo'yicha namunalar:

1-masala

Uch yil davomida mehnat sarfimiqdori va uning unumidorligi to'g'risidagi

ma'lumotlar jadvalda keltirilgan:

Yil	Mehnat sarfi miqdori, (soat)	Mehnat unumidorligi (bir soatda yaratilgan YaIM hajmi (pul birligida))	Real YaIM hajmi, (pul birligida)
1	1000	100	
2	1000	105	
3	1100	105	

Aniqlang:

a) barcha yillar uchun YaIM real hajmini;

b) birinchi yilga nisbatan ikkinchi yili mehnat unumdorligi necha foizga o'sdi; buning natijasida (mehnat sarfi o'zgarmagan holda) YaIMning real hajmi qancha foizga ortdi?

b) ikkinchi yil bilan qiyoslaganda uchinchi yilda mehnat hajmi qancha foizga o'sdi; buning natijasida (mehnat unumdorligi o'zgarmagan holda) YaIM necha foizga ortdi?

Mehnat sarfi miqdorining ortishi va uning unumdorligi o'sishi qanday iqtisodiy o'sish omiliga kiradi?

Yechish:

a) Real YaIM hajmi:

$$1 \text{ yil} = 1000 \times 100 = 100000$$

$$2 \text{ yil} = 1000 \times 105 = 105000$$

$$3 \text{ yil} = 1100 \times 105 = 115000$$

b) ikkinchi yilda birinchi yilga nisbatan mehnat unumdorligi o'sishi quyidagini tashkil etadi:

$$[(105 - 100) : 100] \times 100\% = 5\%.$$

Birinchi yilga nisbatan ikkinchi yili real YaIMning o'sishi to'liq mehnat unumdorligi o'sishi oqibatida yuzaga kelgan, chunki mehnat sarfi o'zgarmagan.

$$[(105000 - 100000) : 100] \times 100\% = 5\%.$$

Bu iqtisodiy o'sishning intensiv omilidir.

b) uchinchi yilda ikkinchi yilga nisbatan mehnat sarfi miqdorining o'sishi:

$$[(1100 - 1000) : 1000] \times 100\% = 10\% \text{ tashkil etadi.}$$

Ikkinchi yilga nisbatan uchinchi yilda real YaIMning qo'shimcha o'sishi

$$[(115500 - 105000) : 105000] \times 100\% = 9.52\% \text{ ni tashkil etadi.}$$

Mehnat unumdorligi o'smaganligi sababli, bu o'sish to'liq mehnat sarfi miqdorining ko'payishi hisobiga ro'y berdi. Demak, uchinchi yilgi iqtisodiy o'sishni ekstensiv deb baholash mumkindir.

2-masala

Joriy yilda real YaMM 2100 p.b. tashkil qildi., aholi soni-145 kishi. O'tgan yili (bazis) real YaMM 2000 p.b.ni tashkil qilib, aholi soni-120 kishi YaMMning umumiyligi iqtisodiy o'sish darajasi va jon boshiga hisoblang.

Yechish:

Iqtisodiy o'sish darajasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$g = (Y_2 - Y_1) * 100 / Y_1 \cdot 100 \%$$

Ma'lumotlarni formulaga qo'yib real YaMMning iqtisodiy o'sish darajasini hisoblaymiz:

$$g = (2100 - 2000) * 100 / 2000 = 5 \%$$

YaMM bo'yicha iqtisodiy o'sish 5 %ni tashkil qilyapti:

Aholi jon boshiga to'g'ri keladiga real YaMMni hisoblaymiz:

$$Y_{1,b} = 2000 / 120 = 16,7;$$

$$Y_{2,b} = 2100 / 145 = 14,48;$$

$$g = (14,48 - 16,7) * 100 = -2,22 * 100 / 16,7 \cdot 100 \% = -13,29 \%$$

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaMM o'tgan yilga nisbatan 13,29 % ga kamaydi.

3-masala

Furuz qilaylik, mamlakatda kapitalning chekli unumdorligi 0,25 yu teng, iste'molga chekli moyillik esa – 0,8 Domer modeliga asosan real daromadning o'sish darajasini hisoblang.

Yechish:

Domer, nazariyasiga asosan iqtisodiyotda read daromadning muvozannatlari o'sish darajasi mavjud. Unga asosan mavjud barcha ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la foydalilanadi. U jamg'arma normasi va kapital unumdorligiga to'g'ri proporsionaldir.:

$$\frac{\Delta Y_t}{Y_{t-1}} = \alpha * s = \alpha * (1 - c) = 0,25 * (1 - 0,8) = 0,05 \text{ или } 5\%$$

Bu yerda,

α – kapitalning chekli unumdorligi,

c – iste'molning chekli moyilligi,

s – jamg‘armaning chekli moyilligi.

Demak, real daromadning o‘sish darjasи 5% teng.

4-masala

Alfa mamlakatida ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:: $Y = \sqrt{KL}$, bu yerda Y – real YaIM; K – kapital; L – mehnat. Eskirgan kapitalni tiklash uchun yillik ishlab chiqarishning 10 % sarflanadi. Aholi soni barqaror va o‘zgarmaydi, texnologik taraqqiyot mayjud emas.. Barqaror holatda turgan Alfa mamlakatining iqtisodiyoti uchun aniqlang:

a) “jamg‘armaning oltin qoidasi” ga mos keladigan mehnat unumtdorligini;

b) “jamg‘armaning oltin qoidasi” ga mos keladigan jamg‘armaning foizdagi normasini.

Yechish:

Ishlab chiqarish funksiyasini daromadni va fond bilan qurollanishini ko‘rsatishi uchun o‘zgartiramiz. Buning tenglamaning ikki qismini ham L ga bo‘lamiz:

$$Y = \sqrt{KL} \Rightarrow y = Y/L = \sqrt{KL}/L = K^{1/2}L^{1/2}/L = K^{1/2}L^{1/2} = (K/L)^{1/2} = \sqrt{k}$$

Bu yerda: $k = K L$ – mehnatning fond bilan qurollanishi.

Iqtisodiyot barqaror muvozanatda bo‘lgani uchun investitsiya hajmi chiqarilgan kapitalga teng bo‘ladi:

$$i = dk, yoki sy = dk.$$

“Oltin qoida” shartiga asosan: MPK = d.

Kapitalning chekli mahsulot ishlab chiqarish funksiyasining hosilasi sifatida hisoblanadi

$$(y)' = (\sqrt{k})' = 1/2\sqrt{k}.$$

Kapitalning chiqib ketish darajasini asosida “oltin qoida”ga binoan fond bilan qurollanishni aniqlaymiz:

$$1/2\sqrt{k} = 0,1k \Rightarrow 1/2 = \sqrt{k}/k \Rightarrow 5 = \sqrt{k} \Rightarrow k = 25.$$

Mehnat unumtdorligini hisoblaymiz:

$$y = \sqrt{k} = \sqrt{25} = 5.$$

Oling'on natijalarini jamg'arma tenglamasiga qo'yamiz:

$$s = dk \cdot y = 0,1 \cdot 25,5 = 2,55 = 0,5.$$

Demak : "Oltin qoida" ga asosan mehnat unumdorligi 5, jamg'arma normasi 0,5 ga teng.

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. Agar YalMdagi kapitalning ulushi 25%, mehnatning ulushi 74% bo'lsa ,u holda kapital zaxirasi yiliga 2%ga, ishchi kuchi soni 1%ga hamda YaMD esa 2 %ga ko'paysa, omillarning jami unumdorligini toping.

2. Mamlakatda jamg'arish normasi 28 %ni, aholining yillik o'sish sur'ati 1% ni, mehnat tejovchi texnologik taraqqiyoti sur'ati 2 %ni, mamlakatning ishlab chiqarish normasi ; %ni tashkil etadi. Bitta mamlakatning to'g'ri keladigan daromadning (ishlab chiqarish hajmining) harorror darajasini toping.

3. Solouning iqtisodiy o'sish modelida ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega: $y = 0,64\sqrt{k}$ Kapitalning chiqib ketish normasi 1%, aholi soni yiliga 1 %ga ko'payadi. Texnologik taraqqiyot sur'ati 2 %. U holda "oltin qoida"ga mos keluvchi jamg'arish normasi unumdorligini toping.

4. Agar YalMdagi kapitalning ulushi 25%, mehnatning ulushi 74% bo'lsa, u holda kapital zaxirasi yiliga 2%ga, ishchi kuchi soni 1%ga hamda YaMD esa 2 %ga ko'paysa, omillarning jami unumdorligini toping.

5. Aytaylik, iqtisodiyot dastlab, $AD_0=AS_0= 100$ birl. Darajada muvozanat holatida bo'lsin. Jamg'arish normasi 50 %, akselerator 2 ga bo'ng.

O'shimcha o'sishning muvozanatli darajasini, Yalpi talab va yalpi taklifning muvozanatli darajalarini aniqlang.

Agar tadbirdorlar yalpi taklif hajmini 150 birlikkacha ko'paytirsa hajmning sur'ati qanday o'zgarishlar ro'y beradi.

6. Mamlakat iqtisodiyoti $Y=A \times K^{0,4} \times L^{0,6}$. Ma'lumki, kapitalning sur'ati yiliga 3 %, aholining o'sish sur'ati-2 %. Omillarning

umumiylar umumidorligi yiliga 1,5 % sur'at bilan o'sadi. Ishlab chiqarish hajmi qanday o'zgaradi.

7.Faraz qilaylik mamlakatda kapitalning chekli unumidorligi 0.2 ga teng, jamg'armaga chekli moyillik esa — 0,3.

Aniqlang:

a) 100 p.b. investitsiya joriy qilingan bo'lsa yalpi taklif hajmining o'zgarishini;

b) Domar modeliga asosan investitsiyalarning o'sish darajasini.

8. YaMMning 6 %ga o'sishini ta'minlash uchun, iqtisodiyotda ish joylarini necha foizga ko'paytirishni aniqlang. Agar, kapitalning o'sishi 10 %ni, omillarning umumiylar umumidorligi 1.6 %ni tashkil qilgan bo'lsa. Ishlab chiqarish funksiyasi quyidagicha berilgan:

$$Y = A * K^{0.3} * N^{0.7},$$

Bu yerda, A — ishlab chiqarish omillarining umumiylar umumidorligi.

9.Mamlakat iqtisodiyotida 10 mln.kishi ish bilan band va har bir kishi o'rtacha yiliga 1000 p.b. miqdorida mahsulot ishlab chiqaradi. Ikkinci yili iqtisodiyotda bandlari soni o'zgarmadi, ammo mehnat umumidorligi 50 p.b.ga ko'paydi. Uchinchi yili iqtisodiyotda ishlovchilar soni 1000 ming kishiga ko'paydi va o'rtacha 1050 p.b. miqdorida mahsulot ishlab chiqardi.

Aniqlang:

a) yillar bo'yicha YaMMning hajmini;

b) intensiv va ekstensiv omillar hisobiga qo'shimcha olingan YaMMni.

10. Ikki yilda YaMM 2000 dan 2300 mln.p.b.gacha ko'paydi.Ushbu davrda aholi soni 50 mln. dan 60 mln. gacha ko'paydi. YaMM va aholi turmush darajasidagi o'zgarishlarni aniqlang.

XIV BOB. XALQARO SAVDO NAZARIYALARI. TASHQI SAVDO SIYOSATI

14.1.Xalqaro savdo nazariyasiga turli yondashuvlar

O'n yettinchi asr oxirlarida angliyalik klassik iqtisodchilar A. Smit va D. Rikardolar tomonidan «Erkin savdo» nazariyasi g'oyasi oldingga surildi. A. Smitning asosiy g'oyasi bo'yicha millat va xalqlarning boyishiga asosan mehnat taqsimoti sabab bo'ladi. Ya'ni xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etadigan davlatlar ko'proq tifromadlarga ega bo'lishadi va ular u yoki bu mamlakatning mutlaq imkoniyatlariga e'tiborni qaratishi lozim. Har bir mamlakatda o'zi ixtisoslashgan mahsulotlarga ishlab chiqarilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston asosan paxta mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashganligi uchun boshqa mahsulotlarga nisbatan ko'proq shunga e'tiborni qaratish lozim. Chunki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi, olib-havosi va qolaversa, butun respublika sharoiti paxta yetishtirishga ixtisoslashgan va unga kam miqdorda mehnat va moliyaviy resurslarni sur'qilib, yuqori hosil olish texnologiyasiga ega.

Shuningdek, boshqa mamlakatlar ham o'zi ixtisoslashgan sohaga ko'proq e'tiborni qaratishsagina dunyo bo'yicha ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi va xalqaro savdoda ham katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Demak, shu yo'l bilan dunyo aholisining talablarini maksimum qondirish imkoniyatiga erishiladi.

Umuman, xalqaro ixtisoslashuv erkin raqobat sharoitida tifromadlarga, maqsadga muvofiq bo'ladi.

A. Smit «xalqaro savdo» har bir mamlakatga katta imkoniyatlar olib kelishini isbotlab bergen. Uning g'oyasi klassik nazariyalarning umumli tashkil qiladi va barcha erkin savdo siyosatlariga asos bo'ladi. Ammo, mulohazalarни yanada chuqrı muhokama qiladigan bo'lsak, yu'ni bitor-bir mamlakat, o'ziga kerakli bo'lgan mahsulotlarni chetdan nazorat bisholarda va hech qanday to'siqlarsiz olib kelish imkoniyatiga

ega bo'lsa, bunday sharoitda mamlakatning barcha talabini chetdan qondirish imkonni bo'ladi. Ushbu mamlakat esa biror mahsulotni sotish uchungina ishlab chiqaradi, xolos. Bu yerda ularning talablarini hech narsa va hech kim qondirishni kafolatlay olmaydi. Mutlaq ustunlik nazariyasi esa boshi berk ko'chaga kirib qoladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasining keyingi rivojlanishi D. Rikardo bilan bog'lik. D. Rikardo, A. Smitning «**Mutlaq ustunlik nazariyasi**»ni yanada mulohaza qilish natijasida ushbu nazariya umumiy qoidaning bir qismi ekanligini isbotlab berdi.

D. Rikardo «Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqlar» ishida klassik nazariyani boshi berk ko'chadan olib chiqadi. Uning fikricha, mahsulotlar ishlab chiqarishda yuqori xarajatlarga ega bo'lgan mamlakatlar ham savdoda yutuqlarga erishadi. Bunday vaziyatlarda ikki mamlakat o'rtaсидаги savdo ko'proq imkoniyatlar olib keladi. Har bir mamlakat o'zi ixtisoslashgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi va shu orqali yutuqlarga erishadi. Uning mulohazalari “**Taqqoslash ustunligi nazariyasi**”da o'z yechimiga ega bo'lgan.

“Taqqoslash ustunligi nazariyasi” bo'yicha mahsulotlar ishlab chiqarishga kam xarajat sarf qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mamlakatlarda mahsulot ishlab chiqarilsagina katta miqdorda mahsulotga ega bo'lish mumkin.

Masalan, Portugaliyada ishlab chiqarilgan movut va Angliyada ishlab chiqarilgan vino individual xarajatlarga ega bo'lsin. Shuni hisobga olgan holda D. Rikardonning “Taqqoslash ustunligi nazariyasi”ni qo'llaymiz:

**Ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan mehnat miqdori
(ish kuni hisobida);**

Movut (dona)	Vino (bir barrel)
Portugaliya	9
Angliya	10
	8
	12

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki Portugaliya barcha turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishda mutlaq imkoniyatga ega. Ammo, D. Rikardo Portugaliyada movut ishlab chiqarishga nisbatan vino ishlab chiqarish savdosini yo‘lga qo‘yish ko‘proq imkoniyat olib kelishini ta’kidlaydi. Chunki, bir dona movutga nisbatan bir barrel vino ishlab chiqarish arzonga tushmoqda. Bunda taqqoslash ustunligidagi sarqlar bir millat uchun xalqaro savdoda yutuqqa olib keladi.

Ya’ni, Portugaliya bir barrel vinoni (8 ish kunda) 12 birlikda Angliyaga sotsa va o‘z navbatida, Angliyadan (10 birlikda) ushbu birlikda 1,2 dona movut sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘zida ishlab chiqarilgan mahsulotga solishtiranimizda esa **8/9** donaga ega bo‘lar edi. Boshqacha aytganimizda, Portugaliyada vino ishlab chiqarish va movutni sotib olish evaziga olinadigan foyda quyidagicha bo‘ladi.

$$12 / 10 - 8 / 9 = 1,2 - 0,(8) = 0,31 \text{ dona movut.}$$

Umuman, xalqaro savdodan Angliya ham yutadi. Ya’ni movut ishlab chiqarib, uni Portugaliyaga sotish hisobiga **11/8** barrel vino ($1\frac{1}{8}$ -idagi nisbatan **5/6** barrel) sotib olishi mumkin. Ushbu vaziyatda Angliyaning yutug‘i;

$$9 / 8 - 5 / 6 = 7 / 24 = 0,29 \text{ barrel vino.}$$

Bu misolda Portugaliya uchun har bir barrel vinoga **9/8** dona movut sotib olgandagina xalqaro savdo foydali hisoblansa, Angliya uchun esa har bir barrel vinoga **5/6** dona movut almashganda savdo foydali hisoblansadi.

Shunday qilib, erkin savdo xalqaro ixtisoslashuvni rag‘batlantirib, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

har bir mamlakat biror turdag'i mahsulot ishlab chiqarishga **11/8**-ishguncha o‘tgan davrga nisbatan kamroq moddiy va mehnat surʼintlari sarflaydigan bo‘ladi.

Ammo Rikardonning misolida inflyatsiya va ishsizlik, mehnat unumidorligidagi o‘zgarishlar va eksportli tarmoqlarga davlat tomonidan kiritiladigan cheklashlar hisobga olinmagan. Shuningdek

xalqaro savdolar mamlakatlarning pul birliklari ishtirokida amalga oshishi hisobga olinmagan. Chunki, mamlakatlar o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun valyutalarini almashtirishadi.

D. Rikardo ushbu vaziyatni ham tushuntirib bera olmagan. U izohlaganidek yuqorida keltirilgan imkoniyat valyutalarni almashtirish sharoitida ham saqlanib qoladi. Bu vaziyatda eksport-import to'lovlar o'zaro balansga ega emas. Bunday nobalans vaziyatlar valyuta kurslaridagi o'zgarishlar hisobiga yoki biror bir mamlakatdagi barcha baholarni o'zgartirish hisobiga bartaraf etiladi.

Angliya va Portugaliya misolida keltirilgan vaziyatlarda xalqaro savdo narxlarining keng amal qilayotgan shaklini qo'llash mumkin. Chunonchi, bir barrel Portugaliya vinosini Angliyada tannarxidan kam narxda (8) va sotib olingan bahodan (12) yuqori narxda sotmaslik kerak. Shuningdek, angliyaliklar movutidan Portugaliyada (9 dan 10 gacha) shunday tartibda sotilishi kerak.

Mahsulotlar bahosi o'rtasidagi o'zaro nisbat aniqlab olingandan keyin «savdo sharoiti indeksi» tushunchasi kiritilgan. Indeks quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Savdo sharoiti indeksi = Eksport narxlar indeksi / Import narxlar indeksi 100% = $E_i / I_i \times 100\%$.

Indeksning o'sishi (masalan, 100 dan 105 gacha) savdo sharoitlarining yaxshilanayotganligini ko'rsatadi. Ya'ni ushbu miqdordagi importga hisob-kitob qilish uchun undan kam miqdorda eksport talab etiladi.

Amaliyotda savdo sharoiti, birinchidan, tovarlar bahosi o'zgarishi hisobiga, unga bo'lgan talabning oshishi yoki kamayishiga bog'liq. Ayrim mahsulot ishlab chiqaruvchilar (masalan, neft va neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar) narxlarda bo'layotgan o'zgarish-larga qaramay, katta yutuqlarga erishadilar.

Ikkinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilarning bozorga moslashishiga (egiluvchanligiga) bog'liq bo'ladi.

Uchinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqarish sharoitlari yoki mahsulotlar iste'molidagi o'zgarishlarga qarab o'zgaradi.

Savdo sharoiti indeksi mamlakatning xalqaro savdodagi holati to'g'risida ma'lumotlar bersada, ko'pgina kamchiliklardan xoli emas.

Ularning eng asosiyalaridan biri mamlakatda umumiy sharoitni yaxshilasada, sotilgan mahsulotlar miqdorini hisobga olmaydi. Boshqacha aytganda, savdo sharoiti yaxshilanishi eksport hajmi qisqarishi va import hajmi oshishiga olib keladi. Bu esa to'lov balansini yomonlashtiradi.

A. Smit va D. Rikardo nazariyasida ishlab chiqarishga ta'sir qiladigan eng asosiy omil mehnat hisoblangan. Mahsulotlar narxi esa ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq.

Keyingi tadqiqotlar ishlab chiqarishda asosiy omillar sifatida yer, kapital kabi omillardan foyda olish imkoniyatini bergen. Agarda, mehnatning bozor Bahosi ish haqi sifatida gavdalansa, kapitalning bahosi foiz stavkalari ko'rinishida, yerning bahosi renta miqdorida aniqlangan.

Xalqaro savdodagi zamonaviy qarash tarafdlari sifatida shved iqtisodchi-olimlari **Eli Xeksher va Byertil Olinlarni** (30-yillar) ko'rsatish mumkin.

E. Xeksher va B. Olinlar «**Ishlab chiqarish omillariga bog'lab narxlarni tenglashtirish**» qoidasini oldinga surgan. Buning ma'nosi shundan iboratki, milliy ishlab chiqarishdagi farqlar ishlab chiqarishning mehnat, yer, kapital va shuningdek, u yoki bu mahsulotga ichki iste'moldagi o'zgarishlar kabi omillarga bog'liq.

Ularning qoidalariagi asosiy vaziyatlar quyidagicha keltirilgan. Mamlakatlarda mahsulotlarni eksport qilishda ortiqcha ishlab chiqarish omillaridan foydalilanildi va aksincha, yetishmayotgan ishlab chiqarish omillarini qoplash uchun mahsulotlar importida o'zgarishlar kuzatiladi.

Xeksher-Olin konsepsiyasiga asosan tashqi savdo quyidagi ko'rinishlarga ega:

Faraz qilaylik, bir vaqtida ikki mamlakat, ya’ni «sanoatlashgan» va «agrар» mamlakat faoliyat ko’rsatmoqda. Sanoatlashgan mamlakatda ortiqcha kapital va ma’lum miqdorda ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo’ladi. Agrar mamlakatda esa ortiqcha yer mavjud, ammo kapital yetishmaydi.

Ayrim turdagи mahsulotlarni ishlab chiqarishda kapital asosiy omil hisoblanadi. Masalan, nefstni qayta ishlash, elektron mashinasozlik va mashina ishlab chiqarish sohalari kam ishchi kuchidan foydalangan holda kapital-intensiv ishlab chiqarish hisoblanadi. Kapital ortiqchaligiga ega bo’lgan mamlakatlar aynan ushbu yo’nalishlarga ixtisoslashadilar. Shu bilan birga, don yetishtirish va chorvachilik bilan shug’ullanadigan mamlakatlarda ko’proq yer resurslari kerak bô’ladi va ular shu yo’nalishga ixtisoslashgan bo’ladi.

1948-yil amerikalik iqtisodchilar **Pol Samuelson va V. Stolperlar** Xeksher-Olin konsepsiyasini takomillashtirishdi.

D. Rikardo modelida ishlab chiqilgan va E. Xeksher, B. Olin, P. Samuelson hamda V. Stolperlar tomonidan to’ldirilgan savdo konsepsiyasiga nafaqat mamlakatlar o’rtasidagi o’zaro soydali savdolarni, balki mamlakatlar rivojlanishi o’rtasidagi farqlarni kamaytirish vositasi sifatida ham qaraladi.

14.2. Xalqaro savdo rivojlanishining ahamiyati va uning asosiy ko’rinishlari

Jahon savdosи tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. Uning kengayishi va chuqurlashuvi natijasida kapitalni chetga chiqarish imkoniyatlari yuzaga keldi va unga bog’liq ravishda xalqaro moliya-valyuta kredit munosabatlari rivojlanadi.

Tashqi savdoning vujudga kelishi ikki muhim obyektiv sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, bu tabiiy va xomashyo resurslarining mamlakatlar o’rtasida tekis taqsimlanmaganligidir.

Xalqaro savdo rivojlanishining zarurligini aniqlovchi ikkinchi muhim sabab – bu turli mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarning bir xil rivojlanmaganligidir.

Bu ikki obyektiv sabab har qanday milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarishi jarayonida xalqaro savdoning ahamiyatini aniqlaydi. 90-yillarning boshlarida xalqaro savdo hajmi AQSHda yalpi milliy mahsulotning 16-18 foizini, Germaniyada 30-39 foizini tashkil etdi. Shu davrda O'zbekiston yalpi milliy mahsulotida tashqi savdoning ulushi 10-12 foiz atrofida bo'ldi.

Tashqi savdo xalqaro ayriboshlashning an'anaviy shakli sifatida quyidagi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

- mahsulotlarni ayriboshlash: yoqilg'i-xomashyo mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat mahsulotlari;

- xizmatlarni ayriboshlash: muhandislik-maslahat xizmatlari, transport xizmatlari, turizm va boshqa xizmatlar. Hozirgi vaqtida xizmatlarning jahon eksportidagi hissasi 50 foizdan oshib ketdi;

- yangi ilmiy-texnik ma'lumotlarni ayriboshlash: litsenziyalar va "hou-xau"lar. Ular hissasiga xalqaro savdo aylanmasining 10 foiziga yuqini to'g'ri keladi.

Xalqaro savdo mahsulotlar, xizmatlar va fan-texnika ma'lumotlarini ayriboshlashning barcha ko'rinishlari tashqi savdo operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi. Ular o'z navbatida eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalariga bo'linadi.

Eksport operatsiyasi – mahsulotlarni chet mamlakatlarga chiqarish.

Import operatsiyasi – mahsulotni xorijiy sherikdan sotib olish va uni mamlakatga olib kelish.

Reeksport operatsiyasi – avval import qilingan va qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elga olib chiqib sotish.

Reimport operatsiyasi – avval eksport qilingan va u yerda qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elda sotib olish va mamlakatga olib kelish.

14.3.Tashqi savdo kontraktlarini tuzish va ularning turlari

Tashqi savdo operatsiyalari turli mamlakatlardagi sheriklarining ma'lum izchillikda amalga oshiriladigan harakatlarni ifodalaydi. Bu harakatlar bozorini o'rganish, uning reklamasi, sotish tarmoqlarini yaratish, tijorat takliflarini o'rganish, muzokalar o'tkazish, kontraktlar tuzish va uni bajarishni o'z ichiga oladi. Kontrakt bitim qatnashchilari, ya'ni sheriklar o'rtasidagi tijorat munosabatlari rasmiylashtiriladigan asosiy hujjat hisoblanadi. Savdo sohasidagi bitimning boshqa bir qatnashchisi sherik – kontragent deb ataladi.

Har qanday savdo operatsiyasi bozorni o'rganishdan boshlanadi. Talab va uni kengaytirish yo'llari, narx darajasi va o'rganish tendensiyasi, raqobatning keskinligi, ishlab chiqarishning texnik darajasi va rivojlanish imkoniyatlari va hokazolar o'rganiladi. Kontraktlarni tuzish bo'yicha tayyorlov ishlarini muhim bosqichi chet ellik sherikni aniqlash, uning faoliyati xususiyati va hajmini, huquqiy va moliyaviy ahvolini va ishonchlilagini o'rganish hisoblanadi.

Tashqi savdo bitim qatnashchilaridan biri o'z shyerigini aniqlagandan so'ng unga taklif kiritadi. Bu taklif “*oferta*” deb yuritilib, qat'iy va erkin bo'lishi mumkin.

Qat'iy taklif – bu faqat bir xaridorga mahsulotni sotish uchun qilingan taklif bo'lib, taklif qilgan tomon bu xaridordan javob olmaguncha yoki taklifda ko'rsatilgan muddat tugamaguncha boshqa sherikka murojaat qilish huquqiga ega emas. Agar xaridor qilingan taklifga roziliginini bildirsa, u holda bitim tuzilgan hisoblanadi.

Erkin taklif – bu sotuvchini bog'liq qilib qo'ymaydigan hamda javob uchun muddat belgilanmagan taklifdir. Bunda sotuvchi bir necha xaridorga bir vaqtida taklif qilishi mumkin. Agar ulardan biri sotuvchiga o'z roziliginini bildirsa, u holda bitim tuzilgan hisoblanadi.

Kontraktda aniqlanadigan shartlarga ko'ra ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- **uzoq muddatli** (3-5 va undan ortiq yilga) kontraktlar – bu obyektlar qurish, qo'shma ishlab chiqarish, mollarni muntazam yetkazib berish va shu kabilar;
- **bir martalik kontraktlar** – bu sheriklar o'ttasida bevosita aloqalarni tez ayirboshlash maqsadida tuziladi;
- **muddatli kontraktlar** – mahsulotni qat'iy belgilangan vaqtda yetkazib berishni ko'zda tutadi. Bu shart buzilganda xaridor kontraktdan voz kechish huquqiga ega;
- **maxsus kontraktlar** – bu loyiha va montaj ishlariga, texnik xizmat ko'rsatishga, ehtiyoj qismlarni yetkazib berish va shu kabilar yuzasidan tuziladi;
- **chegaraviy kontraktlar** – bitimning asosiy shartlariga ega bo'lib, ular ishlarni bajarish mobaynida aniqlanadi;
- **niyatlar haqida shartnomalar** – bunda faqat sotuvchining ma'lum mahsulotlarni sotish niyati va xaridorni ularni qat'iy majburiyatlsiz sotib olish niyati belgilanadi.

Jahon amaliyotida bitimlarni tayyorlashni engillashtirish maqsadida bir necha bo'limlar yoki qismlarni o'z ichiga oluvchi bir shakldagi kontraktlar qo'llaniladi:

1. Tomonlarni aniqlash, ya'ni sotuvchi va xaridor sifatida qatunshuvchi korxona va tashkilotlarning nomi.
2. Kontraktning predmeti yoki shartnomaga turini va oldi-sotdiga mo'ljalangan mahsulotni ta'riflash.
3. Mol yetkazib berishning bazis shartlari, sotuvchi va xaridor o'ttasidagi mahsulotlarni tashish uning haqini to'lash, hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha majburiyatlarni taqsimlaydi, shuningdek mahsulotga egalik huquqini sotuvchidan xaridorga o'tish holatini aniqlaydi.
4. Yetkazib berish muddati – unda mahsulotni muddatdan avvalroq yetkazishga ruxsat olish huquqi va tartibi kelishib olinadi.
5. Mahsulot miqdori – u asosan fizik birliklarda ko'rsatiladi.
6. Nurx va kontraktning umumiy bahosi.

7. To'lov shartlari.
8. Mahsulotlarni o'rash va markirovkalash.
9. Sotuvchilarning kafolatlari, ya'ni ularni xaridorga ma'lum sifatdagi mahsulotni yetkazib berish majburiyatları.
10. Sug'urta qilish yuklärini tashishda yuz beridagan yo'qotishlarni qoplashni ko'zda tutadi.
11. Yengib bo'lmas kuchlar holati yoki "fors-major" holati.
12. Sanksiyalar yoki kontrakt shartlari buzilganda qo'llaniladigan ta'sir etish tadbirlari.
13. Nizolarni arbitraj va sud tomonidan ko'rib chiqilishi tomonlar o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklar yuzaga kelgan hollarda ko'zda tutiladi.
14. Kontraktning boshqa shartlari jumlasiga kontraktlarni tuzish, o'zgartirish va to'xtatish tartibi, davolarni bildirish va ularni ko'rib chiqish tartibi va muddati, yuklash bo'yicha qoidalar va mahsulotni yetkazib berish haqidagi xabar va boshqalar kiradi.

Xalqaro savdoda oldi-sotdi kontraktlaridan tashqari shuningdek pudrat kontraktlari, ijara kontraktları va muqobil savdodagi kontraktlar tuziladi.

14.4. Savdo siyosatining mohiyati. Bojxona ta'riflari nazariyasi

Biror mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatga bevosita aralashuvi jarayoni eksport va importni cheklash hisoblanadi. Davlat tomonidan olib boriladigan bunday tadbirlar savdo siyosati deb yuritiladi.

Savdo siyosati – davlat tomonidan xalqaro savdoga soliq, subsidiya, valyuta nazorati va import yoki eksportni to'g'ridan-to'g'ri cheklash siyosatlari olib borish orqali ta'sir ko'rsatish hisoblanadi.

Mamlakat tashqi savdosini cheklash borasida olib borilayotgan har qanday chora-tadbirlar aholi turmush sharoitining pasayishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan olib qarasak erkin tashqi savdo siyosati foydaliroq bo'lib hisoblanadi. Ammo, amaliyotda tashqi

savdoni cheklashning 50dan ortiqroq turi mavjud. Ularning ayrimlari davlat g'aznasini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lsa, boshqa birlari esa umuman importni cheklashga va yana boshqa bir tadbirlar esa eksportni cheklashga yoki rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, ko'pgina mamlakatlardagi katta-katta iqtisodchi va siyosatchi guruhlar proteksionizmni kuchaytirishni qo'llab-quvvatlashadi. Savol tug'iladi, agarda tashqi savdoni cheklash natijasida aholi turmush faoliyati yomonlashsa proteksionizmni keng qo'llash nima bilan bog'liq?

Ya'ni ko'pgina argumentlar proteksionizmga yon bossa ham, u xato hisoblanadi. Chunki uni iqtisodiy tahlillar yordamida asoslab berish mumkin. Erkin savdo jahon iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan foydali bo'lish mumkin, ammo alohida olingan mamlakat iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan esa erkin savdo hamma vaqt ham foydali hisoblanavermaydi. Ayrim holatlarda savdo cheklashlarini tashqi savdo yutuqlarini qayta taqsimlashda, ya'ni bir mamlakat aholisi turmush faoliyatini yomonlashtirish evaziga oshirishda foydalanish mumkin. Ullurdan shuningdek, guruhlar o'rtasida oladigan daromadlarini qayta taqsimlashda foydalanish mumkin. Shuning uchun ham tashqi savdo siyosatini ishlab chiqishda olib boriladigan tashqi savdo siyosatining iqtisodiy tahlili katta ahamiyatga egadir.

Mamlakatlarda ta'rifli mexanizm orqali tashqi savdo siyosatini yuritish, birinchi navbatda ushbu mamlakatning asosiy tarmoqlari va yangi ishlab chiqarish sohalarining himoyalanganligiga ta'sir qiladi. O'zbekistonda avtomobilsozlik yangi va istiqbolli soha (tarmoq) hisoblanadi va tabiiyki, ta'rifli himoyaga muxtoj.

Musalan, O'zbekistonda yangi mashinalar uchun import boji 40 foizini tashkil qilsin. Ushbu mashinani ishlab chiqarish uchun zarur bo'linligan chtiyot qismlar asosan chetdan keltirilsin va unga import boji 30 foiz miqdorida o'rnatilsin. Demak, ushbu misolda avtomobilsozlikning haqiqatda himoyalanganlik darajasi 40 foizga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Ya'ni, bitta mashinaning narxi 10000

dollar (AQSH) bo'lsa, bu yerda 7000 dollar ehtiyyot qismlarga sarflar va 3000 dollar qo'shilgan qiymat bo'lsin. Ehtiyyot qismlar yoki yarim tayyor mahsulotlarga (7000 dollarga) 30 foiz miqdorida, tayyor mahsulotlarga esa 40 foiz miqdorida boj o'rnatilgan sharoitda, sohaning haqiqiy himoyalanganlik darajasini ko'rib chiqamiz.

Bunda, soha(tarmoq)ning samarali himoyasi formulasidan foydalanamiz.

$$\text{Yer} = (\text{Ya} - \text{Va}) / \text{Ya}.$$

Bu yerda, Yer-sohaning ta'rif bilan haqiqiy himoyalanganlik darajasi;

Ya -bojaxona ta'rifi kiritilgandan keyingi qo'shilgan qiymat;

Va -bojaxona ta'rifi kiritilishidan oldingi qo'shilgan qiymat.

$$\text{YER} = ((3000 + 2250) - 3000) / 3000 = 2250 / 3000 = 0,75 \text{ yoki } 75\%$$

Bu shuni bildiradiki, tayyor avtomobil larga 40% ta'rif va ehtiyyot qismlarga 30% ta'rifni joriy qilib, davlat milliy avtomobilsozlikni haqiqatda 75% ta'rifli himoyalanganligini ta'minlaydi.

Proteksionizm siyosatining muhim tamoyilfi ham shundaki, davlat tayyor mahsulotlarga bojni ko'tarish va yarim tayyor mahsulotlarga esa uning miqdorini pasaytirish orqali tarmoqning haqiqiy himoyalanganligini yanada oshiradi.

Demak, tashqi iqtisodiy savdoni tartibga solishning eng asosiy usullaridan biri bojaxona bojlari va ta'riflari hisoblanadi.

Ta'rif, ya'ni importga bojaxona boji savdo siyosatining eng qadimiy usullaridan biri bo'lib hisoblanadi va doimiy ravishda davlat g'azinasini to'ldirish uchun foydalilanadi. Ammo, ta'rif nafaqat davlat g'azinasini to'ldirishda foydalilanadi, balki milliy ishlab chiqaruv-chilarni import raqobatidan himoya qilishda ham foydalilanadi. Ta'riflarni o'zgartirish orqali davlat eksport va importni rag'batlan-tirishi va shu yo'l bilan ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlariga ta'sir etishi mumkin. Ta'rifni qo'llashda import mahsulotlarining ichki bahosi jahon bozoridagi bahodan yuqori bo'ladi. Ya'ni:

Import mahsulotlari ichki bahosi = Jahon bahosi + (Jahon bahosi x Ta'rif stavkasi)

Umuman olganda, import mahsulotlarga qo'yiladigan ta'rif milliy ishlab chiqaruvchilarni import mahsulotlardan himoya qiladi.

Bojxona boji – bu mamlakatga olib kelinayotgan yoki mamlakatdan olib chiqilayotgan mahsulotlarga solinadigan majburiy soliqdir. Xalqaro amaliyotda bojxona bojlarining turli xillari qo'llaniladi va ularni hisoblash yo'llari, ifodalanishi hamda harakat sohasiga ko'ra turlicha guruhash mumkin.


Import bojlari davlat byudjetini to'ldirish maqsadida va ichki bozorlarga tushadigan chet el tovarlari oqimini tartibga solish uchun belgilanadi. O'z navbatida ular eng kam va eng ko'p miqdordagi import bojlariga bo'linadi. Eng kam miqdordagi import bojlari o'zaro qulay sharoitlarni yaratib berishni ko'zda tutuvchi savdo shartnomalari ~~vi~~ bitimlari bo'lgan mamlakatlar mahsulotlariga o'rnatiladi. Eng ko'p miqdordagi import bojlari esa bunday shartnoma bitimlar tuzilmagan mamlakatlar mahsulotiga nisbatan o'rnatiladi.

Eksport bojlari mamlakat ichida talab ko'p bo'lgan mahsulotlar ~~ta'mchilligini~~ oldini olish maqsadida belgilanadi.

Bojxona bojlari stavkasi ya'ni ularning tartibga solingan ro'yxati bojxona ta'riflari deb ataladi. Bojxona ta'riflari bir yoki bir nechta boj miqdorlari ustuniga ega bo'lishi mumkin, ya'ni ular oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy bojxona ta'riflari ustuni mahsulotlar kelib o'tligun mamlakatlardan qat'i nazar mahsulotlarga yagona stavkalarni ~~bu~~ ~~to'~~ tutadi. Murakkab bojxona ta'riflari ustunida esa, mahsulot bir nechta boj stavkalariga ega bo'ladi va u yoki bu mamlakatga unda ~~vi~~ kelgan iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarga qarab tanlov asosida qo'llaniladi.

14.5. Bojxona ta'riflarining ishlab chiqaruvchilarga, iste'molchilarga va mamlakat aholisi turmush darajasiga ta'siri

Bojxona ta'riflari avvalombor import bilan raqobatlashadigan milliy ishlab chiqarishni himoya qilishdan iborat. Agarda ta'riflarni joriy qilish orqali import cheklansa, milliy ishlab chiqarishda sotilayotgan mahsulotlar hajmini oshirish va ta'rifni joriy qilish orqali narxlarning oshishi hisobiga sotadi. Milliy ishlab chiqarishning ta'rifi joriy qilish orqali sotishni biz grafikda ham ko'rishimiz mumkin. (14.1-chizma).



14.1-chizma. Ta'rifning ishlab chiqaruvchilar manfaatiga ta'siri.

Import ta'riflari joriy qilingunga qadar ichki ishlab chiqarish hajmi S_1 , ichki talab hajmi esa D_1 ga teng bo'lgan. Talab va taklif o'rtasidagi farq ($D_1 - S_1$) import hisobiga qoplangan. Mamlakat iqtisodiyoti yopiq bo'lganida edi baholar darajasi R_e ga teng bo'lgan bo'lar edi. Hamda talab va taklif muvozanati E nuqtada o'rnatilgan bo'lur edi. Mamlakat iqtisodiyoti ochiq bo'lgani va importga cheklovlar yo'qligi tufayli milliy bozordagi narxlар jahон bozori narxlari R_w bilan bir xil. Importga ta'rif joriy qilinishi natijasida ichki baholar R_d dan R_d ga qadar ko'tariladi.

Oqibatda iste'molchilar ma'lum bir yo'qotishlarga duch keladi. Bu yo'qotishlar grafikda A, V, S, D sohalar bilan ko'rsatilgan.

Baholarning ko'tarilishi ilgari raqobatbardosh bo'limgan ayrim ichki ishlab chiqaruvchilar uchun ham foyda ko'rib ishlashga imkon berndi. Umuman shu sohada band milliy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish hajmini S₁dan S₂ga qadar oshiradi va S₂-S₁ hajmdagi mahsulot Rd bahoda sotiladi. Shu hajmdagi mahsulotni iste'molchilar oshirilgan narxda sotib oladilar va V sohaga teng yo'qotishga duch kelindilar. Ammo, bu yo'qotish ichki ishlab chiqaruvchilarning o'sgan tuydusiga aylanadi.

Baholarning o'sishi oqibatida ko'rileyotgan tovar iste'moli hajmi D₁ dun D₂ qadar qisqaradi. Bu yo'qotish grafikda D soha bilan ko'rsatilgan va u hech kimning foydasi bilan qoplanmaydi. Buning natijasida iste'molchilar turmush darajasidagi yo'qotish ro'y beradi. Chunki, iste'molchilar ishlab chiqaruvchilar va davlat yutuqlariga nisbatan ko'proq yo'qotishadi.

Importga ta'rif joriy qilinmagan sharoitda erkin xalqaro narxlarda nylrboshlashlar amalga oshiriladi.

14.6. Proteksionizm siyosatning vazifalari va mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati

Bojxona ta'riflar asosan milliy darajada qo'llaniladi va bunda qitor vazifalarni bajaradi.

- mamlakat mudofaa sanoatini himoya qiladi;
- mamlakatda bandlikni ta'minlaydi va yalpi talabni tay'batlantiradi;
- milliy iqtisodiyotdagi yangi tarmoqlarni himoya qiladi;
- fiskal vazifa, ya'ni davlat byudjeti daromadlarini to'ldirish umumai bo'lib xizmat qiladi;
- proteksionistik, ya'ni milliy ishlab chiqaruvchilarni chet el nqobatidan himoya qiladi;

• boshqaruv, ya’ni iqtisodiyot tuzilishini qayta qurishni boshqarish vositasi hisoblanadi va ular yordamida mamlakat iqtisodiyotidagi ilg‘or siljishlar rag‘balantiriladi.

Milliy iqtisodiyotni tiklanishi sharoitida ko‘pgina davlatlar o‘z ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida proteksionizm siyosatini qo‘llaydilar. Aks holda, mahalliy korxonalar “sinishi” jamiyatda ishsizlik xavfini tug‘diradi.

Shu bilan birga proteksionizm siyosatini qo‘llash salbiy oqibatlarni olib kelishi mumkin. Ular asosan iqtisodiyotning himoya qilinayotgan sohalarida resurslarni samarasiz sarflanishiga olib keladi.

Agar mamlakatlar bojxona ittifoqiga birlashsalar unda bojxona ta’rifi barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun ularning savdo munosabatlarida yagona bo‘lib qoladi (masalan, Yyevro pa iqtisodiy hamjamiyati). Bojxona ta’riflari miqdori alohida mamlakatlar iqtisodiyotida va jahon xo‘jaligida yuz berayotgan jarayonlar ta’sirida yuz beradi. Umumjahon bojlarining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda va u ikki tomonlama hamda ko‘p tomonlama muzokaralar asosida mamlakatlar tomonidan rag‘batlantiriladi va nazorat qilinadi.

Bojxona ta’riflari bojlaridan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita egiluvchan usullari sifatida turli soliq turlari keng qo‘llaniladi. Bunda faqat tashqi soliq tizimidagi emas, balki ichki soliq tizimidagi soliq turlaridan ham foydalaniadi.

Faqat tashqi iqtisodiy bitimlarni tartibga solishda qo‘llaniladigan soliqlarga import va eksportga soliqlar kiradi. Ular olib kelinayotgan yoki olib chiqilayotgan mahsulotlarga ularning oqimlarini tartibga solish, ya’ni rag‘batlantirish yoki to‘xtatish maqsadida belgilanadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda import tushumlariga soliqlar keng qo‘llanilsa eksport mahsulotini sotishdan tushumlarga soliqlar esa imtiyozlarga egadir. Bu eksportni rag‘batlantirishga ichki va tashqi bozorlardagi narxlar farqi ko‘p bo‘lganda o‘z mahsulotlari kabi import mahsulotlariga ham mamlakat ichida sotish uchun bir xil sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek ichki soliqlar tizimi yordamida ham tartibga solinadi. Davlat sotishdan olingan foydaga pul kapitalidan daromadlarga kapitalning qo'shimcha o'sishiga qimmatbaho qog'ozlarga, ortiqcha foydaga va boshqalarga soliqlarni belgilab o'zining hamda xorijiy ishlab chiqaruvchilarning faoliyati uchun qulay va qulay bo'lмаган шароитларни юратиш мумкин.

14.7. Import kvotalari va litsenziyalarini taqsimlash uslublari

Jahon amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usllaridan kengroq foydalaniлади. Bevosita usollar o'zining mazmuniga ko'ra iqtisodiy, ma'muriy, me'yoriy – huquqiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy xarakterdagи bevosita usullar ichida keng tarqalgan hisoblanadi.

Litsenziyalash – bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarни amalgа oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma'lum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar va xizmatlar eksporti humda moliya operatsiyalarini o'tkazish, xorijga ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi.

O'zbekistonda litsenziyalar faqat davlat ro'yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi. Boshqa yuridik shuxslarga berish taqiqlangan.

Mahsulotlar eksporti va importini litsenziyalash davlatga ular oqimini qattiq tartibga solishga, ba'zi hollarda ularni vaqtincha chegaralashga va shu asosda tashqi iqtisodiy taqchillik o'sishining lo'xtashiga hamda savdo balansining tenglashtirishga imkon beradi.

Mahsulotlar va xizmatlar eksporti va imortiga litsenziyalar berish huquqiga O'zbekiston Respublikasining quyidagi boshqaruv tashkilotlari ega: Vazirlar Maxkamasi, Moliya, Adliya, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash, Xalq ta'limi vazirliklari, shuningdek, Markaziy bank.

Belgilangan chegaralar doirasida amalga oshiriladigan bitimlarga litsenziyalar har bir alohida bitim uchun mol yetkazib berish hajmi yoki qiymatiga tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan beriladi.

Moliya operatsiyalarini o'tkazishga litsenziyalar asosan Respublika Moliya vaziriligi va Markaziy bank tomonidan o'z va xorijiy banklarga, moliya muassasalariga Beriladi. Ular moliya-kredit muassasalariga mamlakat ichida va uning tashqarisida chet el valyutasi bilan operatsiyalarini amalga oshirish, xorijiy moliya kredit muassasalariga esa ichki bozorda yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish huquqini beradi.

Litsenziyalash bilan bir qatorda jahon amaliyotida mahsulotlar shuningdek, ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida **kvotalash** keng qo'llanalidi.

Bu usulning mohiyati shundan iboratki, unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi bo'yicha ma'lum davrga eksport va importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarini belgilaydi.

O'zbekistonda kvotalash xalq iste'mol mollarini va strategik xomashyoning muhim turlarini olib chiqishni chegaralash usulü sifatida qo'llanilmoqda.

Kvotalash faqat mahsulot oqimlarini emas, balki ishchi kuchi oqimlarini tartibga solishda qo'llaniladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mehnat bozorini himoyalash maqsadida xorijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o'rnatadi.

Hozirgi vaqtida kvotalash bojlarga nisbatan ko'proq qo'llanilishiga ikkita sabab bor:

1. Ta'rif stavkalari xalqaro savdo kelishuvlariga asosan belgilanadi. Ayrim hollardan tashqari vaziyatlarda, mamlakatlar ta'riflar stavkasini oshira olmaydilar va shuning uchun iqtisodiyotni raqobatdan himoya qilish maqsadida kvotalarga e'tiborni qaratishga majbur bo'ladi.

2. Hlimoyaga muhtoj tarmoqlar ham importga kvotalar joriy qilishni qo'llaydi. Chunki, ta'rifni joriy qilishga nisbatan imtiyozli ilmoxiyalari olish osonroqdir.

Bu'zi hollarda mamlakatlar tomonidan maxsus bojxona bojlari qo'llaniladi (ya'ni dempinga qarshi qaratilgan bojlar). Masalan, mahsulotlar olib kelish hajmi va sharti mahalliy ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirsa yoki mamlakat manfaatlariga zid bo'lqanda qo'llaniladi. Maxsus bojxona bojlarining miqdori har bir unlik holat uchun alohida o'rnatiladi.

Dempinga qarshi qaratilgan bojlar jahon amaliyotida keng qo'llanilib o'zida qo'shimcha import bojlarini aks ettiradi. Ular odatda jahon narxlaridan yoki import qilayotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo'yicha eksport qilinayotgan mahsulotlarga o'rnatiladi. Bu bojharni belgilash haqidagi qarorni xalqaro sud mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so'ng chiqaradi hamda uning miqdorini va to'lash tartibini belgilaydi.

Qisqacha xulosalar

1. Xalqaro savdo nazariyasi XIX asr boshlarida David Rikardo aniqlangan taqqoslash imkoniyatlari konsepsiyasiga aqillangan. Bu konsepsiya asosan biror bir mamlakat boshqa mamlakatga nisbatan birorta tovar ishlab chiqarishlarda imkoniyatlarga yaro bo'ladi va ushbu tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi.

2. Umuman tashqi savdo munosabatlari ikki muhim obyektiv kuchlari, ya'ni tabiiy va xomashyo resurslarining mamlakatlar u'lkanliklari bir tekis taqsimlanmaganligi hamda mamlakatlarda ishlab chiqarishli kuchlarining bir xil rivojlanmaganligiga ko'ra paydo bo'lган.

3. Tashqi savdo aloqalariga mahsulotlarni ayrboshlash, ilmiyotlarni ayrboshlash va yangi ilmiy-texnik ma'lumotlarni ayriboshish kiritiladi. Bu ayrboshlashlarning barcha ko'rinishi tashqi savdo operutsiyalari, ya'ni eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi.

4. Ichki ishlab chiqaruvchilarni xalqaro raqobatlardan himoya qilish uchun mamlakat erkin savdo siyosatiga turli xil baryerlar qo'yishi mumkin. Savdo hajmini cheklaydigan bunday siyosat proteksionizm deb ataladi. Savdo cheklashlari import ta'riflari va nota'rif bar'yerlarga bo'linadi. Savdo baryerlarini qo'llashni oqlaydigan proteksionizm siyosati tarafdarlari asosan milliy himoyani ta'minlashning zarurligi, ish joylarini saqlash, ishlab chiqarish tarmoqlarini xorijiy raqobatchilardan himoya qilish kabi sabablarni ko'rsatishadi.

5. Bojxona ta'riflarini ishlab chiqishda qo'llaniladigan klassifikatorlar mahsulotlarni ta'riflash va shartli belgilashning uyg'unlashtirilgan tizimi bo'lib, unda olti xonali shartli raqam b'lgiga ega bo'lgan mahsulot haqidagi asosiy ma'lumotlar hamda uning mahsulotlar nomenklaturasida o'rni ko'rsatiladi.

6. Ta'riflarni joriy qilish orqali import tovarlari narxlarining oshishi birinchi o'rinda iste'molchilarga ta'sir ko'rsatadi. Chunki, ta'riflar milliy tovarlarning narxini oshiradi va shuningdek ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar narxini oshirish natijasida hajmining kamayishiga ham olib keladi.

7. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bevosita usullari keng tarqalgan. Litsenziyalash bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarini amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olish hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Xalqaro savdoni rivojlantirishning obyektiv va subyektiv sabablari nimada?
2. Xalqaro savdoning qanday shakllarini bilasiz?
3. Xalqaro savdoda savdo kontraktlari qanday tuziladi?
4. Kontrakt bitim qatnashchilari kimlar bo'ladi?
5. Savdoda o'z sherigini aniqlagandan keyin qanday taklif kiritiladi?

6. Kontraktlar aniqlanadigan shartlariga ko‘ra qanday guruhlarga bo‘linadi?
7. Savdo bitimlarini yengillashtirish maqsadida qanday kontraktlar tuziladi?
8. Nima uchun xalqaro savdo qatnashuvchi tomonlarning barchasi uchun foydali ekanligini izohlang.
9. Savdo baryerlarining asosiy shakllarini va import bojlari va nota‘rif chegaralashlarni kiritishdan keladigan iqtisodiy oqibatlarni tushuntiring.
10. Nima uchun proteksionizm siyosatini xalqaro savdo qatnashchilarining hammasi ham yoqlayvermaydi?

Mavzu bo‘yicha masalalar

A davlat bir yilda 70 ta yengil sport samolyotini ishlab chiqaradi. Ullardan 20 tasi ichki iste’molga, 50 tasi esa eksportga chiqariladi. Erkin savdo sharoitlarida 1 ta samolyotning bahosi – 6000 doll. Hukumat tarmoqni rag‘batlantirish maqsadida har bir samolyotning qlymatidan 15% miqdorida subsidiya ajratadi. Natijada samolyotning ichki narxi 6450 doll.gacha oshdi, eksport narxi esa 5550 doll.ga kamayadi. Eksport hajmi 70 ta samolyotgacha o’sdi.

Subsidiyalar joriy qilishning oqibatlarini aniqlang.

Yechish:

Subsidiyalar joriy qilinishini grafik ko‘rinishida quyidagicha aks ettilish mumkin:

Grafikda S_w egri chizig‘i A davlat samolyotlari eksportini, D_d – egri chizig‘i esa ichki talabni ko‘rsatadi. Bozor muvozanatiga e nuqtada erishiladi, Ya’ni A davlat 6000 doll.lik narx bo‘yicha 50 ta samolyot chiqaradi. Eksportdan olinadigan daromad: $6000 \times 50 = 100000$ doll. teng. Subsidiya joriy qilingandan so‘ng A davlat eksporti jasayadi, ishlab chiqarish hajmi 80 ta samolyotgacha ortadi, S_w egri chizig‘i S_s darajagacha siljiydi va j nuqtada bozor muvozanati o‘rnataladi.

Subsidiya joriy qilingandan so'ng eksport bahosi 450 doll. (6000 – 5550) ga pasayadi, ya'ni A davlat uchun savdo sharoitlari yomonlashadi, biroq eksport hajmi 70 ta samolyotgacha o'sadi.

Eksportning o'sishi ichki bozorda samolyotlar soni 10 tagacha qisqarishiga olib keladi: $20 - 10 = 10$, chunki ichki narx o'sadi. Subsidiya ajratishga davlat byudjeti xarajatlari 70×900 ($15\% \text{ ot } 6000 \text{ doll.}$) = 63000 doll.ni tashkil etadi.

Shunday qilib, eksport subsidiyasi mamlakat uchun savdo sharoitlarini yomonlashtiradi, lekin bunda tashqi dunyo daromadlarini oshiradi

Aholisi 30 mln.kishi bo'lgan mamlakat -900 mlrd. p.b. teng bo'lgan YaMM ishlab chiqaradi. Eksport hajmi (Q_{eks}) 175 mlrd. p.b., import hajmi esa 275 mlrd. p.b.ni tashkil etadi. Milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasini aniqlang.

Yechish:

Iqtisodiyotning ochiqlik darjasи, mamlakatiинг xalqaro savdoda ishtiroti bilan aniqlanadi. Ochiqlik darajasini baholovchi asosiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: eksport kvotasi (K_{eks}), import kvotasi (K_{imp}), aholi jon boshiga to'g'ri keladigan eksport hajmi ($Q_{eks.j.b.}$).

$$K_{eks} = [Q_{eks}/YaMM] * 100;$$

$$K_{imp} = [Q_{imp}/YaMM] * 100;$$

$$Q_{eks.j.b.} = Q_{eks}/N.$$

Eksport kvotasini hisoblash uchun ma'lum davrdagi natural yoki qiymat ko'rsatkichlardagi eksport hajmini, o'sha davrda mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bo'lish orqali hisoblanadi (foizda).

Shunday qilib, eksport kvotasini aniqlaymiz:

$$K_{eks} = 175 / 900 * 100\% = 19\%.$$

Shunday qilib, mamlakat xalqaro savdoda faol ishtirot etayapti.

Import kvotasi – natural yoki qiymat ko'rsatkichlardagi import hajmini o'sha davrdagi mamlakat ichki iste'moliga bo'lish orqali hisoblanadi.

Shunday qilib, eksport kvotasini aniqlaymiz:

$$\text{Kimp} = 275 / 900 * 100\% = 31\%.$$

Shunday qilib, mamlakat eksportga nisbatan importga ko'proq yo'naltirilgan. Import kvotasining 31 %ligi, mamlakat milliy tufayliyotining yetarli darajada ochiqligini va xalqaro savdoda faol ishlirk etayotganligini ko'rsatadi.

Aholi jon boshiga eksport hajmi;

$$Q_{eks} j.b = 175000 \text{ mln.r} / 30 \text{ mln.chel} = 5833 \text{ p.b. (1 kishiga).}$$

1. Aytaylik F mamlakatda bir dona Z tovarni ishlab chiqarishga 10 ton, bir dona W tovarni ishlab chiqarishga esa 15 soat sarflanadi. Ushbu tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha V mamlakat nisbatan pastroq umumidorlikka ega, ya'ni bir ona mahsulot ishlab chiqarish hajmi Z tovar uchun 19 soat, W tovar uchun 45 soatni tashkil qiladi. Ushbu mamlakatlar o'rtasida ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lgan savdoni yo'lgan qo'yib bo'ladimi? Agar mumkin bo'lsa, har bir mamlakat qaysi tovarni eksport qilishini izohlab bering.

2. A mamlakatda X tovarga talab funksiyasi $D = 100 - 10P$, taklif funksiyasi esa $S = -50 + 20P$ ko'rinishga ega. B mamlakatda esa X tovarga talab funksiyasi $D = 50 - 5P$, taklif funksiyasi esa $S = 20 + 10P$ ko'rinishga ega. Agar tovar eksporti va importi faqat shu ikki davlat u'stunida ro'y beradi deb hisoblasak, savdo aloqalari o'rnatilganidan uning X tovarning jahon bozoridagi narxi va sotilish hajmi qancha bo'ladi?

3. A mamlakat X tovarni 60 AQSH dollarga, ya'ni jahon bozori bisholarida eksport qiladi. Bu mamlakatda X tovarga talab va uning taklifi egri chiziqlari funksiyasi quyidagicha:

$$Q_u = 400 - 5P; Q_s = -50 + 5P$$

Bitta tovarga 10 dollarlik eksport boji kiritilishidan oldin va so'nggi eksport hajmini aniqlang. Eksport boji kiritilishidan davlat oladigan dastomid va iste'molchilar ko'radigan manfaatni aniqlang.

4. Mamlakat erkin savdoni amalga oshirish mumkin. Mamlakatda leikkurisidin pishloq ishlab chiqarish hajmi yiliga 200 ming tonna, ichki iste'mol esa 600 ming tonna, 1 kg pishloqning jahon bahosi 10 dollar.

Hukumat import qilinyotgan har bir kg pishloq uchun 0,5 dollar ta'rif o'rnatdi. Buning natijasida mamlakatda pishloq ishlab chiqarish 380 ming tonnaga ko'payishi va ichki talabning 10 %ga kamayishi bashorat qilinmoqda. Import qilinyotgan pishloqqa ta'rif o'rnatilgandan so'ng mamlakat iste'molchilarini, ishlab chiqaruvchilaning va davlat byudjetining yutuq hamda yo'qotishlarini hisoblang.

5. Mamlakat iqtisodiyoti quyidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi: avtonom iste'mol – 250 trln so'm.; avtonom investitsiyalar – 100 trln so'm.; avtonom import – 45 trln so'm.; eksport – 280 trln so'm.; tovar va xizmatlar bo'yicha davlat xaridi – 300 trln so'm.; avtonom soliqlar – 50 trln so'm.; iste'molga chekli moyillik – 0,8; investitsiyaga chekli moyillik – 0,1; soliq stavkasi – 20 %; importga chekli moyillik – 0,06. Muvozanat ishlab chiqarish hajmini hisoblang. Savdo balansi saldosi qanday o'zgaradi, agar davlat avtonom import darajasini 30 trln. so'm miqdorida o'rnatgan bo'lsa?

6. 2018-yil yanvar oyidan 2019-yil yanvar davri orasida o'rtacha eksport narxlar 20 % ga, o'rtacha import narxlar esa 15% ga ko'paydi. 2019-yil va 2020-yilning ushbu davrlarida o'rtacha eksport narxlar 10 %ga ko'paygan bo'lsa, o'rtacha import narxlar o'zgarmay qoldi va 15 % ni tashkil qildi. Tashqi savdo shartlari indekslarini hisoblang va xulosalar qiling.

7. Aholisi 20 mln.kishi bo'lgan mamlakat 750 mlrd. p.b. teng bo'lgan YaMM ishlab chiqaradi. Eksport hajmi (Qeks) 75 mlrd. p.b., import hajmi esa 100 mlrd. p.b.ni tashkil etadi. Milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasini aniqlang.

8. Aholisi 25 mln.kishi bo'lgan mamlakat 300 mlrd. p.b. teng bo'lgan YaMM ishlab chiqaradi. Eksport hajmi (Qeks) 40 mlrd. p.b., import hajmi esa 45 mlrd. p.b.ni tashkil etadi. Milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasini aniqlang.

XV BOB. TO'LOV BALANSI. VALYUTA KURSI

15.1. To'lov balansi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi

Mamlakatning ma'lum vaqtdagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati shu jumladan tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi to'lov balansida o'z aksini topadi. Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyuta uyirboshlash va valyuta operatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Demak, mamlakatning jahon bozoridagi faoliyatining natijalari pirovardida xorijiy valyuta tushumlari va xarajatlarda ifodalanadi.

Shuning uchun ham **to'lov balansi** – bu bir tomonida chetdan keladigan barcha tushumlar, ikkinchi tomonda esa, chetga chiqaradigan burcha to'lovlari ko'rsatilgan hujjatdir.

Tushum (kredit) faqat eksport yordamida ta'minlanishi mumkin. Aksincha xorijiy tovarlarni sotib olish import to'lovlari va xorijiy valyuta xarajatlari (debit) bilan bog'liq bo'ladi. Bunda tovar deganda uyirboshlanadigan har qanday narsa tushuniladi, ya'ni u moddiy ne'mat, xizmat, ishchi kuchi, kapital va valyuta bo'lishi mumkin.

Barcha iqtisodiy bitimlar ikkita katta guruhga bo'linadi:

1) Joriy operatsiyalar

2) Kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar (Jadval).

15.1-Jadval

Mamlakat to'lov balansining taxminiy ko'rinishi (raqamlar shartli)

Nr	Moddalar nomi	Kredit (+) yoki eksport hisobiga tushumlar	Debet (-) yoki import natija-sidagi xarajatlar	Sof kredit yoki sof debet
1	Joriy operatsiyalar hisobi			
1	Tovarlar	+125	-205	-80
2	Tashqi savdo balansining			

	qoldig‘i			
3	Xizmatlar	+35	-37	-2
4	Investitsiyalardan daromadlar (foizlar va divedendlar)	+17	-10	+7
5	Pul o‘tkazmalari	+1	-8	-7
6	Joriy operatsiyalar bo‘yicha balansning qoldig‘i	E(X)	Z(Y)	-82
II	Kapital harakatining hisobi			
7	Investitsiyalar va boshqa o‘rta va uzoq muddatli kapital	+90	-37	+53
8	Kapital harakati balansning qoldig‘i	KZ	KE	+53
9	Joriy operatsiyalar va kapital harakati bo‘yicha balansning qoldig‘i	E(X) + KZ	Z(Y) + KE	-29
III	Rasmiy rezervlar (oltin, XVFdagi rezervlar)	+29		+29
	To‘lov balans saldosi	X – Y > 0	X – Y < 0	-

Umuman joriy operatsiyalar hisobida mahsulotlar va xizmatlar eksporti «plus», import esa «minus» ishoralari bilan belgilanadi. Bu ishoralarning belgilanishini quyidagicha izohlash mumkin: ichki mahsulotlar eksporti kreditni, aksincha mamlakatga mahsulotlar olib kelish – import esa debetni ko‘rsatadi. Chunki, mahsulotlar eksporti xorijiy valyuta ishlab topib, mamlakat valyuta zaxirasini boyitsa, import esa mamlakatdan valyuta chiqib ketishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakat valyuta zaxirasingin kamaytiradi.

Joriy operatsiyalarning asosiy moddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ularning farqi **tashqi savdo balansining qoldig‘i**

deb yuritiladi. Bizning misolda bu balans salbiydir, ya'ni mamlakat tovarlarni chetga olib chiqishdan ko'ra ko'proq olib keladi. (-80).

Joriy operatsiyalarning keyingi moddasi-bu, xizmatlar eksporti va importidir. Ularga transport, sug'urta, sayyoohlik xizmatlari va boshqalar kiradi. Bu operatsiya ham balansning salbiy qoldig'iga ega. (-2)

Investitsiyalardan daromadlar foizlar va dividendlar bo'yicha to'lovlarni o'z ichiga oladi. Agar xorijga qo'yilgan milliy kapitalga chet elliklarning amalga oshiradigan bunday to'lovlaridan tushumlar mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy kapitaldan bunday to'lovlar miqdoridan ko'p bo'lsa, unda sof daromad ijobiy bo'ladi. (+7)

Pul o'tkazishlar shu mamlakatlarning xorijda yashayotgan fuqarolariga to'lanadigan nafaqalarni, muhojirlarning xorijdagi o'z qarindoshlariga pul o'tkazishlari, turli ko'rinishdagi hukumat yordamlarini o'z ichiga oladi. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, xorijga jo'natilayotgan pul o'tkazishlar miqdori olinayotganga nisbatan yuqori, ya'ni operatsiyalar mamlakatdagi xorijiy valyuta zaxiralarini kamaytiradi. (-7).

Joriy hisoblar bo'yicha barcha operatsiyalar yig'indisi joriy operatsiyalar to'lov balansini tashkil etadi. Bizning misolda u salbiy (-82), Bu esa shuni anglatadiki, mamlakatda import operatsiyalari natijasida xorijiy valyutaga bo'lgan talab uning eksport operatsiyalari ta'minlaydigan taklifdan ortiq bo'ldi. Yoki boshqacha aytganda ushbu holda mamlakat joriy operatsiyalar bo'yicha taqchillikka ega. Uni qoplash uchun mamlakat yoki qarz oladi (uzoq va qisqa muddatli,) yoki o'z ko'chmas mulkini (yer, bino) va moliyaviy aktivlarini (aksiya va obligatsiyalar) sotadi.

Biroq mamlakat joriy to'lov balansining ijobiy qoldig'iga ega bo'lishi ham mumkin. Agar uning eksport operatsiyalari import operatsiyalaridan ortiq bo'lsa, shunday hol yuz beradi. Bunda mamlakatda chet elda ko'chmas mulkni sotib olish yoki boshqa mamlakatlarga qarzga berishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan xorijiy

valyuta ortiqchaligi yuzaga keladi. Investitsiyalash va kreditlash bilan bog'liq operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida, ya'ni kapitallar harakati hisobida aks ettiriladi. Bu yerda moddiy va moliyaviy aktivlarni (korxonalar, yer, uylar, qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalar, xazina majburiyatlari va boshqalar) olish-sotish bilan bog'liq kapitallar oqimini aks ettiradi. Agar bu aktivlar sotilsa yoki eksport qilinsa, unda bu xorijiy valyutani mamlakatga kelishini, tushumini ko'paytiradi (+90).

Biroq kapitalni olib kelish bilan bir vaqtida uni olib chiqish bilan bog'liq operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Bunda mamlakatning tadbirkorlari xorijdan aksiyalar sotib oladi, xorijliklarga kreditlar beradi va shu asosda ular xorijiy valyuta zaxiralarini sarflaydi. Bu operatsiyalar debet ko'rinishida aks ettiriladi (-37). Kapital harakati balansining qoldig'i – bu uni olib kelish va olib chiqish o'rtasidagi farqdir (+53).

Avval aytib o'tilganidek, joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati balansi o'zaro chambarchas bog'langan. Bizning misolda bирinchisining taqchilligi (-82) kapitalning sof oqib kelishi hisobiga (+53) moliyalashtiriladi va aksincha, agar joriy operatsiyalar bo'yicha aktivga ega bo'lsa u holda bir vaqtida kapitallar balansi bo'yicha kapitallarning sof kelib chiqishi amalga oshirilgan bo'ladi.

Shunday qilib, balansning bu ikki bo'limi bir-birini tenglashtirib boradi va aslida ham bir-biriga teng bo'lishi kerak. Biroq amalda doimo taqchillik yoki ortiqchalik yuzaga keladi. Shuning uchun turli mamlakatlarning Markaziy banklari rasmiy rezervlar deb ataluvchi xorijiy valyuta zaxiralariga ega. Bu rezervlar joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital balansi nomutanosibligini bartaraf etishda qo'llaniladi.

Bizning misolda bu nomutanosiblik yoki qoldiq (-29)ni tashkil etadi va rasmiy rezervlardan tushumlar hisobiga tartibga solinadi.

15.2. To‘lov balansining nomutanosibligini tartiblash usullari

Bu yerda shuni ta’kidlash lozimki, “to‘lov balansining taqchilligi” bu balansning sabliy qoldig‘i miqdorini bildiradi.

Rasmiy rezervlarning qisqarishi – bu taqchillik miqdorini ifodalaydi, rasmiy rezevrlarning o’sishi esa to‘lov balansining aktiv qoldig‘i miqdorini ko‘rsatadi. Pirovardida uning barcha uch bo‘limi summasi “0”ni tashkil etishi lozim. Bu esa xorijiy valyuta taklifini va unga mamlakatda bo‘lgan talab baravarligini bildiradi.

Makroiqtisodiy modellarda joriy operatsiyalar balansi qoldig‘i quyidagicha beriladi:

$$X - M = X_p = U - (S + I + G);$$

Bu yerda, **X – eksport;**

M – import;

X_p – sof eksport;

S+I+G -YaMMning bir qismi;

U – Yalpi daromad.

Joriy operatsiyalar balansida taqchillik bo‘lgan sharoitda, mamlakatning eksportdan olgan daromadlari importga qilgan xarajatlardan kam bo‘ladi va uni tashqaridan qarz olish hisobiga yoki mavjud aktivlarning bir qismini xorijiy investorlarga sotish orqali qoplashi mumkin. Bu operatsiyalar sof xorijiy aktivlarning kamayishiga olib keladi.

Sof xorijiy aktivlar – bu, milliy rezidentlar tomonidan egallab turilgan xorij aktivlari va xorijliklar egalik qilgan mamlakat aktivlari o‘rtasidagi farqni bildiradi.

Joriy operatsiyalar balansida taqchillik bo‘lmagan sharoitda esa mamlakat xorijiy valyutalarni sarf qilishga nisbatan ko‘proq olib keladi. Kapital xarajatlari hisobida aktivlar bo‘yicha barcha xalqaro operatsiyalar ko‘rsatiladi.

Kapital harakati balansi = Aktivlarni sotishdan tushadigan barcha tushumlar – Xorijiy aktivlarni sotib olishga qilingan xarajatlar

Xorijiga aktivlarni sotish valyuta zaxirasini ko‘paytirsa, sotib olish esa uni kamaytiradi. Shuning uchun kapital harakati balansi barcha operatsiyalardan keladigan sof valyuta tushumlarini ko‘rsatadi. Kapital harakati hisobining ijobjiy qoldig‘i mamlakatda kapital ko‘payishini bildirsa, uning salbiy qoldig‘i mamlakatda kapital kamayishini bildiradi.

Agarda investitsiyalar (I) milliy jamg‘armalardan ko‘p bo‘lsa ($I > S$), ortiqcha investitsiyalar xorijdan olinadigan qarz hisobiga moliyalashtirilishi lozim. Bu qarzlar mamlakatga tovar va xizmatlarni eksport qilishga nisbatan ko‘proq import qilinishini ta‘minlaydi ($M > X$). Ya’ni sof eksport salbiy qoldiqqa ($X_n < 0$) ega bo‘ladi. Mamlakat xalqaro jarayonga qarzdor bo‘lib qatnashadi.

$$\left\{ \begin{array}{l} X_n < 0 \Rightarrow X - M < 0 \Rightarrow X < M; \\ I - S > 0 \Rightarrow I > S - \text{xorijdan kapital kelishi} \end{array} \right.$$


Joriy operatsiyalar ijobjiy qoldiqqa ega bo‘lganda, ortiqcha mablag‘lardan xorijga investitsiyalar berishda yoki xorijdan ko‘chmas mulk sotib olishda foydalilanildi.

$$\left\{ \begin{array}{l} X_n > 0 \Rightarrow X - M > 0 \Rightarrow X > M; \\ I - S < 0 \Rightarrow I < S - \text{kapitalni xorijga chiqarish} \end{array} \right.$$

Davlatlar rasmiy zaxiralar va qarzlar hisobiga qoplash qobiliyatiga ega bo‘limgan to‘lov balansining katta davriy taqchilligi bo‘lgan hollarda o‘z valyutalari devalvatsiyasini amalga oshirishlari mumkin. Bu importning fizik hajmi ko‘payishiga va oqibatda mamlakatda xorijiy valyuta tushumining o‘sishi hamda taqchilligini yo‘qotishga olib keladi.

15.3. Valyuta tizimi va to'lov balansini tartibga solish

Mamlakatda to'lov balansi taqchilligi yoki ortiqchaligini tartibga solish tizimi qabul qilinayotgan valyuta kurslariga bog'liq. Amaliyotda valyuta kurslarini qabul qilishning bir-biriga qarshi ikki varianti mavjud.



15.1-chizma. Xorijiy valyuta bozori.

1. Talab va taklifga asosan aniqlanadigan egiluvchan yoki suzib yuruvchi valyuta kursi tizimi.

2. Davlat aralashuvi asosida aniqlanadigan qat'iy belgilangan valyuta kursi tizimi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari talab va taklif asosida aniqlanadi.

Masalan, bir o'zbek so'mining AQSH dollariga almashishini qarab chiqamiz. Quyidagi 15.1-chizmadan ko'rinish turibdiki, dollarga talab kamayadi va taklif esa oshadi. Nimaga?

Dollarga bo'lган talabning kamayishi DD to'g'ri chizig'ida berilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, agarda dollar o'zbekistonliklar uchun arzon bo'lsa, Amerika tovarlari ham ular uchun arzon bo'ladi va bu, o'z navbatida, ularning Amerika tovarlariga bo'lган talabini oshiradi.

Dollarning taklifi (SC) kamaysa, so'mda belgilangan dollarning qiymati oshadi (ya'ni dollarda belgilangan so'mning qiymati pasayadi). Bunday vaziyatlarda amerikaliklar ko'proq o'zbek tovarlarini sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki, so'mning dollarga nisbatan

qiymati pasaysa, u o‘z navbatida o‘zbek tovarlarining narxi ham pasayganini bildiradi va oqibatda ko‘proq o‘zbek tovarlarini sotib olish imkoni paydo bo‘ladi.

O‘zbek tovarlarini sotib olish jarayonida ular AQSH dollarini valyuta bozoriga olib chiqadi, chunki, o‘zbek tovarlarini sotib olish uchun dollarni so‘mga almashtirishadi. Dollarga bo‘lgan talab va taklifning kesishgan nuqtasi dollarning so‘mdagi qiymatini bildiradi.

Erkin bozor sharoitida belgilangan valyuta kurslari “o‘zgarishi” mumkin. Agarda, dollarning so‘mdagi qiymati oshsa, so‘m qiymatining pasayganligini yoki qadrsizlanganligini ko‘rsatadi. Aksincha, agarda dollarning so‘mdagi qiymati pasaysa, so‘m qiymatining oshganligini yoki so‘mning qimmatlashganligini ko‘rsatadi. Bir birlik xorijiy valyutani sotib olish uchun kam miqdorda milliy valyuta surf qilish milliy valyutaning qimmatlashuvini bildiradi. Agarda, dollarga nisbatan so‘m qadrsizlansa, dollar so‘mga nisbatan qimmatlashadi.

Ochiq iqsodiyotli ko‘plab mamlakatlar o‘z to‘lov balanslarini XVF tavsiya etgan narx bo‘yicha ishlab chiqadilar. Bu tarx rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida amalga oshiriladigan barcha iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshiradi. To‘lov balansining ma’lumotlari muntazam chop etiladi va davlatning kredit qobiliyati haqidagi guvohnoma sifatida xalqaro tashkilotlar, boshqa mamlakatlarning hukumatlari hamda tadbirkorlari tomonidan kreditlash va moliyalashtirish, moliyaviy, texnika va moddiy yordam ko‘rsatish masalalarini hal etishda qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda to‘lov balansi faqat Respublika mustaqillikka erishganidan va bozor munosabatlariga o‘tishidan keyin tuzila boshlandi. Jahon bozorida teng huquqli sherikchilik Respublikani xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyekti sifatida aniq ma’lumotlarni talab etadi. Shuning uchun Respublika to‘lov balansi XVF tafsiyalariga juda yaqinlashtirilgan tarx asosida tuzilgan.

15.4. Valyuta kursi tushunchasi va valyuta ayirboshlash zaruriyati

Xalqaro valyuta munosabatlari pulning xalqaro to‘lov oborotida amal qilish jarayonida vujudga keladi. U tashqi savdo bilan birga paydo bo‘ldi va rivojlanishning uzoq yo‘lini bosib o‘tdi. Tarix davomida jahon puli shakllari va xalqaro hisob-kitob shakllari o‘zgardi. Bir vaqtida valyuta munosabatlari ahamiyati o‘sdi va ularning nisbatan mustaqil darajasi oshdi. Tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi hurakati mamlakatdan mamlakatga ko‘chadigan pul massalari oqimi yordamida amalga oshadi. Bu harakatni tartibga solish zarurligi xalqaro valyuta tizimi va jahon valyuta tizimlarining shakllanishiga olib keldi.

Valyuta – bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so‘m, dollar, marka, funt-sterling va hokazo.) Juda qisqa ma’noda – bu chet el davlatlarining pul belgilari. Har bir milliy bozor xususiy milliy valyuta tizimiga ega bo‘ladi.

Milliy valyuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi turkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xulqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo‘lgan jahon valyuta tizimi amal qiladi.

Mamlakatlar o‘rtasida tovar va xizmatlar oqimi ko‘paygan suri pul vositalarini ayirboshlashi ham tobora oshib boradi, uzaro hisob-kitoblardagi nomutanosiblik muammolari yuzaga keladi. Bularning barchasi jahon valyuta tizimining barpo etilishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. Uning maqsadi – mamlakatlar o‘rtasidagi burcha turdagи bitimlarni amalga oshirishni tartibga solishdan va shuningdek bu ishlarni tezlashtirishdan iborat.

Shunday qilib, **jahon valyuta tizimi** bu xalqaro ayirboshlashning burcha shakllariga xizmat qilishga va ularning samarali rivojlanashini ta’minlashga qaratilgan mamlakatlar o‘rtasidagi valyuta munosabatlarining yig‘indisidir.

Hozirgi zamonda xalqaro hisob-kitoblarda va kreditlashda uch ko‘rinishdagi pul vositalari ishlatiladi:

– oltin, hozirda o‘zining asosiy to‘lov va hisob-kitob vositasi xususiyatini yo‘qotgan bo‘lsa-da, ammo ko‘pchilik valyuta zaxiralarining sezilarli qismini tashkil etadi va muhim tashqi savdo operatsiyalariga xizmat qilish va kreditlashni kafolatlash uchun ishlataladi;

– jahonda asosiy o‘rin egallovchi rivojlangan mamlakatlarning milliy valyutalari (AQSH dollari, Ingliz funt-sterlingi, Shveysariya franki, Yaponiya yenasi va boshqalar);

– xalqaro pul birliklari (yyevro , ekyu). Bunday pul birliklari jahon valyutalari deb hisoblanadi. Ular ko‘pchilik mamlakatlar tomonidan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda ishlataladi. Xorijda kreditlash va investitsiyalashda, chet ellik ishchi ķuchi mehnatiga, shuningdek mamlakat valyuta zaxiralarini yaratishda qo‘llaniladi.

Xalqaro valyuta yoki xalqaro to‘lov-hisob va kreditlash vositalariga javob berishga kerak bo‘lgan talab ularning konvertirlashuvi hisoblanadi.

Valyuta konvertirlashuvi deganda uni boshqa xorijiy valyutalarga almashish qobiliyatiga tushuniladi. Hozirgi paytda ular erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valyutalarga ajratiladi.

Erkin konvertirlanadigan valyuta bu amaldagi kurs bo‘yicha har qanday boshqa xorijiy valyutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayrboshlanadigan valyutadir. Bunga misol qilib AQSH, Yyevro pa hamjamiatiga a’zo mamlakatlar, Yaponianing valyutalarini kiritish mumkin.

Qisman konvertirlanadigan valyuta, bu faqat ba’zi bir xorijiy valyutalarga almashtiriladigan va xalqaro to‘lov oborotini qisman qamrab oladigan milliy valyutadir.

Konvertirlanmaydigan valyuta bu faqatgina ichki to‘lovlarga xizmat qiladigan va xorijiy valyutaga ayrboshlanmaydigan milliy valyutadir.

Konvertirlashni ichki va tashqi konvertirlashga ham ajratish mumkin.

Ichki konvertirlash rezidentlarining (ya'ni shu mamlakatda yushash joyi bo'lgan shaxslarning) mamlakat ichkarisida xorijy vulyutani sotib olish, uni ushlab turish va u bilan ayrim operatsiyalarni olib borishni aks ettiradi.

Tashqi konvertirlashda xorijda to'lovlarni amalga oshirishga va moliyaviy aktivlarni ushlab turishga ruxsat etiladi. Valyutalarni konvertirlash ko'pgina mamlakatlar olib borayotgan iqtisodiy siyosatlarining muhim maqsadi bo'lib hisoblanadi.

15.5. Valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari

Bozordagi talab va taklif ta'siri natijasida vaqtı-vaqtı bilan valyuta kursları o'zgarib turadi. Davlat valyuta kurslarini barqororlashtirish uchun valyuta bozorini amal qilishiga bevosita yoki bilvosita urulashishi zarur. Buning bir qator usullari mavjud:

1. Ehtiyyot (zaxira)lardan foydalanish. Valyuta kursini mustahkamlashning ko'proq qo'llaniladigan usuli – rasmiy rezervlar yordami bilan bozorni manipulyasiya qilish hisoblanadi. O'z-o'zidan miqki, valyuta zaxiralari alohida mamlakatlar ega bo'lgan chet mamlakatlar valyutalarining oddiy zaxirasi hisoblanadi.

"Jahon puli" sifatida yoki boshqacha aytganda, zaxiralar sifatida, odatda oltindan foydalaniladi. Masalan, AQSH hukumati Buyuk Britaniyaga o'zi ega bo'lgan oltinning bir qismini sotib, uning funtlarini olishi mumkin. Shu yo'l bilan sotib olingan funtlar Amerika siydosi va moliyaviy operatsiyalari tufayli jamg'arilgan zaxiralarni o'stirish uchun foydalanish mumkin. Bu yerda zaxiralar miqdori funt tuklifini zarur miqdorda ko'paytirishga erishishi uchun yetarli bo'lishi juda muhimdir.

2. Savdo siyosati. Valyuta bozoriga ta'sir ko'rsatishning boshqa tadbirlariga savdo va moliyaviy oqimlar ustidan to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilishni kiritish mumkin. Masalan, AQSH funt sterlingning

yetishmasligi sharoitida valyuta kursini tegishli darajada (2dollar=1 f.st.) importni ushlab turish (shu orqali funt taklifini oshirish) hisobiga ushlab turushga borishi mumkin.

Xususan import boj yoki import kvotalarini kiritish bilan qisqarishi mumkin. Xuddi shunday amerikaliklar chet el kapital quyilmalaridan oladigan foiz va dividendlardan maxsus soliqlar undirishi mumkin. Boshqa tomondan Amerika hukumati subsidiya berib, shu orqali funt sterling taklifini ko'paytirish mumkin. Bu tadbirlardan foydalanishda vujudga keladigan asosiy muammo shundan iboratki, u jahon savdosi hajmini qisqartiradi, uning tarkibini va savdo aloqalarini o'zgartirib yuboradi, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikning buzilishiga o'zining hissasini qo'shamdi. Buning oqibatlarini hisobga olmaslik mumkin emas.

3. Valyutali nazorat. Boshqa muqobil variant valyutali nazorat hisoblanadi. Valyutali nazorat sharoitida hukumat milliy eksportyorlar olgan barcha tegishli chet el valyutalarini davlatga sotish talabi bilan ularning yetishmasligi muammosini hal qilishi mumkin. Keyin hukumat o'z navbatida chet el valyutasining bu katta bo'limgan zaxirasini turli milliy importyorlar o'rtaida taqsimlaydi. Shu yo'l bilan hukumat milliy importni, milliy eksport hisobidan olingan chet el valyutasi miqdoriga cheklaydi.

Valyutali nazorat tizimi bir qator kamchiliklarga ega. Birinchidan, savdo cheklashlari (boj, kvota, eksportli subsidiya) kabi valyutali nazorat qiyosiy ustunlik tamoyiliga asoslangan xalqaro savdoning tarkib topgan aloqalarini buzadi. Ikkinchidan, yetarli bo'limgan valyuta resurslarini valyutali nazorat jarayoni so'zsiz alohida importyorlarni kamsitish bilan bog'liq. Uchinchidan, nazorat tadbirlari iste'molchining tanlash erkinligiga tajovuz qilish hisoblanadi.

4. Ichki makroiqtisodiy tartibga solish. Valyuta kursi barqarorligini ushlab turishning oxirgi vositasi ichki soliq yoki pul siyosatidan shunday foydalanish hisoblanadiki, bunda tegishli chet el valyutasining yetishmasligi bartaraf qilinadi. Masalan, cheklovchi soliq

va pul tadbirlari AQSH milliy daromadini Buyuk Britaniya milliy daromadiga nisbatan pasaytiradi. Chunki import miqyosi milliy daromad darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib bu Britaniya buyumlariga va demak, funt sterlingga talabning cheklanishiga olib keladi.

Qayd qilingan valyuta kursi tizimi tarafдорлari tasdiqlaydiki, undan foydalanish xalqaro savdo va moliya bilan bog‘liq bo‘lgan tahlika va noaniqligini kamaytiradi. Qayd qilingan valyuta kurslarini qo‘llash o‘zaro foydali savdo va moliyaviy operatsiyalar hajmini kengaytirishga olib keladi. Ammo qayd qilingan valyuta kurslari tizimining hayotga layoqatligi ikkita o‘zaro aloqalar sharoitiga bog‘liq:

- 1) zaxiralarning mavjudligi;
- 2) o‘z hajmi bo‘yicha sezilarsiz kamyoblik yoki to‘lov balansi aktivlarining tasodifiy vujudga kelishi.

Katta va doimiy kamyobliklar mamlakat zaxiralarini yo‘qqa chiqarishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, valyuta kurslarining talab va taklif ta’siri ostida shakllanish darajasi, o‘z-o‘zicha kursli nisbatlarga ta’sir etuvchi real jarayonlarni aniqlab bera olmaydi. CHet valyutalariga talab va taklifga, demak, valyuta kurslariga mamlakatdagi ham ichki va ham tashqi iqtisodiy munosabatlar majmui bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Valyuta kurslari dinamikasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- **milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;**
- **pulning real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyatsiya darajasi;**
- **valyutalarga talab va taklifga ta’sir ko‘rsatuvchi to‘lov balansi holati;**
- **mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;**
- **valyutaga jahon bozoridagi ishonch va h.k.**

Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tushuntirish, xarid qilish layoqatinig paritet nazariyasi yordamida beriladi (G.Kassel

tomonidan isbotlab berilgan). Bu nazariyaga ko'ra, kursli nisbatlarni aniqlab berish uchun ikki mamlakat iste'molchilik tovarlari shartli "savati" Baholarni taqqoslash talab qilinadi. Masalan, agar O'zbekistonda bunday savat, aytaylik 5000 so'm, AQSH da esa 10 dollar tursa, 5000 so'mni 10 ga bo'lib 1 dollarning bahosini hosil qilamiz, bu 500 so'mga teng ekan. Agar O'zbekistonda muomaladagi pul massasining ko'payishi natijasida, tovarlar bahosi ikki marta oshsa, AQSHda hammasi o'zgarishsiz qoladi va hamma sharoitlar teng bo'lganda dollarning so'mga nisbatan ayirboshlash kursi ikki martaga oshadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosan giperinflyatsiya ro'y berganda, xarid layoqatining paritet nazariyasi kurs nisbatlarini oldindan aytish imkonini beradi. Valyuta kurslarining o'zgarishi eksport mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar imkoniyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, agarda AQSH bir dollari 2,5 nemis markasiga ayirboshlansa Germaniya uchun maishiy elektronika ishlab chiqaruvchi Amerika eksportyorlarining tushumi, 100 marka 40 dollarga tenglashadi. Valyuta kurslarining 1:1,682 nisbatga o'zgarishi sotishning o'zgarmas hajmida tushumning 59 dollarga ko'payishiga olib keldi.

Valyuta kurslari milliy iqtisodiyotga, ishlab chiqarish va undagi bandlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy valyutalar kursining pasayishi mamlakatlar eksport imkoniyatini oshiradi. Ammo mamlakat eksporti xomashyo tovarlari importiga asoslansa, bunda valyutalar kursining pasayishi eksport qilinadigan tovarlar bahosining o'sishiga olib keladi va bu ularning raqobatga layoqatliligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Valyuta kurslarining oshishi mamlakatlar eksport imkoniyatlarini yomonlashtiradi. Valyuta kurslarining beqarorligi tashqi iqtisodiy aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning tebranishi xalqaro bitimlarda noaniqlik va tahlika darajasini ko'paytiradi. Shu sababli valyuta kursi ham mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda tartibga solishning muhim obyekti hisoblanadi. Davlat bevosita tartibga

solistish vositasi sifatida valyutali intervensiya va diskont siyosatidan ifodalanish mumkin.

Diskont – banklar tomonidan olinadigan foiz. Bank foiz hisob stavkasini oshirib yoki tushurib chet el kapitallari kirishi yoki chiqib ketishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tartibga solishning ko'proq universal usuli valyutali intervensiya hisoblanadi. Bunda markaziy banklar taklifi yetarli bo'lмаган, kurs esa yuqori bo'lgan chet el valyutalarini sotadi, taklif ortiqcha va kurs past bo'lganda sotib oladi. Bu bilan talab va taklifni tenglashtirib, milliy valyuta kursi tebranish chegarasini cheklaydi. Valyutali intervensiyanı qo'llash zaxira valyuta fondining miqdori bilan cheklanadi, shu sababli valyutalarni sotish,, albatta, uni sotib olish bilan almashtirib turilishi lozim.

Bundan tashqari inflyatsiyaning yuqori sur'atida valyutalar kursi valyuta xarid qilish kuchlari nisbatining o'zgarishi tufayli pasayadi. Bu holda valyutali intervensiya mazkur mamlakat **valyuta devalvatsiyasi** (kursning rasmiy o'sishi) bilan birga borishi zarur.

15.6. Valyuta kursini aniqlovchi omillar

Valyuta kursi bir mamlakat valyuta bahosining boshqa mamlakat valyutasida ifodalanishini ko'rsatadi. Valyuta kurslarining ikkita bir-biriga qarama-qarshi variantlari mavjud bo'ladi:

1) milliy valyutalarning bir-biriga ayrboshlash kursi, talab va taklif bilan aniqlanadigan egiluvchan yoki suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimi;

2) qattiq qayd qilingan valyuta kurslari tizimi. Bunda valyuta kurslari talab va taklif tebranish natijasida o'zgarishga chet el valyutalari bozorining amal qilishga davlatning aralashuvi yoki boshqa mexanizmlar qarshilik ko'rsatadi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari talab va taklif ta'siri ostida aniqlanadi. Amerika dollari Britaniya funt sterlingiga ayrboshlanishi mumkin bo'lgan kurs yoki bahoni qarab chiqamiz. Funtga

amerikaliklarning tushib boruvchi talabi shuni bildiradiki, ular uchun funt va demak, Britaniya tovarlarining barcha turlari arzon bo‘ladi. Amerikaliklar uchun funting taklifi o‘ssa, dollardagi funting ancha yuqori bahosida britaniyaliklar ko‘proq miqdordagi Amerika tovarlarini sotib olishni xohlaydi. Amerika tovarlarini sotib olish uchun britaniyaliklar funtni valyuta bozoriga tashlaydi, chunki ular avvalo funtni dollarga ayirboshlashi zarur bo‘ladi. Erkin bozor kuchlari ta’sirida o‘rnatiladigan valyuta kurslari o‘zgarib turadi. Funting dollardagi bahosi oshganda dollarning qiymati pasayadi yoki dollar funtga nisbatan qadrsizlanadi. Aksincha, funting dollardagi bahosi pasayganda dollarning qiymati oshadi yoki dollar funtga nisbatan qimmatlashadi.

Valyuta kurslarining o‘zgarishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ularni qisqacha qarab chiqamiz.

1. **Iste’molchi dididagi o‘zgarishlar.** Iste’molchilarning boshqa mamlakat buyumlariga dididagi o‘zgarishlar, bu mamlakat valyutasiga talab yoki taklifni hamda uning valyuta kursini o‘zgartiradi.

2. **Daromadlardagi nisbiy o‘zgarishlar.** Agar bir mamlakatda milliy daromadning o‘sishi, boshqa mamlakatdagi bu ko‘rsatkichning o‘sishidan ustun bo‘lsa, bunda uning valyuta kursi pasayadi. Mamlakatning importi uning daromadi darajasiga to‘g‘ri bog‘liqlikda joylashadi.

3. **Bahodagi nisbiy o‘zgarishlar.** Agar bir mamlakat, masalan, AQSH ichki baho darajasi tez o‘ssa, boshqa mamlakat, masalan, Buyuk Britaniyada bu daraja o‘zgarishsiz qolsa, bunda amerikalik iste’molchi nisbatan arzon Britaniya tovarini izlaydi va shu bilan funtga talabni oshiradi. Aksincha britaniyaliklar Amerika tovarlarini sotib olishga kam moyil bo‘ladi va bu funt taklifini pasaytiradi. Funtga talab o‘sishi va taklif pasayishining bu uyg‘unlashuvi dollarlarning qadarsizlanishini keltirib chiqaradi.

4. **Nisbiy real foiz stavkalari.** Faraz qilamiz, AQSH inflyatsiyani quvib o‘tish maqsadida “ qimmat pul” siyosatini amalga oshira

boshlaydi. Natijada, real foiz stavkalari (inflyatsiya sur'atini hisobga olib korrektirovka qilingan foiz stavkalari) AQSHda boshqa mamlakatlar, masalan Buyuk Britaniyaga qaraganda ko'tariladi. Britaniyalik jismoniy shaxs va firmalar ishonch hosil qiladiki, AQSH moliyaviy vositalarni qo'yish uchun juda jozibador va qulay joyga aylanadi. Amerika moliyaviy aktivlariga talabning bu ko'payishi Angliya funti taklifning kengayganligi va shu sababli, dollar qiymati o'sganligini bildiradi.

5. Olib-sotarlik. Faraz qilamiz, AQSH iqtisodiyotida quyidagilar kutiladi:

- a) Britaniyanikiga qaraganda tez o'sa boshlaydi;
- b) Britaniyanikiga qaraganda ancha kuchli inflyatsiyaga duch keladi;
- d) Britaniyaga qaraganda ancha past real foiz stavkalariga ega bo'ladi.

Bu proqnozlar kelajakda dollar kursi pasayishi, funt kursi esa, aksincha ko'tarilishidan darak beradi. Demak, dollarni ushlab turuvchilar ularni funtga aylantirishga harakat qiladi va shu bilan funtga bo'lgan talabni oshiradi. Bu almashish, dollar kursining pasayishini va funt kursining oshishini keltirib chiqaradi.

15.7. Valyuta kursini aniqlash

Barcha xalqaro bitimlar valyutalarni ayirboshlash bilan olib horiladi va har qanday ayirboshlashda bo'lgani kabi valyuta bahosining yoki valyuta kursini aniqlash zaruriyat paydo bo'ladi.

Shunday qilib, **valyuta kursi** – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursini o'rganish **kotirovkalash** deb ataladi. U to'g'ri va teskari kotirovkalashga ajratiladi. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko'rsatilsa, bunga to'g'ri **kotirovkalash** deb ataladi. Masalan, 1 AQSH dollari 23 so'mga, 1000 Rossiya rubli 72 so'mga teng va hokazo.

Teskari kotirovkalashda milliy valyutaning bir-birligiga to‘g‘ri keladigan xorijiy valyutaning miqdori o‘rnataladi. Masalan, 1 o‘zbek so‘mi 0,004348 AQSH dollariga to‘g‘ri keladi. Dunyoning ko‘p mamlakatlarida shu jumladan O‘zbekistonda ham to‘g‘ri kotirovkalash qabul qilingan.

Valyuta bozoridagi talab va taklifni solishtirish natijasida valyutaning bahosi yoki kursi aniqlanadi. O‘zbek so‘mining kursi O‘zbekiston valyuta birjasida o‘rnataladi, uning ishtiropchilari bo‘lib valyuta operatsiyalarini olib borish huquqiga ega bo‘lgan banklar hisoblanadi.

Shu bilan birga, turli pul birlklari uchun valyuta kurslarini o‘rnatish jarayonida bozor kuchlarini ta’sir etish darajasi bir xif emas. Bu ta’sir kuchiga bog‘liq hamda kurslari erkin suzib yuruvchi, cheklangan suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslariga ajratiladi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi shu valyutaga bo‘lgan bozor talabi va taklifi ostida erkin o‘zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSH dollari, yapon yeni, ingliz funt sterlingi kurslari. Shu bois, bu valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida ko‘proq ishlataladi.

CHeklangan suzib yuruvchi valyuta kursi uning o‘zgarishi ayrim xorijiy valyutalar yoki valyutalar to‘plami kurslari o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lishini ko‘zda tutadi.

Qayd etilgan valyuta kursi, bu xorijiy valyutada ifodalangan davlat tomonidan rasmiy o‘rnatilgan milliy pul birligining bahosi bo‘lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o‘zgarishi ta’sir qilmaydi.

Valyuta kursining eksport va importga ta’siri. Valyuta kursining tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchlarning mamlakatlararo harakatini o‘ziga xos boshqarib turuvchisi hisoblanib uni o‘zgarib turishi mamlakatning tashqi iqtisodiy oborotiga hamda butun makroiqtisodiy vaziyatga kuchli ta’sir qiladi. Bu ta’sirni shunday vaziyat misolida ko‘rib chiqish mumkin.

Masalan, o'zbek so'mining kursi 1000 Rossiya rubliga nisbatan 7,2 so'mdan 10 so'mgacha pasaygan bo'lsin, ya'ni so'm Rossiya rubliga nisbatan arzonlashgan va aksincha, rubl so'mga nisbatan qimmatlashgan bo'lsin. Bunday holatda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan 720 so'mlik qiymatga ega bo'lgan tovar Rossiya bozorida arzonlashib boradi va endi bu tovar 100 ming Rossiya rubliga ($720 \times 7,2 \times 1000$) emas, balki 72 ming rubl turadi ($720 \times 10 \times 1000$). Natijada tovarning raqobatga chidamliligi orta boradi va unga bo'lgan ishlab oshadi, eksport rag'batlantiriladi. Biroq milliy valyutani kuchlantirishga chiqarish O'zbekiston uchun foydali bo'lmay qoladi. Kuchlantirishga ishlab chiqarilgan 2000 rublik mahsulot endi o'zbek so'mi kuchlantirishga pasayishini va Rossiya rubli kursining qimmatlashuvini natijasida o'zbek bozorida 14,4 so'm ($2000 \times 7,2 \times 1000$) emas, balki 20 so'm ($2000 \times 10 \times 1000$) turadi.

Ko'rinish turibdiki, mahsulot narxi qimmatlashadi va shu sababli uni olib kelish qisqarib boradi, va aksincha, o'zbek so'mining kursi oshishi bilan Rossiyadan tovar olib kelish va kapitalni chetga chiqarish foydali bo'ladi.

I.8.8. Mukroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kursiga ta'siri

Importga ta'rif yoki kvotalar joriy qilish siyosati so'f eksportning oshishiiga olib keladi.

Demek, mamlakat ichki bozorini chet el raqobatchilaridan himoya qillishi maqsadida olib borilayotgan savdo siyosati joriy operatsiyalar hikobi va kapital harakati hisobiga ta'sir qilmaydi. Ammo, u real valyuta kursi tengligini oshiradi va tashqi savdo miqdorini kamaytiradi.

Nominal va real valyuta kurslari o'rtaqidagi nisbat quyidagicha nalganadi:

$$\text{Yer} = \text{En} \times (\text{Pd}/\text{Pt})$$

Bur yerdu, Yer – real valyuta kursi, En – nominal valyuta kursi, Pd – milliy valyutada ko'rsatilgan ichki narxlar darajasi

(indeksi), Pt- xorijiy valyutada ko'rsatilgan chet eldag'i baholar darajasi (indeksi).

Ushbu tenglama ko'rsatyaptiki, real valyuta kursining ko'tarilishi (pasayishi) bu mamlakat tovarlari raqobatbardoshligining pasayganligi (oshganligi) to'g'risida guvohlik beradi.

Iqtisodiy nazariyaning asosiy farazlaridan biri, bir xil darajadagi narx qonuni olinadi. Ya'ni bir xil tovar turli joylarda har xil narxlarda sotilishi mumkin emas. Agarda Farg'onada bir kilogramm go'sht Toshkentdagiga nisbatan arzon sotilsa, uni Farg'onadan sotib olib kelib, Toshkentga sotish natijasida foyda olish mumkin. Bunday vaziyatlardan olib sotuvchilar hamma vaqt foydalanishga tayyor turishadi. Bu esa, Farg'onada go'shtning narxi oshishiga, Toshkentda esa tushishiga olib keladi va ikkala bozorda ham narxlar tengligiga erishiladi.

Bir xil narxlar qonunini xalqaro bozorlarda qo'llash sotib olish qobiliyatidagi tenglik (paritet) nomini olgan. Agarda xalqaro bozorlarda olib sotarlar faoliyat ko'rsatsa, dollar barcha mamlakatlarda bir xil sotib olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Buni qo'ydagicha tushuntirish mumkin: Agarda, dollarga mamlakat ichida chet mamlakatlarga nisbatan ko'proq mahsulot sotib olish mumkin bo'lsa, u holda mamlakat ichkarisida sotib olingan mahsulotni chetga sotish orqali foyda olish mumkin. Foyda ketidan quvgan olib sotarlar ichki narxlarni tashqi narxlarga tenglashtiradi. Shunday qilib, xalqaro olib sotarlar faoliyati turli mamlakatlarda narxlarning tenglanishiga olib keladi.

Biz sotib olish qobiliyati tengligi (paritet) konsepsiyasini real almashtirish kursi modelida ifodalashimiz mumkin. Xalqaro olib sotarlarning tez harakatlari shuni ko'rsatyaptiki, sof eksport har qanday o'zgarishlar natijasida tez o'zgaradi. Milliy tovarlar narxining chet tovarlarga nisbatan kamayishi yoki boshqacha aytganda, real almashtirish kurslarining pasayishi, olib sotarlarni o'z mamlakatidan tovarlarni sotib olib, chetga sotishga undaydi, yoki, aksincha.

Shunday qilib, sof eksport egri chizig'i real almashtirish kursiga nisbatan yanada qiyalashadi. Ya'ni turli mamlakatlar valyutalarining sotib olish qobiliyatini tenglashtiradi, real almashtirish kurslaridagi har qanday o'zgarishlar esa sof eksport miqdorida o'zgarishlarga olib keladi.

Xarid qobiliyati pariteti konsepsiyasiga ko'ra valyuta kursi doimo turli mamlakatlarda baholar darajasining o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan farqni qoplash uchun zarur bo'lgan darajada o'zgaradi, ya'ni:

$$r = Pd/Pt$$

Bu yerda, r – xorijiy valyutaning milliy valyutadagi bahosi

Sotib olish qobiliyati tengligi (paritet) konsepsiyasidan ikkita asosiy xulosa kelib chiqadi

Birinchidan, sof eksport egri chizig'i qiyalikdan iborat. Jamg'arma va investitsiyalar miqdorining o'zgarishi nominal yoki real almashtirish kurslariga yetarlicha ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, real, qayd qilingan, nominal almashtirish kursidagi barcha o'zgarishlar narxlar darajasi natijasidagi o'zgarishlardan kelib chiqadi.

Mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar kuchaygan sari pul vositalari ayrboshlashi ham tobora oshib boradi, o'zaro hisob-kitoblarda nomutanosiblik muammolari paydo bo'ladi. Bularning barchasi jahon valyuta tizimining barpo etilishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. Buning asosiy maqsadi esa mamlakatlar o'rtasidagi barcha turdagи bitimlarni amalga oshirishni tartibga solishdan va shuningdek, bu ishlarni tezlashtirishdan iborat.

Umuman olganda, milliy valyuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi tarkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish sharti bo'lgan jahon valyuta tizimi tashkil topadi.

Qisqacha xulosalar

1. Xalqaro savdo va moliya operatsiyalarida har xil valyutalar qo'llaniladi. Mamlakatning eksport operatsiyalari milliy valyutaga xorijda talabni va bir vaqtning o'zida xorijiy valyuta taklifini keltirib chiqaradi. Import xorijiy valyutaga ichki talabni va milliy valyuta taklifini keltirib chiqaradi. Bir valyutaning ikkinchi bir valyutaga ayrboshlashi valyuta bozorida amalga oshiriladi. Mamlakat ichkarisida rezidentlar bilan xorijiy rezidentlar o'rtasidagi barcha ishlar ushbu mamlakat to'lov balansida qayd qilinар ekan.

2. To'lov balansi bu biror bir mamlakatda chetdan keladigan barcha tushumlar va ikkinchi tomondan esa chetga chiqadigan barcha to'lovlar ko'rsatilgan hujjat hisoblanar ekan. Bunda barcha iqtisodiy bitimlar ikkita guruhga bo'linib, joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar deb atalar ekan.

3. To'lov balansining taqchilligi yoki to'lov balansi aktiv ifodalari joriy operatsiyalar va kapital harakati bo'yicha balansning ijobiy yoki salbiy qoldig'i miqdorini ko'rsatar ekan, ya'ni rasmiy rezervlarning qisqarishi bu taqchillik miqdorini ifodalasa, rasmiy rezervlarning o'sishi esa to'lov balansining aktiv qoldig'i miqdorini ko'rsatadi.

4. Mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlар kuchaygan sari pul vositalari ayrboshlashi ham tobora oshib boradi, o'zaro hisob-kitoblarda nomutanosiblik muammolari paydo bo'ladi. Bularning barchasi jahon valyuta tizimining barpo etilishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. Buning asosiy maqsadi esa mamlakatlar o'rtasidagi barcha turdagи bitimlarni amalga oshirishni tartibga solishdan va shuningdek bu ishlarni tezlashtirishdan iborat. Umuman olganda, milliy valyuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi tarkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish sharti bo'lган jahon valyuta tizimi tashkil topar ekan.

5. Xalqaro valyuta yoki xalqaro to'lov-hisob va kreditlash vositalariga javob berishi kerak bo'lган talab ularning konvertirlashuvi

deb hisoblanadi. Valyuta konvertirlashuvi deganda, uni boshqa xorijiy valyutalarga almashish qobiliyati tushuniladi. Hozirgi kunda erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valyutalar mavjud.

6. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun ehtiyoj (zaxira)lardan foydalanish, savdo siyosati, valyutali nazorat va ichki makroiqtisodiy tartibga solish usullaridan keng foydalaniladi.

7. Valyuta kurslarining tebranib turishlarini “Xarid qilish layoqatining paritet” nazariyasi yordamida tushuntirib Beriladi. Bu nazariyaga ko‘ra kursli nisbatlarni aniqlab berish uchun ikki mamlakat iste’mol tovarlari shartli “xaltasi” baholarni taqqoslashni talab qiladi.

8. Valyuta kursi bir mamlakat valyuta bahosining boshqa mamlakat valyutasida ifodalishini bildiradi. Valyuta kurslarining ikkita bir-biriga qarama-qarshi variantlari mavjud, ya’ni milliy valyutalarning bir-biriga ayrboshlash kursi, talab va taklif bilan aniqlanadigan egiluvchan yoki suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimi va qayd qilingan valyuta kurslari tizimlaridan iborat.

Nazorat va mulohaza savollari

1. Xalqaro savdo qanday moliyalashtiriladi? Mamlakat to‘lov balansi nima va uning tarkibi nimalardan tashkil topadi?

2. Mamlakat to‘lov balansi necha qismdan iborat va ularda nimalar qayd etiladi?

3. Joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog‘liq operatsiyalarni qanday tushunasiz?

4. To‘lov balansining nomutanosibligini qanday tartiblash mumkin?

5. O‘zbekistonda to‘lov balansini tuzish tartibi qanday olib boriladi?

6. Valyuta kursi nima va qanday qilib har xil milliy valyutalar bir-biriga almashinadi? Turli xil valyuta kurslari tizimini tahlil qiling va izohlab bering.

7. Valyuta munosabatlarini tartibga solib turuvchi va jahon valyuta tizimining barqaror faoliyatini ta'minlovchi xalqaro tashkilotlar tizimini bilasizmi?

8. Valyuta bozori tushunchasini izohlang. Milliy valyutalar qanday tartib bilan kotirovkalanadi?

9. Erkin suzib yuruvchi va qayd qilingan valyutalarni izohlang. Paritit nazariyasini tushuntiring.

10. Valyuta kurslarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab o'ting. Valyuta kursi qanday aniqlanadi?

Mavzu bo'yicha masalalar.

1-masala

Mamlakat iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotla bilan ifodalangan:

Tovarlar eksporti	29700 mln.so'm.
Tovarlar importi	31700 mln. so'm.
Xorijdagи qо'yilmalardan foiz ko'rinishida olingen daromadlar	4600 mln. so'm.
Xorijiy investorlarga foiz to'lovlar	2400 mln. so'm.
Mamlakatning turizmdan daromadlari	2700 mln. so'm.
Mamlakatning bir tomonlama transfertlari	3500 mln. so'm.
Mamlakatdan kapital chiqib ketishi	5200 mln. so'm.
Mamlakat rezidentlarining xorijiy turizmga xarajatlari	2800 mln. so'm.
Mamlakatga kapital oqimi	8600 mln. so'm.

Mazkur ma'lumotlar asosida to'lov balansining joriy operatsiyalar schyoti qoldig'iini aniqlang.

Yechish:

To'lov balansining joriy operatsiyalar schyoti qoldig'i quyidagicha aniqlanadi:

Joriy operatsiyalar schyotining qoldig'i = (tovarlar eksporti + xizmatlar eksporti + turizmdan daromadlar + xorijdan omilli daromad) - (tovarlar importi + xizmatlar importi + xorijiy investorlarga foiz to'lovlar + bir tomonli transfertlar).

Joriy operatsiyalar schyotining qoldig'i:

$$(29700 + 4600 + 2700) - (31700 + 2400 + 2800 + 3500) = 37000 \\ - 40400 = - 3400.$$

2-masala

Mamlakat iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotlar yordamida berilgan:

Tovarlar eksporti	29700 mln. so'm.
Tovarlar importi	31700 mln. so'm.
Xorijdagi qo'yilmalardan foiz ko'rinishida olingan daromadlar	4600 mln. so'm.
Xorijiy investorlarga foiz to'lovlar	2400 mln. so'm.
Mamlakatning turizmdan daromadlari	2700 mln. so'm.
Mamlakatning bir tomonlama transfertlari	3500 mln. so'm.
Mamlakatdan kapital chiqishi	5200 mln. so'm.
Mamlakat rezidentlarining xorijiy turizmga xarajatlari	2800 mln. so'm.
Mamlakatga kapital oqimi	8600 mln. so'm.

Mazkur ma'lumotlar asosida kapital harakati schyotining qoldig'ini aniqlang.

Yechish:

Kapital harakati schyotining qoldig'i quyidagicha aniqlanadi:

Kapital harakati schyotining qoldig'i = kapital kirishi - kapital chiqib ketishi.

Kapital harakati hisobining qoldig'i = $8600 - 5200 = + 3400$.

3-masala

Faraz qilaylik, yapon yenasining amerika dollariga nisbatan spot kursi-110, forward kursi esa-109 ni tashkil etadi. Ushbu sharoitda:

1. Yapon yenasi kursi ko'talilishi kuzatilyaptim yoki pasayishi?
2. Amerika va Yaponiyada inflyatsiya darajalari va ularning farqi qanday bo'ladi?

Yechish:

Spot-kurs – deganda kotirovka kursi qobul qilingan vaqtidan valyuta almashuvi ko‘pi bilan ikki ish kunida amalga oshirilish tushuniladi. Forvard kurs – valyuta almashuvi kelajak aniq bir vaqtida o‘tkaziladi.

Hozirgi vaqda 110yena 1 dollarga sotilyapti kelajakda esa 109 yenadan. Demak, Yapon yenasining kursi oshadi va qimmatroq baholanadi.

Amerika va Yaponining inflyatsiya darajasidagi farq valyuta kurslari o‘zgarishi orqali aniqlanadi.

$$109/110-1=0,009 \quad (0,9\%).$$

Ikki mamlakat inflyatsiya darajalaridagi farq 0,9 foizni tashkil qiladi.

3-masala

Mamlakat iqtisodiyoti quyidagi ko‘rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

Mahsulot importi 19000 mln.yevro ga teng.

Mahsulot eksporti 17000 mln.yevro ga teng.

Mamlakat aholisi boshqa mamlakatlarga qo‘yilgan investitsiyalar uchun foiz sifatida 3000 mln. yevro daromad olishadi. Boshqa mamlakatlar investorlari uchun foiz to‘lovlari 1200 mln. yevro ni tashkil etadi.

Mamlakat zaxirasi 2400 mln.yevro ga teng.

Xizmatlar importi 1800 mln.yevro ga teng.

Xizmatlar eksporti 1900 mln.yevro .

Mamlakatga kapitalning kiritilishi 6500 mln.yevro .

Mamlakatdan kapitalning chiqishi 4000 mln.yevro ga teng.

Sof pul ko‘chirmalari 2100 mln.yevro ga teng . Joriy operatsiyalar bo‘yicha balansni va mamlakat to‘lov balansining saldosini aniqlash kerak.

Yechish:

Tashqi savdo bo‘yicha balans saldosi = mahsulot eksporti – mahsulot importi= 17000-19000=— 2000 mln.yevro .

Tovar va xizmatlar bo'yicha balans saldosi = Tashqi savdo bo'yicha balans saldosi + Xizmatlar eksporti – Xizmatlar importi = - 2000 + 1900 – 1800 = -1900 mln.yevro .

Joriy operatsiyalar bo'yicha balans saldosi = Tovar va xizmatlar bo'yicha balans saldosi+ Investitsiyalardan sof daromad + Sof pul ko'chirmalari = -1900 + (3000-1200)+2100=2000 mln.yevro .

Kapital harakatining balans saldosi = Kapitalning kiritilishi – Kapitalning chiqarilishi = 6500-4000=2500 mln.yevro .

Joriy operatsiyalar va kapital harakati bo'yicha balans saldosi = Kapital harakati bo'yicha balans saldosi + Joriy operatsiyalar bo'yicha balans saldosi = 2500+2000 = 4500 mln.yevro .

To'lov balansining saldosi = + Mamlakat zaxirasi = 4500+2400 = 6900 mln.yevro .

Amerika va Angliya firmalari orasida tuzilgan shartnoma bo'yicha mahsulot narxi– 300 ming USD. SHartnoma tuzilgan sanada valyutalar kursi: 1 GBP uchun 1,5808 USD.ni tashkil qilgan edi. Shartnoma bo'yicha to'lovning amalga oshirish vaqtida valyutalar kursi o'zgargan bo'lsa, o'zgarishni hisobga olgan holda to'lovni amalga oshirish ko'zda tutilgan edi. Mahsulot narxi qanday qilib korrektirovka qilinishi mumkin, agar to'lov vaqtida valyutalar kursi 1 GBP uchun 1,5316 USD ni tashkil qilgan bo'lsa ?

Yechish:

Mahsulot narxini korrektirovka qilish quyidagicha amlga oshiriladi: $S=300000*1,5316/1,5808=290663$ USD

Shunday qilib, valyutalar kursi o'zgarishi tufayli tuzilgan shartnomadagi mahsulot narxi , to'lov sanasidani narxga korrektirov qilinishi kerak

Mahsulot narxi to'lov sanasida 290663 USD ni tashkil qiladi.

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan:

mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar iste'moli 800 ga, import tovarlari va xizmatlari iste'moli esa 200 ga, mamlakat

tovarlari va xizmatlariga investitsiya xarajatlari 150 ga, importga investitsiya xarajatlari 504 ga, tovarlar va xizmatlar xaridi uchun davlat xarajatlari 250 ga, umumiy eksport summasi 500 ga, byudjetga soliq tushumlari 500 ga teng. Bu mamlakat to'lov balansi joriy operatsiyalar schyoti qoldig'i ini hisoblab toping.

2. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan:

- kapital harakati va moliyaviy instrumentlar schyoti qoldig'i 30 ga teng;
- davlat byudjeti qoldig'i 20 ga teng;
- byudjetga soliq tushumlari 40 ga teng;
- iste'mol xarajatlari – 250 ga teng;
- YalM 250 ga teng.

Tashqi dunyo, davlat va xususiy jamg'armalar yig'indisi ko'rinishidagi milliy jamg'armalar hajmini aniqlang.

3. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan:

Rasmiy zaxiralarning o'zgarishi	+10
Tovar eksporti	+40
Tovar importi	-30
Investitsiyalardan sof daromad	-30
Sof joriy transfertlar	+10
Xizmatlar eksporti	+15
Xizmatlar importi	-10
Kapital kirishi	+10
Kapitalni chiqib ketishi	-40

- a) savdo balansi qoldig'i miqdorini aniqlang;
 - b) joriy operatsiyalar balansi qoldig'ini aniqlang;
 - c) kapital harakati va moliyaviy instrumentlar schyoti qoldig'ini aniqlang;
 - e) to'lov balansining umumiy qoldig'i miqdorini aniqlang.
- 4. Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar vositasida tasvirlangan:**
- $C=40+0,7 (Y-T)$.
- $I=150 - 800 R$

Iste'mol xarajatlari 350, real foiz stavkasi R 8% ga , Davlat sektori jamg'armalari 10 ga teng.

Ushbu mamlakat to'lov balansining joriy operatsiyalar scheti qoldig'ini hisoblab toping.

5.Ochiq iqtisodiyotda sof investitsiyalar hajmi – 1750 mln. so'm, uy xo'jaliklari jamg'armalari – 1625 mln. so'm, davlat byudjeti qoldig'i – 425 mln. so'm. Ushbu ma'lumotlar asosida tovar va xizmatlarning sof eksportini aniqlang.

6.Mijoz 4000 AQSH dollarini bankka rubl depozitiga 120 kun muddatga yillik 32 % bilan qo'ymoqchi. Keyin qo'shilgan mablag'ni yana AQSH dollariga almashtirmoqchi. Dollarning kursi uni sotib olish vaqtida 22,2 rubl edi, 120 kundan keyin esa 1 AQSH dollari 24,9 rub.ga teng bo'lishi kutilmoqda. Mijoz qancha dollar foyda olishini aniqlang.

7.Tadbirkor o'zidagi 150 yevro ni rublga almashtirdi va ushbu mablag'ni rubl depozitiga 6 oy muddatga oddiy yillik 40 % stakasi bilan joylashtirdi. Ushbu moliyaviy operatsiyaning daromadlik darjasini yillik foiz stavkasi shaklida aniqlang, agar yevro ni sotib olish vaqtida kurs 66,3 rublni tashkil qilgan bo'lsa, yarim yildan keyingi kutilyotgan kurs 68,5 rubl.

8.Shveysaiya firmasiga 2 mln. shveysariya franki hajmida kredit kerak bo'ldi. Shveysariya frankining yillik foiz stavkasi 12 % ni tashkil qiladi. Firma menejerlarining ma'lumoti bo'yicha Germaniyadan yillik 10 % kam bo'lgan foizda kredit olishi mumkin ekan.

Kreditni olish holatida valyutalar kurs 1,08 yevro uchun 1 shveysariya frankini tashkil qilgan. Kredit muddati 2 yil, foizlar to'lovi muddat oxirida, ya'ni ikki yildan.

Aniqlang:

1. Shveysariya firmasi menejerlari qanday strategiyani tanlashlari kerak, agar:

a), valyuta kurslari o'zgarmasdan qolsa;

b) valyuta kursi 1 shveysariya franki uchun 1,05 yevro ga o'zgarsa.

2. Firma har bir holatda qancha daromad oladi yoki zarar ko'radi.

9. Italiya firmasi Shveysariyaga mramor yetkazib beradi. Shartnoma bahosi – yevro (EUR) valyutasida mramar uchun tshlov mahsulot yetkazib berilgandan keyin 3 oydan so'ng, shartnoma qiymati 1,5 mln. EURni tashkil qiladi. Shartnomani tuzish vaqtidagi valyuta kurslari quyidagicha : 1 EUR = 1 shveysariya frankiga (CHF) teng. Shveysariya importchisi valyuta bo'yicha tavakkalchilik qilyaptimi? Quyidagi holatlarda uning moliyaviy operatsiyalarining natijalari qanday bo'ladi: agar kurs shveysariya frankining kuchayishi tomon o'zgarsa (1 shveysariya franki uchun 1.2 yevro); gar teskari holat kuzatilsa (1 shveysariya franki uchun 0.8 yevro).

10. Mamlakat iqtisodiyoti quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

Mahsulot importi 23000 mln.yevro ga teng.

Mahsulot eksporti 26000 mln.yevro ga teng.

Mamlakat aholisi boshqa mamlakatlarga qo'yilgan investitsiyalar uchun foiz sifatida 4200 mln. yevro daromad olishadi. Boshqa mamlakatlar investorlari uchun foiz to'lovlari 1600 mln. yevro ni tashkil etadi.

Mamlakat zaxirasi 5000 mln.yevro ga teng.

Xizmatlar importi 2500 mln.yevro ga teng.

Xizmatlar eksporti 2300 mln.yevro .

Mamlakatga kapitalning kiritilishi 8500 mln.yevro .

Mamlakatdan kapitalning chiqishi 5000 mln.yevro ga teng.

Sof pul ko'chirmalari 4100 mln.yevro ga teng. Joriy operatsiyalar bo'yicha balansni va mamlakat to'lov balansining saldosini aniqlash kerak.

XIX BOB. OCHIQ IQTISODIYOTDA MAKROIQTISODIY SIYOSAT. MENDELL – FLEMING MODELI

16.1. Yopiq va ochiq iqtisodiyot tushunchasi

Har bir mamlakat xalqaro iqtisodiy aloqalarga kirishadi. Bu jarayonda boshqa davlatlar bilan tovarlar, xizmatlar, axborotlar, kapital va ishchi kuchlarini o‘zaro ayirboshlaydi. Mamlakat iqtisodiyotining ochiqlik darajasi bunday aloqalarning rivojlanish ko‘lamiga qarab aniqlanadi.

Ochiq iqtisodiyot bu shunday iqtisodiyotki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin. Biroq shunday mamlakatlar ham borki, ular o‘z qobig‘iga o‘ralib qolgan. Masalan, sobiq SSSR ikkinchi jahon urushiga qadar shunday holatda edi.

Ammo, makroiqtisodiy tahlil va istiqbolni belgilashda foydalana-digan modellarda shartli tarzda bunday mavhumliklarga yo‘l qo‘yiladi.

Yopiq iqtisodiyot modelida tovarlar, xizmatlar va kapital oqimlari milliy chegaralardan tashqariga chiqmaydi hamda unda asosiy makroiqtisodiy ayniyat quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$U=S+I+G$$

Bunda: **U-milliy mahsulot, daromad;**

S – uy xo‘jaliklarining o‘z mamlakatidagi mahsulotlarni xarid qilishga sarflangan iste’mol xarajatlari;

I – shu mamlakat ishlab chiqaruvchilarining o‘z mamlakati investitsiya tovarlariga xarajatlari;

G -davlat tomonidan o‘z mamlakati tovar va xizmatlarini xarid qilish.

Ochiq iqtisodiyotda mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar mavjud va u milliy iqtisodiyotda tovarlar va daromad harakatida namoyon bo‘ladi. Asosiy iqtisodiy tenglikka qo‘srimcha ko‘rsatkich kiritilsa, u quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$U=S+I+G+X_n$$

Bunda,

X_n -xorijliklarning shu mamlakat ichkarisida ishlab chiqargan tovar va xizmatlarga qilgan xarajatlari bilan xorijda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga ichki xarajatlar o'rtasidagi, aniqroq aytganda, eksport va import o'rtasidagi farq. Iqtisodiy adabiyotlarda bu ko'rsatkich **sof eksport** deb yuritiladi.

16.2. Davlatning iqtisodiy funksiyalari va bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvining zarurligi

Davlatning iqtisodiy vazifalari ko'p va xilma-xildir. Shuning uchun tahlilimizga asos sifatida davlatning quyidagi iqtisodiy faoliyatlarini qarab chiqamiz.

Birinchidan, davlatning ayrim iqtisodiy vazifalarini bozor tizimi rivojlanishini yengillashtirish va qo'llab-quvvatlash maqsadiga ega. Bu sohaga davlatning quyidagi ikki faoliyatini kiritishimiz mumkin:

1. Bozor tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan huquqiy baza va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

2. Raqobatni himoya qilish;

Ikkinchi guruh vazifalarini bajarishda davlat bozor tizimi faoliyatini kuchaytiradi va turlaydi. Bu yerda davlatning quyidagi uchta vazifasi asosiy ahamiyatga ega:

1. Daromad va boyliklarni qayta taqsimlash.

2. Milliy mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslar taqsimotini tartibga solish;

3. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiy konyukturaning egiluvchanligi natijasida paydo bo'ladigan ishsizlik va inflyatsiya darajalarini nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'ladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani ta'minlash vazifalarini zimmasiga oladi. Huquqiy bazalarni ta'minlash asosan xususiy korxonalarga haq-huquqlar berish, xususiy mulkchilikni

uniqlash va shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish va shuningdek, boshqa sohalarda namoyon bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotida raqobat asosiy tartibga soluvchi mexanizm hisoblanadi. Bu ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilarni o‘ziga bo‘ysundiradigan yagona kuchdir. Bozor tizimiga bo‘ysunadigan ishlab chiqaruvchilar raqobat natijasida foyda olishni rejalashtiradi. Kimki bu qonunni buzsa, zarar ko‘radi va oqibatda batomom tugatilishi mumkin. Raqobat sharoitida iste’molchi – bu, xo‘jayin, bozor – ularning ta’minotchisi (agenti), korxona esa, ularning xizmatkorি hisoblanadi.

Monopoliyaning o‘sishi bu vaziyatni tezda o‘zgartiradi. Monopoliya raqobat bilan almashinar ekan, sotuvchilar bozorga ta’sir qilishi mumkin yoki o‘zlarining manfaatlaridan kelib chiqqan holda narxlarni oshirish orqali mamlakatga zarar olib keladi.

Bozor tizimi rivojlanishi bilan mamlakat aholisi oladigan daromadlar va qiladigan xarajatlar o‘rtasida nomutanosibliklar paydo bo‘ladi. Bu kabi muammolarni hal qilishda davlat asosiy ahamiyatga ega. Ya’ni davlat jamiyatdagи daromadlar nomutanosibligini kamaytirish vazifasini bajaradi. Bu vazifalar bir nechta siyosiy tadbirlar va dasturlarda o‘z echimini topgan.

Birinchidan, transfert to‘lovlarни orqali yordamga muhtoj, boqimanda, nogiron va ishsizlarni nafaqalar bilan ta’minlaydi.

Ikkinchidan, davlat bozorga aralashuvi orqali daromadlar taqsimlanishini o‘zgartiradi. Fermerlarga kafolatlanadigan baho va minimal ish haqi to‘g‘risidagi qonunchilik davlat aholining ayrim guruhlari daromadlarini tenglashtirish maqsadida bahoni tartibga solib turishiga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, aholidan olinadigan daromad soliqlarining foizlar bo‘yicha tabaqalanishi ham kam ta’minlangan aholini qo‘llab-quvvatlash maqsadida olib borilayotgan dasturlardan biridir.

O‘zbekiston hukumatining bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvidan asosiy maqsadi, iqtisodiyotga yangi demokratik usullar

bilan rahbarlik qilish, barcha xorijiy mamlakatlar bilan samarali iqtisodiy integratsiyaga o'tish, ITT yutuqlaridan samarali foydalanish asosida resurslardan samarali foydalanishni yo'nga qo'yish va aholining turmush darajasini yuksaltirishdir.

16.3. Davlat tomonidan yuritiladigan makroiqtisodiy siyosatlarning ko'rinishlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mamlakat iqtisodiyotiga bevosita aralashadi. Davlatning mamlakat iqtisodiyotiga aralashuvi makroiqtisodiy siyosat orqali amalga oshiriladi. Bu siyosatlarga biz asosan quyidagilarni kiritamiz:

1. Byudjet.
2. Pul-kredit.
3. Dotatsiya; subvensiya; subsidiya.
4. Xalq xo'jaligi balansi.
5. Soliq mexanizmi.
6. Chegaralangan baholar va boshqalar.

Davlat byudjet xarajatlarini (davlat xarajatlari va transfert to'lovlari) ko'paytirish yoki qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga aralashadi. Davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari yoki byudjet siyosati tovar va xizmatlarning davlat xaridi, YaMMni taqsimlash va qayta taqsimlash, ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qismidagi mutanosiblikni ta'minlash, ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy yordam shakllarini ko'rsatish, narxlar ustidan nazorat o'rnatish, eksport va import qilinadigan tovarlarga kvotalar o'rnatish va shuningdek, mamlakat aholisini himoya qilish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

Pul-kredit siyosati, avvalombor mamlakatda pul massasini tartibga solishiga qaratilgan va uning asosiy vazifasi narxlar va real milliy ishlab chiqarish hajmining o'sishiga mos keladigan pul emissiyasidan iborat. Bu siyosatning asosiy vositasi Markaziy bank

tomonidan amalga oshiriladigan hisob stavkasini tartibga solish, tijorat banklarining majburiy ravishda Markaziy bankda saqlaydigan zaxira normasini o'zgartirish, qimmatli qog'ozlar bo'yicha ochiq bozordagi operatsiyalarni yo'lga qo'yish va shuningdek, boshqa tadbirdir.

Davlat tomonidan xo'jaliklarga ko'rsatiladigan moliyaviy yordamlar dotatsiya, subvensiya va subsidiya shakllarida olib boriladi.

Dotatsiya – byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo'jaliklarning zararlarini qoplash, shuningdek, mahalliy byudjetlar mutanosibligini ta'minlash uchun ajratilgan pul mablag'laridir.

Subvensiya – qat'iy maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi bo'lib, undan foydalanish sharti buzilganda ularni qaytarib olish mumkin.

Subsidiyalar – bu, pul yoki natura ko'rinishidagi yordam turi bo'lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ko'rsatiladi. Subsidiyalar bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Bevosita subsidiyalarga kapital qo'yilmalar, ilmiy tadqiqotlar, kadrlarni qayta tayyorlashga ajratilgan mablag'lar kirsa, bilvosita subsidiyalarga soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlarda kreditlar berish, pasaytirilgan bojxona bojlari va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari davlat aholini davlat transfertlari ko'rinishida himoya qiladi.

Balans – bu, ikki qismdan iborat bo'lgan iqtisodiy hisob-kitobdir. Birinchi bo'limda, resurslarni tashkil etish manbalari, ikkinchisida ulardan foydalanish yo'llari ko'rsatiladi. Ikki bo'limning bir – biriga tengligi resurslar va ular iste'moli mutanosibligini bildiradi. Balanslar

moddiy balanslar, mehnat balanslari, moliyaviy balanslarga, shuningdek, hisobot va reja balanslariga bo'linadi.

Balanslar yordamida xalq xo'jaligi tarmoqlari, turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatları hamda moddiy va moliyaviy bo'limlar harakati o'rtaqidagi bog'liqlik ta'minlanadi.

Balanslarning eng asosiyalaridan biri xalq xo'jaligi balansi hisoblanadi. Bu balans jadvallar tizimi bo'lib, unda milliy iqtisodni rivojlanish ko'rsatkichlari, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning hajmi va o'sish sur'atlari, jamg'arish va iste'mol fondlari, ishlab chiqarish vositalarini va iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish, aholining pul daromadlari hamda ularni mahsulotlar bilan ta'minlash va boshqalar o'rtasidagi asosiy nisbatlar o'rinn oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'p qirrali soliqlar tizimidan foydalaniladi. Aholi davlat byudjetiga har oyda olgan daromadlariga qarab daromad solig'i to'laydi, korxonalar esa olgan foydasiga qarab foydadan soliq to'laydilar. Shu kabi juda ko'p mavjud soliq turlaridan oqilona va ilmiy asosda foydalanish orqali davlat soliq tizimi siyosatini, soliq stavkalari miqdorlarini va imtiyozlari turlarini aniqlaydi va shu bilan butun makroiqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatadi.

Ya'ni soliqlarni o'zgartirish orqali investitsiyalar va jamg'armalar rag'batlantiriladi.

Davlat bozor tizimining faoliyat ko'rsatishida Baho mexanizmidan, xususan, chegaralangan bahola'dan keng foydalananadi. Jumladan, chegaralangan baholar aholini himoya qilish maqsadida ayrim turdag'i oziq-ovqat mahsulotlariga belgilangan. Chegaralangan baho uning haqiqiy qiymatlaridan bir necha barovariga kam bo'lishi mumkin. Davlat chegaralangan bahoni bozor bahosidan yuqori va kam belgilashi mumkin.

Qayd etilgan narxlar davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari tizimida alohida o'rinn tutadi. Bozor tizimida narxlar talab va taklifni tartibga soluvchi asosiy vosita hisoblansada, biroq dunyoning barcha mamlakatlarida davlat narxlarni shakllantirish jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

16.4. Resurslar va daromadlarni ijtimoiy manfaatlarni e'tiborga olgan holda qayta taqsimlash

Tovar va xizmatlarning individual iste'moldagi xususiyatlarini qarab chiqadigan bo'lsak, avvalo, bu tovarlar ma'lum bir miqdorda bo'ladi. Ya'ni ular individual sotib oluvchilar uchun qulaydir. Bundan tashqari bu tovarlarni sotib oluvchilar tovar qiymatiga mos ravishda narxlarni to'lasagina unga ega bo'lishi mumkin, aks holda ushbu tovardan olish mumkin bo'lgan imkoniyatga ega bo'lmaydi.

Ayrim turdag'i tovar va xizmatlarni, xususan, davlat yoki ijtimoiy manfaat deb ataladigan tovarlarni bozor tizimi umuman ishlab chiqarishni mo'ljallamagan, chunki, ularning xususiyatlari individual iste'molchilarga mo'ljallangan tovarlarning xususiyatlariga teskaridir. Bundan tashqari, ijtimoiy manfaatlar bo'linmaydi va ularni individual iste'molchilarga sotish mumkin emas. Masalan, bunday tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga davlat himoyasi, suv toshqinlarini tartibga solish, xasharotlarga qarshi kurash va boshqalar. Jamiyat ushbu xizmatlardan manfaat olish uchun ularni davlat ishlab chiqarishi kerak.

Shuningdek, shunday xizmat turlari ham mavjudki, ularga qandaydir miqdorda narx belgilash mumkin. Masalan, ko'cha va avtomagistrallar, miliitsiya va yong'inga qarshi kurash, kutubxona va muzey, profilaktik tibbiy xizmatlar va boshqalar.

Demak, bozor tizimidagi baho ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga bo'lgan resurslarni ajratmas ekan, u holda ularni ishlab chiqarish mexanizmi qanday olib boriladi?

Ushbu tovar va xizmatlarning ishlab chiqarishga zarur bo'ladigan resurslar taqsimoti asosan davlat orqali guruh yoki jamoa qarorlarida qabul qilinadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, demokratik davlatlarda siyosiy usul, ya'ni, ovoz berish orqali aniqlanadi. Ijtimoiy manfaatlar iste'molining hajmi davlat siyosatini bildiradi. Siyosiy jahhalarda qabul qilingan bu guruh qarorlari uy xo'jaliklari va

korxonalarining beshta funtamental savollarga bergan javoblariga qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy manfaatlarining ishlab chiqarish uchun shaxsan individual iste'moldagi qanday resurslar qayta taqsimlanadi? To'liq bandlik sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiyotda davlat oldida ijtimoiy manfaatdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun individual iste'moldagi tovarlarning ishlab chiqarishdan resurslarni ajratish muammosi turadi. Bunda xususiy tarmoqdan tovarlarni ajratib olish uchun xususiy talab qisqartiriladi. Bunga asosan uy xo'jaliklari va korxonalardan soliqlarni olish orqali erishiladi. Uy xo'jaliklari va korxonalar kam daromad olish natijasida o'zlarining investitsion va iste'mol xarajatlarini kamaytirishadi. qisqacha aytganda, soliqlar xususiy iste'moldagi tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni qisqartiradi, bu o'z navbatida, resurslarga xususiy talab qisqarishiga olib keladi.

Davlat bu soliqlarni taqsimlashda ijtimoiy manfaatdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni e'tiborga oladi.

16.5. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining monetar yo'nalishlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi yanada oshadi. Xusan, davlat iqtisodiyotga kredit tizimi orqali faol ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bunda ssudaga beriladigan pul miqdorini o'zgartirish uchun foiz vositasidan foydalanadi. Ma'lumki, kredit munosabatlarda Markaziy bank markaziy zaxira tizimi vazifasini o'taydi va ular davlat ta'sirida bo'ladi. Davlat kreditga bo'lgan talab va taklifni markaziy zaxira tizimi orqali o'zgartiradi. Ushbu jarayonni uch xil yo'l bilan amalga oshiradi.

Birinchidan, davlat markaziy zaxira tizimi orqali banklar mablag'ining qarzga beriladigan va zaxirada turadigan qismlari ulushini o'zgartiradi. Zaxira oshirilsa, kreditga beriladigan mablag' qisqaradi va aksincha, zaxira kamaytirilsa, mazkur mablag' ko'payadi. Natijada, qarzga beriladigan pul miqdori o'zgaradi, ya'ni pul ko'paysa

uning taklifi oshadi, binobarin, foiz kamayadi, aksincha, u qisqarganda, taklif kamayadi, demak, foiz oshadi. Foizning kamayishi kreditni arzonlashtiradi, unga intilishni kuchaytiradi, olingan qarz esa investitsiya qilinib, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Foizning oshishi kreditni qimmatlashtirib, unga bo'lgan qiziqishni kamaytiradi, binobarin, investitsiya qisqaradi va natijada iqtisodiy o'sish kamayadi.

Ikkinchidan, markaziy zaxira tizimi o'zi boshqa banklardan oladigan foizlarni o'zgartiradi. U boshqa banklarga past foiz hisobidan qarz berib, ularga moliyaviy yordam ko'rsatadi. Imtiyozli qarz olish banklarga quvvat bergenidan ular kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o'sishga ta'sir eta oladilar.

Uchinchidan, davlat markaziy zaxira tizimi orqali xazina veksellarni (majburiyatlarini) tarqatadi, o'z zayomlarini sotadi yoki qimmatli qog'ozlarni sotib oladi. Davlat veksellarni banklarga yoki boshqa moliya tashkilotlariga sotish orqali ularning mablag'iini o'z ixtiyoriga olib, qarzga beriladigan pul miqdorini qisqartiradi.

Veksellarni xarid etish orqali esa davlat ularning qarz puli miqdorini oshiradi. Natijada qarzga taklif etilgan pul miqdori o'zgarib, foizga ta'sir etadi, binobarin, qarzga olinib, ishlab chiqarishda foydalanilayotgan pul miqdori ko'payib yoki kamayib turishi iqtisodiyotga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Davlatning pulga bo'lgan talab va taklifni o'zgartirish borasidagi siyosati monetar siyosat deb yuritiladi. Ushbu siyosatni o'tkazish orqali davlat iqtisodiyotni tartibga solib turadi. Bundan tashqari, davlat antiinflyatsion tadbirlar bilan ham iqtisodiyotga aralashadi. Ya'ni inflyatsiyani yumshatish uchun ish haqi va narxlarni tutib turish, «muzlatish» yo'lidan foydalanadi.

Iqtisodiyotni tartiblash vositalaridan yana biri davlat tomonidan iqtisodiyot kelajagini oldindan taxminlash (prognozlash) va uni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish hamda hayotga tatbiq etish hisoblanadi. Davlat byurtmasiga asosan uzoq va qisqa muddatlarga mo'ljallangan prognozlar tuziladi. Prognozlarda resurslar, texnologiya,

ichki bozor hajmi va tarkibi, eksport va import, davlat xarajatlari, ishlab chiqarish tarkibidagi o'zgarishlar, matematik modellar asosida hisob-kitob qilinadi va iqtisodiyotning qaysi yo'nalishda rivojlanishi aniqlanadi.

Qisqacha xulosalar

Ochiq iqtisodiyot bu shunday iqtisodiyotki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin.

Ochiq iqtisodiyot bu shunday iqtisodiyotki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin.

Davlatning iqtisodiy vazifalari ko'p va xilma-xildir ularning asosiyлари quyidagilardir.

Birinchidan, davlatning ayrim iqtisodiy vazifalari bozor tizimi rivojlanishini yengillashtirish va qo'llab-quvvatlash maqsadiga ega. Bu sohaga davlatning quyidagi ikki faoliyatini kiritishimiz mumkin:

1. Bozor tizimi samarali faoliyat ko'rshatishini ta'minlaydigan huquqiy baza va ijtimoiy muhitni ta'minlash.

2. Raqobatni himoya qilish.

Ikkinci guruh vazifalarini bajarishda davlat bozor tizimi faoliyatini kuchaytiradi va turlaydi. Bu yerda davlatning quyidagi uchta vazifasi asosiy ahamiyatga ega:

1. Daromad va boyliklarni qayta taqsimlash.

2. Milliy mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslar taqsimotini tartibga solish.

3. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni, iqtisodiy konyukturaning egiluvchanligi natijasida paydo bo'ladigan ishsizlik va inflyatsiya darajalarini nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Davlatning mamlakat iqtisodiyotiga aralashuvi makroiqtisodiy siyosat orqali amalga oshiriladi. Bu siyosatlarga biz asosan quyidagilarni kiritamiz:

1. Byudjet.
2. Pul-kredit.
3. Dotatsiya; subvensiya; subsidiya.
4. Xalq xo'jaligi balansi.
5. Soliq mexanizmi.
6. Chegaralangan baholar va boshqalar.

Nazorat va mulohaza savollari

1. Ochiq iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Davlatning iqtisodiy funksiyalari himalardan iborat?
3. Davlatning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvining zarurligini tusuntirib bering.
4. Davlat tomonidan yuritiladigan makroiqtisodiy siyosat-larning ko'sinishlariga qaysilar kiradi?
5. Resurslar va daromadlarni ijtimoiy manfaatlarni e'tiborga olgan holda qayta taqsimlash deganda nimani tushunasiz?
6. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining monetar yo'nalishlari nimalardan iborat?

Mavzu bo'yicha masalalar.

1-masala.

1. Kichik ochiq iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi:
- Milliy daromad-1000 sh.b.; -iste'mol xarajatlari-700 sh.b.;
 - davlat xarajatlari-150 sh.b.; - investitsiya funksiyasi I=250-10r ;
 - jahon foiz stavkasi-5 %;

Mamlakatning sof eksportini aniqlang.

Yechish:

Kichik ochiq iqtisodiyotda nominal foiz stavkasi jahon foiz stavkasiga teng. Shuning uchun, berilgan jahon foiz stavkasini investitsiya funksiyasiga qo'yib investitsiyalar hajmini aniqlaymiz

$$I = 250 - 10 \times 5 = 200 \text{ sh.b.}$$

Sof eksportni asosiy makroiqtisodiy ayniyat yordamida topamiz.

$$Y = C + I + G + X_n, \text{ bundan } X_n = Y - C - I - G = 50 \text{ sh.b.}$$

2..Kichik ochiq iqtisodiyot quyidagi valyuta kursining o‘zgaruvchan sharoitida LM gri chizig‘i quyidagi tenglama bilan ifodalangan: LM: $Y = 200r - 200 + 2(M/P)$ IS tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega: IS: $Y = 400 + 3G - 2T + 3X_n - 200r$. Sof eksport funksiyasi: $X_n = 200 - 100e$, bu yerda e – valyutaning real kursu. Narxlar darajasi belgilangan $P = 1$, jahon real foiz stavkasi $r = 2,5\%$. Pul taklifi $M = 100 \text{ mln.p.b.}$ Davlat byudjeti muvozanatlari: $G = T = 100$. Tovar va pul bozorida muvozanatga erishish uchun real valyuta kursi qanday bo‘lishi kerak?

Yechish:

$$\text{IS: } Y = 400 + 3 * 100 - 2 * 100 + 3(200 - 100e) - 500 = 600 - 300e.$$

$$\text{LM: } Y = 500 - 200 + 2 * 100 = 500.$$

Ikki tenglamaning kesishgan nuqtasini aniqlaymiz: $e = 0,333$, t.e. real valyuti kursi bo‘yicha $\Rightarrow 300e = 100 \Rightarrow 600 - 300e = 500$ $0,333$ tovar va pul bozorida muvozanatga erishiladi.

Mustaqil ishlash uchun masalalar

- 1.Kichik ochiq iqtisodiyot quyidagi ma’lumotlar bilan tavsiflanadi:
 - iste’mol xarajatlari-500 sh.b.;
 - davlat xarajatlari-75 sh.b.;
 - investitsiya funksiyasi $I=200-8r$;
 - jahon foiz stavkasi-5 %;
 - sof eksport-25.sh.b.

Mamlakatning milliy daromadini aniqlang.

- 2.Suzuvchi valyuta kursi sharoitlarida kichik ochiq iqtisodiyotda LM egri chizig‘i quyidagi tenlama bilan ifodalangan:

$$Y = 200r - 200 + 2(M/P)$$

IS egri chizig‘ining tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$Y = 400 + 3G - 2T + 3X_n - 200r.$$

Sof eksport funksiyasi: $X_n = 200 - 100e$, bu yerda

e – real valyuta kursi. Narxlar darajasi $P = 1$ belgilab olingan,
Jahon real foiz stavkasi $r = 2,5\%$. Pul taklifi $M = 100 \text{ mln. doll}$.

Davlat byudjeti balanslangan: $G = T = 100$.

Tovar va pul bozorlarida muvozanatga erishish uchun real valyuta
kursi qanday bo'lishi lozim?

3. Kichik ochiq iqtisodiyot U tovarni jahon baholarida, ya'ni donasini 30 dollardan import qiladi. Ushbu mamlakatda U tovarning talab va taklifi egri chiziqlari quyidagi ko'rinishga ega: $D = 500 - 5P$; $S = 100 + 2P$. Har bir tovar uchun 10 dollarlik import ta'rifi kiritilishi natijasida iqtisodiyotdagi umumiy yo'qotish miqdorini aniqlang.

4. Kichik ochiq iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi:
Milliy daromad – 1000 mlrd. p.b., iste'mol xarajatlari – 700 mlrd. p.b.,
davlat xarajatlari – 150 mlrd.p.b., investitsiya funksiyasi – $I = 250 - 10r$.
Jahon foiz stavkasi – 5%. Mamlakat sof eksportini hisoblang.

5. Kichik ochiq iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi:

Iste'mol xarajatlari – 500 mlrd.p.b., davlat xarajatlari – 75 mlrd.p.b.,
investitsiya funksiyasi: $I = 200 - 8r$. Jahon foiz stavkasi – 5%, sof
eksport: -25 mlrd.p.b . Mamlakat milliy daromadini aniqlang.

6. Kichik ochiq iqtisodiyotda o'zgaruvchan valyuta kursi sharoitida
1. M egri chizig'i quyidagi tenglama bilan ifodalangan: $LM: Y = 200r - 200 + 2(M/P)$ IS egri chizig'i quyidagi ko'rinishga ega: $IS: Y = 400 + 3G - 2T + 3X_n - 200r$. Sof eksport funksiyasi: $X_n = 200 - 100e$,

Bu yerda, e – haqiqiy valyuta kursi. Narx darajasi o'zgarmas $P = 1$,
haqiqiy jahon foiz stavkasi $r = 2,5\%$. Pul taklifi $M = 100 \text{ mln. doll}$.
Davlat byudjeti muvozanatlari: $G = T = 100$. Pul va tovarlar bozorida
muvozanatga erishish uchun haqiqiy valyuta kursi qanday bo'lishi
kerak?

XVII BOB. IQTISODNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VOSITALARI

17.1. Ma'muriy vositalar

Ma'muriy vositalar qo'shimcha moddiy rag'batlantirishni yaratish yoki moliyaviy zarar xavfi bilan bog'lanmagan. Ular davlat hokimiyati kuchiga asoslangan hamda ta'qiq, ruxsat va majbur qilish choralarini qamrab oladi.

Ta'qiqlar va ruxsatlar bo'yicha bir necha misollar keltiramiz. Fransiya hukumati Parij aglomeratsiyasi hududida yangi sanoat korxonalari qurishni ta'qiladi hamda bu maqsadga erishish uchun yangi korxonalarga soliqlarni oshirish, katta jarimalar solish-kabi iqtisodiy choralar ko'rish yo'lidan bormay, shunchaki yangi sanoat qurilishlariga litsenziya (ruxsatnoma) berishni to'xtatib qo'ydi. Niderlandiya hukumati sobiq harbiy dengiz bazasidan yo'lovchi tashish va savdo porti sifatida foydalanishga ruxsat berib, shu tariqa sarmoya qo'yiladigan yangi soha yaratib berdi. Natijada, port hududida xo'jalik faolligi yuksaldi. Afrika mamlakatlaridan biring hukumati davlat milliy bog'idan uyushtirilgan sayyoqlik maqsadida foydalanishga ruxsat berdi. Bundan mahalliy va xorijiy sayyoqlik foydalanib qolishdi.

Majbur etish choralar esa, barcha rivojlangan mamlakatlar davlat organlarining sanoat korxonalari zimmasiga o'zida yoshlarning ishlab chiqarish o'quvini tashkil etish, ishlayotganlar uchun muayyan maishiy qulayliklar yaratish, tozalash inshootlarini o'rnatish vazifalarini yuklashini misol qilib keltirish mumkin.

Rossiya jamiyatining ongida, davlatning kelgusida rivojlanish istiqbollari bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish bilan uzviy bog'liq degan tushunchaga keng va alohida o'rinnegallaydi. Ushbu tizimga totalitar jamiyat, kuch organlariga haddan tashqari ko'p erkinlik bergen davlat sharoitida boshlashga to'g'ri keladi. Iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishi jamiyat turmushining barcha jabhalarida mantiqsizlikka olib keladi.

Mu'muriy – buyruqbozlik tizimining salbiy tomonlari eng oxirgi bong'ichga kelib qolgan edi: tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi kuchlarning, samarali mehnat, innovatsion faoliyat, resurslardan umumli foydalanishning yo'qligi, mas'uliyatsizlik va boqimandalikning ildiz otib ketganligi. Iqtisodiyot va jamiyatning bunday tipi, davlatning bunday roli bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni bilan uyg'unlik yarata olmadi.

Iqtisodiy islohotlar kamida 3 ta masalani yechish uchun xizmat qillishlari shart. Birinchidan, g'oyaviy fikrlashning ta'minoti, erkin munosabaqa va g'oyalarning taqsimlanishi uchun sharoit, nazariy fikrlar va tasviriy sur'at erkinligi, majburiy singdirilgan bitta g'oyadan voz kechish, shu qatorda davlat uslublariga ta'sirni qo'llash orqali.

Ikkinchidan, totalitar siyosiy tizimga qarshilik, harakatchan tunloving ta'minoti, boshqaruvning taqsimlanganligi, davlat organlari ustidan demokratik nazorat, siyosiy kuchlar va partiyalar harakatining erkinligi.

Uchinchidan, iqtisodiyotni davlat tomonidan buyruq, yo'l – yo'riq ko'rsatish yo'li bilan boshqarishdan davlatning zamonaviy aniq tartibga soluvchi vazifalari bilan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligiga o'tish.

Birinci ikki yo'nalish bo'yicha Rossiya jamiyati tezda taysiflandi.

Iqtisodiy islohotlarga keladigan bo'lsak, bu yerda ikki diametral teskari qarashlar bor edi. Ulardan biri bozor xo'jaligida buyruqli iqtisodiyotning doimiy o'zgartirishni kuzatadi.

Ikkinci qarash buyruqli iqtisodiyotni «inqilobiy» ag'darishni taklif etadi.

Ammo 1992-yilning boshida mamlakatda iqtisodiy islohotlar o'tkazilayotgan davrda hech qanday zamonaviy jahon talablariga javob bermaydigan, Rossiya iqtisodiga to'g'ri kelmaydigan ikkinchi yo'nalish ustun keldi. Bu chuqur iqtisodiy inqirozning asosiy sababi edi.

Oxirgi yillarda iqtisodiy siyosatning asosiy tayanchlaridan biri bo‘lib, davlat mulkining xususiy hisoblanadi. Xususiy mulk va xo‘jaliklarni davlat tasarrufidan chiqarish zamонавиу xo‘jalik tizimi tashkil topishida juda muhim shart sifatida mutlaqo zarar edi.

Ikki yildan kam vaqt ichida ishlab chiqarish fondlari ko‘rinishidagi taxminan 70% davlat mulkni o‘zining yangi xo‘jayinlari qo‘liga o‘tdi. Lekin ularning ko‘pchiligi strategik investorlar emas edi. Xususiylashtirish tituli o‘zgardi, lekin texnologiya, organizatsiya va boshqaruv bozor munosabatlariiga o‘tmadi.

Boshqaruvning administrativ-buyruqli sistemasi asosan bo‘zilgandi, lekin bozorni tartibga solishning mexanizmi ishlab chiqarilmagandi.

Kapitalistik faoliyatning tanlanishi faqatgina kichik va o‘rta biznes syerasida, bank-moliya syerasida va savdoda ro‘y beradi. Sanoatning esa faqat tashqi bozorda ishlaydigan sohasida kuzatildi.

Davlatning rolisiz iqtisodiyotni, inqirozli holatda, boshqarishni yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi. Ikkita jarayon kerak: bir tomondan, bozorni tartibga solishning zamонавиу mexanizmiga tómon siljishi, to‘la bozor tovarlari, kapital, mehnat, qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk, intellektual mulk, bozor infratuzilmalari o‘rtasida raqobatni vujudga keltirish. Bu jihatdan Rossiya hali yo‘Ining boshida.

Boshqa tomonidan, davlat tomonidan tartibga solishning shakl va uslublari tomonlari uchun jahon tajribalaridan optimal to‘g‘ri keladiganlarini qayta ishlab chiqish zarur. Bu esa davlatning buyruqli iqtisodiyotdaga avvalgi funksiyalariga qaytarish emas, balki sanoat ishlab chiqarishi tipidagi bozor iqtisodiyotidagi yangi rollini o‘rnatishni anglatishi kerak.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan rivojlangan mamlakatlarda ma’muriy boshqaruv vositalaridan kam miqyosda foydalilaniladi. Ularning ta’sir sohasi asosan atrof – muhit muhofazasi hamda aholining nisbatan kam ijtimoiy himoyalangan qatlamlari uchun eng muhim maishiy sharoitlar yaratib berish bilan cheklanadi. Biroq,

mushkul vaziyatlarda, masalan, urush davrida, iqtisodiyotning og‘ir ahvoli chog‘ida ularning mavqeい keskin oshadi. Urushdan keyingi Yaponiyada iqtisodiyotni tartibga solish bo‘yicha eng keng miqyosli davlat ma’muriy tadbirlari pul islohoti va yetakchi konsernlarning bo‘lib tashlanishidan iborat bo‘lgandi.

17.2. Pul – kredit va byudjet iqtisodiy vositalari.

Davlat tartibga solishning iqtisodiy vositalari pul – kredit va byudjet siyosati vositalariga bo‘linadi.

Iqtisodiyotdagи davlat sektori davlat iqtisodiyotini tartibga solishning mustaqil kompleks vositasi (bir vaqtning o‘zida uning obyekti) hisoblanadi. davlat iqtisodiyotini tartibga solishning oliv shakli – ko‘pslonli maqsadlar va davlat iqtisodiyotini tartibga solish vositalarining butun termasini qamrab oluvchi davlat iqtisodiy dasturlashidir. Davlat sektori va iqtisodiy dasturlash haqida quyida yana to’xtalamiz.

Asosiy iqtisodiy vositalar bu:

1. Hisobga olish stavkasining tartibga solish Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.
2. Mamlakatning moliyaviy institutlari markaziy bankda saqlashi shart bo‘lgan minimal zaxiralar hajmlarining belgilab quyilishi va o‘zgartirilishi.
3. Davlat tashkilotlarining qimmat baho qog‘ozlar bozorida operatsiyasi, masalan, davlat majburiyati emissiyasi, ularning savdosi va so‘ndirilishi.

Davlat mazkur vositalar yordamida moliya bozori (kapitallar ssudasi bozori) dagi talab va taklif nisbatini istalgan yo‘nalishda o‘zgartirishga intiladi. Qo‘yilayotgan kapitallarni mablag‘ bilan ta‘minlashda bo‘sh kapitallar rolining nisbatan pasayishi bilan birga hamda fond birjasi mavqeining tushishi va yirik kompaniyalarining moliyaviy vositalari bilan o‘zini – o‘zi ta‘minlashining o‘sib borishi bilan bog‘liq holda ancha rivojlangan mamlakatlarda bu vositalar

ta'sirchanligi birmuncha kuchsizlandi. To'g'ridan – to'g'ri davlat xo'jalik boshqaruvi byudjet siyosati vositalari orqali amalga oshiriladi. Davlat byudjeti bu markaziy hukumat va mahalliy hokimiyatlar kirimlari va chiqimlaridir.

Davlat xarajatlari o'rnnini qoplashga moliya vositalarining safarbar qilinishi bosh instrumenti soliqlar hisoblanadi. Ulardan shuningdek xo'jalik subyektlari faoliyatiga ta'sir ko'rsatish uchun ham keng foydalaniladi. Bizni hozir birinchi navbatda soliqlarning fiksal emas, boshqaruvchi roli ko'proq qiziqtiradi. Soliqlar yordamidagi davlat boshqaruvchi hal qiluvchi darajada qanday soliqlar tizimi tanlanganligi, soliqlar stavkalarining qanchalik balandligi, shuningdek, soliq imtiyozlarining turlari va hajmlariga bog'liq.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda GFRda ish bilan bandlik solig'ining amalga tatbiq qilinishi – u ish beruvchilar tomonidan ish hattoki va maosh summasi hisobidan to'lanardi – kompaniya sarf – xarajatlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Tadbirkorlar jonli mehnatdan tejash, buning uchun asosiy kapitalni medernizatsiyalash hamda ishlab chiqarishga fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini tatbiq etishdan manfaatdor bo'lib qoldilar.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda jonli mehnatni rag'batlantirish hamda yangi – yangi tarmoqlarga kapital qo'yishni qo'llab-quvvatlash yo'nalishidagi kupsonli soliq islohotlari mavjud.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishda soliqlar ikkiyoqlama rol o'ynaydi. Bir tomonidan, bu davlat xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy yo'li, byudjet siyosatining moddiy asosi, ikkinchi tomonidan, bu boshqaruv instrumenti.

Davlat byudjet organlarining vazifasi – u yoki bu mablag' tushishi manbalarini shunchaki soliqqa tortishdan iborat emas, balki yuridik va jismoni shaxslarning xo'jalik yuritish ishiga ta'sir o'tkazuvchi nozik sozlanuvchi mexanizmni yaratishdir. Buning uchun, vaqtincha yoki saylanma (selektiv) tarzda beriladigan soliq imtiyozlari, soliqlar to'lovidan vaqtincha ozod etish kabilardan foydalaniladi.

17.3. Jadallashtirilgan amortizatsiya

Soliqlar yordamida amalga oshiriladigan davlat iqtisodiyotini turtibgu solish vositalari orasida asosiy kapital hamda u bilan bog'liq hosilularning jadallashtirilgan amortizatsion ro'yxatdan o'chirish va Moliya vazirligi ruxsatnomalari doirasida amalga oshiriladigan yashirin rezervlar realizatsiyasi alohida o'rinn tutadi. Hozirgi shuroitlarda asosiy kapitalni jadallashtirilgan amortizatsion ro'yhatdan o'chirish jamg'armalar, iqtisodiyotdagi tuzulmaviy o'zgarishlarni rug'battantirishning asosiy omili hamda xo'jalik sikliga, bandlik va NIOKR ga ta'sir ko'rsatishning muhim vositasi hisoblanadi. Uning mohiyati – mashinalar, uskuna – jihozlar, binolar va inshaotlar eskirishi jismoniy jarayoni ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga nylantiriluvchi asosiy kapital ashyoviy eltuvchilari bahosi kalkulyasiya qilinuvchi ishlab chiqarish xarajatlardan ajratib olinishidir. Amortizatsion ro'yxatdan o'chirish stavkalari va tartibini o'zgartirib, davlat boshqaruvi organlari sof foydaning chiqarish sarflariga kiritish yo'li bilan soliqlardan ozod qiladi, keyin esa, kelgusida yangi kapital joylashtirishlarni mablag' bilan ta'minlash uchun amortizatsion fondga o'tkaziladigan qismini belgilab beradi.

Asosiy kapitalning ashyoviy eltuvchilari ko'rinishlari (dastgohlar, uskuna – jihozlar, transport vositalari, binolar, tozalash inshaotlari) bo'yicha amortizatsion ro'yhatdan o'chirish meyorlari turlar bo'yicha mufassal bo'lingan holda moliya vazirliklari tomonidan muntazam chop etib turiladi. Foydadan soliq to'lanishi to'g'rilingini tekshirish paytida soliq nazoratchilari amortizatsion ajratmalar moliya vazirligi ruxsat bergen me'yorlarga muvofiq amalga oshirilgan taqdirdagina ishlab chiqarish yoki xizmatlar xarajatlari kalkulyasiyясини maqullaydilar. Balans foydasi ko'lami, soliq stavkasi va hajmi, shuningdek to'lanuvchi dividendlar shunga qarab belgilanadi. Hozirgi vaqtida bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida amortizatsion ro'yxatdan o'chirishning quyidagi turlaridan foydalilanildi :

- to'g'ri yoki mutanosib;

– qo'shimcha (bunda amortizatsion ajratmalar miqdori ro'yxatdan o'chirilayotgan inshootning boshlang'ich narxidan oshib ketadi);

– maxsus (bunda xo'jalik faoliyati umuman yoki saylanma tarzda jonlantirish maqsadida vaqtincha amortizatsion ajratmalar me'yori avval belgilab quyilgan imtiyozlardan oshirib qo'yiladi);

– dastlabki (bunda amortizatsion ro'yhatdan o'chirish mashinalar yoki inshaotlar ishlay boshlashidan oldin amalga oshiriladi);

– degressiv (kamaya boruvchi).

Yevro pa mamlakatlarida degressiv ajratmalar varianti – kamaya boruvchi qoldiqdan ro'yxatdan o'chirish qo'llaniladi (bunda ajratmalar asosiy kapitalning ashyoviy eltuvchilar dastlabki qiymatidan emas, balki balans qiymatidan olinadi).

1 – misol. Faraz qilaylik, korxonada 100 ming pul birligidagi muayyan tur jihozlar o'rnatilgan. Moliya vazirligi uning balans qiymatidan har yili 30% ro'yhatdan o'chirishga ruxsat bergan. Jihozlarning xizmat qilish texnik muddati 10 yil. Har yillik amortizatsion ajratmalar, ming pul birligi, quyidagi tartibda bo'ladi:

	1-yil	2-yil	3-yil
Ajratmalar miqdori	30	21	14.7
Balans qoldig'i	70	49	34.4

Uch yil mobaynida texnologik eskirish (10 dan uch yili – 30%) 30.0 ming bo'lgani holda 65.7 ming ro'yhatdan o'chirilgan, ya'ni 35.7 ming ishlab chiqarish xarajatlarida yashiringan sof foydadir, shu tariqa u to'laligicha soliqdan ozod etilib, amortizatsion jamg'armaga o'tkazilgan. Amortizatsion jamg'arma vositalaridan faqat kapitalni joylashtirishda foydalanish mumkin. Aslida, amortizatsion ajratmalar hisobiga mablag' bilan ta'minlashning yakuniy manzarasi birmuncha boshqacharoq. 15.1-misolda ko'rganimizdek, amortizatsion jamg'arma ajratmalar balans koldigi kamayishi munosabati bilan yildan-yilga pasayadi, shu bilan bir vaqtida balans foydasi va muvofiq tarzda,

soliq to'lovlari ko'lamlari ortadi. Tadbirkorlar bu bilan kelisha olmaydilar. Amortizatsion jamg'armaga e'tiborimizni qarataylik. Uch yil mobaynida u yerda 65.7 ming to'planib qoldi va shu uch yil mobaynida bu mablag' u yerda harakatsiz yotgan. Chinakam hayotda bunday bo'lishi mumkin emas.

2 – misol. Soliq to'lovlaring o'sa borishi va sof foydaning kamayishidan qochish, shuningdek, amortizatsion jamg'armaga tushayotgan mablag' lardan bank foizlari olish bilan cheklanmay, undan tadbirkorlik foydasi olish imkoniyatini ishga solish maqsadlarida tadbirkorlar ro'yxatdan o'chirilgan barcha vositalarni usha zahoti yana asosiy kapitalga joylashtirishga majburlar. 1 yilda 100 mingdan 30 mingi ro'yxatdan o'chiriladi va o'sha zahoti yana investitsiya qilinadi, ogibatda balans qoldig'i – 100 ming. 2 yilda 100 mingdan yana 30 ming ro'yhatdan o'chiriladi va usha zahoti investitsiya qilinadi, shu turiqa har yili shunday davom etaveradi. Natijada amortizatsion jamg'armalarga har yillik ro'yxatdan o'chirishlar hajmi hamda unda yashirilayotgan foydalar hajmi, shuningdek, sof haqiqiy foyda qisqarmaydi, asosiy kapital qiymatining balans qoldig'i ham kamaymaydi. Uch yil ichida ro'yxatdan o'chirilgan mablag' va asosiy kapitalga joylashtirilgan yalpi sarmoyalari 15.1 – misoldagi kabi asli 30 minglik eskirishda 65.7 mingni emas, 90 mingni tashkil etadi. Degrassisiv variantlardan biriga AQSH da qabul qilingan va raqamlar yig'indisi deb ataluvchi tizim kiradi. Bu tizimni misol orqali tushuntirib beramiz.

3 – misol. Faraz qilaylik, asosiy kapitalning biror elementi 7 yil xizmat qiladi. Xizmat muddati raqamlarini tartib bilan yozamiz: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 ularning yig'indisini hisoblaymiz – 28. Tartib raqamlari teskari tomondan boshlab ularning umumiy yig'indisiga bo'linadi, ya'ni birinchi yil dastlabki qiymatining 7:28 qismini ro'yxatdan o'chirishga ruxsat beradi, ikkinchi yil 6:28 qismini, uchinchi yil 5:28 qismini va hokazo. Xuddi, balans qiymatini ro'yhatdan o'chirishdagi kabi, bu ro'yxatdan o'chirish ham imkon darajasida mumkin bo'lgan

stavkada o'tkaziladi, chunki amortazatsion jamg'armaga ajratilgan mablag'lar u yerda uzoq qololmaydi – bundan mansaat yo'q, qolaversa, ko'rib turganimizdek, ro'yxatdan o'chirish me'yorlari ham yildan-yilga kamayib boradi. Ajratilgan mablag'lar taqsimlanmagan foyda bilan birga yana eng qisqa muddatlarda asosiy kapitalga joylashtiriladi va yil ichida yana birinchi yil stavkasi bo'yicha ro'yxatdan o'chiriladi.

Amaliyotda juda kam qo'llaniladigan to'g'ri yoki mutanosib ro'yxatdan o'chirish ham hozirgi sharoitlarda moliya vazirligi ruxsati bilan jismoniy va ma'naviy eskirishi chinakam davriga nisbatan qisqartirilgan muddatlarda o'tkazilgani bois, odatda, jadallashtirilgan hisoblanadi.

Qarshimizda investitsiyalarning davlat tomonidan boshqariluvining qudratli richagi turibdi – bu foydalarning soliqlardan ozod qilinishi, ularni amortizatsion jamg'armalarga yashirish hamda yangi kapital joylashtiruvlari uchun majburiy foydalanishdir (bu mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanib bo'lmaydi, ularni harakatsiz qoldirish ham mumkin emas).

17.4. Jadallahgan amortizatsiya samarasi

Asosiy kapitalni tezlashgan amortizatsiyalarini hisobdan chiqarish me'yorlarini o'zgartirib turilishi barcha rivojlangan mamlakatlarda davlat konyunktura va tuzilishi siyosati vositasi sifatida keng miqyosda foydalaniladi, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini moliyaviy ta'minlash uchun, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish va ularni natijalarini joriy etish uchun. Me'yoriy amortizatsiya chegirmalarini o'zgartirishning samarasи konyunktura uchun qulay bo'lgan yillarda seziladi, ya'ni inqiroz va pasayish davrlarida amortizatsiyadan foydalanish siyosati kuchsiz bo'ladi.

Konyunktura qanchalik yomon bo'lsa, shunchalik foydadan ishlatalish qiyinlashadi, o'z – o'zini moliyaviy ta'minlash uchun imkoniyatlar kamayadi, davlat tomonidan beriladigan amortizatsiya imtiyozlari esa xususiy investitsiya beruvchilarni o'ziga kamroq

tortadi. To'lashgan amortizatsiya hisobdan chiqarish bo'yicha imtiyozlar – davlat byudjetiga foyda solig'idan tushuvchi mablag'larni qisqarishi bilan bir xildir. Ularning natijasi boshqa soliqlarning oshishi yoki davlat qarzining o'sishi bo'lishi mumkin.

Davlat boshqaruvining vositasi sifatida byudjetning xo'jalik maqsadlaridagi xarajatlari ham foydalaniladi. Bu birinchi navbatda, davlat kreditlari, subsidiyalar va kafolatlari, shuningdek, mahsulotlarni sotib olishga ketgan xarajatlar va xususiy sektordagi xizmat ko'rsatishlardir.

17.5. Davlat sektori

Davlat sarmoyasini sarflash kengroq darajada davlat iqtisodiyotini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. U bir vaqtning o'zida xususiy xo'jalikka ta'sir ko'rsatuvchi obyekt va vosita hisoblanadi.

Davlat sektori – markaziy va mahalliy davlat organlariga butunlay yoki qisman tegishli bo'lgan xo'jalik obyektlari majmuasini tashkil etadi. Davlat sektori – kapitalizm rivojlanishiga qadar ko'pchilik mamlakatlarda bor bo'lgan, pochta, qisman transport xizmati, quroq – yarog'larni tayyorlash va boshqalar ham kiradi.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish tizimi o'rnatila borishi jarayonida davlat qurilish olib bordi, xususiy mulkdorlardan obyektlarni, ayniqsa infratuzilma sohasida, og'ir sanoatni qaysiki ularning faoliyat ko'rsatishi mamlakat iqtisodiyoti uchun har doim foydali va zarurlarni sotib oldi. Ba'zi bir mamlakatlarda davlat sektori tarmoqlar bilan korxonalarini milliylashtirish (Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Avstriya) natijasida, boshqa davlatlarda esa (A+SH, FRG, Shvetsiya, Yaponiya) qurish yoki inqirozga uchragan xo'jalik obyektlarini sotib olish natijasida vujudga keldi. Birinchi guruhga kiruvchi mamlakatlarning milliy boyligida davlat sektorini ulushi ikkinchi guruhga nisbatan yuqoridir.

Davlat sektorining sezilarli qismi – infratuzulma obyektlari bo'lib ko'p hollarda norentabedir. Ikkinci qismi xomashyo va energetika

tarmoqlaridagi davlat korxonalarini bo‘lib unda katta investitsiyalar talab qilingan holda sarmoyaning aylanishi ancha sustdir. Davlat firmalarining rentabelligi xususiy firmalarga qaraganda odatda past bo‘ladi. Davlat sektorining bozor xo‘jaligi sharoitida faoliyat ko‘rsatishi tamoillari xususiy firmalarning tamoillaridan bir qancha farq qiladi va davlat sektorini umumdavlat iqtisodiy masalalarini hal etishga qaratilgan va xususiy xo‘jaliklar daromadini oshirishga imkoniyat yaratishga qaratilgan.

Yakka hokimli foyda, ko‘pincha umuman foydaning o‘zi infratuzilma, energetika, xomashyo tarmoqlari, NIOKR xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda, atrof – muhitni himoya qilish sohalari davlat sektorining bиринчи darajali maqsadi hisoblanmaydi. Negaki ushbu sohalardan yuqori foydani hech kim talab qilmaydi, zararlar esa byudjet hisobidan qoplanadi. Shu sababli davlat sektori arzon xizmatlardan kelib chiqib xususiy sektordagi chiqimlarni kamaytiradi.

Davlat sektori aktiv ravishda iqtisodni davlat vositalari orqali boshqarishda qo‘llaniladi. Chunki, Konyunkturani yomonlashgan sharoitida, depressiya yoki inqiroz holatida, xususiy sarmoya sарflash qisqarganda davlat sektoriga investitsiyalar o‘sishi ko‘payadi. Shunday qilib, hukumat organlari ishlab chiqarishni pasayishi va ishsizlikni o‘sishiga qarshi harakat qilishga intiladi.

Davlat sektori davlatning tuzilish siyosatida muhim rol uynaydi. Davlat yangi obyektlarni tashkil etadi yoki eskilarini kengaytiradi va qayta quradi. Ushbu faoliyat sohalari, tarmoqlar yoki regionlarda qachonki u yerga xususiy sarmoya yetarli darajada yetib bormasa. Shunday qilib, davlat sektori NIEKR xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda katta rol o‘ynaydi. Davlat firmalari tashqi savdo, chet elga sarmoyalarni chiqarish, ko‘pincha milliy sarmoyani qaysi bir mamlakatga joylashtirish yoki kiritishda pioner rolida chiqishadi. Masalan: Folsvagen Germaniyaning konserni hukumatning federal va

yer mulki tuzilmasida qisman bo‘lgan konserni Chexiyaning avtomobil sanouqidagi ishtiroki.

Davlat sektorining o‘lchami, uning milliy iqtisodiyotdagi hissasi nafaqat yangi qurilishlar, sotib olishlar natijasida o‘zgaradi, balki davlat sektorini rentabeli va qayta qurilgan obyektlarni xususiy lashtirish va xususiy sarmoyalarga sotish oqibatidir.

Xulosa

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish vositalari ma’muriy va iqtisodiyлага bo‘linadi. Mamuriy vositalar davlat hokimiyati kuchiga asoslangan hamda taqiq, ruxsat va majbur qilish choralarini qamrab oladi.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning iqtisodiy vositalari pul-kredit va byudjet siyosati vositalariga bo‘linadi.

Davlat boshqaruvida soliqlar ikkilanma rol o‘ynaydi. Bir tomondan bu davlat xarajatlarini mablag‘ bilan ta’minlashning asosiy yo‘li, byudjet siyosatining moddiy asosi, ikkinchi tomondan, bu boshqaruv instrumentidir.

Iqtisodiy vositalarga o‘z navbatida fiskal, monitar va tashqi alorqalar siyosatidan iborat. Keng foydalanadigan siyostalardan biri bo‘lib byudjetni tartibga solish hisoblanadi – soliq tizimini o‘zgartirish, soliq imtiyozlari, asosiy kapitalni jadallahashgan amortizatsiyasini, ko‘rinmas zaxiralarini balansdan chiqarishdagi imtiyozlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Ma’muriy vosita tushunchasi.
2. Iqtisodiy vosita turlari.
3. Jadallahshan amortizatsiya mohiyati.
4. Davlat sektorini vazifasi.
5. Tashqi aloqalarini tartibga solish usullari.

XVIII BOB."YASHIL IQTISODIYOT" SHAKLLANTIRISH ASOSIDA MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARNING BARQAROR O'SISHINI TA'MINLASH

18.1.Ekologik muammolar va iqtisodiyot

Hozirda iqlimning o'zgarishi, energiyaga bog'liqlik, resurslarni tejash, oziq-oqat ta'minoti va rivojlanishning barqarorligini saqlash xalqaro hamjamiyat uchun birinchi darajali masalalar hisoblanadi. Tabiatga nisbatan talon-tarajlik munosabatlari dunyoni halokat yoqasiga olib keldi. Yer aholisi son jadal o'smoqda. Mutaxssislarning baholashlariga ko'ra, 2050-yilda yer shari aholisi 9 milliard kishini tashkil etadi. Yerda aholining ko'payishi bilan, buning oqibati sifatida, ishlab chiqarish, shu jumladan chiqindilar ham ko'payadi. Jahan bankining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda insoniyat yiliga 2 milliard tonna qattiq maishiy chiqindilar ishlab chiqarmoqda¹. 2050-yilga borib, ushbu ko'rsatkich 70 %ga o'sadi va yiliga 3,4 milliard tonna chiqindini tashkil etadi. Bu ayniqa kambag'al mamlakatlar uchun xavflidir – u yerda odamlar qattiq chiqindilarning jiddiy salbiy ta'sirini sezmoqdalar. U yerda chiqindilarni nazoratsiz va atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan usullarda yo'q qilinmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi, doimiy paydo bo'lувчи iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, moliviyyi inqirozlarning asosiy sababi bo'lmoqda. Ularning oldini olish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy, sanoat va texnologik taraqqiyoti zarur. Biroq sanoat ishlab chiqarishining ko'payishi tabiiy resurslarning kamayishiga, energiyaga bog'liqlikka, chiqindilar ishlab chiqarishning ko'payishiga olib keladi. Shu oshirishga intilish resurslarning cheklanmagan iste'moliga va atrof-muhitga zarar yetkazilishiga olib keladi. Shunday umumiyl fikr borki, rivojlangan mamlakatlar uchun sanoat rivojlanishi kambag'allikni bartaraf etish, tovarlar va xizmatlarni yetkazib berish, ish o'rinnari yaratish va turmush darajasini oshirish uchun zarurdir².

Shu kabi yana bir umumiy fikr, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishbu resurslarni yaxshilashning, iqtisodiy zararni kamaytirishning zaruriy talabi hamdir.

Hayvonot olami ham, inson ham atmosferasiz mavjud bo'la olmaydi. Biroq sanoatning jadal rivojlanishi uning haddan tashqari illoslanishiga olib keldi. Atmosferaga uglerod gazining ko'plab tashlanishidan noqulay sharoit yuzaga keldi. Uglerod gazining eng ko'p chiqindisi Xitoyda -10357 mln. tonna, SO₂ chiqindilari bo'yicha ikkinchi o'rinda AQSH -5414 mln. tonna, uchinchi o'rinda Hindiston - 2274 mln. tonna, to'rtinchi o'rinda Rossiya-1617 mln. tonna, beshinchi o'rinda Yaponiya -1237 mln. tonna turadi.⁹

XX asrning oxirlariga kelib shu narsa tushunildiki, ekstensiv iqtisodiy rivojlanish, eng kamida regressga, ko'pi bilan esa insoniyat sivilizatsiyasining halokatiga olib kelishi mumkin. Mayjud iqtisodiy modellarni qayta ko'rib chiqish va yangi texnologiyalarga o'tish sururiyat paydo bo'ldi, bular nafaqat iqtisodiy o'sishni kuchaytirishga, balki ekotizimni saqlashga ham imkon beradi. "Yashil" iqtisodiyot deb ataluvchi yangi iqtisodiy model eng muhim iqtisodiy aktiv va ijtimoiy boylikning manbai sifatida tabiiy kapitalni saqlash, ko'paytirish, sururiyat bo'lganida qayta tiklashni nazarda tutadi, bu ayniqsa, aholining kambag'al qatlamlari uchun muhimdir, ularning daromad manbai va himoyalanganligi asosan tabiatga bog'liqdir.

Iqtisodiy o'sishning chegaralari haqidagi masalani birinchi bo'lib, Denis Medouz boshchiligidagi yosh olimlar guruhi, 1972-yilda Rim klubiga, "O'sish chegaralari" nomli ma'ruzasida ko'tarib chiqdilar. D.Medouz va uning hamkasblarining hisoblariga ko'ra, insoniyat halokatga tomon ishonch bilan bormoqda, ishlab chiqarishning o'sishini cheklash va tartibga solish bo'yicha choralar qabul qilingandagina va taraqqiyot mezonlarini o'zgartirgan holdagina, undan qutilish mumkin. Ushbu kitob, moddiy o'sish jismonan cheklangan planetada cheksiz davom eta olmaydi deb ogohlantiradi va

sifatga (rivojlanishga) e'tibor qaratgan holda, miqdorni oshirishdan voz kechishni talab qiladi.

18.2. Insonning ishlab chiqarish faoliyatining ekologik oqibatlari

Zamonaviy jamiyat “Iqtisodiyot an'anaviy modelining yanada rivojlanishi qanday oqibatlarga olib keladi?” degan savol ustida tobora ko‘proq o‘ylanmoqda. Shu narsa yaqqol ko‘rinmoqdaki, nafaqat ekologik oqibatlar, balki iqtisodiyot o‘sish sur’atlarining qisqarishi, turmush sifatining yomonlashuvi ham kuzatilmoqda. O‘ta yuqori foyda ketidan quvgan holda, biz sayyoramizning tabiat kapitalini yemirmoqdamiz. Hali industrial sivilizatsiya paydo bo‘lgan vaqtlardayoq ekologik muammolar paydo bo‘la boshlagan, biroq XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan ular noodatiy tezlik bilan o‘sса boshladi. Keyingi 100 yilda dunyodagi ishlov beriluvchi yerlarning $\frac{1}{4}$ qismi va sayyoramiz o‘rmonlarining $\frac{2}{3}$ qismi yo‘qtildi. Har yili ishlab chiqarish faoliyati tufayli 20 trillion tonna moddalar harakatlanadi. Ekologik muammo XX asrning 60-yillaridan inqirozli xarakter kasb eta boshladi. Inqirozning asosiy yo‘nalishlari, birinchidan, sayyoramizda mavjud tabiiy resurslarning mutlaq qisqarishi, ikkinchidan, atrof-muhitning ifloslanishi hisoblanadi.

Tabiat resurslarining mutlaq qisqarishi, birinchi navbatda, tiklanmaydigan foydali qazilmalarni jadal qazib olish va foydalanish bilan bog‘liqdir. Hal yili dunyoda yer qa‘ridan 80 mlrd. tonna ruda va noruda materiallar qazib olinadi, buning ustiga, asrimizning keyingi 30 yilligida ularning iste’moli, avvalgi butun tarix davomidagidan 3-4 marta ko‘p bo‘ladi. Hal yili inson faoliyati sababli, atmosferadigi erkin kislород 11-12 mlrd tonnaga kamayib bormoqda. Bu borada o‘rmon zaxiralarini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega.

O‘rmon zaxiralarini saqlab qolishda quyidagilar muhimdir:

- qo‘riqlanuvchi hududlarni, o‘rmon qo‘riqxonalarini kengaytirish va yangilarini yaratish;

- o'rmon yong'inlarini bartaraf etish bo'yicha samarali choralar o'rnatish. Kasalliklar va zararkunandalar bilan kurash bo'yicha profilaktik tadbirlar o'tkazish;
- ekologik yuklanishlarga chidamli bo'lgan daraxt turlari seleksiyasini olib borish;
- o'rmonlarni foydali qazilmalar qazib chiqaruvchi korxonalar faoliyatidan qo'riqlash;
- brakonerlarga qarshi kurashni kuchaytirish;
- o'rmon daraxtlarini kesishning samarali va kam zararli usullaridan foydalanish. Daraxt chiqindilarini kamaytirish, ulardan foydalanish usullarini ishlab chiqish;
- yog'ochni ikkilamchi ishlash usullarini qo'llash;
- ekologik sayyohlikni rag'batlantirish.

Jahonda o'rmonlarni kesish statistikasi ma'lumotlariga ko'ra, har yili 200 ming km² da daraxtlar kesiladi. Bu 100 minglab jonivorlar va o'simliklarning halokatiga olib keladi.

Mamlakat	Miqdor, hektar (ming)
Rossiya	4,139
Kanada	2,450
Braziliya	2,157
AQSH	1,7367
Indoneziya	1,605
Kongo	608
Xitoy	523
Malayziya	465
Argentina	439
Paragvay	421

Yer sharining aholisi hozirda 7 mlrd. kishi bo'lib, BMT ma'lumotlariga ko'ra 2025-yilda 8 milliardga yetadi. 1960-yilga nisbatan aholi ikki baravarga ko'paydi, keyingi 20 yilda esa 2 mlrd.

kishiga oshdi, 1,7 milliardi – rivojlanayotgan mamlakatlarda. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi sayyoramiz aholisining to‘rtadan uch qismini tashkil etadi, jahon mahsulotining esa atigi uchdan birini iste’mol qiladi, bundan tashqari aholi jon boshiga iste’mol hajmidagi farq o‘sib bormoqda. Shubhasizki, ekologik inqirozning vujudga kelishi va kuchayishida rivojlanayotgan mamlakatlarning roli ancha yuqoridir. Shu bilan birga, hozirda, ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyoti intensiv industrlashtirish yo‘lidan bormoqda. Hozirdayoq sayyoramizning sanoat geografiyasida chuqur o‘zgarishlar kuzatilmoxda. Sanoat quvvatlarining qayta taqsimlanishi yuz bermoqda, rivojlanayotgan mamlakatlar industrlashtirishni amalga oshirish davomida, ilgari sanoati rivojlangan mamlakatlardan olinadigan qora metallurgiya, avtomobillar, kemalar, elektron texnika va hatto uchish apparatlarini, boshqa raqobatbardosh tovarlarni ham, o‘zlarida ishlab chiqarish va jahon bozorida sotish imkoniga ega bo‘lmoqdalar.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi sanoat o’sishi, ilgari faqat boy mamlakatlar uchun xos bo‘lgan ekologik muammolarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Eng jiddiy va o‘tkir ekologik muammolarning – yer, suv, havo ifloslanishining og‘irlik markazi janubga tomon siljimoqda. Hozirda yer sxarida ifloslangan hududlarning ko‘pchiligi rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri kelmoqda. Manila, Qohira, Mexiko, va Santyago kabi shaharlarda suv va havoning ifloslanishi eng jiddiy muammoga aylangan.

Bugungi kunda insoniyat 12-13 % daryo suvlarini iste’mol qilmoqda.

Sanoatda eng ko‘p suv iste’mol qiluvchi tarmoqlar – energetika, tog‘-kon, metallurgiya va kimyo sanoatlaridir. Misol uchun, 1 kg. cho‘yan eritish va uni po‘latga va prokatga aylantirish uchun 300 m^3 ga yaqin, 1 tonna alyuminiy tayyorlash uchun -1500 m^3 , misga- 500 m^3 , qog‘ozga -900 m^3 , sintetik kauchukka $-2100-3500\text{ m}^3$, sun’iy tolaga- 4000 m^3 suv sarflanadi.

Suvning ifloslanishi deyilganda, uning zararli moddalar bilan to'yilganligi tushuniladi, ushbu miqdorda suvning sifati yomonlashadi va suv obyekti, qabul qilingan me'yorlarga muvofiq, ifloslangan deb tan olinadi.

Ifloslanishdan farqli holda, suvda chiqindilar ko'payishi deyilganda, suv havzasiga suvda erimaydigan, suvning sifatini o'zgartirmaydigan, tushuniladi.

Ifloslanishning asosiy manbalari – neft, neftkimyo, kimyo, ko'mir, selluloza-qog'oz va metallurgiya sanoatlari oqova suvlari hisoblanadi. Ko'p miqdorda mineral o'g'itlarning ishlatilishi, o'simliklarni kimyoviy himoyalash vositalarining qo'llanilishi, chorvachilik mujmularining tashkil etilishi kabilar bilan bog'liq holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining intensifikatsiyalashuvi ham shuningdek suv havzalari va suv oqimlari ifloslanishining jiddiy o'sishiga olib keladi.

Dunyoda har yili daryolarga 160 km.³ sanoat oqova suvlari tushlanadi. Suvlarni ko'p darajada ifloslantiruvchilar neft va neft mahsulotlari hisoblanadi. Mutaxsslarning ma'lumotlariga ko'ra, Juhon okeaniga tushuvchi neftning miqdori yiliga 25-30 million tonnani tashkil etadi. Suvning neft bilan ifloslanishi neft konlaridan tabiiy sizib chiqishlar, qazib olish, transportda, qayta ishslash va soydalanish jaryonida yuz beradi. Juhon okeaniga neft konlaridan sizib chiquvchi neft yiliga taxminan 0,5 mln.tonnani tashkil etadi. Suv obyektlarining ifloslanish holatlari ko'pincha noto'g'ri burg'ilash va neft quduqlarini noto'g'ri ishlatish oqibatida yuz beradi. To'kilgan paytda neft va neft mahsulotlari suv yuzasida yupqa qatlam hosil qiladi. 1 t. neft qariyb 3 km.² yuzani yopib oladi. Masalan, Kaliforniya shtatidagi (AQSH) neft quduqlaridan biridagi nosozlik 15 mln.tonnadan ortiq neftning suvgaga tushishiga sabab bo'ldi, u okean yuzasidagi 2000 km.² okean yuzasini qoplاب oldi.

Bugungi kunda suvga talab juda yuqori, ushbu ehtiyoj tobora o'sib bormoqda. Bu quyidagi sabablar bilan izohlanadi: aholining

ko'payib borishi va migratsiyasi, oziq-ovqat iste'molidagi o'zgarishlar, energiyaga bo'lgan oshib boruvchi, ayniqsa bioyoqilg'iga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash. Bu va boshqa xulosalar BMTning 2009-yil 16-22 martda Istambulda o'tgan beshinchи Xalqaro suv forumida, suv resurslarining holati to'g'risidagi uchinchi Umumjahon ma'rzasida keltirilgan.

BMTnig har uch yilda e'lon qilinuvchi Umumjahon ma'rzasida dunyodagi chuchuk suv resurslarining holatiga to'liq baho beriladi. Suvga bo'lgan ehtiyojning o'sib borishi bilan bir vaqtda, ko'pchilik mamlakatlar suvdan foydalanishning mumkin bo'lgan imkoniyatlariga allaqachon erishib bo'lganlar. Ahvol iqlimiyl o'zgarishlar oqibatida ham yomonlashmoqda. Davlatlar o'rtasida, shahar va qishloq o'rtasida, turli tarmoqlar o'rtasida suv uchun raqobat kurashi allaqachon boshlangan. Bular barchasi yaqin kelajakda suv resurslari yetishmasligi muammosini siyosiy muammoga aylantiradi.

Bugungi kunda suvni yo'qotishni qisqartirishga, suv resurslarini boshqarishni takomillashtirishga yo'naltirilgan siyosiy qarorlar mavjud.

Rivojlanayotgan dunyo XXI asrga ko'plab aholisi va shaharlashuv bilan kirib kelmoqda, shahar rayonlari ham, shu paytgacha duch kelmagan muammolarga uchramoqdalar.

Ta'kidlash joizki, tabiat resurslarining kamayishi, atrof-muhit va aholi hayot faoliyatining buzilishi, kabi ekologik vaziyatlar yanada rivojlanib boradi –bu qonuniyatdir.

Demakki, insoniyatning kelajagi bog'liq bo'lgan, sabab va oqibat tizimining markazida, o'zaro ta'sirlashuvda bo'lgan atrof-muhit va iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi aloqalar turadi. Inson hayoti saqlanadigan va gullab yashnaydigan chegaralar atrof-muhitning chegaralari bilan belgilanadi. Shu tariqa, atrof-muhit va iqtisodiy rivojlanish bir-biri bilan uzviy bog'langan va bizning kelajagimiz, ushbu aloqadorlikni qanchalik samarali hisobga olishimizga bog'liqdir.

18.3. Ekologiya va iqtisodiyotning o‘zaro aloqadorligi va bir-biriga kirishuvchanligi

Atrof-muhit va iqtisodiyot o‘rtasidagi aloqalar, hozirda umumiy e’tibor qaratilagan ko‘plab hodisalarda qarab chiqiladi. Masalan, jahon humjumiyatiga, insonning atrof-muhitga ta’siri va nazoratsiz iqtisodiy o‘sish natijasida, iqlim o‘zgarishi va atmosferada ozon qatlaming yemirilishi jiddiy xavf solmoqda. Atmosferada uglerod gazi va boshqa purnik gazlarining (metan, xlorftorokarbon va b.) to‘planishi oqibatida hujumning o‘zgarishi, yerda inson paydo bo‘lganidan keyingi eng og‘ir ekologik holatga olib kelishi mumkin. Mutaxassislarining ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga borib, sayyoramizdagi o‘rtacha harorat 1,5-4,5 selsiygacha ko‘tarilishi mumkin. Buning ehtimoliy oqibatlaridan biri – Dunyo okeani sathining 1,4 dan 2,2 metrgacha ko‘tarilishi bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, uglerod gazi to‘planishining usosiy manbai –energetika, neft, ko‘mir yonishi va boshqalardir.

Aholi sonining o‘sishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talabning oshishiga olib keladi va buning oqibati sifatida suvga bo‘lgan ehtiyoj ham oshadi. Qishloq xo‘jaligi suvning eng yirik iste’molchisi hisoblanadi: suvdan foydalanish umumiy hajmining 70 %ni ishlatadi, suv sursi sanoatda 20 %ni, maishiy ehtiyojlar 10 %ni tashkil etadi.

2030-yilda jahon aholisining 47 % suv yetishmasligi xavfi ostida yashaydi. Faqat Afrikada 2020-yilda iqlim o‘zgarishi sababli 75 dan 250 milliongacha kishi og‘ir sharoitlarda yashaydi. Sahro va yarim suhro mintaqalarida suv yetishmasligi 24 dan 700 milliongacha kishining faol migratsiyasiga olib keladi.

Yerda aholi sonining o‘sib borishi bilan iste’mol darajasi ham oshadi. Har kuni yangi tovarlar, texnologiyalar paydo bo‘ladi, ishlab chiqarishlar ochiladi. Bular barchasi sivilizatsiya tomonidan ishlab chiqariluvchi chiqindilarning ko‘payishiga olib keladi: ular shunchalik ko‘p bo‘ladiki, chiqindi muammosi, shu jumladan uni utilizatsiya qilish, jahon hamjamiyati uchun eng muhim vazifalardan biriga aylanadi.

Utilizatsiya tushunchasiga inson turmushini va ishlab chiqarish sohasini chiqindilardan maksimal ekologik tozalash uchun zarur bo‘lgan juda ko‘plab harakatlar ro‘yxati kiradi:

Insonning yashash va ish joyidan tashqariga chiqindilarni to‘plash, ajratish va olib chiqish;

Chiqindixonalarda to‘plash yoki chuqurlarga, maxsus poligonlarga, izolyatorlar va yer osti omborlariga ko‘mish;

Zamonaviy texnologiyalar asosida yo‘q qilish;

Inson uchun foydali bo‘lgan yangi mahsulotlar va tovarlar olish maqsadida qayta ishlash.

Chiqindilarni yo‘q qilishning eng ommabop usuli – turli issiqlik rejimlarida ularni yoqish, bunda chiqindi massasi juda yuqori haroratda kislorodsiz muhitda parchalanadi.

Uchinchidan, ishlab chiqarish faoliyatining salbiy iqtisodiy oqibatlarini neytrallashtirish, ekologik sharoitni yaxshilash, tabiatni asrash choralarini amalga oshirish davlat, mahalliy organlar, korxonalar tomonidan katta xarajatlar qilinishini talab etadi. Bu mablag‘lar tozalash qurilmalarini yaratishga, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llash, tabiatni qo‘riqlash va boshqalarga sarflanadi. Bunday xarajatlarning yillik darajasi Yaponiyada YalMning 3–4 %ni, AQSHda – 2 %ni, Yevropa davlatlarida – 0,5 dan 2 %gachani tashkil etadi. Ekspertlarning baholashlariga ko‘ra, joriy o‘n yillikda jahon hamjamiyatiga, ekologik inqirozdan chiqish bilan bog‘liq xarajatlar uchun 770 milliard dollardan ko‘proq mablag‘ zarur. Bunday katta mablag‘ning jalb etilishi iqtisodiy rivojlanishning boshqa dasturlarini amalga oshirish imkoniyatini kamaytiradi.

To‘rtinchidan, hozirgi sharoitlarda iqtisodiyotning rivojlanish imkoniyatlariga ehtiyoj darajasining va ko‘pgina tabiiy resurslar sifatining pasayishi ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Oziq-ovqat miqdori kamaymoqda yoki ifloslanish kuchaymoqda – tirik jonzotlarning populyasiyasidagi kabi, “avtomatik” tarzda aholi soni

kumaymoqda. Forrester tadqiqotlarining (resurslarning cheklanganligi to‘g‘risidagi sharoitlar) ta’kidlangan shartlilikka qaramasdan, ular baribir ko‘rgazmalidir. Afsuski, amaliyot ko‘rsatishicha, yaqinlashib kelayotgan halokatning qo‘rquinchli belgilari, hozircha, yaqqol namoyon bo‘layotgan emas ekan, boshqaruvning jiddiy, kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalariga zarur darajada e’tibor bilan qarab ham bo‘lmaydi.

18.4.Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi konsepsiyalari

Iqtisodiyot rivojlanishining salbiy ekologik oqibatlarini bartaraf etish uchun, rivojlangan mamlakatlar hozirda, iqtisodiy va ekologik muammolarni bir-biridan ajratgan holda hal etishni, inkor eta boshhamoqdalar, chunki chuqurlashib borayotgan ekologik inqiroz sharoitida bunday yo‘l endi kerakli samarani bermaydi. Rivojlanishning iqtisodiy va ekologik jihatlarini birgalikda olib qarash sharoitlarida, faqat majmuaviy yondashuvagina, iqtisodiyot va tabiatning oqilona va samarali hamkorligini ta’minlashda, muvaffaqiyatga erishishga umid qilishga imkon beradi.

Shu munosabat bilan ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlar, qayta ishlab chiqarish jarayonini sof iqtisodiy tashkil etishdan, ekologik tashkil etishga o‘tmoqdalar. Ularda ishlab chiqarish rivojlanishini ta’minlashning majmuaviy ekologo-iqtisodiy tizimiga, xo‘jalik yuritishning ekologo-iqtisodiy tizimiga o‘tish shakllanmoqda. Ushbu tizim insoniyatning yashashi uchun zarur bo‘lgan ekologo-iqtisodiy muvozanatni, ekologo-iqtisodiy balansni ta’minlashga qaratilgan. U iqtisodiy, texnik va tabiiy jarayonlar o‘rtasida samarali, oqilona, o‘zaro moslashgan aloqalar va hamkorliklar jamlanmasini yaratishi lozim. Natijada, dunyo jamiyatning barqaror rivojlanish modeliga o‘tishi zarur. Barqaror rivojlanish modeli iqtisodiyot rivojlanishi jarayonining xarakterini prinsipial sifat o‘zgarishini nazarda tutadi. Ushbu jarayon tabiattalab va muhitni yemiruvchilikdan, tabiatni asrovchi, muhitni saqlab qoluvchi ekologik so‘f jarayonga aylanishi zarur.

Barqaror rivojlanishga o'tish natijasida, biosfera ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy qismlaridan biri bo'lishi lozim. Bunda ishlab chiqarishda tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi oshirilishi va bir vaqtning o'zida, ularning yanada ko'proq tejalishi va qayta ishlanishi ta'minlanishi lozim, bu ekologik zararli ishlab chiqarishni minimumga, imkoniyati bo'lsa agar, nol darajaga tushirishi kerak. Bu ekologik barqaror iqtisodiy rivojlanishga o'tilgan sharoitdagina mumkin bo'ladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar, hozirda, aynan shu yo'ldan bormoqdalar. Biroq umumiy, barqaror balanslashgan va nazorat qilinuvchi rivojlanishni ta'minlash va yangi eraga o'tish, butun dunyo uchun zaruriy va xavfsiz iqtisodiy o'sishni kafolatlash barcha mamlakatlar barqaror rivojlanish tamoyillariga o'tgan ho'ddagina mumkin bo'ladi. Ushbu tamoyillar va ekologik inqirozdan chiqish yo'llari 1992-yil iyunda, Rio-de-Janeyroda atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha BMTning Butunjahon konferensiyasida atroflicha qarab chiqildi. 27 ta tavsiyalardan iborat Deklaratsiyada, barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishning mohiyati va maqsadlari bayon etilgan. Barqaror rivojlanish tushunchasining ásosiy qoidalari:

– diqqat markazida odamlar turganligini tan olish, ular tabiat bilan garmoniyada, sog'lom va sermahsul hayot kechirish huquqiga ega bo'lishi;

– atrof-muhitni muhofaza qilish rivojlanish jarayonining ajralmas qismi bo'lishi va undan ajralgan holda qaralmasligi lozim;

rivojlanish huquqi shunday amalga oshirilishi lozimki, ham hozirgi, ham kelajak avlodning rivojlanishga va atrof-muhitni himoyalashga bo'lган ehtiyojlarini teng darajada ta'minlashi kerak;

– Yerning to'rtdan uch qism aholisiga jahon boyliklarining yettidan bir qismigina to'g'ri kelishini hisobga olgan holda, jahon xalqlari turmush darajasidagi uzilishlarni kamaytirish, kambag'allik va qashshoqlikni tugatish.

Atrof-muhit bo'yicha Birinchi Umumjahon konferensiyasi 1972- yili Stokgolmda bo'lib o'tdi. Unda 113 davlat vakillari

qatnashdilar. Konferensiyada birinchi marta ekologik yo'naltirilgan ijtimoly-iqtisodiy rivojlanish sifatida ekorivojlanish tushunchasi shakllantirildi, bunda odamlar hayot farovonligining o'sishi yashash muhitining yomonlashuvi va tabiiy tizimlarning buzilishi bilan birga olib borilmasligiga e'tibor qaratildi. Konferensiya ishi yakunlari jahon himoyalashining strategik maqsadlari va harakat yo'nalishlari belgilandi. Deklaratsiyada insonni o'rab turuvchi muhitni himoyalashning 26 ta tamoyillari ko'rsatilgan. Hozirgi talqindagi atrof-muhit muammosi Stokholm konferensiyasi (1972) davridan boshlab keng tarqaldi. Uning qarorlari asosida BMT'da mustaqil organ tuzlib, unga dunyo miqyosida mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik yuklatildi. Ushbu organ BMTning atrof-muhit bo'yicha Dasturi – YUNEP deb nomlandi. U doimiy asosda Nayrobidagi (Keniya) shtab kvartirasi orqali ish olib boradi.

Atrof-muhit himoyasi ko'p qatlamlili, majmuaviy muammo bo'lganligidan, YUNEP faoliyatiga qo'shimcha sifatida, uning alohida tomonlari bilan yana quyidagi maxsus tashkilotlar ham shug'ullanadi:

YUNESKO "Inson va biosfera" ishlarni bajaradi, rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari inson va muhit o'rtasidagi o'zaro aloqalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazadi;

JSST xavfsiz suv ta'minoti, ovqatlanish va chiqindilarni yo'qotish, ekologik xavfsizlik masalalari bo'yicha ham ish olib boradi;

YUNIDO sanoat rivojlanishiga va yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatilishiga yordamlashadi;

MAGATE radiatsiyadan himoyalananish va xavfsizlik, radioaktiv materiallar transportirovkasi va chiqindilar utilizatsiyasi me'yorlarini belgilaydi.

Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha 1992-yildagi BMT Konferensiyasi (Rio-de-Janeyro) insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik forum hisoblanadi: unda 179 ta davlat va hukumat rahbarlari, 1600 ta nohukumat tashkilotlari vakillari qatnashdilar.

Konferensiya quyidagi bir qator muhim hujjatlarni qabul qildi:

Atrof-muhit va rivojlanish to‘g‘risida Rio Deklaratsiyasi. Uning 27 ta tamoyillari odamlarning rivojlanishi va farovonligini ta‘minlashda mamlakatlarning huquq va majburiyatlarini belgilab bergen;

XXI asrga kun tartibi – inson faoliyatining siyosat, iqtisodiyot, aholishunoslikni tartibga solish, sog‘liqni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qonunchilik, fan, ta‘lim kabi inson faoliyatining turli sohalarida barqaror rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ro‘yxatidan iborat umumjahon harakat dasturi;

Barcha turdagи o‘rmonlarni boshqarish, saqlash va barqaror rivojlantirish tamoyillari to‘g‘risidagi murojaat;

Iqlim o‘zgarishi muammolari bo‘yicha alohida konvensiya (RKIK), uning maqsadi – parnik effektini yaratuvchi gazlar konsentratsiyasini barqarorlashtirishga erishish. RKIK tomonidan ilgari surilgan maqsad va vazifalar, keyinchalik doimiy xalqaro konferensiyalarning muhokama predmetiga aylandi.

RKIK bo‘yicha Kirotoda o‘tkazilgan tuchinchi konferensiya (Yaponiya, 1997 y.) juda muhim bo‘lib, unda KIOTO Protokoli qabul qilindi. Ushbu hujjat BMTning iqlim o‘zgarishlari to‘g‘risidagi qarorlarining amalga oshirilishini aniqlashtirdi va detallashtirdi.

Barqaror rivojlanish bo‘yicha “Rio+10” umumjahon sammiti

(Yoxannesburg, 2002 y.). Dunyoning 190 ta davlat rahbatlari qatnashgan ushbu sammitda, jahon hamdo‘sligi mamlakatlarining barqaror rivojlanish yo‘li bo‘yicha, jahon hamjamiyati harakatining birinchi o‘n yillikdagi natijalari qarab chiqildi va quyidagi xulosalar bildirildi:

1. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirish va sivilizatsiyani barqaror rivojlanish yo‘liga olib chiqish uchun, jahon hamjamiyati tomonidan olib borilayotgan harakatlar, kutilgan natijaga olib kelmadи.

Insonning hayot sifatini jiddiy oshirishga va tabiiy ekotizimlardagi **xavfli o'zgurishlarni** to'xtatishga erishilmadi.

2. Hamjamiyatning barqaror rivojlanish yo'lidagi harakatini **cheklovchi sabablar** quyidagilardir:

samarali boshqaruv mexanizmining yo'qligi;

moliyalashtirishning cheklanganligi;

barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda jahon va **milliy hukmatlarni** muvofiqlashtirishdagi qiyinchiliklar;

rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ishlab chiqarish va iste'mol miqyoslaridagi farqning o'sib borishi.

"Rio+10" dagi munozaralar ko'rsatdiki, bir tomondan, jahon **miqyosida** sivilizatsiyaning barqaror rivojlanish modeli ro'yobga chiqarish, 1990-yillar boshidagidek, unchalik oddiy vazifalardan emas. Boshqa tomondan esa, sivilizatsiyaning ijobjiy istiqbollari, aynan barqaror rivojlanish strategiyasi bilan bog'langandir. Barqaror rivojlanish deyilganda, keng ma'noda, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va mudaniy o'lchamlari bilan sivilizatsiya amal qilishining yangi tipiga mos keluvchi, tarixiy shakllanganlikdan tubdan farqlanuvchi, ya'ni nafaqat tabiiy-resurs salohiyatini, balki barcha tabiiy-sotsiomadaniy boylıklarni boshqarish vazifasini qo'yuvchi jarayon sifatida tushuniladi. O'z mohiyatiga ko'ra, gap jamiyat va tabiatning garmoniyasiga – noosfera davriga erishish yo'llari haqida boradi.

2008-yilda YUNEP doirasida yashil iqtisodiyot bo'yicha Tashabbus e'lon qilinib, uning maqsadi, jahon hamjamiyati va alohida mamlakatlarning shunday iqtisodiyotga va barqaror rivojlanishga o'tishi bilan bog'liq muammolarni o'rganish hisoblanadi.

XX asr oxirlarida shakllangan texnogen sivilizatsiya, rivojlanishning miqdoriy ko'rsatkichlari o'sishiga yo'naltirilgan bo'lib, o'zining oxirgi chegaralariga yetib keldi. Global muammolar yuzaga chiqdi va jadal chiqurlashib bormoqda, ular ekologik muammolar deb atalmoqda: aholi sonining boshqarib bo'lmaydigan darajada o'sib borishi, biosferaga kuchli antropogen ta'sirlar, tabiat resurslarining

qirilishi, biologik turlichalikning qisqarishi, atrof-muhitning ifloslanishi, inson sog‘ligiga tahdidlar – bular muammolarning to‘liq bo‘limgan doirasi bo‘lib, uchinchi ming yillikda insoniyatning taqdiri ularning hal qilinishiga bog‘liq bo‘ladi. Bir tomondan, insonning zamonaviy sivilizatsiya rivojlanishini ta‘minlovchi faoliyati, tabiatning buzilishiga olib keldi. Boshqa tomondan esa – insoniyat global muammolarni hal etish uchun, bitmas-tuganmas intellektual va texnologik salohiyatga egadir. Ularni bartaraf etishga jamiyatning umidi yangi sivilizatsion modellarga o‘tishni nazarda tutadi, ularning asosini koevolyusion strategiya – tabiat, jamiyat, madaniyat va insoniyat ongining o‘zaro bog‘liq, barqaror (yemirilmaydigan) rivojlanishini amalga oshirish strategiyasi, jamiyatning mentalitetini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan, yangi ijtimoiy mafkurani shakllantirishga mo‘ljallangan, yangi sivilizatsion tafakkur tashkil etadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy g‘oyasi o‘zaro bog‘liq holdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanish uchun sharoitlar va mexanizmlarni yaratishdan iboratdir. Ushbu g‘oya, tabiiy muhit muammolari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan birgalikda qaralishi zarurligini anglashdan kelib chiqadi. Faqat shu holdagina, odamlarning sog‘lom va sifatli turmush kechirish huquqini ta‘minlash, jahon xalqlari, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar turmush darajasidagi farqlarni kamaytirish mumkin bo‘ladi. Barqaror rivojlanish jahon hamjamyatining sof iste’molchilik tamoyillarida tashkil etilgan sun’iy ierarxiyasi bilan moslasha olmaydi. Ayrim mintaqalarning, boshqalarning tabiiy resurslari hisobidan farovonlikda yashashi, ertami, kechmi o‘z nihoyasiga etadi. Barqaror kelajakni ta‘minlash uchun, jahon iqtisodiyotini, iste’mol strukturasini, demografik siyosatni o‘zgartirish, ko‘plab qadriyatlarni qayta o‘ylab ko‘rish va odatiy turmush tarzining ko‘pgina tomonlardan voz kechish talab etiladi.

O‘tgan asrning oxirgi choragida jahon YalM to‘rt barobatga o‘sdi, bu yuz millionlab kishilarning turmush darajasini oshirdi. Biroq,

shu bilan birga, ularning yashashi uchun zarur bo‘lgan jahon ekotizimi haqida tovarlari va xizmatlarining sifati 60 %ga pasaydi, yoki ushbu tovarlar va xizmatlar beqaror tarzda foydalanildi. Bu shu bilan taqozolannadi, keyingi o‘n yilliklarda iqtisodiy o‘sishga, asosan, tabiat ronurlurini sarflash hisobidan erishildi; insoniyat zaxiralarning qayta tikkalishiga yo‘l qo‘ymadi, aksincha ekotizimlarning buzilishi va yo‘qolishiga yo‘l qo‘yildi.

Masalan, hozirda baliqning tijorat zaxiralaring 20 %ga yaqini, unonan arzon turlari, to‘liq foydalanilmayapti; 52 % to‘liq foydalanilayapti, va ushbu biznesni kengaytirish imkoniyatlari yo‘q; taximining 20 % haddan tashqari ortiq foydalanilayapti, 8 % ishdan chiqqan holda. Suv taxchil resursga aylanmoqda. Hisoblarga ko‘ra, suv yetishmasligi yanada kuchayadi, yana 20 yildan so‘ng suv zaxiralari jahon ehtiyojining 60 % nagina qondiradi. Qishloq xo‘jaligida hosildorlikning ko‘payishiga, asosan, kimyoviy o‘g‘itlarni qo‘llash tutayli erishilmoqda, bu yerlarning sifatini pasaytiradi.²⁵

O‘rmonlarni kesishni kengaytirish tendensiyasini ham sindirib bo‘lmadi: 1990–2005-yillarda o‘rmon maydonlari, har yili 13 mln.hektarga kamayib bordi. Shu sababli, ekologik resurslarning taxchilligi, iqtisodiyotning, aholini ta’minlashda asosiy rol o‘ynovchi barcha sektorlariga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

“Yashil iqtisodiyot” – bu iqtisodiy faoliyat tizimi bo‘lib, u bizning farovonligimizni oshiradi. Ya’ni agarda an‘anaviy iqtisodiyot yakuniy foydalanimuvchi mahsulot va chiqindilar ishlab chiqarish uchun mehnat, texnologiya va resurslarni birlashtirsa, “yashil iqtisodiyot esa, tabiatga minimal zarar eytkazgan holda, ularni ishlab chiqarish sikliga qaytarishi lozim. Boshqacha aytganda, biz ekologiyani saqlagan va chiqindilarni kamaytirgan holda, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, yashashimiz, ishlab chiqarishimiz va foydalanishimiz zarur. “Yashil” iqtisodiyot atrof-muhitning kambag‘allashuvini pasaytiradi, ekotizimni saqlaydi va tiklaydi, resurs-

²⁵ Global Forest Resources Assessment 2010: Main Report. Рим:Продовольственная сельскохозяйственная организация (ФАО) ООН (2010) стр.13.

suv-energiya tejovchi va muqobil texnologiyalarni qo'llash hisobidan, tabiat resurslaridan oqilona foydalanadi.

YUNEP ma'lumotlari bo'yicha, jahon rivojlanishi xarakterini o'zgartirish, resurslardan samarali foydalanish yo'nalishiga tub burilish qilish uchun, iqtisodiyotning asosiy sektorlarini "yashillashtirishga" jahon YalMning atigi 2 %ginasi yetarlidir. Bu yillik jahon investitsiyalarining 10 %dan kamroq'ini, yoki yiliga 1,3 trillion dollarni tashkil etadi. YAshil iqtisodiyot, istiqbolda, YalMning jiddiy o'sishini ta'minlashga, aholi jon boshiga daromadlarni ko'tarishga va bandlikni yuqori darajadarda oshirishga qodirdir.

Biznes muhitda "yashil" iqtisodiyot tushunchasi e'tiborning cho'qqisida turadi. Moliya jamg'armalari, ilg'or mamlakatlar hukumatlari, biznesmenlar va iste'molchilar allaqachon "yashil" iqtisodiyotni yaratmoqdalar. Tabiat infrastrukturasiga investitsiyalar va energiya samaradorligi yuqori texnologiyalar o'z foydasini bermoqda. "yashil" iqtisodiyot asosida sof yangi texnologiyalar turadi.

Yangi innovatsion yondashuvlardan foydalanadigan sof texnologiyalar mahsulotlarni, texnologiyalarni ya iste'molchilar xulq-atvorini yaxshi tomonga o'zgartiradi. Ular yuqori unumdarlikni beradi, atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytiradi hatto butunlay yo'qotadi.

18.5. "Yashil" texnologiyalar va iqtisodiyot

"Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining tarafдорлари hisoblashlaricha, hozirda amaldagi iqtisodiy tizim takomillashmagan. U odamlarning, ayniqla uning ayrim guruhlarining, turmush darajasini oshirishda ma'lum bir natijalarga erishgan bo'lsa-da, ushbu tizim amal qilishining salbiy oqibatlari anchagini: bular ekologik muammolar (iqlim o'zgarishi, cho'llashuv, bioturlichalikning yo'qolishi), tabiat kapitalining holdan toyishi, keng miqyosli kambag'allik, chuchuk suv, oziq-ovqat, energiya yetishmasligi, xalqlar va mamlakatlarning notengligi kabilardir. Bular barchasi hozirgi va kelajak avlod uchun

xuvf-xatardir. Iqtisodiyotning hozirgi modeli “jigarrang iqtisodiyot” deb ataladi.

Insoniyatning yashab qolishi va rivojlanishi uchun “yashil iqtisodiyotga” – ya’ni tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, tuzsimlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat turlari tizimiga o’tish talab etiladi, bular uzoq istiqbolda inson farovonligining oshishiga olib keladi, bunda kelgusi avlodlar sezilarli ekologik tuvukkalchilik va ekologik taxchillikka duchor etilmaydi.

“Yashil iqtisodiyotga” o’tish uchun bir qator shart-sharoitlar taklif etiladi:

- barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keluvchi narxlar bo’lishi, samarasiz subsidiyalardan, tabiat resurslarini pul ifodasida buholashdan va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi soliqlardan voz kechish;

- ekologik mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi va davlat xaridlari siyosati va ishlab chiqarishning barqaror amalga oshishiga mos keluvchi tamoyillardan foydalanish;

- e’tiborni ish kuchiga soliq solishdan, ifloslantirishga qarshi soliq solishni nazarda tutuvchi “ekologik” soliqqa tortish tizimini isloh qilish;

- infrastrukturaning (jamoat transporti, energiyaning qayta tiklanuvchi manbalari, samarali binolar qurilishi) barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keluvchi davlat investitsiyalarining o’sib borishi;

- ekologik toza texnologiyalarni yaratish bilan bog‘liq bo’lgan tadqiqotlar va qo’llanmalarni qo’llab-quvvatlash;

- ijtimoiy sohadagi maqsadlar va mavjud yoki tavsiya etiluvchi iqtisodiy strategiyalar o’rtasida kelishuvni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy strategiyalar.

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiysi takliflarini quvvatlagan mamlakatlarga Kosta-Rika, Qatar, Braziliya, Botsvana, Efiopiya, Gana, Yaponiya, Keniya, Indoneziya, Tailand, Nigeriya, Nepal, Flippin, Janibiy Afrika, Rossiya va AQSH kabilar kiradi. Ushbu

konsepsiya qarshi chiqqan mamlakatlar Venesuela va Boliviya bo'ldi. Gonduras, Karib mintaqasi va Lotin Amerikasi uchun rivojlanish dasturlarida "yashil" iqtisodiyot umuman eslanmagan ham.

Hozircha jahon iqtisodiyotida "yashil" sektorning miqyoslari unchalik katta emas, shu sababli, maxsus adabiyotlarda, "yashil" iqtisodiyot tushunchasi bilan birgalikda, iqtisodiyotda "yashil kurtaklar" (green shoots) tushunchasi ham ba'zida qo'llaniladi. Haqiqatan ham, ushbu sektorda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va xizmatlar qiymati hozirda 2 trln. dollarni, yoki jahon YalMning 2,7 %ni, foyda – 530 mlrd. dollarni, bandlik – 10 mln. kishini tashkil etadi.

Ayrim mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyotning roli va miqyosini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

AQSHda "yashil iqtisodiyot" 600 mlrd. dollardan ortiq tovar va xizmatlar bermoqda (YalMning 4,2 %), undagi bandlik 3 mln. kishini tashkil etadi;

Yaponiyada – mos holda 3,4 % YalM va taxminan 1,5 mln. kishi; EI mamlakatlarda – jami YalMning 2,5 % va 3,4 mln. kishi.

Biroq ayrim mamlakatlarda ko'rsatkichlar anchä yuqori: Germaniyada – 4,8 % plus ekologik toza tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha jahonda yetakchilik (jumladan, iqlimni saqlash bo'yicha jihozlar jahon savdosining 12 % dan ko'prog'i); YalMda "yashil" sektorning ulushi bo'yicha jahonda yetakchi hisoblanuvchi Buyuk Britaniyada, – 2009-yilda 240 mlrd. dollar (yoki YalMning 8,8 %), eksportdagi ulushi 5 %, umumiy bandlikda 3 %ni tashkil etadi.

"Yashil" texnologiyalar o'sishining eng muhim rag'batlan-tiruvchilari bo'lib, davlat siyosatining turli chora tadbirlari, shuningdek, ekologik bozorda biznes oldida ochilayotgan yangi imkoniyatlar, bular iste'molchilar tomonidan talabning ta'siri ostida tez o'sib bormoqda ("qamchi" va "shirin kulcha" qoidasi bo'yicha).

Ekologik bozor yoki shunga o'xshash ta'riflarda bo'lgani kabi, "yashillik" yoki ekologik sof texnologiyalar tushunchasining ham yagona ta'rifi mavjud emas. Umumiy yondashuv ularning bosh

maqpidiga erishishni – atrof-muhitga salbiy ta'sirni pasaytirishni nazarida tutadi, masalan, chiqindilar miqdorini kamaytirish, energiya namurudorligini oshirish, iste'mol qilinadigan resurslar hajmini qinqartirish uchun dizaynni yaxshilash kabilarni.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) klansifikatsiyasiga ko'ra, "yashil" texnologiyalar quyidagi sohalarni qumrab oladi:

umumiylar ekologik boshqaruv (chiqindilarni boshqarish, suv, havoning ifloslanishiga qarshi kurashishi, yerlarni tiklash va b.);

quyta tiklanuvchi manbalardan energiya ishlab chiqarish (quyosh energiyasi, bioyoqilg'i va b.), iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, atmosferaga zararli chiqindilar tashlanishini kamaytirish, yoqilg'idan soydulanishda, shuningdek, binolarda va yoritish uskunalarida energiya

Kishilik jamiyatining taraqqiyoti va taqdiri kimyobilan ham uzviy bog'langandir. Energiyaning, energiya tashuvchilarning va yoqilg'ining yangi manbalarini izlash anchadan buyon kimyoning markazida turibdi (tabiiy gazni quyta ishslash, ayniqsa suyuq-mahsulotlarga aylantirish, dizel yoqilg'isiga muqobil sisatidagi dimetil esir olish, quyosh energiyasini fotoelektrik o'zgartiruvchilar va nihoyat, vodorod energetikasi). Oziq-ovqat muammo bilan ximiklar qadim zamonlardan shug'ullanadi, yog'larni gidrogenlashtirish, sintetik vita'minlar, biologik faol qo'shimchalar kabilar, genetik modifikatsiyali mahsulotlarni yaratish va iste'mol qilish hozirda eng dolzarb masalalalardan. Iqlimning global o'zgarishlari ham, o'z mohiyatiga ko'ra fizikaviy-kimyoviy jarayonlar bilan bog'liqdir. Havoni, suvni, tuproqni tozalash vazifasini faqat ximiya bajarishi mumkin.

18.6. Energiyaning muqobil manbalari va ularning iqtisodiyotga ta'siri

Inson, xo'jalik faoliyatining barcha sohalari ichida, energetika hayotimizga eng katta ta'sir o'tkazadi. Uylarda issiqlik va yorug'lik,

tarnsport oqimlari va sanoatning ishlashi – bular barchasi energiya sarflashni talab etadi. Har yili energiya ishlab chiqarish uchun 10 mlrd. tonna yoqilg‘i ishlatiladi. Buning 40 %ga yaqini neftga to‘g‘ri keladi. Neftdan tashqari, ko‘mir va tabiiy gazdan ham foydalаниlib, barcha iste’mol qilinuvchi energiyaning 90 % uglerod xomashyosi ekanligini ko‘rish mumkin. Energiyaning qazilma manbalarining miqyosi juda kattaligi sababli, bu global isishni (parnik effektini) va kelajakda resurslarning kamayishini keltirib chiqarishi mumkin. Insoniyat oldida hozirdanoq energiyaning tiganmas manbalarini o‘zlashtirish vazifasi turibdi. Kelgusi asrda energiyaning muqobil manbalariga o‘tish boshlanadi, “qora oltin” davri tugaydi va neftga bog‘liq mamlakatlar iqtisodiyotining ahvolini taxmin qilish mumkin.

2017-yilda 2016-yilga nisbatan energoresurslarga global ehtiyoj 2,3 %ga oshdi, bu o‘tgan davrga nisbatan 1,1 %ga ko‘p va keyingi o‘n yillikdagi o‘rtacha miqdordan 0,5 %ga yuqoridir.

Saudiya Arabistonи va Rossiyaning faol ishtirokida 2016-yil oxirida erishilgan OPEK+ kelishuvi o‘z natijalarini bera boshladi: neft narxi 2016-yildagi 44 dollar/barreldan 2017-yilda 54 dollar/barrelga, 2018-yilda 70 dollar/barrelga va sentyabrning dastlabki haftasida 76–79 dollar/barrelga oshdi. Neft narxidagi o‘zgarishlar boshqa energoresurslarning narxlariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi.

Gaz eksportini oshirish maqsadida slans strukturalardan uglevodorodlar qazib olishni kengaytira boshladi (2020-yildan keyingi davrda yiliga 96 mlrd. kub.metr/ 71 mln.tonna). 2017 yilda SPG etkazib berishni 2 martaga –20 mln. tonna darajasiga yetkazdi (Rossiya –24,4 mln.kub.metr), bunda sotib oluvchilar Ispaniya, Portugaliya, Turkiyadan tashqari– Litva va Polshagacha kengaydi, bu ochiqchasiga siyosiy mazmun edi (slans SPGni Rossiya gazidan ko‘ra yuqori narxlarda sotish talabi qo‘yildi).

Energiyaning global iste’moli, 2009-yildan boshlab dunyoda energiyaning eng yirik iste’molchisiga aylangan Xitoy tomonidan boshlanib, bu barqaror iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq edi. Xitoyda

energiya iste'moli 2016-yilga nisbatan 2 marta tezroq o'sdi, bu kuchli iqtisodiy talab bilan bog'liq bo'lib, keyingi uch yilda kamroq iste'mol bilan qoplandi. Energiya iste'moli ko'pchilik Osiyo mamlakatlarida ham o'sdi: Hindistonda (2000-yildan barqaror o'sish darajasida), Indoneziya, Malayziya va Janubiy Koreyada ham. 2013-yildan boshlab iqtisodiy o'sish sababli Yaponiyada ham birinchi marta oshdi.

Qo'shma Shtatlarda energiya iste'moli qatorasiga ikki yil burqarorlashdi, bu elektroenergiyaga talabning pasayishi va energiya namaradorligining oshishi tufayli yuz berdi. Braziliyada ikki yillik tushkunlikdan so'ng ko'tarildi, biroq Meksika va Argentinada qisqardi.

Jahon energiya balansining daromad qismi strukturasida nefting ulushi tobora kamaymoqda. 2007-2017-yillarda uning ulushi 35,3 dan 32,9 %ga tushdi. Jahon iqtisodiyotida neftni eng ko'p ishlab chiqaruvchilari : AQSH -13 %, Saudiya Arabiston -12,8 %, Rossiya -12,6 %, Kanada -5,4 %, Eron -5,3 %, Iraq -5 %, Xitoy -4,4 %. Global neft bozorining ayrim ko'rsatkichlarini keltiramiz: qazib olishning 34 % Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga to'g'ri keladi, suyuq yoqilg'inining 44 % ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda iste'mol qilingan, 56 % , asosan qayta ishlanmagan holda, xalqaro savdoga kiritilgan.

Dunyoda eng sof va yaroqli uglevodorod yoqilg'isi bo'lgan gaz ishlab chiqarish, keyingi 10 yilda rekord darajada oshdi -4 %ga. (o'rtacha ko'rsatkich yiliga 2,6 %), bu asosan Rossiya va Eronning harakatlari hisobidan bo'ldi. Ushbu energoresursning asosiy ishlab chiqaruvchilari: AQSH-20 %, Rossiya -17,3 %, Eron -6,1 %, Kanada va Qatar -4,8 % dan.

Rossiya shimoliy, janubiy va sharq yo'nalishlarida gaz transport infrastrukturasini rivojlantirish bo'yicha loyihalarini jadal amalga oshirdi. Xitoya truboprovod ("Sila Sibiri") o'tkazish davom ettirildi, ko'pgina Yevro pa davlatlarining manfaatlari asosida "Severniy potok -2" truboprovodini qurishdagi qiyinchiliklar bartaraf etildi.

Yadro energetikasiga e'tibor kuchaymoqda. Masalan, Fransiya energiya iste'molining 38 %ni yadro energetikasidan olmoqda. Keyingi yillarda ushbu soha Xitoyda ham rivojlanmoqda. O'tgan o'n yillikda Xitoy atom energiyasi ishlab chiqarishni 4 martaga ko'paytirdi va 2017-yilda ushbu sohada jahon yetakchilarining uchligiga kirdi. An'anaviy energiya ishlab chiqaruvchilarga, shuningdek, Rossiya (7,7 %), Koreya Respublikasi (5,6 %), Kanada (3,7 %), Ukraina (3,2 %) kiradi.

Yirik GES lar sektorida ham Xitoy yetakchi o'rinda turadi. 2007 – 2017 yillarda gidroelektroenergiya ishlab chiqarish 2,4 martaga oshdi (jahonda –32 %ga) va jahon energiya iste'molida mamlakatning ulushi 28,5 % ga yetdi. Yirik GES larda elektroenergiya ishlab chiqarish va iste'mol qilishda (%da) Kanada –9,8, Braziliya –9,4, AQSH –7,3, Rossiya –4,5, Norvegiya –3,5, Hindiston –3,3, Yaponiya –2 %ni tashkil etadi.

Energiyaning muqobil manbalariga quyosh, shamol, oqim, geotermal energiyalar va biomassa yonganida olinadigan energiya kiradi. Muqobil energiya manbalarining riqojlanishi oshib bormoqda. Keyingi yillarda fotoelektrik qurilmalar ishlab chiqarishning o'sishi yiliga 30 %ni tashkil etmoqda. Shu munosabat bilan Germaniyada 1990 yillar boshida amalga oshirilgan "Mingta tom" loyihasini eslash o'rinnlidir. Ushbu loyihami amalga oshirishda xarajatlarning asosiy qismini (70 %gacha) davlat o'z zimmasiga oldi. Germaniyada 2250 ta uylarning tomiga fotoelektrik qurilmalar o'rnatildi. Bunda energiyaning zaxira manbasi rolini elektr tarmoqlari o'ynadi, ular yetishmagan energiyani qoplab turdi, keyin esa, ortiqchasini qaytarib oldi. Shundan so'ng AQSHda yanada keng miqyosli, 2010-yilgacha mo'ljalangan "Millionta tom" dasturi boshlandi. Uning amalga oshirilishiga Federal byudjetdan 6 milliard dollarga yaqin mablag' ajratildi.

2016–2017-yillarda gaz iste'moli 3 %ga oshdi, bu oldingi besh yillikdagi ko'rsatkichlardan ancha ko'p. Bunga gaz importining 6 % ga oshishi sabab bo'ldi. O'tgan yilda gaz iste'moli Turkiyada –16,6 %, Xitoyda –15 %, Misrda –13,7 % o'sdi. Xitoy shimoliy mintaqalarning 28 ta shahrida (4 mln. aholi) isitish tizimini ko'mirdan gazga o'tkazgach,

fuoł ravishda SPG sotib ola boshladi. Natijada XXR energiya tashuvchilarning ushbu turida Koreya Respublikasidan oldinga o'tdi va Jahonda Yaponiyadan keyingi ikkinchi o'ringa chiqdi.

Ishlab chiqarilayotgan gazning 36 % xalqaro savdo kanallariga tushdi. Uning 65 % truboprovodlar orqali yetkazib berildi (Rossiyaning ulushi –29 %, Norvegiya –19 %, Kanada –11 %) va 1/3 qismi –SPG ko'rinishida, bunda yetakchi davlatlar Qatar (jami SPGning 26 %), Avstraliya (19 %), Indoneziya (9 %). SPG importerlari qatoriga yana 6 ta mamlakat –Misr, Iordaniya, Kolumbiya, Pokiston, Polsha, Yamayka qo'shildi.

Asosiy energiya tashuvchilardan bo'lgan ko'mir, bozor jumyonlарining qoplovchilik funksiyasini bajaradi (narxlarga bog'liq holda davriy ravishda gaz va nefting o'rnini qoplab turadi). Uch yillik qisqurishdan so'ng, 2017-yildan, ko'mir qazib chiqarish 3 % ga oshdi, bunda talab esa, atigi 1 % ga oshgan. Jahonda qattiq yoqilg'i ishlab chiqaruvchi eng yirik davlatlar –Xitoy (46 %), AQSH (10 % ga yaqin), Avstraliya, Hindiston va Indoneziya (7 –8 %) hisoblanadi, yetakchi iste'molchilar esa –XXR (jahon iste'molining yarmiga yaqini), Hindiston (12 %), AQSH (9 %).

Atom energetikasi Yaponiyadagi Fukusima (2011-yil) halokatidan keyin, jahon energobalansida vaqtincha pasayishga uchradi. Germaniya AESlarni qisqartirishga yo'liga o'tdi, 2018-yilda 2 martaga qisqartirdi, Yaponiya 2014-yilda barcha AESlarni to'xtatdi, keyingi yillarda bir nechtagina reaktorlarni ishlatmoqda.

Kioto protokolining ekologik va iqtisodiy aspektlari

Zamonaviy dunyoning eng muhim muammolaridan biri, atrof-muhitga salbiy ta'sir etuvchi parnik gazlarining atmosferaga tashlanishi hisoblanadi. Ushbu global muammoni hal etish uchun, 1997-yilda Kiotoda (Yaponiya) iqlim o'zgarishi to'g'risida BMTning Qo'shimcha konvensiyasiga (RKIK) xalqaro kelishuv imzolanib, u o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlarga partik gazlari chiqarilishini qisqartirish yoki barqarorlashtirish majburiyatini yuklaydi. Protokolni imzolash davri 1998-yil 16-martdan boshlanib, 1999-yil 15-

martda tugadi. Kioto protokoli, tartibga solishning bozor mexanizmlariga, xalqaro savdo kvotalariga asoslanuvchi birinchi global kelishuv bo‘ldi.

Qisqacha xulosalar

1.“Yashil iqtisodiyot” – bu iqtisodiy faoliyat tizimi bo‘lib, u bizning farovonligimizni oshiradi. Ya’ni, agarda an’anaviy iqtisodiyot yakuniy foydaliluvchi mahsulot va chiqindilar ishlab chiqarish uchun mehnat, texnologiya va resurslarni birlashtirsa, “yashil iqtisodiyot esa, tabiatga minimal zarar yetkazgan holda, ularni ishlab chiqarish sikliga qaytarishi lozim.

2.XX asrning oxirlariga kelib shu narsa tushunildiki, ekstensiv iqtisodiy rivojlanish, eng kamida regressga, ko‘pi bilan esa insoniyat sivilizatsiyasining halokatiga olib kelishi mumkin. Mavjud iqtisodiy modellarni qayta ko‘rib chiqish va yangi texnologiyalarga o‘tish zaruriyati paydo bo‘ldi., bular nafaqat iqtisodiy o‘sishni kuchaytirishga, balki ekotizimni saqlashga ham imkon beradi. “Yashil” iqtisodiyot deb ataluvchi yangi iqtisodiy model eng muhim iqtisodiy aktiv va ijtimoiy boylikning manbai sifatida tabiiy kapitalni saqlash, ko‘paytirish, zaruriyat bo‘lganida qayta tiklashni nazarda tutadi, bu ayniqsa, aholining kambag‘al qatlamlari uchun muhimdir, ularning daromad manbai va himoyalanganligi asosan tabiatga bog‘liqidir.

3.Keyingi 100 yilda dunyodagi ishlov beriluvchi yerlarning $\frac{1}{4}$ qismi va sayyoramiz o‘rmonlarining $\frac{2}{3}$ qismi yo‘qotildi. Har yili ishlab chiqarish faoliyati tufayli 20 trillion tonna moddalar harakatlanadi. Ekologik muammo XX asrning 60-yillaridan inqirozli xarakter kasb eta boshladi. Inqirozning asosiy yo‘nalishlari, birinchidan, sayyoramizda mavjud tabiiy resurslarning mutlaq qisqarishi, ikkinchidan, atrof-muhitning ifloslanishi hisoblanadi.

4.Ifloslanishning asosiy manbalari-neft, neftkimyo, kimyo, ko‘mir, selluloza-qog‘oz va metallurgiya sanoatlari oqova suvlarini hisoblanadi. Ko‘p miqdorda mineral o‘g‘itlarning ishlatilishi, o‘simliklarni kimyoviy himoyalash vositalarining qo‘llanilishi, chorvachilik majmularining

Inshkil otilishi kabilar bilan bog'liq holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining intensifikatsiyalashuvi ham shuningdek suv havzalari va suv oqimlari ifloslanishining jiddiy ko'payishiga olib keladi.

5. Atmosferada uglerod gazi va boshqa parnik gazlarining (metan, xlorflorokarbon va b.) to'planishi oqibatida iqlimning o'zgarishi, yerda inson paydo bo'lganidan keyingi eng og'ir ekologik holatga olib kelishi mumkin. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib, ~~sayyoramizdagi~~ o'rtacha harorat 1,5-4,5 selsiygacha ko'tarilishi mumkin. Buning ehtimoliy oqibatlaridan biri – Dunyo okeani sathining 1,4 dan 2,2 metrygacha ko'tarilish bo'lishi mumkin. Ma'lumki, uglerod gazi to'planishining asosiy manbai – energetika, neft, ko'mir yonishi va ~~boshqularidir~~.

6. Barqaror rivojlanishga o'tish natijasida, biosfera ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy qismlaridan biri bo'lishi lozim. Bunda ishlab chiqarishda tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi oshirilishi va bir vugtning o'zida, ularning yanada ko'proq tejalishi va qayta ishlanishi, ta'minlanishi lozim, bu ekologik zararli ishlab chiqarishni minimumga, imkoniyati bo'lsa, agar nol darajaga tushirishi kerak.

7. *Barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy g'oyasi o'zaro bog'liq holdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanish uchun sharoitlar va mexanizmlarni yaratishdan iboratdir.* Ushbu g'oya, tabiiy muhit muammolari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan birgalikda qaralishi zarurligini anglashdan kelib chiqadi. Faqat shu holdagina, odamlarning sog'lom va sifatlari turmush kechirish huquqini ta'minlash, jahon xalqlari, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar turmush darajasidagi surqlarni kamaytirish mumkin bo'лади.

8. Inson xo'jalik faoliyatining barcha sohalari ichida, energetika huyotimizga eng katta ta'sir o'tkazadi. Uylarda issiqlik va yorug'lilik, transport oqimlari va sanoatning ishlashi – bular barchasi energiya surflashni talab etadi. Har yili energiya ishlab chiqarish uchun 10 mlrd. tonna yoqilg'i ishlataladi. Buning 40 %ga yaqini neftga to'g'ri keladi. Neftdan tashqari, ko'mir va tabiiy gazdan ham foydalaniilib, barcha

iste'mol qilinuvchi energiyaning 90 % uglerod xomashyosi ekanligini ko'rish mumkin.

9.Energiyaning muqobil manbalariga quyosh, shamol, oqim, geotermal energiyalar va biomassa yonganida olinadigan energiya kiradi. Muqobil energiya manbalarining riqojlanishi oshib bormoqda. Keyingi yillarda fotoelektrik qurilmalar ishlab chiqarishning o'sishi yiliga 30 %ni tashkil etmoqda. Shu munosabat bilan Germaniyada 1990-yillar boshida amalga oshirilgan "Mingta tom" loyihasini eslash o'rnlidir. Ushbu loyihani amalga oshirishda xarajatlarning asosiy qismini (70 %gacha) davlat o'z zimmasiga oldi

Nazorat va mulohaza savollari

1.Iqtisodiy o'sishning chegaralari haqidagi masalalar qachon qaysi olimlarning ma'ruzalarida birinchi bor ko'tarilib chiqildi?

2.Jahonda ekologik muammolar qachon paydo bo'la boshlandi?

3.O'rmon zaxiralarini saqlab qolishning asosiy yo'llari nimalardan iborat?

4.Ekologik muammolarni hal qilishda suvdan samarali foydalanish qanday ahamiyatga ega?

5. Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi konsepsiyalari nimalardan iborat?

6.BMTning 1972-yil Stokholm konferensiyasida atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha qanday tadbirlar ishlab chiqildi?

7.Barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy g'oyasi nimadan iborat?

8."Yashil iqtisodiyot"ga o'tish shartlari nimalardan iborat?

9.Iqtisodiyotni barqarorlashtirishda energiyaning muqobil manbalaridan foydalanishning afzalliklari nimalardan iborat?

10.Kioto protokolining ekologik va iqtisodiy aspektlarini tushuntirib bering.

XIX BOB. RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY JARAYONDAGI AMALIY MOHIYATI

19.1.Raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishdagi ahamiyati

Raqamli iqtisodiyot deganda, faqatgina Blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini va ulardan xalqaro moliya bozorlarida foydalanish munulularini yoki kriptovalyutalarni tushunish kerak emas. Albatta, Blokcheyn texnologiyasi, kriptovalyutalar ham raqamli iqtisodiyotning bir bo'lagi. Lekin, raqamli iqtisodiyot (Digital Economy) deganda, riqqamli kommunikatsiyalar, IT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi.

Bunda, yashirin iqtisodiyotga barham berish vositasi sifatida ham qurash mumkin. Chunki, birinchidan, hamma amalga oshirilgan operatsiyalar elektron ro'yxatdan o'tilishiga, ikkinchidan, hamma narsa shaffof bo'lishiga erishiladi. Qolaversa, ishlab chiqarishda yangi IT qu'llunishi oqibatida mahsulot va xizmatlarning tannarxi pasayadi va ruqobatbardoshlik oshadi. Iqtisodiyotimiz raqobatbardosh bo'lmas ekan, bozor qonunlari to'liq amal qilmas ekan, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijasi ham sezilarli bo'lmaydi.

Jahon bankining "Raqamli dividendlar" nomli tadqiqoti natijalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning nuqadar dolzarb va muhim masala ekanligini ko'rsatadi. Xususan, internet tezligining 10 foizga o'sishi, mamlakat YaIMni o'sishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich, 1,21 foizni tashkil etsa, rivojlanayotgan davlatlarda 1,38 foizni tashkil etadi. Demak, internet tezligi 2 barobarga oshadigan bo'lsa, YaIM hajmi ham qariyb 15 foizga oshishiga erishish mumkin

O'zbekistonda internet tarmoq tezligini oshirish orqali YaIM hajmini ko'paytirish imkoniyatlaridan to'la foydalanimayapti. Ya'ni, internet tarmog'idan foydalanuvchilar uchun internet tarmog'i tezligi

O'zbekistonda 5,7 kbit/s ni tashkil qilmoqda, jahonda esa bu tezlik 74,5 kbit/s ekanligini ko'rish mumkin.

Ma'lumot o'mida aytish mumkinki, OECD mamlakatlari YalIM dagi raqamli iqtisodiyotning ulushi 2011-yilda Avstriyada eng kam (3,8 %) va Irlandiyada eng ko'p (12 %) ni tashkil etdi. Aholi banligi ulushi Gretsiyada eng kam (1.8 %) va Fillandiyada eng ko'p (6.3 %) ni tashkil etdi. 2015-yilda AKT tovarlarining jahon eksportidagi ulushi Xitoya 26.6% ni, Janubiy Koreyada-20%, AQSHda 7.5% va Rossiyada esa 1,5 ni tashkil qildi.

Innovatsion rivojlanish davrida raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotga ta'siri oshib bormoqda. Ayniqsa Xitoya raqamli iqtisodiyot tez rivojlanib bormoqda. Alibaba, Aliexpress, Tencent va Xiaomi kompaniyalari jahonda raqamli tovar va xizmatlar eksport oldingi o'rnlarda bormoqdalar.

Ma'lumki, O'zbekistonda asosiy ijtimoiy muammolardan biri – bu ishsizlik darajasini kamaytirishdir. Jalon tajribasi shuni ko'rsatiyaptiki, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ishsizlik darajasini kamaytirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, keyingi yillarda Xitoy va Hindistonning jahon elektron tijorat tranzaksion xarajatlardagi salmog'i 40 %dan oshdi. Ayniqsa, butun Xitoyning internet tijorat tranzaksiyalari Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya va AQSHnikidan (birgalikda olinganda) ko'pdir. 2018-yilda Xitoya 801 mln.internet xizmatidan foydalankuvchilar bo'lib, ularning 700 mln.ga yaqini mobil texnologiyalardan foydalanib biznes yurutuvchilardir.

2016-yilda Jalon bankining raqamli iqtisodiyotga moslashish indeksida (Digital Adoptuon Index) Xitoy 131 mamlakat orasida 50-chi o'rinni egallagan bo'lsa, Hindiston 61-o'rinni zabit etgan. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkida raqamli iqtisodiyotning hissasi oshib bormoqda. 2030-yillarga borib raqamli iqtisodiyotning jahon yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 40% ni tashkil etadi deb bashorat qilinmoqda.

Shu o'rinda raqamli iqtisodiyotning O'zbekistonda qay darajada rivojlanishiga bir nazar solsak. Mobil aloqalar har 100 kishiga O'zbekistonda 77,3 (jahonda 100 %) tani tashkil qiladi. Kompyuter mayjud bo'lgan xonadonlar soni har 100 xonadonga O'zbekistonda 44 ta (jahonda 47 ta), internetdan foydalanuvchilar foizi 46,8%, jahonda (~ 46 %)ni tashkil qilmoqda. O'zbekiston yuqorida qayd etilgan ko'rnatichlar bo'yicha jahonda o'rtacha ko'rsatkichlarni egallagan bo'lni-da, ammo rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha orqada. Bundan tushqari elektron biznes bilan shug'ullanish uchun IT sohasi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash lozim.

Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi.

"Raqamli iqtisodiyot" atamasi bиринчи bo'lib 1995-yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan "Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va'da va xavf-xatar" (The Digital Economy: The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) нушрида alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan. Ushbu nashrda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarimo'tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog'lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya tarmoqlari) ajratib ko'rsatiladi.

Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlataladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o'ziga xos tushuncha bo'lib, uning o'rganish obyekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o'z rivojlanishining boshlang'ich davrida bo'lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga o'tishi atiga bir necha o'n yilni tashkil etadi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko'rinishdagagi ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir.

Zamonaviy taraqqiyotning keyingi istiqbolida katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari (Big Data), sun'iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, buyumlar interneti, robototexnika va sensorika, raqamli elektron platformalar, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari, kraudsorsing, blokcheyn texnologiyalari, kriptovalyutalar va ICO, 3D-texnologiyalari singari raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko'prog'ida beqiyos o'zgarishlar keltirib chiqarishi ta'kidlanmoqda. Jumladan, Jahon banki ekspertlari fikricha, tezkor internetdan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko'payishi milliy iqtisodiyotlar yalpi hajmini har yili o'rtacha 0,4-1,4 foizga oshirish imkonini beradi.

Dunyoda raqamli iqtisodiyot o'sishining sur'atlari yiliga deyarli 20 foizni tashkil etmoqda. Taraqqiy etgan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga yetgan. Ular hozirning o'zida raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishidan juda katta naf ko'rishmoqda. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari yiliga 400 milliard AQSH dollaridan ko'proq raqamli xizmatlarni eksport qilmoqda. Mazkur davlat yalpi ichki mahsulotining 5 foizidan ko'prog'i bevosita internet va axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq sohalarga to'g'ri keladi. 2025-yilgacha AQSH sanoatni raqamlashtirishdan qo'shimcha 20 trln. dollar daromad olishi kutilmoqda. Bunday iqtisodiy samaradorlik, ayniqsa iste'mol

tovarlari ishlab chiqarish (10,3 trln. dollar), avtomobil sanoati (3,8 trln. dollar) va logistikada (3,9 trln. dollar) yuqori bo'lishi ta'kidlanmoqda.

Turli tadqiqotlar natijalari bo'yicha raqamli iqtisodiyotning dunyo **izlitsodiyotidagi salmog'i** 4,5 foizdan 15,5 foizgachani tashkil etadi. **Jahon axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorida yaratilayotgan qo'shilgan qiymatning deyarli 40 foizi** va blokcheyn texnologiyalari bilan bog'liq patentlarning 75 foizi Amerika Qo'shma Shtatlari va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri keladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil 13-iyun kuni axborot texnologiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan tadbirlar keltirgan statistik ma'lumotlariga muvofiq AQSHda raqamli **izlitsodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi** 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2 foizdan ham oshmaydi.

Raqamlashtirishning ahamiyati va ta'sirini qanchalik ortib borayotganligini baholash uchun so'nggi o'n yillikdagi bir nechta yirik texnologik kompaniyalar va raqamli platformalarning jahon bozoridagi kapitallarining ulushini ko'rish kifoya. Xususan, BMTning savdo va rivojlanish konferensiyasi ma'lumotlarida qayd etilganidek, bu ko'rsatkich 2009-yilda 16 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilning oxiriga kelib 56 foizga yetgan.

Dunyo hamjamiyatida ro'y berayotgan bunday jadal o'zgarishlar va raqobatning keskinlashuvi jarayonida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etmasdan turib, yaqin va uzoq kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, uning raqobatdoshligini ta'minlay olmasligimiz ayni haqiqat bo'lib, bu esa, o'z navbatida, ilmiy va amaliy harakatlarni kuchaytirishni talab etadi.

Bu borada, so'nggi yillarda milliy iqtisodiyotimizni tubdan modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 3-iyuldagagi PQ-3832сонли qarori qabul qilinishi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim qadam bo‘lib, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi eng muhim vazifalar belgilab berildi:

- investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan mayning, smart-kontrakt, konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug‘urtalash, kraud-funding (jamoaviy moliyalashtirish) texnologiyalarini joriy etish;
- blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish sohasida zamонавиy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi tushunadigan, amaliy ish ko‘nikmalariga ega malakali kadrlarni tayyorlash, shuningdek, yuqori malakali xorijlik mutaxassislarni jalb qilish;
- kripto-aktivlar bo‘yicha faoliyat va “blokcheyn” texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda zarur huquqiy bazani yaratish;
- raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va ishlammalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining yaqin hamkorligini ta’minalash.

Chunonchi, mamlakatimizda “Elektron hukumat” tizimini joriy etish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi ma’muriy tartib va taomillardan o‘tishni soddalashtirish, aholi turmush sifatini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan.

Belgilab olingan asosiy vazifalar ijrosini amalga oshirish, shuningdek, mamlakatimizda raqamli jamiyat rivojlanishi, aholi va tadbirkorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratish, byurokratik to‘silqlar va

korrupsiyaviy omillardan holi samarali va ochiq davlat boshqaruvi tizmini rivojlantirish borasida ko'zlangan maqsadga erishish uchun bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan "raqamli iqtisodiyot" milliy konsepsiyasini ishlab chiqilayotgan bo'lib, aynan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini qo'shimcha 30 foizga o'stirish imkoniyatini yaratilishi kutilmoqda.

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobutbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Presidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida 2020-yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berish taklifi ilgari surilishi tom ma'noda O'zbekiston hayotida global taraqqiyotga hamohang ravishda tarixiy burilish davri boshlanganini tasdiqladi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 2022-yilga kelib, global YalMning chorak qismi raqamli sohada bo'lishini taxmin qilinmoqda. Lekin, xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlantirish indeksi bo'yicha O'zbekiston 170 dan ortiq davlat ichida 103-o'rinni egallab turishining o'zi mamlakatimizda bu sohada hali o'z yechimini kutayotgan masalalar va qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'pligidan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbarining ta'kidlashicha, "...yurtimiz xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo'yicha 2019-yilda 8 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali juda ham orqada. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq,

qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin”.

O‘z o‘rnida qayd yetib etish lozimki, mamlakatimiz hayotida raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o‘tkazilishini hisobga olib, elektron imzoga ruxsat berish, davlat bilan muloqot qilish ham elektron platformalarga o‘tkazilmoqda.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning ta'biri bilan aytganda, “raqamli iqtisodiyot yangi xavf-xatarlarni vujudga keltirishi mumkin, shu jumladan, kiberxavfsizlikka tahdidlar, noqonuniy iqtisodiy faoliyatning yengillashuvi, shaxsiy hayot daxlsizligini buzilishi bilan bog‘liq sabablarni keltirish mumkin. Yangi qarorlar qabul qilish hukumatlar, fuqarolik jamiyati, akademik guruqlar, ilmiy hamjamiyat va texnologik sektorlarning hamkorlikdagi harakatini talab etadi”.

Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyot miqyosining kengayib borishida xalqaro hamkorlikni imkon qadar kuchaytirish zarur. Shu o‘rinda mammuniyat bilan qayd etish joizki, O‘zbekistonda axborot xavfsizligi sohasida olib borilayotgan ta’sirchan chora-tadbirlar natijasida 2019-yilda Kiberxavfsizlik global indeksida 41 pog‘onaga ko‘tarilib, 52 o‘rinni egalladik.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi davri va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va

davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog'liq bo'lib hormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi. Bunga erishish uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi asosiy shartlari va ustuvor yo'naliшlarini sunab o'tish maqsadga muvofiq:

➤ raqamli texnologiyalar barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun institutsional muhit va raqamli infratuzilmani yaratish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari, sog'liqni saqlash, davlat kadastri va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududini rivojlangan mamlakatlar darajasida internet global tarmog'iga ularish imkoniyatlari bilan imkon qadar to'liq qoplashni bosqichma-bosqich ta'minlash;

➤ kadrlar tayyorlash ko'lамини kengaytirish va bu yo'naliшlar bo'yicha chuqur bilimga ega malakali dasturchilar va injener-texnik xodimlarni yetishtirish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida xalqaro undozalarga to'liq javob beradigan zamonaviy axborot texnologiyalarini o'qitish, shu jumladan, xorijiy hamkorlarimiz bilan birlgilikda "1 million dasturchi" loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirish;

➤ raqamli iqtisodiyot sohasida ilmiy-nazariy bazani mustahkamlash va bu sohada "Raqamli ishonch" jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalangan holda ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash;

➤ aholining keng qatlamlari o'rtaida "raqamli savodxonlik"ni targ'ib qilish va kengaytirish, ularni axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga jaib etish maqsadida o'quv yurtlarida seminar, kurslar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

➤ raqamli iqtisodiyot sohasida me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish,

shuningdek, “startap” tushunchasi, faoliyati, vechur fondlari orqali ularni moliyalashtirishning huquqiy asoslarini yaratish;

➤ raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan mehnat bozorini tashkil etish va uning mobilligini oshirish, yangi texnologiyalarni tezkorlik bilan o‘zlashtirish uchun mutaxassislar malakasini oshirib borish;

➤ raqamli iqtisodiyot sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, yetakchi xalqaro texnologik kompaniyalar bilan o‘zaro hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan, innovatsion ishlamalar bo‘yicha zamonaviy ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyalarini tashkil etish.

Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalar va IT-kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlagan holda qulay ekotizimni yaratishi lozim.

Shuningdek, davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo‘llab-quvvatlash sohasida raqamli ta’limning zamonaviy metodlarini qo‘llab-quvvatlashi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish normalarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o‘zlashtirishda ko‘maklashishi hamda texnologik jarayonlarning chuqurlashuvida yuzaga chiqadigan risklarni pasaytirish choralarini ko‘rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning xususiyatlari va shartlari ta’kidlangan. Uning iqtisodiy o‘sish uchun ahamiyatli omillari aniqlandi, raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda investitsiyalarni qaytarish xavfi va ularni kamaytirish choralarini ko‘rib chiqilgan.

Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot 2016-2022-yillarda axborotlashtirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Ushbu davrda raqamli iqtisodiyot va axborot jamiyatini rivojlantirish dasturi amalga oshiriladi. Avvalo, biz elektron hujjat aylanish tizimlaridan foydalanish va hukumat rahbarlariga elektron

hukumat texnologiyalarini o'qitish usullari haqida gapiramiz. Ijtimoiy sohadan tortib to bank sektoriga qadar turli sohalarda harakatlar rejasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Xususan, ko'rsatilgan davrda ilbbiyotdu hujjat aylanishi to'liq shaklga, davlat tuzilmalarida – 95 foizga, davlat organlari xizmatida – kamida 75 foizga o'tkazilishi kerak. Bularning barchasi telekommunikatsiya infratuzilmasini (4C turmoqlarini joriy etish) va ma'lumotlar markazlarini rivojlantirish usosida amalga oshiriladi.

19.2. Raqamli iqtisodiyotning asosiy shartlari

HDC' tomonidan bashorat qilinganidek, 2018-yilga kelib, bugungi kunda ko'plab sohalar bo'yicha birinchi yigirmatalikka kirgan kompaniyalarning uchdan bir qismi yangi talabnomalar beruvchilar va yangi xizmatlar hamda biznes modellarini yaratish uchun elektron platformalardan foydalanadigan qayta tashkil etilgan "eski" kompaniyalarning jiddiy raqobatiga duch keladilar.

Taxmin qilinishicha, 2018-2020-yillarda, global iqtisodiy o'sishning sanoat bosqichi tugaydi va uning keyingi rivojlanishi kognitiv omillar va tobora ortib borayotgan ishlab chiqarish, qoshimchalar, nano- va biotexnologiyalar tamoyillariga asoslangan turmoqlar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Shunga muvofiq, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar hajmi ortadi; tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish bo'yicha ishlab chiqarishni boshqarishning formatlashtirilgan shakli; anholi va biznesning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari tizimida o'zgarishlar bo'ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ijobiyligi trayektoriyasiga bosqichli o'tishning asosiy omillari quyidagilar:

- elektron hukumat konsepsiyasini amalga oshirish;
- transport, uy-joy communal xo'jaligini va boshqalarni kompleks axborotlashtirish natijasida vujudga kelgan "raqamli shahar" g'oyasining timsoli;

- yangi texnologik avlod tovarlari bozorida ommaviy ko‘rinishi (masalan, uchuvchisiz transport vositalarini ishlab chiqarish va boshqalar);
 - 3D printerlardan foydalanish darajasi oshdi;
 - ko‘p sonli yangi pardozlash va qurilish materiallarini talab qiladigan "aqlli" va juda ekologik toza uy qurish g‘oyasini amalga oshirish;
 - Tanani yoshartirish, davolash bilan bog‘liq innovatsion dori-darmonlarga talabning ortishi;
 - bandlikning turli xil alternativ va bepul shakllari, shu jumladan autsorsing (buxgalteriya xizmatlari, dasturlash, ijodiy faoliyat va h.k.);
 - Potensial ish beruvchi buyurtma beradigan ko‘plab professional tarmoqlarni yaratish.

Ushbu omillar tovarlar va elektron xizmatlar kombinatsiyasi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan raqamli iqtisodiyot platformalaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish va boshqarish xarajatlarini pasaytirish bilan bog‘liq. Avvalo, xizmatlarga buyurtma berish, resurslarni almashish, kontragentlarni tanlash, elektron savdo, to‘lovlar va h.k kabi platformalar haqida gapiramiz.

Texnologik jihatdan, raqamli iqtisodiyot bu yuridik va jismoniy shaxslar birgalikda faoliyat to‘g‘risida bir-birlari bilan bog‘lanishlari mumkin bo‘lgan muhitdir. Axborot texnologiyalari tufayli zamonaviy ishlab chiqarish tobora yuqori tezlikda va turli xil xizmatlar va tovarlarga xos bo‘lib bormoqda. Ikkinchisi yangi mahsulotlarning jadal rivojlanishi va paydo bo‘lishi hamda umrining tobora qisqarishi bilan tavsiflanadi. Xizmatlar nuqtayi nazaridan raqamli texnologiyalar odadagi vazifalarni katta hajmdagi operatsiyalar bilan hal qilishni ancha arzon, tezkor, qulayroq va vositachisiz amalga oshirishi mumkin, bunga misol Uber taksiga buyurtma berish (masalan, biznesning “Uberizatsiya” so‘zi leksikon tarkibiga kiritilgan), elektron tijorat va Internet bank ishi va boshqalar. Ya’ni iqtisodiyotning ko‘plab

sohalarida rentabellikni oshirish uchun vositachilarni avtomatik tarmoq xizmatlari (yaxshi ishlaydigan veb-sayt yoki mobil ilova) bilan almashtirish mumkin. Bunday biznes tashkiloti nafaqat xizmatlarning murxini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi, balki iqtisodiyotning yangi tuzilishiga olib keladi, bunda yakka tartibdagi ishlub chiqarish va bandlikning turli shakllari ustunlik qilishi mumkin. Krowdfunding va kraudsorsing texnologiyalari yangi iqtisodiy texnologiyalar sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Vositachilarning yo'q qilinishi, Internet va aqlli avtomatlashtirilgan xizmatlarning rivojlanishi tendensiya ortiqcha qiymatni qazib olishga asoslangan iqtisodiyotdan kooperatsiya va imtiyozlar almashtinuviga asoslangan iqtisodiyotga o'tish ("birgalikda iqtisodiyot") misolidir. Shu sababli, raqobat tobora o'zaro manfaatli hamkorlik va o'zaro munosabatlarga yo'l ochib beradi va ko'p jihatdan vertikal rishtalar bo'yicha emas, balki bir-biriga qo'shimcha xizmatlarni taqdim etishda teng huquqli munosabatlarni asoslaydi. Bu xizmatlar sonining ko'payishi va xizmatlarning elektron savdosi hujmining oshishini anglatadi.

19.3. Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy ahamiyati

Turli hisob-kitoblarga ko'ra, raqamli iqtisodiyot turli sohalarning 50% dan ortig'i katta o'zgarishlarga olib keladi. Buning sababi, axborot texnologiyalari va platformalari biznes-modellarni tubdan o'zgartirishi, vositachilarni yo'q qilish va optimallashtirish orqali ularning samaradorligini oshirishdir. Jahon banki mutaxassislarining aniqlashicha, yuqori tezlikda ishlaydigan Internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko'payishi yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini 0,4 foizdan 1,4 foizgacha oshirishi mumkin.

Elektron iqtisodiyot rolining muhimligini e'tirof etish – bu har yili davlatlarning yalpi ichki mahsulotidagi ulushini qariyb 20 foizga oshirish, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 7 foizni

tashkil etadi. 2010-yilda Boston Konsalting Guruhi 20 ta mamlakat guruhi uchun raqamlashtirishni 2,3 trln. dollarga yoki yalpi ichki mahsulotining 4,1% ga baholadi. Davomli o'sish bilan 10-15 yil ichida bunday iqtisodiyotning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi, turli prognozlarga ko'ra, 30-40% ga yetadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda AKT sohasi ishchilarining qariyb 1 foizini tashkil qiladi, ularda nisbatan kam ish o'rnlari yaratiladi, ammo yuqori texnologiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan boshqa sohalardagi ishchilar soni ko'payadi (AKTda har bir kishi uchun 4,9 ish o'rni).

Raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlik va o'z-o'zini ish bilan ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar jadal kengayib bormoqda. Ko'pgina hollarda, axborot texnologiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rnlari yaratish, aholi va biznes uchun yangi xizmat turlarining paydo bo'lishi va elektron boshqaruvi loyihalari doirasida davlat boshqaruvi xarajatlarini qisqartirish shaklida dividendlar olish imkoniyatini yaratdi.

Biroq, bir qator mamlakatlarda ulardan foydalanishning jami ta'siri kutilganidan kuchsizroq bo'lib, notekis taqsimlangan. Maksimal raqamli dividendlarni olish uchun texnologiyalarning rivojlanish uchun muhim bo'lgan boshqa omillar bilan o'zaro ta'sirini, Jahon banking guruh hisobotida "analog qo'shimchalar" deb nomlanganini yaxshiroq tushunish kerak. Bular quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

- dinamik ishbilarmonlik muhitini yaratadigan korxonalar va uy xo'jaliklariga raqobat hamda innovatsiyalar uchun raqamli texnologiyalardan to'liq foydalanishga, turli xil xarajatlarni kamaytirishga, yashash muhitining farovonligini oshirishga imkon beradigan normativ-huquqiy baza;

- korxonalar va davlat xizmatchilariga axborot texnologiyalaridan foydalanishga imkon beradigan ko'nikmalar;

- axborot texnologiyalaridan foydalanishga yordam beradigan muassasalar (davlat idoralari va xususiy kompaniyalar).


Hukumatning raqamli iqtisodiyot uchun 2024-yilga mo‘ljallangan rejalari

- jahon bozorida raqobatdosh bo‘lgan kamida 10 yetakchi kompaniyaning (ekotizim operatorlari) muvaffaqiyatlari ishlashi;
- iqtisodiyotning asosiy sohalari (jumladan, raqamli sog‘lijni saqlash, raqamli ta’lim va aqlii shahar) uchun kamida 10 tarmoq (nanout) raqamli platformalarining muvaffaqiyatlari ishlashi;
- raqamli texnologiyalar va platformalarni yaratish va raqamli xizmatlarni taqdim etish sohasida kamida 500 kichik va o‘rta korxonalarning muvaffaqiyatlari ishlashi;
- axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha kadrlar tayyorlash bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining soni – yiliga 120 ming kishi;
- global o‘rtacha darajada axborot texnologiyalari sohasida vakolatlarga ega bo‘lgan oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarining soni – yiliga 800 ming kishi;
- raqamli ko‘nikmalarga ega aholining ulushi 40 foizni tashkil etadi;
- raqamli iqtisodiyot sohasidagi tugallangan loyihalar soni (kamida 100 million rubl) – 30 dona;
- raqamli iqtisodiyot sohasidagi xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha yirik loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etayotgan Rossiya tashkilotlarining soni (3 mln. AQSH dollarri);
 - internetga keng polosali ularishga ega uy xo‘jaliklarining ulushi (100 Mbit / s), uy xo‘jaliklarining umumiyligi sonida – 97 foiz;
 - barcha yirik shaharlarda (1 million kishi yoki undan ko‘p) 5G va undan yuqori darajadagi barqaror qamrov darajasi;

- davlat va jamoat institutlari o‘rtasida xavfsiz axborot almashish standartlaridan foydalanuvchi korxonalar ulushi 75 foizni tashkil etadi.

19.4.O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti

Dunyo iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotning jadal o‘sishini tasavvur qilish qiyin. Masalan, Accenture Consulting kompaniyasi 2022-yilga kelib, global YalMning chorak qismi raqamli sohada bo‘lishini taxmin qilmoqda. Buning ajablanarli joyi yo‘q, chunki 2019-yilda texnologik gigantlar davri boshlandi, bunda texnologik sohadagi 7 kompaniya eng qimmat 10 ta kompaniyalar ro‘yxatiga mahkam o‘rnashib oldi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotni rag‘batlantirish raqamlashtirish va raqamli tijoratni rivojlantirishga to‘sinqlik qiladigan to‘sirlarni olib tashlashni talab qiladi. AKT rivojlanishi indeksi bo‘yicha O‘zbekiston 170 dan ortiq davlat ichida 103-o‘rinni egallab turibdi, masalan, Misrdan oldinda, ammo Turkiya va Braziliyadan keyin.




Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muammolari rivojlanayotgan mamlakatlar duch keladigan umumiy muammolarga o'xshashdir.


Asosiy muammolardan biri telekommunikatsiya infratuzilmasi va kommunikatsiyasining pastligi. AKTga investitsiyalarning kamliyi (2017-yildagi umumiy investitsiyalarning 2,8%) tufayli respublikada bazaviy aloqa stansiyalarining zichligi juda pastligicha qolmoqda (1600 aholiga 1 ta baza stansiyasi). Bundan farqli o'laroq, Qozog'istonagi bunday minora 643, Rossiyada esa 235 aholiga AKT ehtiyojlarini qondiradi. Bu esa yomon Internet va uyali aloqa xizmatlari raqamli iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi va raqamli tafovutni kengayishiga olib keladi. MDH davlatlari bilan taqqoslaganda, 2019-yilda O'zbekistonda Internetning o'rtacha tezligi (mobil va qo'zg'almas keng polosali) taxminan ikki baravar past edi.

Raqamli ko'nikmalarning yetishmasligi raqamli transformatsiyaga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. O'zbekiston kam rivojlanayotgan davlatlar qatorida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM darajasi o'xshash mamlakatlar bilan solishtirganda (2016-yilda 100%) kattalar savodxonligining mutlaq ko'rsatkichlariga ega (masalan, Laos Xalq Demokratik Respublikasida 2015-yilda 84,66%). Boshqa tomondan, rivojlanayotgan mamlakatlarda kattalar savodxonligi darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, raqamli savodxonlik past darajada qolmoqda. Ehtimol, buni maktablarda AKTning past darajasi va tarqalishi bilan izohlash mumkin. 2017-yilda 1000 talabandan 32tasida shaxsiy kompyuterlar mavjud. Bundan tashqari, maktablardagi kompyuterlarning yetishmasligi, O'zbekistondagi shaxsiy kompyuterlarga ega uy xo'jaliklari soni, har 100 xonadonga 50tadan kompyuterni kuchaytirmoqda. Buni mehnat bozoridagi tendensiyalar ham tasdiqlaydi – O'zbekiston mehnat bozorida malakalarning yetishmasligini baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, so'rалган kompaniyalarning 68% foizi yangi nomzodlarni yollashda

asosiy sabablardan biri sifatida IT va kompyuter ko'nikmalarining ahamiyatini ta'kidlashdi.




Raqamli infratuzilmaning zaifligi va mamlakatda raqamli ko'nikmalarning yetishmasligi tufayli O'zbekistonda raqamli aylanmalar sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida qayd etilishicha, mamlakatda onlayn-savdo va savdo maydonchalari yetarli darajada emas.




Uyali aloqa, Internet, davlat xizmatlari, soliq va yig'imlar uchun onlayn to'lovlarни amalga oshirishga imkon beradigan mavjud to'lov tizimlariga (Click, Payme, M-bank, Upay, Humo, Oson va boshqalar)

qaramay; faqat 2017-yilda hisob egalarining 34% raqamli to'lovlarni amalga oshirgan yoki olgan.



Shunga qaramay, so'nggi 13 yil ichida terminal orqali bitta karta bo'yicha o'rtacha to'lov miqdori 207 ming so'mdan 2,7 million so'mgacha oshdi. 2018-yilda terminal orqali amalga oshirilgan to'lovlarning umumiy hajmi 53 trln. so'm. Garchi Parlament 2005 yilda Internet orqali qonuniy operatsiyalarni amalga oshirish uchun asos bo'lgan "Elektron raqamli imzolar to'g'risida" gi qonunni qabul qilgan bo'lsa-da, tartibga solishning yo'qligi O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirishga xalaqit beradigan asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Hozirgi vaqtida me'yoriy hujjatlar loyihibarini muhokama qilish uchun mo'ljallangan (regal.gov.uz) veb-saytda "Elektron tijorat to'g'risida" gi qonunga elektron tijorat sohasida takomillashtirilgan tartibga soluvchi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qonun loyihasi joylashtirilgan. 2017-yilda O'zbekiston elektron hukumat tizimiga davlat xizmatlarining veb-portalini ishlab chiqish bilan boshladi. 2018-yilda turli xil davlat idoralari tomonidan 127 ta onlayn xizmatlar taklif qilindi va ularning soni 3,2 millionga yetdi. Biroq, 32 milliondan foydalanuvchilar soni atigi 57,7 ming kishini tashkil etdi. 2019-yildan boshlab, davlat xizmatlarini Internet orqali olish 10% arzonroq.



Birlashgan Millatlar Tashkilotining elektron hukumat indeksi mamlakat o‘z aholisi uchun kirish va integratsiyani ta’minlash uchun axborot texnologiyalarini qanday ishlashini aks ettiradi. 2018-yilda O‘zbekiston bo‘yicha ko‘rsatkichlar MDH bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichga teng va dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori. Reytingdagi 193 mamlakat orasida O‘zbekiston 81-o‘rinni egalladi.

Va nihoyat, Internetning oshib ketgan narxi, yetarli qamrov darajasi va Internetning past xalqaro o‘tkazuvchanligi telekommunikatsiya sohasining monopolialashgan natijasidir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda telekommunikatsiyalarning bozor shakli ko‘pincha oligopoliya yoki hatto monopoliya hisoblanadi. O‘zbekistonda va boshqa MDH mamlakatlarida telekommunikatsiya sohasi asosan bitta yetakchi kompaniya bilan cheklangan, ular maxsus vakolatlarga va manbalarga ega (masalan, Rostelekom, Ukrtelekom, Kazaktelekom, Aztelekom va boshqalar). Raqamli iqtisodiyot sari muhim qadam 2020-yilga mo‘ljallangan xalqaro shlyuzlardagi davlat monopoliyasini bekor qilish bo‘ladi. Telekommunikatsiya sohasini liberallashtirish O‘zbekistonga o‘z fuqarolariga xavfsiz va arzon Internet xizmatlarini taqdim etish va raqamli iqtisodiyotdan foyda olish imkonini beradi.

2020–2022-yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida:

- aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ularish portlarini 2,5 mln gacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78%dan 95%ga yetkaziladi;
- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;
- 587 ming nafar kishini, shu jumladan «Bir million dasturchi» loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitish tashkillashtiriladi;
- iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;
- hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish uchun tegishli oliy ta’lim muassasalari biriktiriladi hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o‘qitiladi.

Dastlab 29 ta namunaviy tumanlarda (shaharlarda) 2020-yilda va 2021-yil 1 choragi yakuniga qadar raqamli transformatsiya qilish amalga oshiriladi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, uning tasarrufidagi tashkilotlar va hududiy boshqurmalarining mas‘ul rahbarlarini tegishli tumanlarga (shaharlarga) biriktiriladi. Hududiy ishchi guruhlari tashkil etildi va ular har 10 kunlikda loyihalarni amalga oshirish samaradorligi va joylarda o‘tkazilayotgan tadbirlarning amaliy ahamiyatini baholaydi.

Bundan tashqari:

- 2020-yil yakuniga qadar 13 ta namunaviy tumanlarda IT-infratuzilmasini yaratishni, kompyuter uskunalari bilan jihozlashni

nazarda tutgan holda maktabgacha va umumta'lim maktablari hamda sog'liqni saqlash muassasalarini raqamlashtirishni yakunlash bo'yicha choralar ko'rish, axborot tizimlarini joriy etish va mas'ul xodimlarni o'qitishni tashkil etiladi;

b) O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalarini biriktirilgan hududlar va tarmoqlarga ilg'or texnologiyalar va IT-yechimlarni transfert qilishda, raqamli iqtisodiyot sohasidagi loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun yetakchi kompaniyalarni jalb qilishda har tomonlama amaliy yordam ko'rsatadilar.

2020-yil 1-noyabrdan boshlab investitsiya loyihalari hamda jalb etilayotgan xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari va donor mamlakatlar mablag'lari umumiyligi miqdorining 5%dan kam bo'limgan qismi «raqamli» komponentlarga yo'naltiriladi.

Ctrategiya doirasida 2020–2022-yillarga mo'ljallangan «Yo'l xaritas»da to'rtta asosiy sohani rivojlantirish nazarda tutilgan (*quyidagi jadvalga qarang*).

Elektron hukumatni rivojlantirish	<ul style="list-style-type: none">1.01.2021-yildan boshlab tajriba tariqasida «Raqamli Toshkent» kompleks dasturi doirasida jismoniy shaxsga identifikatsiya ID-kartasini berishda davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro elektron munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun uning shaxsiy kabineti shakllantiriladi;1.07.2021-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish, patentlar, dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro'yxatga olish, jamoat transporti harakati, er resurslaridan foydalanish va boshqa umumfoydalanishdagi statistik ma'lumotlar onlayn rejimda joylashtirib borilishi
--	---

	<p>ta'minlanadi;</p> <p>1.08.2021-yildan boshlab jismoniy va yuridik shaxslarga barcha belgilangan davlat bojlari, yig'implar, jarimalar va boshqa majburiy to'lovlarni elektron to'lov tizimlaridan foydalangan holda onlayn rejimda to'lash imkoniyati taqdim etiladi</p>
Raqamli industriyani rivojlantirish	<ul style="list-style-type: none"> 1.11.2020-yildan boshlab Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidenti maqomini axborot texnologiyalariga o'qitish, apparat-dasturiy vositalarni ishlab chiqish va realizatsiya qilish, roboto-texnika, Internet tarmog'i orqali axborot xizmatlarini eksport qilish, shuningdek, ma'lumotlarni saqlash va hisoblab qayta ishslash sohasida xizmat ko'rsatadigan O'zR rezidenti hisoblangan yuridik shaxslar olishi mumkin bo'лади; <p>1.01.2022-yilga qadar masofadan kredit mahsulotlarini realizatsiya qilish, omonatlar va hisobraqamlarni ochishni o'з ichiga olgan keng turdag'i onlayn xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash orqali tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi yakuniga etkaziladi</p>
Raqamli ta'limni rivojlantirish	<ul style="list-style-type: none"> 1.01.2021-yildan boshlab fuqarolar tomonidan tizim boshqaruvi, ma'lumotlar bazasi va «bulutli» platformani boshqarish, axborot xavfsizligini ta'minlash va boshqa talab yuqori bo'lgan yo'nalishlarda xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarining 50%gacha bo'lgan qismini qoplash tizimi joriy etiladi; 1.01.2021-yilga har bir tuman va shaharda mavjud infratuzilma obyektlari negizida keng aholi qatlamlari, ayniqsa yoshlari va ayollar uchun raqamli texnologiyalar o'quv markazlari ochiladi;

	2023 yil-yakuniga qadar barcha tuman va shaharlarda o‘quvchilarning ijodiy rivojlanishi va kompyuter dasturlash asoslarini o‘rganishi uchun mavjud ta’lim muassasalari negizida 200 dan ortiq informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan mакtablar bosqichma-bosqich tashkil etiladi
Raqamli ta’limni rivojlantirish	<ul style="list-style-type: none"> 2022-yil yakuniga qadar har bir aholi punkti 10 Mbit/sdan kam bo‘lган ma’lumotlarni uzatish tezligidagi Internet tarmog‘iga ulanish imkoniyati bilan ta’minlanadi; 1.01.2022-yilga qadar barcha mashhur sayyoqlik joylari yuqori tezlikdagi Internet bilan ta’minlanadi

2021-yil 1-yanvardan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi barcha uchun ochiq bo‘lgan mahalliy dasturiy mahsulotlar va IT-xizmatlar elektron platformasini yaratiladi:

- mahalliy IT-kompaniyalar va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar hamda ularning mahsulotlari va xizmatlarining ўagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek, ularga o‘z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda ilgari surishda ko‘maklashish;
- davlat organlari va tashkilotlarida axborot tizimlari va boshqa dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha rejalashtirilayotgan loyihalar to‘g‘risida ma’lumotlarni e’lon qilish;
- mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning amaliy masalalarini hal qilish hamda axborot texnologiyalari sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish jarayonida samarali va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish.

2020-yil 1-noyabrdan:

birinchidan, yopiq binolarda aloqani tashkil etish maqsadida mobil aloqa operatorlari uchun ajratilgan radiochastota doirasida 500

mVt dan oshmaydigan quvvatda ishlaydigan baza stansiyalaridan foydalanishga ruxsatnomani rasmiylashtirish bo'yicha talablar (tasniflangan obyektlar yaqinida o'rnatiladigan mobil aloqa baza stansiyalari bundan mustasno) bekor qilinadi;

ikkinchidan, mobil aloqa operatorlari uchun:

- telekommunikatsiya qurilmalari va inshootlarining qurilish-montaj, rekonstruksiya, sinovdan o'tkazish va integratsiya qilish ishlarni yakunlash hamda tijorat maqsadida foydalanishi yo'lga qo'yish, shuningdek, telekommunikatsiya qurilmalari va inshootlarining konstruksiyasini o'zgartirish, mavjud qurilmalardagi hamda telekommunikatsiya liniyalari va inshootlaridagi uskunalarni kengaytirish bo'yicha xabardor qilish tartibi joriy etiladi;
- radioelektron qurilmalar, asbob-uskunalar va boshqa qurilmalarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish ruxsatnomasini, sotib olish, o'rnatish, loyihalash va qurish uchun ruxsatnoma olmasdan, belgilangan tartibda rasmiylashtirish huquqi beriladi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Adliya vazirligi va ularning tasarrufidagi tashkilot va bo'linmalar negizida «Raqamli idora» loyihasi amalga oshiriladi. 2022 yil boshiga kelib, bu yerda barcha ma'muriy tartib-taomillarni va operatsion jarayonlar raqamlashtiriladi, elektron hujjat aylanishi va ish yuritvi joriy qilinadi. Tajriba bosqichma-bosqich boshqa idoralarda hum joriy qilinadi. 2020-yil 1-noyabrdan boshlab barcha vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida amaldagi rahbar o'rinoslaridan biriga raqamlashtirish bo'yicha o'rinosar (Chief Digital Officer) vakolatlari yuklatiladi.

Qisqacha xulosalar

I.Raqamli iqtisodiyot deganda, faqatgina Blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini va ulardan xalqaro moliya bozorlarida foydalanish masalalarini yoki kriptovalyutalarni tushunish kerak emas. Albatta, Blokcheyn texnologiyasi, kriptovalyutalar ham raqamli iqtisodiyotning

bir bo‘lagi. Lekin, raqamli iqtisodiyot (Digital Economy) deganda, raqamli kommunikatsiyalar, IT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi.

2, “Raqamli iqtisodiyot” atamasi birinchi bo‘lib 1995-yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan “Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va’da va xavf-xatar” (The Digital Economy: The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan. Ushbu nashrda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarimo‘tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog‘lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya tarmoqlari) ajratib ko‘rsatiladi.

3 Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko‘rinishdagi ma’lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir.

4. Texnologik jihatdan, raqamli iqtisodiyot bu yuridik va jismoniy shaxslar birqalikda faoliyat to‘g‘risida bir-birlari bilan bog‘lanishlari mumkin bo‘lgan muhitdir. Axborot texnologiyalari tufayli zamonaviy ishlab chiqarish tobora yuqori tezlikda va turli xil xizmatlar va tovarlarga xos bo‘lib bormoqda. Ikkinchisi yangi mahsulotlarning jadal rivojlanishi va paydo bo‘lishi va umrining tobora qisqarishi bilan tavsiflanadi. Xizmatlar nuqtayi nazaridan raqamli texnologiyalar odatdagи vazifalarni katta hajmdagi operatsiyalar bilan hal qilishni ancha arzon, tezkor, qulayroq va vositachisiz amalga oshirishi mumkin.

5, Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot turli sohalarning 50% dan ortig‘ida katta o‘zgarishlarga olib keladi. Buning sababi, axborot texnologiyalari va platformalari biznes-modellarni tubdan o‘zgartirishi, vositachilarni yo‘q qilish va optimallashtirish orqali ularning samaradorligini oshirishdir. Jahon banki mutaxassislarining

uniqlashicha, yuqori tezlikda ishlaydigan Internet tarmog‘idan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko‘payishi yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sishini 0,4 foizdan 1,4 foizgacha oshirishi mumkin.

Nazorat va mulohaza savollari

- 1.“Raqamli iqtisodiyot” deganda nimani tushunasiz?
- 2.“Raqamli iqtisodiyot” milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir qiladi?
- 3.“Raqamli iqtisodiyot” atamasi qachon va kim tomonidan istiloh etilgan?
- 4.O‘zbekistonda “raqamli iqtisodiyot”ni rivojlantirishning quyidagi asosiy shartlari va ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?
- 5.Rivojlangan mamlakatlarda “raqamli iqtisodiyot”ning YaIMdagि ulushi necha foizni tashkil qiladi?
- 6.Internet tarmoqlaridan foydalanuvchilarning sonining ko‘payishi mamlakat YaIMga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
- 7.O‘zbekistonda “raqamli iqtisodiyot”ni rivojlantirishda qanday muammolar mavjud?
- 8.“Raqamli iqtisodiyot”ning asosiy shartlari va asoslari nimalardan iborat?
- 9.Hukumatning raqamli iqtisodiyot uchun 2024-yilga mo‘ljallangan rejalari qanday muammolarni qamrab olgan?
10. Respublikamizda 2020–2022-yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida qanday ishlarni amlga oshirish rejalashtrilgan?

GLOSSARY

Avtonom iste'mol – shaxsiy iste'mol xarajatlarining yalpi milliy daromad (shaxsiy tasarrufdagi daromad -SHTD) o'zgarishiga bog'liq bo'limgan qismi. SHTD nolga teng bo'lganda ham avtonom ist'mol to'plangan mulk va jamg'armalarning kamayishi yoki qarz hisobiga amalga oshirilaveradi.

Avtonom investitsiyalar – asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulot hajmi o'zgarishiga bog'liq bo'limgan qismi.

Avtomatik (o'rnatilgan) barqarorlashtirgichlar – byudjet-soliq siyosatining iqtisodiy tebranishlarning ta'sirini avtomatik zaiflashtiruvchi elementlari.

Akselerator) –sof investitsiyalar darajasi bilan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning o'sish sur'atlari o'tasidagi bog'liqlikni ifodalovchi iqtisodimy ko'rsatkich.

Aktivlar – iqtisodiy faoliyat subyektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlarining qiymati.

Amortizatsiya – foydalinish jarayonida asosiy kapital qiyamatining kamayishi..

Banknota– Mamlakat Markaziy banki tomonidan chiqariladigan naqd qog'oz pullar bo'lib, iqtisodiyotdagi pul taklifining bir qismini tashkil etadi.

Bank zaxiralari – bankda saqlanayotgan naqd pullar, Markaziy bankda tijorat banklari tomonidan saqlanayotgan foizsiz depozitlar.

Bank tizimi– tijorat banklari majmui. Bank tizimi jismoniy va yuridik shaxslarining omonatlarini (depozitlarini) qabul qiladi, pul o'tkazmalarini amalga oshiradi, qarz va kreditlar beradi, davlat va aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlariga investitsiya qiladi.

Baholar indeksi– tovarlar va xizmatlar, yoki aktivlar o'rtacha bahosining o'zgarishi ko'rsatkichi. Baholar indeksi bozor savati deb yuritiladigan ma'lum to'plamdag'i tovarlar va xizmatlarning joriy yildagi baholari yig'indisini bazis yildagi baholari yig'indisiga bo'lib topiladi.

Boyllik – bozor qiymatiga ega va pulga yoki boshqa ne'matlarga ulmashtinishi mumkin bo'lgan barcha narsa. Fizik aktivlar, moliyaviy aktivlar, ko'nikmalar, tadbirkorlik malakasi, savdo markalari xullas daromad keltiradigan barcha narsalar.

Byudjet taqchilligi – Moliyaviy yil natijalariga ko'ra davlat byudjetidu xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.

Valyuta kursi – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

Giperinflyatsiya – haddan tashqari inflyatsiya, narxning shiddat bilan o'sishi, pul qadrining g'oyat tez pasayishi. Inflyatsianing oylik darajasi 50 % dan ortishi va bu holat 6 oydan ortiq davom etishi uning giperinflyutsiya darajasiga o'tganligini anglatadi.

Davlat qarzi – davlatning o'z fuqarolari, banklar, korxona va tashkilotlar, shuningdek xorij mamlakatlaridan qarzi.

Daromad (income) – ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (loyda).

Debitor – korxona, tashkilot yoki muassasadon qarzi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Debitorlik qarzi – o'zaro xo'jalik aloqalarini olib boruvchi korxona, tashkilotlarning bir-biridan qarzi summasi, ya'ni korxona va tashkilotlarning olishi kerak bo'lgan qarzları.

Devalvatsiya – qayd qilingan valyut kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda hukumat tomonidan milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan kursini tushirishga qaratilgan tadbiri. Devalvatsiya to'lov balansi taqchilligini bartaraf qilish, eksportni arzonlashtirish, importni qimmatlashtirish imkonini beradi.

Demping – tovarlarni tannarxiga qaraganda yoki ichki bozordagiqa qaraganda past bahoda eksport qilish.

Deflyasiya – iqtisodiyotda baholar umumiy darajasining pasayishi.

Depozitlar – 1) moliya-kredit muassasalariga qo‘yilgan omonatlar; 2) bank daftaridagi yozuvlar; 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog‘ozlar.

Diversifikatsiya – korxonaning faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulot turlarining kengayishi.

Diskriminatsiya baholari –ma’qul kelmagan xaridorlar uchun, ayniqlsa davlatlar orasidagi munosabatlар, haqiqiy siyosiy muhit buzilgan davrda o‘rnataladi. Bu narxlar o‘ta yuqori, tovarni sotib oluvchiga bir necha marotaba qimmat qilib belgilanadi.

Dotatsiya – davlat byudjetidan qaytarib bermaslik sharti bilan mablag‘ ajratish: iqtisodiyotga byudjet orqali ta’sir etish vositalaridan biri.

Yopiq iqtisodiyot (closed economy) – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo– iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lmaydigan iqtisodiyot.

Jamg‘arishga chegaralangan moyillik – jamg‘arish hajmi o‘zgarishning bu o‘zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning (SHTDning) o‘zgarish miqdoridagi ulushi.

Jahon valyuta tizimi – jahon bozorimning rivojlanishi asosida shakllangan va davlataro bitimlar bilan mustahkamlangan xalqaro pul-kredit munosabatlari.

Jahon puli – xalqaro miqiyosida hamma uchun umumiy xarid vositasi, umumiy to‘lov vositasi, boylikning umumiy moddiy timsoli, baynanmilal qiymat ifodasi bo‘lgan pul.

Import (import) – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir.

Importga chegaralangan moyilik – importga qilingan xarajatlardagi o‘zgarishning YaIM yoki YaMD o‘zgarishiga nisbatan ulushi. importga qaratilgan xarajatlar hissasi.

Investitsiya (investment) – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli

tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

Investitsiyalarga bo‘lgan moyillik (propensity to invest) – investitsiya xarajatlarining daromaddagi hissasi.

Investor – bu qaror qabul qiluvchi va o‘zining shaxsiy, qarzga olingan mablag‘larini va boshqa jalb qilingan mulkiy va madaniy boyliklarini investitsion loyihaga kirituvchi jismoniy va yuridik shaxsdir. U omonatchi va qarz beruvchi roldida chiqishi mumkin bo‘lib umalga oshiruvchi investitsiyalarning yo‘nalishini, samarasini erkin holda aniqlaydi. Investor qarori bilan investitsiyalarga egalik qilish, ishlatish, foydalanish huquqi va ularning natijalari bilan jismoniy va yuridik shaxslarga qonunda ko‘rilgan tartibda berishi mumkin.

Indeksatsiya – iqtisodiyotdagi narxlarning o‘rtacha darajasi o‘zgarishiga bog‘liq ravishda ish haqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish.

Inflyatsiya – baholar umumiy darajasining ko‘tarilitsi, milliy pul birligi xarid qobiliyatining pasayishi.

Inflyatsiya darajasi (rate of inflation) – ma’lum vaqt ichida (oy, yil) narx darajasining foizdagi o‘zgarishi.

Iste’mol (consumption) – kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi.

Ist’emol xarajatlari – tovarlar va xizmatlarni yakuniy iste’mol qilish maqsadida xarid qilish uchun qilingann xarajatlar. Uy xo‘jaliklari va davlatning iste’mol xarajatlariga bo‘linadi. YalMning xarajatlariga ko‘ra tarkibida eng katta va barqaror komponent.

Iste’mol narxlar indeksi (cosumer price index) – o‘rtacha oila tomonidan, odatda, iste’mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxinining bazis davriga nisbatan o‘zgarishi o‘rtacha darajasini aks ettiradigan ko‘rsatkich, inflyatsiya ko‘rsatkichi sifatida ishlatiladi.

Iste’molga o‘rtacha moyillik – iste’mol xarajatlarining daromaddagi (yoki shaxsiy tasarrufdagi daromad hajmidagi) hissasi.

Iste'molga (jamg'arishga) chegaralangan moyillik – iste'mol xarajatlaridagi (jamg'arish hajmigi) o'zgarishning bu o'zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning (SHTDdagi) o'zgarish miqdoridagi ulushi.

Ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksi (producer price index) – bazis davriga nisbatan xomashyo materiallar va oraliq tovarlar narxlari o'zgarishining o'rtacha darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. Yalmni maksimal darajada detallashtirilgan komponentlari narxini solishtirma narxlarga o'tkazishda ishlatiladi.

Ishsizlik – mamlakatda ish bilan band bo'lмаган ishchi kuchi guruhining mavjud bo'lishi, aholi iqtisodiy faol qismining o'ziga ish topa olmasdan qolishi, ishchi kuchidan to'liq foydalanmaslik.

Ishsizlikning darajasi (unemployment rate) – ishsizlar umumiy sonining ishchi kuchiga bo'lgan nisbati.

Ishsizlikning tabiiy darajasi (natural rate of unemployment) – real va potensial yalpi ichki mahsulotning o'sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo'lgan ishsizlik darajasi. U shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va tarkibiy ishsizlik ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida hisoblanishi mumkin.

Ishchi kuchi – ishga layoqatli, ishlayotgan va faol ish izlayotgan aholi.

Iqtisodiy konyunktura – iqtisodiy o'sish, tuzilmaviy siljishlar, moliyaviy ahvol, eksport imkoniyatlari kabilarni xarakterlab beruvchi iqtisodiy holat.

Iqtisodiy o'sish – real yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning o'sishi.

Iqtisodiy o'sish sifati – iqtisodiy o'sishning umumlashgan sifat xarakteristikasi bo'lib, uning qanday sarflar bilan ta'minlangani va qanday ijtimoiy-iqtisodiy natija berganligini ifodalaydi.

Kvota – davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tovarlarni ishlab chiqarish, ularni eksport va import qilish yuzasidan cheklashlarning

jorly etilishi, kvota o'rnatish xalqaro bitimlarga binoan amalga oshirildi.

Kechiktirilgan talab – bozordagi takchillik tufayli kerakli tovar toplimasdan, qondirilish muddati orqaga surilgan talab.

Konyunktura – bozorning alohida segmentida talab, taklif, narx va ruqobat holatini xarakterlovchi omillar tizimi.

Kutilayotgan inflyatsiya darajasi – mavjud ijtimoiy – iqtisodiy uxborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

Likvidlilik – a) turli firmalar va banklarning o'z qarzini to'lay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati; b) bir aktivning ikkinchisiga qanchalik tez almashina olinishi o'lchovi. Naqd pul eng yuqori 100% likvidlilikka ega.

Likvidlilik tuzog'i – foiz stavkasi juda past bo'lgan shunday vaziyatki, odamlar pulni naqd ko'rinishda saqlab turishni afzal ko'radilar. Tadbirkorlar esa foiz stavkasi bundan ko'ra pasayishi mumkin emasligi sababli investitsiyalarni ko'paytirmaydilar. Minimal foiz stavkasi sharoitida pulga talab egrir chizig'i cheksiz elastik bo'lib qoladi.

Markaziy bank – Mamlakatning bosh banki. Asosiy funksiyasi mamlakat iqtisodiyotidagi pul massasini nazorat qilishdan iborat. Markaziy bank mamlakatlarning jami kredit tizimiga rahbarlik qiladi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, pul va qimmatli qog'ozlar emissiyasini monopol huquqida amalga oshiradi.

Milliy valyuta – muayyan mamlakatning pul birligi.

Milliy valyutaning qadirsizlanish – qayd qilinmagan valyuta kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda chet el valyutalariga nisbatan milliy valyutaning kursining kamayishi.

Milliy valyutaning qimmatlashishi – qayd qilinmagan valyuta kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda chet el valyutalariga nisbatan milliy valyutaning kursining ko'tarilishi.

Moliya bozori – mamlakatdagi moliya xizmatlari bozori: moliya mablag‘lariini vaqtincha haq to‘lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo‘lgan munosabatlari.

Narxlar indeksi (price index) – har xil vaqt oralig‘ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanati o‘zgarishini aks ettiruvchi ko‘rsatkich.

Narxlar korrektirovksi (price adjustment) – bozor vaziyati o‘zgarishiga narxlarning moslashuv jarayoni.

Nisbiy afzallik (comparative advantages) – ayrim iqtisodiy agentlarning tovar va xizmatlarni kamroq xarajatlar evaziga ishlab chiqarish xususiyati. Makrodarajada nisbiy afzallik prinsipi ishlab chiqarish va eksportning samarali strukturasini shakllantirish uchun qo‘llaniladi.

Nominal YalIM – joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi ichki mahsulot.

Oraliq iste’mol (intermediate consumption) – ishlab chiqarishning bir bosqichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning boshqa bosqichida mehnat predmetlari sifatida ishlatilishi.

Oraliq mahsulot – ishlab chiqarish va muomala jarayonidan chiqib ketmagan, yakuniy iste’mol uchun yetib bormagan, qayta ishslash yoki sotishga mo‘ljallangan mahsulot.

Ortiqcha talab – mavjud baholar darajasida tovarlar va xizmatlar taklifidan ularga bo‘lgan talabning ko‘pligi. To‘liq bandlilik sharoitida inflyatsiya darajasining oshishiga olib keladi.

Ochiq iqtisodiyot (open economy) – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo– iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega bo‘lgan iqtisodiyot.

Potensial YalIM – to‘liq bandlilik sharoitida, yoki mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchidan to‘liq foydalanish hisobiga erishilishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish hajmi.

Pul aktivlari – ma’lum sohada korxonaning hisob raqami, kassasida bo‘lgan pul mablag‘lari.

Pul bazasi – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va Markaziy bankdagi tijorat banklarining zaxiralarini

Pulga bo‘lgan talab – uy xo‘jaliklari va firmalar tomonidan bitimlarda to‘lov vositasi sifatida foydalanish, ko‘zda tutilmagan xurajutlar uchun saqlab turish, moliyaviy aktivlar sifatida foydalanib daromad olish uchun jamg‘arish maqsadida ega bo‘lishga intilgan pul miqdori.

Pulning miqdoriy nazariyasi – pul taklifi va iqtisodiyotdagi buholarning umumiy darajasi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni o‘rnatuvchi nazariya. Birinchi bor ingliz faylasufi va iqtisodchisi D.Yum tomonidan XVIII asrda ilgari surildi, amerikalik iqtisodchi I. Fisher tomonidan 1911-yilda rivojlantirildi va keyinchalik Kebrij universiteti iqtisodchilari tomonidan takomillashtirildi.

Pulning xarid qobiliyati – aniq pul birligining bozordagi ta’rif va narxlar darajasi sharoitida ma‘lum miqdordagi tovar va xizmatlarga almashinuv qobiliyati.

Raqobat – mustaqil ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foya keltiradigan narxda, kutta hajmda sotish, bozorda o‘z mavqeini mustahkammlash uchun kurash.

Raqobat ustunligi – kapital va aktivlar mukamal tuzilishi, muamala xarajatlarining past darajasi, boshqarishni yaxshi tashkil etish xisobiga bozorning boshqa ishtirokchilaridan ustunlik.

Real almashinuv kursi – ikkala mamlakatdagi baholar durajasining o‘zaro nisbatini hisobga oluvchi almashinuv kursi. Solishtiralayotgan mamlakatlardagi nominal almashinuv kursini baholar indekslarining o‘zaro nisbatiga ko‘paytirish yo‘li bilan topiladi..

Real YaIM – qiyosiy baholarda aks ettirilgan YaIM. U joriy baholarda hisoblangan nominal YaIMni deflyatorga bo‘lib topiladi.

Real foiz stavkasi – inflyatsiya sur’ati hisobga olinib, tuzatilgan nominal foiz stavkasi.

Revalvatsiya – qayd qilingan valyuta kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda hukumat tomonidan milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan kursini oshirishga qaratilgan tadbiri. Importni arzonlashtiradi va eksportni qimmatlashtiradi.

Rezident – xo‘jalik faoliyatida milliy qonunchilikka to‘liq amal qiladigan, mazkur mamlakatda ro‘yxatga olingan yoki doimiy yashaydigan yuridik yoki jismoni shasx.

Rezerv valyuta – xalqaro hisob-kitob ishlarida, jumladan savdosoti, kredit va investitsiya ishlarida, shuningdek, xorijiy valyuta rezervlarini jamlashda qo‘llanadigan, jahon bozorida tan olingan, lekin kelib chiqishi milliy bo‘lgan valyuta.

Reeksport – mamlakatga oldin import qilingan tovarlarни hech qanday savdo-texnologik ishllov bermasdan eksport qilish.

Sof ichki mahsulot (sof milliy daromad) – makroiqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib, YaIM (YAMD) dan amortizatsiya ajratmalari miqdorini ayirib tashlash yo‘li bilan topiladi.

Soliq islohoti – soliq tizimini qayta ko‘rish va uni yangilash, moliyaviy munosabatlarning o‘zgarishi tufayli yuzaga keladi.

Soliq obyekti – soliq solinadigan daromad yoki mol-mulk.

Soliq tizimi – davlat foydasiga undiriladigan soliqlar turi mujmui.

Soliq yuki – milliy iqtisodiyot darajasida davlat byudjetiga soliq tushumlarining (YaIMning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanadigan qismining) YaIM dagi ulushi. Korxona darajasida korxona yil davomida to‘lagan jami soliqlar hajmining shu davrda olingan daromadlaridagi ulushi.

Stagflyasiya – iqtisodiyotda baholar va ishsizlik darajalarining bir vaqtning o‘zida o‘sishi.

Subvensiya – davlat byudjetidan muhim xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy tadbirlarni amalga oshirish uchun hokimiyat organlariga ajratilgan pul mablag‘i.

Subsidiya (subsidy) – davlat byudjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag‘. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Tulub infliyatsiyasi – iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo‘lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqqan infliyatsiya.

Tashqi dunyo – shu mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institutsional sektor.

Tarkibiy ishsizlik – iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish oqibatida ishechi kuchiga talab tarkibida o‘zgarish ro‘y berishi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlikning ko‘rinishi.

Uzoq muddat davomida ishlatiluvchi tovarlar (durable goods) – Inte molchilarga uzoq vaqt xizmat qiladigan (1 yildan kam) tovarlar. Bunday tovarlarga avtomobil, xolodilniklar va boshqa turdagи maishiy xizmat vositalari kiradi.

Transfert to‘lovlari – evaziga hech qanday tovar yoki xizmatlar olinmaydigan davlat xarajatlari (pensiya, stependiyalar, ishsizlik nafaqasi va boshqalar).

Filips egri chizig‘i – ishsizlik darajasi dinamikasi (abssissa o‘qi) va infliyatsiya sur‘ati (ordinata o‘qi) orasidagi bog‘liqlikni grafikda tasvirlovchi egri chiziq.

Fisher samarasasi – infliyatsiyaning qarzlar yoki obligatsiyalar bo‘yicha foiz stavkasiga ta’sirini hisobga olishni bildiruvchi tushuncha.

Frikcion ishsizlik (frictional unemployment) – bir ishdan boshqa bir ishga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan vaqtinchalik ishsizlik.

Foiz (interest) – daromad, o‘z mulkining boshqa jismoniy va huquqiy shaxslarga foydalanimishga berib, shundan foyda olish.

Foiz stavkasi (interest rate) – kredit yoki qarz kapitali evaziga to‘loving foiz ko‘rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisining bir birligiga to‘g‘ri keladigan yillik to‘lovni aks ettiradi.

Xalqaro savdo nazariyasi – iqtisodiy nazariyaning bir qismi. Ishlab chiqarish tva ayirboshlashga xalqaro ixtisoslashuv sabablarin, hamda bundan mamlakatlar oladigan manfaatlarni o‘rganadi.

Xarid qobiliyati pariteti – valyutalar almashinuv kurslarining shunday darajasiki, bunda har bir valyutaning xarid qobiliyati tenglashadi.

Eksport – tovarlar, xizmatlari va kapitalni mamlakat tashqarisiga sotish; mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun boshqa mamlakatlar jismoniy shaxslari, firmalari va hukumatlarining qilgan xarajatlari..

Emissiya – yangi pullar yoki qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish. Pul emissiyasi davlat (Markaziy bank) tomonidan amalga oshiriladi.

Yalpi ichki mahsulot – ma’lum vaqt davomida mazkur mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy mahsulotlarning bozor baholari yig‘indisi.

YalM darajalaridagi farqlar (GNP gap) – potensial va real YalMning darajalari orasidagi farqlar.

Yalpi milliy daromad – Mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarishda ishtirok etish natijasida hamda mulklaridan olgan boshlang‘ich daromadlari yig‘indisi.

Yalpi taklif – mamlakatda, ma’lum vaqt davomida, tadirkorlik sektori va davlat tomonidan ishlab chiqarilgan va baholarning turli darajasida taklif qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiyligi.

Yalpi talab – uy xo‘jaliklari, firmalar, davlat va xorjiliklar tomonidan mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni baholarning turli darajasida sotib olishga qilingan xarajatlarning umumiyligi yig‘indisi.

O‘zgaruvchan almashuv kursi (flexible exchange rate) – ichki muvozonatni tiklash maqsadida mamlakat almashuv kursiga ega bo‘ladigan xalqaro hisob-kitoblar tizimi.

Qayd etilgan valyuta kursi (fixed exchange rate) – Markaziy bank tomonidan valyuta intervensiysi yordamida ta'minlab turiladigan valyuta kursi.

Hisob stavkasi(qayta moliyalash stavkasi) – Markaziy bank tijorat banklari veksellarini hisobga olishda va ularga kredit berishda qo'lluydigan foiz stavkasi.

**Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot
manbaalari**
Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси–Т.: Ўзбекистон. 2018, 76 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвинг Олий Мажлис Сенатининг йигирманчи ялпи мажлисидаги шутки #Халқ сўзи газетаси, 2019 йил 21 июнъ.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвинг Олий Мажлисга Мурожатномаси #Халқ сўзи газетаси, 2020 йил 30 декабрь.
4. Djumaev Z.A. Makroistisodiyot. O'quv qo'llanma-N. «Innovatsion rivojlanish nashriyot– matbaa uyi» 2018 -300 bet.
5. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 9 th edition. Harvard University NY.: Worth Publishers.2016
6. Abel A.B., Bernanke B.S., Croushore D. Macroeconomics. 8 th edition. USA: Amazon, 2013.
7. Мирапольского Д.Ю., Бродский Т.Г., Макроэкономика . Учебник для вузов– СПб.: Питер, 2018, 368 с.
8. Кураков, Л.П. Экономика: учебник / Л.П. Кураков, А.Л. Кураков, А.В. Тимирясова. – Чебоксары: Изд-во Чуваш. ун-та, 2010, 532 с.
9. Кураков, Л.П. Экономика: учебник для вузов / Л.П. Кураков, Г.Е. Яковлев. – М.: Гелиос АРВ, 2011, 540 с.

10. Кураков, Л.П. Экономическая теория: учеб. пособие / Л.П. Кураков, М.П. Владимирова, В.Л. Кураков. – Чебоксары: Изд-во Чуваш. ун-та, 2006, 696 с.
11. Золотарчук В.В. Макроэкономика: Учебник. -М.: ИНФРА-М. 2015, 537 с.
12. Гусейнов Р.М., Семеникина В.А. Макроэкономика. Учебное пособие –М.: 2014, 254 с.
13. Воронин А.Ю., Киришин Н.А. Макроэкономика-1. Учебное пособие.-М.: НИЦ Инфра-М. 2013, 110 с.
14. Иvasенко А.Г., Никонова Я.И. Макроэкономика. Учебное пособие– Москва: КюоРус, 2016, 314 с.
- 52.Ishmuhamedov A.E., Djumaev Z.A., Jumaev ^ Q.X. Makroiqtisodiyot: O‘quv qo‘llanma.T.: O‘zbekiston Yozuvchilar yushmasi aqdabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005, 192 bet.

Qo‘sishimcha adabiyotlar

16. Ахмедов Д.К., Ишмухамедов А.Э., Жумаев Қ.Х., Джумаева З.А. Макроиқтисодиёт. Ўкув қўлланма! –Т.: “Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси нашриёти”, 2004, 240 бет.
17. Марыганова Е.А., Шапиро С.А. Макроэкономика . Экспресс курс.: Учебное пособие-М: КНОРУС, 2010, 302 с .
18. Весканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика; Учебник для вузов. СПб.: Питер, 2009, 350 с.
19. Самуэльсон,. Пол Э., Нардхаус, Вильям Д. Микроэкономика. Учебное пособие М.: ООО “ И. Д. Вильямс”, 2009, 592 с.
20. Агапова Т.А. , Серегина С.Ф. Макроэкономика. Учебник. М.: ” Дело и Сервис”, 2005, 464с .
21. Shakarov A.B., Turdibekov X.I., Abdurakimov F.B. Makroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma.T: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti.2010, 210 b.

22. Shakarov A.B., Ulashev X.A., Makroiqtisodiyot.O‘quv qo‘llanma.T: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti.2020 y-314 b.

23. Ўзбекистон рақамларда 2018-2019. Ўзбекистон Республикасининг йиллик статистик тўплами–Т 45 Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси.2019, 130 стр.

Internet saytlari

24.[http:// www.gov.uz](http://www.gov.uz)-Ўзбекистон Республикаси Хукумат портали.

25.[http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz) –Ўзбекистон Республикаси Конун Ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

26.<http://www.mineconomy.uz> – Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва саноат вазирлиги.

27.<http://www.mf.uz> – Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги сайти.

28.<http://www.stat.uz> – Ўзбекистон Республикаси статистика қўмитаси.

29.<http://www.soliq.uz> – Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитаси сайти.

30.<http://www.cbu.uz> – Ўзбекистон Республикаси Марказий банки сайти.

31.<http://www.worldbank.org> сайти– Жаҳон банки сайти.

32.<http://www.ebrd.org>. –Европа тикланиш атараққиёт банки.

33.<http://www.science direkt.com> – Халқаро илмий мақолалар сайти.

1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti

(*Joriy narxlarda, mlrd. so‘m*)

IFUT- 2 kodi	Iqtisodiy faoliyat turi	2017-yil	2017-yil	2019-yil	2020-yil
		yanvar- dekabr	yanvar- dekabr	yanvar- dekabr	yanvar- dekabr
	YalIM	302 536,8	406 648,5	510 117,2	580 203,2
	shu jumladan:				
	Yalpi qo‘shilgan qiymat	267 744,8	361 072,7	464 854,5	535 831,0
A	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	90 983,9	113 660,7	130 306,9	151 251,0
V	Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	10 433,7	20 057,0	31 337,8	23 139,8
C	Ishlab chiqaradigan sanoat	43 861,9	68 971,8	94 749,7	116 839,3
D	Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	4 772,8	5 869,9	9 055,0	11 768,7
E	Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	502,0	905,2	960,7	980,2
F	Qurilish	15 228,6	22 101,1	30 595,4	37 488,5
G	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	19 560,6	24 233,5	29 307,2	34 060,4
I	Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 980,0	2 514,4	3 194,5	3 134,0
H	Tashish va saqlash	19 655,9	23 611,3	29 243,0	29 719,3
J	Axborot va aloqa	5 649,6	7 004,7	7 387,4	8 812,2
K	Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	9 230,3	12 531,9	18 648,7	29 244,2

I.	Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	6 989,7	8 848,6	11 343,3	12 345,8
M	Professional, ilmiy va texnik faoliyat	2 249,0	3 591,4	5 301,4	6 719,2
N	Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	3 864,4	5 232,3	6 433,1	6 991,8
O	Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	9 069,0	15 069,4	20 081,9	23 371,8
P	Ta'lim	17 041,5	21 057,6	29 811,1	32 390,7
Q	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6 308,4	8 204,5	12 588,3	17 049,0
R	San'at, ko'ngil ochish va dam olish	711,3	1 089,2	1 607,2	1 899,1
S	Boshqa turdag'i xizmatlar ko'rsatish	3 655,4	4 493,0	5 710,5	6 088,4
	Bilvosita hisoblanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari (-)	-4 003,2	-7 974,8	-12 808,6	-17 462,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	34 792,0	45 575,8	45 262,7	44 372,2

Milliy hisoblar, yillik

2-ILOVA

	2010y.	2015y.	2018y.	2019y.	2020y.
Joriy narxlarda ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, milliy valyutada, mlrd. so‘m	74 042,0	210 183,1	406 648,5	510 117,2	580 203,2
Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	64 578,4	190 036,2	361 072,7	464 854,5	535 831,0
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	21 251,3	64 680,3	113 660,7	130 306,9	151 251,0
Sanoat	12 997,3	38 466,6	95 803,9	136 103,2	152 728,0
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	3 298,7	6 449,1	20 057,0	31 337,8	23 139,8
Ishlab chiqaradigan sanoat	8 036,6	28 353,9	68 971,8	94 749,7	116 839,3
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	1 593,2	3 391,6	5 869,9	9 055,0	11 768,7
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	68,8	272,0	905,2	960,7	980,2
Qurilish	3 760,6	11 382,6	22 101,1	30 595,4	37 488,5
Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5 982,7	16 145,3	26 747,9	32 501,7	37 194,4
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	5 551,5	14 819,2	24 233,5	29 307,2	34 060,4
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	431,2	1 326,1	2 514,4	3 194,5	3 134,0
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	7 337,8	19 158,2	30 616,0	36 630,4	38 531,5
Tashish va saqlash	6 090,0	15 670,5	23 611,3	29 243,0	29 719,3
Axborot va aloqa	1 247,8	3 487,7	7 004,7	7 387,4	8 812,2
Boshqa turdag'i xizmatlar ko‘rsatish	13 248,7	40 203,2	72 143,1	98 716,9	118 637,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	9 463,6	20 146,9	45 575,8	45 262,7	44 372,2
Doimiy narxlarda ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, o‘tgan yil narxlarida, milliy valyutada, mlrd. so‘m	62 248,4	190 347,8	319 014,3	430 227,9	518 522,9
Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	54 936,5	170 777,5	282 170,7	382 520,3	472 631,1
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	17 878,4	56 884,8	91 214,6	117 170,1	134 164,0
Sanoat	11 370,3	33 845,1	66 030,0	100 559,3	136 997,9

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	2 973,4	5 577,8	13 202,9	19 928,8	24 488,5
Ishlab chiqaradigan sanoat	6 895,4	25 101,1	47 347,5	73 535,8	101 439,1
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	1 445,9	2 943,9	4 920,7	6 169,2	10 185,8
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	55,6	222,4	558,9	925,4	884,5
Qurilish	3 297,8	10 808,7	17 405,7	27 160,0	33 402,0
Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5 261,1	15 398,3	22 693,1	28 664,3	32 546,7
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	4 903,0	14 095,8	20 561,0	25 952,5	29 801,9
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	358,1	1 302,5	2 132,1	2 711,8	2 744,8
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	6 500,8	18 036,5	27 046,2	32 640,1	35 840,2
Tashish va saqlash	5 111,7	14 614,8	20 518,3	25 054,6	27 289,7
Axborot va aloqa	1 389,1	3 421,7	6 527,9	7 585,4	8 550,5
Boshqa turdag'i xizmatlar ko‘rsatish	10 628,0	35 804,2	57 781,1	76 326,4	99 680,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	7 311,9	19 570,2	36 843,6	47 707,6	45 891,7
Doimiy narxlarda ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, o‘tgan yil narxlarida, foiz hisobida	107,3	107,4	105,4	105,8	101,6
Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	107,7	107,6	105,4	105,9	101,7
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	106,1	106,1	100,3	103,1	103,0
Sanoat	105,9	105,3	110,8	105,0	100,7
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	94,8	102,9	126,5	99,4	78,1
Ishlab chiqaradigan sanoat	108,9	105,9	107,9	106,6	107,1
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	118,5	105,1	103,1	105,1	112,5
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	118,6	106,8	111,3	102,2	92,1
Qurilish	104,2	118,8	114,3	122,9	109,2
Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	116,5	111,3	105,4	107,2	100,1

Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	116,3	110,8	105,1	107,1	101,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	118,3	116,4	107,7	107,9	85,9
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	112,6	106,1	106,9	106,6	97,8
Tashish va saqlash	108,5	104,0	104,4	106,1	93,3
Axborot va aloqa	130,9	115,9	115,5	108,3	115,7
Boshqa turdag'i xizmatlar ko'rsatish	106,8	108,2	104,8	105,8	101,0
Mahsulotlarga so'f soliqlar	104,1	106,5	105,9	104,7	101,4
Joriy narxlarda yakuniy iste'mol usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, milliy valyutada, mlrd. so'm	74 042,0	210 183,1	406 648,5	510 117,2	
Yakuniy iste'mol xarajatlari	52 100,3	159 146,3	284 683,7	362 464,7	
Uy xo'jaliklari	41 530,2	127 249,2	223 635,1	271 124,9	
Davlat boshqaruvi organlari	9 871,2	30 141,1	57 179,4	86 213,2	
Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari	698,9	1 756,1	3 869,2	5 126,6	
Yalpi jamg'arish	19 608,3	54 784,2	153 072,7	230 469,5	
Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi	17 832,3	48 897,7	133 906,0	208 636,9	
Tovar moddiy zaxiralarining o'zgarishi	1 776,0	5 886,5	19 166,7	21 832,6	
Tovarlar va xizmatlar eksport-import saldosi	6 049,9	468,8	-42 874,9	-59 837,2	
Tovarlar va xizmatlar eksporti	20 668,1	32 225,4	114 033,4	154 365,9	
Tovarlar va xizmatlar importi	14 618,2	31 756,6	156 908,3	214 203,1	
Statistik tafovut	-3 716,5	-4 216,3	11 767,1	-22 979,9	
Doimiy narxlarda yakuniy iste'mol usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, o'tgan yil narxlardida, milliy valyutada, mlrd. so'm	62 248,4	190 347,8	319 014,3	430 227,9	
Yakuniy iste'mol xarajatlari	44 695,9	145 448,9	233 633,7	300 586,6	
Uy xo'jaliklari	36 019,0	117 497,3	189 138,2	236 237,2	
Davlat boshqaruvi organlari	8 172,8	26 412,1	41 922,2	60 439,8	
Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari	504,0	1 539,5	2 573,3	3 909,6	
Yalpi jamg'arish					
Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi	15 781,0	45 359,9	100 424,1	184 924,2	

Tovar moddiy zaxiralarining o'zgarishi					
Tovarlar va xizmatlar eksport-import saldosi					
Tovarlar va xizmatlar eksporti	17 642,4	32 147,0	72 060,3	137 632,4	
Tovarlar va xizmatlar importi	13 454,7	28 652,9	100 051,1	196 079,4	
Statistik tasovut					
Dolimli narxlarda yakuniy iste'mol usulida boshlangan yalpi ichki mahsulot , o'tgan yil narxlariida, foiz hisobida	107,3	107,4	105,4	105,8	
Yakuniy iste'mol xarajatlari	109,9	110,9	105,7	105,6	
Uy xo'jaliklari	110,8	112,0	105,9	105,6	
Davlat boshqaruvi organlari	107,0	106,7	104,8	105,7	
Uy xo'jaliklariga xizmat ko'shatuvchi notijorat tashkilotlari	99,6	103,0	103,3	101,0	
Yalpi jumg'arish					
Axoniy kapitalning yalpi jumg'arilishi	104,2	109,4	129,9	138,1	
Tovar moddiy zaxiralarining o'zgarishi					
Tovarlar va xizmatlar eksport-import saldosi					
Tovarlar va xizmatlar eksporti	102,0	102,3	109,3	120,7	
Tovarlar va xizmatlar importi	97,2	88,8	138,5	125,0	
Statistik tasovut					

3-ILOVA

Investitsiyalar va qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari

	2010	2015	2018	2019	2020-yil yanvar- dekabr
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar – jami, mlrd. so'm	16463,7	44810,4	124231,3	195927,3	202000,1
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning YalMdagi ulushi, % da	22,2	21,3	30,6	38,3	34,8
Uy-joy va ijtimoiy-soha obyektlarini yangi qurilish va rekonstruksiya hisobiga ishga tushirish:					
Uy-joylarning umumiy maydoni ming m²	8859,2	12052,7	13398,6	15501,5	12677,4
umumta'lim maktablari, ming o'quvchi o'rinni	12,9	57,9	80,4	114,1	112,3
kasb-hunar kollejlari, ming o'quvchi o'rinni	23,5	3,2	-	-	-
litseylar, ming o'quvchi o'rinni	2,3	1,5	-	-	-
akademik, ming o'quvchi o'rinni	x	0,8	-	-	-
ixtisoslashtirilgan, ming o'quvchi o'rinni	x	0,7	-	-	-
kasalxonalar, ming yotoq	2,5	10,3	6,1	7,4	4,1
poliklinika muassasalari, shu jumladan qishloq vrachlik punktlari, smenada ming qatnov	5,6	7,3	20,0	20,7	5,1
Qurilish ishlari, mlrd. so'm	8245,8	25423,1	51129,3	71156,5	87823,8

4-ILOVA

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (foizda)

	Korxonalar va aholining o'z vostitalari					ulardan:				
	Qabul qilingan mablag'lar					ulardan:				
	davlat byudjeti	banklarning kreditlarva hoshqa qarz mablag'ları	chet el investitsiyalari va kreditlari	Korxonalar va aholining o'z vostitalari	Qabul qilingan mablag'lar	davlat byudjeti	banklarning kreditlarva hoshqa qarz mablag'ları	chet el investitsiyalari va kreditlari		
	2016									
O'zbekiston Respublikasi	54,4	45,6	4,3	10,8	20,7	47,3	52,7	4,8	12,6	23,8
Qoraqal-pog'iston Respublikasi	35,2	64,8	2,5	6,1	44,6	62,8	37,2	7,4	12,2	10,0
<i>Viloyatlar:</i>										
Andijon	67,6	32,4	3,2	17,4	4,9	65,6	34,4	4,0	18,1	7,2
Buxoro	39,5	60,5	1,1	4,1	52,4	20,6	79,4	0,9	3,8	71,0
Jizzax	62,9	37,1	4,3	16,6	7,3	55,4	44,6	6,7	18,6	10,8
Qushqadaryo	53,5	46,5	1,4	4,3	27,5	39,1	60,9	1,5	5,6	18,0
Nuvoiy	50,0	50,0	4,9	6,3	5,1	46,5	53,5	5,1	10,9	24,2
Namangan	50,9	49,1	2,5	17,3	22,6	49,9	50,1	3,6	11,6	31,6
Namangan	76,3	23,7	4,5	9,9	2,2	68,4	31,6	5,5	18,6	2,8
Surxondaryo	58,7	41,3	7,8	14,2	9,8	50,0	50,0	7,1	14,3	11,5
Sirdaryo	41,2	58,8	22,9	17,8	7,7	38,7	61,3	18, 7	30,2	4,6
Toshkent	58,6	41,4	5,1	18,5	13,7	51,4	48,6	4,3	21,3	12,0
Farg'onma	61,8	38,2	10,3	13,2	8,9	67,9	32,1	8,2	14,7	5,8
Xorazm	70,5	29,5	4,9	13,1	5,8	64,5	35,5	6,9	13,3	6,8
Toshkent sh.	56,1	43,9	4,4	13,0	16,4	52,8	47,2	7,2	16,2	18,1

O'zbekiston Respublikasi	Korxonalar va aholining o'z vositalari						ulardan: 2018														
	Qabul qilingan mablag'lar			davlat byudjeti																	
	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lar	chet el investitsiyalari va kreditlari	Korxonalar va aholining o'z vositalari	Qabul qilingan mablag'lar	davlat byudjeti	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lar															
Qoraqalpog'i ston Respublikasi	42,0	58,0	4,5	17,8	24,3	29,3	70,7	9,0	13,8	43,6	37,9	62,1	3,0	14,1	23,7	34,3	65,7	15,3	7,1	36,9	
Viloyatlar:																					
Andijon	47,8	52,2	4,1	25,7	14,8	38,2	61,8	8,6	12,3	39,6	35,5	64,5	2,4	13,9	44,0	28,9	71,1	7,1	9,1	53,9	
Buxoro	35,5	64,5	2,4	13,9	44,0	28,9	71,1	7,1	9,1	53,9	44,3	55,7	9,4	26,8	8,7	22,5	77,5	10,8	15,6	48,8	
Jizzax	33,6	66,4	1,9	6,3	51,1	22,2	77,8	3,7	3,0	70,3	Qashqadaryo	37,1	62,9	0,7	6,0	34,0	15,7	84,3	2,8	22,1	39,9
Navoiy	37,1	62,9	0,7	6,0	34,0	15,7	84,3	2,8	22,1	39,9	Namangan	29,7	70,3	2,8	15,7	33,5	29,4	70,6	4,9	15,9	45,8
Samarqand	57,5	42,5	2,7	27,1	47	38,5	61,5	12,1	20,0	27,8	Surxondaryo	34,9	65,1	3,2	28,9	21,4	15,7	84,3	5,8	11,1	66,3
Surxondaryo	34,9	65,1	3,2	28,9	21,4	15,7	84,3	5,8	11,1	66,3	Sirdaryo	34,9	65,1	9,6	36,1	9,6	20,4	79,6	10,5	22,4	44,8
Toslikent	51,0	49,0	3,4	20,7	9,6	38,6	61,4	11,5	16,2	26,0	Farg'onha	46,1	53,9	3,6	22,9	19,4	34,7	65,3	8,1	13,7	42,7
Xorazm	49,1	50,9	5,0	25,0	8,5	32,8	67,2	9,5	13,6	42,5	Xorazm sh.	49,7	50,3	6,0	20,3	15,1	36,6	63,4	7,6	16,1	36,7

O'zbekiston Respublikasi	Korxonalar va aholining o'z vositalari						ulardan: 2020 yil yanvar-dekabr			
	Qabul qilingan mablag'lar			davlat byudjeti						
	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag' - lari	chet el investitsiyalari va kreditlari	Korxonalar va aholining o'z vositalari	Qabul qilingan mablag'lar	davlat byudjeti	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag' - lari				
Qoraqalpog'i ston Respublikasi	34,6	65,4	6,5	14,1	42,9	34,1	65,9	10,9	7,0	46,0
Viloyatlar:										
Andijon	39,1	60,9	6,8	12,9	40,0	34,7	65,3	5,9	9,5	49,5
Buxoro	31,6	68,4	5,4	15,2	45,6	31,6	68,4	5,4	15,2	45,6
Jizzax	23,4	76,6	3,6	4,5	66,8	23,4	76,6	3,6	4,5	66,8
Qashqadaryo	17,7	82,3	1,9	7,6	70,8	17,7	82,3	1,9	7,6	70,8
Navoiy	37,8	62,2	5,2	24,4	31,7	37,8	62,2	5,2	24,4	31,7
Namangan	43,5	56,5	6,8	18,9	29,4	43,5	56,5	6,8	18,9	29,4
Samarqand	21,2	78,8	6,9	8,7	62,1	21,2	78,8	6,9	8,7	62,1
Surxondaryo	30,2	69,8	7,5	16,3	43,4	30,2	69,8	7,5	16,3	43,4
Sirdaryo	47,5	52,5	10,1	8,0	30,8	47,5	52,5	10,1	8,0	30,8
Toslikent	29,0	71,0	6,3	24,3	39,6	29,0	71,0	6,3	24,3	39,6
Farg'onha	41,7	58,3	7,0	21,2	27,0	41,7	58,3	7,0	21,2	27,0
Xorazm	40,9	59,1	6,6	19,0	31,5	40,9	59,1	6,6	19,0	31,5
Toshkent sh.										

5-ILOVA

Mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nofaol aholi bo'yicha taqsimlanishi

	2000	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020*
Jami mehnat resurslari	12469,0	16726,0	18276,1	18488,9	18666,3	18829,6	18949,0	19142,3
shahar	5211,6	9134,1	9768,4	9843,3	9949,5	10032,5	10052,7	
jamiga nisbatan foizda	41,8	54,6	53,4	53,2	53,3	53,3	53,1	
qishloq	7257,4	7591,9	8507,7	8645,6	8716,8	8797,1	8896,3	
jamiga nisbatan foizda	58,2	45,4	46,6	46,8	46,7	46,7	46,9	
iqtisodiy faol aholi	9018,4	12286,6	13767,7	14022,4	14357,3	14641,7	14876,4	14797,9
shahar	4181,3	6840,8	7442,8	7565,5	7474,4	7682,0	7838,2	
jamiga nisbatan foizda	46,4	55,7	54,1	54,0	52,1	52,5	52,7	
qishloq	4837,1	5445,8	6324,9	6456,9	6882,9	6959,7	7038,2	
jamiga nisbatan foizda	53,6	44,3	45,9	46,0	47,9	47,5	47,3	
iqtisodiy nofaol aholi	3450,6	4439,4	4508,4	4466,5	4309,0	4187,9	4072,6	4344,4
shahar	1030,3	2293,3	2325,6	2277,8	2475,1	2350,5	2214,5	
jamiga nisbatan foizda	29,9	51,7	51,6	51,0	57,4	56,1	54,4	
qishloq	2420,3	2146,1	2182,8	2188,7	1833,9	1837,4	1858,1	
jamiga nisbatan foizda	70,1	48,3	48,4	49,0	42,6	43,9	45,6	

6-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni

	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	ulardan:		Aholining iqtisodiy faoliyk darajasi ²⁾ , foizda	Aholining bandlik darajasi ³⁾ , foizda	Ishsizlik darajasi, foizda
		iqtisodiy otda bandlar	ishsizlar ¹⁾			
2020⁴⁾						
O'zbekiston Respublikasi	14797,9	13239,6	1558,4	73,9	66,1	10,5
Qoraqalpog'si- ton Respublikasi <i>viloyatlar:</i>	781,7	699,3	82,4	68,5	61,3	10,5
Andijon	1387,3	1236,7	150,6	75,3	67,1	10,9
Buxoro	876,7	783,6	93,1	75,9	67,8	10,6
Jizzax	598,9	533,1	65,8	74,1	66,0	11,0
Qashqadaryo	1334,2	1186,7	147,5	69,2	61,5	11,1
Navoiy	446,2	404,3	42,0	74,7	67,6	9,4
Namangan	1205,3	1078,0	127,3	71,9	64,4	10,6
Samarqand *	1585,4	1410,9	174,5	70,6	62,8	11,0
Surxondaryo	1104,1	982,0	122,0	71,4	63,6	11,1
Sirdaryo	375,1	333,7	41,4	73,1	65,0	11,0
Toshkent	1336,5	1195,6	140,9	77,2	69,0	10,5
Farg'onha	1613,9	1438,3	175,5	72,5	64,6	10,9
Xorazm	800,8	713,7	87,2	71,2	63,5	10,9
Toshkent sh.	1351,8	1243,7	108,1	90,4	83,2	8,0
2019						
O'zbekiston Respublikasi	14876,4	13541,1	1335,3	75,0	68,3	9,0
Qoraqalpo- g'siton Respublikasi <i>viloyatlar:</i>	782,2	711,3	70,9	69,2	63,0	9,1
Andijon	1413,9	1284,5	129,4	77,2	70,2	9,2
Buxoro *	875,4	797,1	78,3	76,2	69,3	8,9
Jizzax	590,3	536,2	54,1	74,0	67,2	9,2

Qashqadaryo	1345,3	1220	125,3	70,7	64,1	9,3
Navoiy	450,9	412,7	38,2	75,9	69,5	8,5
Namangan	1214,7	1104,6	110,1	73,2	66,5	9,1
Samarqand	1604,2	1455,8	148,4	72,1	65,4	9,3
Surxondaryo	1128,8	1024,2	104,6	74,0	67,2	9,3
Sirdaryo	385,9	350,1	35,8	76,1	69,0	9,3
Toshkent	1353,5	1232,9	120,6	78,5	71,5	8,9
Farg'ona	1644,8	1492,6	152,2	74,5	67,6	9,3
Xorazm	810	736,5	73,5	72,8	66,2	9,1
Toshkent sh.	1276,5	1182,6	93,9	86,9	80,5	7,4

2018

O'zbekiston Respublikasi	14641,7	13273,1	1368,6	74,3	67,4	9,3
Qoraqalpo-g'iston Respublikasi	779,5	705,2	74,3	69,5	62,9	9,5
viloyatlar:						
Andijon	1401,6	1266,8	134,8	77,0	69,6	9,6
Buxoro	887,7	810,1	77,6	77,4	70,7	8,7
Jizzax	539,4	486,6	52,8	68,3	61,6	9,8
Qashqadaryo	1353,3	1222,0	131,3	71,7	64,8	9,7
Navoiy	446,3	407,7	38,6	75,8	69,2	8,7
Namangan	1162,6	1051,5	111,1	70,5	63,8	9,6
Samarqand	1620,6	1463,3	157,3	73,4	66,3	9,7
Surxondaryo	1089,3	984,0	105,3	72,2	65,2	9,7
Sirdaryo	390,7	354,2	36,5	77,7	70,5	9,3
Toshkent	1349,8	1227,7	122,1	78,5	71,4	9,0
Farg'ona	1606,6	1451,0	155,6	73,1	66,0	9,7
Xorazm	786,0	711,8	74,2	71,3	64,6	9,4
Toshkent sh.	1228,3	1131,2	97,1	84,1	77,5	7,9

2017

O'zbekiston Respublikasi	14357,3	13520,3	837,0	73,5	69,2	5,8
Qoraqalpo-g'iston Respublikasi	688,8	647,2	41,6	62,0	58,3	6,0
viloyatlar:						
Andijon	1404,1	1319,2	84,9	77,7	73,0	6,0
Buxoro	874,6	826,5	48,1	76,7	72,5	5,5

432

Jizzax	492,6	468,2	24,4	63,1	60,0	5,0
Qashqadaryo	1296,6	1218,0	78,6	69,6	65,4	6,1
Navoiy	445,7	422,4	23,3	76,4	72,4	5,2
Namangan	1099,0	1034,9	64,1	67,3	63,4	5,8
Samarqand	1629,8	1523,1	106,7	74,6	69,7	6,5
Surxondaryo	1062,7	991,7	71,0	71,3	66,6	6,7
Sirdaryo	371,9	353,1	18,8	74,9	71,1	5,1
Toshkent	1360,9	1289,6	71,3	79,4	75,2	5,2
Farg'ona	1630,5	1525,7	104,8	74,7	69,9	6,4
Xorazm	773,3	729,3	44,0	71,0	66,9	5,7
Toshkent sh.	1226,8	1171,4	55,4	84,6	80,8	4,5

2016

O'zbekiston Respublikasi	14022,4	13298,4	724,0	72,5	68,7	5,2
Qoraqalpo-g'iston Respublikasi	675,1	638,6	36,5	61,5	58,1	5,4
viloyatlar:						
Andijon	1375,2	1297,7	77,5	76,6	72,3	5,6
Buxoro	872,4	825,3	47,1	77,1	72,9	5,4
Jizzax	480,8	454,8	26,0	62,4	59,1	5,4
Qashqadaryo	1247,0	1180,9	66,1	67,9	64,3	5,3
Navoiy	444,2	421,8	22,4	76,7	72,8	5,0
Namangan	1057,9	1001,4	56,5	65,4	61,9	5,3
Samarqand	1575,7	1485,1	90,6	72,9	68,7	5,7
Surxondaryo	1018,3	961,5	56,8	69,3	65,4	5,6
Sirdaryo	368,5	352,4	16,1	75,0	71,7	4,4
Toshkent	1342,4	1287,6	54,8	78,6	75,4	4,1
Farg'ona	1596,6	1508,3	88,3	73,6	69,6	5,5
Xorazm	754,7	713,3	41,4	70,1	66,3	5,5
Toshkent sh.	1213,6	1169,7	43,9	84,1	81,0	3,6

2015

O'zbekiston Respublikasi	13767,7	13058,3	709,4	71,9	68,2	5,2
Qoraqalpo-g'iston Respublikasi	665,4	630,0	35,4	61,4	58,1	5,3
viloyatlar:						
Andijon	1347,3	1271,7	75,6	75,7	71,5	5,6
Buxoro	872,4	824,2	48,2	77,7	73,4	5,5
Jizzax	465,4	441,4	24,0	61,3	58,1	5,2
Qashqadaryo	1210,0	1143,9	66,1	67,0	63,3	5,5
Navoiy	443,6	421,2	22,4	77,1	73,2	5,0

433

Namangan	1022,1	968,8	53,3	63,8	60,5	5,2
Samarqand	1530,6	1443,9	86,7	71,6	67,6	5,7
Surxondaryo	984,5	930,8	53,7	68,0	64,3	5,5
Sirdaryo	369,1	350,9	18,2	75,9	72,2	4,9
Toshkent	1336,0	1281,8	54,2	78,5	75,3	4,1
Farg'ona	1570,9	1485,3	85,6	73,1	69,1	5,4
Xorazm	735,5	696,0	39,5	69,4	65,6	5,4
Toshkent sh.	1214,6	1168,1	46,5	84,3	81,1	3,8

7-ILOVA

Mehnat resurslari tarkibi

	2000	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020*
Mehnat resurslari	12469,0	16726,0	18276,1	18488,9	18666,3	18829,6	18949,0	19142,3
doimiy aholiga nisbatan, foizda	50,6	58,6	58,4	58,1	57,6	57,1	56,4	55,9
shu jumladan:								
mehnatga layoqatli yoshdagи mehnatga layoqatli aholi	12245,4	16533,9	18167,7	18371,7	18549,0	18712,1	18857,6	19052,0
doimiy aholiga nisbatan, foizda	49,7	57,9	58,0	57,7	57,3	56,8	56,2	55,7
mehnat resurslariga nisbatan, foizda	98,2	98,9	99,4	99,4	99,4	99,4	99,5	99,5
mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagи ishlovchilar	223,6	192,1	108,4	117,2	117,3	117,5	91,4	95,1
doimiy aholiga nisbatan, foizda	0,9	0,7	0,4	0,4	0,3	0,3	0,3	0,3
mehnat resurslariga nisbatan, foizda	1,8	1,1	0,6	0,6	0,6	0,6	0,5	0,5

8-ILOVA

Aholi daromadlari to'g'risida ma'lumot¹

Nº	Ko'rsatkichlar nomi	2000 u.	2010 u.	2015 u.	2018 u.	2019 u.	2020 uil yanvar-dekabr. ²
1.	Aholi umumiy daromadlari, mlrd. so'm	2377,4	50436,5	158699,8	282762,5	346461,5	401501,5
	o'tgan yilga nisbatan, % da	157,9	132,9	112,0	128,1	122,5	115,9
2.	Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'm	96,4	1765,8	5070,5	8580,0	10317,4	11728,8
	o'tgan yilga nisbatan, % da	155,8	129,2	110,1	125,9	120,2	113,7
3.	Aholi real umumiy daromadlari, mlrd. so'm	1902,8	46891,5	150397,8	240587,5	302507,2	355531,3
	o'tgan yilga nisbatan, % da	126,4	123,6	106,1	109,0	107,0	102,6
4.	Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so'm	77,2	1641,7	4805,2	7300,2	9008,4	10385,9
	o'tgan yilga nisbatan, % da	124,7	120,1	104,3	107,1	105,0	100,7

¹ 2000-2010-yillar uchun pul daromadlari, 2011-yildan umumiy daromadlar ko'rsatilgan, 2015-yildan aniqlik kiritilgan ma'lumotlar

² Dastlabki ma'lumotlar

9-ILOVA

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar¹

	2000 y.	2010 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020-yil yanvar-dekabr. ²
O'zbekiston Respublikasi	77,2	1641,7	4805,2	5503,5	6227,8	7300,2	9008,4	10385,9
Qoraqalpog'ston Respublikasi viloyatlar:	48,4	1209,3	3427,9	3856,1	4497,1	5460,1	6891,1	8121,1
Andijon	91,0	1526,8	4446,4	5187,7	6010,2	6922,9	8571,7	9548,3
Buxoro	70,5	2020,4	5836,4	6657,8	7707,8	9305,2	11085,5	12742,3
Jizzax	45,3	1196,3	4288,4	4873,5	5574,6	6859,0	8022,2	9385,1
Qashqadaryo	58,3	1461,3	4148,1	4908,9	5505,3	6287,6	7672,0	8699,4
Navoiy	98,8	3021,6	7928,9	8874,4	9783,5	11437,6	14303,6	17314,6
Namangan	53,3	1209,3	3699,3	4252,7	4911,9	5618,3	6973,7	8063,9
Samarqand	61,9	1455,0	4151,9	4953,8	5608,5	6550,9	7754,3	9323,8
Surxondaryo	52,5	1279,6	4130,9	4560,6	5054,7	6193,9	7569,8	8539,4
Sirdaryo	59,9	1611,8	5141,3	5988,4	5806,5	6546,1	8262,4	9194,7
Toshkent	70,9	1653,1	5507,7	6008,3	6570,1	7615,8	9350,5	11133,5
Farg'on'a	85,7	1385,5	4084,9	4508,6	4899,0	5824,5	6876,6	7734,3
Xorazm	61,0	1572,9	4582,4	5220,3	6306,2	7666,7	9442,2	10693,7
Toshkent sh.	187,6	3167,1	8486,1	10086,8	11770,1	13447,4	18023,2	20367,4

¹ 2000-2010-yillar uchun pul daromadlari, 2011-yildan umumiy daromadlar ko'rsatilgan, 2015-yildan aniqlik kiritilgan ma'lumotlar

² Dastlabki ma'lumotlar

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB . Makroiqtisodiyotga kirish.....	7
1.1.“Makroiqtisodiyot” fanining shakllanishi tarixi, predmeti va obyekti.....	7
1.2. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari.....	12
1.3. “Resurslar– tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xurajatlar”ning doiraviy oqimi modeli.....	16
II BOB. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar	21
2.1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar.....	21
2.2. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari.....	22
2.3. YalMni ishlab chiqarish usulida aniqlash.....	28
2.4. YalMni xarajatlar bo‘yicha hisoblash.....	32
2.5. YalMni daromadlar(taqsimot usuli) bo‘yicha hisoblash.....	34
2.6.Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko‘rsatkichlar va ular o‘rtasidagi nisbat.....	36
2.7. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar.....	38
2.8. Nominal va real YalM.....	41
III BOB. Iqtisodiy tebranish. Ishsizlik.....	58
3.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari.....	58
3.2. Mehnat bozori, ishsizlik tushunchasi, ishsizlikning turlari, o‘lchanishi va to‘la bandlik.....	62
3.3. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. A. Ouken qonuni.....	68
3.4.O‘zbekiston Respublikasida ishsizlar sonini hisoblash metodiksi.....	72
IV BOB. Inflyatsiya va inflyatsiyaga qarshi siyosat.....	82
4.1. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari.....	82
4.2. Inflyatsiyaning turlari. Talab va taklif inflyatsiyasi.....	84
4.3. Inflyatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik. Fillips egri chizig‘i.....	87

4.4.. Aksilinflyatsiya siyosati va uni amalga oshirish xususiyatlari..	89
V BOB. Yalpi talab va yalpi taklif modeli.....	99
5.1.AD-AS modeli haqida tushuncha.....	99
5.2.AD egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar.....	100
5.3. AS egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar.....	105
5.4. AD-AS modelida narxlar va milliy ishlab chiqarish real hajmining muvozanatli darajaları.....	108
VI BOB. Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari.....	119
6.1. Daromad va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.....	119
6.2. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari.....	121
6.3. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha va chegaraviy moyillik.....	125
6.4. Investitsiyalar va ularga talab.....	127
VII BOB. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli.....	138
7.1. Klassik iqtisodchilarning iqtisodiy muvozanat nazariyasi.....	138
7.2. Keynsning iqtisodiy muvozanat nazariyasi.....	141
7.3. Klassik iqtisodchilar va keynschilar iqtisodiy muvozanat nazariyalarida jami talab va uning o'zgarishi.....	145
7.4. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar. "Keyns xochi". Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi.....	147
7.5. Keynsning bandlik nazariyasi. Mustaqil xarajatlar multiplikatori.....	150
VIII BOB. Davlat byudjeti, soliqlar va davlat qarzi.....	161
8.1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi.....	161
8.2. Davlat byudjeti. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari.....	162
8.3. Soliq tizimi va uning vazifalari.....	168
IX BOB: Byudjet-soliq siyosati.....	177
9.1. Byudjet-soliq siyosatning mohiyati, usullari va davlat xarajatlar multiplikatori	177
9.2. Soliq va balanslashgan byudjet multiplikatorlar.....	178
9.3.Fiskal siyosat turlari.....	180

9.4. Byudjet ortiqchaligini kamaytirish va byudjet kamomadini moliyalashtirish usullari	184
X BOB. Pul bozoridagi muvozanat.....	193
10.1. Pul taklifi modeli.....	193
10.2. Pul bozorida muvozanatga erishish va pul multiplikatori.....	195
10.3. Monetar siyosatning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari)....	199
10.4. Majburiy zaxira siyosati	206
11 BOB. Pul-kredit siyosati.....	218
11.1. Pul tushunchasi, uning funksiyalari.....	218
11.2. Pul agregatlari.....	219
11.3. Pul-kredit siyosati.....	221
11.4. Pul-kredit siyosati va uni amalga oshirish vositalari.....	224
11.5. Davlat pul-kredit siyosatining asoslari.....	229
XII BOB .IS-LM modeli.....	237
12.1. IS – egri chizig‘i va uning o‘zgaruvchilari.....	237
12.2. LM – egri chizig‘i va uning o‘zgaruvchilari.....	239
12.3. IS-LM modeli va undagi makroiqtisodiy muvozanat.....	242
XIII BOB. Iqtisodiy o‘sishning umumiy tafsifi va neokeynscha modellari.....	253
13.1. Iqtisodiy o‘sish tushunchasi.....	253
13.2. Iqtisodiy o‘sish o‘lchovi: potensial va haqiqiy daromad dinamikasi	255
13.3. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar.....	256
13.4. Iqtisodiy o‘sish modellari va Robyert Solou modeli	260
13.5. Iqtisodiy o‘sish turlari.....	263
XIV BOB. Xalqaro savdo nazariyası. Tashqi savdo siyosati.....	273
14.1. Xalqaro savdo nazariyasiga turli yondashuvlar.....	273
14.2. Xalqaro savdo rivojlanishining ahamiyati va uning asosiy ko‘rinishlari.....	278
14.3. Tashqi savdo kontraktlarini tuzish va ularning turlari.....	280
14.4. Savdo siyosatining mohiyati. Bojxona ta’riflari nazariyası.....	282

14.5. Bojxona ta'riflarining ishlab chiqaruvchilarga, iste'molchilarga va mamlakat aholisi turmush darajasiga ta'siri.....	286
14.6. Proteksionizm siyosatning vazifalari va mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati.....	287
14.7. Import kvotalari va litsenziyalarini taqsimlash uslublari.....	289
XV BOB. To'lov balansi. Valyuta kursi	297
15.1. To'lov balansi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi.....	297
15.2. To'lov balansining nomutanosibligini tartiblash usullari.....	301
15.3. Valyuta tizimi va to'lov balansini tartibga solish.....	303
15.4.. Valyuta kursi tushunchasi va valyuta ayirboshlash zaruriyati..	305
15.5 Valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari.....	307
15.6. Valyuta kursini aniqlovchi omillar.....	311
15.7. Valyuta kursini aniqlash.....	313
15.8. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kurslariga ta'siri.....	315
XVI BOB. Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat. Mendell – Fleming modeli	327
16.1. Yopiq va ochiq iqtisodiyot tushunchasi.....	327
16.2.Davlatning iqtisodiy funksiyalari va bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvining zarurligi.....	328
16.3. Davlat tomonidan yuritiladigan makroiqtisodiy siyosatlarning ko'rinishlari.....	330
16.4. Resurslar va daromadlarni ijtimoiy manfaatlarni e'tiborga olgan holda qayta taqsimlash.....	333
16.5. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining monetar yo'nalishlari.....	334
XVII BOB. Iqtisodning davlat томонидан tartibga solish vositalari.....	340
17.1. Ma'muriy vositalar.....	340
17.2. Pul – kredit va byudjet iqtisodiy vositalari.....	343
17.3. Jadallashtirilgan amortizatsiya.....	345
17.4. Jadallahsgan amortizatsiya samarasi.....	348

17.5. Davlat sektori.....	349
XVIII BOB.”YAshil iqtisodiyot” shakllantirish asosida makro-iqtisodiy ko’rsatkichlarning barqaror o’sishini ta’minlash.....	352
18.1.Ekologik muammolar va iqtisodiyot.....	352
18.2.Insonning ishlab chiqarish faoliyatining ekologik oqibatlari.....	354
18.3.Ekologiya va iqtisodiyotning o’zaro aloqadorligi va bir-biriga kirishuvchanligi.....	359
18.4.Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi konsepsiyalari.....	361
18.5.“YAshil” texnologiyalar va iqtisodiyot.....	368
18.6. Energiyaning muqobil manbalari va ularning iqtisodiyotga ta’siri.....	371
XIX BOB. Raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy jarayondagi amaliy mohiyati.....	379
19.1.Raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko’rsatkichlarni shakllantirish-dagi ahamiyati.....	379
19.2.Raqamli iqtisodiyotning asosiy shartlari.....	389
19.3.Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy ahamiyati.....	391
19.4.O’zbekistonning raqamli iqtisodiyoti.....	394
Glossoriy.....	406
Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar xamda axborot manbalari....	417
Hlovalar.....	420

Оглавление

Введение.....	3
ГЛАВА 1. Введение в макроэкономику	7
1.1. История, предмет и объект становления предмета «Макроэкономика»	7
1.2. Методы исследования в макроэкономике	12
1.3. Модель кругооборота «ресурсы – товары и услуги» и «доходы – расходы»	16
ГЛАВА 2. Основные макроэкономические показатели	21
2.1. Основные показатели, используемые при анализе национальной экономики	21
2.2. Понятие валового внутреннего продукта и основные условия его расчета	22
2.3. Определение ВВП по производственному методу	28
2.4. Расчет ВВП по расходам	32
2.5. Расчёт ВВП по доходам (метод распределения).	34
2.6. Другие показатели в национальной системе бухгалтерского учета и соотношение между ними.....	36
2.7. Основные макроэкономические характеристики	38
2.8. Номинальный и реальный ВВП	41
ГЛАВА 3: Экономическая нестабильность. безработица	58
3.1.Экономические циклы и причины экономических колебаний.....	58
3.2. Рынок труда, понятие безработицы, виды безработицы, измерение и полная занятость	62
3.3. Экономические последствия безработицы. Закон А. Оукена	68
3.4. Методика расчета численности количества безработных в Республике Узбекистан	72

ГЛАВА 4. Инфляция и антиинфляционная политика	82
.....
4.1. Сущность инфляции и методы расчета	82
4.2. Виды инфляции. Инфляция спроса и предложения	84
4.3. Связь между инфляцией и безработицей. Кривая Филлипса..	87
4.4 Антиинфляционная политика и особенности ее реализации	
.....
	89
ГЛАВА 5: Модель совокупного спроса и совокупного предложения	99
.....
5.1. Концепция модели AD-AS	99
5.2 Кривая AD и факторы, влияющие на нее	100
5.3. Кривая AS и влияющие на нее факторы	105
5.4. Цены и реальный объем отечественного производства в модели AD-AS равновесные уровни.....	108
ГЛАВА 6: Функции потребления, сбережений и инвестиций	119
.....
6.1. Взаимосвязь между доходом и потреблением	119
6.2. Расход и накопление, их графики	121
6.3. Средняя и предельная склонность к потреблению и сбережению	125
6.4. Инвестиции и спрос на них.....	127
ГЛАВА 7. Модель макроэкономического равновесия Кейнса на рынке товаров и услуг	138
.....
7.1. Теория экономического равновесия экономистов-классиков.....	138
7.2. Теория экономического равновесия Кейнса	141
7.3. Классические экономисты и кейнсианцы в теориях экономического равновесия общий спрос и его изменение	145
7.4. Фактические и плановые затраты. «Крест Кейнса». к равновесному уровню объемов производства	147
7.5.Теория занятости Кейнса. Мультипликатор автономных затрат.....	150

ГЛАВА 8. Государственный бюджет, налоги и государственный долг	161
8.1. Сущность и функции финансов. Финансовая система.....	161
8.2. Бюджет государства. Бюджетный дефицит и государственный долг	162
8.3. Налоговая система и ее функции	168
ГЛАВА 9:Бюджетно-налоговая политика.....	177
9.1.Сущность, методы бюджетно-налоговой политики и мультипликатор государственных расходов.....	177
9.2. Мультипликатор налогов и сбалансированного бюджета	178
9.3. Виды фискальной политики	180
9.4. Способы сокращения профицита бюджета и финансирования дефицита бюджета.....	184
ГЛАВА 10.Равновесие на денежном рынке	193
10.1. Модель денежной массы	193
10.2. Равновесие на денежном рынке и денежный мультипликатор	195
10.3. Целевые ориентиры (индикаторы) денежно-кредитной политики.....	199
10.4. Политика обязательных резервов	206
ГЛАВА 11. Денежно-кредитная политика	218
11.1. Понятие денег, их функции	218
11.2. Денежные агрегаты	219
11.3. Денежно-кредитная политика	221
11.4.Денежно-кредитная политика и способы ее реализации	224
11.5. Основы государственной денежно-кредитной политики...	229
ГЛАВА 12.Модель IS-LM.....	237
12.1. IS – кривая и ее переменные	237
12.2. LM – кривая и ее переменные	239
12.3. Модель IS-LM и ее макроэкономическое равновесие	242

ГЛАВА 13. Общее описание и неокейнсианские модели	
экономического роста	253
3.1. Концепция экономического роста	253
13.2. Измерение экономического роста: динамика потенциальных и реальных доходов	255
13.3. Факторы, влияющие на экономический рост	256
13.4. Модели экономического роста и Модель Роберта Солоу	260
13.5. Типы экономического роста	263
ГЛАВА 14. Теория международной торговли. Внешнеторговая политика .	273
14.1. Различные подходы к теории международной торговли	273
14.2. Важность развития международной торговли и ее основные проявления	278
14.3. Заключение внешнеторговых контрактов и их виды	280
14.4. Суть торговой политики. Теория таможенных тарифов	282
14.5. Влияние таможенных тарифов на производителей, потребителей и уровень жизни населения страны	286
14.6. Задачи протекционистской политики и ее значение для экономики страны	287
14.7. Способы распределения импортных квот и лицензий	289
ГЛАВА 15. Платежный баланс Курс обмена	297
15.1. Понятие платежного баланса и его структура	297
15.2. Методы сортировки дисбалансов платежного баланса	301
15.3. Валютная система и регулирование платежного баланса ..	303
15.4. Понятие обменного курса и необходимость обмена валюта	305

15.5. Методы государственного регулирования валютного рынка	307
15.6. Факторы, определяющие обменный курс	311
15.7. Определение обменного курса	313
15.8. Влияние макроэкономической политики на номинальный и реальный обменные курсы	315
ГЛАВА 16. Макроэкономическая политика в открытой экономике. Модель Менделла – Флеминга	327
16.1. Концепция закрытой и открытой экономики	327
16.2. Экономические функции государства и необходимость вмешательства в развитие рыночной экономики	328
16.3. Виды макроэкономической политики, проводимая государством	330
6.4. Перераспределение ресурсов и доходов с учетом социальных интересов	333
16.5. Денежно-кредитные аспекты государственного вмешательства в экономику	334
ГЛАВА 17. Средства государственного регулирования экономики	340
17.1. Инструменты администрирования	340
17.2. Деньги – экономический инструмент кредита и бюджета	343
17.3. Ускоренная амортизация	345
17.4. Эффект ускоренной амортизации	348
17.5. Государственный сектор	349
ГЛАВА 18. Обеспечение устойчивого экономического роста макроэкономических показателей на основе формирования «зеленой экономики»	352
18.1. Экологические проблемы и экономика	352
18.2. Экологические последствия производственной деятельности человека	354

18.3. Взаимосвязь и взаимозависимость экологии и экономики	359
18.4 Новые концепции мирового экономического развития.....	361
18.5. «Зеленые» технологии и экономика	368
18.6. Альтернативные источники энергии и их влияние на экономику.....	371
ГЛАВА 19. Практическое значение цифровой экономики в макроэкономических процессах	379
Роль цифровой экономики в формировании макроэкономических показателей	379
19.2. Основные условия цифровой экономики	389
19.3.Экономическое значение цифровой экономики	391
19.4. Цифровая экономика Узбекистана	394
Глоссарий.....	406
Основная и дополнительная литература и источники информации.....	417
Приложения	420

Table of contents

Introduction.....	3
CHAPTER 1. Introduction to Macroeconomics	7
1.1. History, subject and object of formation of the subject "Macroeconomics"	7
1.2. Research methods in macroeconomics	12
1.3. Circulation model "resources – goods and services" and "Income – expenses".....	16
CHAPTER 2 Main Macroeconomic Indicators	21
2.1. The main indicators used in the analysis of the national economy	21
2.2. The concept of gross domestic product and its basic conditions calculation	22
2.3. Determination of GDP by the production method	28
2.4. Calculation of GDP by expenditure	32
2.5. Calculation of GDP by income (distribution method).	34
2.6. Other indicators in the national accounting system and the relationship between them	36
2.7. Main macroeconomic characteristics	38
2.8. Nominal and real GDP.....	41
CHAPTER 3: Economic instability. unemployment	58
3.1. Business Cycles and Causes of Economic Fluctuations	58
3.2. Labor market, unemployment concept, types of unemployment, Measurement and full employment	62
3.3. The economic consequences of unemployment. A. Okun's Law	68
3.4. Methodology for calculating the number of unemployed in the Republic of Uzbekistan.....	72
CHAPTER 4. Inflation and anti-inflationary policy	82
4.1. The essence of inflation and calculation methods	82
4.2. Types of inflation. Demand and supply inflation	84
4.3. The relationship between inflation and unemployment. Phillips Curve	87

4.4 .. Anti-inflationary policy and peculiarities of its implementation.....	89
CHAPTER 5: Aggregate Demand and Aggregate Supply Model	99
.....	99
5.1. Concept of the AD-AS model	99
5.2 AD Curve and Factors Affecting It	100
5.3. AS curve and factors influencing it	105
5.4. Prices and real volume of domestic production in the AD-AS model equilibrium levels.....	108
CHAPTER 6: Functions of Consumption, Saving and Investment	119
.....	119
6.1. The relationship between income and consumption	119
6.2. Consumption and accumulation, their schedules	121
6.3. Average and marginal propensity to consume and save	125
6.4. Investments and demand for them.....	127
CHAPTER 7. Keynes's model of macroeconomic equilibrium in the market for goods and services	138
7.1. The theory of economic equilibrium of classical economists	138
7.2. Keynes' theory of economic equilibrium	141
7.3. Classical economists and Keynesians in the theories of economic equilibrium, total demand and its change	145
7.4. Actual and planned costs. Keynes's Cross. to the equilibrium level of production volumes	147
7.5. Keynes's theory of employment. Autonomous cost multiplier.....	150
CHAPTER 8. State budget, taxes and public debt	161
8.1. The essence and function of finance. Financial system	161
8.2. State budget. Fiscal Deficit and Public Debt	162
8.3. Tax system and its functions	168
CHAPTER 9: Fiscal Policy. Essence, methods of fiscal policy and public expenditure multiplier	177

9.1. Essence, methods of fiscal policy and public expenditure multiplier.....	177
9.2. Tax and Balanced Budget Multiplier.....	178
9.3. Types of fiscal policy	180
9.4. Ways to reduce budget surplus and financing budget deficit	184
CHAPTER 10 Equilibrium in the money market	193
10.1. Money Supply Model	193
10.2. Money Market Equilibrium and the Money Multiplier	195
10.3. Target benchmarks (indicators) of monetary policy	199
10.4. Required reserves policy	206
CHAPTER 11 Monetary Policy	218
11.1. The concept of money, their functions	218
11.2. Monetary aggregates	219
11.3. Monetary policy	221
11.4. Monetary policy and methods of its implementation	224
11.5. Fundamentals of State Monetary Policy one	229
CHAPTER 12 IS-LM Model	237
12.1. IS – curve and its variables	237
12.2. LM – curve and its variables	239
12.3. IS-LM model and its macroeconomic equilibrium.....	242
CHAPTER 13. General Description and Neo-Keynesian Models economic growth	253
13.1. The concept of economic growth	253
13.2. Measuring economic growth: dynamics of potential and real income	255
13.3. Factors Affecting Economic Growth	256
13.4. Models of economic growth	260
13.5 The Robert Solow Model	263
CHAPTER 14. The theory of international trade. Foreign trade politics	273
14.1. Different approaches to the theory of international trade	273

14.2. The importance of the development of international trade and its main manifestations	278
14.3. Conclusion of foreign trade contracts and their types	280
14.4. The essence of trade policy. Theory of customs tariffs	282
14.5. Influence of customs tariffs on producers, consumers and the standard of living of the country's population	286
14.6. The objectives of protectionist policies and their implications for economy of the country	287
14.7. Methods of Distribution of Import Quotas and Licenses	289
CHAPTER 15. Balance of payments Exchange rate	297
15.1. The concept of the balance of payments and its structure	297
15.2. Methods for sorting balance of payments imbalances	301
15.3. Currency system and balance of payments regulation	303
15.4. The concept of the exchange rate and the need for currency exchange	305
15.5. Methods of state regulation of the foreign exchange market ..	307
15.6. Factors Determining the Exchange Rate	311
15.7. Determination of the exchange rate	313
15.8. Impact of Macroeconomic Policy on Nominal and Real Exchange Rates	315
CHAPTER 16. Macroeconomic policy in an open economy.	
Mendell – Fleming model	327
16.1. The concept of a closed and open economy	227
16.2. Economic functions of the state and necessity interventions in the development of a market economy	328
16.3. Types of macroeconomic policies pursued by the state.....	330
16.4. Redistribution of resources and income, taking into account social interests.....	333
16.5. Monetary aspects of government intervention in the economy	334
CHAPTER 17. Means of state regulation of the economy	340

17.1. Administration Tools	240
17.2. Money is an economic instrument of credit and budget	343
17.3. Accelerated depreciation	245
17.4. The effect of accelerated amortization	248
17.5. Government sector.....	249
HAPTER 18. Ensuring sustainable economic growth of macroeconomic indicators based on the formation of a "green economy".....	252
18.1 Environmental Issues and Economics	252
18.2. Environmental consequences of human production activities	254
18.3. Interrelation and interdependence of ecology and economics	259
18.4.New concepts of world economic development.....	361
18.5. Green technologies and economics	268
18.6. Alternative energy sources and their impact on the economy.....	371
CHAPTER 19. The practical significance of the digital economy in macroeconomic processes	379
19.1.The role of the digital economy in the formation of macroeconomic indicators	379
19.2. Basic conditions of the digital economy	389
19.3. The economic significance of the digital economy	391
19.4. Digital economy of Uzbekistan	394
Glossary.....	406
Basic and additional literature and sources of information.	417
Applications.....	420

**N.M. MAXMUDOV, A.B. SHAKAROV,
X.A. ULASHEV, J.A.SHAKAROV**

MAKROIQTISODIYOT (Darslik)

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2022**

Muharrir:	M. Hayitova
Tex. muharrir:	A. Moydinov
Musavvir:	A. Shushunov
Musahhih:	L. Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M. Zoyirova

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

Bosishga ruxsat etildi 05.09.2022.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 29,0. Nashriyot bosma tabog'i 28,25.

Tiraji: 50. Buyurtma № 115

«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.